## **TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KELIB CHIQUADIGAN NIZOLARDA ADVOKATNING MEDIATOR SIFATIDAGI ROLI**

**Qudrat Matkarimov Qalandarovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura” kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlari doktori

E-mail: [matkarimovkudrat79@gmail.com](mailto:matkarimovkudrat79@gmail.com)

**Isoxonov Javlonxon Hasan o‘g‘li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolarga mediatsiya tartib-tamoyillarini qo‘llash muhokama qilinadi. Mediatsiyaning joriy etilishi bugungi kunning tabiiy tendentsiyasi, tadbirkorlik sohadagi nizolarni hal etish, nizolashayotgan tomonlarga ko‘proq mos keladigan natijani olish imkonini beruvchi vosita ekanligi ta’kidlandi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolarda advokatlar rolini oshirish masalasi yoritildi. Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir etishi va bunda munosabatlarni saqlab qolish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi nuqtayi na’zaridan yondoshildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Mediatsiya, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolar, advokatning medaitorlik faoliyati, mediator, huquqiy nizo va nizolarni muqobil hal etish, konflikt.*

## **THE ROLE OF A LAWYER AS A MEDIATOR IN DISPUTES ARISING FROM THE IMPLEMENTATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY**

**Kudrat Matkarimov Kalandarovich,**

Acting Associate professor of the Department of Judicial, law enforcement agencies and advocacy, Tashkent State University of Law, (DSc)

E-mail: [matkarimovkudrat79@gmail.com](mailto:matkarimovkudrat79@gmail.com)

**Isokhonov Javlonkhon Khasan ugli,**

Master of Tashkent State University of Law,

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

## ABSTRACT

*The article discusses the application of mediation procedures in business disputes. It was noted that the introduction of mediation is a natural trend today, a means of resolving business disputes, a tool that allows the parties to the conflict to get a more appropriate outcome. The issue of increasing the role of lawyers in disputes arising in the conduct of business activities was highlighted. It was approached from the point of view of the fact that disputes between business entities affect the country's economy and that maintaining relations is of great economic importance.*

**Keywords:** *Mediation, business disputes, attorney's mediation, mediator, legal dispute and alternative dispute resolution, conflict.*

## РОЛЬ АДВОКАТА КАК ПОСРЕДНИКА В СПОРАХ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Қудрат Маткаримов Қаландарович,**

Ю.ф.д., и.о. доцент кафедры суд, правоохранительные органы и  
адвокатуры, Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: [matkarimovkudrat79@gmail.com](mailto:matkarimovkudrat79@gmail.com)

**Исахонов Жавлонхон Хасан угли,**

Магистр Ташкентского государственного юридического университета,

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

## АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается применение процедуры медиации в хозяйственных спорах. Отмечено, что внедрение медиации сегодня является естественной тенденцией, средством разрешения споров в сфере предпринимательства, инструментом, позволяющим сторонам конфликта добиться более благоприятного исхода. Был освещен вопрос повышения роли юристов в спорах, возникающих при ведении предпринимательской деятельности. К нему подошли с точки зрения того, что споры между хозяйствующими субъектами влияют на экономику страны и что поддержание отношений имеет большое экономическое значение.*

*Ключевые слова: Медиация, хозяйственные споры, адвокатское посредничество, медиатор, правовой спор и альтернативное разрешение споров, конфликт.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda advokatlar orasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolarga mediatsiya tartib-tamoyillarini qo'llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan foydalanish zarurati milliy sud-huquq tizimining nomukammalligi va samarasizligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, nizolarni muqobil hal etish masalasi sud qarorini ijro etishning amalda imkonsizligi, bu esa sud qarorlarini ijro etishning samarali mexanizmining yo'qligi bilan bog'liqligi bilan ham dolzarbdir. Nizolarni hal qilishning eng keng tarqalgan muqobil usullaridan biri bu mediatsiyadir. Sudning istalgan bosqichida mediatsiyani qo'llash mumkinligi va hatto ijro bosqichida ham mediatsiya tartibida kelishuvga erishish ham mumkindir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada mediatsiya – oilaviy nizolarini hal etishning muqobil usuli va uning bugungi kundagi xususiyatlari, xorij tajribalari hamda mediatorlarga qo'yilgan talablar haqida fikrlar tahlil qilindi. Xorij davlatlarining «Mediatsiya to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi 2018-yil 03-iyul 482-O'RQ va "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori metodologik manba bo'lib belgilandi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Iqtisodiy sud ishlarida mediatsiyani qo'llash oxirgi paytga kelib ko'plab duch kelish mumkin. Ma'lumki, iqtisodiy sudlarda da'vo tartibidagi ishlarda mediatsiyani qo'llash mumkin. Chunki bu turdagi ishlarda taraflar o'rtasida nizo mavjud bo'ladi. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishning turlariga quyidagilar kiradi:

- da'vo tartibidagi ishlar;
- buyruq tartibida ko'riladigan ishlar;
- alohida tartibda yuritiladigan ishlar.

Da'vo tartibidagi ishlarda huquq to'g'risida nizo mavjud bo'ladi. Masalan, uy-joy, korporativ va bankrotlik bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan

ishlar kiradi. Ushbu ishlarda taraf sifatida da'vogar va javobgar ishtirok etadi. Buyruq tartibida ko'riladigan ishlarda huquq to'g'risida nizo mavjud bolmaydi. Mazkur ishlarda taraflar undiruvchi va qarzdor nomlanadi. Ushbu ishlar bo'yicha sud majlisi bo'lmaydi va sud arizaga ilova qilingan hujjatlar asosida o'zi nomidan 5 kun ichida sud buyrug'i chiqaradi. Alohida tartibida ko'riladigan ishlarda huquq to'g'risidagi nizo bo'lmaydi, biror bir shaxsga nisbatan da'vo ham qo'zg'atilmaydi, arizachi sudga faqat o'z muddaosini bildiradi va uning arizasi asosida ish qo'zg'atiladi. Agar sud alohida tartibda ish ko'rayotganida manfaatdor shaxs biron-bir huquq to'g'risidagi nizo qo'zg'atsa, sud arizani ko'rmasdan qoldiradi va arizachiga umumiy tartibda murojaat qilish huquqini tushuntiradi. [1]

Mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining navbatdagi bosqichining maqsadi ham aynan mediatorlar ishtirokida nizolarni muqobil hal qilish usullarining rivojlanishiga huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan, deb bemalol ayta olamiz. Mediatsiya vaqt, mablag' va eng asosiysi — emotsional resurslarni tejashga olib keladi.

Mediatsiya jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi taraflar nizolashishini to'xtatib, yaqinlashish protsessi tomon yo'naltiradi, ya'ni yarashuv bitimini tuzishga imkon yaratadi. Ushbu afzalliklar amaliyotga mediatsiya institutini kiritish, muqobil yo'llar yordamida nizolarni sudgacha hal qilish tartibini keng tatbiq qilish vaqti keldi, deb hisoblashga asoslar yetarli ekanligini ko'rsatadi.

O'z navbatida, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun kuchga kirgunga qadar nizolarni sudgacha hal qilishni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni qaytadan ko'rib chiqish talab etiladi. Jumladan, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun [2]normalarini ishlashini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi[3], Fuqarolik protsessual kodeksi[4], Iqtisodiy protsessual kodeksi[5], Soliq kodeksi, "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunlarga[6] tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarurati tug'iladi. Shuningdek, vazirliklar va idoralar tomonidan idoralararo aloqalarni tashkil etishda qo'llaniladigan normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish lozim. Ayni paytda bu boradagi ishlar bo'yicha tegishli choralar ko'rish belgilandi.

Umuman, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi nizolarni sudgacha hal qilish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishning tizimli va kompleksligini ta'minlab, nizolarni sudgacha hal qilishni amalga oshirishda samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratadi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar rivojlanib borar ekan, bozor munosabatlarining sub'ektlari o'rtasida turli nizolar vujudga kelishi ham

turgan gap. Amaliyot ham tadbirkorlik faoliyati huquqiy munosabatlardan kelib chiqayotgan nizoli holatlar kam emasligini ko'rsatmoqda. Bu kabi nizolashayotgan taraflar masalaning yechimini topish maqsadida an'anaviy yo'lni tanlashga, ya'ni sudga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi. Sudga murojaat qilishda albatta ko'pchilik advokat maslahatini olishi sir emas. Shu nuqtayi nazardan advokatlarning mediatorlik faoliyatini rag'batlantirish sudlarda ish hajmining kamayishi va nizoni muqobil tarzda hal qilish imkonini beradi. Bu holatda taraflar o'zlari uchun optimal bo'lgan yechimni tanlashadi. Bu esa ma'lum ma'noda munosabatlarning saqlanib qolishiga olib keladi. [2]

Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya — yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham chinakam bozor mexanizmlarining joriy qilinishi va amalga oshirilishi bozor munosabatlarning har bir sohasini tartibga soluvchi zarur huquqiy zamin yaratilishini talab qiladi.

Amaliyotga tatbiq etilgan O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni muomalaga mediatsiyaga oid yangi tushunchalarni olib kirishi barobarida, jamiyat hayotining yana bir sohasini huquqiy jihatdan tartibga soladigan bo'ldi. Ayni paytda O'zbekiston nizolarni hal qilishning muqobil usuli, mediatsiyadan foydalanishning dastlabki bosqichida turibdi. [2]

Bugungi kunda O'zbekistonda mediatsiyaga o'xshash yarashtiruv protseduralari turli nizolarni hal etishda qo'llanilib kelinadi. Jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan nizolashayotgan taraflarni, xususan, qo'shnilar o'rtasidagi nizolar, oilaviy nizolar yarashtirish faoliyatini ham mediatsiya namoyoni sifatida ko'rish mumkin. Jamiyatimizda avvaldan mahalla raislari qo'shnilar, oila a'zolari, er-xotin o'rtasidagi nizolarni hal etish vazifasini, ya'ni mediator vazifasini bajarishgan.

Mediatsiya to'g'risidagi qonunda uning amal qilish sohasi ham aniq belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, qonun fuqarolik huquqiy munosabatlar, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan, shuningdek, yakka mehnat nizolari va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan amal qilishi belgilandi. O'z navbatida, Qonun mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchinchi shaxslarning huquqlari, qonuniy hamda ijtimoiy manfaatlariga daxl qiladigan yoki daxl qilishi mumkin bo'lgan nizolarga nisbatan amal qilmasligi istisno tariqasida berildi.

Qonunning 5-moddasida mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilandi. [2]

Maxfiylik prinsipini ta'minlash uchun mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan axborotlarni, ushbu ma'lumotlarni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emasligi haqida qat'iy norma kiritildi.

Ixtiyoriylik prinsipi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, mediatsiya taraflarning nizoni mediatsiyani qo'llash to'g'risidagi kelishuvda ifodalangan o'zaro ixtiyoriy xohish-istagi bo'lgan taqdirda qo'llanilishi, mediatsiya taraflari mediatsiyani qo'llashdan uning istalgan paytida voz kechishga haqli ekanligi ham qonunda o'z ifodasini topdi.

Shu bilan birga, mediatsiya jarayonida ularning teng huquqliligini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib, bu borada aniq normalar kiritildi.

Yana bir muhim jihat. Mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirishda mediatorning xolisligi ta'minlanishi ham nizoni hal qilish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qonunda mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirishda mediatorning faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga, mediator xolis bo'lishi, mediatsiya tartib-taomillarini taraflarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishi va mediatsiyada ularning teng ishtirokini ta'minlashi, taraflarga o'z majburiyatlarini bajarishi hamda o'zlariga berilgan huquqlarni amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi kerakligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, u mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirishdan voz kechishi kerakligi ko'zda tutildi.

Bugungi kunda amaliyotda tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarda mediatsiya institutidan davlat bojini qaytarib olish maqsadida foydalanish holatlari ko'plab uchraydi. Mediatsiya to'g'risidagi qonunda advokatlarning sud bosqichida ham ishni mediator sifatida ko'rishi uchun hech qanday ta'qiq yo'q. Bunday holatlarda ham advokatlarning mediatorlik vazifasini bajarishi taraflar uchun manfaatli yechim topish uchun xizmat qiladi.

Mediatsiya tartib tamoyilini amalga oshirish istagini bildirgan barcha tomonlar tomonidan bajarilishi va amalga oshirilishi majburiy bo'lgan muayyan ***tamoyillarga asoslanadi*** :

- ixtiyoriylik tamoyili, ya'ni barcha tomonlar mediatsiyadan foydalanishga rozi bo'lishlari kerakligidan iborat;

- maxfiylik printsipli. Aslida, mediatsiya jarayonini qo‘llash va o‘tkazishning o‘zi maxfiy jarayondir;
- mediatorning mustaqilligi va xolisligi;
- taraflarning tengligi printsipli - tomonlarning birortasi ham afvzalliklarga ega emas;
- mediatsiya nizolarni hal etishning sud tartibidan farqli ravishda moslashuvchan jarayondir.

Yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarning toifalari ayniqsa qiyin:

Birinchidan, yuridik shaxslar ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar yuridik shaxsning o‘ziga, uning mulkiy holatiga, kadrlar tarkibiga, boshqaruv usullari va shakllariga va hokazolarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, yuridik shaxslarda ishtirokchilarning nizolari, qoida tariqasida, hissiy asosga ega bo‘lib, tez va muvozanatsiz qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Uchinchidan, yuridik shaxslarning ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolar yuridik shaxsning obro‘si va imidjiga, uning tizimli faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa tashkilotda nosozliklarga, ba’zan esa yuridik shaxs o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilmasligiga olib keladi.

To‘rtinchidan, ziddiyatli yuridik shaxslar ishtirokchilari, qoida tariqasida, yo aktivni taqsimlashni yoki olingan dividendlar foizini oshirishni yoki yuridik shaxs tuzilmasidagi strategik o‘zgarishlarni maqsad qilib qo‘yadilar, bu esa ziddiyatning avj olishidan kelib chiqib, yuridik shaxs tuzilmasida strategik o‘zgarishlarni amalga oshiradi. yuridik shaxsning istalmagan tarzda tugatilishi va (yoki) qayta tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu toifadagi nizolarning murakkabligini hisobga olsak, milliy sud tizimi ularni to‘g‘ri va yuridik shaxsning o‘zi uchun ijobiy oqibatlar bilan hal qila olmaydi. Bundan tashqari, milliy sudlar yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda yuridik shaxs manfaatlarini hisobga olishni maqsad qilmaydi; sudning maqsadi - tomonlar o‘rtasidagi ziddiyatni amaldagi qonun hujjatlari doirasida hal qilishdir.

Yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mediatsiya institutidan foydalanish aniq. Uning foydali jihatlari quyidagilardan iborat:

mediatsiya – yuridik shaxs ishtirokchilari uchun nizolarni ixtiyoriy hal etish mexanizmi;

– mediatsiya jarayoni nizoni sudda hal qilishdan kamroq vaqtni oladi va ba’zan ancha arzonroq;

– mediatsiya jarayonidan foydalanish yuridik shaxs ishtirokchilari, uning ishchanlik obro‘si va imiji o‘rtasida normal munosabatlarni saqlab qolish imkoniyatlarini oshirishga ta‘sir ko‘rsatdi;

– mediatsiya jarayoni vaziyatning oshkora bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi, bu esa yuridik shaxs xodimlari o‘rtasida mavjud muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatishning oldini oladi;

– mediatsiyadan foydalanish yuridik shaxsning o‘zi uchun maqbul va ijobiy bo‘lgan nostandart va moslashuvchan echimlarni topish va qabul qilishga olib keladi;

– mediatsiya jarayoni uning ishtirokchilari o‘rtasidagi ziddiyat tufayli yuridik shaxsga, xususan, uning obro‘si, imiji, tashkiliy-funksional tuzilishiga salbiy ta‘sirni sezilarli darajada kamaytiradi;

– mediatsiya sud qarori emas, balki ikki tomonning manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilingan qarordir. [2]

**Asosiy vazifalardan biri** yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mediatsiya jarayonini qo‘llash yuridik shaxsning mol- mulkini saqlab qolishdan iborat bo‘lishi kerak. Nizo taraflari mediator yordamida mavjud nizoning yuridik shaxsning mulkiga barcha mumkin bo‘lgan salbiy ta‘sirini tushunishlari va tasavvur qilishlari kerak. Bunday holda bevosita mediatsiya jarayoni yuridik shaxs uchun salbiy oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yuridik shaxs ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mediatsiyadan foydalanishning ijobiy maqsadi uning maqsadi hisoblanadi. Shunday qilib, **mediatsiyaning maqsadi** ikkala nizolashayotgan tomonlarni ham qoniqtiradigan yechimga erishishdir. Ya‘ni, sud qaroridan farqli o‘laroq, mediatsiya nizoni hal qilishga qaratilgan, aybdorni javobgarlikka tortish emas. Bundan tashqari, mediator uchun maqsad qoniqishga erishish bo‘lishi kerak - muammoni hal qilish natijasida barcha tomonlar uchun qoniqish. [7]

Bundan tashqari, Mediator bo‘lgan shaxs o‘zi uchun ba‘zi **xususiyatlarni eslab qolishi kerak** :

1. Mediatorning mijozi yo‘q. Mediatorning mijozi muammodir va mediator muammo bilan ishlaydi va uni hal qiladi.

2. Mediator hissiyotlar bilan ishlaydi, chunki yuridik shaxslar ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar hissiy asosga ega.

3. Mediator uchun salbiy bilan ishlash odatiy jarayondir.

4. Mediator har ikki tomon bilan teng sharoitda ishlashi kerak.

5. Mediator nizoni hal etishning eng maqbul yo‘lini topish uchun nizoning mohiyatini va uning sababini aniqlashi muhim ahamiyatga ega.



6. Hal qilingan nizo natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror har ikki tomon uchun ham maqbul bo'lishi kerak.

7. Mediator taraflarning o'zlari uchun qabul qilgan qarorining mohiyatiga aralashmasligi bilan birga, mediator betaraf bo'lishi kerak.

8. Mediator tomonlarning "ekstremal nuqtalarini" topishi kerak, lekin tomonlar o'zlari o'zaro kelishuvga kelishlari kerak. Agar tomonlar umumiy yechim topmasalar, mediator o'z yechimini taklif qilishi mumkin - *mediatorning taklifi* . [8]

Shuningdek, mediator esda tutishi kerakki, har bir mediatsiya nizo tomonlari o'rtasida tuziladigan va ikkala tomon imzolagan mediatsiya shartnomasi bilan yakunlanishi kerak.

***Mediatsiya shartnomasida quyidagi majburiy shartlar bo'lishi kerak:***

- shartnoma shartlari;
- kelishuvni amalga oshirish usullari;
- shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun tomonlarning javobgarligi;
- taraflarning sudga bormaslik majburiyati;
- tomonlarning shartnomani so'zsiz bajarish majburiyati;
- mediatsiya tartibini qo'llash bo'yicha taraflarning xarajatlarini taqsimlash shartlari.

Yuridik shaxs ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun sud tizimidan foydalanishni birinchi o'ringa qo'yadigan advokatlar shuni yodda tutishlari kerakki, mediatsiyadan farqli o'laroq, mijozning barcha xohish-istaklarini sudda hal qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, sud yuridik shaxsning mol-mulkini, uning tashkiliy-funksional tuzilishini, imiji va obro'sini saqlab qolishni maqsad qilmaydi. Bundan tashqari, mediatsiya jarayonida tomonlar o'z talablarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. [8]

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni qabul qilinib 2019-yildan boshlab kuchga kirgandan boshlan tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarda samarali qo'llanilib kelinmoqda. Biroq mediatsiya haqida tushuntirilishlar berilishi amalga oshirilmaganligi sababli tushunmovchiliklar uchrab turmoqda.

Agarda Sudlar tomonidan mediatsiya tartib-taomillariga bo'lgan talabni oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar ko'rilishi maqsadga muvofiq amalga oshirilsa, jumladan, mediatsiya tartib-taomillari va mediatsiya natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni sud binolarida joylashgan stendlarda, bukletlarda joylashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar ijobiy jihat sifatida qayd etildi. Shuningdek, sudlarning veb-saytlarida maxsus bo'limlarda ham targ'ibotlar berilishi lozim. Ushbu tartiblar orqali

yangi mediatsiya institut boshqa turgadi nizolarda ham qo'llanilishiga imkon yaratilgan bo'ladi.

### **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak, tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan nizolarni mediatsiya tartib tamoyili orqali hal qilish va bunda advokatlarning ro'lini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Aynan tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan nizolar qiymatining yuqoriligi va iqtisodiyot barqarorligiga ta'sirini hisobga oladigan bo'lsak masalaning ahamiyati yanada oshadi. Mediatsiyaning maqsadi ikkala nizolashayotgan tomonlarni ham qoniqtiradigan yechimga erishishdir. Ya'ni, sud qaroridan farqli o'laroq, mediatsiya nizoni hal qilishga qaratilgan, aybdorni javobgarlikka tortish emas. Bundan tashqari, mediator uchun maqsad qoniqishga erishish bo'lishi kerak - muammoni hal qilish natijasida barcha tomonlar uchun qoniqishdir. Tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarda bunday muqobil yechimga erishish tadbirkorlik subyektlarining kelgusi faoliyatini davom ettirishlari uchun zamin yaratadi.

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020 y., 07/20/4754/0771-son)
2. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni, 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son/
3. <https://lex.uz/docs/-111189>
4. <https://lex.uz/docs/-3517337>.
5. <https://lex.uz/acts/-3523891>
6. <https://www.lex.uz/docs/-1072079?otherlang=1>
7. Craig R. Smith, Mediation: The Process and the Issues, Industrial Relations Center, Canada, 1998
8. Judicial council of California, Alternative dispute resolution in civil cases, Report of the task force on the quality of justice sub-committee on alternative dispute resolution and the judicial system, Judicial council of California, 1999

## **O'ZBEK TILIDA FREZELOGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI**

**Pratova Gulshoda O'tkirbek qizi**

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

[pratovagulshoda2002@gmail.com](mailto:pratovagulshoda2002@gmail.com)

**To'xtasinova Naimaxon Raxmonjon qizi**

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

[naimaxontokhtasinova@gmail.com](mailto:naimaxontokhtasinova@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola o'zbek tilidagi frezeologizmlarning kognitiv-pragmatik semantikasidagi sinonimya hodisasi haqida nazariy ma'lumotlar va ularning hozirgi tilshunoslikdagi ahamiyatiga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** Frezeologizmlar, kognitiv, pragmatika, semantika, sinonimya, barqaror birikmalar.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to theoretical information on the phenomenon of synonymy in cognitive-pragmatic semantics of phraseologisms of the Uzbek language and their importance in the current linguistics.*

***Keywords:** milling, cognitive, pragmatics, semantics, synonymia, stable compounds.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена теоретическим сведениям о феномене синонимии в когнитивно-прагматической семантике фразеологии узбекского языка и их значении в современном языкознании.*

***Ключевые слова:** фразеологизмы, когнитивные, прагматические, семантика, синонимы, устойчивые соединения.*

### **KIRISH**

Og'zaki hamda yozma nutq shakllanishida har tomonlama uni mukammalligini oshirib, yanada unga joziba baxsh etuvchi birliklardan biri bo'lgan frezeologizmlar adabiy tilni mukammallashtirib uni yanada go'zallashtiradi, qaysidir ma'noda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni qiziqarli, o'zgacha hamda isboti bilan chiroyli dialog bo'lishida

frezeologizmlarning ahamiyati beqiyos. Ularning tilshunoslikdagi sintaktik strukturasi keng qamrovlidir, ya'ni bir frezeologizm ega, kesim va gapning boshqa bo'laklari sifatida kelishi ma'lum. Bundan tashqari, frezeologizmlarning semantik strukturasi ham tilshunosligimizda hozirgi kunda yuqori baholanmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, belgi, harakat kabilar haqida frezeologizm ifodalaydigan ma'lumot **frezeologik ma'no** deyiladi. Misol uchun: Bu yerda ekaningizni eshitib, ko'zimga hech narsa ko'rinmadi.(O) Agar mana shu tanlovda ham yutib chiqsak, oshig'imiz olchi bo'lardi.(J) Bundan ko'rinadiki, birinchi gapda frezeologizm harakat, ikkinchi gapda belgi semalarini ifodalamoqda.[3.139]

Frezeologizmlar, so'zlar kabi, yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabi) semalarni ifodalasa-da, lekin frezeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frezeologizmlar so'zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frezeologik ma'no bilan leksik ma'no bir biriga teng bo'lmay qolishi kuzatiladi. Misollar: *O'taketgan- uchiga chiqqan, beqiyos ( juda) , yer bilan osmoncha, albatta- turgan gap, hech qachon- ikki dunyoda ham, yashirin( qilingan ish)- yeng ichida.* Keltirilgan frezeologizmlar o'z sinonimlari bo'lgan so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan obrazlilik semasini ifodalamoqda.[4.140]

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda frezeologizmlarni so'zlar, so'z birikmalari hamda gaplar bilan sinonimyasi har tomonlama keng o'rganilib, tadqiq etib chiqilgan. Frezeologizmlarning o'rganilishi, ulardan foydalanish nafaqat bir tilda balki, boshqa tillarda ham qo'llashda ularning sintaktik tuzilishida va asosan, semantikasida kuchli o'zgarish kuzatiladi. Misol uchun: Ingliz tilida muloqot qilayotgan shaxslar ma'lum frezeologik birliklardan foydalanishda ularni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilolmaydi. Bu holat avtomatik tarjima jarayonida semantikaning keskin o'zgarishiga va bildirilayotgan fikrni mazmunan noto'g'riligi, shaxslar o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Bunday holat nafaqat, ingliz balki, barcha tillarga xosdir, ammo bu katta muammo tug'dirmaydi, chunki har bir tilda aynan o'sha tuzulish bo'lmasada, ularning muqobil ekvivalenti mavjud bo'ladi.

Davrlar o'tishi mobaynida insoniyat ongining rivojlanishi, biror bir o'rganilayotgan narsaning, fanning faqatgina bir tomonlama o'rganilishidan chetlashadi, hamda uni yanada chuqurroq o'rganishga intiladi. Frezeologizmlarning semantik holatlari vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib bormoqda bu esa, kognitiv-pragmatik sohaning rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. [3.125] Ma'lumki, pragmatika muayyan bir

so'zlarning tag ma'nolarini o'rganadi, shunday ekan, frezeologizmlarning ham semaviy pragmatik holatlari mavjud.[2.133] Misol tariqasida;

*Tavuzi qo'ltig'idan tushdi* iborasini oladigan bo'lsak, aslida, bu ibora bo'lib, uning ma'nosi hayratlanmoq so'ziga to'g'ri keladi, lekin uning semasi gapga teng strukturani, ya'ni shakl va mazmun jihatdan muvofiqlashadi, ammo hozirgi kunda ushbu iboraning pragmatikasi *Ahmoq, biror ishni eplab bajarolmaydigon insonlarga nisbatan ham ishlatilmoqda.*

*Arpasini xom urmoq, hamda mushugini pisht demoq* – bu ikki ibora o'zaro sinonim hisoblanib, so'z birikmasi tipidagi iboralar sirasiga kiradi, ma'nosi xafa qilmoq so'z birikmasiga to'g'ri keladi, ammo ular pragmatik holatidagi semasi jihatidan farqlanadi, ya'ni arpasini xom urmoq deyilganda ko'pincha hiylagar, nayrangvoz, hamisha odamlarni chuv tushirib, ketadigon insonlarga nisbatan qo'llanadi. *Mushugini pisht demoq* – o'z va ko'chma ma'noda qo'llanilib, xafa qilmoq, arazlamoq semalari bilan sinanimik qatorni tashkil etadi, lekin pragmatik jihatidan esa, uning semasi biror bir insonga nisbatan qo'llanilib uni o'ziga aytilganda unga yoqmaydigan hamda o'sha inson bilan tengma- teng olishib, unga til orqali ziyon yetkazishni o'ylaydigonlarga nisbatan ishlatiladi. Ko'rinadiki, yuqoridagi ikki gaplarda ham salbiy sema ifodalanmoqda, lekin ularning pragmatik sinonimiyasida farq qiladi, ammo ikkalasi ham boshqa birliklar bilan bir pragmatik sinonimiyani tashkil etadi.

*Afting qurg'ur* – bu so'z birikmasi tipidagi ibora bo'lib, asl sinonimik qatori sifatida yuzi shuvut bo'lgan, yuziga qarab bo'lmaydigon, ma'nolarni anglatadi, ammo uning hozirgi kundagi kognitiv-pragmatik semasi sifatida *kiyim-boshi bir ahvol* insonga, ya'ni o'ziga qaramay yuradigan insonga nisbatan ishlatiladi. Bundan tashqari, uning yana bir semasi sifatida *dunyoqarashi tor bo'lgan insonlarga* nisbatan ham qo'llanilmoqda. Anglashilinadiki, aft so'zi o'z sinonimi bo'lgan yuz so'ziga nisbatan emas balki, pragmatik sathda u bilan bir sinanimik qatorni hosil qilayotgan „kiyim-bosh“ hamda “dunyoqarashi tor” insonlarga nisbatan qo'llanilishi kuzatilmoqda.

*Quloq soldi* – so'z birikmasi tipidagi iboralar sirasiga kirib, *tingladi, aytganini qildi* ma'nolari bilan sinonimiyani tashkil etadi, ammo bugungi kunda uning pragmatik sinonimiyasi sifatida *gap poylamoq, atayin boshqasiga gap yetkazish maqsadida poylab eshtish* ma'nosi hamda aynan mana shu iborani birgina quloq so'zini ifodalash orqali ham mana shu ma'noni bilish mumkin, shuning uchun har ikkisi semantik jihatidan, bir pragmatik sinonimiyaga qatorini tashkil etadi

## **XULOSA**

Frezeologizmlar haqida fikr yuritilganda, o'zbek tilida ularni keng miqqiyosda o'rgangan olim sifatida Sh.Rahmatullayevni xizmatlari beqiyos ekanligi haqida

to'xtal may iloji yo'q.[1.213] U o'zining qator asarlarida frezeologizmlarning uch xil semantik tasnifidan voz kechilishi va frezeologizmlarni tuzilish tomonining tasnifi haqida keyinchalik esa, frezeologizmlarning semantik tasnifi bo'yicha ham qator izlanishlar olib borganligi ma'lum. Hozirgi kunda, aynan, mana shu tadqiqotlar asosida barqaror birikmalarni semantik tasnifini chuqur o'rganilgan holda, ularni pragmatik bosqichda o'rganish darajasiga erishildi. Bunga asos sifatida yuqorida keltirilgan kognitiv-pragmatik sinonimyalarni ko'rish mumkin. Bu esa, tilshunosligdagi ikki soha, ya'ni pragmatika hamda frezeologizmlarni yanada chuqurroq va teranroq anglash imkonini berdi.

#### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek frezeologiyasining ba'zi masalalari. Toshkent. 1966.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. 1978.
4. Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1980.
5. Тухтасинова Н.Р. (2021) “ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРЕТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР”. “Экономика и социум” №2(81) ч.2. 2021.
6. То'хтасинова N.R. “Uyat” konsepti tadqiqi. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ. 2021-йил, 2-сон. Рр. 361-364.

## **СИЙДИК ПУФАГИ ЛЕЙКОПЛАКИЯСИДА АНТИАПОПТОЗ ОҚСИЛ Bcl-2 НИНГ ЭКСПРЕССИЯЛАНИШ ДАРАЖАСИ**

**Сахаталиева Райхона Рафаэлевна**

АДТИ Патологик анатомия ва суд тиббиёти кафедраси ассистенти

**Исроилов Ражаббой Исроилович**

Республика Патологик анатомия маркази директори, т.ф.д. профессор

**Маматалиев Авазбек Рузиваевич**

АДТИ Патологик анатомия ва суд тиббиёти кафедраси мудири, т.ф.н. доцент

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу ишда сийдик пуфаги лейкоплакиясининг турли даврларида антиапоптоз оқсил Bcl-2 экспрессияланиши даражаси аниқланган. Натижалар шуни кўрсатдики, назорат гуруҳида сийдик пуфаги қопловчи эпителийсида бу оқсил фақат базал қаватида кам даражада экспрессияланиши аниқланди. Лейкоплакия ривожланишининг дастлабки I – даври, ўзгарувчан эпителийда метапластик жараённинг пайдо бўлиш даврида, эпителийнинг акантоз ривожланган базал қавати ҳужайраларида Bcl-2 оқсилнинг экспрессияланиши юқори даражага кўтарилди. Лейкоплакиянинг II – даврида эпителийнинг барча қават ҳужайралари метаплазияланиб, вертикал ҳолда жойлашганлиги, уларнинг базал ва оралиқ қаватлар ҳужайраларида Bcl-2 оқсилнинг нисбатан кўпроқ даражада экспрессияланиши, касалликнинг III – даврида бу оқсилнинг экспрессияланиши яна ҳам кучайганлиги кузатилади.*

**Калит сўзлар:** сийдик пуфаги, цистит, лейкоплакия, иммуногистохимия, Bcl-2 оқсил.

### **ABSTRACT**

*In this study, the degree of expression of the antiapoptotic protein Bcl-2 at different stages of bladder leukoplakia was determined. The results showed that in the control group, in the urinary bladder epithelium, this protein was found to be less expressed only in the basal layer. In the first I-stage of leukoplakia development, during the onset of the metaplastic process in the variable epithelium, a high level of Bcl-2 protein expression was observed in the cells of the basal layer of the epithelium where acanthosis developed. In stage II of leukoplakia, all epithelial cells are metaplasia and located vertically, their basal and interstitial cells express relatively high levels of Bcl-2 protein, and in stage III of the disease, the expression of this protein is even higher.*

**Keywords:** bladder, cystitis, leukoplakia, immunohistochemistry, Bcl-2 protein.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данном исследовании определяли степень экспрессии антиапоптотического белка Bcl-2 на разных стадиях лейкоплакии мочевого пузыря. Результаты показали, что в контрольной группе в эпителии мочевого*

*пузыря этот белок оказался менее экспрессированным только в базальном слое. На первой I стадии развития лейкоплакии, в период начала метапластического процесса в варибельном эпителии, наблюдался высокий уровень экспрессии белка Bcl-2 в клетках базального слоя эпителия, где развился акантоз. При II стадии лейкоплакии все эпителиоциты метаплазированы и расположены вертикально, их базальные и интерстициальные клетки экспрессируют относительно высокие уровни белка Bcl-2, а при III стадии заболевания экспрессия этого белка еще выше.*

**Ключевые слова:** мочевого пузырь, цистит, лейкоплакия, иммуногистохимия, белок Bcl-2.

### **КИРИШ**

Инсоннинг 18-хромосомада жойлашган, 16-та оксиллардан антиапоптоз хусусиятига эга бўлган Bcl-2 доменнинг б-оксил - апоптоз жараёнини секинлаштирадиган гомологик оксил ҳисобланади. Молекуляр вазни 22 кДадан иборат бу оксил ҳужайра ва ядро мембранаси, саркоплазма ва митохондрия мембранасида жойлашган [2, 4, 7]. Бу оксилнинг гиперэкспрессияси кальций ионлари чиқишини тўхтатади ва липоперексидацияни секинлаштириб, антиоксидантлик фаолиятни тўхтатади, ҳамда NO-синтетаза фаоллигини секинлаштиради. Bcl-2нинг асосий функцияси митохондрийлардаги антиапоптоз молекулалари бўлган цитохром C, AIF, АТФ-ларни пора тешиклари орқали чиқишларини тўхтатади. Bcl-2 митохондрийнинг мембранасига ёпишган ҳолда пора тешикларни ёпади, проапоптоз сигналларни тўхтатиб қўяди ва апоптоз ривожланмайди [1, 3, 8].

Сийдик пуфаги лейкоплакияси турли патологик омиллар таъсирида ривожланиши мумкин, натижада сийдик пуфагида ривожланган сурункали касалликларда қопловчи эпителийси дастурланган апоптоз жараёни оқибатида нодуд бўлиб туради. Лекин аксарият ҳолларда сурункали касалликлар оқибатида ҳужайраларнинг апоптоз жараёни секинлашиши ва тўхтаб қолиши мумкин. Шунинг учун, биз ўз тадқиқотимизда сийдик пуфаги лейкоплакиясида қопловчи эпителий ҳужайраларидаги антиапоптоз оксили Bcl-2ни ўрганишни мақсад қилиб олдик. Bcl-2 фаоллигининг ошиши сийдик пуфагининг бир қатор касалликларида, жумладан лейкоплакияда ҳам кузатилади. Сийдик пуфаги лейкоплакия касаллигида шиллиқ ости бириктирувчи тўқимали қаватида аксарият ҳолларда яллиғланиш, дисрегенератор жараёнлар ривожланганлиги оқибатида қопловчи эпителийсида ҳам ҳужайраларнинг дифференциалланиши бузилиб, кўпинча орқада қолиб, базал қават ҳужайраларининг пролифератив фаоллиги ошади ва уларда антиапоптоз оксил Bcl-2 фаоллашиши мумкин. [2, 5, 6].



## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР**

Материал сифатида Фарғона водийсида яшовчи, анамнезида сурункали цистит (50,5%), сийдик пуфаги бўйни цистити (27,5,0%), интерстициал цистит (12,0%), цисталгия (10%) билан касалланган аёллардан цистоскопия усулида олинган сийдик пуфаги шиллик пардаси биопсияси олинди.

Касаллар ёши 20-дан 82 ёшгача бўлиб, ўртача ёши 41,3 ёш. Касалликларининг давомийлиги 6 ойдан 8 йил, ўртача  $2,7 \pm 0,9$  ни ташкил қилди. Биопсия бўлакчалари 10% нейтралланган формалинда 48 соат қотирилди. Сувсизлантириш концентрацияси ошиб борувчи спиртларда ва хлороформда ўтказилди. Гистологик кесмалар дастлаб топографиясини аниқлаш учун гематоксилин ва эозинда бўялди. Кейин парафин ғиштчалардан олинган бир қатор кесмаларда депарафинизация, дегидротация, демаскировка ва антигенларда бўяшни махсус автоматлаштирилган Ventana Benchmark XT, Roche, Швейцария тизимида ўтказилди. Vc12 антителалар ёрдамида аниқланди.


## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Сийдик пуфаги қопловчи эпителийсида юз берадиган патоморфологик ва иммуногистокимёвий ўзгаришларни аниқлаш учун, дастлаб назорат гуруҳи сифатида сийдик пуфагида ҳеч қандай патологияси йўқ инсонлардан олинган биопсия материали ўрганилди. Кейин, лейкоплакиянинг клиник-морфологик шакллари ва ривожланиш даврлари бўйича сийдик пуфаги шиллик пардаси ва қопловчи эпителийсидаги патоморфологик ва иммуногистокимёвий ўзгаришлар бир-бири билан солиштирилган ҳолда ўрганилди.


Назорат гуруҳ инсонлар сийдик пуфаги шиллик пардаси қопловчи эпителийси одатдагидай кўп қаватли ўзгарувчан эпителийдан иборатлиги ва унинг базал қаватда жойлашган эпителий хужайралари нисбатан йирик, гиперхромли, базал мембранага тизилиб жойлашганлиги, ядроларининг аксарияти авал ва чўзинчоқ шаклдалиги аниқланди. Кўп қаватли эпителийнинг юза қатламларида хужайралар нисбатан сийракланганлиги, ядролари ҳам ўлчамлари кичиклашганлиги, ҳам бўялиши очлашганлиги, жойланиши яссиланганлиги кузатилди. Эпителий хужайранинг антиапоптоз оксилени аниқлаш бўйича ўтказилган иммуногистокимёвий текширув натижалари кўрсатишича назорат гуруҳида фақат базал мембранада жойлашган нисбатан ёш ва камбиал даражадаги айрим хужайралар цитоплазмасида жуда паст даражада бу оксилнинг экспрессияланганлиги, бошқа оралик ва юза қаватлари хужайраларида экспрессияланиш йўқлиги кузатилди (1-расм).

Тадқиқотнинг навбатдаги вазифаси, лейкоплакиянинг турли даврларида эпителий хужайралари пролифератив фаоллиги ошган сари антиапоптоз оксил Vc1-2-нинг экспрессияланиш даражаси ўрганилганда қуйидаги маълумотлар аниқланди. Лейкоплакия ривожланишининг дастлабки даври ўзгарувчан эпителийда метапластик жараёнларнинг пайдо бўлиши билан белгиланади. Бунда кўп қаватли эпителий қатламлари сони ошади, юза қаватлар эпителийси

яссиланиб, хужайралар цитоплазмасида гликоген ва прокератин миқдорининг кўпайиши ҳисобига пуфакчасимон кўринишга киради. Иммуногистокимёвий текшириш натижасида сийдик пуфаги шиллиқ пардаси кўп қаватли ўзгарувчан эпителийсининг пролифератив фаоллиги ошганлиги сабабли базал қисмида кучли акантоз ривожланиши, базал қават эпителийси остидаги бириктирувчи тўқимали қаватга тўплам-тўплам бўлиб ўсиб кирганлиги кузатилди.




1-расм. Сийдик пуфаги, меёр, Bcl-2 оқсили базал қават айрим хужайраларида паст даражада эскпрессияланган. Бўёқ: иммуногистохимия. Кат: 10x40.




2-расм. Сийдик пуфаги, лейкоплакия I-даража, Bcl-2 оқсили базал қават ва оралик қават айрим хужайраларида эскпрес-сияланган. Бўёқ: иммуногистохимия. Кат: 10x40.


Кўп қаватли ўзгарувчан эпителийни умумий ҳолда кўрилганда, базал қавати хужайраларининг 1-қаторида Bcl-2 паст даражада, оч жигар рангли цитоплазматик киритма кўринишида эскпрессияланганлиги кузатилди (2-расм). Кўп қаватли эпителийнинг ўрта ва юза қатламлари хужайралари цитоплазмаси гидропик дистрофияга учраб, вакуоллашганлиги сабабли, уларнинг айримларида локал ҳолда Bcl-2 оқсили эскпрессияланиши бошлаганлиги кузатилди. Микроскопнинг катта объективида ўрганилганда сийдик пуфаги шиллиқ пардаси қапловчи эпителийси лейкоплакиясининг биринчи даврида базал қават эпителийсидан ташқари деярлик барча ўрта ва юзаки қаватлар эпителийси метаплазияга учраганлиги, яъни ҳам яссиланиб, ҳам гидропик дистрофияга учраб, вакуоллашганлиги аниқланди. Натижада бундай метаплазияланиб ўзгарган айрим хужайралар цитоплазмаси таркибида Bcl-2 ядро мембранасида пайдо бўлганлиги, жигар рангли киритма ядрога зич ҳолда аниқланди (3-расм). Бу морфологик ва иммуногистокимёвий ҳолат эпителий хужайраларининг пролиферацияланиб, антиапоптоз оқсили пайдо бўлганлигини кўрсатди.



3-расм. Сийдик пуфаги, лейкоплакия I-даража, Bcl-2 оксиди оралиқ қават эпителий хужайралари ядросига яқин экспрессияланган. Бўёқ: иммуногистохимия. Кат: 10x100.



4-расм. Сийдик пуфаги, лейкоплакия II-даража, Bcl-2 базал қавати 2-3 қаторида экспрессияланган. Бўёқ: иммуногистохимия. Кат: 10x40.



5-расм. Сийдик пуфаги, лейкоплакия III-даража, Bcl-2 базал ва оралиқ қаватларнинг аксарият хужайраларида экспрессияланган. Бўёқ: иммуногистохимия. Кат: 10x40.

Сийдик пуфаги шиллик пардаси қопловчи эпителийси лейкоплакиясининг II – даври, яъни эпителий хужайралари кўриниши ва шаклининг ўзгариши даврида ўзгарувчан эпителий кўп қаватли ясси эпителийга айланганлиги ва деярлик барча хужайраларининг вертикал ҳолда жойлашганлиги аниқланди. Базал қават хужайралари нисбатан майда ва тўқ бўялган эпителийдан иборатлиги, юза қатлам хужайралари нисбатан йирик ва цитоплазмасида кератогиалиннинг кўпайиши ҳисобига шишиб, йириклашганлиги кузатилди. Касалликнинг ушбу II – давридаги иммуногистокимёвий текширув шуни кўрсатдики, I – даврдан фарқли ўлароқ, бу даврда базал қаватда жойлашган 2-3 қатор ва оралиқ қаватлар хужайраларининг айримлари цитоплазмасида тўқ жигар рангли кўринишда Bcl-

2 оқили экспрессияланганлиги аниқланди (4-расм). Бу ҳолат шундан далолат берадики, лейкоплакиянинг II – даврида базал ва оралик қаватлар эпителийсининг пролифератив фаоллиги ошганлиги, Bcl-2 оқил митохондрийнинг мембранасига ёпишган ҳолда пора тешиқларни ёпганлиги, проапоптоз сигналларни узиб, апоптоз ривожланишини тўхтатганлигидан далолат берди. Юқори таъкидланганидек касалликнинг бу даврида кўп қаватли ўзгарувчан эпителий овал ва чўзинчоқ шаклда бўлиб, вертикал ҳолда жойлашган. Bcl-2 мусбат даражада экспрессияланган оралик қават хужайралар шакли ҳам чўзинчоқ бўлиб, цитоплазмаси нисбатан энсиз ва оч жигар рангли кўринишда бўлди.

Сийдик пуфаги шиллиқ парда қопловчи кўп қаватли ўзгарувчан эпителийнинг лейкоплакиясининг III - даври олдинги даврларидан фарқи, бунда эпителийнинг деярлик барча базал ва оралик қаторларида пролифератив фаоллик ва метаплазия жараёни ривожланганлиги аниқланди. Бу даврнинг яна бир ўзига хос белгиси, эпителий ости бириктирувчи тўқимали хусусий пластинкаси таркибида сурункали яллиғланиш инфильтрати, қон томирлари девори хужайраларининг ҳам пролиферацияланганлиги, уларда ҳам Bcl-2 оқили мусбат даражада экспрессияланганлиги аниқланади. Иммуногистокимёвий текширишнинг ҳам олдинги даврлардан фарқи борлиги кузатилди. Касалликнинг бу даврида Bcl-2 оқили эпителий хужайралар ядросига ёпишган ҳолда, цитоплазмаси ичида ва ташқи цитолеммасида жигарранг кўринишда экспрессияланганлиги кузатилди. Бу даврда оралик қаватлар таркибидаги айрим хужайралардан фақат ядро мембранасида, бошқа хужайраларда фақат ташқи цитолеммасида экспрессияланганлиги тасдиқланди.

## **ХУЛОСА**

Сийдик пуфаги лейкоплакиясини иммуногистокимёвий усулда ўрганиш, яъни қопловчи кўп қаватли ўзгарувчан эпителийнинг қайси бир қатламларида антиапоптоз Bcl-2 оқил экспрессияланишини аниқлаш бу касаллик диагностикасида муҳим омил ҳисобланади.

Сийдик пуфагида ҳеч қандай касаллиги бўлмаган назорат гуруҳида Bcl-2 оқили фақат базал қаватида кам даражада экспрессияланиши, уларда апоптозланиш фаолияти сақланиб қолганлигини кўрсатади.

Лейкоплакия ривожланишининг дастлабки I – даври, ўзгарувчан эпителийда метапластик жараённинг пайдо бўлиш даврида, эпителийнинг акантоз ривожланган базал қавати хужайраларида Bcl-2 оқилининг экспрессияланиши антиапоптоз геннинг фаоллашганлигини кўрсатади.

Лейкоплакиянинг II – даврида эпителийнинг барча қават хужайралари метаплазияланиб, вертикал ҳолда жойлашганлиги, уларнинг базал ва оралик қаватлар хужайраларида Bcl-2 оқили нисбатан кўпроқ даражада экспрессияланиши аниқланди.

Лейкоплакиянинг III – даврида эпителийнинг барча қаватлари ҳужайраларида пролифератив фаоллик ва метаплазия ривожланганлиги, хусусий пластинкасида яллиғланиш мавжудлиги, барча эпителий ҳужайраларида Bcl-2 оқсил юқори даражада экспрессияланганлиги кузатилади.

#### **АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)**

1. Аль-Шукри, С.Х. Общие принципы лечения больных раком мочевого пузыря. Значение клинических, гистологических и биологических факторов прогноза для выбора лечения / С.Х. Аль-Шукри, И.А. Корнеев // Практическая онкология. 2004. - Т. 4. - № 4. - С. 204-211.
2. Заболотнева А.А., Гайфуллин Н.М., Буздин А.А., Алексеев Б.Я., Андреева Ю.Ю., Шегай П.В., Соков Д.Г., Русаков И.Г. Молекулярные маркеры рака мочевого пузыря от частного к целому. Онкоурология. 2011. N 3. С. 16-19
3. Магер, В.О. Прогностическое значение биологических маркеров у больных поверхностным и инвазивным раком мочевого пузыря / В.О. Магер, Н.В. Казанцева // Онкоурология.- 2006. - № 4. - С. 30-34.
4. Матвеев Б.П. Клиническая онкоурология Вердана. - М.- 2003.- С. 197-270.
5. Опухолевые маркеры при скрининге и мониторинге больных раком мочевого пузыря / С.П. Даренко, Д.В. Перлин, В.Н. Паршина, И.В. Черняев // Онкоурология. - 2005. - № 3. - С. 51-54.
6. Prognostic factor in transitional cell cancer of the bladder: an emerging role for bcl-2 and p53 / F. Ong, I.V. Moonen, M.P. Gallee et al. // Radioter Oncol. - 2001. - 61(2). - P. 169-175.
7. The role of bcl-2, p53 and Ki-67 index in predicting tumor recurrences for low grade superficial transitional cell bladder carcinoma / T.T. Wu, Y.H. Chen, Y.Y. Lee Y.R. Huang // Y. Urol. -200. - 163(3). - P. 758-760.
8. Keshtkar A., Salehnia Z., Keshtkar A., Shokouhi B. Bladder Cancer Detection Using Electrical Impedance Technique (Tabriz Mark 1)// Patholog Res Int. 2012;2012:470101.

## **THE NOTION AND THE STRUCTURE OF THE ONOMASTIC SCOPE OF THE UZBEK LANGUAGE**

**Yashnarbekova Shahzoda Ravshanovna,**  
UzSWLU, teacher

### **ABSTRACT**

*As is known a considerable part of the vocabulary system of any language consists of proper nouns. Meanwhile one can say that the present rich linguistic material, in general, was not researched properly in linguistics. Particularly, wide range of studies were not carried out on noun types which exist in certain languages, their types, differences of proper nouns from common nouns, the volume of their vocabulary system in the language. More detailed study is required on quantity, the spread limits, their nominative, functional tasks they fulfill in the speech, basic motives, principles of naming things and objects, and the role of linguistic and non-linguistic factors in it. Among the mentioned problems one of the most topical one is the types of proper nouns, their specifics, defining of their rank in this language vocabulary and evaluating medial phenomenon that is in between onomastic and non-onomastic system.*

**Keywords:** *Onomastic scope, phenomena, object, proper nouns, common nouns, toponymic scope, polysemantic, onomastic level, onomastic field.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Как известно, значительную часть словарной системы любого языка составляют имена собственные. Между тем можно сказать, что имеющийся богатый языковой материал в целом не был должным образом исследован в языкознании. В частности, не проводились широкие исследования типов имен существительных, существующих в определенных языках, их типов, отличий имен собственных от имен нарицательных, объема их словарного состава в языке. Требуется более детальное изучение количества, границ распространения, их номинативных, функциональных задач, которые они выполняют в речи, основных мотивов, принципов наименования вещей и предметов, роли в этом языковых и неязыковых факторов. Среди названных проблем одной из наиболее актуальных являются типы имен собственных, их специфика, определение их ранга в лексике данного языка и оценка медиального феномена, находящегося между ономастической и неонамастической системами.*

*Ключевые слова:* ономастический объем, явления, объект, имена собственные, имена нарицательные, топонимический объем, многозначность, ономастический уровень, ономастическое поле.

## **INTRODUCTION**

Reality, material world which surrounds us is very complex, rich, multisided and different, and it differs from the essence, state, form, appearance and task of the things and phenomena which comprise them. The word used as a term *common noun* expresses partially these features which belong to the category of noun.

It is necessary, when speaking about the onomastic system, to pay attention to its interrelation and components which comprise separate groups belonging to the onomastic scope rather than about it. For example, the forms of pet and diminishing names, and various regional variants of toponyms, etc.

## **FEATURES OF PROPER NAMES**

<sup>28</sup> Professor unvonini saqlab qoladi, unga "xizmat ko'rsatgan" (professor faxriysi) ta'rifi qo'shiladi va nafaqaga chiqqach, u xohlasa, talabalarga ma'ruza o'qishi va hatto nazorat qilishi mumkin, lekin u kafedrada lavozimni egallamaydi.

<sup>29</sup> Погорельская С.В. «Brain Drain по-немецки» // Литературная газета. – М., 2003. – № 26 (5929), 25 июня–1 июля. – Режим доступа: [http://www.lgz.ru/archives/html\\_arch/lg262003/Polosy/art4\\_1.htm](http://www.lgz.ru/archives/html_arch/lg262003/Polosy/art4_1.htm)

<sup>30</sup> Qo'shma Shtatlarda "professor" unvoni bilan bir nechta o'qituvchi lavozimlari mavjud: "to'liq professor" (full professor) - eng yuqori darajadagi professor; "dotsent", yoki dotsent (dotsent), - Rossiya Federatsiyasidagi dotsentning ilmiy unvoniga (lavozimiga) va "dotsent" (dotsent) - unvoni "dotsent" dan past bo'lgan o'qituvchiga mos keladi. "

Tajribali professor-o'qituvchilarni saqlab qolishdan manfaatdor bo'lgan universitetlar vaqtinchalik lavozimlarni doimiy lavozimlarga aylantirishga harakat qiladilar deb taxmin qilingan. Biroq, oliy ta'limning byurokratik mashinasi ilmiy yutuqlarga emas, balki yuqoridan rag'batlantirilgan "tejamkorlikka" qaratilgan edi. Natijada o'quv yukining 50 foizdan ortig'i yosh olimlar yelkasiga yuklandi. Vaqtinchalik shartnoma asosida ishlab, 40 yoshgacha professorlik maqomiga ega bo'lmagan tajribali olim va o'qituvchilar oliy ta'lim tizimidan "siqib chiqarildi". Bu yoshda mehnat bozorida ularning malakasiga mos keladigan ish topish imkoniyati deyarli yo'q edi. O'sha yillardagi akademik munozara forumlarida bu ijtimoiy guruh "Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunning jasadlari" deb nomlangan. Mutaxassislar to'g'ri ta'kidladilarki, bu chora mashhur "kasbga oid taqiqlar"ni eslatdi – 40 yoshli malakali olimlar faqat oliy maktabda ularga doimiy ish bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmagani uchun jazolandi.<sup>31</sup> Natijada, Germaniyadagi o'qituvchilik va tadqiqot faoliyati nemis olimlarining yosh avlodi uchun jozibadorligini yo'qota boshladi. Fundamental fan bo'yicha barqaror istiqbollarning yo'qligi talabalarni o'qishning boshida o'zlarining kelajakdagi kasblarini amaliy ishlarga yo'naltirishga olib keldi, xoh u korxonalar, siyosiy konsalting, xususiy tibbiy amaliyot yoki o'zlarining yuridik idoralari tomonidan buyurtma qilingan tadqiqotlar. 2007-2008 yillarda "Oliy ta'lim to'g'risida"gi asosiy qonunni bekor qilish masalasi bir necha bor ko'tarilgan. Ushbu qonunning ta'siri qisman ta'lim jarayonini federallashtirish (2006 yildagi federalizm islohoti) davrida zaiflashdi, bundan tashqari, u oliy ta'lim muassasalari tuzilmalarini birlashtiruvchi Boloniya jarayoni<sup>32</sup> amalga oshirilishi munosabati bilan o'z ahamiyatini tobora yo'qotdi. Nemis maktabini zamon talablariga moslashtirish maqsadida maktab tizimini qayta qurish to'xtamayapti. Bu uzluksiz islohot nemis maktabiga xos xususiyatga aylana boshladi. 2000-yilda Xalqaro talabalarni baholash dasturi – PISA<sup>33</sup> natijalariga ko'ra Germaniya 21-o'rinni oldi, Germaniya ta'lim siyosatida maktabni tubdan isloh qilish, barcha ijtimoiy qatlamlardagi bolalar uchun "teng imkoniyatlar" ni tiklash kabi ishlarni boshlab yubordi. Mamlakatda har yili "Ta'limdagi vaziyat to'g'risida hisobot" nashr etila boshlandi va 2008- yilda Germaniya kansleri A. Merkel "O'qimishli Germaniya Respublikasi" tashkil

<sup>31</sup> Qarang prof. Gerbert tanqidiy maqolasi.

<sup>32</sup> Yevropa Ittifoqida 1999-yilda boshlangan oliy ta'limni isloh qilish jarayonining maqsadi oliy ta'lim tuzilmalarini uni takomillashtirish va jarayonda ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun oliy ta'lim bitiruvchilari uchun ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish maqsadida uyg'unlashtirishdan iborat.

<sup>33</sup> Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqotning maqsadi - umumiy majburiy ta'lim olgan o'quvchilarning jamiyatda to'liq faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega yoki yo'qligini baholash. Ta'lim yutuqlarini baholashdan tashqari, o'quvchilar va ularning oilalari, maktab va maktabdan tashqarida mavjud bo'lgan ta'lim imkoniyatlari bilan bog'liq turli omillarning ushbu yutuqlarga ta'siri o'rganiladi.

etilganini e'lon qildi. Shu bilan birga, 2012-yil iyul va oktyabr oylarida chop etilgan tadqiqot natijalari nemis maktablari PISA so'rovlarida aniqlangan muammolarni hal qila olmaganligini ko'rsatadi.<sup>34</sup> Mamlakat janubi (eng yaxshi natijalar) va shimoliy (eng past) o'rtasidagi maktab natijalaridagi farq hali ham katta; badavlat oilalar farzandlari hali ham kam ta'minlangan tengdoshlariga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar va eng yaxshi sifatli maktablarda o'qiydilar. Bundan tashqari, GDRda ham, eski GFRda ham mavjud bo'lmagan mulkning tabaqalanishi doimiy ravishda kuchayib bormoqda.

## **XULOSA**

Germaniyada o'rta va oliy ta'lim doimiy islohot jarayonida. O'rta maktabni isloh qilish, birinchi navbatda, ichki siyosiy sabablarga ko'ra. Bularga, birinchi navbatda, mamlakatni birlashtirish kiradi: Beshta yangi federal shtatning kuchli "yagona maktablari" tizimi eski G'arbiy Germaniya o'rta ta'lim tizimiga qo'shildi, ular rasmiy ravishda mavjud standartlarga moslashgan bo'lsa-da, lekin ayni paytda ularni o'zgartirib, yangi maktablarning rivojlanishiga turtki berdi. Natijada, "umumiy maktab" g'oyasi uyg'onishni boshdan kechirmoqda va 2013-yilga kelib bolalar 10 yil birga o'qiydigan qo'shma maktablar sonining ko'payishi kutilmoqda. Ushbu maktablar "umumiy" va birlashtirilgan maktablarning sintezi bo'lib, faqat natijada va baholarda ichki farqi bor. Ular umumiy maktab, real maktab va gimnaziyaning an'anaviy G'arbiy Germaniya modellariga muqobil bo'ladi. Islohotlarning ikkinchi sababi - Germaniya federalizmining o'zgarishi va kengayishi edi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktab biznesida subsidiarlik prinsipi o'z chegaralariga ega. Federal yer va kommunalarga juda ko'p vakolatlar berish o'zini oqlamaydi: federatsiya sub'ektlari tegishli moliyaviy yukni ko'tara olmaydi. Oliy ta'lim islohoti, shuningdek, 2006-yilda federalizmning muvaffaqiyatsiz islohoti bilan bog'liq bo'lib, u oliy ta'limga nisbatan o'zini oqlamadi va shuning uchun yaqin kelajakda qayta ko'rib chiqiladi. Ichki omillarning muhimligini ta'kidlab, quyidagilarni e'tirof etish kerak: tashqi omillar, xususan, Boloniya jarayoniga rioya qilish zarurati oliy ta'lim islohotiga beqiyos ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Germaniya oliy ta'lim tizimida, birinchi navbatda, universitet doiralarida bu islohotlar noaniq tarzda qabul qilinadi. Rasmiy siyosat Boloniya kelishuvlari talablarini amalga oshirish tarafdori. Biroq, ko'plab professorlar Atlantika modeli bo'yicha oliy ta'limning professionallashuvi kontinental universitet an'analarini abadiy yo'q qilishidan qo'rqishadi va mutaxassislar bakalavr darajasining

<sup>34</sup> Grundschüler im Norden lesen und rechnen schlechter // Frankfurter Allgemeine Zeitung. – Fr. a. M., 2012. – 6. Oktober. – S.

samaradorligiga shubha bildirishmoqda. Boloniya islohoti Germaniyada so'zsiz joriy etilmagan, balki nemis an'alariga amal qilingan holda joriy etilmoqda. Masalan, oddiy oliy o'quv yurtida professor unvonini ikkinchi, eng yuqori doktorlik darajasiga ega bo'lmagan olish mumkin, universitet tizimida esa ikkinchi doktorlik unvoni saqlanib qolgan va hozircha uni bekor qilish rejalashtirilmagan. Oliy ta'limning mobil, kadrlar yaratishga yo'naltirilganligi global miqyosda birinchi navbatda bandlik siyosati bilan bog'liq bir qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi: yosh olimlar shaxsiy hayotini tartibga solish va oila qurish uchun zarur bo'lgan barqarorlikni ta'minlay olmayapti. "Mobil", bepul, oilasiz olim-professional global ish beruvchilar talablariga javob beradi. Shu bilan birga, qarigan "mobil" intellektual yolg'izlarning shaxsiy fojialari demografik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ilm-fan va oliy ta'lim muassasalarida qisqa muddatli mehnat shartnomalari tizimi "ijobiy" kadrlar almashinuvini rag'batlantirish bilan birga, ayni paytda yosh olimlarni uzoq muddatli barqaror istiqboldan mahrum qiladi va to'laqonli oilalar barpo etilishiga to'sqinlik qiladi. Uzoq muddatli demografik nuqtai nazardan, oliy ta'lim va fanda intellektual kadrlarni ish bilan ta'minlash siyosatining yetarli darajada ijtimoiy yo'naltirilganligi Boloniya jarayoni yoki mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinmaganligi fojiasi.

#### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Погорельская С.В. «Brain Drain по-немецки» // Литературная газета. – М., 2003. – № 26 (5929), 25 июня–1 июля. – Режим доступа: [http://www.lgz.ru/archives/html\\_arch/lg262003/Polosy/art4\\_1.htm](http://www.lgz.ru/archives/html_arch/lg262003/Polosy/art4_1.htm)
2. Bildung in Deutschland, 2012. – Mode of access: <http://www.bildungsbericht.de/index.html?seite=10203>
3. Bildungsstandards im Fach Deutsch für die Allgemeine Hochschulreife: Beschluss der Kulturministerkonferenz vom 18.10.2012. – 264 S. – Mode of access: [http://www.kmk.org/fileadmin/veroeffentlichungen\\_beschluesse/2012/2012\\_10\\_18-Bildungsstandards-Deutsch-Abi.pdf](http://www.kmk.org/fileadmin/veroeffentlichungen_beschluesse/2012/2012_10_18-Bildungsstandards-Deutsch-Abi.pdf)
4. Die Umsetzung der Bologna-Reformen in Deutschland / Bundesministerium für Bildung und Forschung. – 2012. – 8. August. – Mode of access: <https://www.bmbf.de/de/7222.php>
5. Erste Ländervergleichsstudie des IQB im Primarbereich / Institut zur Qualitätsentwicklung im Bildungswesen. – 2012. – 5. Oktober. – Mode of access: <http://www.iqb.hu-berlin.de/institut/news?pg=n009>
6. Gemeinschaftsschule // Spiegel-online. – Mode of access: <http://www.spiegel.de/wikipedia/Gemeinschaftsschule.html>

- 
7. Grundschüler im Norden lesen und rechnen schlechter // Frankfurter Allgemeine Zeitung. – Fr. a. M., 2012. – 6. Oktober. – S. 2.
  8. Herbert U. Keine Zukunft mit Bulmahn // Süddeutsche Zeitung. – Stuttgart, 2002. – 14. Februar.
  9. Hochschulrektoren üben harsche Kritik am Bologna-Prozess // Zeit-online.– 2012. – 14. August. – Mode of access: [http://www.zeit.de/studium/ hochschule/2012-08/hochschulreform-bologna-kritik](http://www.zeit.de/studium/hochschule/2012-08/hochschulreform-bologna-kritik)
  10. Hochschulrahmengesetz in der Fassung der Bekanntmachung vom 19. Januar 1999 / Bundesministerium für Bildung und Forschung. – 1999. – Mode of access: [www.bmbf.de/de/1600.php](http://www.bmbf.de/de/1600.php).

**BO‘LAJAK CHIZMACHILIK O‘QITUVCHILARNING GRAFIK  
KOMPETENTLIGINI MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI  
ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-118-126>

**Ashirbayev Azim Ozodovich**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası dotsenti

**Abduazizov Bunyodbek Islomjon o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutaxassisligi magistranti

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bo‘lajak chizmachilik o‘qituvchilarning grafik kompetentligini muhandislik kompyuter grafikasi asosida shakllantirish metodikasi yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompyuter grafikasi, kompetensiya, grafik kompetentlik, metodika.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещена методика формирования графической компетентности будущих преподавателей черчение на основе инженерной компьютерной графики.*

**Ключевые слова:** компьютерная графика, компетентность, графическая компетентность, методика.

**ABSTRACT**

*This article highlights the methodology of forming the graphic competence of future teachers of drawing based on engineering computer graphics.*

**Keywords:** computer graphics, competence, graphic competence, methodology.

**KIRISH**

Zamonaviy ta’limda oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Natijada zamonaviy raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonining sifat bosqichi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ilg‘or boshqaruv tajribasini milliy qadriyatlarga uyg‘unlashtirish, boshqaruv personallari kompetensiyalarini aniqlash, ularni kompetentlik sohalari bo‘yicha

klasterlash, diferensiyalashtirish hamda oʻrta boʻgʻin rahbari psixologik kompetentligini optimallashtirish sharoitlari rivojlanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PF–5763-son “Oliy va oʻrta maxsus taʼlim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2018 yil 30 maydagi PQ–3755-son “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2019 yil 11 iyuldagi PQ–4391-son “Oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari taʼlim sifatini yanada takomillashtirmoqda<sup>35</sup>.

Innovatsion texnologiyalarni hayotga tadbqiq etish, sohaga oid ilm-fan, fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish, belgilangan ustuvor yoʻnalishlar asosida taʼlim tizimida ilm-fanning zamonaviy yutuqlarini joriy etish, sohaga oid ishlab-chiqarish korxonalarida oliy taʼlim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bazasida tadqiqot va oʻquv ilmiy markazlarni – yaʼni texnoparklarni bosqichma-bosqich tashkil etish orqali fan bilan taʼlim hamda ishlab chiqarishning oʻzaro integratsiyasini taʼminlash asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat rahbar va pedagoglarning balki malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga jalb etilgan oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining ham ijodiy-intellektual salohiyatini, amaliy malaka va koʻnikmalarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, jumladan, oliy, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi tizimida faoliyat yurituvchi ilmiy daraja va unvonga ega boʻlgan pedagoglarning salohiyatini koʻtarishdek asosiy maqsad belgilanadi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida, oʻqituvchi-amaliyotchilar shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zarur talabidir<sup>36</sup>.

“Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunda taʼlim mazmunini yangi shakl va koʻrinishlarini joriy etish, talabalarning faoliyatini rivojlantirishga, va talabaning shaxsiy fikrini kamol toptirishga xizmat qiladigan, ijodkorlikka yoʻnaltiruvchi natija beradigan taʼlimni tashkil etishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga erishish muhim vazifa ekanligi uqtirilgan.

<sup>35</sup> Hayitov Oybek Eshboevich Oliy Taʼlim Muassasasi Oʻrta Boʻgʻin Rahbarlari Psixologik Kompetentligini Modellashtirish Toshkent-2020

<sup>36</sup> Akmal Yusufovich Axmedov BOʻLAJAK OʻQITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIXATLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 2020

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda ma`nan yetuk, ruhan sog`lom, uyg`un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi. "Oliy ta`limni rivojlantirish Davlat dasturi"ning samarali amalga oshirilganligi buning yorqin dalilidir. Ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta`lim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish multimediya resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning ijoboy natijasi bo`lgan bo`lajak o`qituvchi pedagog kadrlarning bilish qobiliyatini o`stirishdan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, talabaning mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o`z ustida mustaqil ishlashga o`rgatadi<sup>37</sup>. Muhandislik kompyuter grafikasida ham talabalarning chizmalarini yanada oson va qulay o`qishlari uchun va chizmani yahshi tasavvur qilishlari uchun AutoCad, 3DMax, Power point, Paint, dasturlaridan foydalana olishi zarur. O`qituvchi va bo`lajak chizmachilik "o`qituvchisi" talaba birgalikda faoliyat yuritadi. O`qituvchi boshqaruvchi sifatida talabaga turli yo`nalishlarni ko`rsatadi. Talaba dars mashg`uloti jarayonida faol harakat qilib, o`zi mustaqil fikr yuritadi. Darsda malakalarini samarali ravishda qo`llashga o`rgatish dars samaradorligini oshiradi. Ta`limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor.

Bo`lajak o`qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o`ziga xos o`rin tutadi. Ayniqsa, ta`limni modernizatsiyalash bilan bog`liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo`lmoqda. Bo`lajak o`qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o`qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda.

Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o`quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko`p jihatdan o`rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta`siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o`z-o`zini tartibga solish xususiyatlari o`z bilim va malakalarini

<sup>37</sup> [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)



doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi<sup>38</sup>.


Hozirgi kunda OTMlarda o'qitilayotgan «Kompyuter grafikasi» fanining o'rni va ahamiyati, ijtimoiy hayotimizda zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishida hamda barcha soha mutahassislarini o'z ish faoliyatlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarining kengligida deb qarash mumkin. Shuning uchun ham, ayni paytda Respublikamiz OTMlarda kompyuter grafikasini turli sohalarga bo'lib o'rganish, uning imkoniyatlaridan qator sohalarda foydalanishning metodik asoslarini yaratish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalar (ixtisoslashgan rassom, mahsus effektor, vektorli art-ustasi, CAD-ustasi, modeler, animator, teksturachi, vizualizator va h.k) kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi OTMlarda «Kompyuter grafikasi»ni fan sifatida o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi. Bugungi kunda OTMlarda «Kompyuter grafikasi» va chizmachilik o'qituvchilarining grafik kompetentligini oshirishda, kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talabalarni fanga nisbatan maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror bir natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir.

Ma'lumki, OTMga kelgunga qadar talabalar «Kompyuter grafikasi» fani bo'yicha kerakli boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lsalar, ularning grafika fanlarida zarur bo'lgan fazoviy tasavvurlari, chizmani o'qiy olish xususiyatlari shakllanadi. Bu esa, bunga oid kurslarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimidan boshlanishi maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi. Qator tadqiqotchilarning bu boradagi ilmiy izlanishlari tufayli, amaliy tadbir ta'lim jarayoniga katta samaralar bera oladigan ilmiy natijalarga erishilmoqda.

Kompyuter grafikasi – kompyuterdagi grafika yoki kompyuter yordamida yaratilgan grafikadir. Kompyuter grafikasi rasm chizish va modellashtirish vositasi sifatida ishlatiladi. Agar kompyuter grafikasi monitordagi rasm deb tushunilsa, u holda kompyuter grafikasi kompyuter bilan bir vaqtda paydo bo'lgan deyish mumkin. Ba'zan, kompyuter grafikasini ro'yobga kelishini kompyuter o'yinlari paydo bo'lgan vaqt - yil bilan bog'laydilar. Boshqacha qilib aytganda, kompyuter grafikasi – bu yangi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u avtomatik loyihalash tizimining mazmunini tashkil etadi. «Zamonaviy avtomatik loyihalash tizimi chizmani «elektron chizmaga» aylantiribgina qolmay,


<sup>38</sup> Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).

balki kompyuter texnikasi o'zining ma'lumotlar bazasi kengligi va ob'ektlarni geometrik modellashning samarali usullaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi. Jumladan AuotoCAD dasturida ham berilgan grafik topshirqni talaba yahshi tasavvur qila olishi va uning ortogonal proeksialari frontal, gorizontal va profil ko`rinshlarini o`qiy olishi uchun qulayliklarga ega. (1-rasm)



1-rasm (AuotoCAD) dasturi

3D MAX dasturida ishlash ham talabanning fazoviy tasavvurini oshiradi va rivojlantiradi.(2-rasm)



2-rasm (3D MAX) dasturi

Bunday kompyuter dasturlari bo'lajak "Muhandislik kompyuter grafikasi" o'qituvchilarining grafik kompetentligini oshirishda muxum ahamiyat kasb etadi.

Grafik dasturlarda axborot bilan ishlash insonning ko‘rish, eshitish va sezish organlariga qaratilgan bo‘ladi, ya‘ni, axborot berish uchun tasvir va tovushdan keng foydalaniladi. Asosiy maqsad, axborotni tasvir va tovushga aylantirishdan iborat. Bugungi kunda juda ko‘plab kompyuter grafik dasturlari mavjud bo‘lsada, ular bir birlaridan o‘zaro qo‘llanilish sohalariga qarab farqlanadi. Har bir soha mutaxassislari o‘z faoliyatlari uchun qulay bo‘lgan grafik dasturni tanlaydilar. Dasturlarning imkoniyatlari ham ma‘lum bir sohaga yo‘naltirilgan. Shuning uchun, grafik dasturni tanlashda, avvalom bor, uning imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Aksariyat hollarda grafik dasturni qo‘llashdan oldin boshqa bir dasturlarni yoki fanlarni o‘zlashtirishga ehtiyoj seziladi. Talaba ongida grafik kompetentlikni rivojlantirish uchun, avvalo, unda fanga nisbatan qiziqish shakllangan bo‘lishi va bu qiziqish asosida bilim olishi hamda ularni esda saqlashi, bilimlar yig‘ilib ko‘nikma va malakalarga aylanishi kuzatiladi<sup>39</sup>.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, talaba egallagan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayangan holda berilgan muammoni ongida tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. «O‘qituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta‘rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

## **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Valiyev A.N. About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training (ilmiy metodik maqola). **SECTORAL RESEARCH XXI: CHARACTERISTICS AND FEATURES**, March 26, 2021. Chicago, USA. 107-111 betlar.
2. Валиев А.Н. Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. (ilmiy metodik maqola). **Центральноазиатский журнал теоретических и прикладных наук**, Том 2 № 4 (2021): 54-61 стр.
3. Khalimov M., Soliddinova S. The knowledge gained by students in engineering graphics and its transformation to experience and skill. **Asian Journal of**

<sup>39</sup> Shoxboz Dilshodbek o‘g‘li Dilshodbekov; Aldiyar Alisher o‘g‘li Abdulxatov: MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI  
SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601

Multidimensional Research (AJMR), Year: 2021, Volume: 10, Issue: 1, First page: (260) Lastpage: (264) Online ISSN: 2278-4853. Article DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00040.9>

4. Mirzaliev Zafar Eralievich, Khalimov Mohir Karimovich, Malikov Kozim Gofurovich, Abdukhonov Botir Husniddinovich. Method of using a new mechanism for the construction of axonometric projections. Young scientist, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>

5. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 54-61. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116>

6. Dilshodbekov Shoxboz Dilshodbek Ugli, & Abduazizov Bunyodbek Islomjon Ugli. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 3(01), 101–107. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-01-17>

7. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

8. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 3(01), 101-107.

9. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.

10. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.

11. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of*

- Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195
12. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
13. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
14. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
15. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
16. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
17. Eraliyevich, S. H. (2021). Shaping Students' Spiritual Worldviews Through Fine Arts. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 79-86.
18. Султанов Х.Э. Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда кўрғазма ва танловларнинг ўрни/ Педагогика илмий-назарий ва методик журнал//Т.: №!, - 2016. Б. -116.
19. Sultanov Kh.E., Marasulova I.M., Bakhriev I.S. Ankabaev R..T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education/*International Journal of Psychosocial Rehabilitation*// Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192: -P.6588.

20. Султанов Х.Э, Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation// - Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: -3876.
21. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
22. Sultanov X.E., Ataxanova, S.O., Xalilov R.Sh. The importance of exhibitions and competitions in organizing fine art clubs in schools. (2020) /Journal of Critical Reviews, 7 (15), 2519-2523. doi:10.31838/jcr.07.15.336
23. Haytboy Eralievich Sultanov, Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation// - Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: -3872-3877.
24. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
25. Muratov, K. K., & Tadjieva, F. M. (2021). Issues of Improving the Technology of Organization and Management of Independent Learning Activities of Students in the Fine Arts. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(11), 521-525.
26. Muratov , H. (2021). THE IMPORTANCE OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT INDEPENDENT EDUCATION IN THE LEARNING PROCESS. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.40>
27. Shuhratovich, I. U. (2020). Application of innovation in teaching process. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5), 4-8.
28. Shuhratovich, I. U., Eraliyevich, S. X., & Tursunmurotovich, S. S. Illustration and the Influence of Illustrator on Children's Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* ISSN, 1475-7193.

## ИЛК ИСЛОМ ДАВРИДА ҲАДИСЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИ

**Дониёр Муратов**

Ўзбекистон халқаро ислом академияси,

Ислом тарихи ва манбашунослиги бўйича фалсафа фанлари доктори PhD ,  
Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш ICESCO кафедраси катта  
ўқитувчиси.

11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

[doniyorhoji@mail.ru](mailto:doniyorhoji@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

*Бу мақолада Ҳадис илми ривожланиши тарихи, Расулуллоҳ (с.а.в.) нинг ижтимоий ҳаётда берган кўрсатмалари муҳокама қилинган. Мақолада Пайгамбар (с.а.в.) Қуръони карим суннатдан олинган ҳукмларини ўз саҳобаларга ўргатиши ва тушунтиришида ўша давр таълимнинг барча услублардан фойдаланганликлари ҳақида маълумотлар берилган. Саҳобийлар ҳам ҳадис ўрганишида ўта жиддий иш олиб борганлар. Саҳобийлар Пайгамбар (с.а.в.)дан ҳадис ўрганиши мақсадида узоқ жойлардан Мадинага қилган сафарлари ҳақидаги фикрлар баён этилган.*

**Калит сўзлар:** Қуръони карим, суннат, саҳобалар, мадрасалар, Имом Бухорий, аёллар, Муслим, Умар ибн Хаттоб, Уқба ибн Ҳарс, талабчанлик, мажлис, тадбир ёки байрам, хутба.

### ABSTRACT

*This article discusses the history of the development of the science of hadith, the instructions given by the Prophet (saas) in social life. The article states that the Prophet (saas) used all the methods of teaching at that time to teach and explain to his Companions the rulings of the Qur'an from the Sunnah. The Companions also took the study of hadith very seriously. It is narrated that the Companions traveled to Madinah from distant lands to learn hadith from the Prophet (saas).*

**Keywords:** Quran, Sunnah, Companions, Madrasas, Imam Bukhari, Women, Muslim, Umar ibn Khattab, Uqba ibn Hars, demand, meeting, event or holiday, sermon.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается история развития науки о хадисах, наставления, данные Пророком (саас) в общественной жизни. В статье говорится, что Пророк (саас) использовал все методы обучения того времени,*

чтобы учить и объяснять своим сподвижникам постановления Корана из Сунны. Сподвижники также очень серьезно относились к изучению хадисов. Рассказывают, что сподвижники прибыли в Медину из далеких земель, чтобы узнать хадисы от Пророка (саас).

**Ключевые слова:** Коран, Сунна, Сподвижники, Медресе, Имам Бухари, Женщины, Мусульманка, Умар ибн Хаттаб, Укба ибн Харс, требование, встреча, событие или праздник, проповедь.

## КИРИШ

Ҳадис илми тарихини ўрганиш ўзига хос муҳим аҳамиятга эга. Зеро ўша вақтда Расулulloҳ (с.а.в.) одамлардан ажралиб олган, уларнинг ишларига аралашмайдиган, хурсандчилигида алоҳида, дардларда дардсиз бўлмаган. Аксинча, ҳар бир ишда одамлар билан бирга, маслаҳатлашган ҳолда, ҳамдард бўлиб, ўз ҳадисларини турли ўринларда кишиларга ўргатганлар. Масалан, одамлар фарзандли бўлганида, қулоғига азон айтиш, ақиқа қилишни ўзлари кўрсатган ҳолда ўргатганлар.

Пайғамбар (с.а.в.) Қуръони карим ҳукмларини ва ўз суннатларини саҳобаларга ўргатиш ва тушунтиришда ўша давр таълимнинг барча услублардан фойдаландилар. Ўша даврда мадрасалар ёки алоҳида билим беришга мўлжалланган ўқув бинолари бўлмаган. Бу ишни масжид бажарган. Муҳаммад пайғамбар (с.а.в.) масжидда имом, мударрис, хатиб, қози ва муфтий вазифасини бажарганлар. Шу билан бирга оддий инсон сифатида оила бошлиғи, ота, қариндош каби вазифаларни ҳам бажарганлар.

Саҳобаларга таълим-тарбия ва дин ҳақидаги билимларни осон ва тингловчиларга малол келмайдиган тарзда ҳафтанинг ҳар кунда эмас, балки муайян кунларида ўргатар эдилар. Бу билан устозлик вазифаси орқали ҳадис ва суннатларини ўргатганлар. Масалан, ҳадисда «Аллоҳ таоло мени кўпол қилиб эмас, муаллим ва енгиллатувчи қилиб юборган», дейилган<sup>40</sup>.

Хатиб сифатида эса маъруза қилиб инсонларни ҳидоятга чақирар, имом сифатида намоз ўқиш тартибини кўрсатиб берганлар<sup>41</sup>. Муфтий сифатида ҳаётда учрайдиган муаммоли масалаларга қоникарли фатво берар эдилар. Баъзи ҳолларда, Расулulloҳ (с.а.в.)нинг ўзлари саҳобалардан фатвони сўраб фатво айтар, бирор нарса ҳақида сўраб ўзлари жавоб берар, бирор масала юзасидан тўхтаб қолсалар Аллоҳнинг кўрсатмаси тушгунча сукут сақлар, ҳукм келгандан

<sup>40</sup> Имом Муслим. Саҳих. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 2012. – Т. 2. – Б. 358.

<sup>41</sup> Муҳаммад Абу Заҳв. Ал-Ҳадис ва-л-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 1984. – Б. 121.



кейин уни тушунтирар эдилар<sup>42</sup>. Масалан, ҳадисда «Пайғамбар (с.а.в.) барча озиқ тишли йиртқичларни ейишдан қайтардилар», дейилган (Имом Бухорий ва Муслим ривояти). Қози бўлиб одамлар орасида ҳукм чиқариб берганлар. Бунга мисол тариқасида «зиҳор» ҳақидаги оятнинг нозил бўлиши сабабларини келтириш мумкин (Мужодала, 1-4)<sup>43</sup>.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Муҳаммад пайғамбар (с.а.в.) ҳар бир ишда намуна кўрсатиш йўли билан саҳобаларга таълим берар эдилар. У киши кибр-ҳавоси баланд, ўз умматидан ажралиб қолган султон эмас, балки улар орасида юриб инсоний фазилатларга чақирувчи ҳадисларни тарқатганлар. Оилада ота ва эр, қўшни, маслаҳатчи, жамоа сардори ва жамиятдаги инсонга хос барча вазифаларни бажариб, улар орқали ҳадисларни ўргатганлар. Касалларни бориб кўрар, жанозаларида қатнашар, одамларнинг муаммоларини ечиб берар, низоларини бартараф қилар, ихтилофларини келиштирар эдилар, саҳобалар эса бу йўллар ила ҳадисларни унинг барча кўрсатмаларини кулоқларига қуйиб, қалблари билан ҳис этиб ўрганганлар.

Саҳобалар Расулulloҳнинг ҳар қандай кўрсатмаларини турли ҳолатларда бўлишларидан қатъи назар, ихтилоф қилмасдан қабул қилишар эди. Дунёвий ишларда Пайғамбар (с.а.в.) саҳобалар билан маслаҳат қилар, уларнинг фикрларига қўшилар эдилар. Шу билан бирга улар Пайғамбар (с.а.в.) суҳбатларида керакли нарсаларни сўраб олар, маслаҳатлашар эдилар. Баъзи саҳобалар ўз қўшнисини билан келишиб олиб, навбатма-навбат Пайғамбар (с.а.в.) мажлисларида бўлиб, янги эшитганини бир-бирларига етказар эдилар. Имом Бухорий ривоятига кўра, саҳоба Умар ибн Хаттоб қўшнисини билан келишиб шундай қилар эдилар<sup>44</sup>.

Саҳобийлар ҳам ҳадис ўрганишда ўта жиддий иш олиб борганлар. Саҳобийлар Пайғамбар (с.а.в.)дан ҳадис ўрганиш мақсадида узоқ жойлардан керакли масала юзасидан Мадинага келиб кетишар эди. Имом Бухорий «ал-Жоми ас-саҳиҳ»нинг илм китобида ривоят қилган ҳадисда Уқба ибн Ҳарс саҳоба Абу Ихобнинг қизига уйланди. Шунда бир хотин келиб, Уқбага: «Мен сени ҳам, сен уйланаётган қизни ҳам эмизганман», – деди. «Мен сизнинг мени эмизганингизни билмасман, менга айтган ҳам эмассиз», – деди Уқба. Шундан

<sup>42</sup> Ўша асар. – Б. 122.

<sup>43</sup> Куръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007, – Б. 547.

<sup>44</sup> Муҳаммад Абу Заҳв. Ал-Ҳадис ва-л-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмкйа, 1984. – Б. 122.

сўнг Уқба Мадинага, Расулуллоҳнинг ҳузурларига бориб, бу тўғрида сўради. Расулуллоҳ (с.а.в.): «Қандай хотин қиласан, разои эмикдош синглинг деб сенга айтибди-ку ахир!?» – дедилар. Ажратиб қўйдилар, қиз бошқа эрга тегиб кетди<sup>45</sup>.

Агар Расули акрам (с.а.в.) бирор ўта муҳим нарсанинг хабарини берсалар уни уч марта ёки одамлар тушуниб олишлари учун унданда ортиқ такрорлар эдилар.

Шунингдек, баъзи саҳобийлар ўз қўшнисини билан келишиб, бир кун у, бир кун бу қилиб Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг олдиларида бўлишган. Шу билан бирга саҳобийларнинг ўзилари ҳам ҳадисларни бир-бирларига эслатиб турганлар. Аёллар ҳам ҳадис ўрганишда эркаклар сингари ўта талабчан бўлгани манбаларда қайд этилган.

Пайғамбар (с.а.в.)нинг мажлислари фақат эркаклардан иборат бўлмай, балки кўпгина аёллар ҳам мажлисда ҳозир бўлиб ҳадисларни эшитганлар. Ҳайит намози каби оммавий тадбир ёки байрамларда аёллар жамоат бўлиб Пайғамбар (с.а.в.) маърузаларини эшитиш учун масжидга чиққанлар. Пайғамбар (с.а.в.) ҳайит куни олдинги сафдаги эркакларга хутба қилиб бўлганларидан сўнг орқа тарафга, яъни аёллар томонига ўтиб сўзлар эдилар. Ваъз-насиҳат хутбалари эркакларга кўп бўлар, аёллар эса орқа қаторда аксарият ҳолларда эшитмасдан қолардилар. Сўнг улар Пайғамбар (с.а.в.)га вакиллар юбориб, аёлларга ҳам бир кунни ажратиб хутба қилишларини талаб қилишди. Мана шундан сўнг аёлларга алоҳида хутба ўқиладиган бўлган.

## **ХУЛОСА**

Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг аёллар билан бундай илмий мажлислари кам бўлгани учун, аёллар кўп шаръий масалаларни очиқ-ойдин билишга қизиқиб, у кишининг ҳузурларига бир неча аёлни элчи тариқасида юборар, улар керакли зарур масалаларга ойдинлик киритиб, яхши тушуниб бошқаларга ҳам тушунтириб берардилар. Баъзи аёллар эса уларнинг жавобларига қониқмасдан ўзлари Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳузурларига борардилар, илм ўрганишда аёлларга хос бўлган баъзи масалаларни очиқ-ойдин сўрадилар.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Пайғамбар (с.а.в.) мажлислари ҳеч қачон издошларининг эътиборидан четда қолмас, уларда ҳам диний ҳам дунёвий масалалар ҳал қилинарди. Чунки диний масалаларнинг аксарияти ҳадислардан иборат бўлган. Ҳадис тарқатишда ўша даврнинг барча усулларидан фойдаланилган дейиш мумкин.

<sup>45</sup> Муҳаммад Абу Заҳв. Ал-Ҳадис ва-л-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмкйа, 1984. – Б. 122.

---

### АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Муҳаммад Абу Заҳв. Ал-Ҳадис ва-л-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмкйа, 1984. – Б. 122.
2. Имом Муслим. Саҳиҳ. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмийя, 2012. – Т. 2. – Б. 358.
3. Муҳаммад Абу Заҳв. Ал-Ҳадис ва-л-муҳаддисин. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмкйа, 1984. – Б. 121.
4. Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007, - – Б. 547.

## **O‘ZBEKISTON SOS BOLALAR MAHALLALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT**

**Ithomova Diana Ikromovna**

Urganch Davlat Universiteti, Psixologiya yo‘nalishi magistratura talabasi

**Ibragimov Sardor Rustam o‘g‘li**

O‘zbekiston Milliy Universiteti, Psixologiya yo‘nalishi magistratura talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatimizdagi ota-onasining qaramog‘isiz qolgan va qiyin hayotiy sharoitlarga tushib qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishda “SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasi”ning o‘rni va undagi ko‘rsatiladigan psixologik xizmatlar, uning afzalliklari va o‘ziga xosliklari tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasi, SOS bolalar mahallalari, SOS, psixologik xizmat, ijtimoiy himoya, psixologik yordam.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализирована роль “Ассоциации детских кварталов СОС” в социальной защите детей, оставшихся без попечения родителей и оказавшихся в трудной жизненной ситуации в нашей стране, а также предоставляемые в ней психологические услуги, ее преимущества и особенности.*

***Ключевые слова:** Ассоциация детских кварталов SOS, Детские кварталы SOS, SOS, психологическая служба, социальная защита, психологическая помощь.*

### **ABSTRACT**

*This article in our country, parents are left under the care of down to the difficult life conditions and social protection for children in the sos children's villages association of”psychological services's place and then to the display, its advantages and peculiarities have been analyzed.*

***Keywords:** SOS Children's Quarters Association, SOS Children's Quarters, SOS, psychological service, social protection, psychological assistance.*

### **KIRISH**

Dunyo miqyosida kechayotgan global jarayonlar nafaqat iqtisodiy moliyaviy, balki ijtimoiy ma’naviy hamda axloqiy qadryatlarning parchalanishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda oilaviy aloqalar tuzimida ham inqirozli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, chunki aksariyat ota-onalar bolalarini nafaqat ijtimoiy, balki fiziologik jihatdan ham ta’minlay olmaydilar. Shu bilan birga oilaviy aloqalarning

barbod bo'lishi qarovsiz qolgan bolalar sonini oshishi sabablaridan biridir. Bu holatda jamiyat va davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisi 7,6 milliarddan ortiq, ulardan 2,2 milliard bolalardan iborat bo'lib, 2,7 million bola o'z oilasi bag'rida emas. Ular institutsional muassasalarda tarbiyalanmoqda. Ularning o'rtacha 10-20% chin yetimlar bo'lsa, mutloq ko'pchiligi 80-90% ijtimoiy yetim bolalardir. Mamlakatimiz hukumati yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy shaklini va boshqa muqobil shakllarini joriy qilish, ularning hamjamiyatga tezda ijtimoiy moslashishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan. Shu qatorida alohida e'tiborga molik tashkilot "SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasi" hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

SOS O'zbekiston Bolalar Mahallalari Uyushmasi O'zbekiston Respublikasi hududidagi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati va SOS Kinderdorf International (Avstriya) tomonidan 1997 yilda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida SOS bolalar mahallalarini va ular bilan bog'liq loyihalarni tashkil etish, qurish, jihozlash va ularning faoliyat ko'rsatishi to'g'risida"gi shartnomaga hamda Vazirlar Mahkamasining 31.12.1997 yildagi 585-sonli "O'zbekistonda SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirib kelgan. Vazirlar Mahkamasining 21.11.2020 yildagi 738-son "SOS O'zbekiston Bolalar mahallalari Uyushmasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan faoliyati yangi pog'onaga ko'tarilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda SOS bolalar mahallalarida uch bo'linma o'z faoliyatini olib bormoqda. Ular: bolalar mahallalari – muqobil parvarish qilish xizmatlari; yoshlar uylari – yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari va ijtimoiy markazlar – ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'limlari. Ularda asosan ota-onasining qaramog'isiz qolgan yoki ijtimoiy yetimlik havfi ostida bo'lgan bolalar va yoshlar, shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan 280dan ortiq oilalar qo'llab-quvvatlanib, 620 nafar bola tarbiyalanmoqda, ushbu bolalardan 32 nafari imkoniyati cheklangan bolalardir.

Mazkur muassada qabul qilinuvchilar nafaqat ijtimoiy himoya qilinadi, shu bilan birgalikda ularga psixologik xizmat ham ko'rsatiladi. Bu ularga hayotiy qiyin vaziyatlardan, stress va depressiyalardan chiqishga, shaxs sifatida rivojlanishga,

qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga, motivatsion sohasining to'g'ri yo'nalishiga yordam beradi. Darhaqiqat yuqorida keltirib o'tilgan psixologik yordam bo'yicha misollar isboti sifatida tashkilotning barcha bo'linmalarida psixologik xizmat va unga bevosita bog'liq maqsad va vazifalar nizom va hujjatlarda ham ko'rsatib o'tilgan. Xususan, muqobil parvarish qilish xizmatlari bo'linmasining asosiy vazifalaridan:

- oilada yoki oilaga o'xshash muhitda, shuningdek, muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida bolalarning aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlanishiga yordam beradigan muhitni yaratish;

- bolalarni ijtimoiy himoya qilishni va ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash;

- muqobil parvarishlash holatidagi bolaning o'z oilasi bilan aloqa bog'lashiga ko'maklashish.

Yoshlarga hamrohlik qilish xizmatlari bo'linmasining asosiy vazifalari:

- yoshlarga psixologik-pedagogik yordam berish;
- o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qilish;
- nizoli vaziyatlarni bartaraf etish va ruhiy zarbalarga qarshilik ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- shaxsiy va oilaviy byudjetni rejalashtirish malakalarini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy himoyasini va jamiyatga moslashuvini ta'minlash;

- yoshlarni o'z oilasini qurishlarida ko'maklashish;
- oilani saqlashga yordam beradigan oilaviy qadriyatlarni tarbiyalashdan iborat.

Ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'linmasining asosiy vazifalari etib:

- oilaning ichki munosabatlarida oilaning barcha a'zolari o'rtasida samimiylilikni yo'lga qo'yish;

- bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning bilim darajasini oshirish va ota-onalik ko'nikmalarini shakllantirish kabi aniq vazifalar belgilab qo'yilgan.

SOS Bolalar Mahallalari Uyushmasining yuqorida keltirilgan har uchala bo'linmasining psixologik xizmatga aloqador maqsad-vazifalari psixologik xizmat hodimi hisoblanadigan psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Bunda psixologning asosiy vazifalarini sanab o'tadigan bo'lsak: dastlab, ijtimoiy hodim bilan birgalikda baholashni o'tkazishda ishtirok etadi, bolalar va oilalarning ehtiyojlarini o'rganadi, zamonaviy diagnostika usullari yordamida tashxis qo'yadi, turli yoshdagi bolalarning psixologik holatini o'rganadi, jamoa bilan birgalikda rivojlanish rejasini ishlab chiqadi, bolalar va oilalar bilan psixologik ishlarni amalga oshiradi, aniqlangan shaxsiy va oilaviy muammolarga qarab oilalarga yakka tartibda yoki guruh bo'yicha

maslahat beradi, maqsadli guruhlarga psixologik xizmat ko'rsatadi, shuningdek, terapevtik faoliyatni amalga oshiradi (art-terapiya, qum terapiyasi, ertak terapiyasi va boshqa zamonaviy usullar), ehtiyojlardan kelib chiqib oilalarga bolalar haqida zarur jismoniy, psixo-emotsional holatlar haqida ma'lumot beradi, intellektual rivojlantirishga doir metodikalarni qo'llaydi va intellekt diagnostikasini o'tkazadi, monitoring olib boradi va ijobiy o'zgarishlar va yaxshilanishlarni kuzatadi, oilalardagi psixologik iqlimni nazorat qilib boradi, bolalarga yordam beradigan intellektual, hissiy va psixologik rivojlanish treninglarni o'tkazishda zamonaviy interaktiv usul va texnologiyalardan foydalanadi.

### **XULOSA**

Bir so'z bilan aytish mumkinki mazkur tashkilotda himoyaga muhtoj, ijtimoiy yetim bolalar nafaqat ijtimoiy himoya qilinadi, shu bilan birgalikda tashkilot psixologlari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan vazifalar bajarilib, bolalarni yoshlik davrida olingan psixologik travmalarini bartaraf qilish uchun yordam ko'rsatiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda ular ilg'or xorijiy tajribadan foydalanadi, doimiy ravishda chet eldagi filiallar bilan fikr va tajriba almashishadi, malaka oshirib, yangi bilimlarni amaliyotga joriy qilishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston Sos Bolalar mahallalarida 200 nafar bola doimiy tarbiyalanib kelmoqda. Ushbu tashkilotning muhim vazifalaridan biri ham aynan ota-onasining qaramog'isiz qolgan va qiyin hayotiy sharoitlarga tushib qolgan bolalarga ijtimoiy va psixologik ko'makni ta'minlashdan iboratligi, bu jarayonda ular har bir bolaga individual yondashuvi, ularni o'z oilasidagi kabi sharoit va muhitga yaqinlashtirishga harakatlar, zamonaviy pedagogik va psixologik diagnostika texnologiyalaridan foydalanishi alohida diqqatga sazovordir.

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 31.12.1997 yil 585-son qaror "O'zbekistonda SOS Bolalar Mahallalari uyushmasini tashkil etish to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 21.11.2020 yil 738-son qaror "SOS O'zbekiston Bolalar Mahallalari Uyushmasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3. Должностная инструкция. Филиал Ассоциации «SOS Детские Деревни Узбекистана» в Хорезмской области
4. [www.sos-kd.uz](http://www.sos-kd.uz)

## **O'QUVCHI YOSHLARNI MUSIQIY TA'LIMDA CHOLG'U IJROCHILIGIGA QIZIQTIRISH**

**Ro'zimurodov Ilyosjon Azamat o'g'li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
musiqa madaniyati fakulteti  
"Ijrochilik maxorati va madaniyati" kafedrasida o'qtuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada musiqa, musiqa cholg'u asboblari, uning turlari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati, bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirish, musiqa psixologiyasi, turli xil o'yinli texnologiyalardan foydalanish, notaga qarab ijro qilish, hamda uning murakkab taraflari to'g'risida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *musiqa, musiqa cholg'u asboblari, bolalar, musiqiy-ritmik harakatlar, musiqa psixologiyasi, nota.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается музыка, музыкальные инструменты, их виды, детские музыкально-ритмические движения, состояние детского пения под наблюдением учителя музыки, формирование детского музыкального творчества, музыкальная психология, использование различных игровых технологий, игра согласно примечанию, а также его сложные аспекты.*

**Ключевые слова:** *музыка, музыкальные инструменты, дети, музыкально-ритмические движения, музыкальная психология, музыка.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses music, musical instruments, their types, children's musical and rhythmic movements, the state of children's singing under the supervision of a music teacher, the formation of children's musical creativity, musical psychology, the use of various gaming technologies, playing according to the note, as well as its complex aspects.*

**Keywords:** *music, musical instruments, children, musical-rhythmic movements, music psychology, music.*

### **KIRISH**

Musiqa (yun. *mousiche* — muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui



vositada aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar) ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar) ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari — Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonda shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir (5).

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqtirish to'g'risida fikr yuritishdan avval, musiqa cholg'u asboblari haqida to'xtalib o'tsak.

Musiqa cholg'u asboblari -musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg'u asboblarining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazon tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy

tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bogʻliq. Musiqa cholgʻu asboblari qadimdan qamish, bambuk, yogʻoch, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yongʻogʻi, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qoʻshimcha vositalar, ijrochilik uslublari (masalan, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), baʼzi musiqa bezaklari yordamida oʻzgartirish mumkin. Uning paydo boʻlishi insoniyat tarixining ilk davrlariga toʻgʻri keladi, mukammallanishi esa musiqa sanʼati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholgʻu asboblarini ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bogʻliq.

Musiqa cholgʻu asboblari tovush manbalariga qarab guruhlariga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi) ga qarab guruhchalarga, oʻziga xos qoʻshimcha belgilariga qarab xillarga boʻlinadi. Musiqa cholgʻu asboblari, asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamali (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektr va elektron musiqa cholgʻulari- idiofonlar guruhlariga boʻlinadi.

Torli cholgʻu asboblarning guruhchalari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, oʻzbek sozlaridan gʻijjak, koʻbiz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, doʻmbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari).

Puflab chalinadigan cholgʻu asboblarning guruhchalari: tilchali sozlar (surnay, qoʻshnay, boʻlamon, shoxnay, klarnet, goboy va boshqalar), tilchasiz sozlar (naylar, fleytalar), mundshtukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari).

Tilchali cholgʻu asboblarning boʻlinmalari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (changkoʻbiz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamali urib chalinadigan cholgʻu asboblarning guruhchalari: sozlanadigan (litavralar), sozlanmaydigan (nogʻora, doira, baraban, tamburin va boshqalar) cholgʻu asboblar.

Plastinkali cholgʻu asboblarning guruhchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilofonlar va boshqalar), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida maʼlum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, boʻsh idishlar va h. k. oʻrnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (chelesta va boshqalar).

Idiofonlarning guruhchalari: sozlanadigan (orkestr kolokoli, ko'ng'iroqchalar, gong va boshqalar), sozlanmaydigan (tarelkalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mislagan, zang va boshqalar) cholg'u asboblari.

Musiqa cholg'u asboblari. ba'zida xalq va professional (orkestr) turlarga ham bo'linadi. Orkestr cholg'ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko'p ovozli musiqa asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholg'ulari esa ma'lum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qo'llaniladi va musiqiy tovush quroli bo'lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklda xalq badiiy tafakkuri, nafas tasavvurlari, ramziy ma'nolar aks etgan. Cholg'ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta'sir o'tkazishda, harbiylar, cho'ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo'rqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan. (7)

Yuqoridagilardan kekib chiqqan holda, bolalarda musiqa tinglashga ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda musiqiy asarning o'rnini ham kattadir.

Musiqa asarining kayfiyati, harakterini mustaqil farqlash, taassurotlari haqida hikoya qilishga o'rgatish, vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar haqida tushuncha hosil qilish, ularni farqlashga o'rgatish. Marsh, qo'shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish, o'zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish, doira va nog'ora sadolaridan bahramand qilish, qayroq, taxta qarsak bilan tanishtirish har bir musiqa o'qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, ya'ni musiqaning tempi, ritmi, harakteriga mos ifodali harakatlanishi, kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o'zgartira olishi zarur.

Yengil, prujinasimon yurish, yugurish, sakrash, olding va orqaga, yonga qadam tashlash, oldinga hakkalash, raqs harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatish, musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish, qatorlardan doiraga shakliga o'tish, katta va kichik doiralar hosil qilish, bir nechta kichik doirachalarga bo'linishga o'rgatish, bolalarga o'zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o'rgatish, bolalarda raqsga oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo'lishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega.

Musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati quyidagicha amalga oshiriladi: bolalarda ifodali, sof va tabiiy ovozda kuylashga o'rgatish, bolalarning ovozinin yosh hususiyatlarini hisobga olib repertuar tanlash, to'g'ri nafas olish hamda kuylash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kichik ansambl bo'lib kuylash, solist bilan kuylashga o'rgatish, kuy ohangini to'g'ri ijro etilishiga

erishish. Shu bilan birga bolalarni ijrochilik cholg'ulariga qiziqtirish hamda ularni chalishga o'rgatish esa: doira, nog'ora, safoyl, quticha, taxta qarsak kabi cholg'ulari va ularda ijro etish usullari bilan tanishtirish, ovozidan farqlashga o'rgatish, kattalarga jo'r bo'lib zarbli orkestr hosil qilish juda yaxshi samara beradi.(6)

Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirishda asosan, o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiqlarni sahnalashtirish, davra qo'shiqlarida so'z, musiqa va harakatlarning bir-biriga mos bo'lishiga erishish, o'yinlarda musiqa mashg'ulotining barcha bo'limlaridan olingan bilimlarini mujassam holda namoyon etishga o'rgatish, obrazli harakatlarni bajarishda bolalarni umumiylikdan mustaqil va yakka bajarish sari boshlash, bolalarda obrazli tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi hususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish o'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqishini uyg'otadi.

6 yoshli bolalar bilishi lozim bo'lgan bilimlar:

- Musika asarining shaklini mustaqil aniqlay olish;
- Tinglangan asarlarning nomi va ijodkorlarini bilish;
- Musika asarining mazmunini tushunish va kayfiyatini farqlash;
- Bir oktava oralig'ida notalarni bilish, tovushqatorini kuylash;
- Vokal va cholg'u musiqasini farqlash;
- Orkestr, simfoniya, opera va balet janrlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;

-Qo'shiq nomi va bastakorini bilish;

-Musiqaga mos mustaqil harakatlana olish;

-Kuy qismlari o'zgarishiga qarab harakatlarni o'zgartirish;

-Cholg'u asboblarini farqlay olish;

-Bolalar cholg'ularida ijro usullarini bilish;

-Mustaqil obrazli harakatlar o'ylab topa olish va bajara olish;

-Bayram ertalıkları va ko'ngil ochish soatlarida faol ishtirok etish.

Shu bilan birga 7 yoshli bolalar quyidagilarni bilishi kerak bo'ladi:

1. Kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.
2. Tovushlarning balandlik, tembr, cho'zimplilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.
3. Ma'lum raqs harakatlarini egallaydi.
4. Jamoa bo'lib va yakka raqsga tusha oladi.
5. O'yin, raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks ettira oladi.
6. O'zbek xalq cholg'u asboblarini ko'rinishi va ovoz tembriga ko'ra farqlaydi.
7. Bolalar cholg'ulari ansambli va orkestrida ijro etish malakalarini egallaydi.

8. Tinglangan va kuylayotgan kuy va qo'shiqlarini mazmunini anglaydi va bayon etadi.

9. To'rtli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.

10. Bayram ertalıklarida faol ishtirok etadi. (1,26)

Ta'lim tizimida integrallashtirilgan mashg'ulotlarda musiqali didaktik o'yin psixologiyasi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tsak.

Musiqqa psixologiyasi psixologiya yo'riqlariga asoslanar ekan, bu tarmoq bolalarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mkon beruvchi musiqqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqqa psixologiyasida musiqiy zehn, musiqiy iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarlarni o'rganish va ular ustida ishlash, kontsertlarda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, bolalar va kontsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar bolalar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. (2,30)

Shu bilan birga o'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi. Ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Mustaqil mashg'ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo'ladi?

Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustaqil mashg'ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo'lsa, o'quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg'ulot qanday kechishidan qat'iy nazar, uni ma'lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaqlil mashg'ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz:

1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa.
2. Yangi berilgan vazifani o'zlashtirish 15-20 daqiqa.
3. Dam olish uchun 5 daqiqa.
4. Oldin o'rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa.

Keltirilgan vaqtlar me'yori taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko'paytirish mumkin. Mustaqil mashg'ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko'rinishi mumkin. Ammo mashg'ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko'zlangan natijaga bemaolol erishish mumkin.

O‘zbek xalq cholg‘uchilarida ijroni o‘rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birgalikdagi ijro paytida ko‘proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtda boshlay olmaslikdir. Bu paytda o‘quvchining diqqati tamomila o‘zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo‘rligi solistning ijrosi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birgalikda boshlash ko‘nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijyorning qo‘l harakati (auftakt)ga o‘xshatish mumkin. Musiqa asari davomida cholg‘uchi partiyasida ma’lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro, odatda davom etadi. O‘quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolish bilan bir qatorda o‘z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to‘la anglab olishi yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo‘nalishini aniqlab olish fortepiano jo‘rligida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma’lumki, har bir musiqa asari ma’lum kuy (ohang) asosida qurilgan bo‘ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasidami yoki solist partiyasidaligini ajrata bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi. Forteplano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun hetarli emas. Forteplano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozitsiyasini tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi.

Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda quyidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin:

- nota ko‘rinishining o‘quvchi ongiga yetib borishi;
- o‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi;
- kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi.

Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishini qabul qili b (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonning biror qismi yaxshi ishlamasa, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.(3,29)

Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga

tayyorgarlik ko'rishga tayyorlanadi. Tajribasiz o'quvchilar ko'p holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi.

Diqqat-e'tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlang'ich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda o'quvchi o'z e'tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keying taktlarini ijro etishda ham qo'llanadi. Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlatirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan ko'rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o'rin tutadi.

Ko'zga ko'ringan ijrochi - o'qituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashg'ulotlari qatoridan o'rin olishi shart. O'quvchi muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug'ullangan taqdirda turli davrga oid bo'lgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi.(4,63)

## **XULOSA**

Agar istisno tariqasida maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishni ko'radigan bo'lsak, bunda musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Musiqa – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o'rin tutadi.
2. Bolalar musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo'lib kelgan. Chunki jamiyat ma'naviyatini shaxs ma'naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi.
3. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbilash uchun davr talabi asosida musiqa mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish va qo'shiq o'rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda.
4. Bolalar ma'naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan tadbirlarda qo'shiq va raqslardan ko'proq foydalanish lozim.
5. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerak.
6. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa vositasida kichik yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

---

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog'chasida musiqa T.: O'qituvchi. 1990. 26-bet
2. Adabiyotlar: Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993. 30-bet
3. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.: O'qituvchi. 1993. 29-bet
4. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006. 63-bet
5. <https://fayllar.org/>
6. <https://uz.wikipedia.org/>
7. <https://goaravetisyan.ru/>



**UDK:542.14**

## **O‘ZBEKISTONDAGI LOGISTIK AKTIVLIK VA LOGISTIK TIZIMLAR FAOLIYATINING RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA TRANSPORT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR BOSQICHI**

**Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich**

Andijon mashinasozlik instituti, asissenti

E-mail: [sshodmonov1989@gmail.com](mailto:sshodmonov1989@gmail.com);

Tel.:+998993217989.

**Qurbonov Islombek Ibrohimjon o‘g‘li**

Andijon mashinasozlik instituti, talabasi

E-mail: [islombek7n@gmail.com](mailto:islombek7n@gmail.com);

Tel.:+998916002097

### **ANNOTATSIYA**

*Jadal suratlar bilan rivojlanayotgan logistik tizim uning faoliyati O‘zbekiston transportni hududiy boshqarish – logistik tizimi konsepsiyasini va ishining texnologiyasi ishlab chiqish, quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan bosqichlarni yuk oqimlarini boshqarish temir yo‘lda yuk tashuvchilar va boshqa transport turlarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish eksport darajasini oshiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ombor, yuk oqimlari, inter, multimodal tashish, konveyer, ekspeditor, transport, temir yo‘l, vagon, makro, mikro, mezo, savdo, sanoat, materiallar oqimi, korxonalar, sikli.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Быстро развивающаяся система логистики, ее деятельность Узбекистан Территориальное управление транспортом - разработка концепции и технологии логистической системы, последующие возможные этапы управления грузопотоками Расширение технических возможностей железнодорожных перевозчиков и других видов транспорта повышает уровень экспорта.*

**Ключевые слова:** *Склад, грузопотоки, интер, мультимодальные перевозки, конвейер, экспедитор, транспорт, ж/д, вагон, макро, микро, мезо, торговля, промышленный, материальный поток, предприятие, цикл*

### **ABSTRACT**

*Rapidly developing logistics system, its activities Uzbekistan Territorial transport management - development of the concept and technology of the logistics system, the following possible stages of cargo flow management Expansion of*

*technical capabilities of railway carriers and other modes of transport export level increases.*

**Keywords:** Warehouse, freight flows, inter, multimodal transportation, conveyor, forwarder, transport, railway, wagon, macro, micro, meso, trade, industrial, material flow, enterprise, cycle.

## **KIRISH**

Logistik tizim – u yoki bu logistika vazifasi va operatsiyalarni bajaruvchi teskari aloqaga moslashtirilgan tizimdir. U qoidaga ko‘ra, bir necha tizimlardan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqaga ega. Nazariyadan ma’lumki, har qanday tizim ikki yoki undan ortiq elementlardan tashkil topadi. Logistik tizimning tuzilishida quyidagi omillar hisobga olinadi. Buyurtmachi bilan ishlab chiqaruvchilarning aloqasini ta’minlaydi. Logistik soxasini rivojlantirishda tizimdagi o‘zgarishlar buyurtmalarning bajarilishini tashkil etishdi. Omborga joylashtirish va tashish, logistik tizim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib bir butunlik va alohidalik hamda aloqalar tashkil qilish bo‘yicha integrativ sifatlardan iboratdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Barcha transport majmuasi masshtabida yuk oqimlarini yagona markazlashgan logistik tizim asosida boshqarishni tashkil etish inter va multimodal tashish turlarini yanada samarali amalga oshirishga hamda yagona optimallashtirilgan transport konveyerini yaratishga imkon beruvchi logistik tizim asosida ekspeditorlik, stividorlik va boshqa yordamchi operatsiyalar markazlashadi, yuqori malakali transport, operatorlik va boshqa kompaniyalar vujudga keladi va mamlakat transport majmuasi infrastrukturasi ratsional rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi.



Transportni hududiy boshqarishda – tamit yo‘l logistik tizimi konsepsiyasi va ishining texnologiyasi ishlab chiqish, quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan hamda yuk oqimlarini boshqarish va temir yo‘lda yuk tashuvchilar va boshqa transport turlarining texnik imkoniyatlarini bog‘lash uchun yuklarni bir transport turidan ikkinchi transport turiga qayta ortish va vagonlarni turib qolish vaqtini tejash

va yuklarni ortish tushirish vaqtini tejash va samarali ta'minlash, multimodal tashishlarda barcha transport turlari qatnashchilarining manfaatlarini ko'zlash hududiy muammolarni e'tiborga olib undagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga sifatli eksport darajasini yaxshilaydi.



Logistik masalalarning hal qilinishida logistik markaz yuklangan vagonlarning kelishini boshqa transport turlari kelishi vaqtiga muvofiqlashtiradi. Taklif etilgan logistik markaz konsepsiyalari yaqin vaqtda ortilgan vagonlar oqimini o'tkazish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga imkon beradi. Boshqa transport turlarida qayta ishlov berish imkonini va xalqaro transport yo'lklarining raqobatbardoshligini oshiradi.


Transport logistik tizimi (TLT) samarali xizmat ko'rsatishi uchun logistik - axborot tizimi mukammal mezonlar ishlab chiqish quyidagi talablar javob berishi kerak bo'ladi, oddiylik – logistik axborotlarga yengil va oddiy yondoshish, aniqlik – transport terminallarida joriy operatsiyalarni, buyurtmalarni bajarishdagi jarayonning o'zgarishi yuk konsolidatsiyasi haqidagi axborotlarni aniq aks ettirishi, egiluvchanlik – transport-logistik zanjirdan foydalanuvchilar va mijozlarning ma'lumotlarga bo'lgan talabini boshqara olish qobiliyati tiklash zarur. Hisobot ma'lumotlarini samarali rasmiylashtirish – ma'lumotlar kompyuter monitorlari va hisobotda qulay shaklda bo'lishi lozim.

Logistik tizimlar makro, mikro, mezo logistik tizimlarga bo'linadi va shu uch bosqich asosida eksport, import tavarlarni ishlab chiqish xamkorlar bilan aloqa tizimini yaxshilash imkonini yaratadi, Logistik tamoillar muhim vazifani bajardi.

**Makrologistik tizim** – mamlakatdagi savdo, transport, sanoat, vositaviy korxonalarini qamrab oluvchi materiallar oqimini boshqaruvchi yirik tizimdir. Makrologistik tizim biror bir mamlakatning aniq iqtisodiy infrastrukturasi o'zida aks ettiradi. Makrologistik tizim quyidagi ko'rsatkichlarga qarab tavsiflanadi:

- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linish belgisiga ko'ra
- tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o'lka;
- mintaqaviy, mintaqalararo, respublika va respublikalararo;

- funksional – obyekt belgisiga ko‘ra;
- korxonalar, soha, korxonalar o‘rtasida, sohalararo, harbiy, institutsional va aloqalar tizimlarini mustaxkamlaydi.



**Mikrologistik tizim** makrologistik tizimning tarkibiy qismlari, tizimchalari hisoblanadi. Unga har xil ishlab chiqarish, savdo korxonalarini, hududiy ishlab chiqarish majmualari kiradi. Mikrologistik tizim ichki (ishlab chiqarish ichidagi), tashqi va integratsiyalashgan turlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar mahsulot ishlab chiqarishning texnologik sikli doirasida materiallar oqimini boshqarishni optimallashtiradi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimning asosiy vazifasi – yakunlanmagan ishlab chiqarish va material resurslar zaxiralarini kamaytirish, firmaning kapital aylanishini tezlashtirish, uzoq muddatli ishlab chiqarish davrini kamaytirish, material resurslar zaxira darajasini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transport ishini optimallashtirishdir. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizim ishini optimallashtirish mezoni mahsulot tannarxini va tayyor mahsulot sifatini berilgan darajada ta’minlash, uzoq muddatli logistik tarmoq davrini saqlaydi va minimallashtirish hisoblanadi.

**Mezologistik tizimlar.** Odatda davlatning xo‘jalik faoliyati makroiqtisodiyot deb yuritiladi. Bu tushuncha mustahkam iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mamlakatlarning xo‘jalik faoliyatini tavsiflash uchun ishlatiladi. Oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda va butun jahon amaliyotida yagona logistik tizimga bog‘langan korxonalarining katta guruhlaridan konglomeratlar tuzish jarayoni kuzatilmoqda. Konglomeratlar moliya – sanoat guruhlar korporatsiyasi hisoblanadi, bunda kapitallar birlashishi nazarda tutiladi. Ko‘rsatib o‘tilgan korporatsiyalar (bir mamlakatni qamrovchi) va transmilliy, ya’ni bir nechta mamlakatlar xo‘jalik faoliyatini birlashtiruvchi bo‘lishi mumkin. Har xil darajadagi shunday konglomeratlar tashkil bo‘lish jarayoni korporativlash nomini oldi.

## **XULOSA**

Moliyaviy kapital sohasida ham yirik xalqaro banklar birlashuvini yaratish, korporativlash jarayoni kuzatilmoqda. Bunday xo'jalik faoliyati iqtisodiyotning o'rta bo'g'ini – mezo-iqtisodiyot sohasining yaratilishiga olib keladi. Transportning barcha turlarida yuk tashish bo'yicha avtomobil transporti (1068,2 mln. tonna) ustunlik qiladi. Quvur yo'li transporti orqali 72,4 mln. tonna neft va gaz quyilgan, temir yo'l transporti orqali – 68,4 mln. tonna yuk tashildi. Yuk tashish bo'yicha eng kichik ko'rsatkich havo transportida 13,1 ming tonna qayd qilindi.

1-rasm. Transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning taqqoslanishi fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-dekabr nisbatan %
Transportda tashilgan yuklar, mln.tonna	1209,0	105,6
Temir yo'l transporti	68,4	100,8
Avtomobil transporti	1068,2	105,6
Havo transporti ming/t	13,1	49,6
Quvurlar transporti	72,4	111,2
Transport yuk aylanmasi mln/t	70560,6	105,7
Avtomobil transporti	22942,1	100,0
Havo transporti ming/t	13851,9	103,0
Quvurlar transporti	33643,2	111,4

Manba: DSQ statistik ma'lumotlari.

umumiy yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 88,3 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 11,7 % ga to'g'ri keladi.

## **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich., Raqamli logistikaning o'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida tutgan o'rni va ahamiyati. Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-texnika jurnali [www.nammti.uz](http://www.nammti.uz) muallif 1 2021 566-572 bet

2. Насиров И.З., Рахмонов Х.Н., Аббосов С.Ж. Результаты испытания электролизера // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2021. 6(87). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11860> (дата обращения: 03.12.2021).
3. Саримсаков А.М., Назиров Н. Организация управления деятельности Шахриханского автовокзала с информационными технологиями // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2022. 2(95). URL: <https://>
4. НАСИРОВ, И. З. ., & Аббаов С. Ж. . (2022). ВОДОРОД ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УСУЛЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАР. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 99–103. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/237>
5. Насиров И.З., Аббосов С.Ж. ГЕНЕРАТОРЛАРНИНГ АВТОМОБИЛЬ КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ // *Интернаука: электрон. научн. журн.* 2021. № 18(194). URL: <https://internauka.org/journal/science/internauka/194> (дата обращения: 25.11.2021).

## **SPORT TASHKILOTLARINING JAMOAT BIRLASHMALARI SIFATIDAGI ROLI VA O`RNINI YORITISH BILAN BOG`LIQ MUNOSABATLAR**

**Otobolyaev Dostonbek Mahmudjon o`g`li**

Toshkent davlat yuridik universiteti “Sport huquqi”

[doston.otabolaev@gmail.com](mailto:doston.otabolaev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mamlakatimizda so`nggi besh yillikda olib borilgan islohotlarning natijasida yurtimizda Yangi O`zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma`rifiy asoslari yaratildi.*

*Yoshlar hayotida sog`lom turmush tarzi va jismoniy tarbiyani rolini oshirish, yosh avlodni sportning barcha turlariga keng jalb qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo`lib, mazkur maqsadga erishish uchun mavjud sport muassasalarida yetarli sharoitlarni yaratish, shuningdek bu boradagi ishlarni tizimli ravishda samarali tashkil etishni taqozo etadi. Bugungi kunda yosh avlodni sog`lom, ma`nan hamda jismonan tarbiyalash davlatimizning sport sohasida olib borayotgan siyosatining asosiy yo`nalishlaridan bo`lib hisoblanadi.*

*Bejizga, “O`zbekiston Respublikasining Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida”gi qonunida jismoniy tarbiylash jarayoniga yuksak madaniyatga ega bo`lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog`lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon sifatida qaralishi belgilab o`tilmagan.*

***Kalit so`zlar:** Sport, tashkilot, jamoat birlashmalari, sport huquqi, jismoniy tarbiya, sport qoidalari hamda reglamentlari.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В результате реформ, проведенных в нашей стране за последние пять лет, в нашей стране созданы необходимые политические, правовые, социально-экономические и научно-образовательные основы для становления нового Узбекистана.*

*Повышение роли здорового образа жизни и физического воспитания в жизни молодежи, широкое привлечение подрастающего поколения к занятиям всеми видами спорта является одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. Сегодня здоровое, духовное и физическое воспитание*

*подрастающего поколения является одним из основных направлений государственной политики в области спорта.*

*Неслучайно Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте» не определяет как процесс, направленный на совершенствование навыков и знаний.*

***Ключевые слова:** Спорт, организация, общественные объединения, спортивное право, физическая культура, спортивные правила и нормы.*

### **ABSTRACT**

*As a result of the reforms carried out in our country over the past five years, the necessary political, legal, socio-economic, scientific and educational foundations for the formation of a new Uzbekistan have been created in our country.*

*Increasing the role of a healthy lifestyle and physical education in the life of young people, the widespread involvement of the younger generation in all kinds of sports is one of the most pressing issues today. Today, healthy, spiritual and physical education of the younger generation is one of the main directions of state policy in the field of sports.*

*It is no coincidence that the Law of the Republic of Uzbekistan "On Physical Culture and Sports" does not define it as a process aimed at improving skills and knowledge.*

***Keywords:** Sports, organization, public associations, sports law, physical culture, sports rules and regulations.*

### **KIRISH**

Hozirgi kunda mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo'yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yaxshilash kabi ishlarning olib borilishini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5887-son farmonida[1] belgilanishi futbolni sport turini mamlakatimizda yanada rivojlantirish uchun qo'yilgan navbatdagi qadamlardan desak to'g'ri bo'lardi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok



etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sportning rivojlanish uning faqat moddiy-texnik bazasi bilangina emas balkim mustahkam huquqiy asoslarining ham yaratilishi va ta'minlanishiga ham chambarchas bog'liqligini biz jaxon tajribasidan kuzatamiz. Xar bir sport turining rivojlanishi va bu sohaga raxbarlikni ta'minlanishi, sohaning bir maromda faoliyat yuritishi va takomillashib borishi uchun mazkur sohaga tegishli sport qoidalar hamda reglamentlarni ishlab chiqishga va o'rnatishga mas'ul bo'lgan sport tashkilotlari-jumladan sport federatsiyalarining tashkil etilishi juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunida[2] **sport federatsiyasiga quyidagicha tarif berilgan, ya'ni** sport federatsiyasi — “bir yoki bir nechta sport turini rivojlantirish, ommalashtirish, shuningdek sport tadbirlarini o'tkazishni tashkil etish hamda sportchilarni — O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari a'zolarini sportning tegishli turi bo'yicha tayyorlash uchun a'zolik asosida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkilotidir”.

Biroq Rossiya qonunchiligida ushbu atamaga boshqacha tarif ko'zda tutilgan. Rossiya Federatsiyasining “Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Federal qonunining 2-moddasining 16-bandida[3] unga quyidagicha tarif berib o'tilgan: sport federatsiyasi - bir yoki bir nechta sport turlarini rivojlantirish, ularni targ'ib qilish, tashkil etish, shuningdek, sport tadbirlarini o'tkazish va sport terma jamoalariga a'zo sportchilarni tayyorlash bo'yicha a'zolik va maqsadlar asosida tashkil etilgan jamoat tashkiloti” bo'lib hisoblanadi.

Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalariga o'z ustavlarida nazarda tutilgan asosiy maqsad va vazifalarni bajarish imkonini kafolatlaydi. Bu kafolat fuqarolarning ixtiyoriy uyushishga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalarining huquqiy asosi yaratilgan-Konstitutsiyaning XIII bobi hamda fuqarolarning jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etish (32-modda), kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda qatnashish (34-modda) huquqi kafolatlangan

O`zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida”gi Qonunida jamoat birlashmasi tushunchasi, maqsadi, shakllari, faoliyat doirasi va huquqlari, maqomi va ro`yxatga olinishi kabi normalar o`z ifodasini topgan.

O`z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro`yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasi hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. “Jamoat birlashmalari to`g`risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko`ra, “Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro`yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasbkor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog`lomlashtirish va sport ishlarini o`tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarni muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o`rtasida tinchlik va do`stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi”.

Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yoxud ayrim guruhlarining shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g`oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi-jamiyatni takomillashtirish. Ular o`z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo`ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo`nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o`zlariga o`zlari yordam berishlari, o`z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

*Rossiya Federatsiyasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida" gi qonunning 7-moddasiga muvofiq jamoat birlashmalari quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllardan birida tuzilishi mumkin:*

- jamoat tashkiloti;
- jamoat harakati;
- jamoat fondi;
- jamoat muassasasi;
- jamoat tashabbusi organi.

Insonning jismoniy tarbiya va sport faoliyatining asosiy rag'batlantiruvchi omillaridan biri uning jismoniy kamolotga bo'lgan ehtiyoji va uning asosida jismoniy tarbiya va sport manfaatlari shakllanishidir. Sport qiziqishlari-jismoniy mashqlar va sportga bo'lgan ehtiyojni, har qanday sport bilan shug'ullanish uchun maqsadli intilishni anglash shaklidir. Demokratik jamiyatda umumiy manfaatlarni himoya qilish uchun, albatta, aholining sport va jismoniy tarbiya manfaatlari, shuningdek, umumiy maqsadlarga erishish uchun turli xil jamoat birlashmalari tashkil etilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi jamoat birlashmalarining faoliyati "jamoat birlashmalari to'g'risida" va "notijorat tashkilotlar to'g'risida" Rossiya Federal qonunlari bilan tartibga solinadi.

*Jamoat birlashmasining muassislari, a'zolari va ishtirokchilari va ularga qo'yiladigan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

Jamoat birlashmasining muassislari jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar – syezd (konferentsiya) yoki jamoat birlashmasi ustavi qabul qilingan umumiy yig'ilishni chaqirgan jamoat birlashmalari bo'lib, rahbar va nazorat-taftish organlari shakllantiriladi.

Jamoat birlashmasining a'zolari – jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar-mazkur uyushma vazifalarini uning ustavi normalariga muvofiq birgalikda hal etishdan manfaatdor bo'lgan jamoat birlashmalari tegishli shaxsiy arizalar yoki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Jamoat birlashmasining ishtirokchilari jismoniy va yuridik shaxslar - ushbu uyushmaning maqsadlarini va (yoki) uning muayyan harakatlarini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, uning faoliyatida ishtirok etish shartlarini majburiy ro'yxatdan o'tkazmasdan ishtirok etgan jamoat birlashmalaridir.

Jamoat birlashmalarining muassislari, a'zolari va ishtirokchilari 18 yoshga to'lgan fuqarolar bo'lishi mumkin. 14 yoshga to'lgan fuqarolar yoshlar jamoat birlashmalarining a'zolari va ishtirokchilari bo'lishi mumkin. 8 yoshga to'lgan fuqarolar bolalar jamoat birlashmalarining a'zolari va ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Jamoat birlashmalari qonun bilan belgilangan ularning muassislari tashabbusi bilan – kamida uchta jismoniy shaxs tomonidan belgilangan tashkiliy shakllardan birida tuziladi.

Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi jamoat birlashmasini tashkil etish uchta usulda amalga oshirilishi mumkin. *Birinchi usul* – tashkil etilayotgan sport tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan. *Ikkinchi usul* – sport organlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish. *Uchinchi usul* – Sport tashkiloti boshqa tashkilotning tarkibiy bo'linmasi sifatida ham faoliyat yuritishi mumkin.

Jamoat birlashmasini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbarlik va nazorat-taftish organlarini shakllantirish to'g'risidagi qaror syezd (konferentsiya) yoki umumiy yig'ilishda qabul qilinadi.

Xorij tajribasiga tayanadigan bo'lsak, jumladan, Rossiya Federatsiyasida butun Rossiya, mintaqalararo, mintaqaviy va mahalliy jamoat birlashmalari tashkil etilmoqda va faoliyat yuritmoqda. Sport jamoat birlashmalari davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'muriy tartib xususiyatlarini tahlil etib, biz davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza berigan kundan boshlab 30 kun ichida Rossiya Adliya vazirligi yoki uning hududiy organi, uning davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish va arizachiga yozma ravishda rad etishni talab qiladi[4].

Rossiya Adliya vazirligi yoki uning hududiy organi davlat Sport Jamoat birlashmasini ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, vakolatli ro'yxatga olish organiga (FTS, uning hududiy organlari) ushbu organ tomonidan yuridik shaxslarning yagona davlat reestrini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni yuboradi. Federal soliq xizmati, ushbu ma'lumotlar va hujjatlar olingan kundan boshlab ko'pi 5 ish kun muddatda uning hududiy organlari, yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli qaydni amalga oshiradi va bunday qayd etish kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, jamoat birlashmasi davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan organga xabar beradi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi va "Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Federal qonunlari bilan belgilangan talablarga Sport jamoat birlashmasining ramzlarining nomuvofiqligi xolatlari bunga misol bo'la oladi. Nomuvofiqlik davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari nomlari, milliy yoki diniy mansubligini tan olish bo'yicha ko'rsatmalar, shuningdek, fuqaroning nomi va familiyasi nomida foydalanish taqiqini buzgan holda ifodalanishi mumkin. Nom bilan bog'liq ro'yxatdan o'tishni rad etish, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish to'g'risidagi Rossiya federatsiyasi qonunchiligini buzganda ham kuzatilishi mumkin.

Masalan, Nizomning 2-bandida ushbu Sport jamoat birlashmasining vazifalaridan biri sifatida "...Rossiya davlatining mudofaasi va milliy xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish " deb ko'rsatilgandi. "Jamoat birlashmalari to'g'risida" gi Qonunning 17-moddasi[6], " davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga jamoat birlashmalarining aralashuvi yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilgan.

### **XULOSA**

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida xam "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuning 12-moddasida Jamoat birlashmalarini ustavini ro'yxatga olishni rad etish asoslari keltirib o'tilgan. Jamoat birlashmalari Ustavini ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda bu haqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunchilik qoidalariga zid ekanligi ko'rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi. Jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin hamda bu O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligida keltirilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin[7].

**Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki**, bugungi kunda jamoat birlashmalari sifatida sport jamoat birlashmalarining faoliyati mamlakatlar milliy qonunchiligi bilan mustaxkamlab qo'yilgan. Sport jamoat birlashmalarining faoliyatini rivojlanishi, mavjud bo'lishi albatta tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga yetarlicha huquqiy tartibga solinishi, xar bir mamlakatda mustaxkam huquqiy asoslarni talab etadi. O'zbekiston hamda Rossiya qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Sport jamoat birlashmalarini faoliyatini huquqiy ta'minlash bo'yicha ushbu mamlakatlar keng qonunchlik bazasiga egadir.

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5887-son farmoni, PF-5887-сон 04.12.2019. O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni, 223-XII-сон 15.02.1991. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida (lex.uz).
3. Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Federal qonunining 2-moddasining 16-bandi, О физической культуре и спорте в Российской Федерации от 04 декабря 2007 - docs.cntd.ru.

- 
4. Особенности государственной регистрации общественных спортивных объединений (часть 3) (center-bereg.ru).
  5. Аналитическая справка по регистрации общественных и религиозных организаций Саратовской области и по контролю за их уставной деятельностью с 1999 г. по 2009 г. // Общественные объединения Саратовской области: проблемы правового регулирования. Саратов: Мадригал, 2009. С. 119 — 122.
  6. Rossiya Federatsiyasi “Jamoat birlashmalari to`g`risida”gi qonuni, Об общественных объединениях от 19 мая 1995 - docs.cntd.ru
  7. O`zbekiston Respublikasi “Jamoat birlashmalari to`g`risida”gi qonuni, 223-XII-сон 15.02.1991. O`zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to`g`risida (lex.uz).

## **ISLOMIY SUG‘URTA-TAKOFULNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI**

**Isoxonov Javlonxon Hasan o‘g‘li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada O‘zbekistonda takoful - islomiy sug‘urtani joriy etish va rivojlantirish, islom moliyasining mohiyati va uning zamonaviy moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish xamda takofulning ishlash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish; sug‘urta bozorida takofulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarini yoritib berish, sug‘urta bozorida takofulning rivojlanishi va zamonaviy xolatini baholash masalalari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** takoful, sug‘urta, islom moliyasi, garar, maysir, sug‘urta jamg‘armasi, sug‘urta operatori.

## **LEGAL REGULATION OF ISLAMIC INSURANCE AND TAKOFUL**

**Isakhonov Javlonkhon Hasan ugli,**

Master of Tashkent State Law University

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*The article examines the introduction and development of takoful - Islamic insurance in Uzbekistan, the study of scientific approaches to the essence of Islamic finance and its modern financial instruments, as well as the scientific basis of the mechanism and typology of takoful; the content of takoful as an economic category in the insurance market and the scientific and theoretical views on its role, the development of takoful in the insurance market and the assessment of its current state.*

**Keywords:** takoful, insurance, Islamic finance, garar, maysir, insurance fund, insurance operator.

## **ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ТАКОФУЛА**

**Исахонов Джавлонхон Хасан углы,**

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: [javlonxonisoxonov87@gmail.com](mailto:javlonxonisoxonov87@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются научные основы внедрения и развития такофула в Узбекистане – исламского страхования, сущность исламских финансов и его современных финансовых инструментов, а также механизм и типология такофула; содержание такофула как экономической категории на страховом рынке и научно-теоретические взгляды на его роль, развитие такофула на страховом рынке и оценка его современного состояния.*

***Ключевые слова:** такофул, страхование, исламские финансы, гарар, майсир, страховой фонд, страховой оператор.*

## **KIRISH**

Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan **takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari** va **o'zaro sug'urta** ko'rinishida. Islomiy sug'urtalash asosi bo'lgan takofulni ko'rib chiqadigan bo'lsak, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada takofulni yangi moliyaviy instrument sifatida joriy kilishning ilgor xorijiy tajribaga asoslangan ustuvor vazifalarini aks ettiruvchi konstruktiv boskichlari ishlab chiqilgan; "takoful" iqtisodiy kategoriyasini uning genezisi, konseptual tamoyillari, tipologiyasini xisobga olgan xolda ushbu instrumentni oddiy aksiya va obligatsiyalardan farqli ravishda alohida turdagi qimmatli qogoz sifatida belgilash taklif etilgan; moliyaviy sektorlar o'rtasidagi raqobatning ta'minlanishi va foydalanilmayotgan jamgarmalarning investitsiyaga transformatsiyalanishi orkali takoful rivojlanishining iqtisodiyotga ijobiy ta'siri asoslangan; riskning mavjudligi, faoliyat natijasida kuriladigan foydaga manfaatdor bulish va kupchilikning manfaati bir kishining manfaatidan ustunligi xususiyatlarini ochib berish orkali O'zbekistonda takoful instrumentidan mushoraka, mudoraba, murobaxa, salam, istisno xamda ijara kelishuvlari tamoyillari asosida foydalanish taklif etilgan.



## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sugurta mamlakat moliya tizimining eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar shu jumladan yurtimizda malda bo'lib kelayotgan an'anaviy sugurta tizimi o'zida **ribo (foiz)**, **garar (noaniqlik)**, va **maysir (qimor)** elementlarining mavjudligi musulmonlarning diniy aqidalariga to'g'ri kelmaydi.

Islomda sug'urtaning kelib chiqishini aniq aniqlash qiyin. Biroq, bugungi kunda sug'urta shartnomasining xususiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, sug'urta operatsiyalari Muqaddas Payg'ambar Muhammad (SAV) davridan beri amal qilingan edi. Musulmon dunyosida sugurta asta-sekin rivojlangan o'n to'qqizinchi asr Hanafiy yuristi Ibn Obidin (1784-1836) birinchi bo'lib sug'urtaning mazmuni, tushunchasini ilgari surgan. [1]

Takaful to'g'ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug'urta jamg'armasi tuziladi. Jamg'arma a'zolari oldindan e'lon qilingan tartib-qoidaga ko'ra sug'urta uchun badallarni ehson sifatida jamg'armaga kiritishadi, jamg'arma esa o'z mulkiga aylangan ushbu mablag'lar hisobidan a'zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug'urtadan ortgan mablag'larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo'yilishi yoki a'zolar o'rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg'armaning qoldig'idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko'rsatilishi mumkin.

Insonning barcha faoliyati kutilmagan hodisalar tufayli yo'qotish xavfi ostida. Jismoniy shaxslar uchun bu yukni engillashtirish uchun biz hozir sug'urta deb ataydigan narsa kamida miloddan avvalgi 215 yildan beri mavjud. [2] Ushbu kontseptsiya 1400 yildan ortiq vaqt davomida turli shakllarda qo'llanilgan. U arabcha "**kafala**" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "**bir-birini kafolatlash**" yoki "qo'shma kafolat" degan ma'noni anglatadi. Kontseptsiya kompensatsiya va jamiyat o'rtasidagi mas'uliyatni taqsimlash tamoyillariga mos keladi.

Takoful qadimgi arab qabilalarida boshqa qabila a'zolariga qarshi jinoyat sodir etganlarni jabrlanganlarga yoki ularning merosxo'rlariga tovon to'lash majburiyatini yuklagan umumiy javobgarlik sifatida paydo bo'lgan. Keyinchalik bu tamoyil hayotning ko'plab jabhalariga, jumladan, dengiz savdosiga taalluqli bo'lib, ishtirokchilar guruhdagi dengiz sayohatlarida baxtsiz hodisalarga duch kelgan har qanday kishini qoplash uchun fondga o'z hissalarini qo'shgan.

Zamonaviy an'anaviy sug'urtada sug'urta sotuvchisi (sug'urta kompaniyasi) polislarini sotadi va tushumni o'z aktsiyadorlari foydasi uchun investitsiya qiladi. Shunday qilib, sug'urtalovchilar va aktsiyadorlar o'rtasida aniq tafovut mavjud.

Sug'urtalovchilarga to'lovlar moliyaviy ko'rsatkichlarga qarab farq qilishi mumkin, ammo minimal ijobiy daromad har doim shartnomada kafolatlanadi.

Takoful odatda islom sug'urtasi deb ataladi; Bu esa, **kafala** (kafolat) [2]shartnomasi bilan sug'urta shartnomasi o'rtasidagi zohiriy o'xshashlik tufaylidir. Biroq, takaful kooperativ tamoyiliga va aktsiyadorlarning mablag'lari va operatsiyalari o'rtasidagi bo'linish tamoyiliga asoslanadi, shu bilan takoful (sug'urta) jamg'armasi va operatsiyalariga egalik huquqi sug'urtalanganlarga o'tadi. Musulmon huquqshunoslari islomda sug'urta umumiy javobgarlik, umumiy tovon, umumiy manfaat va birdamlik elementlarini o'z ichiga olgan o'zarolik va hamkorlik tamoyillariga asoslanishi kerak, degan xulosaga keladi.

Takafulda sug'urtalovchilar sug'urta sotuvchisi (takaful operatori) bilan qo'shma investorlar bo'lib, ular sug'urtalovchilar uchun **mudarib** – boshqaruvchi yoki **tadbirkor agenti** [2]vazifasini bajaradi. Sug'urta polisi egalari investitsiya pulining foydasiga, shuningdek uning zarariga ulushadilar. Siyosat bo'yicha ijobiy daromad qonuniy ravishda kafolatlanmaydi, chunki har qanday qat'iy foyda kafolati foizlarni olishga o'xshaydi va ribaga nisbatan taqiqni buzadi. Bir muncha vaqt an'anaviy sug'urta muomaladagi haddan tashqari noaniqlikni va foizli aktivlarga sarmoya kiritishni taqiqlovchi shariatga to'g'ri kelmaydigan deb hisoblangan; ikkalasi ham an'anaviy sug'urta biznesiga xos omillardir.

Biroq, takaful shariatga (tovon tamoyillari va jamiyat o'rtasida umumiy mas'uliyatni belgilaydi) mos keladi va musulmon ulamolari tomonidan tasdiqlangan. Hozir musulmon jamoalari uchun umumiy, salomatlik va oilaviy (hayot) takaful rejaları mavjud. Islomiy sug'urtalashda o'ziga xos sha'riy normalar asosida tartibga solinadi:

**Garar** – sug'urta shartnomasida garor mavjud, chunki da'vo qilinmasa, bir tomon (sug'urta kompaniyasi) olingan barcha foydani (sug'urta kompaniyasi) olishi mumkin, ikkinchi tomon (ishtirokchi) esa hech qanday foyda olmaydi. Musulmonlarning yetakchi olimi Ibn Taymiya "Shartnomada topilgan G'aror bir taraf foyda ko'rgani, ikkinchi taraf esa yo'qligi sababli mavjud bo'lgan", deb asoslab berdi. Gararni taqiqlash, sug'urtalovchining investitsiyalari daromadiga nisbatan haddan tashqari noaniqlikni oldini olish uchun barcha investitsiya daromadlari va yo'qotishlarini oxir-oqibat taqsimlashni talab qiladi. [3]

**Maysir** - islom ulamolari maysir (qimor) va g'arorning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaganlar. G'aror unsurlari mavjud bo'lgan joyda odatda maysir unsurlari bo'ladi. Maysir sug'urta shartnomasida mavjud bo'lganda; polis egasi kattaroq summaga ega bo'lish umidida oz miqdorda mukofot to'laydi; sug'urta hodisasi ro'y

bermagan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta mukofoti uchun to'langan pulni yo'qotadi; Agar da'volar polis egalari tomonidan qo'shgan mablag'dan yuqori bo'lsa, kompaniya taqchil bo'ladi. [3]

**Ribo** - shartnoma bo'yicha kafolatlangan to'lovni va'da qiluvchi an'anaviy vaqf sug'urta polislari, shuning uchun riba taqiqini buzadi. Riba elementi an'anaviy sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanuvchilarning da'volarini to'lash uchun ishlatiladigan investitsiyalar foydasida ham mavjud. Buning sababi shundaki, sug'urta fondlarining aksariyati ular tomonidan riba elementlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan obligatsiyalar va steklar kabi moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi. [3]

Qimor o'yinlari va sug'urta ikki xil va turli xil operatsiyalardir. Qimor o'yinlari xavfni baholashda spekulativdir, sug'urta esa sof xavf bo'lib, spekulativ emas. Qimor o'yinlarida ushbu xavfni yaratib, g'alaba qozonishi yoki yutqazishi mumkin. Sug'urtada xavf allaqachon mavjud va bu xavfning moliyaviy oqibatlarini minimallashtirishga harakat qiladi. Sug'urta bu xavfning ta'sirini boshqa birovga o'tkazadi va odamni xavfdan xalos qiladi. Shunga qaramay, xavf saqlanib qolmoqda.

Qimor o'yinlari nifoq, vayronagarchilik va nafratni keltirib chiqarsa, hamkorlik tamoyillariga asoslangan sug'urta sug'urtalangan shaxsga moliyaviy ta'sirni kamaytirishga imkon beradi, bu holda u shaxsni va uning qaramog'idagilarni qashshoqlikka olib kelishi va shu bilan ularning jamiyatdagi o'rnini zaiflashtirishi mumkin. Islomda odamlarga qaramog'idagilar uchun rizq-ro'z berishdan to'sqinlik qiladigan hech narsa yo'q. Sug'urtalangan aholining katta guruhlari uchun umumiy hisoblangan sug'urta jamiyatning moliyaviy bazasini mustahkamlaydi.

Islom olimi Yusuf Ali o'zining "Qur'oni Karim" tarjimasida "Baqara" surasi, 219-oyatni sharhlaydi: "Sug'urta biznes tamoyillari asosida amalga oshirilsa, qimor o'ynamaydi. keng miqyosdagi statistik ma'lumotlar, bundan shunchaki tasodif yo'q qilinadi. Sug'urtalovchilar xatarlarga mutanosib ravishda, aniq va ilmiy hisoblangan holda mukofot oladilar".[4]

Islom sug'urtasi har bir ishtirokchidan bir-birini qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan jamg'armaga o'z hissasini qo'shishni talab qiladi, har bir ishtirokchi kutilgan da'volarni qoplash uchun etarli miqdorda mablag' ajratadi. Takofulning asosiy tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: Siyosat egalari umumiy manfaatlar uchun o'zaro hamkorlik qiladilar. Har bir sug'urta egasi yordamga muhtoj bo'lganlarga yordam berish uchun badalning bir qismini xayriya sifatida to'laydi. [5]

Yo'qotishlar bo'linadi va majburiyatlar jamiyatni birlashtirish tizimiga muvofiq taqsimlanadi. Obuna va kompensatsiyaga nisbatan noaniqlik bartaraf etiladi. U

boshqalarning evaziga foyda olishga intilmaydi. Nazariy jihatdan, "Takaful" kooperativ sug'urtasi sifatida qabul qilinadi, bu erda a'zolar umumiy hovuzga ma'lum miqdorda pul qo'shadilar. Bu tizimning maqsadi foyda emas, balki "bir-biringizning yudingizni ko'taring" tamoyilini qo'llab-quvvatlashdir. [4]

Zamonaviy biznesda baxtsizliklar tufayli yo'qotish xavfini kamaytirish usullaridan biri sug'urta qilishdir. Resurslar muhtojlarga yordam berish uchun birlashtirilgan sug'urta tushunchasi islom tamoyillariga mutlaqo zid emas. An'anaviy sug'urtani takafuldan uchta muhim farq ajratib turadi:

An'anaviy sug'urta sug'urta shartnomasida haddan tashqari noaniqlik (g'arar) elementlarini o'z ichiga oladi;

Qimor (maysir) kelajakdagi natijalarga tayanadigan haddan tashqari noaniqlik mavjudligining oqibatlari sifatida an'anaviy sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatiga qiziqish (riba);

An'anaviy sug'urta kompaniyalari aktsiyadorlar uchun foyda olish istagidan kelib chiqadi; An'anaviy sug'urta tizimi ekspluatatsiya qilinishi mumkin. Misol uchun, kompaniyaga bunday ortiqcha narxlarning to'liq foydasi bilan yuqori mukofotni (ayniqsa monopolistik holatlarda) olish mumkin. [6]

Takoful va an'anaviy sug'urta o'rtasidagi asosiy farq xavfni baholash va boshqarish usulida, shuningdek, Takaful fondini boshqarishda. Qo'shimcha farqlar operator (an'anaviy sug'urta bo'yicha: sug'urtalovchi atamasi yordamida) va ishtirokchilar (odatda sug'urtalangan yoki sug'urtalanuvchi) o'rtasidagi munosabatlarda ham mavjud. Takoful biznesi an'anaviy sug'urtadan ham farq qiladi, unda aktsiyadorlar emas, balki sug'urta egalari faqat Takaful va investitsiya aktivlaridan olinadigan foydadan foydalanadilar. Takaful qanday ishlaydi Barcha ishtirokchilar (polis egalari) bir-birlariga kafolat berishga rozi bo'lishadi va badallarni to'lash o'rniga ular investitsiya fondiga yoki pul jamg'armasiga hissa qo'shadilar. Yig'ilgan badallar jamg'armasi Takaful fondini tashkil qiladi. Har bir ishtirokchi qo'shadigan hissa miqdori ular talab qiladigan qoplama turiga va shaxsiy sharoitlariga qarab belgilanadi. An'anaviy sug'urtada bo'lgani kabi, polis (takaful shartnomasi) tavakkalchilikning xususiyatini va qoplash muddatini belgilaydi. [7]

Takaful jamg'armasi ishtirokchilar nomidan xarajatlarni qoplash uchun kelishilgan to'lovni oladigan **takaful operatori** tomonidan boshqariladi va boshqariladi. Ushbu xarajatlarga sotish va marketing, anderryayting va da'volarni boshqarish xarajatlari kiradi. [8]

## **XULOSA**

Islom moliyasining moxiyati va uning zamonaviy moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish xamda takofulning ishlash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sugʻurta bozorida takofulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarini yoritib berishda bugungi kun qonunchiligi asosida oʻrganish lozim.

Sugʻurta bozorida takofulning rivojlanishi va zamonaviy xolatini baxolash; takoful moliyaviy instrumentining iqtisodiyot taraqqiyotiga taʼsirini ekonometrik taxlillar orqali asoslash; xalkaro tajribada takofulni joriy etishning ilgor mexanizmini tadqiq qilish va uziga xos xususiyatlarini aniqlash masalalari yoritilishi lozim.

Oʻzbekiston iqtisodiyotiga takofulni joriy kilishning tashkiliy-xuquqiy asoslarini taxlil qilish va Oʻzbekiston iqtisodiyotiga takofulni joriy etish va rivojlantirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Oʻzbekistonda takoful instrumentidan mushoraka, mudoraba, murobaxa, salam, istisno xamda ijara kelishuvlari tamoyillari asosida foydalanish taklif etilgan.

Takofulni yangi moliyaviy instrument sifatida joriy kilishning ilgor xorijiy tajribaga asoslangan ustuvor vazifalarini aks ettiruvchi konstruktiv bosqichlari ishlab chiqilishi lozim.

## **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. [https://ahlisunna.uz/ibn\\_obidin\\_rahimahulloh\\_tavassul\\_qilganlar/](https://ahlisunna.uz/ibn_obidin_rahimahulloh_tavassul_qilganlar/)
2. Daud, R. (2009, September). Underwriting family Takaful Schemes. Retrieved August 8,2012, from <http://www.kantakji.com/fiqh/Files/Insurance/D319.pdf>
3. Jurayev B. (tarj.) “Islomiy moliya va bank tizimi”. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2019 y.
4. [https://hozir.org/pars\\_docs/refs/87/86767/86767.pdf](https://hozir.org/pars_docs/refs/87/86767/86767.pdf)
5. Baydaulet E.A. “Islom moliya asoslari”. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2019 y.
6. Z. Iqbal, A. Mirakhor. “An Introduction to Islamic Finance”. John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd. Published 2011 y.
7. Bekken R.I. “Islom iqtisodiy modeli va zamon”. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2019 y.

## **KOBALT SAQLAGAN KEKLARNI GIDROMETALLURGIK QAYTA ISHLASH USULLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH.**

**Sunnatov J.B.**

**Qarshiyev H.K.**

**Shaymanov I.I.**

I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada kobalt saqlagan keklarni turli xil kislotalar yordamida gidrometallurgik yo'l bilan qayta ishlab uning tarkibidagi rangli metallar (Co, Ni, Zn) ni kompleks ajratib olishning zamonaviy usullari ko'rib chiqilgan. Har bir usulning yutuq va kamchiliklari batafsil yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Gidrometallurgiya, ammiakli-ammoniy-sulfat usuli, Ekstraksiya usuli, D2EGFK, NaOH,  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol, sulfatlovchili kuydirish.*

## **RESEARCH AND ANALYSIS OF HYDROMETALLURGICAL PROCESSING OF COBALT CAKE**

**Sunnatov J.B.**

**Karshiev Kh.K.**

**Shaimanov I.I.**

Almalyk branch of Tashkent State Technical University named after I. Karimov.

### **ABSTRACT**


*The article discusses modern methods of complex extraction of non-ferrous metals such as (Co, Ni, Zn) with hydrometallurgical processing of cobalt-containing cakes using various acids. The advantages and disadvantages of each method are described in detail.*

***Key words:** hydrometallurgy, ammonia-ammonia-sulphate method, extraction method, D2EGFK, NaOH,  $\alpha$ -nitroso- $\beta$ -naphthol, sulfate roasting.*

### **KIRISH**

Hozirgi kunda kobalt saqlovchi yarim tayyor mahsulotlardan, murakkab tarkibli ruda va konsentratlardan kobaltni ajratib olish uchun piro - hamda gidrometallurgik usullardan keng foydalanib kelinmoqda. Pirometallurgik jarayonlar atrof muhitga katta miqdorda turli xildagi chiqindilar chang gaz va toshqol chiqarishi va jarayonga sarflanadigan kapital sarf xarajatlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Yildan yilga yashil metallurgiyaning rivojlanib borishi uning oldiga har qanday

turdagi xomashyolarni qayta ishlashda atrof muhitga yetqaziladigan zararni ko'lamini kamaytirishni vazifa qilib qo'ymoqda. Bu ishlarning amaliy yechimi esa gidrometallurgik usul hisoblanadi. Tadqiqot obyekti sifatida "Olmaliq" KMK AJ Rux ishlab chiqarishda hosil bo'layotgan oraliq mahsulotlar (keklar) olindi. Tadqiqot obyekti miqdoriy tarkibi % da: Rux – 25-45, kobalt – 0,5-2, kadmiy – 3-5. Maqsad. Kobalt saqlagan keklarni gidrometallurgik qayta ishlash usullarini o'rganish va tahlil qilish. Vazifa. Kobaltni eritmadan yarim tayyor yoki tayyor mahsulot ko'rinishida ajratib olish. Rux ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlardan rux va kobaltni gidrometallurgik yo'l (ammiakli-ammoniy-sulfat usuli bilan tanlab eritish usuli) bilan ajratib olishni o'rganishgan (AAS) [1]. Jarayonning texnologik sxemasi AAS 1 rasmda keltirilgan. Ushbu jarayon mahsulotlari sifatida rux kukun holida kobalt esa yuqori sifatli oksid holigacha tiklab ajratib olingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki Zn, Co va Cd larni tanlab eritish darajalari mos ravishda 91,18, 96,98 va 89,35 % larni tashkil qilgan. Ammiakli tanlab eritishdan olingan kobaltga boy bo'lgan qoldiqni tozalashdan olingan eritmada Co-3,79 % ni tashkil etib dastlabki xomashyo tarkibidagi kobalt miqdoridan 8,4 marta ko'p bo'lgan. Qolgan qo'shimchalar Fe, Pb, Ca va Mg lardan ASS tanlab eritishda tozalanadi sababi shuki ushbu elementlar ammiakli kompleks hosil qilishmaydi [2]. Shu bilan kobaltni yuqori ajratib olish darajasi 80 % dan ortiq bo'lgan va buning uchun ASS tanlab eritish olib borilgan [3].



1-rasm AAS tanlab eritishning texnologik sxemasi.

Jadval № 1


Xona haroratida kobalt-ammiakli kompleksning barqarorlik konstantasi.

Komplek s turlari	$\text{Co}(\text{NH}_3)_2^+$	$\text{Co}(\text{NH}_3)_2^2$	$\text{Co}(\text{NH}_3)_3^2$	$\text{Co}(\text{NH}_3)_4^2$	$\text{Co}(\text{NH}_3)_5^2$	$\text{Co}(\text{NH}_3)_6^2$
$\lg\beta_i$	2,11	3,74	4,79	5,55	5,73	5,11

Jadvaldan shuni tushunish mumkinki agarda ammiak konsentratsiyasini oshirib borilsa kobaltni tanlab eritish imkoniyatini ham oshib boradi.

Ekstraksiya usuli asosan gidrometallurgik jarayonlarda eng keng qo'llanilib kelinayotgan usullardan biri bo'lib bunda asosan tanlab eritishda olingan eritmadagi metal ionlarini bir biridan ajratishda, tozalashda va qo'shimchalarni yo'qotishda foydalaniladi [4]. Rux va kobaltni bir biridan ajratishda D2EGFK ning samarali organik erituvchi ekanligi Kongolo tomonidan isbotlangan. Yana Banza [5] ham eritmadagi ruxni kobaltdan muvaffaqiyatli ajratib olishga erishganlar. Muhit pH 3,5 bo'lganda bir vaqtning o'zida rux va kobaltning D2EGFK ga ajratib olinish darajasi 20 % dan tashkil qildi. So'ngra ushbu metallarni ekstragentdan ajratib olish qayta tozalash orqali 2 bosqichda amalga oshirildi muhitlar mos ravishda pH 2,5 va 1,5 ushlab turildi. Natijada rux va kobaltni ajratib olish darajasi 90 % ni tashkil qildi . Kumar [6] ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki yuqori pH muhitlarida kobaltni ajratib olish 0,64 M sovunlangan D2EGFK da amalga oshirilgan. pH 2 dan past bo'lgan muhitlarda ruxni ekstraksiya qilish kobaltni ekstraksiyalashdan afzalroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zn-Co sulfatli eritmalaridan rux va kobaltni ajratoshining texnologik sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan.





2-rasm D2EGFK yordamida rux va kobaltni bir biridan ajratishning texnologik sxemasi.

2-jadvalda keltirilgan orthogonal tajribalar natijalari bizga turli xil faktorlarni rux va kobaltni tanlab eritishga ta'sirini o'rganishga yaqindan yordam beradi.

Tajriba ishlari shuni ko'rsatdiki tanlab eritishda NaOH konsentratsiyasi va harorat Zn,Co,Cd ni tanlab eritish darajasini belgilab beruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. NaOH 2,5 mol/l, S:Q nisbat 20:1 harorat 30°C va davomiylik 40 daqiqani tashkil qilganda Zn,Co,Cd larning tanlab eritish darajalari mos ravishda 96,33, 4,02 va 4,18 % larni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki ishqorli tanlab




eritish Zn, Co va Cd ni bir biridan ajratib olishda eng samarali usul bo'lib xizmat qilarkan.

Jadval № 2

Ortogonal tajriba ishlarining natijalari.


№	NaOH konsentratsiyasi mol/litr	S:Q nisbat	Davomiylilik, daqiqa	Harorat, °C	Zn, eritmaga o'tish darajasi %	Co, eritmaga o'tish darajasi %	Cd, eritmaga o'tish darajasi %
1	2,1	16	32	28	52,88	2,03	0,86
2	2,1	17	34	30	84,81	2,20	2,03
3	2,1	18	36	33	78,51	1,47	1,00
4	2,1	19	38	35	77,98	1,67	1,09
5	2,2	16	34	33	90,25	1,31	1,93
6	2,2	17	32	35	83,60	1,52	1,59
7	2,2	18	38	28	90,86	1,90	1,67
8	2,2	19	36	30	46,78	4,06	1,77
9	2,3	16	36	35	96,84	2,34	1,62
10	2,3	17	32	33	49,29	3,21	1,25
11	2,3	18	38	30	91,84	1,68	1,77
12	2,3	19	34	28	99,36	2,01	1,95
13	2,4	16	38	30	93,10	1,72	1,69
14	2,4	17	36	28	93,03	1,42	1,54
15	2,4	18	34	35	26,94	2,49	0,98
16	2,4	19	32	33	66,43	2,48	1,10

Eritmadan kobalt ionlarini ajratib olishning yana bir usuli bu natriy nitrit va β-naftol yordamida cho'ktirish hisoblanadi [7]. Ushbu metodning mexanizmi quyidagi reaksiyalarda keltirilgan [8]:



$\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol va uch valentli kobalt jigarrang-qizil xelatlarini hosil qiladi. Ushbu metod bilan kobaltni ajratib olishning yuqori darajasiga erishish mumkin. Metodning kamchiligi reagentning qiymat ekanligi hisoblanadi [9]. Olingan  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol kobaltda organik birikmalar ko'pligi sababli undan kobaltni tiklash uchun  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol kobaltni yuqori haroratlarda kuydirish zarur.

Jarayonning texnologik sxemasi 3-rasmda keltirilgan. Kislotali yuvishdan keyin Zn, Cd va Mn ni 95 % dan ortiq miqdorini ajratib olish mumkin ushbu holatda kobaltni yuvilish darajasi 0,1 % dan kam chunki  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol kobalt kislotada erimaydi [10]. Erimay qolgan qoldiq kek esa metall oksidlariga parchalanishi uchun yuqori haroratda kuydiriladi, so'ngra olingan metall oksidlari xususan kobalt oksidini eruvchan sulfat holiga o'tqazish maqsadida past haroratda sulfatlovchi kuydirish olib boriladi [11]. Olingan sulfat holdagi birikmalarni  $H_2O$  da tanlab eritilganda Co, Zn va Ni ni tanlab eritish darajasi 95 % dan yuqori bo'ladi. Keyinchalik olingan kobaltli eritma qo'shimchalardan tozalanib kobalt ajratib olishga yo'naltiriladi [12]. Ushbu metod yordamida xomashyodagi 95 % kobaltni tiklash imkoni mavjud.



3-rasm  $\alpha$ -nitrozo- $\beta$ -naftol kobalt qoldig'ini tozalashning texnologik sxemasi.

Yuqoridagi texnologiyani asosi oksidlovchi hamda sulfatlovchili kuydirishga asoslangan. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad qo'shimchalardan qutulish va tozalash hisoblanadi [13]. Ammo kek tanlab eritilgandan so'ng olingan eritmadan qo'shimchalarni tozlashda erituvchilar yordamida ekstarksiyalash yoki ionalmashinish usullaridan ham foydalanilgani maqsadga muvofiqdir. Lekin bir

muhim jihatga diqqatimizni qaratish kerakki agarda to'g'ridan to'g'ri ushbu kekni kuydiradigan bo'lsak qimmat bo'lgan reagent  $\beta$ -naftolni parchalanishiga hamda ko'p miqdorda azot oksidlari hosil bo'lishiga olib keladi bu esa o'z navbatida atrof muhitga ham jiddiy zarar yetkazadi.

### **XULOSA**

Yildan yilga ushbu metallga bo'lgan talabni ortib borishini e'tiborga oladigan bo'lsak talabni qondirish uchun hozirgi davr bizning oldimizga nafaqat birlamchi balkim mavjud Co saqlagan ikkilamchi xomashyo resurslaridan ham kobalt ajratib olish vazifasini qo'ymoqda. Rux ishlab chiqarishdagi kobalt saqlovchi oraliq mahsulotlarni gidrometallurgik yo'l bilan qayta ishlab kobaltni ajratib olish esa ushbu muommoni yechimi bo'lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Zhao, T.K., Liu, L.H., Li, G.M., Tang, M.T., 2012. Zinc and cobalt recovery from co-Ni residue of zinc hydrometallurgy by an ammonia process. In: Wen, Y.X., Lei, F.H. (Eds.), *Advances in Chemical Engineering*. Trans Tech Publications Ltd, Durnten-Zurich Pts 1-3. pp. 48.
2. Wang, K.Y., Cai, C.L., Qian, D., Li, T., Chen, X.Y., Lai, D.Y., 2001. Studies on process for ammonia leachign of cobalt dregs. *Chin. J. Rare Metals* 04, 312–314
3. Ku, H., Jung, Y., Jo, M., Park, S., Kim, S., Yang, D., Rhee, K., An, E.M., Sohn, J., Kwon, K., 2016. Recycling of spent lithium-ion battery cathode materials by ammoniacal leaching. *J. Hazard. Mater.* 313, 138–146.
4. Flett, D.S., 2005. Solvent extraction in hydrometallurgy: the role of organophosphorus extractants. *J. Organomet. Chem.* 690 (10), 2426–2438.
5. Banza, A.N., Gock, E., Kongolo, K., 2002. Base metals recovery from copper smelter slag by oxidising leaching and solvent extraction. *Hydrometallurgy* 67 (1–3), 63–69.
6. Kumar, V., Bagchi, D., Pancley, B.D., 2006. Extraction of zinc-cobalt from sulphate solution of cobalt cake by D2EHPA in the processing of Indian ocean nodules. *Steel Res. Int.* 77 (5), 299–304.
7. Wu, Y.X., Li, X.P., Li, Y.B., 2012. Study on synthesis of 1-nitroso-2-naphthol and its application in cobalt removal process in zinc sulfate solution. *China Non-Ferrous Metall.* 3, 71–75.
8. Jiang, H.B., 2009. Cobalt Oxide Production of Feasibility Study Used Zinc Cobalt in Addition to Slag. Northeastern University of China.

- 
9. Jiang, Y., Zeng, P., Li, G.F., 2015. Study on the removing technology of cobalt from poor cadmium solution in zinc hydrometallurgy. *China Metal Bull.* S1, 17–19.
  10. Li, Q., Fung, K.Y., Nee, K.M., 2019b. Separation of Ni, Co, and Mn from spent  $\text{LiNiO}_5\text{MnO}_3\text{CoO}_2\text{O}_2$  cathode materials by ammonia dissolution. *ACS Sustain. Chem. Eng.* 7 (15), 12718–12725.
  11. Liu, Y.P., Liu, Z.M., 2014. Preparation of cobalt oxide from  $\alpha$ -nitroso- $\beta$ -naphthol cobalt residue. *Hydrometall. Chin.* 33 (4), 301–304.
  12. Zhu, W.H., Shen, Q.F., Tang, D., 2019. Leaching of cobalt, zinc, cadmium from cobalt residue. *Hydrometall. Chin.* 38 (6), 461–465.
  13. International scientific and scientific-technical conference on “PRACTICAL AND INNOVATIVE SCIENTIFIC RESEARCH: CURRENT PROBLEMS, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS (DEDICATED TO THE MEMORY OF PROFESSOR A.A.YUSUPKHODJAEV)” 6 th December, 2021 – Tashkent. 180-183

**“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АКЦИЯДОРЛИК  
ЖАМИЯТИНИНГ СИГНАЛЛАШТИРИШ ВА АЛОҚА ХЎЖАЛИГИ  
ҚУРИЛМАЛАРИДАГИ НОСОЗЛИКЛАР ТАҲЛИЛИ**

**Хидиров Эркин Иргашевич<sup>1</sup>, Болтаев Суннатилло Тўймуродович<sup>2</sup>**  
<sup>1,2</sup> – Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

**АННОТАЦИЯ**

*Ушбу илмий мақолада 2020-2021 йилларда “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамиятининг сигналлаштириши ва алоқа хўжалиги қурилмаларида юзага келган носозликлар таҳлили, нуқсонларни олдини олиш кўрсаткичлар сонини камайштиришга олиб келиши мумкин бўлган таклифлар ва ечиш усули кўриб чиқилган. Темир йўл транспортида поездлар ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг асосий вазифаларидан бири бу сигналлаштириш ва алоқа хўжалиги тизимлари ва қурилмаларига самарали техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш вақтида технологик жараёнларнинг сифатли бажарилиши, шунингдек, технологик хизмат кўрсатиш қоидаларига қатъий риоя қилишини доимий равишда назорат қилган ҳолда сигналлаштириш, марказлаштириш, блокировка ва алоқа қурилмаларида юзага келиши мумкин бўлган носозликлар ва нуқсонларни олдини олиш ва сонини камайштириш мумкин бўлади.*

**Калит сўзлар:** носозлик, автоматика, телемеханика, алоқа, релс занжири, реле, контакт, магнитланиш, сақлагич, станция, марказлаштириш.

**ANALYSIS OF MALFUNCTIONS IN SIGNALING AND COMMUNICATION  
MANAGEMENT DEVICES OF THE "UZBEK RAILWAYS" STOCK  
COMPANY**

**ABSTRACT**

*This scientific article considers the analysis of malfunctions occurring in signaling and communication management devices of the "Uzbek Railways" stock company in 2020-2021 years, proposals and method of solution that may lead to a decrease in the number of indicators of prevention of defects. One of the main tasks of ensuring the safety of the movement of trains along the railway line, it will be possible to prevent and reduce the number of possible malfunctions and defects that can occur in signaling, centralization, blocking and communication devices, while ensuring effective maintenance and repair of signaling and communication systems and devices with constant control over the quality*

**Keywords:** *debugging, automation, telemechanics, communication, rail chain, relay, contact, magnetization, storage, station, centralization.*


## КИРИШ

Темир йўл транспортида автоматика ва телемеханика қурилмалари ва тизимлари поездлар ҳаракат хавфсизлигини таъминлашда асосий вазифани бажаради. Автоматика ва телемеханика қурилмаларида вужудга келадиган носозликлар поездлар ҳаракат жадвалидаги кечикишларга олиб келади.

2021 йил якунлари бўйича ҳозир кунда “Ўзбекистон темир йўллари” акциядорлик жамиятида (“ЎТЙ” АЖ) темир йўлларининг узунлиги 7400 километрни ташкил этади. “ЎТЙ” АЖда 278 та темир йўл станциялари мавжуд бўлиб шундан 194 та станциядаги электр марказлаштириш (ЭЦ), 53 та микропроцессорли марказлаштириш (МПЦ) ва 31 та темир йўл станциялари эса маршрут назорат қурилмалари (МКУ) билан жиҳозланган[1-11].

### “ЎТЙ” АЖ сигналлаштириш ва алоқа хўжалиги қурилмаларидаги носозликлар таҳлили

“ЎТЙ” АЖ сигналлаштириш ва алоқа хўжалигининг 2020-2021 йиллардаги носозликларининг таҳлили ўрганиб чиқилди. Ўтказилган таҳлиллар натижасида 2021 йил автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмаларининг ишлаши бўйича носозликлари ўтган 2020 йилга нисбатан 12% га камайган.




1 – расм. “ЎТЙ” АЖ темир йўлларининг Ўзбекистон Республикаси харитасида кўрсатилиши

Ушбу ҳисобот даврида автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмаларида бошқа хўжаликлар айби билан қурилмаларда ва тизимларда содир бўлган носозликларнинг тақсимланиши ва уларнинг умумий қиймати фоизлар кўринишида 1-жадвалда келтирилган.

1 – жадвал. 2020-2021 йўлларда “ЎТЙ” АЖда автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмаларида 2020-2021 йилларда содир бўлган носозликлар

№	Автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмалари бўйича умумий носозликлар	Умумий сондан улуши %	
		2021	2020
1	Сигналлаштириш ва алоқа хўжалиги бўйича (Ш)	43%	55%
2	Йўл хўжалиги бўйича (П)	19%	16%
3	Электр таъминоти хўжалиги бўйича (Э)	5%	7%
4	Ташишларни ташкил этиш хўжалиги бўйича (Д)	1%	1%
5	Бошқа сабабларга кўра носозликлар	33%	22%



1 – расм. Хўжаликлар бўйича автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмалари ишлашидаги носозликларнинг умумий қийматларининг солиштирма диаграммаси



1-жадвалга асосан носозликларнинг кўп содир бўлиши мумкин бўлган хўжалик бу сигналлаштириш ва алоқа хўжалигининг қурилма ва тизимларида рўй берганлиги аниқланди. 2020 йилга нисбатан носозликларнинг умумий қиймати камайганлигини кўришимиз мумкин.

2 – жадвал. 2020-2021 йилларда “ЎТЙ” АЖнинг сигналлаштириш ва алоқа хўжалиги қурилмаларида йўл қўйилган носозликлар

№	Носозлик сабаблари	Умумий сондан улуши %	
		2021	2020
<b>1.</b>	<b>Сигналлаштириш ва алоқа (Ш) хўжалигининг айби билан содир бўлган носозликларининг сабаби:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<b>1.1.</b>	Релс занжири элементлари	1,48	7,48
<b>1.2.</b>	Автоматика ва телемеханика ускуналарининг ишдан чиқиш ҳолатлари (яъни реле, сақлагич, светофор чироқлари, рельс датчиклари, НЭМ, трансформаторлар, ДЦ блоклар)	22,96	22,45
<b>1.3.</b>	МПЦ, МПАБ қурилмаларининг носозликлари	4,44	6,80
<b>1.4.</b>	Ишни бажариш технологиясини бузилиши, монтаж симининг пайвандланган жойидан узилиши	2,22	1,36
<b>1.5.</b>	Кабелларнинг ишдан чиқиши (узилиш ҳолатлари)	7,41	8,16
<b>1.6.</b>	Автоматика ва телемеханика қурилмаларида ва ускуналарида контакт йўқолиб қолиш ҳолатлари	15,56	10,88
<b>1.7.</b>	Стрелкали ўтказгичлар, стрелка электр ўтказгичлар двигателидаги носозликлар (крестовина сердечнигининг жойидан силжиши, автоулагичда контакт йўқолиши, монтаж симининг узилиши, шибер ва клеммерларнинг қотиб қолиши)	9,63	4,08
<b>1.8.</b>	Сабаби аниқланмаган носозликлар	3,70	6,12
<b>1.9.</b>	АЛСН кодларининг ишламай қолиши, релсларнинг магнитланиш	3,70	4,76
<b>1.10</b>	ДЦ каналини ростлаш	2,22	3,40
<b>1.11</b>	Йўл участкаларида ўқларни электрон санаш тизими носозликлари	6,67	8,84

1.12	СКСПС, ДИСК-Б қурилмаларининг носозликлари	5,19	2,72
1.13	Алоқа ускуналари ишламаслиги (МО, UMUX, СГМ, ППСЦ, маршрутизатор SAR, свитч ва бошкалар)	6,67	8,84
1.14	РПСда боғланишлар йўқлиги	3,70	2,72
1.15	2 фидерда кучланиш кўпайиб кетганлиги ва бунинг оқибатида электр манбаидаги кучланиш 2-чи фидердан 1 фидерга ўтмаслиги	3,70	1,36
1.16	"Дарча" вақтининг муддатидан ўтиб кетиш	0,74	0,00
2.	<b>Электр таъминоти (Э) хўжалигининг айби билан содир бўлган носозликларининг сабаби:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
2.1.	Белгиланган вақтдан кўпроқ вақт давомида электр энергиясининг узилиши	68,75	73,68
2.2.	Кучланишнинг меъёрдан камлиги ва кўплиги	12,50	21,05
2.3.	КТП трансформаторнинг темир йўл релс занжирларининг узатиш мосламасининг нотўғри уланиши	6,25	5,26
2.4.	Автоматика ва телемеханика қурилмаларида юқори кучланишнинг таъсири	12,50	0,00
3.	<b>Йўл (П) хўжалигининг айби билан содир бўлган носозликларининг сабаби:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
3.1.	Темир йўл релс занжирларининг элементлари (релс улагичларининг) узилиши	11,48	9,52
3.2.	Изоляцияланган туташманинг тортилиб кетиши ёки ёпишиб қолиши.	62,30	52,38
3.3.	Йўл ишларини бажариш технологиясини бузилиши	3,28	9,52
3.4.	Стрелкали ўтказгичлар носозликлари	9,84	9,52
3.5.	Узин плетлар ва релсларнинг магнитланиши	9,84	16,67
3.6.	Остряк ва рельс рамалари орасига бегона буюмлар тушиб қолиши.	3,28	2,38
4.	<b>Ташишларни ташкил этиш хўжалиги томонидан йўл қўйилган носозликларининг сабаби:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
4.1.	Автоматика ва телемеханика қурилмаларидан ДСП (станция навбатчиси) нинг нотўғри фойдаланиши.	1	1
5.	<b>Бошқа сабабларга кўра йўл қўйилган</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

	<b>носозликлар сабаби:</b>		
<b>5.1.</b>	МПЦ ва МПАБ қурилмаларининг носозликлари	4,72	13,79
<b>5.2.</b>	Йўл участкаларида ўқларни электрон санаш тизими носозликлари	7,55	5,17
<b>5.3.</b>	Автоматика ва телемеханика қурилмаларида ва ускуналарида контакт йўқолиб қолиш ҳолатлари	1,89	1,72
<b>5.4.</b>	Релс занжирлари магнитланиб бегона импульслар пайдо бўлиши	26,42	20,69
<b>5.5.</b>	Острик ва рельс рамалари орасига бегона буюмлар тушиб қолиши	1,89	1,72
<b>5.6.</b>	Автоматика ва телемеханика қурилмасига чакмоқ тушиши	1,89	0,00
<b>5.7.</b>	Сабаби аниқланмаган носозликлар	4,72	0,00
<b>5.8.</b>	Автоматика, телемеханика ва алоқа кабелларини бегона шахслар томонидан узиши	9,43	13,79
<b>5.9.</b>	Линзали светофор лампалари куйиб қолиши	1,89	0,00
<b>5.10</b>	Автоматика ва телемеханика қурилмаларини бегона шахслар томонидан бузилганлиги	1,89	10,34
<b>5.11</b>	Шахар нимстанциясидан электр энергиясининг ўчиши	7,55	13,79
<b>5.12</b>	Алоқа ускуналари UMUX, SWITCH ишламай қолиши	3,77	5,17
<b>5.13</b>	Стрелкали ўтказгичлар носозликлари	0,94	0,00
<b>5.14</b>	КТСМ, ДИСК-Б қурилмаларининг ишдан чиқиши, ДИСК-Бга қуёш нурунинг тушиши	9,43	3,45
<b>5.15</b>	Автоматика ва телемеханика электрон ускуналарининг носозликлари	2,83	0,00
<b>5.16</b>	ДЦ каналларини созлаш	0,94	5,17
<b>5.17</b>	ЭМ ва МПЦларда электр таъминоти қурилмаларининг ишдан чиқиши	5,66	5,17
<b>5.18</b>	Релсларга металл трос тушиб қолиши	0,94	0,00
<b>5.19</b>	Машинастларнинг автоматика, телемеханика ва алоқа қурилмаларидан нотўғри фойдаланиши	3,77	0,00
<b>5.20</b>	Автоматика ва телемеханика қурилмаларида сув	1,89	0,00

	тошқини натижасида содир бўлган носозликлар		
--	---------------------------------------------	--	--

2020-2021 йилларда “ЎТЙ” АЖнинг сигналлаштириш ва алоқа хўжалиги қурилмаларида ва тизимларида йўл қўйилган носозликлар бир нечта хўжаликлар айби сабабли содир бўлиши мумкинлиги ва уларнинг қиймат кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган. Темир йўл автоматика ва телмеханика қурилмаларининг хавфсиз ишлаш ишончилиги юқорилиги сабабли тизим ва қурилмаларда вужудга келиши мумкин бўлган носозликлар кўп ҳолларда бу қурилмалардан ва тизимлардан фойдаланувчи ёки уларга хизмат кўрсатувчи ходимлар айби орқали содир бўлиши, бу тизимлар ва қурилмалардан нотўғри фойдаланишлари, хизмат кўрсатиш технологиясини сифатсиз бажарилиши ва бузилиши мисол бўлади.

### **ХУЛОСА**

Юқорида келтирилган носозликлар сонини ошириб кетиши поездлар ҳаракат хавфсизлигига таъсир кўрсатади. Бунинг натижасида юк ва йўловчи поездларини манзилига ўз вақтида етиб боришида кечикишларга сабаб бўлади.

Носозликларни олдини олиш ва сонини камайтириш учун масофалардаги техник таъмирлаш участкаларида релелар, блоклар ва сақлагичларни синовдан ўтказиш стендларида текшириш сифатини ошириш ва электр марказлаштиришдаги стативларда ва реле шкафларидаги штепсел улагичларида контактли боғланишларни ишончилигини ошириш, реле ва блокларни алмаштиришда контактларнинг контакт йўқолиб қолишига олиб келадиган ҳолатларни олдини олиш учун, штепселли қолипларни ўз вақтида таъмирлаш ва алмаштириш керак. Шунингдек мунтазам равишда мутахассис ходимларнинг технологик хизмат кўрсатиш йўриқномалари ва қоидаларига қатъий риоя этилишини назорат қилиш, уларнинг билим ва кўникмаларини ошириб бориш, сигналлаштириш ва алоқа қурилмаларида келиб чиқиши мумкин бўлган носозликларнинг олдини олиши ва кўрсаткичлар сонининг камайишига олиб келади.

### **АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)**

1. <https://railway.uz/uz/>
2. Раматов А.Ж. «Ўзбекистон темир йўллари» : Акцент на качество / А.Ж. Раматов // Евразия Вести. – 2009. – № 11. – с. 6–11.
3. Концепция развития скоростного и высокоскоростного движения пассажирских поездов на железных дорогах Узбекистана / ОАО «Боштранслайха». – Ташкент, 2010. – 89 с.

4. Инструкция по движению поездов и маневровой работе на железных дорогах Республики Узбекистан. – Ташкент : Темирйулчи, 2009. – 294 с.
5. Инструкцией по движению поездов и маневровой работе на железных дорогах Республики Узбекистан. - Ташкент, 2014. - 173 с.
6. Специальных технических условий на проектирование инфраструктуры железнодорожной линии Ташкент - Самарканд для организации высокоскоростного движения пассажирских поездов - Ташкент: ГАЖК «УТИ», 2009. - 60 с.
7. Специальных технических условий на проектирование инфраструктуры железнодорожной линии Самарканд - Карши для организации высокоскоростного движения пассажирских поездов. - Ташкент: ГАЖК «УТИ», 2015. - 62 с.
8. Специальных технических условий на проектирование инфраструктуры железнодорожной линии Мароканд - Бухара для организации высокоскоростного движения пассажирских поездов. - Ташкент: ГАЖК «УТИ», 2015. - с. 65
9. Никитин А.Б., Болтаев С.Т. Оценка состояния инфраструктуры железнодорожной автоматики и телемеханики Узбекистана для введения высокоскоростного движения / А.Б. Никитин, С.Т. Болтаев // Автоматика на транспорте № 3 – том 1, сентябрь 2015. – с. 251 – 270.
10. Никитин А.Б. Особенности реализации функций электрической централизации для высокоскоростных поездов на линиях смешанного движения / А.Б. Никитин, С.Т. Болтаев, А.М. Глыбовский // Изв. ПГУПС – СПб.: ПГУПС, 2016. – Т. 13, вып. 2. – с. 215–228.
11. Никитин А.Б. Обеспечение безопасности на станционных переездах при организации высокоскоростного движения на действующих линиях / А.Б. Никитин, С.Т. Болтаев // Изв. ПГУПС. – СПб.: ПГУПС, 2016. – Т. 13, вып. 2. – с. 206–214.

## **TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI VA ULARNING TASNIFI**

**Maksetova Zuhra To'rebayevna**

Toshkent Davlat Texnika Universiteti Olmaliq filiali  
"O'zbek tili va adabiyoti kafedrası" o'qituvchisi

**Qambaraliyev S.B.**

TDTUOf 1-kurs talabasi

**Yunusov A.Sh.**

TDTUOf 1-kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola frazeologik birliklarning tilshunoslikda o'rganilishi haqida bo'lib, unda frazeologiya tilshunoslikning bir qator bo'limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya morfologiya, grammatika bilan bevosita bog'liqligi to'g'risida yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *semantika, leksik ma'no, frazeologik birliklar, ekspressiv hususiyat, frazeologik nuqta.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена изучению фразеологизмов в языкознании, в котором фразеология непосредственно связана с рядом разделов языкознания, в том числе с лексикологией, стилистикой, семантикой, этимологией, морфологией, грамматикой.*

**Ключевые слова:** *семантика, лексическое значение, фразеологические единицы, экспрессивный признак, фразеологический момент.*

### **ABSTRACT**

*This article is about the study of phraseological units in linguistics, in which phraseology is directly related to a number of branches of linguistics, including lexicology, stylistics, semantics, etymology, morphology, grammar.*

**Keywords:** *semantics, lexical meaning, phraseological units, expressive feature, phraseological point.*

### **KIRISH**

Barchamizga ma'lumki, til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga ma'daniy-ma'naviy shu bilan birga tarixiy an'analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi. Til milliy madaniyatning xazinasi hamdir. Har bir millat

yashayotgan joyning iqtisodiy ijtimoiy tuzumi, san'ati, madaniyati, badiiy ada-biyoti, urf – odati, xalq og'zaki ijodini jamlab uni avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy – madaniy semantikasidir. Semantika tilning barcha qatlamlarida: grammatikasida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy madaniy semantikasi tilning harakatdagi birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar va barqaror birikmalardir. Nutq jarayonida fikrimizni faqat so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan, nutqqa tayyor holda kirib keladigan birliklardan ham foydalanamiz. Bu birliklar nutqimizni tasvirlabgina qolmasdan balki uning ma'noli va mazmunli, lo'nda, bo'yoqdor tarzda tasvirlaydi. Tilshunoslikda bunday birliklarni Frazeologiya bo'limi o'rganadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Frazeologiya (yunoncha "phrasis" – ifoda, ibora va logiya) tilshunoslikning shunday bir bo'limiki, boshqa bo'limlardan nutqqa tayyor xolda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'zaro mos kelmasligi, ma'no jihatdan turg'unligi bilan farq qiladi. Tilshunoslikning alohida bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish yo'l yo'riqlarini aniqlashga qaratiladi. Uning asosiy muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shunga qarab frazeologizmlarni aniqlashdir.

Ma'lum bir tilning xazinasini sifatida frazeologiyani keltirish mumkin. Negaki frazeologiya xalqning tarixini, madaniyati va o'ziga xosligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar asosan millatning urf–odatlarini, an'analarni o'zida aks ettiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an'analarni ifodalab keluvchi FB(ushbu ilmiy ishda frazeologik birliklar iborasi FB korinishida qisqartirilgan) lar bilan bir qatorda xalqaro frazeologizmlarni ham uchraydi. Bazi FB larda arxaik elementlar saqlanib qolgan. FB larni nutqni bezaydigan vosita sifatidagina qarash noto'g'ri bo'lib, ular ham boshqa til birliklari singari yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va kommunikativ funktsiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologik birliklari mavjud bo'lmagan birorta til ham yo'q.

Ingliz va amerika tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Ingliz tili frazeologiyasida nisbatan kam foizni tashkil qilib, asosiy frazeologik muammolar va so'zlarning o'zaro munosabati, FB lar variantdoshligi, frazeologiyani o'rganish metodlari, frazeologiyaning fan sifatida rivojlanishi kabi nazariy muammolar asosan

rus tilshunoslari, A.V Kunin, V.V.Vinogradov, H.M. Shanskiy, T.N. Fedulenkovalar tomonidan ishlab chiqilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri hisoblanib, u tilshunoslikning bir qator bo'limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya morfologiya, grammatika bilan bevosita bog'liqdir. Frazeologiyani tadqiq qilishda yuqorida sanab o'tilgan sohalar bilan bir qatorda mamlakatshunoslik, fonetika, falsafa fanlar tarixi va mantiqkabi fanlardan xabar bo'lish lozim.

Ma'lumki, har qanday FB so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. So'z esa leksikologiyani tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Leksikologiya va frazeologiyani o'zaro bog'liq sohalaridan ekanligi shunda namoyon bo'ladiki, FB komponentlari bo'lmish so'zlar tahlilida, albatta, leksikologiyaga oid ma'lumotlarga murojaat qilinadi. Shuningdek, ko'p yillar davomida frazeologiyani leksikologiyani tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi ham bu ikki soha bevosita bir-biri bilan aloqadorligini isbotlaydi. Semantikada tadqiq etiladigan leksik ma'no xususiyatlari, aynan FB larning semantik o'ziga xosliklarini ifodalash va frazeologik sohada ma'noning turli tiplarini ajratishga xizmat qiladi.

Frazeologik birlik tarkibidagi so'z har doim ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotmaydi, morfologiya saqlanib qolgan va yo'qotilgan xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi. Frazeologiya tarkibida turli xil strukturali ya'ni so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi birikmalar kiritiladi. Sintaksisga oid ma'lumotlardan yuqoridagi kabi birliklar grammatik va funksional tahlilida foydalaniladi. Frazeologik stilistika, FB larning uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik birliklar tahliliga suyanadi. Zero FB lar tilda nominativ funksiya bajarish bilan bir qatorda, malum bir emotsionallikga, ekspressiv xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Tilning kelib chiqishi va tarixi FB larning etimologik tahlilida zarur qism hisoblanadi.

Ingliz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiat o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlarini hamda tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Ularda bolalar milliy o'yinlari, pul birliklari to'g'risida, milliy tabobat, ov hamda baliq ovi haqida, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida, insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi va turmush tarzi va ko'plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo'ladi.



Milliy-madaniy semantika tilshunoslikning barcha bo‘limlarida, morfologiyada ham sintaksisda ham hattoki fonetikda ham aks etgan bo‘ladi. Faqat u millat madaniyatini bevosita aks ettira oladigan, yaxlit, so‘zlashuv nutqida ko‘p qo‘llanadigan frazeologik birliklarda yorqinroq ifodalanadi.

Frazeologiya alohida fan sifatida shakillanganig qadar u leksikologiyaning tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziqqa boshlagan bo‘lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g‘arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo‘llanilgan. U o‘zining “Stilistikadan ocherklar” va “Fransuz tili stilistikasi” asarlarida so‘z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma‘nolarining o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo‘llanila oladigan birlikligini isbotlashga harakat qildi. Birinchi asarda Sharl Balli so‘z birikmalarining besh turini farqlagan:

- erkin birikmalar (o‘z ma‘nosida qo‘llaniladigan birikmalar);
- odatiy birikmalar (nisbattan erkin bog‘langan birikmalar bo‘lib tarkibiga ba‘zi o‘zgartirishlar kiritish mumkin) ;
- frazeologik qatorlar (bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir ma‘noni ifodalab keladi, ammo uning tartibiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin);
- frazeologik birliklar(bunda o‘z ma‘nosini tamomila yo‘qotgan,
- komponentlari tartibi qat‘iy bo‘lgan birliklarni kiritadi.

U keyingi asari “Fransuz stlistika” sida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan . Uning bu qarashlari ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lsada, frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

### **XULOSA**

Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini asoslab bergan edi: ”Leksikologiya so‘zlarning leksik ma‘nolarini, morfologiya so‘zlarning gramatik ma‘nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma‘nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma‘noli so‘z birikmalarining, individual ma‘nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”. U tilshunoslikda frazeologiya ham, morfologiya yoki fonetika singari muhim ahamiyat kasb etadigan bo‘lim ekanligini ta‘kidlab o‘tgan tilshunoslardan biridir.

---

### **ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. THE IMPORTANCE OF THE DIDACTIC SYSTEM IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHYLOLOGICAL DIRECTION Makhsetova Zuhra Turebaevna Almalyk branch of Tashkent state technical university named after Islam Karimov, English language teacher EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 1 Issue 9, December 2021
2. O'ZBEK VA INGLIZ BADIY ASARLARIDA G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (Ernest Xeminguey va Abdulla Qahhor ijodida) M.I.Dexqonova, I. Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali "Ozbek tili va adabiyoti" kafedrasida assistenti АНДРИЯНОВСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЧТЕНИЯ 11 февраля 2022 года
3. PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION Makhsetova Z.T. master's student Chirchik Pedagogical Institute Tashkent region "Экономика и социум" №7(74) 2020
4. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ В КИТАЙСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ З. Т. Махсетова АCADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020

## **AKSONOMETRIK PROYEKSIYALARNI O‘QITISHDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI OSHIRISH**

**Tashimov Nurlan Erpolatovich**

Nizomiy nomidagi TDPU, kafedra mudiri, dotsent

**Sultanova Gulshan Shukrullo qizi**

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari chizmachilik darsida talabalarning fazoviy tasavvurini oshirishda aksonometrik proyeksiyalarning o‘rni yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Aksonometrik proyeksiya, chizmachilik, fazoviy tasavvur, tasvir, talabalar, oddiy, murakkab, model, ortogonal.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещена роль аксонометрических проекций в повышении пространственного воображения учащихся на уроке черчение высших учебных заведений.*

***Ключевые слова:** Аксонометрическая проекция, черчение, пространственное воображение, изображение, студенты, простое, сложное, модель, ортогональное.*

### **ABSTRACT**

*This article highlights the role of axonometric projections in increasing the spatial imagination of students in the drawing lesson of higher educational institutions.*

***Keywords:** Axonometric projection, drawing, spatial imagination, image, students, simple, complex, model, orthogonal.*

### **KIRISH**

Talabalarning fazoviy tasavvurini kengaytirish chizma geometriya va chizmachilik fanlarida juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u talabalarni ijodiy izlanishlarga yo‘naltiruvchi omillardan biridir.

“Chizmani o‘qish deganda narsaning chizmasini o‘rganish vaqtida uning fazoviy obrazining shakllanishi ro‘y beradigan jarayon tushuniladi” deb o‘zlarining

«O'rta maktabda chizmachilikni o'qitish metodikasi» kitobida S.I Dembinskiy va V.I. Kuzmenkolar yozishgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Haqiqatdan ham shunday, biz chizmani ko'zdan kechirib unda tasvirlangan narsaning balandligi, uzunligi va eni hamda uning elementlari tarkibiy qisimlari va shartli belgilarini o'rganib chiqib, narsani ko'z o'ngimizda gavdalantiramiz, ya'ni chizmasini o'qiyamiz. Shunday qilib chizmani o'qish deganda narsalarni bajarilgan tasvirlariga asosan uning tashqi va ichki tuzilishlarini bilib hamda fahimlab bir butun obrazni tasavvur qilish, uning o'lchamlarini, ishlov berish usullarini bilish tushuniladi. Bulardan ko'rinib turibdiki, chizmani o'qishda fazoviy tasavvur eng asosiy ko'rsatkich ekan, shu sababli talabalarning fazoviy tassavuri past bo'lsa ular chizmani o'qishda qiynaladilar va chizmachilikka bo'lgan qiziqishlari susayib boradi. Shuning uchun biz chizmachilik fanlari o'qituvchilari butun etiborimizni talabalarning fazoviy tassavurini oshirishga bor kuch g'ayratimizni va metodik so'zlashlarimizni safarbar qilishimiz zarur bo'ladi. Shundagina biz yoshlarni kelgusidagi ishlab chiqarish sharoitiga yoki ta'lim jarayoniga etuk bo'lishlariga erishamiz.

Ilmiy tadqiqot ishimga oid mavzularni asosiy adabiyotlardagi taxlili shuni ko'rsatdiki chizmalarini o'qish, yani chizmada tasvirlangan natijalarni tassavur qilishning quyidagi tartibda oshirilar ekan:

1) Chizmadagi ko'rinishlardan foydalanib narsani fikran oddiy geometrik figuralarga ajratib, uning tashqi sirtlarining formasini aniqlash;

2) Chizmachilikdagi kesim va qirqlardan foydalanib, uning ichki tuzilishlarini anglab va faximlab etish;

3) Narsaning tarkibiy qisimlarini tahlil qilib va o'rganib chiqib uning bir butun yaxlit obrazini fazoda tiklash-tassavur qilish;

4) Chizmada keltirilgan shartli belgilardan masalan ( $\emptyset$ ), (R), ( $\square$ ) va ( $\triangleright$ ) kabi belgilardan foydalanib narsaning ayrim sirtlari va yuzalari to'g'risida qo'shimcha tassavurga ega bo'lish.

Fazoviy tassavurlash usullari to'g'risida tahlil qilib chiqilgan adabiyotlarda faqatgina mashq qilish usullari to'g'risida gap boradi. Mashq qilish usullariga quyidagi turlari kiradi.

1. Sodda, o'rta, murakkab va o'ta murakkab narsalarning chizmasidan foydalanib ularning oddiydan murakkabga asosida yaqqol tasvirini bajarish hamda ularni chizmalari bilan qiyoslash;

2. Yaqqol tasvirlarga mos keluvchi proyeksiyalarni proyeksiyalar bankidan topish va uning aksinchasi, yani berilgan ko‘rinishlarga mos bo‘lgan narsaning yaqqol tasvirini to‘g‘ri topish.

3. Narsaning chizmasini asliga yoki yaqqol ko‘rinishga qarab bajarish;

4. Yozma tavsifi bo‘yicha ko‘rinishlari va yaqqol tasvirini bajarish;

5. Narsani ikki ko‘rinishi bo‘yicha uchinchisini yasash.

6. Narsalarining kesilishi rejalashtirilgan elementlarining chizmasini bajarish.



7. Chizmasi bo‘yicha narsalarni turli materiallardan modellarini yasash.

8. Yig‘ma birlikning yig‘ish chizmasini detallarga ajratish.


Fazoviy tassavurini o‘stirishadigan mashq qilish usulining yuqorida qayd etilgan turlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib ular talabalardan etarli nazariy bilim va amaliy ko‘nikma hamda malaka talab qiladi.

Mashq qilishning turlarini metodik nuqtai nazardan taxlil qilinsa, ular “Oddiydan murakkablikka” prinsipiga mos keladi. Shuning uchun biz o‘z ishimizda fazoviy tassavurning o‘stirishni mashq qilish usulining ayrim turlarini chuqurroq o‘rganishni metodik to‘g‘ri deb topdik. Chunki talabalar chizmachilik fani dasturidagi rejalashtirilgan proyeksion chizmachilikga oid mavzularni o‘rganish jarayonida bu turlardagi vazifalarni bajaradilar.

### **Uchta ko‘rinishga qarab qaysi yaqqol tasvirga mos kelishini aniqlang**



**Berilgan yaqqol tasvirga qaysi ikki ko‘rinish mos kelishini aniqlang va belgilang**



Fazoviy obrazlarga tayanib ish ko‘rish va shu asosda turli o‘quv ishlab chiqarish vazifalarini bajarish inson aqliy foliyatining muhim xususiyatidir.

**XULOSA**

Talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish va kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan malakani oshirish grafik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Hech qanday fan fazoviy tasavvur va fazoviy farazni chizmachilikdek rivojlantira olmaydi.

O‘qitish amaliyotida foydalaniladigan masalalar talabalar tafakkur faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shunday ekan talabalarning ijodiy ishlashga intilish, fazoviy tasavvurini rivojlantirish, ongli faolligini shakllantirishda chizmachilik fanida katta ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Rahmonov I., Valiyev A. "Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruksiyalash asoslari)". -T.: Voris-nashriyot, 2011-y.
2. Ashirboyev A., Ro‘ziyev E., Tashimov N. "Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi". -T.: «Nodirabegim» nashriyoti, 2020-y.
3. Tashimov N. Umumiy o‘rta ta’lim maktab chizmachilik fanida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda aksonometrik proyeksiyalarning o‘rni. Halq ta’limi jurnali. 2020/4
4. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>

5. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
6. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
7. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
8. Xalimov, M. K., & Asanova, A. S. (2022, January). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING DASTLABKI TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
9. Адиллов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2021). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, 2(2015-2), 34–35. извлечено от <https://science.ndpi.uz/index.php/science/article/view/68>
10. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
11. ПОВЕРХНОСТЕЙ, С. 2-ГО ПОРЯДКА ОБЩЕГО ВИДА ПО ЭЛЛИПСУ ЗАДАННОЙ ПЛОЩАДИ МУРАДОВ ШМИДТ КАРИМОВИЧ. ТАШИМОВ НУРЛАН ЭРПОЛАТОВИЧ, РАХМАТОВА ИКБОЛХОН ИНОМЖАНОВНА, КУКИЕВ БОБУРМИРЗО БАХОДИР УГЛИ *Ташкентский государственный университет имени Низами*.
12. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.

13. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>
14. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.
15. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.
16. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.
17. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195
18. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
19. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
20. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzullaugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>



21. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
22. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
23. Xalimov M., &Farxodova, Z. (2021). DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY MAKING PROBLEM SOLUTION SITUATION IN DRAWING SUBJECT. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.62>
24. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILİYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Бошқарува Этика Қоидалари онлайн илмий журналы*, 2(3), 27-32.
25. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
26. Tashimov Nurlan, Samandar Zaitov. (2021) Improving the quality and efficiency of teaching descriptive geometry in a credit-modular system. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*. Volume:11, Issue:2, pp-730-733. DOI : [10.5958/2249-7137.2021.00398.0](https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00398.0)
27. Gulomova, N. (2021). “Uzatmalar” mavzusini o‘qitishda “iSpring Quiz Maker” dasturidan foydalanib, talabalarga nostandart testlar orqali bilish faolligini faollashtirish. *Жамият ва инновациялар*, 2(5), 8–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp8-18>
28. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o‘lcham qo‘yishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.

---

## **“ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК” – ТАСАВВУФ ТАРИХИ ВА ФАЛСАФАСИ ДОИРАСИДАГИ ЯНГИ ФАН СИФАТИДА**

**Холмўминов Жаъфар Муҳаммадиевич,**

Тошкент давлат шарқшунослик университети

“Манбашунослик ва тасаввуф герменевтикаси” кафедраси доценти,

фалсафа фанлари доктори (DSc)

[jafarmuhammad@mail.ru](mailto:jafarmuhammad@mail.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада тасаввуфшунослик туркумидаги фанлар уларнинг хусусиятларига кўра таснифланади. Шунингдек, муаллиф тасаввуфшуносликнинг бугунгача шаклланмаган ёки шаклланиш жараёнида бўлган фанларини ҳам таснифлаб ўтар экан, улар ичидан “Қиёсий тасаввуфшунослик” атрофида алоҳида тўхталиб ўтади. Муаллифнинг фикрича, “Қиёсий тасаввуфшунослик”нинг илк унсурлари X-XI асрлар Шарқ мутафаккирларининг асарларида учрайди.*

*Мақола муаллифи “Қиёсий тасаввуфшунослик” Тасаввуф тарихи ва фалсафасини ўрганишда ҳам метод ва методология, ҳам тасаввуфшуносликнинг мустақил бир фани сифатида ушбу таълимнинг асл мазмун-моҳиятини очиқ беришга хизмат қилади, деган хулоса чиқаради.*

**Калит сўзлар:** *Ислом, Ислом дини, исломишунослик, Тасаввуф, Ирфон, тасаввуфшунослик, “Тасаввуф фалсафаси”, фалсафа, герменевтика, “Тасаввуф герменевтикаси”, “Қиёсий тасаввуфшунослик”, янги фан, метод, методология, диний эътиқодлар, диний-фалсафий таълимлар, ёндашув.*

## **“COMPARATIVE SUFI STUDIES” AS A NEW SCIENCE IN THE FIELD OF HISTORY AND PHILOSOPHY OF SUFISM**

**Kholmuminov Jafar Muhammadiyevich,**

Doctor of Philosophical sciences (DSc),

Tashkent State University of Oriental Studies,

associate professor of chair "Source studies and Hermeneutics of Sufism"

[jafarmuhammad@mail.ru](mailto:jafarmuhammad@mail.ru)

## ABSTRACT

*In this article, sciences belonging to the category of Sufi studies are classified according to their characteristics. The author also classifies the sciences of Sufism, which have not yet formed or are in the process of formation, gives a special emphasis on "Comparative Sufi Studies". According to the author, the first elements of Comparative Sufi Studies can be found in the works of Eastern thinkers of the 10<sup>th</sup>-11<sup>th</sup> centuries.*

*The author of the article concludes that "Comparative Sufi Studies" in the study of the history and philosophy of Sufism, both a methodology and an independent science of Sufism, serves to reveal the true meaning of this teaching.*

**Keywords:** *Islam, Islamic religion, Islamic studies, Tasawwuf (Sufism), irfan, mysticism, "Philosophy of Sufism", philosophy, hermeneutics, "hermeneutics of Sufism", "comparative Sufism", new science, method, methodology, religious views, religious and philosophical teachings, an approach.*

## «СРАВНИТЕЛЬНОЕ СУФИЕВЕДЕНИЕ» КАК НОВАЯ НАУКА В ОБЛАСТИ ИСТОРИИ И ФИЛОСОФИИ СУФИЗМА

**Холмуминов Джафар Мухаммадиевич,**

доктор философских наук (DSc),

доцент кафедры «Источниковедения и герменевтики суфизма»

Ташкентского государственного университета востоковедения

[jafarmuhammad@mail.ru](mailto:jafarmuhammad@mail.ru)

## АННОТАЦИЯ

*В этой статье науки, относящиеся к категории суфиеведение, классифицируются в соответствии с их характеристиками. Автор также классифицирует науки суфизма, которые еще не сформировались или находятся в процессе формирования, даёт особый акцент на «Сравнительное суфиеведение». По мнению автора, первые элементы «Сравнительного суфиеведение» можно найти в трудах восточных мыслителей X-XI веков.*

*Автор статьи заключает, что «Сравнительное суфиеведение» в изучении истории и философии суфизма, как методология, так и как самостоятельная наука суфизма, служит раскрытию истинного смысла этого учения.*


**Ключевые слова:** *Ислам, исламская религия, исламоведение, Тасаввуф (суфизм), ирфан, мистицизм, «Философия суфизма», философия, герменевтика, «герменевтика суфизма», «сравнительный суфизм», новая наука, метод, методология, религиозные воззрения, религиозно-философские учения, подход.*

## КИРИШ

Тасаввуфшунослик фанини унинг ичидаги муаммолар ва масалалар характерига кўра қуйидаги таркибий қисмларга ажратиш ёки таснифлаш мумкин:

1. Тасаввуф тарихи.
2. Тасаввуф манбашунослиги.
3. Тасаввуф терминологияси.
4. Тасаввуф фалсафаси.
5. Тасаввуф фалсафаси герменевтикаси.
6. Тасаввуф адабиёти.
7. Тасаввуф адабиёти герменевтикаси.

*1-чизма: Тасаввуфшуносликнинг таркибий қисмлари.*



Тасаввуфий тушунчалар, истилоҳлар, рамзий ва мажозий маъноларни герменевтик усул ёрдамисиз тушунтиришнинг имкони йўқ. Тасаввуфий билимларга герменевтик ёндашиш IX асрдан буён мавжуд бўлиб келган ва

бугунги кунда бу усул имкониятларини янада кенгайтириш эҳтиёжи туғилмоқда. Қадимги Юнонда герменевтикага (“Герменевтика” сўзи юнонча *hermeneuo* сўздан олинган бўлиб, “тушунтираман”, “изоҳлайман” маъноларини англатади) матнларни изоҳлаш ва шарҳлаш санъати сифатида қарашган. Юнонларнинг мифологик тасаввурларига кўра худоларнинг тили инсонлар учун мавҳум саналган. Асотирларга қараганда, Гермес худолар ва инсонлар ўртасидаги воситачи сифатида худолар хоҳиш-иродасини одамлар учун тушунарли бўлган тилда изоҳлаб берган экан.

Тасаввуфий тушунчалар, истилоҳлар, рамзий ва мажозий маъноларни герменевтик усул ёрдамисиз тушунтиришнинг имкони йўқ. Тасаввуфий билимларга герменевтик ёндашиш IX асрдан буён мавжуд бўлиб келган ва бугунги кунда бу усул имкониятларини янада кенгайтириш эҳтиёжи туғилмоқда.

### **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР**

Ўтган асрнинг ўрталарида герменевтика тушунишнинг фалсафий назариясини англатадиган бўлди. Фалсафий герменевтиканинг асосларини Ф.Шлейермахер, В.Дильтей, М.Хайдеггер, Э.Бетти, Ч-Г Гадамер, П.Рикер ва Ю.Хабермас асарларида кўриш мумкин. Бутун матн ёки унинг маълум қисмида мавжуд бўлган фикр мавҳумлиги – тушунарсизлигини бартараф этиш герменевтиканинг вазифаси ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда, тасаввуфий матнлар, тушунчалар, фикр ва ғоялардаги мавҳумлик ва мураккабликлар ҳам герменевтик методга муҳтождир.

Бугунги кунга келиб Тасаввуф диний-фалсафий фан сифатида ўзига хос анча мураккаб илм бўлганлиги туфайли уни тушуниш, шарҳлаш ва талқин қилиш муаммоси ҳам юзага келди ва шу сабабли “Тасаввуф герменевтикаси” фани ҳам шаклланди. Фалсафий герменевтикага асосланган тасаввуфий герменевтика – “Тасаввуф герменевтикаси” тасаввуф ва Ирфон фалсафаси масалаларини герменевтик метод орқали тушуниш ва тушунтириш, шарҳлаш ва талқин қилиш имконини яратади. Яъни, герменевтика Тасаввуф мазмун-моҳиятини очиб беришда ҳам метод, ҳам методология сифатида хизмат қилади. Бошқача айтганда, “Тасаввуф герменевтикаси” Тасаввуфни тушуниш ва тушунтириш санъатидир.

Аслида “Тасаввуф герменевтикаси” ёхуд “Тасаввуфий герменевтика” – Тасаввуф фалсафасини тушунтирадиган методология сифатида илк маротиба Ҳаким ат-Термизий асарларида кўзга ташланган бўлса, кейинчалик Шайх Абу Бакр Калободий, Хожа Мустамлий Бухорий, Имом Муҳаммад Ғаззолий, Шайх

Абдулқодир Гелоний, Шайх Абдулкарим Гелий, Шайх Шаҳобиддин Сухравардий, Шайх Нажмиддин Кубро, Шайх Фаридиддин Аттор, Шайх Муҳйиддин Ибн ал-Арабий, Шайх Садриддин Қунавий, Мавлоно Жалолиддин Румий, Шайх Азизиддин Насафий, Фахриддин Ироқий, Шайх Махмуд Шабустарий, Довуд Қайсарий, Абдураззоқ Кошоний, Хожа Муҳаммад Порсо Бухорий, Мавлоно Абдурахмон Жомий, Ҳазрат Алишер Навоий, Имом Раббоний, Мирзо Абдулқодир Бедил ва Сўфи Аллоҳёр асарларида янада ривожлантирилади.

Масалан, Имом Муҳаммад Ғаззолий Қуръони карим оятларини тафсирида ва Ҳадиси шарифларни шарҳлаш жараёнида кўпроқ онтологик асосга таянадиган махсус герменевтик методологияни ишлаб чиқади. Асарнинг кириш қисмидаёқ Имом Ғаззолий оятлар ва ҳадислар бундай усулда изоҳлашга уриниш забт этиб бўлмас чўққига чиқиш билан баробарлигини таъкидлаб ўтади.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**


Тасаввуф илми сир-синоатли олам. Бу илмнинг ичига қанчалик кириб борилса, шунчалик бу соҳа диапазонининг янада кенгайиб бориш имкониятлари кўрина бошлайди. Яъни, тасаввуфшунослик соҳасида ҳали очилмаган кўриқлар, айтилмаган жиҳатлар кўплиги билинади. Буларни куйидагича таснифлаш мумкин:

1. Тасаввуф теологияси.
2. Тасаввуф этикаси.
3. Тасаввуф эстетикаси.
4. Тасаввуф социологияси.
5. Тасаввуф аксиологияси.
6. Тасаввуф психологияси.
7. Қиёсий тасаввуфшунослик.

Тасаввуфнинг таркибий қисмлари сифатида ҳали шакллантирилмаган ушбу соҳаларни келажакда шакллантириш ва ўрганиш зарурати ҳозирданок сезилиб турибди.

Тасаввуфшунослик фани бир томондан барча исломий билимлар – Исломшунослик, Қуръоншунослик, Ҳадисшунослик, фикҳ ва калом илмлари билан ёнма-ён, чамбарчас боғлиқ ҳолда шаклланган бўлса, бошқа томондан фалсафа, тарих, адабиёт, жамиятшунослик ва психология фанлари билан алоқадорликда шаклланган ва ривожланган фандир.

*2-чизма: Тасаввуфшуносликнинг шаклланмаган таркибий қисмлари.*



Тасаввуф таълимотини вужудга келтирган, унга мангулик бахшида этган оби ҳаёт қайси сарчашмалардан оқади? Бу масала ҳалигача тасаввуфшуносликнинг асосий муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. Зеро, бу муаммони ечмасдан туриб Тасаввуф адабиёти ва фалсафаси ҳақида мукамал тасаввурот ва маълумотга эга бўлиш амри маҳол. Шундай экан, бу масалага фақатгина қиёсий-тарихий усул орқали кириб бориб, Тасаввуф таълимотини турли динлар, Шарқ ва Ғарбдаги турли диний-фалсафий таълимотлар билан солиштирган ҳолда ўрганиш мумкин, деган хулоса келиб чиқади. Бу зарурат, яъни, Тасаввуфни қиёсий равишда ўрганиш ўз навбатида “Қиёсий тасаввуфшунослик” номли методологияни ишлаб чиқишни тақозо этади. “Қиёсий тасаввуфшунослик”да умумий ўзаро алоқадорлик, тарихийлик, тизимлилик тамойиллари, гипотетик дедуктив, мавҳумликдан аниқликка юксалиш, герменевтика, дедуктив-номологик ва интенционал-телеологик тушунтириш, умумлаштириш усуллари кенг фойдаланилади.

“Қиёсий тасаввуфшунослик” ҳам ўзига хос шаклланиш тарихига эга. Тасаввуфни турли диний эътиқодлар, диний-фалсафий таълимотлар билан солиштириб ўрганиш усулининг илк намунаси Абу Райҳон Берунийнинг *ماللهند* – “Ҳиндистон” асарида кузатилади. Беруний Қадимги Юнон фалсафаси ва Қадимги Ҳинд динларидаги баъзи бир масалаларни сўфийлар таълимоти билан қисқача таққослаб ўтади.

Тасаввуф илми назариётчиларидан илк маротиба X-XI асрларда яшаган мутасаввиф олимлар Абу Бакр Калободий Бухорий “Ат-таъарруф” асарида ва

унинг шогирди Мустамлий Бухорий “Шарҳ ат-таъарруф ли мазҳаб ит-Тасаввуф” асарида баъзи бир масалаларни бошқа динлар, мазҳаблар ва фалсафий таълимотлар билан таққослаш усулини қўллаганлар. Жумладан, Мустамлий Бухорий “Шарҳ ат-таъарруф”нинг “Рух ҳақида”ги бобида шундай ёзади: “Одамлар орасида рух масаласи бобида ихтилофлар мавжуд. Бир гуруҳ руҳни жисм деганлар, бошқа бир гуруҳ жавҳар деганлар, яна бир гуруҳ эса араз (акциденция) деганлар, бир гуруҳ уни қадим деганлар ва яна бировлари яратувчи деганлар. Насронийлар уни яратувчи деганлар. Таносух эътиқодига эга баъзи файласуфлар ҳам шу фикрдадирлар. Аҳли суннат вал-жамоат мазҳабида, рух ҳақида гапирайлик (мавжуд деб билайлик), лекин унинг моҳияти ва сифати ҳақида сўз юритмайлик, дейилади. Жунайд бу ҳақда шундай дейдилар:

" (قال الجنيد): الروح شيء استأثر الله بعلمه و لم يطلع عليه احدا من خلقه و لا يجوز العبارة عنه باكثر من موجود لقول تعالى: قل الروح من امر ربي".

Мазҳаб ҳам Жунайд билдирган фикрдадир, фақиҳлар ва дин имомлари ҳам шундай фикрдалар ва бизнинг эътиқодимиз ҳам шундай”. [7:835]

Мустамлий Бухорий “рух” ҳақидаги баҳсларни Қуръон ва Суннат асосида таҳлил қилар экан, унга турли таълимотлар томонидан берилган таърифларни куйидаги мантиқий далиллар билан рад этади:

ثم قال: " (قال) ابو عبد الله النبأحي الروح جسم تल्पف عن الحس و يكبر عن اللمس و لا يعبر باكثر من موجود"

Деди: “Рух – уни ҳис сезадигандан латифроқ, уни ҳеч нарса тега олмайдиган даражада каттароқ, уни бор дейишдан бошқа ибора топишнинг имкони йўқ бир жисмдир”. Аммо руҳни жисм дейиш дуруст эмас; чунки Усул аҳли наздида руҳнинг ўзи араздир ва араз эса жисм эмас; дин фақиҳлари ва уламолари наздида унинг борлигини айтишдан ортиқ гапириш раво эмас; ва жисм, жавҳар, араз дейиш маҳолдир. Чунки Худойи Азза ва Жалла бизга баён қилмаган. Агар жисм дейиш раво бўлганда шариятда келтирилари.

Жисм дейишни ботил қилувчи далил шуки, рух – тана у билан тириладиган сифатдир, жисм эса сифат эмас; жисм сифат унда турадиган бўлиши лозим. Шунингдек ҳайвон жисм бўлса шохид ила ҳаёт унда қойим бўлса (турса) ва у ҳаётга ҳайвон бўлса. Илм олимга сифат бўлганидек, олим илм



оламига келади, ва илм олимга қойим бўлади. Илм олимнинг сифати бўлгани учун, олим жисмдир ва илм жисм эмасдир, шунингдек ҳаёт ҳайининг сифатидир ва жисмдир ва ҳаёт эса жисм эмасдир.

Барча айтиб ўтган жавобларимизга биноан, руҳ бор, лекин нима эканлигини билмаймиз деб жавоб берамиз”.[7:838]

Имом Абу Ҳомид *Муҳаммад Ал-Ғаззолий* (1058-1111) эса ўзининг “Таҳофат ул-фалосифа” ва “Мақосид ул-фалосифа” (файласуфларга раддия сифатида ёзилган) номли асарларида файласуфлар ўртага ташлаган масалаларни Калом илми ва Ирфон фалсафаси асосида рад этади. Қадимги Юнон ва Рим фалсафий мактабларини ўрганишда Ғаззолийнинг ушбу китоблари бирламчи манбалардан ҳисобланган. Ғаззолийнинг фалсафа аҳкомлари билан бўлган ихтилофи шу китобнинг ўзида ҳам маълум. Шунга қарамасдан, Европа шу китобнинг таржимаси туфайли уни файласуф олим сифатида эътироф этади.

“Ал-мунқиз мин аз-залол” асарида Ғаззолий руҳий изтироблари, ҳақиқатни излаш йўлидаги жонбозликлари, инсоннинг ақл ва мушоҳадаси сарҳадлари, фалсафа, мантиқ ва калом илмига бўлган муносабатлари, шунингдек, турли равия ва мазҳабларнинг моҳияти, ютуқ ва камчиликлари илмий асосда ёритиб берилган. Айтиш мумкинки, бу асарлар ҳам қиёсий тасаввуфшуносликнинг ривожига катта улуш бўлиб қўшилади.

XII асрда яшаб ижод қилган илоҳиётшунос олим Имом Ҳасан Розий ўзининг “Табсират ул-ъавом фи маърифат ил-аном” номли асарида Ислом дини таркибидаги йўналишлар, мазҳаблар ва турли таълимотлар хусусида қимматли маълумотлар бериб ўтади. Муаллиф ҳар бир мазҳаб ва таълимот ҳақида маълумотлар бериш билан бирга, уларнинг тўғри йўлда эканлиги ёки адашганлигини ҳам илмий-мантикий далиллар орқали исботлаб беришга ҳаракат қилади. Гоҳида, йўл-йўлакай мазҳаблардаги усул ва фуруъларни қиёсласа, гоҳида Исломдаги бирор-бир мазҳабни бошқа дин ва таълимотлар билан ҳам таққослаб ўтади.[3]

XII-XIII асрларда яшаган улуғ илоҳиётшинос ва Тасаввуф назариётчиси, “Ваҳдат ул-вужуд” фалсафасининг асосчиси Шайх ул-акбар Муҳйиддин ибн ал-Арабий ўзининг машҳур “Фусўс ул-ҳикам” ва бошқа асарларида илк маротиба турли динларнинг пайғамбарлари даъватини қиёсий таҳлил қилади.

XV асрда Тасаввуф таълимотининг буюк назариётчиларидан бири Мавлоно Абдурахмон Жомий ўзининг “Ад-дуррат ул-фоҳира” (“Рисола фи таҳқиқи мазҳаб ас-сўфия ва-л-мутакаллимийн ва-л ҳукамо” ва “Таҳқиқ ул-

мазохиб” деб ҳам номланган) номли асарида Тасаввуф фалсафасидаги бир қатор масалаларни мутакаллимлар (Калом илми аҳли) ва файласуфларнинг қарашлари билан қиёслаб чиқади.

Жомий бу асарда мутакаллимлар, мутасаввифлар ва файласуфлар ўртасида узоқ асрлар давомида катта баҳсу муносабарга сабаб бўлган 11 та масалани ўртага ташлаб, уларга холисона ҳакамлик қилиш ва ўз нақтаи назарини айтишга ҳаракат қилади. Бу масалалар китобда қуйидаги тартибда қиёсу таҳлилга тортилган:

1) Худонинг вужуди тушунчаси ва Унинг ўз зотиға мансублиғи. Яъни, Ҳақнинг вужуди айнан Унинг Зотими ё Унга зотид (қўшимча) бўлган нарсами?

2) Худонинг ваҳдати (бирлиғи) ва буни исбот қилишнинг зарурати.

3) Худонинг сифатлари ва уларнинг Унинг Зотиға тааллуқлиғи, яъни, Худонинг сифатлари айнан Унинг Зотими ёки Унга зотид (қўшимча) бўлган нарсаларми?

4) Худо илмининг моҳияти. Илмнинг Худоға мансублиғи.

5) Худо илмининг жузъиёти, Худоға нисбат бериладиган илм атрофида туғиладиган баҳслар.

6) Худо иродасининг моҳияти. Сифатий ирода Унинг илмиданми?

7) Худо қудратининг моҳияти. Худо фоили мухторми (мутлақ ихтиёрга эга бўлган Зотми?)

8) Оламнинг азалийлиғи. Олам азалдан бўлганми ё муайян замонда яратилганми? Қадим олам фоили мухтордан бор бўлганми?

9) Худо каломининг моҳияти. Қуръоннинг қадимийлиғи ва яратилганлиғи хусусида баҳс.

10) Бандаларнинг ихтиёрий амаллари (ўз хоҳиш-истаклари билан) ва барча амал- ҳаракатларнинг охир-оқибати Худонинг қудратига боғлиқлиғи.

11) Оламнинг Худодан келиб чиқиши. Турли оқибатларнинг ягона сабабиятдан келиб чиқиши масаласи.

Жомий ҳар бир масалани бирма-бир келтириб, биринчи навбатда мутакаллимлар, иккинчи навбатда файласуфлар ва охирида сўфийларнинг ҳар бир масалаға бўлган муносабатларини баён қилади. Лекин сўфийлар мазҳабини мутакаллимлар ва файласуфлар жамоатига қараганда мақбул ва маъқул мазҳаб сифатида эмас, балки устунроқ бир таълимот сифатида таништиради. У калом аҳли ва файласуфлар ўртасида ихтилофларға сабаб бўлган ваҳдоният масаласини бир-бириға зид қўймай, уларни аралаштиришға ҳаракат қилади. Масалан, сўфийлар Худонинг сифатларини Унинг Зотидан ташқари, аммо

тасаввурда унга зои� деб қарайдилар. Бу нуқтаи назар мутакаллимлар ва файласуфлар фикридан ҳосил бўлган ўртача қарашдир. Мутакаллимлар Худонинг сифатларини Унинг Зотига зои� деб биладилар, файласуфлар эса сифатни Зотнинг айна ўзи дейдилар. Сўфийларнинг яна бир ақидаси мутакаллимлар ва файласуфлар ўртасидаги баҳсни мўътадиллаштиради. Бу “Худо фоили мухтор бўлишига қарамай, жаҳон азалийдир”, деган баҳсдир. Файласуфларнинг фикрича, “Худо фоили мухтор бўлгани учун ҳам олам азалийдир. Мутакаллимларнинг фикрига қараганда, оламнинг ибтидоси борлиги учун ҳам Худо фоили мухтордир. Лекин, “Худонинг вужуди айна Унинг Зотидир ё унга зои� бўлгандир”, деган масалада мутасаввифлар бутунлай бошқача фикрни билдирадилар. Улар Худони Зот ва вужуддан таркиб топган деб тасаввур қилиш ўрнига, Уни Вужуди Мутлақ деб биладилар. Улар нафақат Худо вужудининг зотга бўлган нисбати масаласидан четга чиқишга, балки шунингдек, Аллоҳнинг бирлигини исбот қилишга ҳам уринмасликка ҳаракат қиладилар. Мутакаллимлар ва файласуфлар эса бунга далил-исбот излайдилар. Жомий бу асарда “файласуфлар” деганда Қадимги Юнон файласуфлари – перипатетиклар – Шарқ аристотелизми намояндалари (Форобий, Ибн Рушд, Ибн Сино)ни назарда тутди ва уларнинг юқорида келтирилган масалаларга оид фикрларни таҳлил ва муҳокама қилади. Жомий мутакаллимлар, файласуфлар ва мутасаввифлар таълимотини таништириш ва уларнинг қарашларини баён қилиш мақсадида жуда кўп мўътабар китобларга мурожаат қилган. “Ад-дуррат ул-фоҳира” ва унинг ҳошиясидаги жуда кўп иқтибослар ё ўша китоблардан далил сифатида келтирилган, ё изоҳ берилган. Гоҳида Жомийнинг ўзи бу манбаларга ишора қилиб, уларни таништириб ўтади. Жомий Калом илмига оид манбалардан Журжонийнинг “Шарҳ ул-мувоқиф” ва Тафтазонийнинг “Шарҳ ул-мақосид” номли асарларидан, Тусийнинг “Шарҳ ул-ишорот” асари ва унинг Садриддин Қуниявийнинг саволларига берган жавобларидан таркиб топган рисоласидан ҳам файласуфларга боғлиқ бўлган баъзи бир масалалар баёнида фойдаланган. Тасаввуфга оид манбалардан эса асосан Фанорийнинг “Мисбоҳ ул-унс”, Довуд Қайсарийнинг “Матлаъи хусус ул-калам”, Ҳамадонийнинг “Зубдат ул-хақойиқ”, Ибн ал-Арабийнинг “Футухот ул-Маккия” ва Садриддин Қуниявийнинг “Китоб ун-нусус фи таҳқиқот ит-Тур ул-махсус” ва “Иъжоз ул-баён” каби асарларидан мисоллар ва далиллар келтирган.[5]

Хулоса қилиб айтганда, Жомийнинг “Ад-дуррат ул-фоҳира” асари Тасаввуф, Калом ва Фалсафа илмларини қиёсий-таҳлилий услубда очиб

берадиган энг қимматли фалсафий манбалардан бири саналади. Албатта, Жомийдан бир неча аср олдин ҳам Тасаввуф ва Калом илмларига оид масалаларни гоҳида қоришиб кетган ҳолда, гоҳида эса қиёсий тарзда баён этиш ёки ўрганиш (масалан, Мустамлий Бухорийнинг “Шарҳи ат-таъарруф ли мазҳаб ит-тасаввуф” каби асари) ҳолатини кузатиш мумкин, аммо у даврларда ёзилган манбаларда уч тойифа – мутакаллимлар, сўфийлар ва файласуфларнинг муайян мавзулар атрофидаги баҳс-мунозаралари “Ад-дуррат ул-фоҳира”дагидек аниқ ва таниқ манзарага эга эмас. Қолаверса, Жомийнинг ушбу асари Ислом фалсафасини уч асосий йўналиш – Калом, Тасаввуф (Ирфон) ва Фалсафа (Шарқ аристотетизми; Шарқ перипатетизми)га бўлиб ўрганиш учун имконият яратиш бериши жиҳатидан ҳам катта илмий-амалий аҳамиятга эга.

Шотландиялик диншунос, “Тасаввуф ҳақида очерк: Ислом маънавияти асослари” (World Wisdom, 2013), “Тасаввуф – Исломнинг мистик асослари ва методлари” (Нью-Йорк, 1985) каби асарлар муаллифи Уильям Стоддарт (1925 йилда туғилган) айтганидек, “ҳар бир диннинг табиати ва таркибида Тасаввуф яширинган”. [11:19-20] Яъни, ҳар бир диний ёки диний-фалсафий таълимот таркибида Ислом Тасаввуфи ва Ирфонига ўхшаб кетадиган ирфоний тамойиллар мавжуд. Шундан келиб чиқиб, улардаги ана шу ирфоний тамойилларни, умумийлик ва хусусийлик жиҳатларини Ислом Тасаввуфи билан қиёсий равишда ўрганиш ва таҳлил қилиш ушбу таълимотларнинг мазмун-моҳиятини янада чуқурроқ ўрганиш имкониятини яратади.

Кўриниб турганидек, “Қиёсий тасаввуфшунослик”нинг илк намуналари Шарқ фалсафий тафаккури ва илоҳиётшунослигида минг йилдан буён мавжуд бўлиб келган экан. Аммо, на Абу Райҳон Беруний ва Мустамлий Бухорий, на Ҳасан Розий ва Имом Ғаззолий, на Ибн ал-Арабий ва Жомий Тасаввуфни бошқа динлар ва таълимотлар билан қиёсий ўрганишни “Қиёсий тасаввуфшунослик” деб атамаганлар. Уларнинг барчаси бу усулни Тасаввуф ҳақиқати ва моҳиятини чуқурроқ ўрганиш мақсадида қўллаганлар. Зеро, ҳақ ва ботил, ҳақиқат ва афсона, тўғри ва нотўғри, рост ва ёлғон ҳамиша қиёс кўзгусида намоён бўлади.

Тасаввуф Ислом динидаги Ислом, Иймон ва Эҳсон қисмларидан учинчиси – Эҳсонга тегишли. Шундай экан, Тасаввуф Ислом дини таркибидаги ҳодиса сифатида Исломшунослик соҳасига тегишлидир. Аммо, “Қиёсий тасаввуфшунослик” Ислом маърифатининг вакили сифатида бевосита турли диний ва диний-фалсафий таълимотлар билан муносабатга киришар экан, “Қиёсий диншунослик” фани билан умумий мақсад ва вазифаларга эга бўлади.

Тасаввуфнинг вужудга келиши ва шаклланишида асосий манба (бош илдиз) сифатида хизмат қилган, иштирок этган ёки маълум даражада таъсир кўрсатган диний ва фалсафий таълимотлар хусусидаги баҳс Абу Райҳон Беруний давридан бошлаб ҳозирги кунга қадар давом этиб келмоқда. Ана шу масалани қиёсий-тарихий усулни қўллаган ҳолда ўрганиш ва унга ойдинлик киритиш учун ҳам қиёсий тасаввуфшунослик методологиясини ишлаб чиқиш зарурати туғилди.

Шундай қилиб, “Қиёсий тасаввуфшунослик” ҳам методология, ҳам Тасаввуфшунослик фанининг таркибий қисми сифатида ўз олдида Тасаввуф тарихи, фалсафаси ва адабиёти билан боғлиқ бўлган турли масалаларни жаҳон динлари, миллий динлар, диний-фалсафий таълимотлар, Ислом дини таркибидаги фикрий ва ақидавий мазҳаблар, шунингдек, Тасаввуф таълимоти таркибидаги тариқатлар ва ирфоний мактаблар билан ўзаро қиёсий ўрганишни асосий мақсад қилиб белгилайди. Бундан келиб чиқиб, “Қиёсий тасаввуфшунослик” икки йўналишда олиб борилади:

1. Ташқи “Қиёсий тасаввуфшунослик”.

Бу йўналишда Тасаввуф Насронийлик ва Буддавийлик каби жаҳон динлари, турли миллий динлар ва диний-фалсафий таълимотлар билан қиёсий тарзда ўрганилади.

Масалан, бу йўналишда Тасаввуф таълимоти ва Монавийлик таълимоти ўртасидаги алоқадорлик даражаси куйидагича таҳлил қилинади: Моний таълимоти ҳам Зардуштийлик каби Тасаввуфнинг биринчи тараққиёт босқичида, яъни IX аср – хонақоҳлар ва тариқат одобининг шаклланиши даврида маълум даражада таъсир кўрсатган бўлиши мумкин. Шарқ тасаввуфшунослигида илк маротиба эронлик олим Саид Нафисий Тасаввуф ва Моний таълимоти ўртасидаги муносабатлар хусусида кўпроқ тўхталиб ўтган. У Моний таълимотини Тасаввуф сарчашмаларидан бири, деб ҳисоблайди ва бу фикрни исботлаш учун бир нечта далил келтиради:

- Монавияда ҳам, Тасаввуфда ҳам еттита руҳий-маънавий камолот босқичларини босиб ўтиш шарт ҳисобланади;

- Монавия таълимотида ҳам, Тасаввуфда ҳам шахс (солик, тариқат издоши) қайси ижтимоий табақа, қайси миллат ё мазҳабга мансублигидан қатъий назар, меҳнату риёзат ва даражаларни навбатма-навбат босиб ўтиш орқали энг юқори даражага – Комилликка эришиши мумкин;

- Моний таълимоти Шарқ ва Ғарб ўртасидаги кўприкка ўхшайди. Унинг таълимотига яҳудий, насроний ва юноний каби Ғарб таълимотлари

сезиларли даражада таъсир кўрсатган. Тасаввуф эса Ғарб тафаккуридан нимаики олган бўлса, Монийлик таълимоти оркали баҳраманд бўлган. Демак, Тасаввуф Ғарб тафаккуридан Исломдан олдинги шарқона таълимотлар ғалвиридан ўтган, Шарқ тафаккури билан мослашиб кетган ақидаларни қабул қилган;

- Монавийлар нуроний фикр, нуроний ҳис, нуроний ақл ва шу билан бирга зулмоний фикр, зулмоний ҳис ва зулмоний ақлнинг мавжудлигига ишонар эдилар. Сўфийлар ҳам нури абъаз (оқ нур) ва нури асвад (қора нур) борлигига ишонардилар ва шайтонни нури асвад деб атардилар;

- “Хонақоҳ”га (форсийдаги “хонагоҳ” сўзининг арабчалашган шакли) тааллуқли маросимлар илк бор хуросонлик сўфийлар томонидан бажарилган. Сўфийлар аслида хонақоҳ расму одобини монавийлардан олганлар.[9:35-51]

Ёки Тасаввуф таълимотини бошқа бир ташқи омил, жумладан, Буддавийлик билан қиёсий ўрганиш “Қиёсий тасаввуфшунослик”нинг “ташқи қиёси” ҳисобланади. Мисло учун: Буддавийларда Тасаввуфнинг “Фано” тушунчаси “Нирвана” шаклида мавжуд, аммо улар бир-биридан моҳият жиҳатидан фарқ қилади. Зеро, буддавий солиқ йўл интиҳосида “Нирвана” манзилида қарор топади, аммо Тасаввуфда солиқ “Фано” марҳаласидан ўтиб энг олий марҳала – “Бақо” манзилига ўтади ва шу тариқа носут умр (инсоний умр) поёнига етиб, лохут умр (илоҳий умр) бошланади. “Нирвана”нинг асл моҳияти Инсонни Коинот билан абадий боғлаш бўлмай, руҳий осойишталик топмоқ ва дунёнинг ранжу машаққатларидан узлатга чекиниб нажот топмоқдир. Будда фалсафасига биноан ҳаёт мусибатдир, инсон туғилишидан сўнгги нафасигача руҳий изтироб ва ташвишлар билан умр ўткази, зеро у саодат кимёсининг толибидир. Ва у бу кимёни уч нарсада кўради: биринчиси ҳаёт, иккинчиси соғлиқ ва учинчиси сарват. Ҳолбуки, ҳаётни ўлим, соғлиқни қарилик ва сарватни кашшоқлик эгаллаши мумкин. Ва у (инсон) бу офатларни қайтариш чораларини излаб тополмагач, изтироб чекиб, тушкунликка тушади. У ўзини қийнаётган бу изтиробу ташвишлардан қутулиш чорасини излайди. Ва бунинг иложини орзуларни тарк этмоқдан топади. Орзу-ҳавасларни тарк этган инсоннинг қалби изтироблардан холи бўлади. Бу дунёда вужудини одамлар муҳаббати, мол-дунё, шахват ва барча моддий орзу-ҳаваслардан тозалаган ва “Нирвана” даражасига етган кишигина осойишта яшаши мумкин.

2. Ички “Қиёсий тасаввуфшунослик”.

Бу йўналишда Тасаввуф Ислом дини асослари, Ислом дини таркибидаги фикҳий ва ақидавий мазҳаблар, Тасаввуф таълимоти таркибидаги тариқатлар ва ирфоний мактаблар билан қиёсий равишда тадқиқ этилади.

Ушбу йўналишнинг асосий мақсади Тасаввуф таълимотининг Ислом асослари – Қуръони карим ва Ҳадиси шариф билан боғлиқлигини кўрсатиб беришдир. Масалан, Ислом ва унинг таркибий қисми саналмиш Тасаввуф таълимотида Инсон – Кайҳон муносабатларини қуйидагича кўздан кечириш мумкин: Тасаввуф таълимотида Инсон “Ҳақнинг нусхаси” саналади. Кайҳон “олами кабир” (йирик олам), Инсон эса “олами сағир” (кичик олам) деб аталади. Инсон ва Кайҳон ўртасида узвий ва доимий робита мавжуд. Йирик олам кичик оламни ўз таркибига олса-да, кичик олам йирик оламнинг руҳидир. Инсон ҳам жисмоний ва ҳам руҳоний жиҳатдан оламга ўхшаш.

Тасаввуф мутафаккирларининг космологик таълимоти (“Офоқ ва анфус”)га кўра одамнинг суяги тоғларга, томирлари дарёларга, териси ва гўшти Ерга, боши ва мияси самога, руҳи эса Мутлақ Рухга ўхшайди. Оламнинг зоҳиру ботини инсоннинг зоҳиру ботинига, оламнинг бепоёнлиги унинг хаёлига, йўқлик уйқусига, борлик уйғоқлигига, йилнинг тўрт фасли инсон умрининг тўрт даври – болалик, ёшлик ва қариликка ўхшатилади. Оламнинг тўрт унсури – тупроқ, олов, ҳаво ва сув инсон вужудининг таркибида ҳам бор: кулоқ – тупроқ, кўз – олов, бурун – ҳаво, оғиз – сув. Демак, инсон кичик олам сифатида йирик оламнинг барча хусусиятларини ўзида мужассамлаштиради.

Улуғ мутасаввиф Хожа Юсуф Ҳамадоний (440 ҳижрий (1048 милодий) йили Ҳамадон шаҳрининг Бузанжирд (ёки Бузинажирд) қишлоғида таваллуд топган, 535 ҳижрий (1141 милодий) Бомиёнда вафот этган) ўзининг “Коинот ва Инсон ҳақида рисола”сида Инсон ва Коинот ўртасидаги алоқадорликни Қуръони каримга истинод қилган ҳолда Тасаввуф мезонлари асосида тушунтириб беради ва жумладан шундай дейди:

“Ояти каримада буюриладики:

وَسَخَّرَ لَكُمْ مَّا فِي السَّمَاوَاتِ وَمَا فِي الْأَرْضِ جَمِيعًا مِنْهُ إِنَّ فِي ذَلِكَ لَآيَاتٍ لِّقَوْمٍ يَتَفَكَّرُونَ

“У ўз томонидан (яъни Ўз хоҳиш-иродаси билан) сизларга осмонлардаги ва ердаги барча нарсаларни бўйсиндирди” (Жосия сураси, 13-оят. Бу ердаги “сизларга” калимаси билан Одам фарзанди назарда тутилган. Оятнинг маъноси бундай: “Бу оламдаги ҳамма нарсани сизлар учун яратдим. Чунки сизлар ожизликларингиз учун дунёдаги нарсаларга муҳтожсизлар. Сизлар ва сизлардан

ташқари бошқа махлуқотларни ҳам худди шу тарзда Мен яратдим. Сизлар коинотнинг ҳукмдори ва саййид-хожаларисиз. Чунки коинот сизнинг тасарруфингиз остида, сизга хизмат учун муҳайё қилинган. Лекин бошқа бир жиҳатдан эса сизлар коинотнинг қулларисиз. Чунки коинотга муҳтожсизлар. Ҳолбуки, Мен ҳеч нарсага муҳтож бўлмаганим боис сиздан ва сизлар учун яратганим барча борлиқлардан устунман”.[12: 113-114]

Хожа Юсуф Ҳамадоний нигоҳида Инсон ва Коинот ўртасидаги алоқадорлик икки томонламадир. Яъни, Инсон борлиғи Коинотга боғлиқ, Коинот борлиғи эса Инсонга боғлиқ. Улар бир-бирисиз ҳеч қандай аҳамият ва моҳиятга эга бўлолмайди, зеро, улар бир-бирисиз мавжуд бўлолмайди: “Дарҳақиқат, коинот (борлиқ) ожиздир, чунки у сизнинг хизматингизга топширилган. Сиз ҳам ожиз ва ҳожатмандсиз. Фойдаю манфаатга, яроқли нарсаларга муҳтож бўлганингиз учун дунё сизларга бўйсундирилди. Коинотнинг кадр-қиймати ва устунлиги очиқ-ойдин маълум. Зеро, у сиз учун фойдалидир. Сизнинг коинотдаги устунлигингиз ҳам очиқ-ойдин равшан. Чунки унинг фойдали ва завқли жиҳатларидан фойдаланишингиз мумкин. Шу боис коинот бир томондан ожиз бўлса, бир томондан саййид-хожадир. Сиз ҳам бир жиҳатдан борлиқни бошқарувчисиз, иккинчи жиҳатдан эса ожизу муҳтожсиз. Коинотнинг ожизлиги сенга муҳтож бўлгани сабаблидир. Устунлиги эса сенинг коинот ва унинг хизмати туфайли ҳаёт кечири олишингдир. Сенинг ожизлигинг – коинотсиз яшай олмаслигингдир. Хожа-саййидлигинг эса роҳатланиш учун кўзларинг билан дунёдан фойдаланмоғинг, лаззатланмоқ учун қулоғинг, маза тотмоқ учун оғзинг, ҳузурланмоқ учун бурнинг, хуллас, ҳаётингни давом эттирмоқ учун барча аъзоларинг билан дунё ва коинотдан фойдаланишингдир.

Коинот кўринишда сенинг фармонингга мунтазир. Сен эса коинотнинг амрига бўйсунасан. Чунки коинот бир таомдир. Сен уни еб, ўзингда ҳазм қиласан. Коинот ичимликдир. Уни ичиб тугатасан. Коинот кийимдир. Сен уни кийиб эскиртирасан. Коинот маскан-уйдир. Сен унда яшайсан. Уни баъзан таъмирлайсан, баъзан бузасан, баъзан қулатасан”.[12: 114-115]

Хожа Юсуф Ҳамадоний талқинида Инсон ва Коинот ўртасидаги алоқадорлик диалектик зиддиятларга тўла. Улар ҳам бир-бирини тўлдирди, ҳам бир-бирини инкор этади. Аммо ушбу талқинда, барибир Инсон Коинотнинг сарвари, бошқарувчиси, соҳиби сифатида гавдаланади. Негаки, мутасаввиф тафаккурининг сарчашмаси – Ислом тафаккурида Коинот ва ундаги барча мавжуд нарсалар Инсонга бўйсундирилган. Демак, Инсон фойдаланувчи,



Коинот эса хизмат қилгувчидир. Хожа Махдуми Аъзам Инсонни “Дехқони Вужуд” – “Борлиқ деҳқони” деб атагани ҳам ана шундан сарчашма олади.

Ёки, “Қуръони каримдаги “омонат юки” ҳақида нозил бўлган оятларнинг тасаввуфий талқинларини ўрганиш ҳам “ички қиёсий тасаввуфшунослик” вазифасига киради. Ушбу масала куйидагича таҳлил қилиниши мумкин: “Қут ул-қулуб” муаллифи Абутолиб Маккий орифнинг Аллоҳ йўлида чекадиган кундалик риёзатини бошқалар Қадр кечасидагина адо этадилар, дейди. Баъзи олимлар эса ориф учун ҳар бир кеча Қадр кечасидир, дейдилар:

كلا ليلة للعارف بالمنزلة ليلة القدرى [8:178]

“Ат-тасфия фи аҳвол ал-мутасаввифа” асари муаллифи ориф калбини “соф ойна”га қиёсласа,[10:169] Хожа Ҳофиз уни Жоми Жамга ўхшатади:

دلى كه غيب نماى است و جام جم دارد،  
ز خاتمی كه دمى گم شود، چه غم دارد؟ [2:135]

*Яъни: Гойиб оламини кўргувчи ва Жоми Жамга эга бўлган кўнгил нега йўқолган узук учун қайгурсин?*

*Шарҳ: Ривоят қилишларича қадимги Эрон шоҳи Жамшид ҳозир ва гойибни кўрсата оладиган жомга эга бўлган экан. Ана шундай Жоми Жам каби гайб аҳволини, ўтмиш ва келажакни кўра оладиган ва ҳамма нарсдан огоҳ Қалб (бундай қалб эгаси шубҳасиз орифдир!) йўқолган нарса учун нега ҳам чексин? Йўқолган нарса ҳатто Сулаймон пайгамбарнинг оламини бошқарадиган мўъжизавий хотами, яъни, узуги бўлсаям (бу мўъжизали узукни дев ўғирлаб жаҳонни бир муддат жаҳолат ва зулм ила бошқарди, аммо охирида Сулаймон узукни қайтариб олиб олам аҳлини дев зулмидан қутқарди) бундай қалб эгаси учун арзимаган нарса ҳисобланади.*

Қўлдан кетган, йўқолган нарсага ғам емаслик орифона фазилатлардан биридир. Чунончи, ибн Қайюм ал-Жузийя орифни куйидагича тавсифлайди: “Ориф талаб қилмайди (дунё ва унга тааллуқли нарсаларни – Ж.Х.), бирон кишидан шикоят қилмайди, дағаллик ва тамаъгирликдан йироқдир, ўзини ҳеч кимдан устун деб билмайди ва бировда ҳаққим бор, деб ўйламайди. Ориф қўлдан кетган нарса учун андуҳ чекмайди ва келажакда бўладиган нарса учун ҳам хурсанд бўлмайди. У ҳамма нарсага фано ва завол кўзи билан қарайди, зероки, улар ҳақиқатдан ҳам шабаҳ ва соядан ўзга нарса эмаслар. Орифнинг

яна бир нишонаси шуки одамларни ўзи ва Худо ўртасида ҳижоб бўлишига йўл қўймайди, уларни ўзидан четлаштиради, гўёки, улар дунёда йўқдай, улардан на фойда кўзлайди ва на зиён. Уларнинг (одамларнинг – Ж.Х.) на яшашга ва на ўлишга ихтиёрлари бор, на тирилишга. Шунингдек, нафсидан ҳам парҳез қилади, гўёки одамлар орасида унсиз яшайди. Ориф йўлни икки қадамда босади, биринчи қадами билан нафсидан, иккинчи қадами билан халқдан ўтади, деган гапнинг маъноси шудир. Ориф ўз замонасининг фарзандидир, дейдилар:

العارف ابن وقتہ [6:340-341]

“Ибн ул-вақт” унвонини кўпроқ сўфийга нисбат берадилар. Зеро сўфий киши бугунги ишни эртага қолдирмайди, ҳар бир ишни ўз вақтида бажаради. Сўфий ва ориф ўртасида анча тафовут мавжуд Ҳар бир ориф сўфий ҳамдир, аммо ҳар қандай сўфий ҳам ориф бўлолмайди. Зеро сўфий Тариқат расму русумига боғланган, дунёқараш ва билим доираси анча чекланган шахсдир. Аммо ориф Шариъат, Тариқат ва Маърифат босқичларини ўтиб бўлган, Ҳақиқатни кўзлаган мутафаккир шахсдир. Орифнинг ягона бойлиги унинг покиза ва мусаффо қалбидир. У дунёни қалб кўзи билан мушоҳада этади, ғайб овозони қалб қулоғи билан эшитади ва қалб тили билан сўзлашади. Муаллифи номаълум бўлган “Бустон ул-ъорифин ва тухфат-ул-муридин” номли асарда келтирилишича, ориф қалбининг Аршу Курси ва Еру Осмоннинг етти қаватидан ҳам кенгрок (буюкрок) эканлиги сабабини унинг Ҳақ томонидан юклатилган омонатга манзил бўла олганлигидадир: “Пайғамбар Ҳазқил алайҳиссалом дуо қилиб деди: – Бор Худоё! Менга Ернинг етти қаватини кўрсат. Унга кўрсатди. Ҳайратга тушиб деди: – Илоҳо, бундан ва биҳишдан ташқари кенгрок ва буюкрок яна бирор нарса яратганмисан? Жабраил келди ва деди:

–Яратганман, деди.

– Илоҳо, у нима?

Деди: – Ориф қалби.

Деди: – Нега?

Деди: – Зероки, омонатни Еру Кўкларга ва тоғларга юклатдик:

إِنَّا عَرَضْنَا الْأَمَانَةَ عَلَى السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ وَالْجِبَالِ

аммо улар қабул қилолмадилар, бу юкни кўтаришга тоб-тоқатлари етмади. Фақат ориф қалби омонатни қабул қилди, унинг қалби етти қавватдан ҳам кенгрокдир”. [1:152]

“Аъроф” сурасининг 143-оятда Мусо(а)нинг Тур тоғида Аллоҳ тажаллийсини (жилосини) кўриши ва унинг ҳайбатидан тоғнинг титкилаб кетиши-ю, Мусо(а)нинг беҳуш бўлиб йиқилиши ҳақида сўз кетади:

وَلَمَّا جَاءَ مُوسَىٰ لِمِيقَاتِنَا وَكَلَّمَهُ رَبُّهُ قَالَ رَبِّ أَرِنِي أَنظُرُ إِلَيْكَ قَالَ لَنْ نَرَاكَ وَلَكِن نُنظِرُ إِلَى الْجَبَلِ فَإِنِ اسْتَقَرَّ  
مَكَانَهُ فَسَوْفَ نَرَاكَ فَلَمَّا تَجَلَّىٰ رَبُّهُ لِلْجَبَلِ جَعَلَهُ دَكًّا وَخَرَّ مُوسَىٰ صَعِقًا فَلَمَّا أَفَاقَ قَالَ سُبْحَانَكَ تُبْتُ إِلَيْكَ وَأَنَا  
أَوَّلُ الْمُؤْمِنِينَ

“Мусо Биз белгилаган вақтда (Тур тоғига) келгач, у билан Рабби бевосита гаплашди. Мусо: “Раббим! (Ўзингни) менга кўрсатгин, Сенга бир назар қилай!” – деди. (Аллоҳ): “Мени кўра олмайсан. Лекин (ана у) тоққа (бир) боқ! Агар Мен унга бир жилва қилганимда (тоқат қилиб) ўз ўрнида тура олса, сен ҳам мени кўрасан”, – деди. Рабби тоққа тажаллий (кичик бир кўриниш) қилган эди, уни майдалаб ташилади. Мусо (бундан таъсирланиб) беҳуш ҳолда йиқилди. Ҳушига келгач, деди: “Сенга тасбеҳ айтурман, Сенга тавба қилдим ва мен мўминларнинг биринчиси (пешвоси)дурман”. [13: 167]

Яъни, Аллоҳ таоло тоққа назар солганда тоғ чидаёлмади ва чилпарчин бўлди (جَعَلَهُ دَكًّا). Ҳолбуки, Тасаввуф аҳли наздида у бир кечаю кундузда уч юзу олтмиш маротаба ориф қалбига назар солади, аммо унинг қалбига бирор зарар етмайди. Демак, ориф қалби устуворлик ва куч-қувватда ҳам беназир экан.

Шайх Нажмиддин Розий “Мирсод ул-ибод” номли асарида “Омонат юки” ҳақида фикр юритиб, уни “маърифат” деб атайди. Нажмиддин Розий нуқтаи назаридан “Инсон”дан мақсад “Ориф” бўлса, унинг қалби маърифат маъвосидир.

“Омонат юки” ҳақида нозил бўлган оятда осмондан мақсад самовий мавжудотлар малоика (юлдузлар), ердан мақсад тупроқ дунёси, яъни ҳайвонлар, тоғдан мақсад тоғ мавжудоти, яъни ваҳший ҳайвонлар ва қушлар (ўсимликлар дунёси)дир. Бу ўринда шундай ҳақли бир савол туғилади: нега омонат юкини бошқа мавжудот эмас, айнан инсон кўтарди? Бу саволга Шайх Нажмиддин Розий шундай жавоб беради:

Biz hozirda jadal rivojlanib borayotgan dunyoda yashamoqdamiz. Hamma sohalar kabi gastronomik turizm sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Chunki insonlarning yangi tam va mazaga bo'lgan ehtiyoji ortmoqda. Gastronomik turizm ya'ni oshxona turizmi, turizmning asosiy turlaridan biri bo'lib asosiy maqsadi

sayyohlarning ma'lum bir mamlakatga sayohat qilishi asosida o'sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan yaqindan tanishdir.

Gastronomik sayyoh birinchi navbatda madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an'anaviy taomlarni tayyorlash jarayoni dasturxonga tortish usullari ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarni ko'rish va bilish barobarida sayohat qilayotgan davlatning tarixini iqtisodiyotini davlat siyosatining e'tiqodlarini o'rganadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Gastronomik turizm sohasi 2 turga bo'linadi. Qishloq va shahar gastronomik turizmlariga. Qishloq gastronomik turizmida turistlar sayohat qilinayotgan davlatning ekologik toza mahsulotlarini yig'ib olish va qadoqlash jarayonini o'z ko'zi bilan ko'rish va ta'tib ko'rish uchun borishadi. Shahar gastronomik turizmi esa mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar milliy taom tayyorlaydigan ovqatlanish shahobchalariga va oziq ovqat do'konlariga boshqa obyektlarga tashrif buyurib ularni o'rganish, tatib ko'rish uchun tashrif buyurishadi.

Hozirgi kunga kelib dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida gastronomik turizm rivojlangan. Misol uchun Bolgariya va Fransiya uzumchilik va vinochilik, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Chexiya davlatlarida pivochilik, Italiya Shvetsariyada va Gollandiyada bo'lsa pishloqchilikka ixtisoslashgan hisoblanadi. Prezidentimizning 2019-yil 5-yanvardagi O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi 5611-sonli farmonida diyorumiz hududlarida turizmning istiqbolli turlari, shu jumladan gastronomik turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

Bizning yurtimizning gastronomik sayohati ko'plab xorijlik sayyohlarimiz tomonidan doim yuqori baholanib kelinadi. Shu bilan birga mamlakatimiz National geographic tanlovida eng yaxshi gastronomik yo'nalish g'olibi sifatida e'tirof qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Butunjahon Turizm tashkiloti tashabbusi bilan tashkil etilgan gastronomik sayohatlarda faol qatnashmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonda gastronomik turizm rivojlanishiga kata hissa qo'shganidan darak beradi.

O'zbek oshxonalarida ko'proq qo'y go'shtidan foydalanish mol va ot go'shtiga qaraganda kamroq qo'llaniladi. Cho'chqa go'shtidan Islom dini an'alariga binoan taomlarda qo'llanilmaydi. Bizning oshxonalarimizda eng mashhur taomlardan palov, manti, do'lma, hasip, tandir nondir. Shu bilan birga respublikamizning har bir viloyati

o'zining milliy taomlari bilan mashhurdir. Rossiyaning " Tusr Stat" tahliliy agentligining ma'lumotlariga ko'ra Davlatimiz gastronomik turizm yo'nalishida MDH va yaqin chet el mamlakatlari reytingida kuchli 5 likdan joy olgan. bu davlatlar Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozoqiston va O'zbekistondir. Xususan 2018-yilda National Geographik jurnali o'tkazgan National geographik traveler mukofotida gastronomik turizm naminatsiyasi bo'yicha O'zbekiston birinchi o'rinni egallagan.

## **XULOSA**

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish turistlarga xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar va restoranlar, barlar qurilishi uchun kata mablag' ajratilmoqda. Bunday suratda turizmni rivojlanitirish albatta umumiy ovqatlanishni ham rivojlantirishni taqazo etadi. Chunki barcha turistlar goh ichki goh tashqi turist bo'lsin bundan qat'i nazar restoran xo'jaligiga yoki ovqatlanish tarmog'idan foydalanishga majbur. Aks holda inson ovqatlanish uchun barcha mahsulotlarni o'zlari bilan olib yurishi kerak yoki uy sharoitlarida tayyorlab iste'mol qilishlari kerak bo'ladi. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo'q, shuning uchun ham ular ovqatlanishj xizmatidan foydalanishga majburdir va mana shu holatlarning mavjud bo'lishi turizm umumiy ovqatlanishni uyg'un holda rivojlantirishi uchun imkon beradi. Gastronomik turizm sohasida yana bir gurmanlar degan tushuncha bor. Gurmanlar bu yangi ta'mni kashf etuvchilar yani sayohat davomida mazali ovqatlarni ta'tib ko'ruvchilardir.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning rivojlanishi tepaga qarab intilishi bu oson masala emas. Faqatgina kuchli mehnat va tashabbus orqali yuksaladi va rivojlanadi.

## **REFERENCES**

- 1 Tuxliev, S. (2008). Turizm asoslari.
- 2 G'Ulomxasanov, E. M. O. G., & Rahmatillaev, O. X. O. (2021). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING DAVLAT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 52-56.
- 3 Ogli, I. S. I., & Adxamovich, I. A. (2021). O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TARIXIGA NAZAR. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 999-1007.
- 4 hozir.org
- 5 www.ziyo.net.

**YANGI O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI YANADA  
DEMOKRATLASHUVIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI  
TA'MINLASHDA JURNALISTIK FAOLIYATNING O'RNI**

**Muminova Dilfuza Baxadirovna**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti magistranti.

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda jamiyatni yanada demokratlashuvida jamoatchilik nazoratini ta'minlashda jurnalistik faoliyatning o'rni haqida so'z boradi. Bugungi kunda, davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishida jamoatchilik nazorati omili juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilayotgani haqida so'z boradi. Jamoatchilik nazoratining shakllari haqida hamda jamiyat hayotidagi eng dolzarb, aholini, ularning muayyan qatlamini tashvishga solayotgan muammolarni hal etish uchun jamoatchilik nazorati muhimligi haqida aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** jamiyat, jamoatchilik, nazorat, huquq, erkin, senzura, matbuot, jurnalist, mustaqil, ijtimoiy, ijodiy, demokratik jamiyat.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается роль журналистики в обеспечении общественного контроля в дальнейшей демократизации общества в Новом Узбекистане. На сегодняшний день фактор общественного контроля играет очень важную роль в эффективном функционировании органов государственного управления и управления. Говорится, что Узбекистан постепенно проводит реформы, направленные на укрепление организационно-правовых механизмов общественного контроля. Формы общественного контроля. Значение общественного контроля в решении наиболее острых вопросов общественной жизни, забот населения, определенной его части.*

**Ключевые слова:** общество, общественность, контроль, закон, свобода, цензура, печать, журналист, независимое, социальное, творческое, демократическое общество.

**KIRISH**

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi mamlakatda yangi



modernizatsiya davrini boshlab berdi. Keng qamrovli islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab oldi va 2018-2019 yillarga kelib jamiyat har kungi o'zgarishlarni kundalik holat sifatida qabul qila boshladi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislar va yetakchi OAV xodimlari tomonidan "Yangi O'zbekiston" atamasining yuzaga kelishiga va uning ommaviylashishiga olib keldi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan modernizatsion jarayonlarning bosh tashkiliy-huquqiy asosi bo'lgan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish birinchi ustuvor yo'nalishining uchinchi bandi bevosita Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishga bag'ishlangandir. Ushbu bandda ko'rsatib o'tilgan ustuvor vazifalardan biri bu "jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish" sifatida belgilab qo'yildi. Jumladan, 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 44-bandida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilab qo'yildi va bu o'z vaqtida amalga oshirildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi kunda, davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishida jamoatchilik nazorati omili juda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat organlari rahbar-xodimlarining qonunlarga qat'iy amal qilib, o'z zimmalaridagi vazifa va majburiyatlarini mas'uliyat bilan ado etishlarida bu institutning ta'sir doirasi nihoyatda yuqori.

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Avvalo, Konstitutsiyamizda davlatning jamiyat oldidagi mas'ulligi mustahkamlab qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Shuningdek, 2014 yil 16 aprelda qabul qilingan qonunga asosan, Konstitutsiyamizning 32-moddasi jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga oid yangi norma: "Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi" bilan to'ldirildi.

2018 yil 13 aprelda kuchga kirgan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunda davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonun jamiyatga juda zarur huquqiy hujjat hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati boshqa nazorat turlaridan o'zining sub'ektlari bilan farqlanadi. Boshqa nazorat turlarida davlat organi mansabdor shaxs bo'lib, maxsus ma'lumotga ega shaxslar muayyan tartibga solingan tartib-taomillarga rioya qilgan holda nazoratni o'tkazadi hamda bu nazoratni o'tkazish majburiy. Jamoatchilik nazoratida esa fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari qatnashishlari mumkin. Ular ixtiyoriy ravishda, ochiq, oshkora jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining quyidagi sakkizta shakllari belgilangan:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining, boshqa tashkilotlar va muassasalarning hisobotlarini eshitish.

Shu o'rinda biz O'zbekistondagi jamoatchilik nazorati shakllarini G'arb mamlakatlaridagi jamoatchilik nazorati shakllari bilan o'zaro qiyosiy tahlilni amalga oshirsak. Ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda jamoatchilik nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga petitsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);
- hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkoraligi);
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;
- oshkoralik tarzida eshitishuvlar;
- qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;
- qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;
- jurnalistik tekshiruvlar va boshqalar.

Jurnalistik tekshiruv jamoatchilik nazoratining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Jurnalistik tekshiruvlar orqali inson huquqlari va erkinliklari buzilganiga, turli sohalaridagi salbiy hodisalarga jamiyatning, hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning e'tiborini qaratish ko'zda tutiladi. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har bir kishining e'tiqod erkinligi va uni erkin izhor etish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Bu huquq hech qanday to'sqinliksiz shaxsning davlat chegaralaridan qat'i nazar, har qanday vositalar bilan axborot va g'oyalarni qidirish, topish va tarqatish erkinliklarini o'z ichiga oladi. Keyingi davrlar mobaynida AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida jurnalistik tekshiruvni amalga oshirish, uning shakllari, uslublari va mexanizmlari konkretlashtirildi, ularni hayotga tatbiq etish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralar qabul qilindi.

Xususan, Shveytsariyaning "Jamoatchilikni xabardor qilish to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida belgilab qo'yilgan qoidalar bo'yicha, jurnalistlar va parlamentga kiruvchi partiyalarga ular o'tkazadigan tekshiruvlarga va axborot yig'ishlarida imkon qadar ko'maklashish lozim. AQShda jurnalistik tekshiruvlarni amalga oshiruvchi Jurnalistlar assotsiatsiyasi faoliyat yuritadi. Assotsiatsiya davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari ishlarini har tomonlama tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Demak, yuqoridagi tahlildan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistondagi jamoatchilik nazorati bo'yicha qonunchilik tizimidagi asosiy farq unda jurnalistik tekshiruv institutining jamoatchilik nazorati shakli sifatida aniq-ravshan ifodalanmaganida deb ko'rsatishimiz mumkin. Shuni inobatga olib, biz ushbu bo'shliqni to'ldirishni va huquqiy jihatdan kelib chiqqan holatda O'zbekiston Respublikasi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunining 6-moddasiga tegishli o'zgartirish kiritib, jurnalistik tekshiruv institutini jamoatchilik nazorati shakli sifatida qat'iy belgilashni taklif qilamiz.

Qonunda jamoatchilik nazorati sub'ektlari sifatida O'zbekiston Respublikasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, jamoatchilik kengashlari, komissiyalar belgilangan. Ular bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini jamiyatni demokratlashtirishning muhim omili sifatida davlat ahamiyati darajasida baho berilayotganini Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ham alohida e'tirof etdi: "Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra

samarali vosita yo'q... Bugun jamoatchiligimiz tom ma'noda uyg'ondi, endi turli lavozimdagi shaxslarning xatti-harakatlariga odamlarimiz bevosita baho berib, o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganmoqda... Shuni aniq tushunib olish lozimki, jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir” .

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jamoatchilik nazoratining ahamiyatini teran anglab, uning jamiyat barcha sohalarida joriy etilishini yoqlab chiqadi: “Jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, moliya, bank, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika va transport sohalarida joriy etilishi zarur. Shuningdek, bozorlar va savdo majmualaridagi mahsulotlar va xizmat ko'rsatish sifati kabi masalalar ham doimo jamoatchilik nazoratida bo'lishi darkor”.

Darhaqiqat, jamoatchilik nazorati ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiladi. Mazkur institut yurtimizda insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlangani, balki davlat organlari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamiyat hayotidagi eng dolzarb, aholini, ularning muayyan qatlamini tashvishga solayotgan muammolarni hal etish uchun jamoatchilik nazorati muhim. Qolaversa, jamoatchilik nazoratining mavjudligi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim shartidir.

Aynan ushbu shakllar orqali davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligini o'rnatish, bu orqali ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish mumkin. Masalan, jamoatchilik nazorati sub'ektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga so'rovlar yuborishga haqli. Fuqarolik jamiyati institutlari muayyan hududda aholini tashvishga solayotgan masala yuzasidan murojaat yoki so'rov yuborish orqali mazkur muammoni hal etishga ko'mak berishi mumkin.

E'tirof etish kerak, keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan pragmatik, ochiq-oshkora va shaffoflikka asoslangan yangi bosqichdagi islohotlar samarasi tufayli jamiyatimizda jamoatchilik nazoratining ham ta'sir doirasi sezilarli ravishda kuchaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistlar tomonidan davlat organlari va ularning rahbar-mutasaddilari xatti-harakatlariga nisbatan bildirilayotgan

munosabat tufayli ko'plab kamchilik va muammolar, qonunbuzilish holatlariga chek qo'yilayotganini barcha ko'rib, bilib turibdi.

### **XULOSA**

Yangi O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining amalga oshirilishida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati beqiyos ekanligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham ta'kidlab o'tgan edi: "Bugungi kunda xalqimiz orasida yurib, uni qiynayotgan ijtimoiy muammolarni ko'rsatib berayotgan eng katta kuch – bu mustaqil va xolis ommaviy axborot vositalari vakillaridir. Demokratik islohotlarimiz natijasida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar mansabdor shaxslarni o'z ishini qonuniy asosda to'g'ri tashkil etishga undamoqda".

Bundan tashqari, Prezident o'z nutqida jamoatchilik nazorati va OAV faoliyatining o'rni borasidagi o'zining printsiplal xulosasini beradi: "...Jamoatchilik nazorati ham, ommaviy axborot vositalari ham yagona bir maqsadga, ya'ni xalqimizni rozi qilish va uning turmushini yaxshilashga qaratilganini hammamiz birdek anglashimizni istardim".

### **REFERENCES**

1. Jalilov A., Muhammadiev U., Jo'rayev Q. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma / –Toshkent: "Bactria press", 2015. 142-bet.
2. Fukarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining roli va axamiyatini oshirish. – Toshkent, 2013.

## **ZAMONAVIY JURNALISTIKA KASBINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**Ko'chkarov Shoxrux**

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy axborot  
Kommunikatsiyalari universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Bugunning talabiga javoban jurnalistika umuman o'zgardi. Sababi jurnalistika jamoat manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish uchun mo'ljallangan va ma'lumot to'plash va baholash uchun maxsus usullardan foydalanadi. Bugungi ilmiy ish orqali jurnalistikaning kasb sifatida rivojlanishi, jurnalistika kasbining zamonaviy xususiyatlari va ularning turlari, kasbning bugungi kunda ommalashish sabablari, jahon siyosatida tutgan o'rni, kasb sifatidagi ahamiyati ilmiy ishimizning qisqacha annotatsiyasi hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Jurnalistlarning kasbiy afzalliklari, jurnalistika kasbidagi eng muhim o'zgarishlar, 2007-yil iyun oyida Daniyaning "Xalqaro ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash" nodavlat tashkiloti treningi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Журналистика полностью изменилась в ответ на требования сегодняшнего дня. Это связано с тем, что журналистика призвана ставить общественный интерес превыше всего и использует специальные методы сбора и оценки информации. Развитие журналистики как профессии через современную научную работу, современные особенности профессии журналиста и их виды, причины популярности профессии сегодня, ее место в мировой политике, ее значение как профессии – это краткая аннотация нашего научная работа.*

**Ключевые слова:** *Профессиональные преимущества журналиста, важнейшие изменения в профессии журналиста, тренинг датской общественной организации «Международная поддержка СМИ» в июне 2007 г.*

### **KIRISH**

Jurnalistning kasbi aniq bilimdan tashqari, ijodiy fikrlash, g'ayrioddiy g'oyalar va dadil qarorlar mavjudligini nazarda tutadi. Har qanday ijodiy kasbning zamirida iste'dod yotadi, uning yo'qligi o'rnini bosa olmaydi. Jurnalistikada - vokal san'atida bo'lgani kabi: ovoz yo'q va hech narsa yordam bermaydi - na notalarni bilish, na mikrofon. Jurnalistika, garchi eng qadimgi kasblarning ikkinchisi bo'lsa ham, hali ham izchil va umume'tirof etilgan nazariyaga ega emas. Bugun ham jurnalistika

nimaligini yaxshi bilmaymiz. Ijtimoiy ong shakli va hayotni o'zgartirish vositasi? Adabiyot, rasm, musiqa, me'morchilik, teatr va kino kabi, qanday san'at? Yoki adabiyotga she'riyat, dramaturgiya, nasr va badiiy tarjima kabi o'ziga xos tushuncha sifatida kiradimi? Ko'plab nufuzli olimlarning jurnalistikaning nazariy muammolariga bag'ishlangan asarlari o'zining barcha ahamiyati va teranligiga qaramay, o'zaro qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi va, afsuski, qo'yilgan savollarga to'liq javob bermaydi. Boshqacha aytganda, jurnalistika axborot tayyorlash san'atidir. Ammo oshpazlik idishlarini tayyorlashdan farqli o'laroq, o'zingizni pishirish kitobi va yarim tayyor mahsulotlar bilan qurollantirish yetarli emas. Bizga yangi ovqat kerak, ya'ni ma'lumot, agar siz yangi bo'lmagan holda foydalansangiz - idish yoqimsiz bo'lib chiqadi. Axborotning yangiligidan tashqari, uning adolatliligi va obyektivligi haqida ham g'amxo'rlik qilish kerak. Siz hozirgi o'quvchini alday olmaysiz. Axir, gazeta ochib, jurnalistik tekshiruvlar, achchiq yangiliklar yoki so'nggi yangiliklar to'plamini o'qish har doim yoqimli.

Shunga qaramay, jurnalistika mahorat va amaliyotni talab qiladigan hunardir. Har bir firibgar ham jurnalist, to'g'rirog'i, yaxshi, to'g'ri jurnalist bo'la olmaydi. Jurnalistikada axborot bilan ishlash qobiliyati, so'zni o'zlashtirib olish va atrofda sodir bo'layotgan voqealarni xolisona ko'rib chiqish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jurnalistlarning kasbiy afzalliklari (birinchi navbatda, media-mahsulotni tahririyat tashkil etish) qisman kamchiliklarga aylandi. Aynan tahririyat tuzilmasi "inertial moslashuv" effektini yaratdi, buning natijasida iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarga qaramay, ommaviy axborot vositalari aloqaning eski shakllarida, diskret ishlab chiqarishning an'anaviy usulida turib olishda davom etdi va interaktivlikni e'tiborsiz qoldirdi.

1844-yilda aylanma matbaa joriy etilgandan so'ng (bu tahririyatlarni, ommaviy axborot vositalarini, reklamani, auditoriya bilan aloqalarni va boshqalarni o'zgartirgan) jurnalistika kasbidagi eng muhim o'zgarishlar 20-asrda sodir bo'ldi:

- real vaqt rejimida signallarni qabul qilish uchun eshittirish texnologiyalari va qurilmalarini yaratish va rivojlantirish, teleradioeshittirishning paydo bo'lishi, shuningdek, audio va audiovizual eshittirish vositalariga xizmat ko'rsatuvchi jurnalist kasbi variantlari;

• qog'ozga yaqin o'lchamdagi tekis, ko'chma ekranlarni, shuningdek, mobil versiyada ham teleko'rsatuv, ham video kontentni ko'rish imkonini beradigan ekranlarni yaratish va ommaviy ishlab chiqarish;

• global internetning paydo bo'lishi va iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'zgartirish, ommaviy axborot vositalarining muhim qismini internet aloqasining u yoki bu versiyasi bilan almashtirish imkonini beradigan bunday aloqa va vizual taqdimot protokollarini yaratish;

• ma'lumotlarni uzatish simsiz tarmoqlarini, portativ va yetarlicha avtonom kirish qurilmalarini yaratish, foydalanuvchiga qayta zaryadlanmasdan media iste'mol qilish uchun yetarli vaqtni berish (akkumulyatorlar va batareyalarni yaxshilash);

• shifrlash, kirishni nazorat qilish, onlayn xaridlar uchun masofaviy to'lov va boshqalar uchun samarali protokollarning paydo bo'lishi – bularning barchasi raqamli kontentni sotish imkonini beradi.

Istisnosiz, bu texnologik holatlarning barchasi jurnalistikaning mavjudligi va faoliyatini shakllantirishda davom etadi, shu bilan birga uning mohiyatini butunlay o'zgartiradi. Ijtimoiy sharoitlar, jumladan, iqtisodiy holatlar ham jurnalistlik kasbining muhim omili bo'lib qolmoqda; ammo, texnologiklardan farqli o'laroq, ular global emas, balki mahalliy - o'ziga xos jamiyat, o'ziga xos siyosiy madaniyat bu erda global tendentsiyalardan ko'ra ko'proq ta'sir qiladi. O'zini jurnalist deb hisoblamogchi bo'lgan (va bo'lmoqchi) odamdan hozir talab qilinadigan va talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalar, ko'nikma va malakalar majmui o'zgarimoqda, lekin bu o'zgarishlarning ahamiyatini bo'rttirib bo'lmaydi. Nihoyat, jurnalistikaning tashkiliy shakllari hozir o'zgarishlarning eng "qaynoq zonasida" turibdi: ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar tarixan shakllangan shakllarni o'zgartirish zaruratini tug'dirmoqda; texnologiya jurnalist va muharrirning ish tartib-qoidalariga tubdan aralashadi; kompetensiyalarning tarkibi ko'p holatlarga qarab tubdan o'zgartiriladi.

Jurnalistikaning "tarmog'i" hali ham o'zboshimchalik bilan: ha, ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning kamida 50 foizi Internet bilan bog'liq, ammo bu iste'molning muhim qismi tarmoqni yetkazib berish usuli sifatida ishlatadi - kontentni ishlab chiqarish, uning brendi, qadoqlash an'anaviy, tarmoqdan tashqari protokollar va protseduralar doirasida amalga oshiriladi.

2007-yil iyun oyida Daniyaning "Xalqaro ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash" nodavlat tashkiloti Somali Jurnalistlari Milliy uyushmasi bilan hamkorlikda tanlangan somali jurnalistlariga o'zlarining kasbiy mahoratlarini oshirish va Somalidagi mojarolarni hal etishni rivojlantirishga ko'maklashish uchun mojaroga sezgir jurnalistika bo'yicha treninglar o'tkazdi. Tayyorgarlik Keniya



ommaviy axborot vositalari bosim ostida, Somalidagi mojarolar pasaygan va potentsial barqarorlik davrida 19-25 iyun kunlari bo‘lib o‘tdi. O‘quv dasturida 17 nafar somalilik jurnalist ishtirok etdi. Dastur yakunida kelgusi bir necha oy davomida “Jamoat hisoboti” deb nomlanuvchi hamkorlikda hisobot berish amaliyoti orqali treningni davom ettirish taklif etildi. Keyinchalik Somalida to‘liq miqyosdagi zo‘ravonlik mojarosining qayta boshlangani sababli bu rejadan voz kechildi. Dunyoning eng qashshoq davlatlaridan biri bo‘lgan Somalida 1991-yildan beri faoliyat yurituvchi markaziy boshqaruv mavjud emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gumanitar masalalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (OCHA, 2007 yil may) ma’lumotlariga ko‘ra, 400 000 dan ortiq odam shaharni tark etgan va 800 dan ortiq kishi halok bo‘lgan.

Jurnalistika va jurnalistning zamonaviy inson hayotidagi o‘rni haqidagi savol juda muhim bo‘lib tuyuladi. Jurnalist, albatta, OAV uchun matnni, aniqrog‘i media-matnni yaratuvchisidir, ammo bugungi kunda media-matn badiiy film, reklama roligi, o‘yin namoyishi yoki birlashtirilgan fotosurat bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda jurnalistikaning boshqa yozuvchilik kasblaridan nimasi bilan ajralib turishini tushunishimiz kerak. Mening fikrimcha, jurnalistikada asosiy narsa haqiqatga, voqelikning real voqealariga tayanishdir. Jurnalist - bu har doim haqiqatan ham mavjud bo‘lgan “xom ashyo” bilan, ya’ni voqea voqealari bilan ishlaydigan adabiy xodim.

Jurnalistikaga jamoat manfaati sifatida qarasaq, kasbning jamiyatga ko‘rsatayotgan xizmatlariga qarashimiz kerak. Daromadlilik jurnalistikaning asosiy maqsadi emas, ishonchli, tasdiqlangan ma’lumot ishlab chiqarish, voqealarni tahlil qilish esa demokratik jamiyatning adekvat ishlashi uchun zarur xizmatlardir. Yaxshi jurnalistikadan foydalanish mumkin bo‘lib qolar ekan, u arzonroq ishlab chiqarilar ekan (texnologiya tufayli) va muqobil moliyalashtirish manbalari yoki yangi biznes modellari orqali qo‘llab-quvvatlanar ekan, media-biznesning an’anaviy shakllari inqirozi va jurnalistik tahririyat faoliyatiga ta’sir qilmaydi. Jamiyat manfaati. Salbiy va jurnalistika faoliyat sifatida jamiyat nuqtai nazaridan haqiqiy inqirozga uchramaydi. Jahon miqyosida u yoqda tursin, AQShda jurnalistika sifati qanchalik pasayganini empirik tarzda baholash qiyin. Shu bilan birga, an’anaviy axborot tashkilotlariga iqtisodiy sharoitlarning bosimi ba’zi hollarda jurnalistik asarlarni ishlab chiqarishda sifat mezonlarining xiralashishiga olib kelganligi haqida ko‘plab belgilar mavjud: kamroq sarlavhalar uchun muxbirlarning kamligi, matn va hikoyalarda kamroq nuqtai nazar, kamroq faktlar tasdiqlansa, hikoya qilish sifati ham pasayib ketdi (Pew, 2012). Agar bu tendentsiya davom etsa, jurnalistika inqirozini

belgilaydi. Biroq, professional yangiliklar sifatining pasayishi kuzatilayotgan bo'lsa ham, bu salbiy ta'sir hozirda jurnalistikaning fuqarolik jurnalistikasi va data jurnalistikasi kabi yangi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan qisman qoplanadi.

An'anaviy jurnalistlarning noroziligi tushunarli bo'lsa-da (kim kamroq pul va kamroq o'quvchi va tomoshabin uchun ko'proq ishlashni xohlaydi?), qancha jurnalistlar yangi texnologiyalar o'zlari uchun taqdim etayotgan imkoniyatlarni o'chirib, ixtiyoriy va saxovatlikdan voz kechishlarini ko'rish juda achinarli. Yordam faol fuqarolar - tomoshabinlarga yaxshiroq mahsulotni taklif qilish uchun ular bilan hamkorlikning yangi shakllari nuqtai nazaridan harakatga rahbarlik qilish to'g'ri bo'lar edi.

Ushbu professional mudofaa strategiyasiga amal qilish cheklovlarini yengib o'tish va jurnalistlarni hamkorlikning yangi usullari va yangi texnologik vositalar bilan tajriba o'tkazishga undash uchun biz jurnalistikaning texnologiya bilan bog'liq yangi amaliyotlarini hujjatlashtirish va tasniflashni boshladik, ularni uchta asosiy guruhga ajratdik. funksiyalari: (1) tegishli faktlar/hodisalar kuzatilishi va kerakli odamlarga to'g'ri savollar bera olishi; (2) turli kontekstlarda kuzatuvlar va javoblarni tushunish - axborot, axloqiy, tarixiy va boshqalar; (3) tinglovchilar uchun yaxshi ishlaydigan ushbu topilmalarning tushuntirishi. Global tarmoq jamiyatida ushbu uchta funksiyani (1) ma'lumotlarni yig'ish, (2) ma'lumotlarni sharhlash va (3) ma'lumotlar haqida aytib berish sifatida tavsiflash mumkin. Agar jurnalistika jarayon sifatida faktlarni kuzatish va savollar berish, javoblarni tushunish va olingan ma'noni boshqa odamlarga etkazishdan iborat bo'lsa, ushbu funksiyalarning kamida bir qismini bajaradigan har qanday odamni jurnalist deb ayta olamizmi? Yoki jurnalist bu barcha vazifalarni belgilangan ketma-ketlikda yaxshi bajarishni biladigan odammi? Bizning fikrimizcha, zamonaviy texnologik va kommunikatsiya sharoitida ushbu uchta vazifa-funksiyani bajarishning har qanday ishtirokchisi ma'lum darajada «jurnalist» hisoblanadi, lekin u odatda bu ishni individual ravishda bajarmaydi. Ma'lumotlar okeani kengayib, tahlil qilinadigan va muhokama qilinadigan ma'lumotlar murakkablashib borar ekan, professional jurnalistlar funksiyaning har bir bosqichi adekvat ishlashi uchun turli professional va fuqarolik jurnalistlari bilan hamkorlik qilishlari kerak. Ixtisoslashuv va hamkorlik kelajakda yuqori sifatli jurnalistika mahsulotini yaratishning asosiy elementlari bo'ladi. Bu bizni jurnalistikaning kengroq ta'rifiga olib keladi, bunda 21-asrda mazmunli axborot yaratish jarayoni bilan bog'liq turli xil yangi amaliyotlarni hisobga olish kerak. Ushbu yondashuv doirasida jurnalistika nafaqat yangiliklarni (kun yoki hafta, shahar

yoki mamlakat) taqdim etish, balki dunyoda sodir bo'lgan yoki sodir bo'layotgan voqealar haqida mazmunli hikoyalar aytib berish, uni kontekstda tushunish, voqealar va ma'lumotlarni boshqa odamlarga tushuntirish, va ularning barchasini iste'molchiga jurnalist ishidan foydalanish imkonini beradigan shaklga ko'chirish (saqlash, baham ko'rish, o'z axborot ishlariga kiritish va hokazo). 21-asrning yaxshi jurnalisti matn, audio, vizual vositalardan foydalangan holda atrofidagi real dunyo haqida faktik hikoyalarni aytib beradi va uning hikoyalari odamlar uchun oson munosabatda bo'lishi uchun [ularning kontentga munosabatini aniqlash], ularni baham ko'rish va osonlik bilan bo'lishish uchun yaratilgan. ularni boshqa yo'llar bilan ishlatish. Biz qanday jamiyatda yashayotganimizni anglash uchun jurnalistika va jurnalistning professional sifatida hayotimiz va munosabatimizdagi, dunyoqarashimizdagi, shaxs hayoti makonidagi o'rni to'g'risida savolga javob berish juda zarur. Bu jarayon sodda va noaniq emas, chunki jamiyatdagi zamonaviy inson asta-sekin o'zining eksklyuzivligini, o'ziga xosligini yo'qotadi, u ommaviy iste'mol jamiyatining bir qismiga aylanadi va siyosatda u qaror qabul qiluvchilar tomonidan tobora kamroq hisobga olinmoqda.

Albatta, jurnalistika haqiqatga tayanishi shart. Jurnalistik material uchun faktni tanlash jurnalistning ushbu fakt bo'yicha o'z fikrini bildirish uchun birinchi qadamidir. Ammo, boshqa tomondan, bugungi kunda jurnalistik bo'lmagan manbalardan ham xuddi shu faktni tanlashi mumkin bo'lgan auditoriya endi haqiqatni qayta hikoya qiladigan jurnalistga qiziqmaydi. Bundan tashqari, rus an'alarini hisobga olish kerak, bu nafaqat faktning shaxssiz aloqasini, balki unga nisbatan ma'lum munosabatni yetkazishni, ushbu faktga ma'lum baho berishni ham nazarda tutadi. Shu sababli, faktlar dengizida jurnalist ruhiga mos keladigan, uning jurnalistik materialiga asos bo'ladigan to'g'ri faktni topishga imkon beradigan ba'zi mexanizmlar bo'lishi kerak. Ushbu faktni izlash jarayonida jurnalist qanday mezonlarga, qanday ko'rsatmalarga ega bo'lishi kerak? Mening fikrimcha, bu professionallik va odob-axloq. Jurnalistikada bu ikki narsani ajratish mumkin emas, chunki jurnalist bitta odam uchun emas, balki juda katta auditoriya uchun ishlaydi. Jurnalist jurnalistik nafaqat faktlar va ular haqidagi mulohazalarni etkazishi, balki ushbu xabarlarining mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirini ham tushunishi zarurligini hisobga olib, jurnalistika ancha murakkab kasb bo'lib tuyuladi. Menimcha, bugungi kunda jurnalistika haqida gapirish dolzarbdir ijtimoiy ish aynan jurnalistlar, avvalambor, jamiyatni xabardor qilish, ijtimoiy ta'sirga erishish uchun ishlashlari sababli. Shunday qilib, jurnalistika faktlarni jamoatchilikka etkazishda ushbu faktlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlarining eng keng doirasini

tushunishi kerak. Bugungi kunda aksariyat amaliyotchilarga ayon bo'lishi kerakki, ommaviy axborot vositalari va jurnalist faoliyati ta'siriga oid nazariy tushunchalarni bilmasdan, jurnalistning ishi mumkin emas.

### **XULOSA**

Jurnalistning javobgarligi haqida gapirganda, ommaviy axborot vositalaridagi mas'uliyat turli xil "mas'uliyat" ga ajralishini unutmasligimiz kerak: masalan, egasi oldidagi javobgarlik va jamiyat oldidagi javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri to'qnashishi mumkin. Jurnalist o'z auditoriyasini, uni o'qigan, tinglayotgan odamlarni mavhum ravishda ifodalaydi va u ular uchun javobgardir, lekin ko'pincha unga ish haqi to'laydigan shaxs uning uchun muhimroqdir. Ushbu javobgarlik shakllaridan tashqari, boshqalarni ham nomlash mumkin. Ularning mavjudligi tabiiy savol tug'diradi: jurnalistning ko'p o'lchovli, ko'p darajadagi javobgarligini material uchun mavzuni o'ziga xos tanlashi bilan, muayyan mavzularga shaxsiy qiziqishi bilan qanday bog'lash kerak? OAV mas'uliyati masalasi bevosita jurnalistning axloqiy tanlovi bilan, shuningdek jamiyatda axloqiy qadriyatlar, cheklovlar va ideallarning mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi o'n yillikda jurnalistikaning inson hayotidagi o'rnini tabiiy ravishda bir necha bor oshdi.

### **REFERENCES**

1. Journalists are under stress. What's the solution? Naseem S. Miller. May 28, 2021. URL: [journalistsresource.org/home/journalism-stress-solutions/](http://journalistsresource.org/home/journalism-stress-solutions/)
2. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
3. Yigitaliyev, O. H. O. G. L. (2022). AXBOROTNI MUHOFAZA QILISH TUSHUNCHASI, UNING KO'RINISHLARI VA BELGILARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 211-219.
4. Yandex.ru
5. [www.proforienter.uz](http://www.proforienter.uz)

## **МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКИ В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ**

**Абдуразаков С.Б.**

стажёр-преподаватель, НамГУ

**Дадаханова Х.И.**

студентка НамГУ

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена вопросам изучения русской фонетики, также в статье рассматриваются методы решения проблем возникающих при обучении фонетики в школах с узбекским языком обучения.*

***Ключевые слова:** фонетика, согласные и гласные буквы, система гласных и согласных фонем, слог, ударение.*

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to the study of Russian phonetics, the article also discusses methods for solving problems that arise when teaching phonetics in schools with the Uzbek language of instruction.*

***Keywords:** phonetics, consonants and vowels, system of vowels and consonant phonemes, syllable, stress.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

До сегодняшнего дня русский язык сохраняет исторически сложившийся статус средства межнационального общения и имеет большое значение в укреплении духовных и экономических связей как носитель одной из богатейших мировых культур.

В мире существуют разные языки и у всех языков есть свои фонетические, морфологические и синтаксические особенности. При изучении иностранного языка, обучающему необходимо знать все аспекты изучаемого языка и важно отметить, что фонетика играет важную роль в изучении того или иного языка, так как наша речь живая и без знания те или иные законы фонетики нам трудно развить свою речь на иностранном языке. При изучении второго языка в первую очередь требуется овладение его звуковой стороной и особенностями. Между тем на практике часто бывает так, что учащиеся, изучающие иностранный язык пользуются фонетической системой родного языка и стараются усвоить звуковую систему изучаемого языка, испытывая при этом

большие затруднения, что приводит к нарушению не только нормативного, но и коммуникативного аспекта в их речи на неродном языке.

Устранение этих трудностей предполагает исследование характера восприятия и воспроизведения звуков русского языка учащимися, особенностей русского ударения, слога, интонации, осуществления сопоставительного анализа сегментных, суперсегментных единиц, определение психологических и лингвистических причин при усвоении иностранного языка. С учетом чего и должна разрабатываться специальная методика обучения школьников с узбекским языком обучения русской фонетике.

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Русский язык как неродной изучается во всех типах учебных заведений Узбекистана, в том числе и в сельских школах. Это требует продолжения серьезной работы по дальнейшему совершенствованию. Основной целью преподавания русского языка в национальной школе является овладения языком как средством общения. Особая роль в реализации этой цели принадлежит начальному этапу обучения русскому языку в школе. Обучение русского языка как неродного имеет много общего с изучением русского языка как родного. И в этом объединяет их система русского языка как предмета изучения: владение на основе знаний фонетическими особенностями, словарным составом, грамматическим строем русского языка, владение навыками и умениями свободного пользования языком в его устной и письменной формах. Для изучения иностранного, неродного языка необходимо сообщать ученику важные для практического владения языком знания в виде правил, инструкций, предусматривать выполнение специальных упражнений, которые обеспечивают закрепление усвоенных знаний и образование на их основе речевых навыков и умений.

При обучении второму языку учащихся, учителям необходимо обратить внимание на применения различных методов и приемов. Учителя должны стремиться вводить различные инновационные подходы, чтобы используемые средства обучения были полезными и научно обоснованными для методики обучения. Выбор средств обучения зависит от уровня развития и совершенствования технологий, а их прогресс способствует появлению и внедрению в практику обучения языкам самых современных и передовых средств обучения. В Узбекистане при обучении русскому языку как неродному

основной задачей является подготовка носителя языка, способного вести межкультурный диалог.

Язык необходим человеку для общения в разных сферах жизни общества в качестве реального средства коммуникации. Умение обучаемых общаться на изучаемом языке признано главной задачей, и основным результатом процесса обучения языку. Специалист, обучающий языку, должен знать, что прежде всего, обучение людей речевой деятельности на изучаемом языке предполагает навыков речепроизводства и восприятия устной и письменной речи.

Говорение, письмо, аудирование, и чтение, которые составляют основу коммуникации, являются основными видами речевой деятельности. В методике выделяют 2 вида речевой деятельности: продуктивную и рецептивную. К продуктивным методам относят передачу информации (говорение) и письменную речь, к рецептивным – прием информации аудирование и чтение. Оба вида речевой деятельности играют большую роль в методике обучения, которая помогает ученикам грамотно передавать свои мысли как в устной форме, так и в письменной. На практике школьники смотрят во время уроков видеоматериалы на иностранном языке для того, чтобы научиться воспринимать иноязычную речь на слух. Методика изучения грамматики и фонетики являются одним из важнейших разделов методики преподавания языка в средней школе. Анализ позволяет учителю русского языка предупредить появление типичных ошибок.

При обучении второму языку перенос языковых явлений с родного языка на изучаемый язык и выявление сходных и несходных явлений родного и изучаемого языков помогает быстрому усвоению чужой речи. В связи с этим в учебном процессе очень важно шире объяснять возможности совпадающих и несовпадающих языковых средств в сопоставительном плане.

Фонетика – раздел языкознания, изучающий звуковой строй языка. Фонетика рассматривает особенности образования и произношения звуков, их классификации, фонетические процессы, происходящие в речи, также устанавливает соотношение произношения и письм, выявляет особенности ударения и словообразования.

Каждый язык имеет свою фонетику. Совершенное знание фонетики русского и узбекского языков, а также знание основных различий звукового строя их в сопоставительном аспекте помогает учителю русского языка при обучении учащихся русскому литературному произношению.

Фонетика узбекского языка имеет две особенности, благодаря которым узбекский язык намного отличается от других тюркских языков. Например, в узбекском языке отсутствует гармония гласных фонем и оканье. Для узбекского языка по сравнению с русским языком характерны: более задняя артикуляционная система образования звуков и произношение гласных и согласных букв при более низком подъеме. Фонема в русском языке – произносимый звук, наименьшая звуковая единица языка, которая различает слова и формы слов. Рассмотрим гласные фонемы (и) в русском языке и (i) в узбекском языке. Русская фонема (и) произносится так: передне-средняя часть языка поднимается к передней части твердого неба, встречается с воздухом и не вытягивается. Фонема (и) в русском языке может встречаться в начале слова, например: игра, ирис, ива; после мягких фонем: аист; после мягких согласных: литр, тигр, тир.

Узбекская фонема (i) произносится также, как и русская, только значительно короче, например: в словах o'qish, tish, ish. Фонема (i) в узбекском языке часто встречается после согласных и после заднеязычных фонем, и она произносится как буква (ы), например: qirq – (ы), qizq – (ы), g`isht – (ы).

Гласные и согласные фонемы отличаются друг от друга акустическими и артикуляционными признаками. Гласные звуки характеризуются звучностью, которые образуются вибрацией голосовых связок и отсутствием смычки органов речи в полости рта, что воздушная струя проходит свободно и произносится без затруднения. Согласные звуки характеризуются меньшей степенью звучности.

Некоторые особенности согласных букв узбекского языка. Узбекские согласные (g) и (k) мягче, чем русские буквы (г) и (к); узбекский (j) – мягкий аффрикат; узбекских согласных (q), (g`), (h) в русском языке нет; узбекский дифтонг (ng) является заднеязычным носовым звуком, сонорным. А в русском языке он отсутствует.

Рассмотрим ошибки в произношении гласных и согласных букв. Большинство учащихся национальной школы допускают ошибки в смещении гласных [е-и] в положении под ударением [и-ы] во всех позициях (например: мышка – мишка). Причиной этого является отсутствие в родном языке нелабиализованной буквы [ы]. Основные трудности в произношении согласных возникают при усвоении твердости и мягкости, глухости и звонкости, так как в узбекской фонетической системе отсутствуют фонемы [ц, ч, щ].



Особенности русского ударения. В русском языке ударение свободное, разноместное (мо-ре – мо-ря, пи-шу – пи-шешь), также существуют особые правила постановки ударения, а в узбекском языке ударение в основном падает на последний слог слова, при добавлении аффиксов ударение передвигается на последний слог. Например: yozuv – yozuvchi – yozuvchilar. Это явление представляет собой большие трудности и несовпадение в обучении русскому языку учащихся. В произношении слов ученики сталкиваются с трудностями постановки ударения и большинство из них допускают большие ошибки при неправильном произнесении слов. В русском языке ударение значительно сильнее и поэтому гласные фонемы подвергаются редукции (то есть ослаблению), и изменяется не только длительность произношения, но и качество. В русском языке ударение свободное, то есть оно может падать на 1, на 2 и на 3 слоги.

Трудности освоения русских звуков учащимися узбекских школ вызваны, прежде всего, различием русской и узбекской артикуляционной базы, под которой следует понимать начальные положения органов речи, особую систему движения этих органов, которые свойственны каждому языку.

Обучение русскому языку, как неродному это сложный многоаспектный процесс передачи и усвоение знаний, умений, навыков, способов познавательной деятельности. Это процесс, в котором участвуют преподаватель и обучающийся ученик. Деятельность обучающегося и ее эффективность зависят от мотивации, интересов, потребностей, и конечно же творческого подхода учителя к отбору подходящего материала, способам его введения и закрепления.

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

В задачу учителя русского языка как неродного входит:

- 1) Определение объема и содержания нужного материала для усвоения и инструкций, правил для правильного преподнесения;
- 2) Организация учебных действий учащихся так, чтобы они давали наилучший результат;
- 3) Мотивирование учеников;
- 4) Контроль за эффективностью учебной деятельности обучающихся по усвоению нового языка.

Для решения этих задач учителю необходимы методические знания. Все это говорит о том, что качество управления процессом обучения русскому

языку как нового для изучающихся базируется и на принципах методики обучения неродному языку, и на основных положениях смежных с ней наук.

## REFERENCES

1. Рыжова В.Н. Методика преподавания русского языка как неродного: Традиции и новации. Статья, Москва, 2006 г.
2. Халилов Ф. Опыт создания учебного пособия по РКИ, ориентированного на носителей узбекского языка. ВКР, Челябинск, 2018 г.
3. Кунавин О.Б. Обучение русской фонетике учащихся осетинской национальной школы. Автореферат. Владикавказ, 2004 г
4. Дедаханова, М. М. (2021). НЕЙРОЛИНГВИСТИКА В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧЕНИКОВ С 12-15 ЛЕТ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 333-341.
5. Файзуллаева, Х. Э. (2021). ОБОГАЩЕНИЕ РУССКОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ОБЩЕЯЗЫКОВЫМИ МЕТАФОРАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1133-1136.
6. Касимова, М. Н. К. (2021). ОТРАЖЕНИЕ ГРАММАТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКО-УЗБЕКСКИХ СЛОВАРЯХ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1086-1091.

## **ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ВАТАНПАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ**

**Хайтов Баҳодир Турсунович<sup>1</sup>, Муллажонов Исломжон Юлдашевич<sup>2</sup>,  
Атажанов Ахтам Юсупович<sup>3</sup>.**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Қурулли Кучлар Академияси  
мустақил изланувчиси

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Қурулли Кучлар Академияси  
мустақил изланувчиси

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Қурулли Кучлар Академияси  
мустақил изланувчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада ёшларни соғлом ва баркамол авлод сифатида тарбиялаш бугунги куннинг муҳим талаби эканлиги ёритиб берилган. Бугунги даврда таълим-тарбия тизими ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамиятга эга эканлиги ҳамда ёшларда миллий ватанпарварлик туйғуси авваломбор, оилада шаклланишига урғу берилган.*

*Инсоннинг жамиятда муносиб ўрин эгаллашида унинг ҳалоллиги, инсонпарварлиги, ростгўйлиги, ватанпарварлиги муҳим ўрин тутishi таъкидланган.*

***Калит сўзлар:** Оила, ёшлар, глобаллашув, ислохотлар, ватанпарварлик, баркамол авлод, маънавий юксалиш.*

## **РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ У МОЛОДЕЖИ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОГО ПАТРИОТИЗМА**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье подчеркивается тот факт, что воспитание молодежи как здорового и гармонично развитого поколения является насущной потребностью современности. В современном мире система образования важна как никогда. В статье акцентируется, что чувство национального патриотизма у молодежи формируется, прежде всего, в семье.*

*Подчеркивается, что честность, человечность, правдивость и патриотизм играют важную роль в определении достойного места человека в обществе.*

21. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

22. Khalimov M., Soliddinova S. The knowledge gained by students in engineering graphics and its transformation to experience and skill. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, Year: 2021, Volume: 10, Issue: 1, First page: (260) Lastpage: (264) Online ISSN: 2278-4853. Article DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00040.9>

23. Mirzaliev Zafar Eralievich, Khalimov Mohir Karimovich, Malikov Kozim Gofurovich, Abdukhonov Botir Husniddinovich. Method of using a new mechanism for the construction of axonometric projections. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>

24. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

25. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>

26. Xalimov, M. K., Mirzaliyev, Z. E., & Mashrabbayev, X. N. (2022, January). CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (MAKTAB



- CHIZMACHILIGI MISOLIDA). In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1).
27. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>
28. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILİYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 2(3), 27-32. <http://www.sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/1446>
29. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI. БАҲҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 219-223. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1336>
30. Maratovich, S. S. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK QOBILİYATINI KONSTRUKSIYALASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI*, 1, 114-119. <http://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/195>
31. Zaitov, S. R. (2022). DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA TALABALARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH. *ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI*, 1, 120-124. <https://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/196>
32. Ozodovich, A. A. (2021). The Use Of Tasks That Create A Tendency To The Problems Of Making Typical Mistakes In The Possession Of Graphic Literacy. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 99–103. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-16>

---

**LEXICOLOGICAL AND GRAMMATICAL PROBLEMS IN THE  
TRANSLATION OF ANTHROPNYMS FROM ENGLISH TO UZBEK IN  
WORKS OF “ROBIN HOOD” OF NEIL PHILIP**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-290-293>

**Jummaev Shohzod Sharabaliyevich**

Email: jumayevshohzod6@gamil.com

**Khakimova Kamola Ganisher qizi**

students of education of Translation theory and practice

Faculty of Foreign Philology

Email: xakimovakamola5@gmail.ru

**ABSTRACT**

This article analyzes the problems of translating anthroponyms from English into Uzbek in the Robin Hood series of stories written by Neil Philip and examines the person influencing the trial from a linguistic point of view. . The names that are not objectified are placed directly before the names of the characters, the temperature in the security work, and the commonly invented names in the linguistic patterns. For this reason, the article offers templates for etymological, lexical, semantic, and phonetic analysis before the translator translates them into Uzbek.

**Keywords:** anthroponyms, transliteration, English-Uzbek translation, lexicology, grammar neologism

**NEYL FILIP QALAMIGA MANSUB “ROBIN GUD”. (“ROBIN HOOD”)  
ASARDAGI ANTROPONIMLARNI INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA  
TARJIMASIDAGI LEKSIKOLOGIK VA GRAMMATIK MUAMMOLARI**

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Neyl Filip tomonidan yozilgan “Robin Gud” turkumidagi hikoyalar seriyasining tarkibidagi antroponimlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolari va ularning mohiyatiga lingvistik nuqtai nazardan o‘quvchi uni anglashi uchun ta‘sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Obyekt sifatida tanlangan ismlar to‘qima bo‘lgani tufayli personajlarning ismlaridan oldin ularning asardagi vazifasi hamda xarakteri o‘ylab topilgani, so‘ngra uni lingvistik qoliplarga solingan. Shu tufayli maqolada tarjimon ularni o‘zbek tiliga o‘girishdan oldin etimologik, leksikologik, semantik va fonetik tahlil qilishi uchun qoliplar taklif qilingan.*

*Kalit so'zlar: antroponimlar, transliteratsiya, Ingliz-O'zbek tarjima, leksikologiya, grammatika neologizm*

## **INTRODUCTION**

Lexic problems have always been one of the most central points of translation; we have to limit the scope of the term as onomastical problems of translation. The translation process of a Neil Philip story is so disputable that one could get deep into the lines and live in the world of eloquent powerful stylistics. Word building of the novel put the great tasks that require enormous research and analysis.

In all culture, throughout the beginning of literature, about 2000 years of BC or earlier, people wanted to choose the proper name for the new member of their family relating to his prosperous future, which they picked up by considering the name's deep meaning carefully. This is still an important part of our life, simultaneously, as they called literature as —the mirror of life, writers have been trying hard to name their characters in books in that way. The criteria are hard to accomplish on that part of writing. When we look at the case inductively, names of characters in fairy tales are the best example: —Sheriff. In this article, the translator was a bit confused in the translation because he did not have enough information about the vocabulary and meaning of the words, and he made a mistake in translating the word Sheriff, the interpreter translated it only by changing its form, and as a result the reader may encounter misunderstandings in reading. Main aim to get them translated is to reach the point where a child should be aware of at least one behavioural temper of the character that helps a child to imagine a vivid picture of the personage in the tale.

## **LITERATURE REVIEW AND RESEARCH METHODOLOGY**

Comparative literature, contrastive and descriptive translation and interpretation analysis of linguistic terms and stylistically analysis of literary translation during the research for the article.

The inventive crafting of the author – N.Filip creates inevitable questions theoretically to develop in the research. The outcomes can be seen from three angles: the first one is to examine if the names are supposed to be translated or some translators translated them, if yes, how, in the target language. As it comes, the second angle is to see the strategies and methods used to translate the objectives and to select the right ones to show the answer. Finally yet importantly, is to determine the names` carrying the semantic load or any descriptive meaning by comparing and contrasting the English-English variations, as well, during the study.

Neologisms are studied with their etymologies and are analyzed with controversial ideas of two translators of a work. By contrasting them in English, and Uzbek, we intend to get a fragile line of semantic connection a bit stronger in the Uzbek version.

## **RESULTS**

The main aim of our work is to study the specific names (anthroponyms) in Neil Philip's "Robin Hood". The analysis and identification of the peculiarities and patterns of naming the protagonists of the novel "Robin Hood" allows to reveal more fully the author's intention, to identify the peculiarities of the author's style. The play explores the meanings of names, the relationship between the protagonist's name and his character functions, as well as the relationship of the protagonists to each other. In linguistics there is a special section on names, titles, names, the direction of linguistic research is onomastics. Onomastics has several sections, which are traditionally distinguished by categories of relevant names.

## **DISCUSSION**

This work is one of the most famous works of modern writer Neil Philip, and his works are gaining success all over the world. This subtle psychological detective genre is full of mysterious and unpredictable twists that reflect life events. The protagonists work on themselves, gain experience, set up businesses, make mistakes, and the writer analyzes their mistakes. The events of the work serve the psychological development of man. Each image presented in the play is already a character, only it plays with all the colors it is capable of. The image is the basic unit of the literary text, acting as the most important symbol, which is updated with the reading of the work along with the title. This is especially evident when the image occupies the position of the title and thus attracts the reader's attention, especially in cases where it distinguishes it in the artistic world of the work. A semantically complex unique name is involved in creating not only the coherence of the literary text, but also the semantic multidimensionality. It serves as one of the most important means of realizing the author's intention and gathers a large amount of information. Translation has two different meanings: the translation process and the work resulting from the process. It is quite difficult to balance both of these. It takes time for a translator to understand a writer's or author's style. The sharper the writer's pen, the stronger the translator's skill.

## CONCLUSION

The purpose of writing this article is to provide information to readers who are taking their first steps into the world of books and who are not tired of reading books, and to convey the true meaning of the work to readers. The writer writes the idea of the book entirely in the public interest. We know that issues related to grammar and correct translation of words between any languages pose problems and difficulties for the translator. In short, it is no exaggeration to say that such articles are the key to access to the work for readers.

## REFERENCES

1. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
2. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI" ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. "LEXICAL AND GRAMMATICAL PROBLEMS OF TRANSLATING "HARRY POTTER" NOVELS FROM ENGLISH INTO UZBEK" WRITTEN BY 2<sup>ND</sup> COURSE MASTER'S STUDENT OF THE ENGLISH DEPARTMENT: Solijonov J.K. (2018).
5. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. Theoretical & Applied Science, (3), 72-75.

---

**MORPHOLOGY AND SYNTACTIC PROBLEMS OF TRANSLATING  
NOUNS AND VERBS IN WORKS “THE KITE RUNNER” OF KHALED  
HOSSEINI**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-294-297>

**Jummaev Shohzod Sharabaliyevich**

Email: jumayevshohzod6@gamil.com

**Khakimova Kamola Ganisher qizi**

students of education of Translation theory and practice

Faculty of Foreign Philology

Email: xakimovakamola5@gmail.ru

**ABSTRACT**

*This article analyzes the English-Uzbek translation problems of nouns in the Kite Runner written by Khaled Hosseini from the point of the morphological and syntactical factors that influence the reader's understanding of their essence. That is why; this article proposes templates that include etymological, morphological and syntactical analysis before the act of translation.*

**Keywords:** transliteration, lingua-perpective, English-Uzbek translation, morphological, syntactical.

**XOLID HUSSAYNINING “SHAMOLLAR ORTIDAN” ASARIDAGI  
FE’LLAR VA OTLARNI TARJIMASIDAGI MORFOLOGIK VA  
SINTAKTIK MUAMMOLAR**

**Xakimova Kamola G‘anisher qizi**

**Jummayev Shohzod Sharabaliyevich**

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Tarjima nazaryasi va amaliyoti ta’lim yo’nalishi talabalari

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola Xolid Hussayni tomonidan yozilgan “Shamollar ortidan” tarkibidagi fe’llar va otlarning ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjimasi va ularning mohiyatiga morfologik va sintaktik nuqtai nazardan o’quvchi uni anglashi uchun ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Shu tufayli maqolada tarjimon ularni o’zbek tiliga o’g’irishdan oldin etimologik, morfologik va sintaktik tahlil qilishi uchun qoliplar taklif qilingan.*

*Kalit so'zlar: transliteratsiya, lingvoperspektiv, ingliz-o'zbek tarjima, morfologik, sintaktik.*

## **INTRODUCTION**

The task of translator is to render the message of the original in the most full way, so that to be able to attain structural similarity of the source and target texts. If the syntactic similarity is missing we observe a transformation (any change of the source text at the syntactic level during translation). In fulfilling this task he/she faces a number of problems such as: ambiguity, problems that arise from structural and lexical differences between languages, multiword units like idioms and collocations and, of course, a large number of grammatical problems. At the grammatical level, a translator is expected to have a thorough knowledge of the grammatical rules of the target language. In fact, a translator does not have to know the grammar of the language for just the sake of it, he should be well versed in comparative grammar of the two languages involved in translation and the similarities and dissimilarities in them. The translator should be able to distinguish between the obligatory and the optional forms in target language.

## **LITERATURE REVIEW AND RESEARCH METHODOLOGY**

Comparative literature, contrastive and descriptive translation and interpretation analysis of linguistic terms and stylistically analysis of literary translation during the research for the article.

The inventive crafting of the author - Khaled Hosseini creates inevitable questions theoretically to develop in the research. The outcomes can be seen from three angles: the first one is to examine if the verbs and nouns are supposed to be translated or some translators translated them, if yes, how, in the target language. As it comes, the second angle is to see the strategies and methods used to translate the objectives and to select the right ones to show the answer. Finally yet importantly, is to determine the names' carrying the semantic load or any descriptive meaning by comparing and contrasting the English-English variations, as well, during the study.

Verbs and nouns are studied with their etymologies and are analyzed with controversial ideas of two translators of a work. By contrasting them in English, Russian and Uzbek, we intend to get a fragile line of semantic connection a bit stronger in the Uzbek version.

## **RESULTS**

The verbs and nouns examined in the present article are one of the most common and important ones, despite the fact that, we had much more to analyze

above. We have seen the etymological, morphological and syntactical backgrounds of verbs and nouns. Next research goes deeper in the current field and continues with the verbs and nouns, which are problematic.

## **DISCUSSION**

Syntax, the arrangement of words in sentences, clauses, and phrases, and the study of the formation of sentences and the relationship of their component parts. In a language such as English, the main device for showing the relationship among words is word order. As for grammatical obstructions, run in front of translator, we should consider that the two languages: Uzbek and English are not familiar with each other. Only their alphabets are nearly the same besides some distinguishes of absence of some letters, such as, “w”, “c” in Uzbek and “g”, “sh”, “ch”, “ng” and “o” in English language or wide range of word usage to clear a meaning, but not grammar.

When the Uzbek language is agglutinative, English is not with its unchangeable word structure. It is shown in the sentences below.

*“Standing in the kitchen with the receiver to my ear, I knew it wasn’t just Rahim Khan on the line”*

*“telefon go’shagi bilan oshxonada turgan holatda men qong’iroqda shunchaki Rahim Xon emasligini bildim”*

In this sentence, we can see that translators have to change some letters in order to translate properly.

When it comes to verb phrases, there are two types of clauses: dependent and independent. A typical sentence contains one independent clause and possibly one or more dependent clauses, although it is also possible to link together sentences of this form into longer sentences, using coordinating conjunctions. “And”, “but”, “for”, “nor”, “or”, “so”, and “yet” - these are the seven coordinating conjunctions. When these are used, sentences are connected to each other independently. These types of sentences are a bit easier to understand, translate and make the translation more comprehensible for the reader. One can see some examples below which were taken from The Kite Runner comparing its translation:

*“He would wag his finger and wave us down from the tree”*

*“Barmoqlag`ini qimirlatardi va daraxtdan pastga bizga go`lini silkitardi”*

*“Hassan never wanted to, but if I asked, really asked, he wouldn’t deny me”*

*“Xasan hech qachon qilishni xohlamasdi, ammo men juda qattiq so`raganimda u meni rad etmasdi”*



A dependent clause (or subordinate clause) is the one that cannot stand alone as a complete sentence because it does not express a complete thought. Like all clauses, a dependent clause has a subject and a verb. Dependent clauses can act as adjectives, adverbs, or nouns which are categorized as: the adjective clause, the adverbial clause and the noun clause in English syntax. These three are totally important to analyse the issues of translation process correctly without confusions.

## **CONCLUSION**

Translators could have more opportunity to translate ways in the syntactical and morphological ways. Fiction is more difficult, though. Nevertheless, what happens when the writer prepares a tight package with the mixture of translating sentences? The answer comes as the mixture, as well, it is positive and negative, some can be translated and some not. This depends on the position of a writer and a translator: a writer is the ruler of a translator.

## **REFERENCES**

1. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
2. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI' ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>
3. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
4. Solijonov J.K. (2018). "LEXICAL AND GRAMMATICAL PROBLEMS OF TRANSLATING "HARRY POTTER" NOVELS FROM ENGLISH INTO UZBEK" WRITTEN BY 2<sup>ND</sup> COURSE MASTER'S STUDENT OF THE ENGLISH DEPARTMENT:

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

**Artikova Nazira Arzimuratovna**

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani 11-umumta'lim maktabi  
2-"A" sinf Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish usullari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqola ko'p yillik tajriba natijasida ustozlar tomonidan orttirilgan amaliyot orqali ta'limni eng ilg'or-effektiv yo'llarini ko'rsatib o'tadi va tahlil qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, mehnat, tarbiya, texnologiya, islohot, pedagogik texnologiya, ilg'or-effektiv yo'llar, pedagogik tahlil va tajriba.*

## **USE ADVANCED PRACTICES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF PRIMARY EDUCATION**

**Artikova Nazira Arzimuratovna**

Teacher of An elementary school  
2nd "A" class, 11th comprehensive school  
Syrdarya district, Syrdarya region

### **ABSTRACT**

This article discusses innovative approaches to improving the effectiveness of primary education in schools, ways to effectively use modern pedagogical technologies. The article also shows and analyzes the most effective ways of teaching through many years of experience gained by teachers.

**Keywords:** Primary education, labor, education, technology, reform, pedagogical technology, advanced and effective ways, pedagogical analysis and experience

## **ИСПОЛЬЗУЙТЕ ПЕРЕДОВЫЕ ПРАКТИКИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Артикова Назира Арзимуратовна**

Сырдарьинская область, Сырдарьинский район, 11-я общеобразовательная  
школа, 2-й «А» класс  
Учитель начальной школы

## АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются инновационные подходы к повышению эффективности начального образования в школах, пути эффективного использования современных педагогических технологий. В статье также показаны и проанализированы наиболее эффективные способы обучения на основе многолетнего опыта, накопленного учителями.*

**Ключевые слова:** начальное образование, труд, воспитание, технология, реформа, педагогическая технология, передовые и эффективные способы, педагогический анализ и опыт.

## KIRISH

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddadir.

O'quvchilarga bilim berishda samarali qo'llansa bo'ladigan interfaol uslublar, didaktik o'yinlar, o'quvchilarga mos metodlar, ta'limiy mashqlardan kiritilgan. Bu o'yin mashqlaridan darslarda ta'limiy musobaqa tarzida ham foydalansa bo'ladi va ular 25-35 o'quvchiga mo'ljallangan. Bevosita, o'zim ish faoliyatimda yaratgan innovatsion g'oyalarimdan ham namunalar keltirganman. O'quvchilarga darslarda singdirilgan kompetensiyaviy yondashuvlar, ular hayotida, albatta, asqotadi degan umiddaman. Xullas, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim sifatini oshirishda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim sifat samaradorligini oshirishda bu maqola yaxshi xizmat qila oladi, deb o'ylayman. Zero, bugungi kunda o'qituvchining qilayotgan mehnati, albatta, ertaga o'z samarasini beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va

erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Aynan shu vazifa va topshiriqlarni amalga oshirish uchun "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" tashkil etildi va uning ta'limga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishlari sifatida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyalarni o'z tarkibiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi", deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o'ylayman.

Men o'z ish faoliyatim davomida ko'pgina innovatsion g'oyalardan, turli xil didaktik o'yin mashqlardan keng ko'lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham o'quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Men o'qish darslarida ayniqsa, "Yosh aktyorlar", "Quvnoq quyunchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Yosh suxandon", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o'qi" kabi usul va ta'limiy mashqlardan ko'p foydalanaman. Bu o'yinlar o'quvchilarga juda yoqadi. Hattoki o'quvchilar o'zlari ham yangi o'yin mashqlari yaratib, kartochkalar yozib kelishadi. Bundan juda quvonaman. Bu albatta, ko'pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi. Matematika darslarini o'quvchilar juda yaxshi ko'radilar. Bu darsga men juda puxta tayyorgarlik ko'raman. Chunki o'quvchilar bilimi juda yaxshi, shuning uchun ular mendan yangi narsalar so'raydilar, mantiqiy mashqlar berishni iltimos qiladilar. Bunda men ko'pincha "Kim birinchi", "Mohir hisobchi", "Atamani

top”, “Uchqur kema”, “Ziyrak quyonlar”, “Orzular kemasi”, “Tez javob”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Baliqchalar tutish”, “O‘zim tekshiraman”, “BBB”, “Ortiqchasini top” kabi metod va o‘yin usullaridan juda ko‘p foydalanaman. Bularni davom ettirsak juda ko‘p, bu o‘qituvchining dars o‘tish mahoratiga bog‘liq.

Ona tili darslarida esa “Qoidani top”, “Karvon”, “Quruvchilar”, “Kim zukko, kim tezkor”, “Noto‘g‘ri jumla”, “Qarsak chaldi”, “Hikoya”, “Boshqotirma”, “Tushunchalar tahlili”, “So‘z ichida so‘z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmlı diktant”, “Boshqotirma”, “Ha yoki yo‘q”, “So‘z yozish”, “Baliq skleti” kabi didaktik o‘yin va ta‘limiy mashqlarlardan keng foydalanaman. “Quruvchilar” o‘yiniga to‘xtalib o‘taman. Bunda o‘quvchilar guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga “Zamonaviy uylar” qurish uchun “g‘ishtchalar” taqdim etiladi. “Tom” chalarga so‘z turkumlari nomlari yoziladi. O‘quvchilar so‘z turkumlariga doir so‘zlarni aralash tartibda berilgan g‘ishtchalardan topib, tegishli uychalarni qurishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu o‘yinda bilim, tezkorlik va hamkorlik juda muhimdir. Muhimi o‘quvchilarning o‘sha fanga, maktabga va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi yanada oshadi.

“Innovatsiya” – bu yangilik demakdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta‘limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, ta‘lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko‘pincha darslarimda “Blits-o‘yin” texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan narsaning ko‘p xilma-xil ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya yettita bosqichda amalga oshiriladi. O‘quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g‘oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o‘qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o‘qituvchilar har doim jajji o‘quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo‘lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar, interfaol uslublar, ta’limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta’lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O‘quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo‘lamiz. O‘quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag‘batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo‘l keladi. Har bir o‘qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o‘tsa bu o‘z natijasini beradi. Mustaqil O‘zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog‘liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

## **REFERENCES**

1. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
2. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, T.G‘afforova, Toshkent-2016.
3. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
4. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.
5. Journal of Primary Education, 2018, No. 9, page 8.
6. “Modern pedagogical technologies in primary education”, T. Gafforova Tashkent-2016.
7. Journal of Primary Education, 2017, issue 7, page 20.
8. “Skilled pedagogue” magazine, 2019, issue 5, page 26.

## **JURNALISTIKA SOHASINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA VAZIFALARI**

**Egamberdiyev Islomjon**

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada jurnalistika sohasining asosiy funksiyalari va vazifalari haqida so'z boradi. Bugungi kunda jurnalistika sohasiga e'tiborning tobora oshib borishi kuzatilmoqda. Erkinlikka intilish har bir jurnalistning ajralmas huquqi bo'lib, uni qanday tushunish va amalga oshirish masalasi, uni ta'minlash uchun, albatta, huquqiy kafolatlar, huquqiy jihatlar, muayyan siyosiy tuzilmalardan himoyalash, iqtisodiy erkinlik haqida yoritilgan. Jurnalistika sohasi rivojlanib undagi erkinlik yanada ortishi uchun sohaning fuksiya va vazilarni aniq bilib olishimiz kerak, ushbu maqolada shu borada misollar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Gipermedia, transmediya, jamiyat, erkinlik, matbuot, jurnalist, mustaqil, ijtimoiy, iqtisodiy, demokratik jamiyat.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the main functions and tasks of journalism. Today, there is a growing focus on journalism. The pursuit of freedom is an inalienable right of every journalist, and the question of how to understand and implement it, of course, to ensure it, is covered by legal guarantees, legal aspects, protection from certain political structures, economic freedom. In order for the field of journalism to develop and increase its freedom, we need to know the functions and responsibilities of the industry, and this article provides examples.*

**Keywords:** *Hypermedia, transmedia, society, freedom, press, journalist, independent, social, economic, democratic society.*

### **KIRISH**

Jurnalistika sohasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz eng avvalo O'zbekistonda ilm-u ma'rifat o'rta asrlarda qanchalar ravnaq topganligini, o'z ajdodlarimiz bilan qanchalar faxrlansak shunchalar arzishini, allomalardan qolgan buyuk meroslarni ko'z qorachig'imizdek asrash ham qarz, ham farz ekanligini eslab o'tishimiz shart. O'rta asrlarda qanchalar rivojlangan ilm-u ma'rifat o'chog'i xonliklar davri va Chor Rossiyasi davriga kelib to'xtab qolganligining guvohiga aylanamiz. Ammo ruslar hukmronligi davrida ham ziyolilar qatlami, ya'ni buyuk jadidlar maydonga chiqib xalqni erkini, tinchligini, kelajak faqat ilm-u ma'rifatda ekanligini uqtirish uchun bor

ilm-u ma'rifatni xalqqa gazeta, jurnal, teatr orqali yetkazib berdilar, buning uchun hech qanday g'ov, to'siqqa, qiyinchilik va mashaqqatlarga bardosh bera oldilar. Xalqni, yosh avlodni o'qitish uchun gazetalar, jurnallar, teatr, kutubxonalar ko'plab tashkil qilish, maqolalar yozish, ularni yanada keng yoritish, haqiqatga boqqan holda faqat ezgulikka xizmat qilish o'sha davr jadidlarining muqaddas burchiga aylandi. Ammo rus istibdodi baribir jaholat bu davr ilm-u ma'rifatidan ustun keldi. Jurnalistika sohasi inqirozga uchradi. Qancha ziyolilar, jurnalistlar, adabiyotshunoslar qatag'on siyosati qurboni bo'ldilar. Faqat Vatanimiz 1991- yil mustaqillikni qo'lga kiritgach, SSSR tugagachgina barcha ilm ahliga sekin-asta shart-sharoitlar birin-ketin yaratilib berildi. Kelasi masala endi O'zbekistonda professional jurnalistika sohasini yaratish, ularning ishlash tizimini yangilash, haqqoniy qalami o'tkir jurnalistlarni yetishtirib chiqarish, maydonga faqat xolis va haqiqatni qo'rqmay ayta oladigan xalq manfaatini ko'zlovchi jurnalistlarni tarbiyalash eng dolzarb muammolardan biriga aylandi va buning uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalariga, jurnalistikaga munosabat o'zgardi. Avvalo, ularning huquqiy asoslarini yaratish tadbirlari ko'rildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkin va qonunga muvofiq ishlaydi. 29-moddasida esa har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida 1997-yil 24-aprelda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" va "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", 1997-yil 26-dekabrda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" Qonunlar qabul qilindi. Davlat organlari, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzurani amalga oshirganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning professional faoliyatiga aralashganlik uchun javobgar bo'lishlari qonunan mustahkamlab qo'yildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishni ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida tuzilgan Axborot markazi, Milliy matbuot klubi ommaviy axborot vositalariga moddiy jihatdan yordam berib kelmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, 1996-yil avgust oyida ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi. Mustaqillik yillarida respublika ommaviy axborot



vositalarining soni ko'paydi, sifati yaxshilandi. 1990-yilda 376 nomda gazeta va jurnallar jurnalistlar tomonidan chop etilgan bo'lsa, 2010-yilda ommaviy axborot vositalari va elektron ommaviy axborot vositalari soni 1200 taga yetdi. 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari va uning hududiy bo'linmalari faoliyat ko'rsatdi. Ko'pmillatli O'zbekistonda gazetalar, jurnallar, 24 May 2021 6-qism Toshkent teleradiostudiyalar 12 tilda – o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq va boshqa tillarda chop etiladi, eshittiriladi. 6 ta gazeta va 8 ta jurnalda o'zbek tili bilan birga ingliz, arab, turk, urdu, forsiy, hind tillaridan foydalaniladi. Kelasi yillarda professional jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish uchun ko'plab yanada ezgu ishlar, istiqbolli loyihalar amalga oshirish maqsadga muvofiq: a) hukumatimiz tomonidan maktab o'quvchilarini, talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ular yashayotgan hududlarda (chekka hududlarda) ko'plab jurnalistika o'quv markazlarini tashkil etish, viloyat va tuman hokimliklari bilan birgalikda ishlash; b) davlat budjeti hisobidan nogironligi bo'lgan, mehnatga layoqatsiz o'smirlar, talabalarni jurnalistika sohasi bo'yicha bepul o'qitish, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim vazirligi tomonidan ortiqcha qog'ozbozlikni yig'ishtirib, amalda yosh avlodni shaxsan o'zlari borib, o'qish sharoitlari bilan shaxsan tanishish; Doimiy ravishda o'zgarib turadigan media landshaft (dunyodagi eng mashhur kommunikatsiya texnologiyalari / xizmatlari to'plami) zamonaviy ommaviy axborot vositalarida aniq chegaralashni joriy qiladi, shu bilan konvergent jurnalistikaning qaysi janrlarini ajratish mumkin:

OAV - asosan ma'lum bir mintaqaga yo'naltirilgan, juda mahalliy rejadagi nashrlar. Ularning faoliyati ommaviy axborot vositalarining biri bilan cheklangan: gazeta, radio, televizion yoki Internet-resurs. Aynan shu tur bugungi kunda o'quvchilar «an'anaviy yangiliklar» deb ataydigan narsalarni to'liq aks ettiradi. Yaqinlashishga kelsak, ushbu toifada odatda ilgari tavsiflangan 1-2 darajadan oshmasligi kerak.

Gipermedia - yaqinlashgan jurnalistikaning ushbu janri uning tarkibini taqdim etish uchun faqat bitta media platforma bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, bosma nashrda nashr etiladigan onlayn gazeta. Ular ko'pincha «multimedia» tushunchasi bilan tushuniladi / - vizual, audio, grafik va matn materialidagi ma'lumotlarni taqdim etishning boshqa vositalarining kombinatsiyasi. Gipermediyaga integratsiyalashuv, mos ravishda, barcha uchta darajada amalga oshiriladi.

Transmediya. Bu munozarali janr, munozarasi shu kungacha susaymaydi. O'z mohiyatida faqat qisman ommaviy axborot vositalarining xususiyatlari va funksiyalariga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarga (transmediya misollaridan biri)

alohida e'tibor beriladi. Bunday holda, tarkibning juda informatsion mazmuni shubha ostiga olinadi, chunki uni yaratish va tahrir qilish bilan jurnalistlar emas, aksariyat hollarda xabarlarining ko'proq kommunikativ (so'zlashuv) vositalariga moyil bo'lgan foydalanuvchilar shug'ullanadilar. Bundan tashqari, ko'plab mutaxassislar o'z funktsionalligi va amaliy qo'llanilishida bitta jurnalistik faoliyat doirasidan tashqariga chiqadigan bunday media platformani jiddiy yangilik sifatida qabul qilmaslikka chaqirishmoqda. Axir transmedia foydalanuvchilarga nafaqat publitsistik asarlar, balki reklama, ko'ngilochar kontent va boshqa ko'plab narsalarni taqdim etadi. Jurnalist faqatgina xabar tarqatuvchi jarchi emas. Bu ishni diktor ham, muxbir ham bajaraveradi. Albatta, jarchilik ham, darakchilik ham jurnalistikaning bir sohasi. Sodir bo'lgan qandaydir voqea, ijtimoiy-siyosiy yoki madaniy-iqtisodiy muammo haqida xabar berilganidan so'ng yuzaga chiqqan ijtimoiy rezonansni sharhlash, tahrir, talqin, tahlil, muhokama qilish publitsistning ishi hisoblansa ham, publitsistikaning o'zi aynan jurnalistika degan poydevor ustida qad ko'tarib turganini esdan chiqarmaylik.

### **XULOSA**

Albatta, matbuotda chiqqan har qanday xabar yoki yangilik tahlil qilinavermaydi. Chunki ommaga tarqatilgan bo'lsa ham jamoatchilik e'tiboridan chetda qolgan bo'lishi mumkin. Lekin xabar tarqatilgan vaqtda ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolgani bilan keyinchalik boshqa bir voqea haqidagi xabar ta'sirida ommada kuchli rezonans yaratishi mumkin. Ijtimoiy rezonans tafsiloti esa ommaga tushuntirib berilishi shart. O'zbekistonlik jurnalistlar tomonidan mustaqil tadqiqotlar olib borilib, jamiyatimizdagi muammolarni yoritish evaziga aholi orasida huquqiy savodxonlik rivojlanishi turgan gap. Bu esa jamoaviy fikrni o'rtaga chiqaradi, yoshlarimizning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yaqindagina bo'lib o'tgan senator va to'y korteji mojarosi haqida jurnalistlarimiz yozib chiqdi. Hatto Prezident bizlar taraf bo'ldi. Bu O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari maydoni shakllanganidan dalolatdir. Ilgari, afsuski, bunday emas edi.

### **REFERENCES**

1. Qudratxo'jayev Sh. Internet: tarixi, tuzilishi, texnik xavfsizlik. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: 2011.
2. F. Mo'minov, A. Nurmatov Jahon jurnalistikasi tarixi. Toshkent – 2008
3. <http://www.mediascope.ru/>

## **XORIJIY TILLARNI O'QITISH SOHASIDA ZAMONAVIY YONDASHUV: TUZILISHI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

**Iroda Izatullayevna Ismatullayeva**

Toshkent davlat transport universiteti, chet tillar kafedrası

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada muallif xorijiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuv va metodlar haqida so'z yuritgan. Xususan, integrativ pedagogik faoliyatning afzalliklari hamda, ushbu yondashuvdan foydalanganda ba'zi tamoyillarga rioya qilish kerakligi muhim ekani aytib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** integrative, yondashuv, tuzilmalararo, matn diskursi, tamoyil

### **ABSTRACT**

*In this article, the author discusses modern approaches and methods of teaching foreign languages. In particular, it was noted that the advantages of integrative pedagogical activity, as well as the need to follow certain principles when using this approach.*

**Keywords:** integrative, approach, inter-structure, text discourse, principle

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье автор рассматривает современные подходы и методы обучения иностранным языкам. В частности, были отмечены преимущества интегративной педагогической деятельности, а также необходимость соблюдения определенных принципов при использовании данного подхода.*

**Ключевые слова:** интегративный подход, межструктурность, текстовый дискурс, принцип.

### **KIRISH**

Bugungi kunda globallashuv jarayoni butun dunyo mamlakatlarini qamrab olgan, bizning mamlakat ham bundan mustasno emas. Dunyo hamjamiyatiga ilg'or qadamlar bilan kirib borayotganimiz bilan bir paytda xorijiy tillarni, shu jumladan ingliz tilini mukammal darajada egallash, o'zga xalqlarni urf-odatları, turmush tarzi va dunyoqarashlari bilan yaqindan tanishish, diplomatik aloqalar o'rnatish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yana aytish joizki, mutaxassisligi xorijiy tillarni o'rganish bilan bog'liq bo'lmagan kasb egalari ham hozirda ingliz tilini o'rganishlari ularning kasbiy imkoniyatlarini oshirishga yordam berishini anglab yetmoqdalar. Shaxsan xorijiy til mutaxassislari ham bugungi kunda boshqa sohalarda bimalol a'lo darajada nutqiy faoliyat olib borishlari ham bugungi kun yectualabi bo'lmoqda. Keltirilgan masalalarga yechim topish uchun tillarni o'qitish metodikasida nisbatan yangi

yodashuv – integrativ yondashuv asoslari ishlab chiqildi va turli mamlakatlar ta’lim tizimida ishlatilmoqda. Bu maqolada bu yondashuvning mazmuni, maqsadi, vazifalari va turlariga to’xtalib o’tiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Integrativ pedagogik faoliyat – bu o’ziga xos pedagogik faoliyat bo’lib, u o’z ichiga biror bir fanni o’rganishda turli bilimlarni, boshqa fanda ishlatiladigan qonuniyat yoki birliklarni, yoki biror bir fanning o’zida turli bo’limlarni aralashtirish, qo’shish, birlikka keltirish jarayonini oladi. “Integratsiya” so’zining ma’nosi alohida bo’laklarni yagona birlikka birlashtirish, qismlardan butun yasash jarayonini ko’zda tutadi [1]. Bu haqida ilk bor pedagogikada Y. A. Kamenskiy so’z yuritgan bo’lib, u shunday degan: “Inson o’rganadigan bilimlar ayri-ayri, bo’laklangan holda emas, ba’lki o’zaro bog’liq va yaxlitlikka qaratilgan bo’lishi kerak”, “Integratsiya – faqatgina ta’lim elementlarini bog’lashgina emas, ba’lki bir fan yordamida javobi topilmagan muammolarni boshqa fanlarni mutanosibli yordamida yechim topish ham demakdir” [2].

Hozirda pedagoglar uchun integrallashgan darslar muhim didaktik qurol vazifasini o’tamoqda, bu esa o’z navbatida integrallashgan darslar tizimi yoki maxsus ixtisoslashtirilgan dastur va kurslarni, bizning vaziyatimizda ingliz tilining integrativ yondashuv asosida o’qitish kurslarini yaratishni taqozo etadi. Integrativ fanlar bir nechta vazifalarni bajaradi:

1. Talabalarning mantiqiy, erudik va tanqidiy fikrlashini, ularning ta’lim istiqbollari oshiradi;
2. Umummadaniy, ma’naviy, nutqiy va kasbiy layoqatini rivojlantiradi;
3. Tor doirada amal qiluvchi bilim va ko’nikmalarni o’rniga keng qamrovli bilimlarni egallashda o’quvchilarga yordam beradi.

Ta’limda integratsiya uslubini qo’llashda uning tuzilishi va tashkil qiluvchi komponentlariga alohida to’xtalib o’tish joiz. Ularga quyidagilar mansub: fan ichida va fanlararo integratsiya; gorizontaal va vertikal mavzulashtirish integratsiya; tuzilmalararo va transfanlararo integratsiya. Fan ichida bo’lgan integratsiyaga misol qilib, Grammatik birliklarni matn diskursi yoki leksikologiyaga mansub frazeologik birliklar bilan bog’lashni misol qilsak, fanlararo integratsiyaga ingliz tili grammatikasini o’qitishda matn yoki asosiy manba sifatida boshqa fanlar yoki kablarga oid terminal bilan boyitilgan, muammoli vaziyatlar orqali taqdim etiladigan topshiriqlar toplamlarini yaratishni misol qilsak bo’ladi.

Chet tillarini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanganda quyidagi tamoyillarga rioya qilish kerak [3]:

- Madaniy muvofiqlik tamoyili;
- Ijodkorlik tamoyili;
- Shaxsiy rivojlanish va mustaqil ta'lim olish tamoyili;
- O'zgaruvchanlik tamoyili;
- Madaniyatlararo aloqalar yo'sinida o'zligini aniqlash va mukammalshtirish tamoyili;
- Diniy va irqiy bag'rikenglik tamoyili;
- Madaniyatlar orasida dialoglarni yaratish tamoyili.

Ingliz tilini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sohasiga urg'u bersak, bunda integrativ yondashuvni qo'llashni ikki tarmoqqa bo'lsak bo'ladi: mutaxassisligi ingliz tili bo'lgan talabalar va mutaxassisligi til bilan bog'liq bo'lmagan talabalar. Ingliz tilini asosiy til sifatida o'quvchilar uchun, misol tariqasida bo'lajak tilshunos yoki chet tili o'qituvchilari uchun ingliz tili grammatikasini ham o'qitishda integrallashgan n tarzda boshqa kasbga oid matn va muammoli vaziyatlar aks ertgan kontekstlarni olishimiz mumkin. Bunda yosh kadrlar nafaqat tilni tilshunoslikka ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida, ba'lki tibbiyot, texnika yoki dizaynga ixtisoslashgan bilim yurtlarida ham qiyinchiliksiz o'qita oladilar. Shu bilan birga, boshqa kasb vakillariga ham ESP kurslari, ya'ni maxsus kasbiy ixtisoslashtirilgan ingliz tili darslarini olib borishda integrativ yondashuv asoslanib dasturlar yaratish maqsadga muvofiq.

Mavzu bo'yicha o'rganilgan adabiyotlarni o'rgangan holda, ingliz tilini, boshqa chet tillarini ham o'qitishda bu yondashuvdan foydalanganda pedagoglarga kerakli bo'lgan metodlarni quyidagi uch guruhga bo'lamiz [4]: 1) aqliy-tadqiqiy metodlar guruhi ( tadqiqot, madaniy taraflama o'zini anglash, referatlar, loyihalar metodi); kommunikativ – muammoli metodlar guruhi (madaniyatlararo munosabatlarga oid muammoli bahslashuvlar olib borish, madaniy munosabatlarga asoslangan rollar o'ynash metodi, kasbiy va ish muhitini yaratuvchi rollar o'ynash metodi); 3) muammoli – izlovchi metodlar guruhi (texnika vositalaridan foydalanish, skaydlar, web-quest, bloglar yaratish metodi).

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish joizki, integrativ yondashuv yordamida olib boriladigan xorijiy til dasturlari o'rganuvchilarga o'zini anglash va o'zini o'zi rivojlantirish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi. Bu yondashuv orqali dunyo su'rati

(картина мира) talabalar ongida to'liq shakllanadi, ularning dunyoqarashi va tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi ekstralingvistik bilimlari ham ortib boradi. Qo'shimcha ravishda, bo'lajak til o'qituvchilari uchun ham ingliz tilini boshqa kabi faoliyatga yo'naltirilgan o'quv yurtlarida hech qanday cheklovlarsiz o'qitish imkonini yaratadi. Albatta, bu kabi imkoniyatlarni yaratib beruvchi yondashuv hozirgi zamon jamiyat talabiga javob berishi shubxasiz.

## **REFERENCES**

1. Бусыгина А.Л. Совершенствование педагогической компетентности преподавателей как фактор повышения эффективности учебного процесса ВТУЗа: дис. ... канд. пед. наук. СПб., 1994. 189 с.
2. Зимняя И.А., Земцова Е.В. Интегративный подход к оценке единой социально-профессиональной компетентности выпускников вузов // Высшее образование сегодня. 2008. № 5. С. 14–19.
3. Адамко М.А. Особенности обучения английскому языку в вузе в современных условиях. Тольятти: Вектор науки ТГУ. 2015. №3-2 (33-2). С. 283–288.
4. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik / J.J. Jalolov. – Toshkent: o'qituvchi, 2012. – 432 b.

## **MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR EMOTSIONAL SOHASI PSIXOFIZIOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

**Olimjonova Ziyinat Bobomurod qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixofiziologik rivojlanishi emotsional soha to'liq shakllanishiga muxim ta'siri va bunda atrof muxitning asosiy o'rni haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** bola, usul, fiziologiya, psixofiziologiya, miya, tizim, neyron, rivojlanish asab xujayra, mexanizm, psixologiya, pedagogika.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается важное влияние психофизиологического развития дошкольников на полноценное формирование познавательной сферы и главная роль среды в этом.*

***Ключевые слова:** ребенок, метод, физиология, психофизиология, мозг, система, нейрон, нервная клетка развития, механизм, психология, педагогика.*

### **ABSTRACT**

*The article examines the important influence of the psychophysiological development of preschoolers on the full-fledged formation of the emotional sphere and the main role of the environment in this.*

***Keywords:** child, method, physiology, psychophysiology, brain, system, neuron, nerve cell of development, mechanism, psychology, pedagogy.*

### **KIRISH**

Psixofiziologiya tarkibiy jihatdan aqliy faoliyatlar, emotsiyalar, hatti-harakatlar, differensial va yosh bo'yicha psixofiziologiyaga bo'linadi. Asosiy va amaliy psixofiziologiyaning eng muhim sohalaridan biri insonning emotsiyasi hisoblanadi.. Bu, ayniqsa, emotsiyalar kontseptsiyasining turli xil ta'riflari, ularning ko'pgina tasnifi, shuningdek, tabiatga oid ko'plab nazariy qarashlar, psixofiziologik mexanizmlar va bu hodisaning biologik ahamiyati mavjudligi bilan namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning psixofiziologik asoslarini o'rganish hissiy hodisalarni, ularning miya mexanizmlarini miya tashkil etishni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy psixofiziologiyada aqliy jarayonlarning asosiy miya faoliyati yuqori ixtisoslashgan miya tuzilmalarining dinamik tizimli o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shu munosabat bilan, turli miya tuzilmalarining ishtirokini tavsiflovchi

ko'rsatkichlar, ularning hissiy munosabatlarida tashkil etilishi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish dolzarbdir. Psixofizyologiyada tizimli yondashuv, shuningdek, ko'p bosqichli ierarxik xatti-harakatlar tashkiloti nuqtai nazaridan hissiy hodisalarni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Jamiyatimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish o'sib kelayotgan yoshlarni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan informatsiyaning 70 % ini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissinu uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jahon va ichki tajribadan dalolat beradiki, aqliy rivojlanishning noaniq kechikishi bo'lgan bolalar soni katta va barqaror o'sib bormoqda. Bunday bolalar ko'pincha aqliy va kognitiv deprivatsiyaga ega bo'lib, ular rivojlanishning sekinlashuvi, shaxsiy immaturligi, kognitiv faoliyatning buzilishi bilan tavsiflanadi; ular maktab ta'limining boshlanishiga tayyor emaslar, ular shni, asabiy charchoqni boshdan kechiradilar, bu esa tez charchash va kam samaradorlikka olib keladi; bunday bolalar bilan o'qituvchilar va o'qituvchilar uchun ishlash qiyin. Hozirgi vaqtda psixofizyologik rivojlanishni o'rganish turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi: kognitiv faoliyat, shaxsiy shakllanish va nutqni rivojlantirish, psixofizikaning xususiyatlari. Rivojlanish muammolari bo'lgan bolalarning rivojlanish manbai asosan ular joylashgan muhitning o'ziga xos xususiyatlari va Markaziy asab tizimining funktsional holati bilan belgilanadi. L. S. Vygotskiy (1956) ta'kidlaganidek, maqsadli pedagogik va psixofizik tuzatishning o'z vaqtida boshlanishi rivojlanish muammolari bo'lgan bolalarning rivojlanishida ko'plab ikkinchi darajali anormalliklarning oldini olishga yordam beradi. Ushbu yo'nalishni amalga oshirish bolalarning neyrodinamik jarayonlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ma'lumki, tizimli tuzatish, intellektual rag'batlantirish, sog'lomlashtirish muammolari bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlar darajasiga jinsi va yoshiga qarab neyrodinamik funktsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Yagona ish individual neyrodinamik xususiyatlari kompleksi shakllantirish dinamikasi bag'ishlangan, o'zaro va oliy asab faoliyati tipologik xususiyatlariga qarab, ularning munosabatlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya ko'rsatkichlari bilan asab tizimining xususiyatlari o'rtasidagi



munosabatlar ham o'rganiladi va maktab yoshi bolalarning ishlashi va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda psixofiziologik tuzilmasini shakllantirishda o'z xususiyatlari bn ajralib turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asab tizimining xususiyatlarini bilish ikkilamchi kasalliklarning oldini olish va psixofizik tuzatish, shuningdek, neyrodinamik jarayonlarni tezlashtirish uchun zarurdir.

Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy xissiyotlar tobora ko'proq bola hulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlar vositasida bolalar jamiyatda o'qimatilgan estetik, ahloqiy talablarga muvofiq ravishda o'z xohish istaklak, xatti-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlarining rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog'liq. Hayotning dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsional rivojlanish butun xayotlari davomida saqlanib qolishi mumkir.. Buning sababi shundaki, maktabgacha tarbiya muassasalarida bitta kishiga ko'p bola to'g'ri keladi. Natijada tarbiyachilarning har bir bola bilan emotsional kontakti kam bo'ladi. M.M.Kolsovaning ma'lumotlariga ko'ra oiladagi nosog'lom muhit darhol bolaning chizadigan rasmlarida aks etadi. Oiladagi noto'g'ri munosabatlar ba'zida bir tomonlama affektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqatda bo'lishi ehtiyoji susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog'liq bo'lib qoladi, bola, xatto kuchli salbiy kechinmalar boshidan kechirishi mumkin. Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati amalga oshirilayotgan ijtimoiy-psixologik vaziyat bilan bog'liq. Emotsiogen vaziyatlar, ya'ni kuchli kechinmalarni uyg'otuvchi vaziyatlar yangiligi g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatan ancha ko'p emotsional boshidan kechiradi. Buning sababi shundaki, bolaning xayoti tajribasi hali kam bo'lganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib ko'rinadi. Vaziyatga ko'ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muxabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahll, nafrat) bo'lishi mumkin. Agar bola ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatlariga ega bo'lsa ijobiy kechinmalar hosil bo'ladi. Bordi-yu, vujudga kelgan vaziyatga bola o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, salbiy (astenik) emotsional kechinmalar sodir bo'ladi. Umuman olganda, bolalar xayotiy vaziyatlarga optimistik munosabatda bo'ladilar, ularga tetik xayotdan quvonuvchan kayfiyat xos. Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek shartlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish imkonini beradi. Maktabga psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri emotsional tayyorgarlikdir. Bu tayyorgarlik nafaqat maktabda ta'lim boshlashni xursandchilik bilan kutish, balki shu bilan birga oliy hissiyotlarning

ancha rivojlangan bo'lishi, bola shaxsining emotsional xususiyatlari shakllangan bo'lishini taqoza qiladi. Emotsiyalar va hissiyotlar maktabgacha yosh davrida yetakchi bo'lmagan faoliyat turi - o'yinda juda intensiv rivojlanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma xil kechinmalarga boy faoliyat turidir. Bolalarda hissiy sohaning xususiyatlarini o'rganishning umumiy tamoyillari bolaning xatti-harakatlarining sabablarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi va uning dunyoga munosabatini aniqlash imkonini beradi. Tuyg'ularning quyidagi xususiyatlarini bilish maqsadga muvofiqdir: ustun hissiy fon, his-tuyg'ularning keskin tebranishlari, qo'rquv hodisalari, umumiy tashvish va ayniqsa maktab tashvishi, shaxs ichidagi nizolar va kompensatsiya mexanizmlari, reaktsiyalar, umidsizlik holati.

### **XULOSA**

Muvaffaqiyatsizlikka javoban o'zini namoyon qiladigan vosita minimal miya disfunktsiyasi va miyaning yanada jiddiy buzilishi bo'lgan bolalarda qayd etiladi. Bu bolaning ob'ektlarni tez va noto'g'ri boshqarishni boshlashi, harakatlarning maqsadini yo'qotishi va topshiriqni oxirigacha bajarmasligi bilan ifodalanadi. Vazifani bajarishdan faol rad etish ko'pincha eksperimental vaziyatni buzadigan tajovuzkor harakatlar shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi reaktsiya organik qo'zg'aluvchanlik, patokarakterologik xususiyatlarning shaxsiy rivojlanishidagi og'ishlar bilan yuzaga keladi. Vazifani bajarishdan passiv rad etish aqliy jarayonlari bo'lgan bolalarda uchraydi. agar 3 yoshdan oshgan bola doimo kattalarga murojaat qilsa, u to'g'ri ish qilyaptimi yoki yo'qmi deb so'rasa, bu infantilizm belgisi yoki haddan tashqari himoyalangan tarbiya natijasi bo'lishi mumkin.

### **REFERENCES**

1. Возрастная анатомия, физиология и гигиена: программа курса и планы семинарских занятий: Воронеж. гос. ун-т; сост. Ю.А. Гончарова – Воронеж: ИПЦ ВГУ, 2007. – 19 с.
2. Громова З.П. Гигиена и физическое воспитание школьника в семье / З.П. Громова. – Мн.: Высш. шк., 1973. – 143 с.
3. Ежова Н.В. Педиатрия: учеб. пособие / Н.В. Ежова, Е.М. Русакова, Г.И. Кащеева. – Мн.: Высш. шк., 1999. – 524 с.
4. Жучкова А.И. Тестовые задания по анатомии, физиологии и гигиене: учеб. пособие для школьников по анатомии, физиологии и гигиене / А.И. Жучкова, В.В. Чурикова, М.А. Наквасина; Воронеж. гос. ун-т, Гимназия им. Н.Г. Басова. – Воронеж: ВГУ, 2001.– 43 с.

- 
5. Матвеев Н.И. Самостоятельные работы учащихся по анатомии, физиологии и гигиене человека: пособие для уч. / Н.И. Матвеев. – М.: Просвещение, 1986. – 112 с.
  6. Матюшонок М.Т. Физиология и гигиена детей и подростков: учеб. пособ. для пед. ин-тов / М.Т. Матюшонок, Г.Г. Турик, А.А. Крюкова; под ред. М.П. Кравцова. – 2-е изд., перераб. – М.: Высш. шк., 1980. – 285 с.
  7. Никишов А.И. Дидактический материал по анатомии, физиологии и гигиене: пособие для учителей биологии и уч-ся / А.И. Никишов. – М.: РАУБ; Топикал, 1995. – 117 с.

## **ABDULLA AVLONIY ASARLARINING LINGVOPOETIKASI XUSUSIDA**

**Muxamatova Dilbar Xayot qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 202-guruh talabasi

Taqrizchi: Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi,

**f.f.n. N.X.Dosanov**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Abdulla Avloniy ijodining leksik-grammatik jihatlari yoritilib, she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari masalasi tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlari:** lingvopoetika, leksik poetika, fonetik poetika, antonim, metafora, metonimiya.*

### **ON THE LINGVOPOETICS OF ABDULLA AVLONI'S WORKS**

#### **ABSTRACT**

*This article highlights the lexical and grammatical aspects of Abdulla Avloni's work and pays special attention to the analysis of the linguopoetic features of his poems.*

***Keywords:** lingvopoetics, lexical poetics, phonetic poetics, antonyms, metaphors, metonymy.*

#### **KIRISH**

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi har bir adabiy davrning muhim ilmiy-nazariy masalalari, muammolari bilan boshqa tilshunoslik sohalaridan ajralib turadi va bu masalalar uning o'ziga xos xarakterli xususiyati hisoblanadi, desak yanglishmaymiz. Zero, badiiy ijod namunalarimiz, mukammal adabiy merosimiz lingvopoetik xususiyatlarini to'laqonli tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlari o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli bir yo'nalishga aylanib ulgurdi. Ma'lumki, nutqiy faoliyatning o'ziga xos noyob turi- bu badiiy adabiyotdir. Uning til birliklari tadbiiq etishda lingvopoetik tahlil muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetika

tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi<sup>46</sup>.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Lingvopoetikaning poetik fonetika yo'nalishi yozuvchi tomonidan tanlab olingan uslubni yaratishda ma'lum tovushning o'ziga xos tarzda o'zgarishi, orttirilishi va shunga o'xshash holatlarning yuzaga chiqishi yordamida hosil bo'ladi.

Buning yorqin misolini Abdulla Avloniy ijodida ko'rishimiz mumkin:

1. Dushun joni azizing, ehtiyot et,

Musaffo bo'l, **pay(g')ambar** ortidan ket. ("Safihat — ayni falokat")

2. Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,

Jon sadqa **bo'(l)sun** xulqina, fazl-u karamina. ("Na'ti hazrati rasuli akram")

3. Bir firqa **e(y)tar**: «Sa'yi jadal vasla eturgay»,

Bir firqa buni «soyai taqdir» qilurlar. ("Hofizdan tarjima")

Poetik leksikologiya yo'nalishining tadqiqot ko'lami juda keng qamrovlidir. U o'z doirasida sinonim, omonim, antonim so'zlarni, ma'no ko'chishlarining barcha jabhalarini (metafora, metonimiya, sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya), chegaralangan leksikalarni (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) tahlil qiladi.

Ma'no ko'chishi bir predmet nomining keyinchalik boshqa predmetni anglatish xususiyatiga ega bo'lishidir. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotganlik yoki undan ortiq predmet o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Ma'no ko'chishning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi turlari mavjud.

Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash metafora deyiladi. Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin<sup>2</sup>. (2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent 2004. 129-bet)

Ma'rifatparvar shoirimiz ijodida betakror yashirin o'xshatishlar (metaforalar) bisyordir:

<sup>46</sup> Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: Fan. 2008. - B. 152

1. **Yengil** ishlarni qilurlar o'zgarlar san'at bilan,  
**Qof-qaro** xidmat bizimkidurki, o'lmas joni bor. ("Bizlarda nimalar bor")

2. Bir tarafdin ilmsizlik, bir tarafdin xorlik  
**Tutdi** millatning yaqosindin — qutulmog'i mahol. ("Millat holidan bir  
jigarso'z")

3. **Ketdi** g'aflat, **keldi** ulfat — **tug'di** davri intiboh,  
Qayda ko'rsang yoshlari, bir tug'madek qardoshlar. ("Sayohat samarasi")

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonimiya usulida ma'no ko'chganida narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy ; vaqt ; harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita; narsa va uning egasi, yaratuvchisi; narsa va u yasalgan modda kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyaliligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi<sup>3</sup>. (3.Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.. Toshkent:2004 127-bet) Avloniy Turkistonimizning rangsiz, jonsiz hayotini tasvir ekan, tasvir manzarasining jozibadorligini metonimiya orqali aks ettiradi:

1. Har kun chiqib **samovarga**, ulfat bo'ldim yamonlarga,  
O'rgandim qimor o'ynashni, yo'ldosh bo'lub chafanlarga. ("Jaholat qurboni")

2. **Samovarga** chiqishub yosh-qari chuldirashur,  
Ertadan kechg'acha choyni ichadur sho'ldur-sho'ldur O'z maishatimizdan")

3. To'ldi tobe'lig'imiz **Rusiyaga** ellik yil,  
Bilmayin rus lisonin, ko'zimiz mo'ldur-mo'ldur. ("O'z maishatimizdan")

Avloniy asarlarining lirik qahramoni zulm ostida ezilayotgan Turkistonni ziyo tomon yetaklovchi , millatining qoloqligidan azoblanuvchi, mustabid tuzum siyosatidan qoniqmaslik hissini tuyuvchi elparvar, millatparvar insondir. Ijodkor ilmsizlik botqog'iga botayotgan millatiga ma'rifatni, ilm-u urfonni tilar ekan, bu

jabhada ancha oldinlab ketib ,“ so’yi samo<sup>4</sup>”( H.H.Niyoziy )da hikmat topib uchib yurgan o’zga ellarni ibrat qilib ko’rsatadi.

Ana shu o’rinda antonim so’zlardan mohirona foydalanadi:

1. **Xazon** bolg‘on **gulistondur**, gulini ixtiyor etmaz,  
Sizingdek bing muxotib dodi faryodi mador etmaz. (“Ushbu “Adabiyot”a Turkiston ahlidan javob”)

2. Bu vatan — **shoh-u gado, yaxshi-yamon** yaksonidur,  
Bu vatan hajrinda har kun necha jon qurbonidur.(“ Bir qabristina nazar”)

3. **Mehr-u shafqat** o’zgada, bizlardadur **kin-u nifoq**,  
Qaysi ummatning bizimdek besar-u somoni bor?(“ Bizlarda nimalar bor”)

Abdulla Avloniy she’riy asarlarida mazmundorlikni yana-da oshirish, lirik qahramon holatini asar bilan tanishib chiqayotgan kitobxonga “yuqtirish” uchun uyadosh so’zlardan yetarlicha foydalanadi:

1. **Olma-anor, anjir, uzum** — mevalaring,  
**Ot-u ho‘kuz, echki, taka, tevalaring.**

Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,  
Har birlari noz-u ne’mat parchalari. (“Vatan”)

2. Bog‘laridur shirin-sharbat,  
**Anjir, uzum, anor, nashvat.** (“Hijron so’zi”)

3. **Faqirlar** siylanur har yerda joriy xayr ila ehson,  
**G‘arib-u benavo, miskin, yetimlar** shod ila xandon. (“Haj”)

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar ijodkor, milliy Uyg’onish davri o’zbek adabiyotining taniqli vakili, jamoat arbobi Abdulla Avloniyning ijodini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo’nalishlarini o’zida jamlaganligining guvohi bo’lamiz. Avloniy asarlaridagi fonetik poetika ,asosan ,fe’llarda hosil bo’lishini ko’rishimiz mumkin. Leksik poetika orqali shoir tazod, tanosub, tashbeh, istiora kabi sa’natlarda yangidan yangi topilmalar kashf etganligi mahoratli qalam sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy she’riyatida mustamlaka davr pafosi, jonkuyar millat farzandlarining ichki kechinmalari, ilm-u ma’rifat sohibqadamlarining ruhiyati juda

ta'sirli ravishda ochib berilgan. Asarlarining tili juda sodda va o'ynoqi. Bu soddalik o'qilishda yengillik yaratishi bilan bir qatorda yodda ham tez qoladi.

Abdulla Avloniy – o'zbek farzandi. Xalqi dardiga hamdard bo'libgina qolmay, xalqiga baxt va ozodlik yo'lini izlagan, muqaddas g'oyalar uchun kurashishga da'vat etgan millat o'g'loni. Chin ma'noda o'zbek tamadduniga tamal toshini qo'ygan jaded.

#### **REFERENCES**

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 1-jild.- Toshkent :Ma'rifat, 2009.
2. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi.-Toshkent: Fan. 2008.- B.152.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent. 2005.- B. 156.
4. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent: ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI, 2004.



## **HINDISTONDA INGLIZ MUSTAMLAKACHILIK TIZIMINING YEMIRILISHI, DEMOKRATIK TAMOYILLARNING QAROR TOPISHI**

**Mirjalol Rustamaliyev Hayrullo o'g'li**

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi magistranti

E-mail: [mirjalolrustamaliyev@gmail.com](mailto:mirjalolrustamaliyev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Hindistonda demokratik tamoyillar ilk elementlarining qaror topishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. O'tmishda demokratik tushunchalarning dastlabki ko'rinishlari shakllangan. Zamonaviy davrda Hindistonda demokratik tamoyillarning rivojlanib borishi mustqillik yillaridan to bugungi kunga qadar davom etgan qariyb yarim asrni qamrab oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Kongress, demokratik tamoyi, Kengashi Akti, Rezolyusiyasi, Konstitutsiyaviy Assambleya, dominant partiya tizimi, Iqtisodiy razvedka birlashmasi, kasta, sikh, anarxiya, oppozision partiya.*

### **ANNOTATION**

*The establishment of the first elements of democratic principles in India dates back to long historical periods. In the past, the first manifestations of democratic concepts were formed. The development of democratic principles in India in modern times spans almost half a century from the years of independence to the present day.*

**Keywords:** *Congress, Democratic Principle, Council Act, Resolution, Constitutional Assembly, Dominant Party System, Economic Intelligence Association, Caste, Sikh, Anarchy, Opposition Party.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Установление первых элементов демократических принципов в Индии восходит к длительным историческим периодам. В прошлом формировались первые проявления демократических концепций. Развитие демократических принципов в современной Индии охватывает почти полвека с момента обретения независимости до наших дней.*

**Ключевые слова:** *Конгресс, Демократический принцип, Закон Совета, Резолюция, Конституционная ассамблея, Система доминирующей партии, Ассоциация экономической разведки, Каста, Сикх, Анархия, Оппозиционная партия.*

### **KIRISH**

Hindiston ko'p millatli, murakkab ijtimoiy qatlamga ega davlat hisoblanadi. Hindistonda demokratiyaning mohiyati mamlakat siyosiy an'analari orqali

tushuniladi. Ayrim tadqiqotchilar Hindistonda demokratiya tamoyillarning kirib kelishini mustamlakachilik siyosati bilan bog'lashadi. Xususan, Hindistonning uzoq yillar davomida jahondagi eng demokratik tipdagi davlat hisoblangan Buyuk Britaniya ta'sir doirasida bo'lishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy tartibotlarga o'z ta'sirini o'tkazgan<sup>47</sup>. Hindistonda G'arbda ta'lim olgan J.Neru singari siyosiy elitalarning shakllanishi, Kongress yetakchiligidagi jamoa harakatlarning demokratik faoliyati, mustaqillik uchun o'tkazilgan saylovlarda Kongressmenlarning ishtirok etishi demokratiyaning rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan deyish mumkin<sup>48</sup>.

Mamlakat mustaqilligidan so'ng jamiyat va davlat qurilishini amalga oshirishini faqatgina siyosiy an'analar orqali tashkil etish o'z samaradorligini ma'lum darajada yo'qotdi va bevosita mustamlakachilik siyosiy tizimining ijobiy jihatlarini siyosiy hayotga tadbiq etish zarurati paydo bo'ldi. Natijada 1947-yil Hindiston Ozodlik Harakati yetakchilari demokratiyani tanlaganliklari uchun mustamlaka davridagi boshqaruvni amalga oshirishda ayblanib, qoralana boshlandilar.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Aytish mumkinki, Britaniya imperiyasi Hindistonda boshqaruvni amalga oshirishda demokratik prinsiplarga muayyan darajada e'tibor qaratdi, xususan, ma'muriy birliklar boshqaruvida an'anaviy xususiyatini saqlab qoldilar va ichki ishlariga to'liq aralashmadilar. 1880-yillardan boshlab Hindistonda siyosiy uyg'onish jarayoni yuz bera boshladi. 1885-yilda Britaniya sobiq Fuqarolik xizmati hodimi Alan Oktavian Xyum tomonidan hind manfaatlarini imperiya markaziga tizimli tartibda yetkazish maqsadida Hindiston Milliy Kongressi tashkil etildi. Keyinroq Hindiston Milliy Kongressi mamlakatning o'rta sinflari uchun mustamlaka hukumatidan ko'proq ish o'rinlarini muntazam talab qilib borish va siyosiy jarayonlarda kengroq ishtirok etishida yetakchi institutga aylandi<sup>49</sup>.

Hindistonda ilk saylov tajribasi 1882-yilgi Mahalliy o'z-o'zini boshqaruv Rezolyusiyasida (Resolution on Local Self-Government) va 1892-yilgi Hindiston Kengashi Aktida (Indian Councils Act) namoyon bo'la boshladi. Ikki xujjat juda cheklangan saylov vakolatini taqdim etgan bo'lib, unda boylik senzi o'rnatilgan edi. To'g'ridan-to'g'ri saylov tamoyili 1919-yilgi Hukumatning Hindiston Aktida belgilab berilgan va darhol mahalliydan to' milliy darajagacha bo'lgan barcha siyosiy jarayonlarga tadbiq etildi. Ushbu siyosiy erkinlik mamlakat aholisining 2- 4%

<sup>47</sup> See. Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.38-39

<sup>48</sup> Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. –Vol.2. –P.94

<sup>49</sup> Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. –2002. –Vol.4. –№1. –P.39-40.

qismiga saylovchi maqomiga ega bo'lish imkoniyatini yaratdi. 1937-yilda 1935-yilda qabul qilingan Hukumatning Hindiston Aktiga binoan savodxonlik ham saylovda ishtirok etishning asosiy talablardan biri sifatida belgilab o'tildi, bundan tashqari ilk bor hind siyosatchilari ma'muriy birliklar-shatatlar qonunchilik institutlarida siyosiy kuchga ega bo'lish imkoniyatini ham qo'lga kiritishdi. Mustaqillik arafasida Hindistonda taxminan 40 millionga yaqin saylovchilar mavjud edi. Buni 1946-yil Konstitutsiyaviy Assambleyaga bo'lib o'tgan saylovlardan ham kuzatish mumkin, unda aholining 14%i ishtirok etish huquqiga ega bo'lishgan. Saylov huquqiga ega bo'lganlarning 39%igina mazkur ovoz berish jarayonida ishtirok etgan xolos.

Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng 1951-1952-yillarda ilk bor Parlamentning Qonunchilik palatasi – Lok Sabhaga o'tkazilgan saylovlarda umumiy yosh senziga amal qilingan. To hozirgacha Lok Sabha uchun o'tkazilgan 14 marta umumiy saylovlarda aholining siyosiy jarayonlardagi ishtirok yuqori ko'rsatkichda ekanligini kuzatish mumkin. Ta'kidlash joizki, Hindiston mutaqilligining dastlabki yillaridan boshlab Hindiston Milliy Kongress partiyasi siyosiy hayotda yetakchi partiyaga aylandi va siyosiy raqobatning shakllanishida muhim rol o'ynay boshladi.

E'tirof etish kerakki, Hindistonda demokratiyaning rivojlanishida siyosiy partiyalarning o'rni katta ahamiyatga ega. 1951-1952-yillarda Hindiston konstitutsiyasi 170 million aholiga o'z hukumatlarini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini berdi. Endilikda aholi o'z manfaatlarini turli siyosiy guruhlar, harakatlar va partiyalar orqali bildirishga intila boshladilar. Shunga qaramay Hindistonda ko'p hollarda siyosiy partiyalarga nisbatan mamlakatda aholi o'rtasidagi sun'iy bo'linishni yuza keltirmoqda va jamiyatda deintegratsiya jarayonini kuchaytirmoqda degan qarashlar ham uchrab turadi. Biroq bu avvalo siyosiy partiyalar faoliyati bilan emas, balki Hindiston ijtimoiy hayotida tarixan shakllanib kelgan turli diniy-etnik qatlamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar bilan xarakterlanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda jamiyatdagi deintegratsiya tendensiyasining siyosiy oqibatlarini nazorat etish siyosiy partiyalarning funksiyalaridan biriga aylanib bormoqda.

Hindistonda partiyaviy tizim “dominant partiya tizimi” (“dominant party system”) doirasida boshlangan bo'lib, uning markaziy qismida Hindiston milliy Kongressi (HMK) yetakchi o'rinni egallagan. Olim Kotxari e'tiroficha, Hindiston Milliy Kongressi Ozodlik Xarakatining merosxo'ri bo'lib, mamlakatning asosiy institutlaridan biri sanaladi<sup>50</sup>. Keyingi yillarda Kongress partiyasining ta'siri

<sup>50</sup> Kothari R. Continuity and Change in the Indian Party System // Asian Survey. –1970. –№10 (11). –P.53.

cheklangan bo'lsada, Hindistondagi barqaror siyosiy tartibotning shakllanishida uning o'rni katta ahamiyatga ega ekanligi olim tomonidan ta'kidlanadi.

Siyosiy tizim esa nisbatan Kongress tizimi deya ko'rilgan. "Dominant partiya tizimi" shu ma'noni anglatadiki, unda partiyalar o'rtasida erkin raqobat muhiti mavjud, biroq Hindiston Milliy Kongress partiyasi ustun mavqega ega hisoblanadi: mamlakat parlamentdagi o'rinlar soniga ko'ra, shtatlar ya'ni ma'muriy birliklardagi qonunchilik kengashlarida yetakchilik qilishga ko'ra. Buni 1952-1977, 1980-1989, 1991-1996-yillar Kongress partiyasining mamlakatda boshqaruvchi kuchga aylanganligi bilan izohlash mumkin. 1977-yildan boshlab mamlakatda samarali faoliyat yurituvchi o'zaro raqobatdosh ko'p partiyali tizim yuzaga keldi<sup>51</sup>.

Hindistonda partiyaviy tizim bitta yirik partiya atrofida o'zga kichik partiyalarning vujudga kelishi orqali shakllangan, bu real raqobat muhitining shakllana olmasligini ko'rsatadi. Shu bois yuqori darajadagi mansabdor shaxslar garchi partiyaning siyosiy qarashlari bilan chiqisha olmasada partiya a'zosi bo'lishi yoki Kongress partiya bilan hamkorlikdagi o'zga kichikroq partiya vakili bo'lishi zarur hisoblanadi. Boshqa tomondan Kongress partiyaning o'zga partiyalar bilan ittifoqqa birlashishi ularni va siyosiy jarayonlarni o'z nazorati ostida tutib turish imkoniyatini beradi.

Hindiston Milliy Kongress partiyasi mamlakatda yetakchi siyosiy mavqeni egallasa-da, partiya ichida o'zaro bo'linishlar ham muntazam kuzatilib turiladi. Bu partiyaning yagona g'oyalari samarali amalga oshirishdagi asosiy to'siq sanaladi. Bugungi kunga qadar birorta demokratik tizimda yagona partiya raqobat muhitida demokratik saylovlarda ishtirok etgan holda o'z raqiblari ustidan ulkan muvaffaqiyatlarga erishishi kuzatilmagan. Biroq bunday muvaffaqiyat ham HMK partiyasiga o'zining barcha muammolarini yengib o'tishiga imkon bermadi. Ushbu izohlar Hindiston milliy kongressi partiyasining 1980-yillarga bo'lgan davrdagi asosiy xususiyatlarini ochib beradi. Keyingi yillarda HMK partiyasidagi ichki nizolar va oppozision partiyalarning faoliyati sababli mamlakatda yetakchi mavqega ega bo'lgan partiyalar shakllana boshlandi. Lok Sabhaga bo'lib o'tgan 1996, 1998 va 1999-yillardagi saylovlar partiyaviy tizimning markazlashmaganlik holati ko'rsatdi. Saylovlarda ikki yirik Hindiston Milliy Kongressi partiyasi va Bxaratiya Janata Partiyasi 50 ovoz to'plagan bo'lsa, parlamentdagi qolgan depututlik o'rinlari bir qator kichik partiyalar tomonidan taqsimlanib olindi<sup>52</sup>. Bu esa 1990-yillarning

<sup>51</sup> Kohli A. India's Democracy. An Analysis of Changing State-Society Relations. –New Jersey: Princeton University Press, 1990. –P.145-147.

<sup>52</sup> Palekar S.A. Constitution and Parliamentary Democracy in Contemporary India. –Jaipur: ABD Publishers, 2002. – P.78-7-81.

ikkinchi yarmidan boshlab, kichik siyosiy partiyalar ham shtatlar siyosiy maydonida o'z mavqelariga ega bo'la boshlaganliklarini ko'rsatadi. Ular qatoriga Andra Pradesh shtatida Telugu Desam partiyasi, Tamil Nadu shtatida Dravida partiyasi, Panjobda Akali Dal partiyalarini kiritish mumkin. Hindistonda HMK partiyasining siyosiy ta'sirini qisqartirish intilish asosan Bxaratiya Janata partiyasi tomonidan amalga oshirilgan va 1980-yillardan so'ng Hindistonda ikki partiyali tizim shakllana boshlandi. Bxaratiya Janata Partiyasi (BJP) (Bharatiya Janata Party (BJP)) 1990-yillardan boshlab Hindistonda partiyalar o'rtasidagi raqobat muhiti keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Bxaratiya Janata partiyasi 1996, 1998 va 1999-yilgi saylovlarda katta muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ushbu partiyaning ta'sir doirasi ortib borishi ikki tarixiy xususiyati bilan ajralib turadi: *Birinchi*dan, partiya hind fundamentalizmi negizida rivojlanganligi; *ikkinchi*dan J.Neru va Sh.Gandi boshqaruv davrida Hindiston Milliy Kongress partiyaning mutloq yetakchiligiga qarshi keng qarshiliklarni amalga oshirishga rahbarlik qila olganligi. 1989-yildan boshlab Bxaratiya Janata partiyasi ikkinchi asosiy siyosiy partiyaga aylandi, ammo HMK partiyasi singari hukumatni yolg'iz o'zi boshqarish uchun yetarlicha imkoniyatga ega emas, shu bois doimo ushbu partiya shatatlardagi kichik partiyalar bilan hamkorligiga qaram hisoblanib kelgan.

Bxaratiya Janata partiyasi asosan jamiyatdagi hind nasionalistlari va shu ruhdagi qatlamlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Partiya asosiy siyosatini mamlakatdagi millatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, xususan, hind va musulmonlar munosabatlaridagi keskinligini yengillatishga intilishi partiyaning obro'sini oshishiga xizmat qilmoqda. Natija 1999-yilgi Lok Sabhaga bo'lgan saylov BJPning ikkinchi hind partiyasi sifatida e'tirof etdi. Qolgan hind siyosiy partiyalari asosan mayda partalar bo'lib, ular siyosiy hayotda ikki yirik partiyalarni birortasi bilan koalisiya kirishib faoliyat yuritadi. Hindiston kommunistik partiyasi, Janata Dal partiyasi, Baxujan Samaj partiyasi, Rashtriya Janata partiyasi, Samajvadi partiyasi shular jumlasidandir. Ular orasidan faqatgina kommunistik partiya milliy darajada faoliyat yuritib, qolganlari o'z mintaqalaridagina muayyan siyosiy mavqega ega. 2006-yilda Iqtisodiy razvedka birlashmasi (The Economist Intelligence Unit) tomonidan o'tkazilgan davlatlarning demokratik indeksiga ko'ra Hindiston jahondagi davlatlar orasida 36 o'rinni egallagan. Bu juda yaxshi ko'rsatkich sanalib, mamlakatda demokratik tamoyillar jadal rivojlanayotganligini anglatadi. Hindiston 10 ballik yuqori ko'rsatkichdan 7.68 bal to'plagan. Mazkur tadqiqot beshta ko'rsatkich asosida tuzilgan:

1. Saylov jarayoni va plyuralizm – 9.58 ball;

2. Fuqaro erkinliklari – 9.41;
3. Hukumat faoliyati – 8.21;
4. Siyosiy ishtirok – 5.56;
5. Siyosiy madaniyat – 5.63.

Aytish mumkinki, tashkilot tadqiqotiga ko‘ra Hindistonda demokratik qadriyatlarning qaror topishida siyosiy ishtirok va siyosiy madaniyat nisbatan past ko‘rsatkichda bo‘lib, kelgusida aholining siyosiy jarayonlarda faolligini yanada oshirish choralari ko‘rish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan<sup>53</sup>.

Hindistonda demokratiyaning rivojlanishini tahlil etgan olimlar ijobiy fikrlar bilan bir qator salbiy munosabatlarini bildirgan. Ular mamlakatda anarxiyaning ba’zir jihatlari mavjudligini ta’kidlashmoqdalar. Ularning fikricha, demokratiya ichki va tashqi barqaror siyosat yuritish omili bo‘lishi zarur. Hindistondagi diniy-etnik nizolar va tashqi urushlar mamlakatdagi demokratik tamoyillarni cheklayotganligi borasidagi qarashlar ham mavjud<sup>54</sup>. Buning sababi sifatida dinlar va kastalar o‘rtasidagi zo‘rovonliklarning tez-tez yuz berib turishini keltirishadi. Buning tarixiy ildizi 1947-yildagi Britaniya Hindistonida amalga oshirilgan hududiy bo‘linishga borib taqaladi. Mazkur siyosat natijasida mamlakatda qarama-qarshilik nuqtalari vujudga kelib qolgan. Biharidagi kastalar o‘rtasidagi fuqarolik urushlari, Panjobda markaziy hukumat va sikxlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar; Uttar Pradesh shtatidagi hindlar va musulmonlar o‘rtasidagi nizolar buning yaqqol namunasi. Hindiston demokratiyaning yana bir asosiy jihati shundan iboratki, “uchinchi dunyo” mamlakatlarida mavjud demokratik elementlarning katta qismi bevosita hind demokratiyasiga yaqindir. Ushbu holat Hindistonda demokratiyaning o‘ziga xos tamoyillar asosida rivojlanayotganligini anglatadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, Hindistonda demokratiyaning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda quyidagi tarixiy jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

*Birinchidan*, Hindistonda demokratiyaning zamonaviy tamoyillarining qaror topishi Buyuk Britaniya imperiyasi mustamlakachiligi, davlat boshqaruv tizimida qo‘llagan tajribasi bilan bog‘liqdir. Mamlakatning mustaqillikka erishishi Hindistonda demokratik davlat barpo etish imkoniyatini yaratdi;

<sup>53</sup> [www.economist.com/media/pdf/DEMOCRACY\\_INDEX\\_2007\\_v3.pdf](http://www.economist.com/media/pdf/DEMOCRACY_INDEX_2007_v3.pdf)

<sup>54</sup> Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –P.45-47.

*Ikkinchidan*, Hindiston siyosiy elitasining katta qismi G'arb an'analari asosida ta'lim olganligi va ulardagi g'arb davlatchilik tajribasi bilan yaqindan tanishligi mamlakatda mustaqillik yillaridan so'ng demokratiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi;

*Uchinchidan*, mustaqillik yillaridan keyingi davrda mamlakatda Hindiston Milliy Kongress partiyasining yuqori mavqeni egallashi va 1990-yillarga qadar o'z ta'sirini saqlab qolishi, uning bugungi kunda Bxaratiya Janata partiyasi bilan raqobati ikki partiyali tizimning shakllantirganligi ham demokratiya rivojlanishining asosiy jihatlarini belgilab berdi.

*To'rtinchidan*, Hindistondagi demokratik tartibot sharoitida anarxiyaning saqlanib qolganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilishi. Bunda asosiy e'tibor mamlakatning ichki va tashqi siyosatida beqarorlik elementlarining mavjud bo'lishi bilan izohlanadi. Ular qatoriga hind-musulmon munosabatlari, sikx ayirmachilik faoliyati, Pokiston bilan bo'lib o'tgan urushlarni keltirish mumkin. Biroq mazkur yondoshuvlar nisbatan tarixga daxldor bo'lib, hozirgi kundagi Hindistondagi siyosiy tizimni demokratik tamoyillarga asoslanmagan deb xulosa berish maqsadga muvofiq emas va bir tomonlama qarash hisoblanadi.

## REFERENCES

1. See. Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. – 2002. –Vol.4. –№1. –P.38-39
2. Mitra S.K. Effects of Institutional Arrangements on Political Stability in South Asia // Annual Review of Political Science. –Palo Alto –1999. –Vol.2. –P.94
3. Fischer A., Mitra S.K. Sacred Laws and the Secular State // India Review. – 2002. –Vol.4. –№1. –P.39-40.
4. Kothari R. Continuity and Change in the Indian Party System // Asian Survey. – 1970. –№10 (11). –P.53.
5. Kohli A. India's Democracy. An Analysis of Changing State-Society Relations. –New Jersey: Princeton University Press, 1990. –P.145-147.
6. Palekar S.A. Constitution and Parliamentary Democracy in Contemporary India. –Jaipur: ABD Publishers, 2002. –P.78-7-81.
7. [www.economist.com/media/pdf/DEMOCRACY\\_INDEX\\_2007\\_v3.pdf](http://www.economist.com/media/pdf/DEMOCRACY_INDEX_2007_v3.pdf)
8. Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –P.45-47.
9. Varshney A. India's Democratic Challenge // Foreign Affairs. –March-April 2007. –P.45-47.

## **ABU MANSUR AL-MOTURIDIYNING BILISH FALSAFASIDA SHAXS MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI**

**Xursanov Chingiz Lapas o'g'li**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni hamda allomaning fikr-mulohazalarining ilmiy tahlili to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Abu Mansur Moturidiy, moturidiylik ta'limoti, falsafiy me'ros, shaxs ma'naviyati, diniy dunyoqarash.*

### **ABSTRACT**

*This article provides information on the role of the philosophical heritage of Abu Mansur Moturidi in the development of personal spirituality and the scientific analysis of the views of the scholar. Keywords: Abu Mansur Maturidi, maturidi teachings, philosophical heritage, personal spirituality, religious worldview.*

***Keywords:** Abu Mansur Moturidi, Moturidi teachings, philosophical heritage, personal spirituality, religious worldview.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлены сведения о роли философского наследия Абу Мансура Мотуриди в развитии духовности личности и научный анализ взглядов ученого. Ключевые слова: Абу Мансур Матуриди, учение матуриди, философское наследие, духовность личности, религиозное мировоззрение.*

***Ключевые слова:** Абу Мансур Мотуриди, учение Мотуриди, философское наследие, духовность личности, религиозное мировоззрение.*

### **KIRISH**

O'zbekiston - buyuk allomalar yurti! Darhaqiqat, Vatanimiz qanchadan-qancha ulug' siymolar, olim-u fuzalolarning yuksak ilm cho'qqilarini zabt etishiga sababchi bo'lgan maskandir. Bu yurt o'zining go'zal tabiati, hushsvrat insonlari, umuman olganda, jannatga tenglashtirilgan ulug' sifatleri bilan buyuk siymolarni bag'rida tarbiyalagan zamindir. Milodiy IX asrda Somoniylar sulolasi davrida dunyoga kelgan buyuk mutakallim, aqid va kalom ilmining sultoni Abu Mansur Moturidiy ham shu yurtning ko'hna Samarqand diyorida voyaga yetib, diniy va dunyoviy ilm ravnaqi uchun o'zining munosib xissasini qo'shishga muvaffaq bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, millionlab musulmonlar qalbiga muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalarini singdirishda buyuk vatandoshimiz imom Abu Mansur



Moturidiy hazratlari va ul zot asos solgan “Moturidiylik maktabi”ga mansub allomalarning xizmatlari benihoya kattadir. Abu Mansur Moturidiyning shaxsiyati va ilmiy faoliyatini o‘rganish hamda shunday ulug‘ siymoni xalqqa tanitish ilmiy tadqiqot ishimizning bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu bois Abu Mansur Moturidiy va moturidiylik ta’limotining g‘oyalarini shaxs ma’naviyatini shakllantirish hamda rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganish mavzuning naqadar dolzarb ekanligini belgilab beradi. Shaxs ma’naviyatini yuksaltirish masalasi barcha davrlarda ham dolzarb mavzulardan biri sifatida o‘rganib kelingan. Chunki jamiyatning ma’naviy qiyofasi unda yashayotgan insonlarning ma’naviy yetuklik darajasi bilan o‘lchanadi. Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash jarayoni davlat va jamiyat a’zolarining zimmasiga juda katta mas’uliyatlarni yuklaydi. Bu borada mamlakatimizda xadishunoslik, kalom ilmi, islom huquqi, tasavvuf, aqida ilmi kabi maktablarning tashkil etilishi diniy va dunyoviy ilmning o‘zaro muvofiqligini ta’minlay oladigan malakali kadrlarni yetishtirish uchun asos bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 16-aprelda qabul qilingan “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-sonli farmonning qabul qilinishi ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan xissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganishga, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalashga shuningdek, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashga huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Nega insoniyat har doim ma’naviyatga zaruriyat sezib yashaydi?, Ma’naviyatning shaxs kamolotida qanday o‘rni bor?, Ma’naviyatsiz yashash mumkinmi? Mana shu kabi savollar olim va ulamolarning ilm yo‘lida mashaqqat chekishiga hamda insoniyat jamiyatini yaxshilash uchun xizmat qilishiga undagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida buyuk ajdodlarimizni xotirlab, shunday ta’kidlagan edi: “...ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va osoyishta hayotning qadrini anglab yetadi<sup>55</sup>” . Buyuk mutakallim “Abu Mansur Moturidiy bobomizning o‘rta asrlardagi g‘oyat hatarli va tahlikali bir vaziyatda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, avlodlarga ibrat

<sup>55</sup> [http://president.uz/2020-yil-24-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi](http://president.uz/2020-yil-24-yanvar-O'zbekiston-Respublikasi-Prezidenti-Shavkat-Mirziyoyevning-Oliy-Majlisga-murojaatnomasi)

bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasi ko'rsatib, islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi", degan yuksak sharaftga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi.<sup>56</sup> Abu Mansur Moturidiy o'zining barcha asarlarida zalolatning har qanday ko'rinishlaridan yiroq bo'lgan, insonlarning mavjud ijtimoiy-ma'naviy muhitida sog'lom ma'naviy tafakkurni targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari, shuningdek sof diniy-falsafiy qarashlari bilan o'sha davrning diniy mutaassiblari va buzg'unchi g'oya tarafdorlariga keskin raddiyalar bergan. Bu urinishlari samarasi o'laroq o'z zamonasidayoq "Hidoyat imomi" unvonini olishga sazovor bo'lgan. Allomaning 15 ga yaqin asarlar ustida tadqiqot olib borganligi ma'lum bo'lsada, bizgacha shayx xazratlarining 2 ta mashhur asari yetib kelgan. Ular "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlari. Abu Mansur Moturidiy bu asarlari orqali insoniyat yaratilishining falsafiy mohiyati, tavhid ilmi, borliqning insonga ta'siri, ruhiyat ilmi, inson kuch-qudratining ma'lum chegarasi, iroda erkinligi, dunyo va oxiratni anglash kabi masalalar to'g'risida Qur'oni karim oyatlariga asoslanib, ko'plab ma'lumotlar taqdim etgan. Allomaning mashhur shogirdi Abul-Mu'in an-Nasafiy ustozining buyuk xislati va kuchli salohiyatini ulug'lab, shunday ta'kidlagan edi: "Abu Mansur al-Moturidiy imomlarning ulug'i va millatning ustuni edi. Uning Qur'onga yozgan tafsiri barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shubhali qora bulutlarni haydovchi hamda nihoyatda bolig' vasf ila yaratilgan asardir. Alloh shunday kitobni yozgan zotga o'z salomini yo'llasin."<sup>57</sup> Abu Mansur Moturidiy ana shunday yuksak ehtiroimga loyiq bo'lgan qomusiy allomadir. Abu Mansur Moturidiyning aynan aqid va kalom ilmi bilan shug'ullanishiga o'sha davrda vujudga kelgan, insonlarni iymon-e'tiqod masalasida noto'g'ri yo'nalishlarga boshlaydigan turli xildagi talqinlar va chalkashliklarning ko'payib borayotganligi sabab bo'ladi.

## **MUHOKAMA VA TAHLILLAR**

Abu Mansur Moturidiy shaxs ma'naviyati va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ularning diniy-falsafiy jihatlarini bir qancha yo'nalishlarga bo'lib o'rganadi.

**Inson erkinligi masalasi.** Abu Mansur Moturidiy, eng avvalo, insonlarning xatti-harakatlarini ontologik jihatdan aniq haqiqat sifatida qabul qiladi va bu fikrni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, har bir inson o'z harakatlarining haqiqiy egasidir. Insonning o'z xatti-harakatlarining mutlaq sohibi ekanligi, ham aqlan, ham ruhan erkinligi Qur'on oyatlari bilan ochiq-oydin ma'lum qilingandur. Shu

<sup>56</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", T.: "Ma'naviyat" nashriyoti 2008 y. 39-bet

<sup>57</sup> F.Muhammadiyev "Mutafakkirlar", "Movarounnahr" nashriyoti T; 2011, 45b

haqiqatdan kelib chiqib, Alloh taolo insonlarga o'zining imkoniyatlari doirasida ma'lum bir vazifa va mas'uliyatlarni yuklagan. Buning natijasi o'laroq, bajarilgan yoki tark etilgan xatti-harakatlar evaziga jazo va ajrlarni marhamat etgan. Inson muayyan harakat va faoliyatni amalga oshirishi uchun unga harakatdan oldin amalda ma'lum bir kuch va qudrat berilgan. Insonning harakatlari unga berilgan shu kuch-qudrat va uni amalga oshirishga undovchi shaxs irodasining natijasidir. Bu jarayon inson harakatlarining asosi va uning zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatlarining majmuidir. Bular bilan inson ma'lum bir harakatga yuzlanib, o'z ixtiyori bilan uni tanlaydi va amalga oshiradi. Bandaning barcha yaxshi yoki yomon amallarini yaratish Alloh taoloning qudrati bilan bo'ladi. Demak, insonning xatti-harakatlarida ikki jihat bor: insonning roli va Allohning qudrati. Abu Mansur Moturidiy, bu masalada o'z davriga qadar ilgari surilgan taqdirni inkor etish va majburlash g'oyasini qabul qilganlarning qarashlarini butkul rad etib, amallar ham insonga, ham Allohga tegishli ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur masalaning yechimi sifatida u yangicha bir fikrni ilgari suradi. Abu Mansur Moturidiyning qarashlariga ko'ra, ma'lum bir harakatga murojaat qilish, uni tanlash hamda o'z xohish va irodasi doirasida bajarish insonning shaxsiy ishi. Har bir narsaning yaratuvchisi bo'lgan Alloh, insonning harakatini ham yaratuvchisidir. Demak, ijod nuqtai nazaridan harakatga ta'sir etuvchi kuch Allohga tegishlidir. Boshqacha qilib aytganda, harakat amalga oshirilish jihati bo'yicha insonga, yaratilish xususiyati bo'yicha Allohga tegishlidir. Inson ruhiyatidagi bu sheriklik alohida xususiyatlarga ega bo'lgan hamda mas'uliyatni bartaraf etmaydigan hamkorlikdir.

Shaxs etikasi tahlili. Narsalarning go'zalligi yoki xunukligini shuningdek, foydali yoki zarar ekanligini umuman aql tamoyillari bilan tushunish mumkin. Biroq, aql ularni barcha jihatlari va tafsilotlari bilan aniqlay olmaydi. Chuqur izlanish va tafakkurdan so'ng bilishi yoki payg'ambarning xabari orqali bilishi mumkin. Shariatning bu boradagi bayonoti ta'kid va tasdiqdir. Shariat ham biror narsani yaxshiligi uchun buyurib, yomon va zararli bo'lgani uchun uni harom qiladi. Din bu borada aql bilan birlashgan. Qolaversa, axloqiy tuyg'u insonga xos bo'lib, inson tabiatan axloqiy mavjudotdir. Ba'zi narsalarning go'zalligi va ba'zi narsalarning xunukligi tabiatan aqlda aniq namoyon bo'lganligi sababli, aql ularni idrok etadi, tahlil qiladi, muayyan harakatga undaydi yoki qaytaradi. Masalan, mavjud ne'matlarga shukr qilishning haqiqati, adolatning go'zalligi, noshukurlikning xunukligi, zulm va yolg'onning chirkin illat ekanligi va xokazo. Faqat aql oxiratda mukofot yoki jazolanadigan halol yoki harom amal qilish huquqiga ega emas, bu hokimiyat Allohnikidir. Demak, aql ilmi oxirat uchun jazo va ajr miqdorini belgilay

olmaydi. Din esa amr qilinganlarni bajarganlarga ajr va'da qilgan, man etilganlarni esa jazo bilan tahdid qilgan. Abu Mansur Moturidiyning odob-axloq tushunchasida yana bir ta'kidlash lozim bo'lgan jihat shundaki, u amaldan ko'ra g'oya, e'tiqod va to'g'ri bilimni birinchi o'ringa qo'yib, amalni taqliddan ko'ra sog'lom bilimga yo'naltirib asoslaydi. Abu Mansur Moturidiyning fikricha, Allohni tanish va uning go'zal sifatlarini bilish har bir inson uchun axloqiy farzdir. Chunki borliqni va uning yaratuvchisi haqidagi bilimlarni anglashning yagona yo'li aqlidir. Abu Mansur Moturidiy o'z asarlarida odamlarni o'z imkoniyatlariga javobgar qilish kabi masala borasida ham ko'plab fikrlar bildirgan. Xususan, allomaning fikrmulohazalariga ko'ra, dinda odamlar hech qachon qodir b'lmagan xatti-harakat uchun javobgar bo'lmaydilar. Islom dinida har qanday xatti-harakat uchun javobgar bo'lishning asosiy sharti shundaki, buyurilgan yoki ta'qiqlangan narsa inson qila oladigan darajada bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, yuklatiladigan vazifalar odamlarning imkoniyati sig'dira oladigan va imkoniyati yetmaydigan xatti-harakatlar majmuiga bo'linadi. Insonni o'zi bajara olmaydigan ibodat yoki muayyan majburiyatga yo'llash va natijada ular tomonidan xatti-harakatning lozim darajada bajarilmasligi hamda harakat subyektlarining qo'lidan kelmaydigan ishlar uchun og'irroq jazolash dinning mas'uliyat mantig'iga mutlaqo ziddir. Alloh taolo insonlarga aql bilan yoki vahiy orqali nimani buyurgan bo'lsa, ularni tushunish uchun imkoniyat eshiklarini ochib qo'ygan. Buni tushuna olmaydigan ilohiy amrga murojaat qilib bo'lmaydi. Bu amrlarning barchasini bilish usullari har xil. Biroq uning yo'llarini aql va xulosa bilan bilish mumkin. Borliqning yaratilish qoidasiga ko'ra, Alloh hech bir harakat yoki holatni bekordan-bekor yaratmagan. Abadiyat qonunlariga muvofiq har bir voqea, hodisa va jarayonlar o'zining muayyan sabablari asosida sodir bo'ladi. Moturidiyning fikricha, olamdagi hech narsa bekorga yaratilmagan. Hamma narsaning sababi, maqsadi va hikmati bor. Shuning uchun ham Alloh taoloning ijodlari borliq qonunlari va aql asoslaridan tashqariga chiqmaydi. U hamma narsani eng yaxshi ko'rinishda va mustahkam tarzda yaratadi. Uning fikricha, hikmatning ikki xili bor: Birinchisi – adolat, ikkinchisi – inoyat. Adolat hamma narsani o'z o'rniga qo'yadi. Xudoning inoyati esa, cheksiz va oxiri yo'q marhamatdir. “Imom Moturidiyning buyukliklari, siyratlarini anglashdagi eng katta manba – u kishining asarlaridir. Bu zotning ixlos-u taqvolari, parhezkorliklari, sog'lom aql va e'tiqoddagi darajalari, aqliy yetukliklari, fikriy ilg'orliklarini u kishining asarlarini o'rgangan odam darhol fahmlab oladi.<sup>58</sup>”

<sup>58</sup> Hasanxon Yahyo Abdulmajid «Tavhid» risolasi ahli sunna aqiydasi bo'yicha muhim manba (birinchi maqola). T.; 15.03.2020

## **XULOSA**

Barcha davrlarda ham din insonlarni ma'naviy birlashuvini, maqsad-muddaolari mushtarakligini, orzu-umidlar yakdilligini ta'minlab beruvchi ruhiy vosita hisoblangan. Mana shu vosita davrlar o'tsada, qanchadan-qancha siyosiy to'qnashuvlar bo'lsa-da, o'zining ruhiy ta'sir etish kuchini yo'qotmagan. "Abu Mansur Moturidiy nafaqat qardosh o'zbek xalqining, balki ummat rivojiga, muqaddas islomning gumanistik va ratsional asoslarini mustahkamlashga salmoqli xissa qo'shgan barcha turkiy xalqlarning faxridir<sup>59</sup>". Darhaqiqat, buyuk allomaning falsafiy merosi, butun ilmiy faoliyati va mehnatlarining samarasi bugungi kunda ham jamiyat va unda yashovchi insonlarning ma'naviy qiyofasini yaxshilashga, ruhiy barkamollikka va yuksak falsafiy tafakkur egasi bo'lishiga katta yordam beradi. Bugungi globallashuv sharoitida Abu Mansur Moturidiyning shaxsiyatini, falsafiy merosini hamda moturidiylik ta'limotini o'rganish dinimiz balki butun borliq, insoniyat to'g'risida noto'g'ri g'oyalarni yuzaga keltiruvchi turli mafkuraviy tahdidlar, aqidaparastlik va tub dunyoqarashlarga qarshi mafkuraviy immunitet vazifasini o'taydi. Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosi yoshlar ongining turli ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalar bilan zaharlanishiga qarshi turishda hamda ularga qarshi kurashishda o'ta dolzarb va muhim manba hisoblanadi. Fikrimiz yakunida shuni aytib o'tmoqchimizki, keyingi yillarda yurtimizda muqaddas islom dini rivojiga o'zining teran falsafiy qarashlari bilan beqiyos xissa qo'shgan ulug' allomalarning hayoti va faoliyati, ularning ma'naviy merosini o'rganishga qaratilgan alohida e'tibor kuchayib bormoqda. Shu tufayli buyuk mutakallim Abu Mansur Moturidiy va ul zot asos solgan moturidiylik ta'limotini keng tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bugungi global jarayonda islom dinini to'g'ri anglash va talqin qilish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu borada moturidiylik ta'limotining o'rni naqadar beqiyos ekanligi, allomaning ilmiy-ma'naviy, boy merosi davlat va jamiyat taraqqiyoti, insoniylik tamoyillariga asoslanganligi qator horijiy va mahalliy olimlar tomonidan ham yuksak e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, bu ulug' allomaning hayoti, ilmiy faoliyati va ilmiy asarlarida ilgari surilgan g'oya va mafkuralarni ta'lim tizimiga to'g'ri tadqiq etib borsak, shuningdek, xalqimiz ongiga oson va tushunarli tarzda yetkazib bersak, o'ylaymizki, kelajakda Abu Mansur Moturidiyning falsafiy merosini o'rganish bo'yicha yetuk mutaxassislarini yetishib chiqishiga zamin tayyorlagan bo'lamiz.

<sup>59</sup> Sonmez Kutlu. International Conference in Samarkand, dedicated to Imam Maturudi is important and useful. 04/03/2020

## REFERENCES

1. <http://president.uz> 2020 yil 24-yanvar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, T.: “Ma’naviyat” nashriyoti 2008 y. 39-bet
3. Muhammadiyev F. “Mutafakkirlar”, “Movarounnaxr” nashriyoti T; 2011, 45b
4. Kitabu't-Tevhid, 228-229. Ayrıca geniş bilgi için bkz. Yazıcıoğlu, M. Sait, Mâtürîdî ve Neseî'ye Göre İnsan Hürriyeti Kavramı, Ankara 1988, 28-34.
5. Geniş bilgi için bkz. el-Mâtürîdî, Te'vîlât, Topkapı Sarayı Müzesi Ktp., Medine Bölümü, Nu: 180, 796a; el-Mâtürîdî, Te'vîlât, Hacı Selim Ağa Ktp., Nu: 40, v. 888b.
6. Hasanxon Yahyo Abdulmajid “Tavhid” risolasi ahli sunna aqidasi bo'yicha muhim manba (birinchi maqola). T.; 15.03.2020
7. Akhmedov, B. A. (2021). HISTORY OF KARAKUL INDUSTRY IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1159-1163.
8. Akhmedov, B. A. (2020). KARAKUL BREEDING DURING THE BUKHARA EMIRATES. In *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ* (pp. 160-162).
9. Sonmez Kutlu. International Conference in Samarkand, dedicated to Imam Maturudi is important and useful. 04/03/2020
10. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. *Theoretical & Applied Science*, (3), 72-75.
11. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
12. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELITIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
13. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.

## **БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРАТИ ВА МАЗМУНИ**

**Қурбонов Баходир Эргашевич,**

Педагогик инновациялар, касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мустақил тадқиқотчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада олий таълим муассасаларида тайёрланаётган бўлажак мутахассисларнинг иқтисодий компетентлигини ривожлантиришнинг зарурати, ташкилий шакллари ва мазмуний хусусиятлари ёритилган.*

**Калит сўзлар:** касбий фаолият, иқтисодий компетентлик, модернизациялаш, меҳнат бозори, инновация, рақобат, макроиқтисодий, инфляция, монополия.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается о необходимости развития экономической компетентности, организационных формах и содержании будущих специалистов, обучающихся в высших учебных заведениях.*

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, экономическая компетентность, модернизация, рынок труда, инновации, конкуренция, макроэкономика, инфляция, монополия.

### **ABSTRACT**

*This article describes the need for the development of economic competence, organizational forms and content of future specialists trained in higher education institutions.*

**Keywords:** professional activity, economic competence, modernization, labor market, innovation, competition, macroeconomics, inflation, monopoly.

### **КИРИШ**

Мамлакатимизда юзага келган ижтимоий-иқтисодий шароитда бўлажак мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашни жамиятда, иқтисодиётда, илм-фан ва таълим мазмунидаги ўзгаришларни англашни ҳисобга олган ҳолда амалга ошириш зарур. Шу муносабат билан иқтисодий компетентликни шакллантириш замонавий мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлашда муҳим педагогик феномен ҳисобланади. Мамлакат иқтисодиётини инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш, ишлаб чиқаришни модернизациялаш ва таркибий

Ўзгаришларни амалга оширишда олий таълим тизимида мутахассислар тайёрлаш сифати муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Иқтисодий модернизациялаш жараёнларини кенгайтириш рақобатбардош кадрларга бўлган талабни кескин ўсишига олиб келди. Истеъмолчи таълим хизматлари мазмуни ва сифатини танлар экан, эгаллаган маълумоти, касбий тайёргарлиги меҳнат бозорида ва меҳнат фаолияти жараёнида қанчалик кераклилигига ҳамда муҳимлигига эътибор қаратади. Иқтисодий инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш таълим тизимида мавжуд горизонтал ва вертикал муносабатларни тубдан ўзгаришига олиб келди.

Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодий тармоқларини ривожлантириш борасида катта ишлар олиб борилмоқда. Мамлакатимизда олий таълим тизимини ислоҳ қилиш ва таълимнинг халқаро андозаларга мослигини таъминлаш борасида изчил ишлар амалга оширилмоқда. Юқори малакали кадрларни тайёрлаш, инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш шунингдек, таълим муассасаларининг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ вазифалар, таълим тизимида замонавий фикрлайдиган, инновацияларни қўллаб қувватловчи, рақобат ўсиб бораётган таълим хизматлари бозорида рақобатлаша оладиган ва иқтисодий компетентлиги шаклланган мутахассисларига талаб ошиб бормоқда. Шу нуқтаи-назардан бўлажак мутахассисларини иқтисодий компетентлигини шакллантиришни тизимли, методологик ва компетенциявий ёндашувлар асосида такомиллаштириш долзарб ҳисобланади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Олий таълим муассасалари талабаларида иқтисодий компетентлик бўлиши зарурлиги тўғрисида гапирар эканмиз, бу жараёнда “иқтисодий билимдонлик”, “иқтисодий тафаккур”, “иқтисодий таълим”, “иқтисодий компетентлик”, “иқтисодий маданият” тушунчаларини мазмунига алоҳидаурғу бериш зарур.

“Иқтисодий педагогика” соҳаси олимларинг фикрича иқтисодий билимдонлик, мушоҳадалилик ва онглилик шахсинг касби ва мутахассислигидан қатий назар, жамиятнинг фаол аъзоси сифатида билиши



лозим бўлган, мантиқан яхлит дунёқарашга эга бўлиши учун идрок эта олиши шарт бўлган, табиат ва жамиятнинг иқтисодий қиёфаси ва унинг динамикасини кўра олиши, тушуна олиши ва баҳолай олиш қобилиятидир. Хусусан, иқтисодий тафаккур – инсоннинг иқтисодий жиҳатдан воқеа-ҳодисаларни таҳлил қилиши, унга баҳо бериш ва қарор қабул қилиш; кишидаги иқтисодий онг, иқтисодий қарашлар, иқтисодий фаолият, иқтисодий билим ва тушунчалар, иқтисодий хатти-ҳаракат мажмуидан иборат бўлиб, унинг асосида иқтисодий маданият пайдо бўлади.

Иқтисодий билимларга эгалик талабалар томонидан иқтисодий ишлаб чиқариш жамият ҳаётининг асосий йўналишларидан бири эканлигини чуқур англанишига имкон бериш билан бирга уларда мавжуд моддий ва маънавий ашёлар, табиий бойликлардан тежаб-тергаб фойдаланиш, уларни кўпайтириш тўғрисида ғамхўрлик қилиш, жамият иқтисодиётини ривожлантириш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиш ҳамда оила хўжалигини оқилона юритиш борасидаги дастлабки кўникма ва малакаларга эга бўлишларига имкон беради.

Иқтисодий билимлар ёрдамида иқтисодий назариянинг жами моҳияти, моддий бойликлар, уни ишлаб чиқариш, алмашиш, тақсимот ва истеъмол қилиш, аниқ ҳаётда жамиятнинг ривожланишига таъсири тушунилади. Шахсий қобилият иқтисодий фаолиятни бажаришда иқтисодий компетенцияга таянади. Иқтисодий компетенция эса фаолият жараёнида такомиллашиб боради.

Иқтисодий компетенция – талабаларда иқтисодий билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш билан бирга, тежамкорлик, ташаббускорлик, ишбилармонлик ҳамда тадбиркорликни шакллантиради. Иқтисодий компетентликнинг юзага келиши ҳақида гапирар эканмиз, бўлажак рақобатбардош мутахассисларни касбий ўқитиш нафақат умумкасбий ва ихтисослик фанлар, балки асосан иқтисодий циклга асосланишидан келиб чиқамиз. Шунингдек, жамиятнинг замонавий иқтисодий ривожланишини таҳлил қила олиши, ўзининг билим ва кўникмаларини ўзининг меҳнат фаолиятида қўллай олиши, шунингдек корхона ишчиларининг иқтисодий маданиятини шакллантиришга қодир ва тайёр бўлиши зарурдир.

### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Бизнинг фикримизга кўра, иқтисодий компетентлик қуйидаги бир қанча кўникма ва билимларни ўз ичига олади:

- эҳтиёжларнинг чексизлиги, ресурсларнинг чекланганлиги ҳамда иқтисодиётнинг моҳиятини тушунтириш;

- танлов муаммоси ва муқобил қиймат тушунчалари асосида муайян ҳаётий вазиятларда энг маъқул ечим топа олиш кўникмасига эга бўлиш;
- иқтисодий маълумот ва ахборотлардан ўз фаолиятида фойдалана олиш кўникмасига эга бўлиш;
- иқтисодий тизимларни бир-биридан фарқлай олиш;
- бозор ва унинг турларини билиш, рақобат ва монополия тушунчаларининг моҳиятини очиқ бера олиш;
- товар нархининг шаклланишида талаб ва таклифларнинг ўзаро таъсири ва бозор механизмнинг роли ҳақида тасаввурга эга бўлиш;
- иқтисодиётнинг давлат томонидан бошқарилиши, давлат молияси, пул-кредит ва бюджет-солиқ сиёсатининг моҳиятига тушуниб етиш;
- давлат бюджети, унинг даромад ва харажат қисмларини, солиқлар ва уларнинг турларини, энг асосий макроиқтисодий кўрсаткичларни таҳлил эта олиш ва уларни таққослаш кўникмаларига эга бўлиш;
- инфляция ва ишсизлик моҳиятини тушуниш;
- давлатнинг аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш воситалари, инфляция, ишсизлик ва монополияга доир чора-тадбирлар ҳақида тасаввурга эга бўлиш;
- иқтисодий юксалиш, иқтисодий давр ва унинг босқичларини билиш;
- тадбиркорликнинг иқтисодиётдаги ўрни, шакллари ва ташкилий-ҳуқуқий асослари ҳақида тушунчага ва амалий кўникмага эга бўлиш.

Мутахассиснинг иқтисодий компетентлигини биз унинг иқтисодий билимлари, амалий тайёргарлиги, турли мураккаблик даражасига эга касбий-иқтисодий масалаларни ҳал қила олишда ўз аксини топган шахснинг интегратив сифати деб тушунамиз. Ушбу сифатлар касбий фаолият учун иқтисодий билимларнинг муҳимлиги билан бир каторда бўлажак мутахассиснинг турли иқтисодий шароитларда тўғри ва ўз вақтида қарорлар қабул қила олишда ўз аксини топган зарурлиги билан шартланади. Тадқиқ этилаётган тушунчаларни аниқлаштириш орқали биз иқтисодий компетенциялар деганда, замонавий мутахассисга қўйилган талаблар тўпламига киритилган иқтисодий билимлар ва кўникмаларнинг етарлича мажмуасини тушунамиз.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол

иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.  
<https://lex.uz/docs/3765586>

2. Қурбонов Ш.Э., Илхомов Б.И. Профессионал таълим муассасасалари бошқарувида иқтисодий компетентлик ва молиявий масалалар // Ўқув қўлланма. 2020 й
3. Ражабов Ў.Д. Иқтисодий таълимнинг иқтисодий тафаккурга таъсири. Замонавий таълим / современное образование 2017, 11.
4. Н.И.Хасанхонова. Иқтисодий тафаккурнинг таркибий қисмлари уйғунлигини таъминлаш йўллари. Иқтисод ва молия / экономика и финансы 2014, 2.
5. Илхомов Б. Иқтисодий компетентлик: мазмун-моҳияти, профессионал таълим тизими бошқарув ходимларининг иқтисодий фаолиятдаги компетентлиги. // Замонавий таълим 2019 №9(82) -67 б.
6. Usubovich, O. O., & Ne'matillaevna, Z. D. (2022). METHODOLOGY OF USING CONNECTING ELEMENTS OF SCIENCE IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF THE SCIENCE OF HYDROELECTRIC POWER STATIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 654-661.
7. Zokirova, D. N. M., Qurbonova, F. Q., & Nishonov, M. M. O. G. L. (2022). NAZARIY ELEKTROTEXNIKA FANI DARS MASHG ‘ULOTLARIDA INNOVATSION TARBIYA BERISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 371-377.
8. Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1431-1436.
9. Otamirzaev, O. U., & Zokirova, D. N. (2019). PROBLEMS ARISING WHEN APPLYING THE “BOOMERANG” METHOD IN THE COURSE OF TRAINING AND METHODS FOR THEIR ELIMINATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 270-274.
10. Зокирова, Д. Н. (2021). INTEGRATION OF PROFESSIONAL AND EDUCATIONAL DISCIPLINES INTO TRAINING OF SELF-LEARNING MOTIVATED STUDENTS. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-28.
11. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 179-182.

## **MILLIY IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKASIYALASH SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

**To‘xtaxo‘jayev Ma‘rifxon Abdurashid o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi magistri

### **ANNOTATSIYA**

*Jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlar dasturini amalga oshirish orqali aksariyat rivojlangan mamlakatlar innovatsion omillarga asoslangan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaganlar. Bu borada Yaponiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyalarini amalga oshirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atiga erishgan hamda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Harakatlar strategiyasi, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tranzit, “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikatsiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik”, “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikatsiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik”*

### **ANNOTATION**

*The analysis of world practice shows that through the modernization of the national economy and the implementation of the program of structural changes, most developed countries have achieved sustainable economic growth based on innovation factors.. In this regard, Japan, Germany, the Republic of Korea and the People's Republic of China have achieved sustainable economic growth and profound structural changes in the economy through the implementation of economic modernization strategies.*

**Keywords:** *Strategy of action, modernization, diversification, transit, “industrialization”, “innovation”, “liberalization of the economy”, “diversification of the economy”, “human capital”, “national wealth”, “industrialization”, “innovation”, “liberalization of the economy”, “Diversification of the economy”, “human capital”, “national wealth”*

### **АННОТАЦИЯ**

*Анализ мировой практики показывает, что за счет модернизации национальной экономики и реализации программы структурных преобразований большинство развитых стран добились устойчивого экономического роста, основанного на инновационных факторах.. В связи с*

*этим Япония, Германия, Республика Корея и Китайская Народная Республика добились устойчивого экономического роста и глубоких структурных изменений в экономике за счет реализации стратегий экономической модернизации.*

**Ключевые слова:** стратегия действий, модернизация, диверсификация, транзит, “индустриализация”, “инновации”, “либерализация экономики”, “диверсификация экономики”, “человеческий капитал”, “национальное богатство”, “индустриализация”, “инновации”, “либерализация экономики”, “диверсификация экономики”, “человеческий капитал”, “национальное богатство”.

## **KIRISH**

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning tarkibini diversifikatsiyalash asosida innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tish vazifalari hal etilmoqda. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda modernizatsiyalash loyihasi ishlab chiqilgandan so‘ng, tarkibiga sanoat, investisiya va innovatsiya siyosatlarini qamrab oluvchi strategiya tuziladi. Modernizatsiyalashda bir tomondan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, sifat jihatdan takomillashtirish, pirovardida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan inson omilini taraqqiy ettirish masalasi turadi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida “...davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha milliy g‘oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim.”<sup>60</sup> Ushbu uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yetakchi o‘rin tutadi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida “tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va

<sup>60</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг Олий Мажлисга муножаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. 48-б.

diversifikasiyalash hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish”<sup>61</sup> ustuvor vazifa sifatida ta’kidlangan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jahon amaliyoti ko’rsatishicha, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya, material va kapital sig’imkorligini yuqoriligi, zamonaviy texnologiyani o’zida mujassamlashtirmaganligi mahsulotlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Iqtisodiy adabiyotda “iqtisodiyotni modernizasiyalash” kategoriyasi “innovasiya”, “diversifikasiya”, “barqaror iqtisodiy o’sish”, “o’tish iqtisodiyoti” kabi tushunchalar bilan uzviy bog’liqlikda tahlil qilingan. O’tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida modernizasiya nazariyalaridan deyarli foydalanilmagan va aksariyat hollarda “islohotlar” va “o’tish (tranzit) iqtisodiyoti” tushunchalari qo’llanilgan. Iqtisodiy islohotlar jarayonida birgina bozor institutlari samarali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab bera olmasligi ma’lum bo’ldi va iqtisodiy aylanmaga “modernizasiya”, “tarkibiy o’zgarishlar”, “milliy raqobatbardoshlik” tushunchalari kiritildi. Bunda modernizasiya aksariyat mamlakatlarda milliy dastur sifatida qabul qilina boshlandi. Iqtisodiyotni modernizasiyalash mexanizmi “iqtisodiyotni modernizasiyalash” kategoriyasi “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikasiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik” kabi qator tushunchalar bilan uzviy birlikda o’rganildi. Natijada ushbu tushunchalar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik iqtisodiyotni modernizasiyalash kategoriyasining tavsifini to’liqroq ochib beradi va iqtisodiyotni modernizasiyalashning iqtisodiy qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun real sektor tarmoqlarini modernizasiyalash va diversifikasiyalash zarur. Bunda iqtisodiyotni modernizasiyalash diversifikasiyalash jarayonlari bilan parallel ravishda kechadi va o’zaro uzviy bog’liqlikda amal qilib, pirovardida innovasion taraqqiyotni ta’minlaydi. Innovasion taraqqiyot yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan qo’shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarib, eksport hajmini ortishiga olib keladi. Bu esa o’z navbatida barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlab, milliy boylikni ko’paytirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ta’minlanadi. Iqtisodiy adabiyotda iqtisodiyotni modernizasiyalash kategoriyasiga turlicha iqtisodiy qarashlar berilgan. V. Gelman iqtisodiyotni modernizasiyalash deganda, dastlab, iqtisodiy o’sish, turmush darajasini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga

<sup>61</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон

qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini <sup>62</sup> tushunadi. Ushbu ta'rifning kamchiligi shundaki, chora-tadbirlar majmuasining o'zi bilangina modernizatsiyalash ro'y bermaydi, ular to'g'ri amalga oshirilishi zarur. Ye. Yasin fikricha ko'ra, iqtisodiy modernizatsiya "...barqaror rivojlanish va rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashni ta'minlash uchun davlat va undagi yetakchi tarmoqlarning jahondagi raqobatbardoshligiga erishishdir <sup>63</sup>." Ushbu ta'rif modernizatsiyaning mohiyatini to'laroq ochib beradi, modernizatsiyalash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin, lekin modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotning real tarmoqlarida, jumladan sanoatda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'ladi. V. Krasil'nikov tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiyalash kategoriyasiga to'laroq ta'rif berilgan. Uning fikriga ko'ra, "Umumiy ma'noda modernizatsiya XX asrning ikkinchi yarmida Avstraliya va Yangi Zelandiya, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning yetakchi davlatlaridagi turmush darajasi va jamiyatning taraqqiyot darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar yig'indisidir <sup>64</sup>." Mazkur ta'rifda modernizatsiya dasturi amalga oshiriladigan davlatning spetsifik xususiyatlari nazardan chetda qoldirilgan. Ayrim mamlakatning tajribasini ko'r-ko'rona mexanik ko'chirib olish, kutilgan natijani bermaydi. Ayrim iqtisodchilar fikriga ko'ra, iqtisodiy modernizatsiyaning konseptual g'oyasi "iqtisodiy, texnologik va institusional jihatdan ortda qolishni tan olish va uni yangi rivojlanish bosqichiga olib o'tish zaruriyati" <sup>65</sup> dan iborat. Ushbu ta'rifdagi ortda qolish tushunchasiga aniqlik kiritish zarur. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash ishlab chiqarish omillarini takomillashtirish asosida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat uzluksiz jarayondir. Jahon amaliyotida iqtisodiyotni modernizatsiyalashga xos bo'lgan xususiyatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha guruhlashimiz mumkin: Birinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakatning geosiyosiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda muayyan milliy model asosida amalga oshadi. Ikkinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichi ma'lum muddat ichida amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash loyihasini amalga oshirish muddatlari 10 yildan 30 yilgacha davom etib, jahonning rivojlangan mamlakatlarida XX asrning ikkinchi

<sup>62</sup> Гельман В. Авторитарная модернизация: каковы ее перспективы в России [Электронный ресурс] / В.

Гельман. — 2008. <http://www.eu.spb.ru>

<sup>63</sup> Ясин Е.Г. Модернизация и общество [Текст]: докл. к VIII Междунар. науч. конф. Модернизация экономики и общественное развитие. / Е.Г. Ясин; М.: ГУ ВШЭ, 2007. С 6.

<sup>64</sup> Красильщиков В.А. Модернизация: зарубежный опыт и уроки для России // Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. Сборник статей и материалов. Выпуск 1 / под ред. В.Л. Иноземцева. — М.:, 2009. С 85.

<sup>65</sup> Модернизация Российской экономики: структурный потенциал Колл. авторов / -М.: ИМЭМО-РАН, 2010. -С.5

yarmi va oxirgi choragida amalga oshirilgan modernizatsiyalash tajribalari diqqatga molik. Uchinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati o'zining harakatlantiruvchi kuchlariga ega (investisiya va ishchi kuchi). Milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi, investisiya normasi 25-35 foiz oralig'ida bo'lishi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi. To'rtinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'ladi. O'zbekistonda 2005-2017 yillarda YAIMning o'rtacha yillik o'sishi 7 foizdan yuqori bo'lgan va bu o'sish sur'ati aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning mos ravishda ortib borishini ta'minladi. YAIMning tarmoq tarkibi va YAIMning o'sishiga alohida iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shgan ulushi dinamikasidan ko'rinadiki, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning milliy xususiyati industrilashtirishdan boshlanadi. Ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2000-2017 yillarda tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 2,3 foizli punktga o'sgan bo'lsa, sanoatning ulushi mos ravishda 9,9 foizli punktga ortib, qishloq xo'jaligining qo'shilgan qiymati 12,9 foizli punktga kamaygan. Tahlil qilinayotgan davrda qishloq xo'jaligidagi o'sish sur'atlariga nisbatan sanoatning o'sish sur'atlari jadal bo'lgani uchun YAIM tarkibida sanoat tarmog'i ulushi ortgan holda, qishloq xo'jaligi tarmog'i hisyasi nisbatan pasaygan. Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash konsepsiyasini samarali amalga oshirishda quyidagi ikkita yo'nalishdan biriga yondashiladi:

1. Modernizatsiyalashning institusional asoslarini takomillashtirib borish orqali milliy iqtisodiyotdagi barqaror o'sish sur'atlariga erishiladi.
2. Milliy iqtisodiyotdagi o'sish sur'atlari modernizatsiyalashga xizmat qiluvchi institusional infratuzilmani rivojlantiradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, 2017-2021 yillarda O'zbekistonda umumiy qiymati 40 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investisiya loyihasini ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilganligi natijasida keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning YAIMdagi ulushi 33,5 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. 48-b.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 6-son
3. Гелман В. Авторитарная модернизация: каковы ее перспективы в России [Электронный ресурс] / В. Гелман. — 2008. хттп //: [www.eu.spb.ru](http://www.eu.spb.ru)
4. Ясин Е.Г. Модернизация и общество [Текст]: докл. к ВИИИ Междунар. науч. конф. Модернизация экономики и общественное развитие./ Е.Г. Ясин; М.: ГУ ВШЭ, 2007. С 6.
5. Красилщиков В.А. Модернизация: зарубежный опыт и уроки для России // Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. Сборник статей и материалов. Выпуск 1 / под ред. В.Л. Иноземсева. — М.:, 2009 . С 85.
6. Модернизация Российской экономики: структурный потенциал Колл. авторов / -М.: ИММО-РАН, 2010. -С.5

## **RESEARCH ON BIOTECHNOLOGICAL PRODUCTION OF CITRIC ACID FROM KHOREZM RED POMEGRANATE JUICE**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-346-350>

**Baltaeva Inobat Komiljon kizi**

Faculty of Chemical Technology, Department of Food Technology

**Sanobar Achilova Sabirovna**

Faculty of Chemical Technology, Department of Food Technology, PhD

**Arislonboeva Bonu Gayrat kizi**

UrDU Faculty of Chemical Technology, student of food technology

### **ABSTRACT**

*This article presents the results of a study of the possibility of obtaining citric acid from pomegranate juice. The composition of red pomegranate in khorezim was analyzed. According to this, it was shown that up to 9% of citric acid can be obtained from the pomegranate.*

**Keywords:** Citric acid, vacuum filter, crystallization, aspergillus niger, gypsum, evaporation, activated charcoal, neutralization refractometer.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье представлены результаты исследования возможности получения лимонной кислоты из гранатового сока. Проанализирован состав красного граната хорезима. По этому было показано, что из граната можно получить до 9% лимонной кислоты.*

**Ключевые слова:** лимонная кислота, вакуум-фильтр, кристаллизация, aspergillus niger, гипс, выпаривание, активированный уголь, нейтрализационный рефрактометр.


### **INTRODUCTION**

Sour fruit juice is rich in antioxidants, carbohydrates, vitamins, citric acid is one of the most important organic substances in the human body. The most convenient sour fruits for the separation of citric acid are pomegranate and lemon. Because their concentration of citric acid is 6-9%. In terms of applications of citric acid, citric acid is used in the food industry in confectionery, soft drinks, manufacturing, textiles, dyeing, photography and medicine. According to estimates, Uzbekistan's demand for citric acid is more than 10,000 tons a year. These raw materials are mainly exported to our republic from russia at the expense of currency. Therefore, the launch of citric acid production is a topical issue today.


Pomegranate juice, citric acid, vacuum filter, crystallization, aspergillus niger, gypsum, evaporation, activated charcoal, neutralization refractometer.

## **DISCUSSION AND RESULTS**


The neutralization process is carried out in a special equipment neutralizer, which in turn is equipped with a mixer and steam batteries. The separation of citric acid from pomegranate juice is based on the formation of its low solubility in the three calcium salts of citrate. The liquid is heated to boiling point and lime or chalk milk is added under continuous stirring. Neutralization is completed when the nutrient pH is 6.8–7.5. The following acid salts are formed.



Citric acid                      calcium carbonate



Gluconic acid                      calcium gluconate



Oxalic acid                      calcium oxalate


Calcium citrate and oxalate precipitate, and mineral residues remain in solution in the form of calcium gluconate. Calcium citrate, oxalate solution is separated in a vacuum filter and thoroughly washed in hot water. Calcium citrate and a certain amount of water are mixed in a flask and activated charcoal is added. The mixture is heated to 60 °C and poured into it while mixing sulfuric acid. The mixture is boiled for 10–20 minutes. Calcium citric sulfuric acid decomposes according to the following equation.



Pomegranate has many useful properties. it contains vitamins, macro-elements and amino acids. these inorganic substances have a positive effect on human health. 100 g of fruit contains 14% carbohydrates, 1% protein, 72% water, potassium from macro elements, maintains optimal blood pressure, improves heart function. Calcium and phosphorus maintain the strength of bone tissue, magnesium prevents the development of allergies, participates in sodium water metabolism, iron is an integral part of hemoglobin and prevents the development of anemia.

We took red pomegranate juice and determined the extraction of citric acid in it and the amount of sugar in the laboratory under a refractometer. To obtain citric acid, we took 400 ml of pomegranate juice in a measuring tube and placed it on a water bath heated to 30–40 °C, poured 30 ml of a saturated solution of calcium chloride into the juice, stirring well, and again stirred a little. After adding the required inorganic

substances to the solution, we boiled it in a water bath for another hour, and we see that a precipitate begins to form under the boiling tube. the precipitate at the bottom of the tube is a mixture of calcium salt and gypsum. In a separate flask, pour 200 ml of water and 200 ml of sulfuric acid in equal amounts and add 1 g of activated charcoal, then lower the flask into a water bath heated to 75 ° c for 10-15 minutes. The formation of citric acid under the influence of temperature is shown in the diagram below.



The effect of heat on the formation of citric acid from pomegranate juice

We filter the citric acid in the mixture through a filter to separate it from gypsum and coal. The sediment in the filter is thoroughly washed three to four times with clean water. Since the gypsum and coal have not been completely removed, the precipitate is filtered in a buchner funnel, and the precipitate is thoroughly washed with boiling water until the reaction of the chloride ions with the silver nitrate salt is complete. Filter the precipitate, add 4 g of barium chloride, filter again, the solution becomes syrupy and cool to 6-8 °C. When we cool, we add less citric acid crystals to form crystals faster. We filtered the precipitated crystals and dried them on filter paper. When we measured the crystals, 8 g of citric acid was formed.

#### Composition of pomegranate juice

Vitamins	
Vitamin PP	0.4mg
Vitamin A	0.03 mg

	Vitamin B <sub>1</sub> (Thiamine)	4mg
	Vitamin B <sub>2</sub> (riboflavin)	0.04mg
	Vitamin B <sub>5</sub> (pantothenic acid)	0.01mg
	Vitamin B <sub>6</sub> (pidoksin)	0.5mg
	Vitamin B <sub>9</sub> (polar acid)	05mg
	Vitamin C	18mg

Prof Vinarova developed and implemented methods of optimal technological design of modular devices for the production of citric acid from various substrates. Thus, to date, it has gained considerable experience in the field of extraction and production of citric acid. However, under industrial conditions, *aspergillus niger* is mainly produced by periodic underwater fermentation of sugarcane in an environment containing sugar and starch.

### CONCLUSION

Pomegranate and lemon fruits grown locally contain more than 10 macro and micro elements necessary for the human body, 2-3% of sugar and 7% of citric acid. Physicochemical parameters of citric acid obtained on the basis of local sour fruit juices were determined mainly in accordance with GOST 31 726-201 2.

### REFERENCE

1. Павлов К.А., Дмитриевский Б.А. Влияния условий кристаллизации на свойства образующегося сульфата кальция в технологии лимонной кислоты. Журн. прикл. химии, т.76, №9, 2003, С.1448-1453
2. *Сорокодумова С.В.* Оптимизация процесса кристалли-зационной очистки лимонной кислоты: автореф. дис. уч. ст. канд. техн. наук. - М., 2002. - 194 с.
3. Шарова, Н. Ю. Влияние ультразвука и инфракрасного излучения на углеводный состав для получения пищевой добавки - лимонной кислоты. /Н.Ю. Шарова [и др.] // Инновационные технологии в пищевой пром-сти: Материалы VIII Междунар. науч-практ. конф. (2009 г.). - Минск.: Минфина, -2009. - С. 21 - 28.
4. А.А. Abdusamatov, R. Mirzayev, R. Ziyayev. «Organik kimyo», Toshkent, «O`qituvchi» nashriyoti, 2002.
5. К.Вемер. Podgorski W., Pictkicwicz J., Lesniak W. Citric acid biosynthesis on beet molasses at low oxygenation level (Биосинтез лимонной кислоты из

- 
- свекловичных меласс при невысокой степени окисления// Chem. Listy, 2009. V.87.N9A. P. 157, 158. Англ.
6. К.Вемер. Белехов Г.П., Чубинская А.И. Использование для кормления сельскохозяйственных животных мицелиальной массы гриба *A. niger* -отхода производства лимонной кислоты. / Кормление сельскохозяйственных животных. М. 2005. №6. С. 10-12.
7. К.Вемер Т.В.Финогенова. Голубцова В.М. Селекция и культивирование *A. niger* в производстве лимонной кислоты. Автореферат канд. дисс. М. 2007 С.30.
8. Т.В.Финогенова, Гутенева Л.З., Фесенко Л.Ф., Хомчук Р.Г. Получение лимонной кислоты проточным способом. /В сб.: Новое в биохимических процессах пищевой промышленности. Киев. Техника. 2005. вып. 3. С. 73-77.
9. проф. Винарова Жаболовская Н.А., Филимонова И.Н. Растворимость производственного цитрата кальция. /ХКП. 2011.№11. С. 27-29.

## **INGLIZ TILINI BILISH TO'G'RISIDAGI MILLIY YOKI XALQARO SERTIFIKAT OLIISH UCHUN TAVSIYALAR**

**Xotamov Jahongir Saloxiddinovich**

Toshkent shahar yuridik texnikumi umumta'lim fanlar kafedrası o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ingliz tilini samarali o'rgatishning bir necha usullari hamda ingliz tilini bilish to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikat olish uchun tavsiyalar yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Til, ingliz tili, milliy sertifikat, xalqaro sertifikat, tilni mustaqil o'rganish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.*

### **RECOMMENDATIONS FOR GETTING A NATIONAL OR INTERNATIONAL CERTIFICATE OF ENGLISH LANGUAGE**

**Khotamov Jahongir Saloxiddinovich**

Teacher of the Department of General Education, Tashkent City Law College

### **ABSTRACT**

*This article outlines some of the best ways to teach English and how to apply for a national or international English language certificate.*

***Keywords:** Language, English, national certificate, international certificate, independent language learning, modern educational technologies.*

### **РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПОЛУЧЕНИЮ НАЦИОНАЛЬНОГО ИЛИ МЕЖДУНАРОДНОГО СЕРТИФИКАТА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

**Хотамов Джахонгир Салохиддинович**

Преподаватель кафедры общего образования Ташкентского городского юридического колледжа

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье рассказывается о некоторых из лучших способов преподавания английского языка и о том, как подать заявку на получение национального или международного сертификата по английскому языку.*

***Ключевые слова:** Язык, английский язык, национальный сертификат, международный сертификат, самостоятельное изучение языка, современные образовательные технологии.*

## **KIRISH**

Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 19-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda 2022-yil 19-yanvarda qabul qilingan "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-sonli Vazirlar Mahkamasi qarorida ham xorijiy tillarga o'qitish sifatini oshirish borasida qator vazifalar belgilandi.

Adliya tizimida ham xorijiy tilni bilish sertifikatiga ega bo'lish talablari joriy etildi. Bundan maqsad milliy huquq tizimini yanada rivojlantirish orqali yuridik kadrlarni xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'ladigan halol, vijdonli va bilimli kadrlar bilan to'ldirishdan iborat. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim".

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'rgatish va o'rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillariga asoslanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Ingliz tili darslarining o'qitilishi jarayonida ham ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan



foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda ingliz tilining o'qitilishi, ingliz tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning milliy yoki xalqaro sertifikatga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra yuridik texnikum talabalari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

Ingliz tili to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, ingliz tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish ingliz tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter hamda zamonaviy texnikalarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot – kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

— ingliz tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an'anaviy usul hisoblanadigan audio matn va darsliklardan foydalanish mumkin;

Bu texnik vositalardan foydalanish talabalarning ingliz tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Ingliz tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo

bo'ladi. E-mail, messenjerlar orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida ingliz tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Ingliz tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim visitalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Ingliz tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Ingliz tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

**Таблица-3.** Зависимость  $k''_{Ts} / k'_{Ts} = f(V/h)$

V/h	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
$k''_{Ts} / k'_{Ts}$	2,25	1,9	1,65	1,4	1,25	1,15	1,05	1,03	1,01	1,0

Из таблице 3 видно, что с ростом значения V/h уменьшается  $k''_{Ts} / k'_{Ts}$

Приведенный анализ экспериментальных данных показывает зависимость между соотношениями  $V/h$  и  $k''_{Ts} / k'_{Ts}$ , что свидетельствует о связи этих величин (рисунок 4).



**Рисунок 4.** График зависимости  $k''_{Ts} / k'_{Ts} = f(V/h)$ .

## **ВЫВОДЫ**

При расчете установления неразмывающих скоростей водного потока в каналах, пролегающих в связных грунтах, надо учитывать силу сцепления грунтов;

Анализ данных расчетов показывает достоверности предлагаемых формул от (6) до (9) и можно их рекомендовать для установления неразмывающих скоростей водного потока при проектировании земляных трапециадальных каналов пролегающих в связных грунтах.

## **REFERENCES**

1. Штеренлихт Д.В. Гидравлика: учебник. – 5-е изд., стер. – Спб.: Издательство «Лань», 2015. – 656 с.
2. Карасев И.Ф. Комплексы подобия и гидравлические сопротивления самоформирующихся русел рек и каналов. // Гидротехническое строительство. 2006, №12, с. 27-31.
3. Мирцхулава Ц.Е. Приближенное моделирование процессов размыва в связных грунтах. // Гидротехническое строительство, № 1, 1985. 21 – 24 с.
4. Мирцхулава Ц.Е. О надежности крупных каналов. М.: Колос, 1981.

5. Мирцхулава Ц.Е. Размыв русел и методика оценка их устойчивости. М.: Колос, 1967. - 179 с.
6. Эшев С.С. Расчет деформируемых больших земляных каналов в условиях нестационарности водного потока. Монография. Ташкент, «Вориснашриёт», 2018.- 184 с.
7. Khazratov A.N., «A sediment transport model for irrigation canals of Uzbekistan», *European science review*, вып. 3–4, Art. вып. 3–4, 2019.
8. Eshev, S., Rakhimov, A., Gayimnazarov, I., Isakov, A., Shodiev, B., & Bobomurodov, F. (2021). Dynamically stable sections of large soil canals taking into account wind waves. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 1030, No. 1, p. 012134). IOP Publishing.
9. Sobir Eshev., G'ayimnazarovIsroil.,ShakhbozLatipov., NurbekMamatov., FeruzSobirov and IrodaRayimova. The beginning of the movement of bottom sediments in an unsteady flow. *E3S Web of Conferences* 263 02042 (2021) FORM-2021 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126302042>. (Scopus).
10. Shakhboz Latipov., Sobir Eshev., G'ayimnazarovIsroil.,IrodaBabajanova., YuldashBabajanov., and BoburShodiev. Calculation of bottom sediment discharge in trapezoidal channels. *E3S Web of Conferences* 264, 03070 (2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126403070>. CONMECHYDRO – 2021. (Scopus).
11. R Xujakulov, M Rahmatov, E Nabiev and M Zaripov. Determination of calculating stresses on the depth of loess grounds of hydraulic structures, *IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering* 1030 (2021), doi:10.1088/1757-899X/1030/1/012133
12. R Xujakulov,UNormurodov, M Zaripov,UAbdurakhmonov and M Berdiev Dependence of the wetting rate of the loess base on the moisture conditions *E3S Web of Conferences* 264, 01051 (2021) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126403051> CONMECHYDRO - 2021
13. Эшев С.С., Бабажанов Ю.Т., Базаров О.Ш., Бабажанова И.Ю. Движение жидкости в трубе с изломом // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* Эшев С.С. и др. 2021 12(93). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12790>
14. Eshev S.S. Deformation of coastal escarpment of earth channels under the action of surface waves. // *European science review*, № 9–10, Vienna, 2017. – P. 144-147.

- 
15. S.Eshev,I.G'ayimnazarov, Sh. Latipov. The Calculation of the Parameter of Friction in Border Layer Not Fixed Flow.//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 1, January 2019. 7796-7800 p.
16. S.S.Eshev, A.N.Xazratov, A.R.Rachimov, Sh.A.Latipov.The study of bottomsediments in streams with mixed movement of clarified flow. Academicia an International Multidisciplinary Research Journal Published by South Asian Academic Research Journals A Publication of CDL College of Education, Jagadhri (Affiliated to Kurukshetra University, Kurukshetra, India) ISSN: 2249-7137 Vol. 9 Issue 9, September 2019. p.61-66. Impact Factor: SJIF 2018=6.152
17. S.S.Eshev, A.N.Xazratov, A.R.Rachimov, Sh.A.Latipov. Influence of wind waves on the flow in flowing reservoirs. IIUM Engineering Journal, Vol. 21,No. 2, 2020. P.125-132. <https://doi.org/10.31436/iiumej.v21i2.1329>
18. S.S Eshev, M.I.Rakhmatov,A.R. Rakhimov. Calculation of parameters of hydrodynamically stable earth ducts. International journal on orange technologies. Volume: 01 Issue: 01 / OCT 2020. P.58-60. [www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT](http://www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT) e- ISSN: 2615-8140|p-ISSN: 2615-7071



## COMPARATIVE ANALYSIS OF METHODS FOR MEASURING BURNUP OF SPENT FUEL ASSEMBLIES BETI

M.A.Ruziyeva<sup>1</sup>, M.M.Najmiddinov<sup>2</sup>, K.S.Sobirov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Bukhara Engineering Technological institute - 15, K.Murtazoev ave., Bukhara,  
200117, Uzbekistan

<sup>2</sup>Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research  
University of TIAME - 32, Gazli shokh ave., Bukhara, 105009, Uzbekistan  
e-mail: [mavlyuda.ruziyeva@mail.ru](mailto:mavlyuda.ruziyeva@mail.ru)

### ABSTRACT

*This article describes about the comparison of the methods made it possible to evaluate their advantages and disadvantages, and to develop recommendations for their use. The performed methodological developments can also find application for control measurements of fuel assemblies of other reactors using highly enriched fuel.*

**Keywords:** *Beta radiation, relativistic speeds, radioactive nuclei, electron, positron, neutron, proton, a nuclear reactor, kinetic energy, alpha particle, relativistic energy, phase velocity, Cherenkov radiation, spectrum, active neutron method, passive neutron method, passive neutron method.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассказывается о сравнении методов, что позволило оценить их преимущества и недостатки, а также разработать рекомендации по их использованию. Выполненные методические разработки могут найти применение и для контрольных измерений ТВС других реакторов, использующих высокообогащенное топливо.*

**Ключевые слова:** *Бета-излучение, релятивистские скорости, радиоактивные ядра, электрон, позитрон, нейтрон, протон, ядерный реактор, кинетическая энергия, альфа-частица, релятивистская энергия, фазовая скорость, черенковское излучение, спектр, метод активных нейтронов, метод пассивных нейтронов, пассивный нейтрон. метод.*

### INTRODUCTION

Beta radiation consists of free electrons or positrons at relativistic speeds. These particles are known as beta particles. Beta particles are high-energy, high-speed electrons or positrons emitted by certain fission fragments or certain primordial radioactive nuclei such as potassium-40. The beta particles are a form of ionizing radiation, also known as beta rays. The production of beta particles is termed beta decay.

A nuclear reactor occurs especially the  $\beta^-$  decay because the common feature of the fission products is an excess of neutrons (see Nuclear Stability). An unstable fission fragment with the excess of neutrons undergoes  $\beta^-$  decay, where the neutron is converted into a proton, an electron, and an electron antineutrino.

## **MATERIAL AND METHODS**

*Characteristics of Beta Radiation Key characteristics of beta radiation are summarized in the following points:*


- Beta particles are energetic electrons. They are relatively light and carry a single negative charge.
- Their mass is equal to the mass of the orbital electrons with which they are interacting. A much larger fraction of its kinetic energy can be lost in a single interaction than the alpha particle.
- Their path is not so straightforward. The beta particles follow a very zig-zag path through absorbing material. This resulting path of the particle is longer than the linear penetration (range) into the material.
- Since they have very low mass, beta particles reach mostly relativistic energies.
- Beta particles differ from other heavy charged particles in the fraction of energy lost by the radiative process known as the bremsstrahlung. Therefore for high energy, beta radiation shielding dense materials are inappropriate.
- When the beta particle moves faster than the speed of light (phase velocity) in the material, it generates a shock wave of electromagnetic radiation known as the Cherenkov radiation.
- The beta emission has a continuous spectrum.
- A 1 MeV beta particle can travel approximately 3.5 meters in the air.
- Due to the presence of the bremsstrahlung, low atomic number (Z) materials are appropriate as beta particle shields.

## **RESULTS**

Determination of fuel burnup in nuclear reactors is of great importance for their efficient and safe operation. Fuel burnup is one of the main indicators that determine the economic efficiency of a reactor. Measurement of the burnup depth of spent fuel assemblies with acceptable accuracy is a rather difficult task.

IRT fuel assemblies are stored for a long time in the storage pools, which can lead to the loss or inaccuracy of passport data. Over the course of several years, several methods have been developed for determining the burnup depth of IRT SFAs. In this paper, the following methods are considered:

- Active neutron method;
- Passive neutron method;
- Method for measuring burnup by gamma radiation of fission product  $Cs^{137}$ ;
- Re-irradiation method.



*Figure 1 – Sectional view of eight-tube IRT-3M fuel assembly*

## DISCUSSION

Based on the research results, the following conclusions were made:

1. Despite the fact that the "Passive neutron method" is the fastest and cheapest, it has a number of significant disadvantages. First, a set of spent fuel assemblies with known burnup is required for the calibration behavior. Second, the size of  $UO_2$  microparticles in the Al matrix has been found to significantly affect the generation of neutrons. In this work author is not provide for the introduction of a correction for current method.

2. "The method of measuring the burnup by gamma radiation of the fission product  $Cs^{137}$ " is rather laborious, it requires the introduction of a large number of calculated corrections and calibration spent fuel assemblies with a known burnup. Its main advantage is the ability to obtain a large amount of information about the measured spent fuel assemblies: the distribution of burnup along the length of the fuel assembly, average and maximum burnup with an error of about 5-8%.

3. The most accurate is the "Method for determining the residual content of fissile isotopes in spent fuel assemblies using repeated irradiation". It makes it possible to obtain the burnup distribution along the length of the fuel assembly, the average and maximum burnup with an error of less than 3%. For calibration, a fresh fuel assembly is used with the manufacturer's passport data on the mass of  $U^{235}$ . The main difficulty of the method is the need to re-irradiate spent fuel assemblies. This requires a working reactor. Despite the high labor intensity of this method, it can be recommended to be used to check the calculated data and programs, as well as for the certification of SFAs.

4. The most promising method for determining burnup for performing fast control measurements with a sufficiently high accuracy (5%) is the "Active Neutron Method". This method has a number of advantages: a fairly simple apparatus is used for neutron measurements, no spent fuel assemblies with known burnup are required to calibrate the measuring system, no data on the history of SFA irradiation are required, the number of calculated corrections is minimal, measurements can be carried out 2-3 months after extraction spent fuel assemblies from the reactor.

### **CONCLUSION**

The comparison of the methods made it possible to evaluate their advantages and disadvantages, and to develop recommendations for their use. The performed methodological developments can also find application for control measurements of fuel assemblies of other reactors using highly enriched fuel.

### **REFERENCES**

1. A.V.Bushuev, A.F.Kozhin, E.V.Petrova, T.B.Aleeva, V.N.Zubarev "Methods and instruments for measuring nuclear materials" M : NRNU MEPhI, 2011.-316 p.
2. Reilly D., Ansslin N., Smith H. and Krainer S. "Passive non-destructive analysis of nuclear materials" Study guide. M .: Binom, 2000-720 pp
3. Ro'ziyeva, M. A., & Najmiddinov, M. M. (2022). Sho'rlik darajasi turlicha bo'lgan suvning jamadon tipidagi ko'chma quyosh suv chuchiktgich qurilmasining unumdorligiga ko'rsatadigan ta'siri. *Science and Education*, 3(4), 218-221.
4. Khamidov M K, Balla D, Hamidov A M., Juraev U A. Using collector-drainage water in saline and arid irrigation areas for adaptation to climate change. 2020. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science 422(1),012121
5. ХАМИДОВ М Х, ЖҮРАЕВ У А. Influence of phytoremediation plants on soil salts // Innovative technologies in water management complex. – Ukraine, Rovno, 2012. – С. 32–34.
6. Murodov Otabek Ulugbekovich, Kattayev Bobir Sobirovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, & Ibodov Islom Nizomiy o`g`li. (2020). Smart irrigation of agricultural crops. *Middle European Scientific Bulletin*, 3, 1-3. <https://doi.org/10.47494/mesb.2020.3.16>
7. Murodov O U, Kattaev B S, Saylixanova M K. // The use of sprinkler irrigation in the cultivation of agricultural crops // "Proceeding of The ICECRS.Conference of Management of Islamic Education Leadership In The Era of Revolution 4.0 "conference. - Indonesia 2020.
8. Balla Dagma, Ahmad Hamidov, Khamidov Muhammadkhon, U.Jurayev. Improvement of drainage water quality through biological methods: a case study in

the Bukhara region of Uzbekistan // European Science Review. – Ausrtia Vienna. – 2016. – № September-october. (05.00.00. №3).

9. Murodov Otabek Ulugbekovich, Saylixanova Maftuna Komiljonovna, Kattayev Bobir Sobirovich, Muzaffarov Muxriddin Murodovich. Determination of efficiency of groundwater use in irrigation of millet planting, Euro-Asia Conferences, 2021/3/31, 131-134.

10. Murodov, O. U., Teshayev, U. O., Amrulloev, O. I., & Islomov, S. U. (2021). DETERMINING THE EFFICIENCY OF THE USE OF UNDERGROUND WATER IN IRRIGATION OF TARIK. *Экономика и социум*, (3-1), 187-191.

11. Ibragimov I A, Juraev U A, Inomov D I. Hydromorphological dependences of the meandering riverbed forms in the lower course of the Amudarya river //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – Т. 949. – №. 1. – С. 012090.

12. Умиджон Сагторович Саксонов АКТУАЛЬНОСТЬ ВОДОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПОЛИВА // Scientific progress. 2022.№2.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnost-vodosberegayuschih-tehnologiy-poliva>

13. A Q Jurayev, U A Jurayev, B N Atamurodov, M M Najmiddinov, Cultivation of Corn as a Repeated Crop, European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 2021/11/29 49-51

14. Муродов, Р. А., Барнаева, М. А., Ибодов, И. Н., & Ёкубов, Т. А. (2020). Динамика объемной влажности при послойно-поэтапном рыхлении на фоне горизонтального систематического дренажа. *Экономика и социум*, (11), 941-944

15. Ulugbekovich, M.O., Komiljonovna, S.M., Sobirovich, K. B., & Murodovich, M.M. (2021). Efficiency Of Cotton Growing By Drip Irrigation. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(4), 52-54.

16. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Scientific Benefits and Efficiency of Drip Irrigation. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(6), 62-64.

17. Murodov, O. U., Saylixanova, M. K., Kattayev, B. S., Ibodov, I. N., & Muzaffarov, M. M. To Secure Your Paper As Per UGC Guidelines We Are Providing A Electronic Bar Code.

18. Sagdiyev, K., Boltayev, Z., Ruziyev, T., Jurayev, U., & Jalolov, F. (2021). Dynamic Stress-Deformed States of a Circular Tunnel of Small Position Under Harmonic Disturbances. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 264). EDP Sciences.

## **BIRINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMA YORDAMIDA ELEKTROTEXNIKAGA OID MASALALARNI YECHISH**

**Abdurasulov Xalil** QarMII dotsenti

**Xolov Komil Normamatovich** QarMII dotsenti

**Qarshiyev Bekzod Boyxonovich** QarMII assistenti

### **ANNOTATSIYA**

*Elektrotexnikadagi tokning kuchi, kuchlanishi, zanjir qarshiligi, o'zinduksiya koeffitsient (elektr yurutuvchi kuch) larining o'zgarishi davomida – ularni aniqlash hamda uzish va ulanish ekstratokining o'zgarishi haqidagi masalalarni, qandaydir sig'imga ega bo'lgan kondensator zaryadlarini aniqlash kabi masalalarni birinchi tartibli differensial tenglamalar yoki birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasi yordamida yechish usullari ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Elektrotexnika, zanjir, kuchlanish, kondensator sig'imi, vaqt, zaryad, elektr yurituvchi kuch, o'zinduksiya koeffitsienti, tok kuchi, Om qonuni, davr, maksimum qiymat, qarama-qarshi, umimiy, differensial tenglama, xususiy yechim, umumiy yechim, almashtirish, boshlang'ich momentlar, uzish va ulanish ekstratoki, birinchi tartibli, tenglamalar yechish.*

### **АННОТАЦИЯ**

*При изменении силы тока, напряжения, сопротивления цепи, коэффициентов самоиндукции (ЭДС) в электротехнике - такие вопросы, как их обнаружение и изменение отключения и экстраполяции подключения, определение зарядов конденсаторов любой емкости, первых- показаны методами решения с использованием дифференциальные уравнения первого порядка или система дифференциальных уравнений первого порядка.*

**Ключевые слова:** *Электротехника, цепь, напряжение, емкость конденсатора, время, заряд, движущая сила, коэффициент самоиндукции, ток, закон Ома, период, максимальное значение, противоположное, общее, дифференциальное уравнение, специальное решение, общее решение, подстановка, начальные моменты, выписки разбивки и соединения, первый порядок, решение уравнений.*

### **ABSTRACT**

*During the change of current strength, voltage, circuit resistance, self-induction coefficients (electromotive force) in electrical engineering - issues such as their detection and change of disconnection and connection extrapolation, determination*

*of capacitor charges of any capacity methods of solving using first-order differential equations or a system of first-order differential equations are shown.*

**Keywords:** *Electrical engineering, circuit, voltage, capacitor capacity, time, charge, driving force, self-induction coefficient, current, Ohm's law, period, maximum value, opposite, general, differential equation, special solution, general solution, substitution, starting moments, breakdown and connection extracts, first-order, solving equations.*

## **KIRISH**

Matematik tadqiqot usullari hozirgi zamon fan va texnikasida o'ziga xos muhim o'rniga ega. Hisoblash texnikasining rivojlanishi va uni inson faoliyatining barcha jabhalarida tatbiqining kengayishi bilan matematikaning ahamiyati yanada oshdi. Matematik hisoblashlar fanning turli yo'nalishlariga-texnika, iqtisodiyot, boshqaruv va shu kabi insoniyat faoliyatida matematikadan foydalanadigan sohalardan tashqari – ilgari matematikada qo'llanilmagan boshqa sohalarga ham chuqur kirib bormoqda, shu sababli matematika - fan va texnikaning tili - bo'lib qoldi. Uning yordamida tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar –modellastirilmoqda, o'rganilmoqda va oldindan aytib berilmoqda. Hozirgi kunda – ko'pgina sohalarda matematikaning – shunday bilimlarini amalda qo'llayaptilarki, ular bir oz avval tor yo'nalishdagi mutaxassisliklarga ham ma'lum emas edi.

Ko'plab hodisalarni o'rganish jarayonlari differensial tenglamalarni tuzishga olib keladi. Hozirgi davrda oliy texnika o'quv yurtlarida amaliy va texnik masalalarning shartlaridan foydalanib, differensial tenglamalarni tuzish va uni yechish talab etiladi.

Matematikaning – texnik masalalarga tatbig'ida differensial tenglamalar-fizika, nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, gidravlika, mashina va mexanizmlar nazariyasi, elektrotexnika, kimyo, biologiya, ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqa fanlar bilan bog'liq masalalarni yechishga imkon beradi.

Bunday masalalarni yechish-albatta differensial tenglamalarni tuzishga olib keladi. Shuning uchun, har xil fizik-matematik va maxsus fanlarning elementar qonunlarini – yaxshi bilish kerak bo'ladi. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish, xossalarni tavsiflash, kattaliklarning o'zgarish qonunlarini o'rganishda matematika – fani boshqa fanlarning ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu fanlarning mavjudligida – matematika asoslarini qo'llamasligi mumkin emas.

Lekin masalaning berilishiga qarab – yuqorida ko'rsatilgan bandlardan ayrimlari bo'lmasligi ham mumkin.

Differensial tenglamalarni qo'llab-amaliy masalalarni yechishda ko'proq ixtirochilik va o'rganilayotgan jarayonni chuqur tushunish kerak bo'ladi, buning uchun juda ko'p masala va misollar yechish natijasidagina malakani yuqori darajaga oshirish mumkin.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozir esa elektrotexnikaga oid masalalarni birinchi tartibli differensial tenglamalar tuzish – berilgan boshlang'ich shartlardan foydalanib – xususiy yechimni va qo'shimcha shartlardan foydalanib yordamchi – parametrlarni topish (proporsionallik koeffitsiyenti va boshqalar) larni ko'ramiz.

Masala 1. Kuchlanishi  $E$  va qarshiligi  $R$  bo'lgan  $C$  sig'imli kondensator zanjirga ulangan. Kondensatorni  $t$  vaqtda ulangandagi  $q$  zaryadini toping.

Yechish.  $t$  vaqtdagi kondensatorning  $q$  zaryadi va tok kuchi

$$J = \frac{dq}{dt}$$

bo'lsin. Shu paytda zanjirda (EYuK)  $V$  ta'sir etadi. Bu EYuK

$$V = E - \frac{q}{C}$$

Om qonuniga asosan  $J = \frac{V}{R}$  ni hisobga olib, quyidagi ifodani yozamiz

$$\frac{dq}{dt} = \frac{E - \frac{q}{C}}{R}$$

yoki

$$R \frac{dq}{dt} = E - \frac{q}{C}. \quad (1)$$

(1) tenglama birinchi tartibli chiziqli tenglamadir. Bu tenglamani integrallab, quyidagi umumiy yechimni hosil qilamiz

$$q = CE - C_1 e^{\frac{t}{CR}}.$$

Boshlang'ich shart  $t=0$  da  $q=0$  dan foydalanib  $C_1$  ni topamiz

$$0 = CE - C_1 e^{\frac{0}{CR}}$$

bundan

$$C_1 = CE.$$

U holda xususiy yechim



$$q = CE(1 - e^{-\frac{t}{CR}})$$

bo'ladi.

Masala 2. Zanjirda  $E = 300$  volt kuchlanish bor. Zanjirning qarshiligi  $R = 150$  Om. O'z induksiya koeffitsiyenti  $L = 30$  genri. Zanjir ulanganda hosil bo'lgan  $J$  tok kuchi qancha vaqtda o'zining eng yuqori qiymati 99% ga erishadi.

Yechish. O'z induksiyaning (EYuK) tok kuchining ortishiga proporsional. Zanjirdagi  $L$  o'z induksiya koeffitsiyenti proporsionallik koeffitsiyenti bo'ladi. Zanjir ulanganda unga ikkita qarama-qarshi EYuK lar ta'sir etadi. Zanjirning kuchlanishi  $E$  va o'z induksiya EYuK.

$$E_1 = -L \frac{dJ}{dt}$$

Bu EYuK larning algebraik yig'indisi

$$V = E + E_1 = E - L \frac{dJ}{dt}$$

ko'rinishda bo'ladi. Zanjirdagi  $J$  tok kuchi Om qonuniga asosan quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$J = \frac{V}{R}. \quad (2)$$

(1) ni (2) ga qo'yamiz

$$J = \frac{E - L \frac{dJ}{dt}}{R} \quad \text{yoki} \quad RJ = E - L \frac{dJ}{dt}. \quad (3)$$

(2) tenglamaning o'zgaruvchilarini ajratib, quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$RJdt = Edt - LdJ \quad \text{yoki} \quad LdJ = (E - RJ)dt.$$

Oxirgi tenglikdan

$$dt = \frac{LdJ}{E - RJ} \quad (4)$$

ifodani hosil qilamiz. (4) ni integrallab, umumiy yechimni topamiz

$$t = L \int \frac{dJ}{E - RJ} = -\frac{L}{R} \ln(E - RJ) + C. \quad (5)$$

$t = 0$  da  $J = 0$  shartdan  $C$  ni topamiz

$$0 = \frac{L}{R} \ln(E - R \cdot 0) + C \quad C = \frac{L}{R} \ln E. \quad (6)$$

$J$  ning eng yuqori qiymati  $t \rightarrow \infty$  da  $J = \frac{E}{R}$  bo'lgani uchun, masalaning shartiga asosan  $J = 0,99 \frac{E}{R}$  bo'ladi. Bundan izlanayotgan vaqt quyidagi ifodaga teng bo'ladi.

$$t = \frac{L}{R} \ln \frac{E}{E - 0,99E} = \frac{L}{R} \ln 100 \quad (7)$$

(7) ga  $L = 30$ ,  $R = 150$  qiymatlarni qo'yamiz:

$$t = \frac{30}{150} \ln 100 \approx 0,92 \text{sek}$$

**Masala 3.** Qarshiligi  $R$  va o'zinduksiya  $h$  bo'lgan zanjirga davriy bo'lgan  $E_1 = a \sin \frac{2\pi}{T} t$  elektr yurituvchi kuch ta'sir etmayapti (bu yerda:  $T$  – davr,  $t$  – vaqt,  $a - E_1$  ning maksimal qiymatiga teng bo'lgan o'zgarmas son).

Vaqtning ixtiyoriy momentidagi  $i$  tok kuchini toping (bosh momentda  $i = 0$ ).

**Yechish.** Zanjirda  $E_1$  elektr yurituvchi kuchdan tashqari, bunga qarama-qarshi  $h = \frac{di}{dt}$  ga teng bo'lgan o'zinduksiya elektr yurituvchi kuchi ta'sir etadi.

Demak, zanjirda ikkita kuch ta'siri: Elektr yurituvchi kuch

$$E_1 = a \sin \frac{2\pi}{T} t$$

va bunga qarama-qarshi induksiya elektr yurituvchi kuchi

$$E_2 = -h \frac{di}{dt}.$$

Umumiy elektr yurituvchi kuch ushbu ifodaga ega bo'ladi

$$E = E_1 + E_2 = a \sin \frac{2\pi}{T} t - h \frac{di}{dt}$$

Zanjirdagi tok kuchi Om qonuniga asosan quyidagi ko'rinishga ega

$$i = \frac{E}{R}.$$

Shunjay qilib,

$$i = \frac{a \sin \frac{2\pi}{T} t - h \frac{di}{dt}}{R}.$$

$k = \frac{2\pi}{T}$  belgilash kiritib, ushbu differensial tenglamani hosil qilamiz

$$h \frac{di}{dt} + Ri = a \sin kt. \quad (1)$$

(1) bir jinsli bo'lmagan birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamadir.

$$\frac{di}{dt} + \frac{R}{h}i = 0 \quad \text{yoki} \quad \frac{di}{i} = -\frac{R}{h}dt$$

Bu tenglamani integrallaymiz.

$$\int \frac{di}{i} = -\frac{R}{h} \int dt.$$

Bundan

$$\ln i = -\frac{R}{h}t + \ln c \quad \text{yoki} \quad i = ce^{-\frac{R}{h}t} \quad \text{kelib chiqamiz.}$$

(1) ni xususiy yechimini quyidagi ko'rinishda izlaymiz.

$$i_{xus} = A \sin kt + B \cos kt \quad (2)$$

$A$  va  $B$  koeffitsiyentlar topilishi kerak bo'lgan noma'lum sonlar.

(2) dan qo'yidagini hosil qilamiz:

$$\frac{di_{xus}}{dt} = Ak \cos kt - Bk \sin kt \quad (3)$$

(2) va (3) larni (1) ga qo'yamiz va soddalashtiramiz

$$\left(A \frac{R}{h} - Bk\right) \sin kt + \left(Ak + B \frac{R}{h}\right) \cos kt = \frac{a}{h} \sin kt$$

Bu ayniyatning har ikkala tomonidagi koeffitsiyentlarni tenglab quyidagi sistemani hosil qilamiz

$$\begin{cases} A \frac{R}{h} - Bk = \frac{a}{h} \\ Ak + B \frac{R}{h} = 0. \end{cases} \quad (4)$$

(4) dagi  $A$  va  $B$  larni topamiz

$$A = \frac{aR}{k^2h^2 + R^2}, \quad B = \frac{akh}{k^2h^2 + R^2}.$$

Shunday qilib, xususiy yechim quyidagi ko'rinishga ega

$$i_{xus} = \frac{aR}{k^2h^2 + R^2} \sin kt - \frac{akh}{k^2h^2 + R^2} \cos kt$$

(1) ning umumiy yechimi

$$i = ce^{\frac{R}{h}t} + \frac{aR}{k^2h^2 + R^2} - \frac{akh}{k^2h^2 + R^2} \cos kt. \quad (5)$$

$t = 0$  da  $i = 0$  boshlang'ich shartdagi o'zgarimas  $c$  ni topamiz

$$0 = ce^{\frac{R}{h}0} + \frac{aR}{k^2h^2 + R^2} \sin(k \cdot 0) + \frac{akh}{k^2h^2 + R^2} \cos(k \cdot 0).$$

Bundan

$$c = \frac{akh}{k^2h^2 + R^2}. \quad (6)$$

(6) ni (5) ga qo'yib, (1) ning xususiy yechimini topamiz:

$$i = \frac{a}{k^2h^2 + R^2} \left( khe^{\frac{Rt}{h}} + R \sin kt - kh \cos kt \right).$$

Masala 4. (uzish va ulanish ekstratoki): Induktivlik zanjirida o'tish jarayoni sodir bo'ladi.  $L$  induktivlik va  $R$  aktiv qarshilik o'zgarimas bo'lsin.  $V$  kuchlanish  $t$  vaqtning funksiyasi, ya'ni  $V = V(t)$  bo'lsin. Boshlang'ich tok  $J = J_0$  ga teng.  $J$  tokning  $t$  vaqtga bog'lanishini toping.  $V = V_0 = const$  bo'lgan holni qarab chiqing.

Yechish. Zanjirdagi  $J$  tok vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va  $L$  induktivlik mavjudligi tufayli o'zinduksiyaning quyidagi EYuK hosil bo'ladi

$$J_L = -L \frac{dJ}{dt}$$

Kirxgof qonuniga ko'ra zanjirdagi kuchlanishning pasayishi  $RJ$  EYuK lar yig'indisi

$$V - L \frac{dJ}{dt}$$

ga teng bo'ladi. Shunday qilib

$$V - L \frac{dJ}{dt} = JR \quad \text{yoki} \quad V = L \frac{dJ}{dt} + JR$$

tenglamani hosil qilamiz. Bu birinchi tartibli chiziqli tenglama,  $V = V(t)$  ga almashtirib, tenglamaning ikkala qismini  $L$  ga bo'lib, quyiushbu tenglamani hosil qilamiz:

$$\frac{dJ}{dt} + \frac{R}{L} J = \frac{V(t)}{L}$$

Bu tenglamaning yechimini topish uchun  $J = U(t)Z(t)$  almashtirish kiritamiz:

$$J' = U'Z + UZ'$$

$$U'Z + UZ' + \frac{R}{L}UZ = \frac{V(t)}{L}$$

$$U'Z + (Z' + \frac{R}{L}Z)U = \frac{V(t)}{L}$$

$$Z' + \frac{R}{L}Z = 0$$

$$\frac{dZ}{Z} = -\frac{R}{L}dt$$

$$Z = e^{-\frac{R}{L}t}$$

$$U'Z = \frac{V(t)}{L}$$

$$\frac{dU}{dt} \cdot e^{-\frac{R}{L}t} = \frac{V(t)}{L}$$

$$U = \frac{1}{L} \int_0^t V(\tau) e^{\frac{R}{L}\tau} d\tau + C$$

$$J = U \cdot Z = e^{-\frac{R}{L}t} \left( C + \frac{1}{L} \int_0^t V(\tau) e^{\frac{R}{L}\tau} d\tau \right)$$

$t=0$  da  $J = J_0$  bo'lgani uchun  $C = J_0$  bo'ladi.

$$J = e^{-\frac{R}{L}t} \left( J_0 + \frac{1}{L} \int_0^t V(\tau) e^{\frac{R}{L}\tau} d\tau \right)$$

$V = V(t) = V_0 = const$  bo'lgani uchun

$$J = e^{-\frac{R}{L}t} \left( J_0 + \frac{V_0}{L} \int_0^t e^{\frac{R}{L}\tau} d\tau \right)$$

$$J = \frac{V_0}{R} + \left( J_0 + \frac{V_0}{L} \right) e^{-\frac{R}{L}t}$$

hosil bo'ladi.

a)  $V_0 = 0$  desak, zanjirning uzilishidagi so'nish toki formulasi hosil bo'ladi.

$$j = J_0 e^{-\frac{Rt}{L}}.$$

Zanjirda kuchlanish bo'lmagan holda faqat o'zinduksiyaning EYuK ta'siri natijasida zanjirdan o'tadigan bu tok o'zini ekstratoki deyiladi.

b) Agar  $J_0 = 0$  bo'lsa, demak zanjirning ulanishdagi toki uchun formula hosil bo'ladi.

$$J = \frac{V_0}{R} \left( l + e^{-\frac{Rt}{L}} \right)$$

Bu ifodadan ko'rinadiki,  $J$  tok ulangandan so'ng Om qonuni bilan aniqlanadigan  $\frac{V_0}{R}$  qiymatgacha o'sib boradi, chunki tutashuv ekstratoki deb ataluvchi  $\frac{V_0}{R} e^{-\frac{Rt}{L}}$  tok juda tez kamayadi.

## REFERENCES

1. Понтрягин Л.С. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М., Наука, 1969.
1. Ляшко И.И. и др. Дифференциальные уравнения. Киев: Высшая школа, 1981.
2. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М. Наука, 1979.
3. Салахитдинов М.С., Ф.Н.Насритдинов. Оддий дифференциал тенгламалар. Т. Ўзбекистон, 1994.

## **CHIZMA GEOMETRIYADA MASALALAR YECHISHNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FAZOVIIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-399-409>

**Valiyev A‘zamjon Ne‘matovich**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasida dotsenti

**Jo‘rayeva Mohigul Uyg‘un qizi**

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda chizma geometriya fanining o‘rni va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Ya‘ni, chizma geometriyadagi ba‘zi pozitsion masalalar yechishni o‘qitish orqali talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishning amaliy namunalari grafik masalalar yordamida keltirilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *chizma geometriya, pozitsion masala, metrik masala, to‘g‘ri chiziq, tekislik, proyeksiyalar tekisligi, to‘g‘ri chiziqning izlari, gorizontaal iz, frontal iz, profil iz, tasavvur, tafakkur, ijod, ijodiy masala, koordinata o‘qlari, koordinata boshi.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the role and practical importance of the science of descriptive geometry in the development of students' spatial imagination and thinking. That is, practical examples of developing students' spatial imagination and thinking by teaching them to solve some positional problems in descriptive geometry are presented using graphic problems.*

**Keywords:** *drawing geometry, position problem, metric problem, straight line, plane, projection plane, straight line traces, horizontal trace, frontal trace, profile trace, imagination, thinking, creativity, creative problem, coordinate axes, coordinate head.*

### **KIRISH**

Shiddat bilan rivojlanayotgan va har soatda o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda intellektual salohiyatli va kreativlik darajasi yuqori kadrlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Buni hisobga olgan holda mamlakatimizda ta‘lim sohasiga alohida

ahamiyat berib kelinmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “*yangi fikr va yangi g‘oya bo‘lmasa, taraqqiyot ham, innovatsiya ham yo‘q*” mazmunidagi mulohaza va talabni keskin qo‘ymoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalaridan birida “...*nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi*”<sup>66</sup> deya ta‘kidladilar. Mamlakatimizda qurilish, ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohalariga katta investitsiyalar kiritilmoqda. Bu sohalarda ishlaydigan malakali mutaxassislariga ehtiyoj katta. Bunday mutaxassislarning tasavvuri va tafakkuri keng, kreativlik darajasi yuqori bo‘lishi lozim. Ta‘lim muassasalaridagi asosiy e‘tibor mana shunday iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni sohalarga to‘g‘ri yo‘naltirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bunday mas‘uliyatli vazifani bajarishda texnika va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida professor-o‘qituvchilar halol mehnat qilib kelmoqdalar. Xususan, chizma geometriya va chizmachilik, muhandislik kompyuter grafikasi fanlarining ham o‘z o‘rni va amaliy ahamiyati mavjud.

Chizma geometriya va chizmachilik fanlari talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda boshqa fanlarga nisbatan ma‘lum ma‘noda ustunlikka ega. Chunki bu fanlarda uch o‘lchamli fazoda joylashgan geometrik shakllarning ikki o‘lchamli tekislik yoki sirt ustidagi tasvirini yasash usullari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari bu fanlardagi qoidalar orqali geometrik shaklning tekislikda tasvirlangan chizmasi orqali uning fazoviy holati, shakli-shamoyilini tiklash mumkin. Bu yerda fazodan tekislikka, va aksincha, tekislikdan fazoga “ko‘chish”ni anglash, tushunish, “hazm” qilish uchun kishidan kuchli fazoviy tasavvur va tafakkur talab qilinadi. Tasavvur va tafakkurlar psixologiyada bilish faoliyatiga oid operatsiyalar hisoblanadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

*Tasavvur* – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, *o‘ylash, xayol qilish, ko‘z oldiga keltirish, o‘ylab zehnda gavdalantirish* degan ma‘nolarni beradi.

*Tasavvur qilmoq* – falsafa va psixologiyaga oid termin sifatida *idrok qilingan, his etilgan narsa yoki hodisaning kishi onggida aks etishi, gavdalanishi*.<sup>67</sup>

Tasavvur – hayol uchun asosiy qurilish materialidir. Aslini olganda, hayol - tasavvurning qayta o‘zgartirilishidan iboratdir, ya‘ni ularni fikran qismlarga ajratish,

<sup>66</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2016 yildagi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 46-bet.

<sup>67</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 4 жилд, 2008-7 б.



birlashtirish, transformatsiya qilish va hokazo. Odamning faoliyatida hal qiluvchi rolni *erkin hayol* ya'ni faoliyatning *maqsadga yo'naltirilgan erkin hayoli* o'ynaydi<sup>68</sup>.

Talaba fazodagi geometrik shaklni ko'radi va uni idrok qiladi. Shuningdek uning tekislikdagi ortogonal proyeksiyasini qurishni o'zlashtiradi. Demak, talaba bilish faoliyatining idrok va tasavvur operatsiyalarini o'zidan "o'tkazdi". Bunda dars davomida turli ko'rgazmali plakatlar, animatsiyalardan foydalaniladi, chunki nuqta, chiziq, tekislik kabi geometrik shakllar abstract tushunchalardir. Natijada vizual idrok hosil qilinadi. Hayotda hech qachon nuqtani, chiziqni yoki tekislikni ko'z bilan ko'rib va qo'l bilan ushlab bo'lmaydi. Bular fanda qabul qilingan terminlar bo'lib, turmush va texnikadagi barcha detallar, buyumlar va hattoki tabiatdagi obyektlar ham nuqta, chiziq va tekisliklarning o'zaro kombinatsiyasidan hosil bo'ladi.

Nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklar oddiy geometrik shakllar bo'lib, ular orasidagi turli pozitsion va metrik masalalar yechish o'quv adabiyotlarida keltirilgan. Hatto chizma geometriya fanidan olimpiada masalalarining ko'p qismi ham aynan ularga oid masalalardan tuzilgan. Olimpiada masalalarini yecha olish uchun talabada kreativlik rivojlangan bo'lishi kerak. Chizma geometriya va chizmachilik fanlaridan talabaning kreativligi bevosita undagi tasavvur va tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.


Hozirgi kunda chizma geometriya va chizmachilik fanlaridan bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash davomida ularda tasavvur va tafakkurni rivojlanish darajasi qoniqarli holatda emas. Talabalarda fazodan tekis chizmaga va aksincha, tekis chizmadan fazoga fikran, hayolan o'ta olish, fazodagi turli geometrik yasashlarni ko'z oldiga keltira olish darajasi sustligicha qolmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun pedagog olimlar, chizmakashlar tomonida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bizning ilmiy maqolamizda ham mazkur muammoni bartaraf etishga qaratilgan fikrlarimiz bayon qilinadi. Biz bir qator pozitsion masalalarni yechish va uni o'qitish jarayoniga o'z metodik qarashlarimizni taklif qilamiz. Pedagogik faoliyatimiz davomida bu takliflarimizni tajriba-sinovlardan o'tkazib kelmoqdamiz va u o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

Bizning tadqiqotimizda bitta pozitsion masala namuna sifatida keltirilgan bo'lib, uni o'qitish jaraonida talabaning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Avvalo pozitsion masala deb qanday masalalarga aytiladi? degan savolga javob beraylik. "Ikki geometrik shaklning o'zaro vaziyatidan hosil bo'lgan uchinchi geometrik shaklni aniqlashga qaratilgan masalalarga pozitsion masala deyiladi". Masalan, ikki tekislikning kesishishi, to'g'ri chiziqni tekislik bilan

<sup>68</sup> Нуркова В.В. Общая психология (Том 3, Память). –М.: «Академия». 2006-318.

kesishishi, ikki sirtning kesishishi, o'zaro parallel va perpendikular tekisliklar o'tkazish va boshqalar.<sup>69</sup> Biz to'g'ri chiziqning izlarini aniqlashga oid grafik masalani namuna sifatida ko'rsatamiz.

To'g'ri chiziqning proyeksiyalar tekisliklari bilan kesishish nuqtalari to'g'ri chiziqning izlari deyiladi.<sup>70</sup> Fazodagi umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqning uchta izi, ya'ni mos ravishda gorizonta, frontal va profil izlari bo'ladi. Proyeksiyalar tekisliklaridan biriga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqlarning ikkita izi, proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlarning bitta izi bo'ladi.



1- chizma

Mazkur masalaning berilishi va yechim jarayonini fazoviy holati 1-chizmada ko'rsatilgan. Biroq talabalar buni epyurda bajarishda qiynaladilar, hattoki ba'zi yosh o'qituvchilar masalaning berilishi biroz o'zgacharoq qo'yilsa yechimni aniqlashga qiynalib yoki kamida o'ylanib qoladi. Avvalo, mazkur pozitsion masalani ta'rifaga mos kelishini ko'rib chiqaylik.


Bu yerda to'g'ri chiziq 1- geometrik shakl, proyeksiyalar tekisligi 2- geometrik shakl. Ularning o'zaro munosabatidan hosil bo'lgan kesishish nuqtasi 3- geometrik shakl. Demak, masala albatta pozitsion masala ekan. Masala yechimini talabaga bosqichli algoritm orqali tushuntirish kerak. Chunki batartibli ish kishi xotirasida mustahkam joylahsadi. 2- chizmada mazkur pozitsion masalaning epyurdagi yechimi ko'rsatilgan.

Dastlab a to'g'ri chiziqning gorizonta izini aniqlashni tushuntiramiz.

- a to'g'ri chiziqning  $a''$  frontal proyeksiyasini Ox abscissa o'qi bilan kesishgan  $a''_H$  nuqtasi aniqlanadi ( $a'' \cap Ox \Rightarrow a''_H$ ) va undan vertikal bog'lovchi chiziq chiqariladi;

<sup>69</sup> Valiyev A.N. Perspektiva. –T.: “Voriz-nashriyot” 2012-91 bet.

<sup>70</sup> Murodov Sh.K. va boshq. Chizma geometriya. –T.: “Iqtisod-moliya” 2006-2008 yy.



*Javob: a to'g'ri chiziq fazoda II, I, V va VIII choraklardan o'tmoqda*

2- chizma

- a to'g'ri chiziqning  $a'$  gorizontaal proyeksiyasini chiqarilgan bog'lovchi chiziq bilan kesishgan  $a'_H$  nuqtasi aniqlanadi va bu to'g'ri chiziqning gorizontaal izi hisoblanadi;

- a to'g'ri chiziqning  $a_H$  gorizontaal izining profil proyeksiyasi  $a'''_H$  bog'lovchi chiziqlar yordamida Oy koordinata o'qida aniqlanadi.

Endi a to'g'ri chiziqning frontal izini aniqlashni tushuntiramiz.

- a to'g'ri chiziqning  $a'$  gorizontaal proyeksiyasini Ox abscissa o'qi bilan kesishgan  $a'_V$  nuqtasi aniqlanadi ( $a' \cap Ox \Rightarrow a'_V$ ) va undan vertikal bog'lovchi chiziq chiqariladi;

- a to'g'ri chiziqning  $a''$  frontal proyeksiyasini chiqarilgan bog'lovchi chiziq bilan kesishgan  $a''_V$  nuqtasi aniqlanadi va bu to'g'ri chiziqning frontal izi hisoblanadi;

- a to'g'ri chiziqning  $a_V$  frontal izining profil proyeksiyasi  $a'''_V$  bog'lovchi chiziqlar yordamida Oz koordinata o'qida aniqlanadi.

So'nggi bosqichda a to'g'ri chiziqning profil izini aniqlashni tushuntiramiz.

- a to'g'ri chiziqning  $a'$  gorizontaal proyeksiyasini Oy ordinata o'qi bilan kesishgan  $a'_W$  nuqtasi aniqlanadi ( $a' \cap Oy \Rightarrow a'_W$ ) va u Oy o'qining ikkinchi holatiga aylana yoyi yoki  $45^\circ$  burchak ostida olib o'tiladi hamda undan vertikal bog'lovchi chiziq chiqariladi;


- a to'g'ri chiziqning  $a'''$  profil proyeksiyasini chiqarilgan bog'lovchi chiziq bilan kesishgan  $a'''_W$  nuqtasi aniqlanadi va bu to'g'ri chiziqning profil izi hisoblanadi;

- a to'g'ri chiziqning  $a_W$  profil izining frontal proyeksiyasi  $a''_W$  bog'lovchi chiziqlar yordamida Oz koordinata o'qida aniqlanadi.

Bu algoritm yordamida har qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning izlarini aniqlash mumkin.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, fazodagi a to'g'ri chiziqning II, I, V va VIII choraklardan o'tishi natijasida uning frontal, profil va gorizontaal izlari aniqlanmoqda. Shuningdek, chizma kuzatilsa a to'g'ri chiziqning  $a'$  gorizontaal proyeksiyasida uning frontal izining  $a'_V$  - gorizontaal proyeksiyasi, profil izining  $a'_W$  - profil proyeksiyasi va

gorizontal izining  $a'_H$  - gorizontal proyeksiyasi joylashgan. Bu qoida to'g'ri chiziqning har bir proyeksiyasi uchun mos ravishda ta'sir qiladi.



*Javob: a to'g'ri chiziq fazoda II, I, V va VIII choraklardan o'tmoqda*

3- chizma

Bundan tashqari to'g'ri chiziqning  $a'''$  profil proyeksiyasi berilmagan yoki chizilmagan bo'lsa ham uning profil izini aniqlash mumkinligi 3- chizmadan tushunarli holda ko'rsatilgan.

Talabaga yuqoridagi algoritm tushuntirilgach uni mantiqiy fikrlashga undovchi quyidagi savollar beriladi.

1. Umumiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqning nechta izi

bo'ladi?

2. Proyeksiyalar tekisligiga parallel to'g'ri chiziqning nechta izi bo'ladi va nima uchun?

3. Proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqning nectar izi bo'ladi va nima uchun?

4. Fazodagi nuqta orqali W profil proyeksiyalar tekisligiga nisbatan  $60^\circ$  burchak ostida o'tkazilgan to'g'ri chiziqlarning profil izlari qanday geometrik shaklni hosil qiladi va nima uchun?

5. Qanday vaziyatdagi to'g'ri chiziqning gorizontal va frontal izlari o'zaro ustma-ust tushadi va nima uchun?

6. Bissekto tekisligida yotgan to'g'ri chiziqning izlarini tushuntirib bering.

7. Profil proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqning nechta xos va xosmas izlari bo'ladi va nima uchun?


8. Koordinatalari orqali berilgan AB to'g'ri chiziqning nectar izi bo'ladi -  $A(A_x=0, A_y=0, A_z=60)$ ,  $B(B_x=80, B_y=70, B_z=60)$ ?

Talabani mantiqiy fikrlashga majburlovchi va uning fazoviy tasavvurini rivojlantiruvchi ko'plab bunday savollarni tuzish mumkin.

Keyingi bosqichda talabaga amaliy grafik masalalar beriladi. Bunda to'g'ri pozitsion masala emas, balki, teskari pozitsion masala beriladi. Ya'ni avvalto'g'ri chiziqning izlarini aniqlash talab etilgan bo'lsa, endi izlari berilgan to'g'ri chiziqning proyeksiyalarini tiklash so'raladi. Bunday teskari pozitsion masala nafaqat talabani, ba'zida ayrim tajribasi kam o'qituvchini ham o'ylashga majbur qiladi.

Quyida shunday grafik masalalardan bir nectasini keltiramiz:

- berilgan  $A$  va  $B$  nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqning izlarini aniqlang (3-chizma,  $a$ );
- izlari berilgan  $a$  to'g'ri chiziqning proyeksiyalarini aniqlang (3-chizma,  $b$ );
- $AB$  to'g'ri chiziqning izlarini aniqlang (3-chizma,  $c$ );
- $AB$  to'g'ri chiziqning izlarini profil proyeksiyasidan foydalanmasdan aniqlang (3-chizma,  $d$ );
- frontal izi va unda yotgan  $A$  nuqtaning gorizonttal proyeksiyasi yordamida  $h$  ( $h', h''$ ) gorizonttal to'g'ri chiziqning proyeksiyalarini aniqlang (3-chizma,  $e$ );
- izlari (yoki izi va qolgan ikkita izining proyeksiyalari) berilgan  $a(a', a'', a''')$  to'g'ri chiziqning uchchala proyeksiyasini aniqlang (3-chizma,  $d$ );



3-chizma

Bunday masalalar kishidan kuchli fazoviy tasavvur va tafakkurni talab qiladi. Shu o'rinda bilish psixologiyadagi tafakkur terminining mazmuniga e'tiborimizni qarataylik. Tafakkur – arabcha so'zdan olingan bo'lib, *fikr yuritish, o'ylash, fikrlash* degan ma'nolarni beradi. Birinchidan, *obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash*. Ikkinchidan, *o'ylash, fikr yuritish, muhokama, o'y* deb tushuniladi.<sup>71</sup>

<sup>71</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 4 жилд, 2008-13 б.

## **XULOSA**

Demak talaba fazodagi to'g'ri chiziqning o'z izlari va proyeksiyalar tekisliklari bilan o'zaro munosabatini tahlil qiladi, bu to'g'rida fikr yuritadi, o'ylaydi, geometrik yasash jarayonini, ya'ni voqelikni tasavvur qiladi, fikran muhokama qiladi. Bu holat aynan bilish faoliyati hisoblanadi va talabada aqliy zo'riqish sodir bo'ladi. Unda fikrlar to'qnashuvi sodir bo'ladi. Talaba qisqa yoki uzoq o'ylash, fikr yuritish, taqqoslash, tahlil qilish, amalda tekshirib ko'rish va qaror qabul qilish davomida yakuniy xulosaga keladi. Yechim to'g'ri bo'lsa nur ustiga a'lo nur. Xato bo'lsa o'qituvchi talabaga uni to'g'ri javobga yetaklovchi savollar beradi, 2- chizmada keltirilgan algoritmi va chizmani esiga soladi. Bu yerda eng asosiy yutuq talabani fikrlashga, o'ylashga, abstract narsani ko'z oldida keltirishga, geometrik yasashlarni hayolida gavdalantirishga undalgani hamda uni amalga oshirilganidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chizma geometriyadagi ko'plab pozitsion va metrik masalalarni qanday yechish hamda uni qanday o'qitish masalalari to'g'ri yo'lga qo'yilsa talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishga erishish ta'minlanadi. Shunda biz o'z mustaqil fikriga ega, muammolarga kreativ yondahsadigan va albatta uning yechimini aniqlay oladigan yosh avlodga ega bo'lamiz.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016 yildagi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. 46-bet.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 4 жилд, 2008., 7 va 13 бетлар.
3. Нуркова В.В. Общая психология (Том 3, Память). –М.: «Академия». 2006-318.
4. Valiyev A.N. Perspektiva. –T.: “Vorish-nashriyot” 2012-91 bet.
5. Murodov Sh.K. va boshq. Chizma geometriya. –T.: “Iqtisod-moliya” 2006-2008 yu.
6. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

7. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.
8. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.
9. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNII. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.
10. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195
11. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
12. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
13. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
14. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
15. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст :

непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>

16. Аширбаев, А. (2021). Chizmalarga o'lgan qo'yishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari. *Общество и инновации*, 2(3), 7-15.

17. Valiyev A.N. About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training (ilmiy metodik maqola). *SECTORAL RESEARCH XXI: CHARACTERISTICS AND FEATURES*, March 26, 2021. Chicago, USA. 107-111 betlar.

18. Валиев А.Н. Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. (ilmiy metodik maqola). **Центральноазиатский журнал теоретических и прикладных наук**, Том 2 № 4 (2021): 54-61 стр.

Электронное правительство формируется вследствие использования информационно-коммуникационных технологий исполнительными органами государственной власти. Несмотря на участвовавшее в последнее время упоминание данного термина в научной литературе, единого мнения в отношении его определения пока не существует.

Более того, в научном обороте используется несколько терминов, на первый взгляд схожих по своему содержанию: «электронное государство», «электронное правительство» и «электронное управление». Многообразие используемых в российской научной литературе терминов обусловлено тем, что применяемый в зарубежной литературе термин «e-government» [2]. рассматривается в отечественной правовой доктрине сразу в нескольких значениях.

Термин «электронное государство» в наибольшей степени соответствует английскому термину «e-government», поскольку в зарубежной политико-правовой доктрине данный термин употребляется для описания процессов,

происходящих в государстве в целом и затрагивающих все три ветви государственной власти.

В правовой науке справедливо отмечается, что «электронное государство» означает новый этап развития конституционного государства, который начался на рубеже веков». Роль информационных технологий в развитии электронного государства заключается в: «1) расширении доступа общественности, бизнеса к государственной информации и службам; 2) усилении их роли в процессе принятия решений; 3) в повышении эффективности, оперативности, нововведений и общего качества работы государственных структур» [3].

По справедливому замечанию И.Ю. Богдановской, в зарубежной правовой доктрине различаются широкий и узкий подходы к определению понятия «электронное государство». Узкое определение «обычно сводится к выявлению меры экономической выгоды от внедрения информационно-коммуникационных технологий, широкое определение включает электронную демократию как фактор социального преобразования, способствующий эффективному общественному участию в демократических процессах» [4].

«Английский термин «e-government» также можно перевести как «электронное управление». Но в зарубежной политико-правовой литературе для целей исследования изменений, происходящих в государственном управлении в связи с использованием информационно-коммуникационных технологий, используется термин «e-governance». При этом прямо разграничиваются термины «e-government» и «e-governance». Последний термин используется в литературе намного реже, и для него выработано намного меньше определений. Термин «e-governance» применяется для обозначения электронных взаимосвязей между государственными органами, индивидами и организациями, а также взаимосвязей внутри самого аппарата государства (взаимосвязей между государственными органами, структурными подразделениями государственных органов)».

Как отмечается в исследовании ЮНЕСКО, под «e-governance» («электронным управлением») следует понимать совокупность методов социального управления. В процессе социального управления отношения между государством и гражданским обществом ставятся в зависимость и изменяются под влиянием информационно-коммуникационных технологий, широкое использование которых приводит к возникновению феномена электронного управления. «Электронное управление проявляется в использовании интернета гражданским обществом для целей формирования

общественного мнения и влияния на процесс принятия решений государственными органами, в предоставлении государством публичных услуг и информации в электронной форме, в опубликовании проектов нормативных правовых актов и решений для получения отзывов» [5].

Таким образом, следует разграничивать понятия «e-government» («электронное государство», «электронное правительство») и понятие «e-governance» («электронное управление»). Тем не менее, следует отметить, что в российской правовой доктрине (в частности, в работах И.Л. Бачило) довольно распространена точка зрения, согласно которой термин «e-government» допустимо переводить как «электронное управление» и даже как «электронная администрация». Данный подход встречается также в работах Э.В. Талапиной, которая понимает под «электронным управлением» интерактивные взаимоотношения государства с гражданами и организациями, а также государственных органов между собой [6].

Довольно распространено понимание английского термина «e-government» как «электронное правительство». Данный подход встречается, в частности, в работах П.У. Кузнецова, Л.В. Приходько. Как отмечает П.У. Кузнецов, «наименование «электронное правительство» вначале использовалось специалистами в международной практике внедрения информационных технологий в деятельности правительственных учреждений как словосочетание (electronic government), затем как сокращенный его вариант – e-government. Следует отметить, что неологизм «электронное правительство» вошел в последнее время в обиход наряду с другими новыми терминами, обозначающими комплексное развитие процесса удовлетворения информационных потребностей с помощью применения и использования информационно-коммуникационных технологий... Следуя названной тенденции, авторы разрабатываемого проекта организации деятельности органов исполнительной власти с целью предоставления услуг на основе применения ИКТ использовали термин «электронное правительство» для сокращенного обозначения названного проекта» [7].

Так, например, в одном из ежегодных отчетов Организации Объединенных Наций о развитии электронного правительства в различных государствах отмечается, что слово «электронное» используется вместе со словом «правительство» для признания того, что использование современных информационных и коммуникационных технологий приводит к трансформации внутренних и внешних отношений публичной администрации. Электронное



правительство – это правительство, которое использует информационные и коммуникационные технологии для изменения своих внутренних и внешних взаимосвязей [8].

Европейская Комиссия понимает под электронным правительством использование информационных и коммуникационных технологий в публичном управлении, сопровождающееся организационными изменениями и получением новых знаний, используемых для совершенствования публичных услуг и демократических процессов [9].

В политико-правовой доктрине зарубежных стран также сформировалось два подхода к определению понятия «электронное правительство»: узкий и широкий (общетеоретический).

Широкий (общетеоретический) подход характерен для исследований, проводимых в странах общего права, в частности, для США, где наблюдаются структурные изменения системы исполнительных органов государственной власти, довольно давно приняты законодательные акты, сформировавшие правовую основу электронного правительства, сформировано нормативное определение электронного правительства.

В национальной правовой доктрине и науке существуют определения понятия «Электронное правительство». Далее рассмотрим эти определения. Как утверждает С.Садиков, что “Электронное правительство” – организационная форма государственного управления, учитывающая интересы граждан, которая предназначена для оказания услуг населению органами государственной власти, обеспечения открытости и прозрачности деятельности органов государственной власти и управления с применением информационно-коммуникационных технологий» [10].

В Законе Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» понятие «Электронное правительство» - это система организационно-правовых мер и технических средств, направленная на обеспечение деятельности государственных органов по оказанию государственных услуг физическим и юридическим лицам путем применения информационно-коммуникационных технологий, а также межведомственного электронного взаимодействия» [11].

Широкий подход к определению понятия «электронное правительство» встречается в политико-правовой доктрине Сингапура, правовая система которого также относится к общему праву. Сингапур занимает наиболее высокие позиции в рейтингах развития электронных правительств. Можно сказать, что Сингапур – это то государство, где принципы построения

электронного правительства были реализованы в полной мере. Помимо того, что в данном государстве в электронной форме оказывается несколько сот услуг, в Сингапуре также отмечаются трансформационные изменения в системе исполнительных органов государственной власти и в их взаимоотношениях с индивидами.

Как отмечают ученые-юристы Сингапура, «электронное правительство» означает не только и даже не столько прибавление прилагательного «электронное» к слову «правительство». Формирование «электронного правительства» требует, чтобы Сингапур фундаментально пересмотрел все аспекты государственного управления и оказания публичных услуг. Использование современных технологий необходимо для совершенствования эффективности внутренних процессов, а также для целей изменения природы и качества взаимодействия правительства как с индивидами, так и с коммерческими организациями. При этом электронное правительство характеризуется изменениями в системе исполнительных органов, которые в условиях электронного правительства должны функционировать на основе принципа «много органов исполнительной власти, одно правительство». Данный принцип предполагает, что индивидам должны оказываться «интегрированные» публичные услуги, вне зависимости от количества органов исполнительной власти, занятых в предоставлении таких услуг [12].

Представляется, что под **электронным правительством** следует понимать сопровождающееся изменениями в системе исполнительных органов государственной власти использование такими органами Интернета и иных цифровых технологий с целью предоставления услуг, информации, а также обеспечения демократических процедур, повышения открытости органов. При этом одним из проявлений развития электронного правительства является изменение взаимоотношений между исполнительными органами государственной власти и индивидами.

Информационно-коммуникационные технологии могут существенно перераспределить властные полномочия, функциональные обязанности и контроль внутри и между государственными органами [13]. Кроме того, из-за возрастающего количества публичных услуг, оказываемых при использовании информационно-коммуникационных технологий, развитие электронного правительства влечет за собой существенное изменение в функционировании органов исполнительной власти и в конечном итоге де бюрократизации государственного управления.

Информационные технологии используются для автоматизации административных процедур. Суть административных процедур остается прежней, однако информационные технологии позволяют одновременно обрабатывать значительное количество данных и автоматизировать действия, которые традиционно выполняются государственными служащими. Автоматизация административных процедур приводит к повышению уровня предсказуемости действий исполнительных органов, позволяет объективно оценивать результаты их деятельности, снижает возможность совершения ошибки государственными служащими, не позволяет государственным служащим действовать по своему усмотрению. Это, в свою очередь, снижает риск коррупции.

В тех исполнительных органах, которые используют информационно-коммуникационные технологии для оказания публичных услуг, роль государственных служащих сводится к обработке персональных данных граждан, обработке запросов на предоставление услуг и информации, рассмотрению жалоб, а также к поддержанию работоспособности электронной инфраструктуры (обслуживание Интернет-сайтов, информационных центров, центров «одно окна» и др.).

Использование современных технологий при оказании публичных услуг позволяет уменьшить количество «личного» общения государственных служащих с индивидами, объективировать процесс принятия решений о предоставлении или не предоставлении услуг, что в долгосрочной перспективе приводит к снижению уровня коррупции. Процесс принятия решения государственными служащими становится более прогнозируемым и прозрачным.

Кроме того, использование информационно-коммуникационных технологий при оказании публичных услуг минимизирует риск дискриминации при принятии решений, риск применения избирательного подхода, а также риск нежелательного поведения.<sup>66</sup> Если при оказании услуг традиционными способами государственные служащие могут обратить внимание на такие факторы, как место жительства индивида, уровень его дохода, оказывать предпочтение своим знакомым, родственникам, отказывать в предоставлении услуг в силу личных предубеждений или личной неприязни, то при использовании информационно-коммуникационных технологий количество субъективных факторов, влияющих на процесс принятия решений, существенно снижается.

Электронное правительство представляет собой новое состояние исполнительных органов государственной власти, характеризующееся преобразованием организационной структуры исполнительных органов, изменением взаимоотношений между такими органами и индивидами. Данное понятие также используется для описания процессов, связанных с оказанием публичных услуг и обеспечением доступа к информации о деятельности исполнительных органов государственной власти.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Подходы к определению понятия «электронное правительство» различаются в зависимости от того, где они сформированы. В политико-правовой доктрине и документах государств континентальной Европы распространен узкий подход к определению понятия «электронной правительство». Под электронным правительством понимается использование информационно-коммуникационных технологий исполнительными органами государственной власти для целей оказания публичных услуг в электронной форме. В документах и исследованиях стран общего права сформирован широкий подход к пониманию электронного правительства. Электронное правительство определяется как сложное социальное явление, сопровождающееся также трансформацией исполнительных органов государственной власти, изменением их взаимоотношений с индивидами, повышением их открытости.

### **REFERENCES**

1. Выступление Президента Ш.Мирзиёева на видеоселекторном совещании по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства в отраслях и регионах (22.09.2020 года). Источник: <https://yuz.uz/ru/news/tsifrovoy-uzbekistan-2030-osnovne-polojeniya-i-perspektiv-realizatsii>.
2. Weber M. Economy and Society. An outline of Interpretive Sociology / ed. by Ross G. and Wittich C. Berkeley: University of California Press, 1978. P. 992
3. Информационные ресурсы развития Российской Федерации: Правовые проблемы / отв. ред. И.Л. Бачило. М.: Наука, 2003. с 373.
4. Богдановская И.Ю. Понятие «электронного государства»: правовые аспекты // В сб.: Информационное общество и социальное государство. М.: Юрист, 2011. с 345.

5. Талапина Э.В. К вопросу об информационной функции государства // Информационное общество. 2002. № 1. с 259;
6. Кузнецов П.У. Социальная миссия электронного государства: ценности и терминологические проблемы. с 405.
7. The Role of E-Government for Europe's Future. Communication from the Commission to the Council, the European Parliament, the European Economic and Social Committee and the Committee of the Regions. Brussels, 2003. p 400.
8. С.Садилов. Конституционно-правовые основы формирования и функционирования системы «электронного правительства» в Узбекистане // Юридик фанлар ахборотномаси. Т.ТГЮУ, 2017. №2. с 380.
9. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2015 г., № 49, ст. 611.
10. Siew L., Leng Y. E-Government in Action: Singapore Case Study, in The World of E-Government. NY: Haworth, 2003. p 342
11. Fountain J. The Virtual State: Toward a Theory of Federal Bureaucracy in the 21st Century // In: Democracy.com? Governance in a Networked World. Teddington: Hollis Publishing, 1999.
12. URL:[http://portal.unesco.org/ci/en/files/3044/10274053474E\\_governance\\_study\\_full\\_text.doc/E%2Bgovernance%2Bstudy%2Bfull%2Btext.doc](http://portal.unesco.org/ci/en/files/3044/10274053474E_governance_study_full_text.doc/E%2Bgovernance%2Bstudy%2Bfull%2Btext.doc) (дата обращения: 11.10.2013)
13. URL:<http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/un/unpan012733.pdf> (дата обращения: 11.10.2013).

## **НИКОҲДАН АЖРАЛИШ ТЎҒРИСИДАГИ НИЗОЛАРНИ КЎРИШДА МЕДИАЦИЯНИ ҚЎЛЛАШ**

**Тожиева Муборакхон Анвар қизи**

Ўзбекистон Республикаси Судьялар Олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар  
олий мактаби мустақил изланувчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Муаллиф ажралиш асослари ва тартибини белгиловчи хорижий қонунларни ўрганади. Никоҳни бузиш бўйича маъмурий ва суд тартиб-қоидаларининг нисбатига эътибор қаратилган, судгача бўлган мажбурий тартиб (маъмурий тартиб) таъкидланган. Медиациянинг (унинг элементлари) оилавий-ҳуқуқий низоларни судгача ҳал қилиш шакллари билан боғлиқлиги кўриб чиқилади.*

***Калит сўзлар:** оила ҳуқуқларини суд орқали ҳимоя қилиш; оилавий-ҳуқуқий низоларни судгача ҳал қилиш тартиби; воситачилик, ажралиш.*

### **ABSTRACT**

*The author studies the foreign laws that determine the grounds and procedure for divorce. Emphasis is placed on the ratio of administrative and judicial procedures for dissolution of marriage, emphasizing the mandatory pre-trial procedure (administrative procedure). Mediation (its elements) is considered in connection with the forms of pre-trial settlement of family disputes.*

***Keywords:** protection of family rights through the courts; the procedure for pre-trial settlement of family disputes; mediation, divorce.*

### **КИРИШ**

Оила ва никоҳни мустаҳкамлаш ҳар қандай давлатнинг устувор сиёсати ҳисобланади. Оилавий ҳуқуқий низолар юзага келганда, тегишли низоларни ҳал қилишни тартибга солувчи ҳуқуқий нормалар нафақат субъектлар ўртасидаги келишмовчиликларни бартараф этишга, балки томонларнинг манфаатлари мувозанатини таъминлашга ва оилавий ҳуқуқий муносабатларни уйғунлаштиришга қаратилган бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 63-моддасида оила жамиятнинг асосий бўғини эканлиги ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эгаллиги баён қилинган.

Модданинг иккинчи қисмида эса никоҳ томонларнинг ихтиёрий розилиги ва тенг ҳуқуқлилигига асосланиши кўрсатиб ўтилган [7].

Аксарият давлатлар қонунчилиги анъаналарига мувофиқ, оилавий ҳуқуқий низоларни ҳал қилиш ва фуқароларнинг оилавий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш одил судлов ёрдамида амалга оширилади.

Аммо Носирова И. ҳуқуқни ҳимоя қилишнинг суд шаклига мурожаат қилиш ҳар доим ҳам талаб қилинмайди ва ҳар доим ҳам ушбу муносабатлар иштирокчилари низони ўзлари ҳал қилиш ёки бошқа қонуний процедуралардан фойдаланиш имкониятига эга бўлган соҳада юзага келадиган низоларда тавсия этилмайди [1].

Бизнингча, шахсий оилавий ҳуқуқий низоларнинг ҳал этилиши бу позициянинг яққол тасдиғидир. Кўпинча, низонинг мавжудлиги фақат расмий равишда тан олинади, оилавий ҳуқуқий муносабатлар субъектлари эса процессуал талабларни бажаришга мажбур бўладилар.

Ўзбекистон ва хорижий қонун ҳужжатлари оилавий-ҳуқуқий низоларни ҳал қилишнинг турли шакллари ва усулларини назарда тутди. Шу билан бирга, турли хил мазмун ва характердаги кўрсатмалар белгиланади: императив ва диспозитив, батафсил ва умумий, суд ёки судгача бўлган тартибни тартибга солувчи ва бошқалар. Оилавий ҳуқуқий низоларни ҳал қилиш шакллари ва усулларини қўллаш, хусусиятларини аниқлаштириш ва никоҳдан ажралиш тўғрисидаги низоларни кўришда медиацияни қўллаш нормалари таҳлил қилинади.

Хусусан, медиациянинг суддан ташқари бошқа тартиб-қоидалар, жумладан, оилавий-ҳуқуқий низоларни судгача ҳал қилиш тартиблари ўртасидаги муносабатларни аниқлаш, шунингдек, судда медиация элементларидан фойдаланиш имкониятларини аниқлаш зарур кўринади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Оила ҳуқуқидаги низолар субъект таркиби ва ушбу низолар келиб чиқиши мумкин бўлган масалалар бўйича жуда хилма-хил бўлганлиги сабабли, биз фақат энг кенг тарқалган низоларни - ажралиш билан боғлиқ бўлган низоларни ҳал қилишнинг шакллари ва усулларини кўриб чиқамиз. Таҳлилларга кўра, оилавий низолар ичида энг кўп учраётгани ва энг кўп медиатив процедура қўлланилаётгани ҳам айнан никоҳдан ажратиш тўғрисидаги ишлар ҳисобланади [2].

Масалан, Грецияда никоҳни бузиш билан боғлиқ низоларни ҳал қилишнинг суд тартиби мавжуд. Шу билан бирга, ажралиш жараёнининг

давомийлиги ва кейинги таъминот мажбуриятлари эр-хотинларнинг хоҳиш-иродасига, ажралиш муддатига ва ажралиш сабабларига боғлиқ [4].

Дўстона ажралиш Грецияда ажралишнинг энг соддалаштирилган шакли бўлиб, унда эр-хотинлар битта адвокат хизматидан фойдаланишлари мумкин. Вақт оралиғига кўра, бу турдаги ажралиш 1 йил давом этади, чунки даъво бир неча босқичлардан ўтади. Ишнинг биринчи муҳокамасида, бир ой ичида, тарафлар никоҳни бекор қилиш ниятини билдирадилар ва суд кунида шахсий иштирок этиш шарт эмас, чунки уларнинг манфаатларини адвокат томонидан нотариус томонидан берилган ишончномалар асосида ҳимоя қилиш мумкин. Иккинчи жараён биринчидан 6 ой ўтгач бўлиши керак. Суд қарори қабул қилингандан сўнг, томонларнинг шикоятдан ёзма равишда воз кечиш ҳам талаб қилинади.

Черковда рўйхатга олинган никоҳ ҳам черков органлари томонидан бекор қилиниши керак. Черков томонидан ажрашгандан сўнг, никоҳнинг бекор қилинганлиги тўғрисидаги маълумот никоҳ рўйхатдан ўтган муниципалитетда қайд этилади, сўнгра рўйхатга олиш жойида рўйхатга киритилади.

Францияда никоҳни тугатиш билан боғлиқ низоларни суд орқали кўриб чиқиш мумкин. Биринчи ҳолда, ҳар иккала турмуш ўртоқ ҳам ажрашиш учун биргаликда ариза беради. Шу билан бирга, никоҳнинг бузилганлигини тасдиқлаш учун ҳеч қандай далил талаб қилинмайди, бу ҳолда никоҳни бекор қилиш учун эр-хотиннинг ўзаро розилиги никоҳни бекор қилиш учун асос бўлади. Суднинг вазифаси фақат бундай розилик ҳеч қандай мажбурлаш ёки мажбурий ҳолатлар туфайли эмас, балки ихтиёрий бўлганлигига ишонч ҳосил қилишдир. Ушбу турдаги ажралиш, қонунга кўра, никоҳ тузилган кундан бошлаб олти ой ўтгачгина мумкин. Суд ажрашиш тўғрисида дарҳол қарор чиқармайди, лекин олдиндан уч ойлик мулоҳаза юритиш муддатини белгилайди, бу вақт давомида эр-хотинларга ажрашиш тўғрисидаги қарорни қайтариб олиш ва оилавий муносабатларни тиклашга ҳаракат қилиш имконияти берилади. Агар турмуш ўртоқлар суд томонидан белгиланган муддат тугаганидан кейин олти ой ичида ажрашиш истагини тасдиқловчи ариза бермасалар, никоҳни бекор қилиш тўғрисидаги биринчи ариза ҳақиқий эмас деб топилади.

Эр-хотиннинг ихтиёрий ўзаро розилиги билан ажрашиш фақат эр-хотиннинг аризасини рўйхатдан ўтказувчи судья томонидан расмийлаштирилади.

Швецияда эса ажралиш тўғрисидаги низоларни ҳал қилишнинг суд тартиби қўлланилади, судья эса ажралиш жараёнига аралаштириш ҳуқуқидан



махрум. У никоҳни бузиш оқибатлари тўғрисидаги қарор билан чекланиб, оиланинг бузилиши тўғрисида ҳеч қандай далил талаб қилмасдан, турмуш ўртоқлардан ажратиши шарт.

Аммо Қўшма Штатларда оилавий низоларни суд усуллари билан бир қаторда, турли хил муқобил процедуралар мавжуд ва қўлланилади. Улар одил судловнинг ўрнини босмайди ва манфаатдор шахсларни суд орқали ҳимояланиш конституциявий ҳуқуқидан маҳрум қилмайди. Аксинча, улар оилавий низоларни ҳал қилишнинг давлат ва нодавлат шакллари танилаш имкониятини беради, бу эса томонларга муроасага эришиш учун қайси тартиб энг мос келишини ўзлари ҳал қилишларига имкон беради.

АҚШда медиация низоларни конструктив ҳал қилиш усули сифатида 1960-йиллардан бери қўлланила бошлаган.

Қўшма Штатларда ажралиш судда ҳам, суддан ташқарида ҳам содир бўлади. Суддан ташқари тартиб-қоида барча мулкӣ масалаларни тартибга солувчи, томонларнинг болаларга нисбатан ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгиловчи никоҳ шартномаси мавжуд бўлганда қўлланилади. Никоҳдан олдинги шартнома асосида никоҳ низо бўлмаган тақдирда исталган давлатда бекор қилиниши мумкин.

Никоҳ шартномаси бўлмаган тақдирда, никоҳни бекор қилишнинг суддан ташқари тартиби фақат эр-хотиннинг алоҳида ва умумий мулкни ажратадиган давлатларнинг қонунларида назарда тутилган. Агар турмуш ўртоқларнинг бирига нисбатан мулкӣ даъволари бўлмаса ва умумий фарзандлар бўлмаса, тарафлар ажралиш тўғрисида судга мурожаат қилмаслик ҳуқуқига эга. Ушбу шартлар бўйича ажралиш никоҳ тўғрисидаги ҳужжатни берувчи ва рўйхатдан ўтказувчи давлат органи ёки мансабдор шахси томонидан расмийлаштирилади.

Буюк Британиядаги Ҳуқуқ Жамиятининг Оилавий медиация кенгаши эксперти Л. Паркинсон таъкидлаганидек, яқинлар ўртасидаги келишмовчиликларнинг асосий сабаби қонуний талаблар ёки имтиёзлар излашда эмас, балки низочиларга тегишли бўлган ҳис-туйғулардадир ва шунинг учун бу низоларни судьялар эмас, балки медиаторлар ҳал қилишса иш анча осонлашади, чунки никоҳ муносабатлари бузилганда, оилавий муносабатларнинг бошқа элементлари ҳам бузилиш хавфи остида қолади [3].

Никоҳ-оила соҳасида юзага келадиган низоларни ҳал этишда медиация тартибини қўллаш самарадорлигини жаҳон амалиёти кўрсатмоқда. Мисол учун, Буюк Британия Европада биринчилардан бўлиб, судлардан мустақил равишда оилавий медиация хизматларини ривожлантирди ва бу суд муҳокамаси

бошланишидан олдин ҳам медиацияни осонлаштирди [3]. Судгача медиациянинг инглиз тизими дастлабки босқичда келишувга эришишни осонлаштиради ва кўпинча низоларни судга бормасдан тезда ҳал қилиш имконини беради.

Шу билан бирга, Буюк Британияда никоҳни бузиш судда ажралиш тўғрисида қарор чиқариш йўли билан, одатда, ажралиш тўғрисидаги буйруқ чиқарилгунга қадар амалга оширилади. Суд, шунингдек, ажралишни тақиқлаш тўғрисида қарор чиқариши мумкин: агар никоҳни бузиш даъвогарнинг турмуш ўртоғи ёки умумий болалари учун молиявий қийинчиликларга олиб келиши мумкин бўлса; агар барча ҳолатларни, болаларнинг манфаатларини ва томонларнинг хатти-ҳаракатларини ҳисобга олган ҳолда, никоҳни бузиш адолатсиз бўлади.

Буюк Британияда ажралиш учун қуйидаги асослар тақдим этилади: зино; даъвогарнинг турмуш ўртоғини узрсиз сабабларсиз камида уч йил муддатга тарк этиш; шафқатсиз муомала; даъвогарнинг турмуш ўртоғи судга мурожаат қилгунга қадар камида беш йил давомида даволаниш шарти билан турмуш ўртоғининг даволаб бўлмайдиган руҳий касаллиги.

Германияда ҳал қилишда медиатор иштирокини талаб қиладиган низоларнинг катта қисмини никоҳ ва оилавий низолар ташкил этади, улар орасида никоҳ шартномаси, ажралиш тўғрисидаги битим, эр-хотиннинг биргаликдаги жавобгарлиги, никоҳдан ташқари биргаликда яшашда мулкни тақсимлаш ва бошқалар билан боғлиқ низолар мавжуд.

Австрияда медиациянинг тарқалиши ажралиш пайтида одамларга ёрдам бериш воситаси сифатида воситачиликни жорий этиш имкониятларини муҳокама қилишдан бошланди. Салзбург ва Флоридсдорфда бир нечта пилот лойиҳалар ташкил этилди, уларнинг натижалари Со-медиация жамиятини яратиш орқали институционализация қилинди. Австрияда ажралишдаги низоларни тартибга солиш муаммоларининг ҳуқуқий ислоҳотида (кириш бошланиши - 2000 йил) ажралиш билан боғлиқ бўлиши мумкин бўлган низоларни медиаторлик қилишни таъминлайдиган суд процессуал чоралари ишлаб чиқилган. Шунингдек, ажралиш тўғрисидаги расмий процессда иштирок этмайдиган, аммо ажралиш оқибатлари бўлиши мумкин бўлган барча томонлар учун маслаҳатлашиш имкониятини назарда тутди. Ислоҳот ҳужжатларида медиаторларнинг процессуал ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳам тартибга солинган. Масалан, медиаторлар жим туришлари ва уларга маълум

бўлган маълумотларни ошкор қилмасликлари керак эди, ажралиш шартлари бўйича музокаралар давомида эришилган келишув бундан мустасно.

Австрияда оилавий медиациянинг ўзига хос хусусияти шундаки, бу тартиб икки медиатор (ко-медиация) томонидан амалга оширилади, улардан бири психо-ижтимоий соҳада оила ҳуқуқи соҳасидаги баъзи ихтисосликларга эга бўлган касбда ўқитилган ва оилавий низолар соҳасида тажрибага эга, иккинчиси эса адвокатдир [4].

Шундай қилиб, хорижий давлатлар қонунчилиги таҳлилидан маълум бўлишича, никоҳни бекор қилишда низоларни ҳал этишнинг ҳам суд, ҳам муқобил шакллари қўлланилади, медиация тартиб-таомиллари эса мустакил усуллар сифатида қўлланилади, суд жараёнларига медиация элементлари киритилади.

Медиация АҚШ ва Англияда ҳам, континентал Европа мамлакатларида ҳам кенг тарқалган. Шундай қилиб, Франциянинг амалдаги Фуқаролик процессуал кодекси суд томонидан тайинланган медиация тартибини батафсил тартибга солади. Нидерландияда ярашув тартиб-қоидалари анъанавий тарзда машҳур ва кенг тарқалган. Бу мамлакатнинг қонунчилиги ва амалиёти ҳар хил турдаги низоларни ихтиёрий равишда норасмий ҳал этишга қаратилганлиги, давлат ва хусусий карама-қаршиликларни ҳал қилишда мурося ва консенсусдан кенг фойдаланиш, “юмшоқ ҳуқуқ” тушунчасини ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ этиш ва турли норасмий процедуралар ижтимоий низоларга сезгирлик, муаммоларни рақобатдош бўлмаган шаклда ҳал қилиш билан тавсифланади. Медиация Германияда ҳам, Скандинавия мамлакатларида ҳам муҳим рол ўйнайди. Европада нисбатан қисқа вақт ичида медиация мустакил профессионал амалиётга айланди. Йигирма йилдан камроқ вақт ичида медиаторлар ҳаракати махсус медиация хизматларини яратишда давлат ва жамият томонидан қўллаб-қувватланишига эришди. БМТ Низомининг 33-моддасида низоларни ҳал қилиш воситаси сифатида медиация (музокарачи) касби тан олинган. Бугунги кунга келиб медиация Янги Зеландия, Канада, Австралия, Буюк Британия, Франция, Испания, Италия, Белгия каби мамлакатларда кенг тарқалган [4].

Ўзбекистонда, ҳозирда, республикамизнинг ва чет эл фуқаролари ўртасида никоҳлар сони ортиб бормоқда. Бундай никоҳлар бузилганда, никоҳни бузиш механизмини бирлаштириш орқали олдини олиш мумкин бўлган низолар пайдо бўлади. Суд жараёнига медиация тартиби элементларини жорий этиш жаҳон

амалиётига мувофиқ ҳам хорижий, ҳам Ўзбекистон фуқароларининг ҳуқуқларини амалга ошириш имконини беради.

Қиёсий ҳуқуқий тадқиқотлар нафақат хорижий давлат ҳуқуқининг ривожланишидаги ижобий тенденцияларни аниқлашга, балки уларни Ўзбекистон ҳуқуқ тизимига мослаштиришга ҳам имкон беради. Шундай қилиб, Носирова И. таъкидлаганидек, қиёсий ҳуқуқий тадқиқотлар билим доирасини кенгайтириш вазифаси билан чекланиб қолмайди, у ҳам Ўзбекистон миллий ҳуқуқий таълимотини, ҳам ички қонунчиликни ривожлантиришга ёрдам беради [1].

Бир қатор хорижий давлатларнинг қонунчилигини таҳлил қилиб, хулоса қилишимиз мумкинки, никоҳни бекор қилишдан келиб чиқадиган оилавий ҳуқуқий низоларни ҳал қилиш учун суд тартиб-қоидалари қўлланилади, шу билан бирга оилавий низоларни ҳал қилишнинг муқобил усуллари қўлланилади, улар орасида медиация ҳам бор. Оилавий-ҳуқуқий низоларни ҳал қилишда мамлакатимизда судгача бўлган мажбурий воситачилик бўйича Европа давлатлари ва АҚШ тажрибасидан ҳам фойдаланиш мумкин.

Хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда шуни таъкидлаш керакки, медиация низоларни ҳал этишда самарали восита ҳисобланади. Бунинг сабаби шундаки, низо субъектлари, бу ҳолда никоҳни бузаётган эр-хотинлар жараённинг боришини ўзлари назорат қилишлари ва унинг якуний натижасига таъсир қилишлари мумкин.

Бироқ, аксарият мамлакатлар никоҳни бузиш тўғрисида суд қарори бекор қилиш заруратидан келиб чиқади. Шу билан бирга, медиация элементлари суд муҳокамаси давомида қўлланилади ёки медиация судгача бўлган мажбурий тартибдир. Бу томонларга низони манфаатлар мувозанати асосида ҳал қилиш, судга эса эришилган келишувларни тасдиқлаш имконини беради.

Оилани мустаҳкамлаш, уни асраб-авайлаш, оилавий низоларни бартараф этиш заруриятидан келиб чиқиб, ажрашиш тўғрисидаги низоларни суд тартибида кўриб чиқишда медиация элементларидан мажбурий фойдаланишни назарда тутиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Шундай қилиб, ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 7 ва 8 бобларига асосан, эр-хотинлардан бирининг никоҳни бекор қилишга розилиги бўлмаган тақдирда, суд эр-хотинни яраштириш чораларини кўришга ҳақли ва иш юритишни кейинга қолдиришга ҳақли. Бироқ, уч ойдан кейин ҳам иш кўриб чиқилади ва никоҳ бекор қилинади, яъни бу ишда суднинг

роли, аслида, ФХДЁ функцияларига, яъни собиқ турмуш ўртоқлардан фуқаролик ҳолатини аниқлашга тўғри келади.

## **ХУЛОСА**

Шундай қилиб медиаторни вазибалари ва умумий қоидалари Ўзбекистон республикасининг “медиация тўғрисида”ги қонунида белгилаб қўйилган. Замонавий жамията *медиаторнинг ўрни каттадир*. Медиациянинг моҳияти музокараларда ўз аксини топади. Уларнинг муваффақият билан тугаши учун нафақат тарафларнинг келишмовчиликни енгишга интилиши ва иродаси, балки медиаторнинг қобилияти ва тажрибаси ҳам муҳимдир. Жамиятнинг медиацияга бўлган талаби шунга олиб келдики, натижада дунёда 30 йил олдин секин-аста янги касб – медиатор касби шакллана бошлади. Медиаторлар фаолияти вужудга келган муаммолар, келишмовчилик ва низоларни ҳал қилишга ёрдам беришга қаратилган. Медиатор далилларни ўрганмайди ва тарафларнинг талаблари қонунийлигига баҳо бермайди, унинг асосий вазибаси – тарафлар орасида ўзаро тушунишни таъминлаш, ҳамма иштирокчилар учун мақбул бўлган шароитларда муаммони ҳал қилиш имкониятини амалга оширишни аниқлаш ва ёрдам бериш ҳисобланади. Медиатор вазият ва унинг орқасида турган тарафларнинг ҳиссиёт, манфаат, хоҳиш ва талаблари олдин айтилиши, кейин эшитилиши, ва ниҳоят, ҳамма иштирокчиларга тушунарли бўлиши учун мумкин бўлган ҳамма нарсани қилади. Фақат шундан кейингина медиаторнинг фаол иштироки билан далиллар қайта кўриб чиқилади ва биргаликдаги қарор яъни, барча тараф учун мақбул бўлган низонинг ечими ишлаб чиқилади. Бу жараён нафақат низо ва унинг натижасида келиб чиқадиган салбий ҳиссиётларни енгишга имкон беради, балки келажакда ишонч асосида янги келишувларга эришишга ҳам ёрдам беради. Ўйлаймизки, жаҳоннинг илғор тажрибасини инобатга олган мазкур институт мамлакатимизда кенг куртак ёяди.

## **REFERENCES**

1. Носирова И. АҚШда фуқаролик низоларини муқобил ҳал қилиш. Воронеж: Вестник, 2020.
2. Эсанова З. Роль отдельных процессуальных институтов в судопроизводстве: на примере гражданских дел // Review of law sciences. – 2018. – №. 2. – С.24-28.
3. Паркинсон, Л. 25 лет спустя. Семейная медиация в Англии и Уэльсе / Л. Паркинсон // Медиация и право. Посредничество и примирение. 2018. № 3 (9). С. 16.

- 
4. Besemer, Ch. (1997). Mediation — Vermittlung in Konflikten, Stiftung Gewaltfreies Leben, Werkstatt für Gewaltfreie Aktion [Медиация — посредничество в конфликте, утверждение свободной от насилия жизни, мастерская создания акций, освобождающих от насилия], Baden. 4. Auflage.
  5. <https://lex.uz/docs/3805227> [“Медиация тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 03.07.2018 йилдаги ЎРҚ-482-сон]
  6. <https://lex.uz/docs/104720> [Ўзбекистон республикасининг оила кодекси]
  7. Tojjeva M. A. “Family Mediation: A new forbm of resolving family disputes” The American Journal of Political science law and Criminology (issn-2693-0803) for volume 03 Issue 06 June, 2021.

## **МОВАРОУННАХР ВА ХУРОСОН ТАЗКИРАЧИЛИК МАКТАБИ ШАКЛЛАНИШИ**

**Бобур Қурбонов**

Самарқанд давлат чет тиллар институти  
Яқин шарқ тиллари кафедраси ўқитувчиси (Ўзбекистон)  
Тел: +998973970300

### **АННОТАЦИЯ**

*Мақолада тазкирачилик мактабининг вужудга келиши ва унинг ривожланиши хусусида фикр юритилади. Тазкира шаклидаги асарларнинг турлари ва талаблари ҳам ёритилади. Тазкирачилик мактабининг муҳим жиҳатлари, хусусан форсий ва туркий тазкираларнинг муштарак тарзда ривожланганлигига тегишли бўлган масалалар кенгроқ таҳлил қилнди. Мовароуннаҳр ва Хуросондаги адабий муҳитнинг бир пайтда ривожланганлиги ҳамда бу икки минтақадаги адабий ҳаётнинг бир-биридан фарқли бўлган жиҳатлари тадиқ этилди. XV-XVI асрлардан олдинги даврларда яратилган тазкиравий асарлар хусусида ҳам фикр юритилади.*

*Калит сўзлар:* Тазкира, туркий, форсий, анъана, таржима, Хуросон, Мовароуннаҳр, Ҳиндистон.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается возникновение и развитие школы тазкира (антология). Также освещены виды и требования к произведениям в виде тазкира. Подробно проанализированы важные аспекты школы тазкиры, в частности вопросы, связанные с совместным развитием персидской и турецкой тазкиры. Изучено одновременное развитие литературной среды Мовароуннахра и Хорасана, а также разные стороны научной жизни этих двух регионов. Также рассмотрены произведения тазкира, созданные в период до XV-XVI веков.*

*Ключевые слова:* тазкира, тюркский, персидский, традиция, перевод, Хорасан, Мовароуннахр, Индия.

### **ANNOTATION**

*This article discusses the emergence and development of the tazkira school (anthology). The types and requirements for works in the form of tazkira are also highlighted. Important aspects of the tazkira school are analyzed in detail, in particular, issues related to the joint development of the Persian and Turkish tazkira. The simultaneous development of the literary environment of Movarounnahr and*

*Khorasan, as well as different aspects of the scientific life of these two regions, is studied. Also considered are the works of tazkira created in the period up to the XV-XVI centuries..*

**Keywords:** *tazkira, Turkic, Persian, tradition, translation, Khorasan, Movarounnahr, India.*

## **КИРИШ**

XV-XVI асрларда илм, адабиёт, санъат ва бошқа соҳаларда ҳар томонлама ривожланиш ва ўзгаришлар юзага кела бошлади. Бу асрларда адабий ҳаёт асосан Ҳирот, Самарқанд, Табриз ва Бухоро шаҳарларида ривожланди. Мазкур шаҳарларнинг ҳар бирида адабий марказларлар шаклланган ва бу марказлар бир-бирларига доим рақобат кўрсатиб келган. Булар орасида Ҳирот адабий маркази адабиёт соҳаси бўйича энг намунали эди. Ҳирот мактабининг асосчилари Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Мир Алишер Навоийлар форсий-тожик ва туркий-ўзбек адабиётининг ривожланишига катта ҳисса қўшганлар ва юзлаб шогирдларни тарбиялаб камолотга етказганлар. XV асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ҳиротга турли шаҳарлар ва минтақалардан ёш ижодкорлар таҳсил олиш учун келардилар ва Жомий ҳамда Навоийдек буюк инсонларнинг ҳузурига ташриф буюриш, улардан панд насиҳат олиш ва уларнинг имтиҳонларидан ўтишни ўзлари учун шараф деб билардилар. Улар бу ерда ўз истеъдодларини мукаммаллаштирардилар, буюк шоирлар шеърларига назиралар айтардилар ва адабий анжуманларда бир-бирларининг шеърларини муҳокама қилардилар. Зайниддин Маҳмуд Восифий, Бадриддин Ҳилолий, Мавлоно Ҳотифий ва бошқалар шулар жумласидандирлар.

## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР**

Тазкирачилик мактабининг шаклланиши хусусида кўплаб илмий ишлар амалга оширилган. Хусусан форсий ва туркий тилларда ёзилган тазкираларни тадқиқотига оид илмий ишларда бу масалага кўпроқ эътибор қаратилган. Мазкур мақолада Алишер Навоий “Мажолис ун-нфоис” тазкираси ва унинг таржималари ҳамда Мовароуннаҳр ва Хуросон минтақаларида яшаб ижод қилган бошқа адибларнинг тазкираларига бағишланган илмий асарлардан фойдаланилди. Шунингдек, Навоийнинг мазкур тазкираси, унинг биринчи таржимаси саналмиш “Латойифнома” тазкираси ва бошқа машҳур тазкиралар ушбу ишимизнинг асосий манбалари ҳисобланади.



## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Мовароуннахр ва Хуросондаги адабий муҳит бир пайтда ривожланган бўлса ҳам, бу икки минтақадаги адабий ҳаёт бир-биридан доим фарқ қилиб турган. Кўплаб манбаларда таъкидланганидек, Хуросон адабий маркази Мовароуннахрга қараганда шеърят ва адабиёт соҳаси бўйича анча ривожланган бўлган. Ҳазрат Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ва Фахрий Ҳиравий ҳамда Ҳакимшоҳ Қазвиний таржималарида исмлари зикр қилинган олиму шоирларнинг катта қисми асосан хуросонлик эканликлари бундан далолат беради. “Мажолис ун-нафоис”дан жой олган 480 га яқин шоирларнинг фақатгина 75 нафари Мовароуннахрдан бўлиб, уларнинг аксарияти асосан шоирлик эмас, балки бошқа касб ва ҳунар билан шуғулланганлар. Фахрий Ҳиравий “Латойифнома”сида “Мажолис ун-нафоис”даги шоир ва адиблардан ташқари яна 200га яқин шоирлар ва шеърятга моил бўлган бошқа маслак вакиллари исмлари келтирилган бўлиб, уларнинг ҳам асосий қисмини ҳиротликлар ташкил этадилар. Ҳиротда илм-фандан ва адабиётдан ташқари ҳунармандчилик ҳам ривожланган эди. Мазкур тазкирадаги шоирларнинг 61 нафари ҳунармандчиликнинг 29 тури билан шуғулланганлар.

Хуросонда ички урушлар ҳамда ташқи кучларнинг босқинчилик ҳаракатлари кучайганлиги натижасида инсонлар катта қийинчиликларга дуч келдилар, хусусан ҳунармандларнинг аҳволи кескин оғирлашиб қолди. Бу ҳолат жуда кўп тазкиралар ва таржимаи ҳолга бағишланган асарларда ўз аксини топган. Таъкидлаш жоизки, ушбу оғир вазиятда Мир Алишер Навоий оғир вазиятга тушиб қолган ҳунармандлар, шоирлар ва адибларга кўмаклашиб турган. Зайниддин Маҳмуд Восифий ўзининг “Бадое ул-вақое” асарида ўша даврнинг истеъдодли шоирларидан бири Мавлоно Ҳасаншоҳ ҳаётидан қўйидаги воқеани ёзган: “Бир йили Ҳиротда қиш жуда совуқ келди. Мавлоно Ҳасаншоҳнинг ҳеч нарсаси йўқ эди, аҳволи жуда оғир эди. Ҳаёт азобидан жуда қийин аҳволга тушиб қолган Мавлоно Ҳасаншоҳ ўғлини чақириб шундай деди: -Мотам тутганлар каби кўк кийимни кийиб, Мир Алишернинг уйига бор. Мир сени кўриб ҳол-аҳвол сўрашса, у кишига отам дорулфанодан дорулбақога реҳлат қилди, деб айтгин. Шундан кейин Мир сенга такфин ва тажҳиз учун маблағ беради. Уни олиб бозорга бор ва рўзғор учун бозорлик қилиб кел. Мавлоно Ҳакимшоҳнинг ўғли отасининг топшириғини бажарди. Ҳазрат Навоий унинг отаси ўлганлиги туғрисидаги гапига ишониб, кўз ёш тўқдилар ва унга харажатлар учун маълум миқдорда пул бердилар. Бир кундан кейин Мавлоно

Ҳасаншоҳ Мир Алишернинг уйларига келдилар. Ҳазрати Мир у кишини кўриб, таажжуб билан айтдилар:

-Эй мулла, Сиз ўлган эдингизку?

Бунга жавобан Мавлоно шундай деди:

-Эй Мир, агар ўша Сиз берган инъом бўлмаганида ҳақиқатдан ҳам ўлган бўлар эдим”.<sup>72</sup>

Бир томондан кулгули, бошқа томондан эса ниҳоятда қайғули бўлган ушбу воқеа қалам аҳлининг қанчалик мушкул аҳволга тушиб қолганликларидан далолат беради. Уларнинг яшаб ижод қилишлари учун Мавлоно Жомий ва Ҳазрат Навоий кўмаклашиб турганлар.

Ижтимоий вазият қанчалик оғир бўлганига қарамай, Мир Алишер Навоий яшаб ижод қилган замонда илм ва маърифат юксак даражада ривожланган. Айнан шу даврда дунё адабиётининг энг йирик намунаси саналмиш туркий халқлар адабиётига Ҳазрат Навоий томонидан асос солинди. Форс-тожик адабиёти намояндаларининг бу даврдан олдинги 500-600 йиллар давомидаги ижод маҳсули тўпланиб, мукаммаллаштирилди. Зуллisonайнлик анъанаси ривожланди. Тасаввуф илми тараққиётнинг энг юқори поғонасига кўтарилди. Шулар билан бирга тазкирачилик мактаби шаклланди ва туркий ҳамда форсий тазкираларнинг энг сараси айнан ушбу даврда вужудга келди. Мовароуннаҳр ва Хуросон тазкирачилик мактабининг энг буюк намояндалари айнан шу даврда яшаб ижод қилдилар. Тазкирачиликнинг ривожланишига энг аввало Ҳирот адабий муҳити ўз ҳиссасини қўшган. Шу ерда тазкира жанри ва унинг турлари ҳамда шаклланиш тарихига оид тўхталиб ўтишни маъқул деб билдик. Тазкира сўзи луғатда “зикр қилиш”, “эслаш” маъносини ифода этади ва адабий-илмий атама сифатида шоирлар, олимлар ва дин уламолари таржимаи ҳолига бағишланган асар ҳисобланади. Тазкира адабиётшунослик ва тарих йўналишларида олиб бориладиган илмий тадқиқот ишлари учун асосий манбаларнинг бири сифатида хизмат қилади. Илгари таржимаи ҳолга бағишланган асарларга “табақот”, “ансоб”, “муъжам” ҳамда “ахбор” каби номлар ҳам берилган. Ҳозирги замонда “тазкира” деганда асосан шоир ва адибларнинг ҳаёт ва фаолиятига бағишланган асар тушунилади<sup>73</sup>. Ғарб адабиётида “антология” деб номланган адабий асар ҳам тазкиранинг бир тури ҳисобланади. Шоирларнинг ҳаёт ва фаолиятига бағишланган асарлар жуда кўп бўлиб, уларнинг аксарияти тазкира унвони билан машҳур бўлган. Албатта

<sup>72</sup>Айни С. Восифӣ ва хулосаи «Бадоеъу-л-вақоеъ». Д., 1989. С 58.

<sup>73</sup>دایره المعارف بزرگ اسلامی. زیر نظر کاظم موسوی. تهران، سازمان انتشارات وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامی، چاپ اول. ۱۳۸۱

бундан мустасно бўлган баъзи бир асарлар ҳам мавжуд. Масалан, Алихон Мубталойнинг “Мунтахаб ул-ашъор” номли асари ва яна бир нечта шу каби асарларни тилга олишимиз мумкин.

Шоирлар таржимаиҳолига бағишланган энг биринчи ва мукамал асар бу Муҳаммад Авфий Бухоройнинг “Лубоб ул-албоб”идир. Ушбу даврларда Муҳаммади Ровандийнинг «Тазкираи мусаввар»и (1172й), Камолуддини Хутанийнинг «Манокӣб-уш-шуаро»си, Низомий Арӯзий Самарқандийнинг «Чаҳор мақола»си (1177й), Диловарийнинг «Китоб уш-шеър ваш-шуаро»си каби асарлар ҳам яратилган. Илмий манбаларда булар шоирлар ҳаёт ва фаолиятига бағишланган энг қадимий асарлар, деб қайд қилинган, аммо айнан “тазкира” деб аталган энг қадимий асар бу Давлатшоҳ Самарқандийнинг “Тазкират уш-шуаро” номли тазкирасидир.

Тазкиранавислик анъанасининг вужудга келиши ва ривожланишида араб адибларининг ҳам хизматлари катта. Тазкира ҳақида маълумот берганда Абу Мансур ас-Саолибийнинг хизматлари хусусида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу олим томонидан яратилган “Йатимат ад-дахр фи маҳосин ал-аср” асари ҳам энг қадимги тазкиралар сирасидандир.<sup>74</sup>

Тазкирачилик тарихига назар соладиган бўлсак, бу турдаги асарларнинг яратилиши, айнан тазкира услубида ижод қилиш асосан Мовароуннаҳр ва Хуросонда вужудга келганлигига гувоҳ бўламиз. Тазкирачилик мактаби ҳам узоқ йиллар давомида ушбу минтақада шаклланган ва ундан кейин тазкирачилик санъати бошқа минтақаларга тарқалган. Тазкирачилик мактаби ривожланганидан кейин адиблар орасида ушбу жанрда ижод қилиш анъанага айланди ва тазкиравий асарнинг ўзи мавзу, мундарижа, бадий тил ва услуб жиҳатидан шаклланди. Хусусан XV асрларга келиб тазкира жанри жуда ривожланди. Ушбу даврда Мир Алишер Навоий томонидан “Мажолис ун-нафоис” тазкираси таълиф этилганлиги, мазкур тазкиранинг таржималари ва бошқа мутафаккирлар томонидан яратилган тазкиралар XV асрда тазкирачилтк мактабининг юксак даражада ривожланганлигидан далолат беради.

Тазкиралар мазмун ва ғоя жиҳатидан бир нечта турга бўлинади.

1. Таркибий жиҳатдан мустақил ва ғайримустақил тазкиралар мавжудлиги маълум. Мустақил тазкиралар деганда фақатгина шоирларнинг қисқача таржимаиҳоли ва шеърлари хусусидаги маълумотларни ўз ичига оладиган тазкиралар тушунилади. Бу каби тазкираларга “Лубоб ул-албоб” мисол бўла олади. Ғайримустақил тазкиралар эса шоирларнинг таржимаиҳоли

<sup>74</sup> Абу Мансур ас-Саолибий. Йатимат ад-дахр. – Тошкент: Ўзбекситон ССР «Фан» нашриёти, 1976.

ва асарларидан ташқари уларга тегишли бўлган бошқа маълумотларни ҳам ичига олади. Бу каби тазкираларда шоирларнинг таржимаиҳоли нисбатан муфассалроқ ёритилади.

2. Мавзу жиҳатидан беш турга бўлинади: а) Уламо тазкираси – маълум бир соҳа олимлари хусусидаги тазкиралар. Масалан Али ибн Исонинг “Тазкират ул-куҳҳолин” номли тазкираси кўз касалликларини даволовчи табибларга бағишланган бўлиб, ушбу турдаги тазкираларнинг намунаси ҳисобланади. б) Ҳунармандлар тазкираси – маълум бир минтақада яшаб фаолият кўрсатган ҳунар аҳлига бағишланган тазкиралар бўлиб, бу каби тазкираларда ҳунармандчиликнинг аниқ бир тури билан шуғулланган ҳунармандлар хусусида маълумот берилади. Мирзо Санглоҳ номли адибнинг “Тазкират ул-хаттотин” асари бунга мисол бўла олади. Ушбу тазкирада хаттотлик касби билан шуғулланган ҳунармандлар зикр қилинганлар. в) Орифлар тазкираси – шайхлар ва бошқа дин вакиллари хусусидаги тазкирадир. Бунга “Тазкират ул-авлиё” мисол бўла олади. г) Шоҳлар тазкираси – шоҳлар, амирлар ва давлат арбобларига бағишланган тазкиралар. Бу каби тазкираларга мисол бўла оладиган тазкиралар қаторига “Тазкираи Шоҳ Таҳмосби Сафавий” (Шоҳ Таҳмосб Сафавий Тазкираси)-ни киритишимиз мумкин. д) Шоирлар тазкираси – бу тазкиранинг энг кўп учрайдиган турларидан бири бўлиб, шоирлар, адиблар ва бошқа касб эгаси бўла туриб шеърятга қизиққан ва шеърлар ижод қилган инсонларга бағишланган асар ҳисобланади. Мир Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-Нафоис” тазкираси ва унинг барча таржималари мавзу жиҳатидан айнан шу турдаги тазкиралар қаторига киради.

3. Тазкираларнинг яна бир жиҳати шундан иборатки, улар “умумий” тазкира ёки “хусусий” тазкира бўлишлари мумкин. “Умумий” тазкира деганда ўтмишда яшаб ижод қилган шоирлар ва уламолраддан тортиб то муаллифнинг замонасигача бўлган давр мобайнида яшаб ижод қилган шоиру адибларнинг таржимаиҳоли ва асарларини ўз ичига оладиган тазкиралар назарда тутилади. “Мажолис ун-нафоис” тазкирасини мажлис(боб)ларининг тақсимланишига эътибор қаратадиган бўлсак, айнан ушбу хусусиятнинг гувоҳи бўламиз. “Хусусий” тазкиралар эса мавзу жиҳатиан чегараланган бўлади. Бу каби тазкиралар фақатгина туркий тилда ижод қилган шоирлар тазкиралари ёки фақатгина форс-тожик шеърятига тегишли бўлган асарлар муаллифларига бағишланган тазкиралар бўлишлари мумкин.

Тазкиралар муқаддима, матн ёки тазкиранинг асосий қисми ва хотима қисмидан иборатдир. Тазкиранинг муқаддимаси Аллоҳ Таъоло зикри ва Пайғамбар(с) таъриф тавсифидан иборат. Бундан ташқари муқаддима қисмида саҳобалар ва подшоҳларнинг мадҳи ҳам келтирилади. Шунингдек тазкиранинг ёзилиш таърихи ҳамда тазкирани ёзилишидан кўзланган мақсад ҳам муқаддима қисмида баён этилади. Матн ёки тазкиранинг асосий қисми деганда шоирларнинг таржимаи ҳоли ва уларнинг ижодидан қисқача намуналар назарда тутилади. Хотима қисмида эса маълум бир сабаб билан тазкиранинг асосий қисмида исмлари келтирилмаган шоирлар хусусида маълумот берилади.

Тазкираларни таркибий қисми асосан қўйидаги тартиб асосида тузилади:

1. Алифбо тартиби. Бу турдаги тазкираларда шоирларнинг исмлари тахаллусларининг биринчи ҳарфига қараб бир хил кетмакетликда зикр қилинади. Али Қулихон Волаи Доғистонийнинг “Риёз аш-шуаро” деб номланган тазкираси бу каби тазкиралар қаторига киради.

2. Таърихий тартиб. Бу турдаги тазкираларда шоирлар исmlарининг жойлашиш тартиби уларнинг яшаш замонлари ёки вафот этган йилларига қараб тузилади. Шералихон Лудийнинг “Миръот ул-хаёл” номли тазкираси бунга мисол бўла олади.

3. Жўғрофий тартиб. Бу каби тазкираларда асосан шоирларнинг яшаш манзилларига эътибор берилади ва кетмакетлик тартиби ҳам уларнинг яшаб ижод қилган шаҳар ё мамлакатларига қараб амалга оширилади. Бу турдаги тазкираларга мисол бўла оладиган тазкиралардан бири Дороб Шерозийнинг “Латойиф ул-хаёл” тазкирасидир.

Модел, умуман олганда, тингловчининг ўқиш жойида коммуникация воситалари мавжуд бўлмаган ҳолатлар учун мўлжалланган. Вақтинчалик ўқув жадвали ўзгариши мумкин ва ўқув муассасаси билан келишилади. Якуний аттестация тингловчи иштироки билан ёки унинг бевосита иштирокисиз ўтказилиши мумкин.

## ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, ҳар қандай технологиянинг маъноси ва қўлланиш мақсади – жараёни оптималлаштириш, ундан натижа учун зарур бўлмаган фаолият ва операцияларни чиқариб ташлашдир. Бунда ўқитиш технологиясининг ҳар бир элементида бир бутун таълим жараёнида ўзининг мақсадга мувофиқ жойи мос келади, ҳар бир технологик амал, ҳар бир технологик ҳаракат уни оптималлаштириш масаласини ҳал қилишда ўзининг аниқ ўрнига эга.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 26 февралдаги “Профессионал таълим муассасаларининг бошқарув ҳамда педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 106-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5309472>
2. Джураев Р.Х., Тайлоқов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити-ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси //“Uzluksiz ta'lim”. ИМЖ. – Т., 2004. – №3. – Б. 3-7.
3. Парпиев А. ва бошқ. Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари. – Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти 2008. –196-б.
4. Абдукадиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти (монография). – Т.: «Фан», 2009.
5. М.Т. Михридинова “Масофавий ўқитишасослари” ТАТУ 2011 йил 60 б
6. А.Марахимов, Р.Ҳамдамов Электрон университет. Масофавий таълим технологиялари ЎзМЭ давлат илмий нашриёти. -Т.: 2008, 196 б.
7. Usubovich, O. O., & Ne'matillaevna, Z. D. (2022). METHODOLOGY OF USING CONNECTING ELEMENTS OF SCIENCE IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF THE SCIENCE OF HYDROELECTRIC POWER STATIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 654-661.
8. Zokirova, D. N. M., Qurbonova, F. Q., & Nishonov, M. M. O. G. L. (2022). NAZARIY ELEKTROTEXNIKA FANI DARS MASHG 'ULOTLARIDA INNOVATSION TARBIYA BERISHNING INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 371-377.

- 
9. Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1431-1436.
  10. Otamirzaev, O. U., & Zokirova, D. N. (2019). PROBLEMS ARISING WHEN APPLYING THE “BOOMERANG” METHOD IN THE COURSE OF TRAINING AND METHODS FOR THEIR ELIMINATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 270-274.
  11. Зокирова, Д. Н. (2021). INTEGRATION OF PROFESSIONAL AND EDUCATIONAL DISCIPLINES INTO TRAINING OF SELF-LEARNING MOTIVATED STUDENTS. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-28.
  12. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 179-182.

## **AHOLI TURAR JOYLARIDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**Yarashov K.D. p.f.n., professor.**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,

**Yadgarov D.B.**

Urganch davlat universiteti

Sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi

[yadgarovdoniyor7@gmail.com](mailto:yadgarovdoniyor7@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb muammolar haqida bayon etgan.*

**Kalit so'zlar:** *sog'lom turmush, aholi, jismoniy tarbiya va ommaviy sport, sport, musobaqa, iqtidorli sportchilar, yoshlar, jismoniy tarbiya, jismoniy, ma'naviy, zararli odatlar, iste'dod, dolzarb vazifalar, jismoniy reabilitatsiya, xalqaro sport, aholi sog'lig'ini mustahkamlash, trenerlar, yuksak madaniyat.*

## **THE PROBLEMS OF ORGANIZING PUBLIC SPORTS EVENTS IN RESIDENTIAL AREAS**

**Yarashov K.D.**

candidate of pedagogical sciences, professor.

Uzbek State University of Physical Culture and Sports,

**Yadgarov D.B.**

Urgench State University

Lecturer at the Department of Sports

[yadgarovdoniyor7@gmail.com](mailto:yadgarovdoniyor7@gmail.com)

### **ANNOTATION**

In this article, the importance of mass sports in human and family life in all regions of the country, to promote its physical and mental health, to protect young people from harmful habits, to give them their abilities and desire. He spoke about

the important and pressing issues of creating the necessary conditions for the realization of their goals, the selection of talented athletes and the improvement of the system of targeted training.

**Keywords:** *healthy lifestyle, population, physical culture and mass sports, sports, competitions, talented athletes, youth, physical education, physical, spiritual, bad habits, giftedness, current tasks, physical rehabilitation, international sports competitions, healthcare, coaches, high culture.*

## **KIRISH**

Jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuygʻularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimiz vakillarining Olimpiya oʻyinlari, jahon chempionatlari, Osiyo oʻyinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda Oʻzbekistonning obroʻ-eʻtibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, oʻquvchi va talaba yoshlar oʻrtasida uch bosqichdan iborat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport oʻyinlari ommalashib borayotgani ayniqsa eʻtiborlidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va maʼnaviy sogʻlomlikning asosi ekanini targʻib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga oʻz qobiliyat va isteʼdodlarini roʻyobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.06.2017 yildagi PQ-3031-son.

**Urganilganlik darajasi:** Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy rehabilitatsiyasi uchun zarur shart-



sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi vazifalari:** Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish,

**Tadqiqot uslublari:** jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarining sifat tarkibi, xususan oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha etkazish;

joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida «Bolalar sport o'yinlari»ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida «Talabalar sport o'yinlari»ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish;

aholining keng qatlamlari, jumladan umumta'lim maktabi o'quvchilari, professional va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, ular orasida iqtidorlilarini aniqlash maqsadida «Umumta'lim maktab sporti» festivali, «Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa» ko'rik-tanlovini bosqichma-bosqich (tuman/shahar, hudud, respublika) o'tkazish tizimini ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik darajasi rivojlangan eng yaxshi umumta'lim maktabi, professional va oliy ta'lim muassasasi nominatsiyasini joriy etish;

2020 yildan boshlab sport sohasida «Tashkent Marathon» xalqaro marafoni, «Save Aral» xalqaro ekomarafoni, avtoralli va motokross sport musobaqalarini tizimli o‘tkazish orqali sport turizmini rivojlantirish;

aholining barcha qatlamlari o‘rtasida «Jismoniy tayyorgarlik darajasi» sinovlarini o‘tkazishni joriy etish;

sport turlari bo‘yicha terma jamoalar sportchilari uchun ilmiy-kompleks laboratoriyalar tashkil etish, tayyorgarlik jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sport sohasida samarali tibbiy va farmakologik ta‘minotni yo‘lga qo‘yish;

sport turlari bo‘yicha 18 yoshgacha bo‘lgan hududiy terma jamoa a‘zolarini hududiy bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarining o‘smirlar bo‘limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a‘zolarini tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib borish mexanizmini joriy etish;

2020 yil 1 fevraldan boshlab bosqichma-bosqich olimpiya sport turlari bo‘yicha respublika sport musobaqalarida doping-test namunalari olish tizimini joriy etish; qishki Olimpiya sport turlari infratuzilmasini yaratish, ushbu sport turlarini ommaviylashtirish orqali professional sportchilarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

## **NATIJALAR**

O‘zbekiston sport delegatsiyalarini nufuzli sport musobaqalariga tizimli tayyorlash bo‘yicha Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida Olimpiya tayyorgarlik markazini tashkil etish;

xorijlik sportchi va muxlislarni keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida «xospitaliti xizmatlari»ni yo‘lga qo‘yish, «Sport Visa» qo‘shimcha (elektron bo‘lmagan) kirish vizasini joriy etish;

sport sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish, shu jumladan sport tashkilotlarida davlat ulushini kamaytirish bo‘yicha zarur choralar belgilash;

sport lotereyalarini tashkil etish orqali sportni qo‘shimcha moliyalashtirish tizimini kengaytirish;

huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tizimidagi ta‘lim muassasalari, jumladan «Temurbeklar maktabi» o‘quvchi-talabalari uchun «Armiya o‘yinlari» dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha fakultativ mashg‘ulotlar va to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish, sport inshootlari va muassasalarining boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jumladan «Sport.uz» axborot tizimi orqali sport inshootlarining telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini taʼminlash;

milliy sport turlarini rivojlantirish va ommaviylikini oshirish, ularni Osiyo va Olimpiya oʻyinlari dasturlariga kiritish boʻyicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yoʻnalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sogʻlom turmush tarzi va muxitni yaratadi. Jumladan turli kasalliklar, yoshlar oʻrtasida zararli odatlarning oldini olish, mardlik, olijanoblik, vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga gʻurur-iftixor bagʻishlaydi.

## **XULOSA**

Jismoniy tarbiya va sport soxasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. Uzlüksiz sport musobaqalari “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” kabilar yoshlarni ommaviy sportga, sogʻlom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Isteʼdodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash boʻyicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumtaʼlim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashgʻulotlarda qobiliyati koʻzga tashlangan oʻgʻil-qizlar bolalar va oʻsmirlar sport maktablari, sport kollejlari olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy oʻquv yurtlari va oʻquv-yigʻin mashgʻulotlarida mahoratini oshirmoqda.

## **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. «Халқ сўзи» Г.// 08.02.2017 й. №28 (6722).
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. «Халқ сўзи» Г.// 23.12.2017.
3. Спортни янада оммалаштириш, маҳоратли мураббий ва спортчиларни тайёрлаш масалалари муҳокама қилинди. «Халқ сўзи» Г.// 01.11.2017.

- 
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 15 феврал, ПФ-4956-сон. «Халқ сўзи» Г.// 17.02.2017. №35 (6729).
5. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 24.01.2020 йилдаги ПФ-5924-сон

## **ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RAQOBATGA ZID AMALIYOTLAR**

**Eshonqulov Asadulla Akram o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: alimhammadmuso@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola elektron tijorat bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobatga zid amaliyotlar, intellektual mulk sohasidagi raqobat qonunchiligining buzilishi va ustun monopol mavqeyini suiiste'mol qilish hamda bunga elektron tijoratda yo'l ochib berayotgan holatlarni milliy huquqiy hujjatlar va nazariy adabiyotlar asosidagi tahlilini o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *elektron tijorat, raqobat, raqobatga zid hatti harakatlar, intellektual mulk, tovar belgilari, firma nomlari, domen nomlari, litsenziya shartnomasi va franshizing, ustun monopol mavqe.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Эта статья включает в себя анализ антиконкурентной практики между хозяйствующими субъектами на рынке электронной коммерции, нарушений законодательства о конкуренции в сфере интеллектуальной собственности и злоупотребления доминирующим монопольным положением, а также ситуации в сфере электронной коммерции на основе национальные правовые документы и теоретическая литература.*

**Ключевые слова:** *электронная коммерция, конкуренция, антиконкурентное поведение, интеллектуальная собственность, товарные знаки, фирменные наименования, доменные имена, лицензионные соглашения и франчайзинг, превосходящее монопольное положение.*

### **ABSTRACT**

*This article provides an analysis of anti-competitive practices among businesses in the e-commerce market, violations of competition laws in the field of intellectual property and abuse of a dominant monopoly position in e-commerce on the basis of national legal documents and theoretical literature.*

**Keywords:** *e-commerce, competition, anti-competitive behavior, intellectual property, trademarks, trade names, domain names, license agreements and franchising, superior monopoly position.*

## **KIRISH**

Bugungi kun zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot kundan kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Shu munosabati bilan elektron tijorat tijoratning yangi shakli sifatida zamon talablariga javob bermoqda. Ayniqsa, COVID-19 global pandemiyasi tufayli elektron tijorat dunyoning barcha mamlakatlarida misli ko‘rilmagan o‘shini boshdan kechirdi. Buni quyidagi ma’lumot ham tasdiqlaydi: “Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta’minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan ko‘prog‘i uning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.”<sup>93</sup>

O‘zbekistonning ustuvor xalqaro maydonda o‘rnini yaxshilash maqsadida fuqarolik muomalasida raqamli texnologiyalarni samarali tatbiq etish uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmonida, ayniqsa, ushbu Farmonning 2.3.bandida “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” sifatida elektron tijoratni yanada rivojlantirish va uning rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarni yaxshilash chora-tadbirlari belgilab berildi. Shuningdek, elektron tijorat rivojlana borgan sari undagi raqobat muhitini yaxshilash muammolari ham yuzaga chiqmoqda. Prezidentning 6.07.2020 yilda «Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6019-son Farmoni qabul qilindi. U mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, bozorlarda raqobatni muhitini yana yaxshilash va iste’molchilar huquqlarini ta’minlashni bo‘yicha qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishning samarali tizimini yaratishni o‘z ichiga oladi. Elektron tijorat rivojlana boshlagan sari undagi muammolar, tartibga solish masalalari bilan bir qatorda an’anaviy savdoda bo‘lganidek, raqobat zid holatlar ham uchraydi. Mazkur maqoladi biz elektron tijoratdagi raqobatga zid amaliyotlarni tahlil qilamiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tijorat subyektlari foyda olish maqsadida qonun yo‘l bergan usullar bilan bir qatorda, oson foyda olish yo‘li sifatida raqobat qonunchiligiga zid hatti-harakatlarni

<sup>93</sup> Mirziyoyev Sh. M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 177

sodir etishlari ham mumkin. Avvalo, raqobatga qarshi harakatlar nima ekanligiga to'xtalsak:

“Raqobatga qarshi harakatlar — raqobat to'g'risidagi qonunchilikda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun man etilgan harakatlar, shuningdek davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi).”<sup>94</sup>

Demak, yuqoridagi “Raqobat to'g'risidagi” qonundan kelib chiqib, elektron tijoratda raqobatga qarshi harakatlarni ham sodir etuvchi shaxslarga ko'ra quyidagi ikki turga bo'lishimiz mumkin:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sodir etilgan raqobatga qarshi harakatlar.

2. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ular mansabdor shaxslarining raqobatga qarshi harakatlari.

Elektron tijoratda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sodir etilgan raqobatga qarshi harakatlarni o'rganish uchun shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lib olamiz:

1. Elektron tijoratda intellektual mulk bilan bog'liq raqobatga qarshi harakatlar.

2. Elektron tijoratda raqobatchilarning o'zaro raqobatga zid kelishuvlari va ustun mavqeni suiiste'mol qilish bilan bog'liq harakatlar.

Elektron tijoratda intellektual mulk bilan bog'liq raqobatga qarshi harakatlarni tartibga soluvchi to'g'ridan to'g'ri norma yo'q. Shuning uchun an'anaviy tijoratni tartibga solishga qaratilgan normalar umumiylik asosida elektron tijoratga ham qo'llanilaveradi. Elektron tijoratda intellektual mulk bilan bog'liq raqobatga qarshi harakatlar bu tovar belgilari, firma nomlari, domen nomlari, litsenziya shartnomasi va franshizing bilan bog'liq qonunchilikni buzganda kelib chiqadi. Tovar belgilari “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqishi nomlari to'g'risida”gi Qonunda belgilangan tartibda himoya qilinadi. Ushbu Qonunga ko'ra “Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi (bundan buyon matnda tovar belgisi deb yuritiladi) bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini (bundan buyon matnda tovarlar deb yuritiladi) boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir.”<sup>95</sup>

<sup>94</sup> O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi Qonuni, 06.01.2012 yildagi O'RQ-319-son  
<https://lex.uz/docs/-1931443?otherlang=1>

<sup>95</sup> O'zbekiston Respublikasining “Tovar belgilarini, xizmat ko'rsatish belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida”gi Qonuni, 30.08.2001-yildagi 267-II-son  
<https://lex.uz/docs/-24925>

Demak, tovar belgisining asosiy maqsadi boshqa shu turdagi tovarlardan ajralib turishidir. Tovar belgilari ushbu qonun bo'yicha himoya qilinadi. Lekin Tovar belgisi, albatta, davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish nomlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra tovar belgilarini Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi ro'yxatga oladi va tegishli guvohnoma beradi. Tovar belgilari va firma nomlari butunlay boshqa boshqa narsalar bo'lib ularni ajratib olish lozim. Eng mashhurlardan misol keltiradigan bo'lsak, "APPLE" bu firma nomiga, tishlangan olma tasviri esa tovar belgisiga misol bo'la oladi.

Elektron tijoratda tovar belgilaridan noqonuniy foydalanish holatlari ko'p uchraydi, ammo uni aniqlash an'anaviy tijoratdagidan ancha mushkilroq. Chunki internet olami keng. Shu bilan birgalikda tovar belgisi bilan bog'liq huquqlar boshqa davlat hududida buzilgan bo'lishi mumkin. Tovar belgilari faqatgina o'zi ro'yxatga olingan hudud doirasida himoya qilinadi. Ularni dunyo bo'ylab xalqaro ro'yxatdan o'tkazuvchi tizim yo'q, lekin ayrim mintaqaviy xalqaro ro'yxatdan o'tkazuvchi tizimlar ishlab chiqilgan. Masalan, Madrid tizimi. "Tovar belgisini xalqaro ro'yxatdan o'tkazishni so'rab Madrid ittifoqiga a'zo davlatlardan birining fuqarosi yoki uning hududida yashash joyi, shuningdek, sanoat yoki tijorat korxonasi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxs murojaat qilishi mumkin."<sup>96</sup> Bu holatda ham tovar belgisiga bo'lgan huquqni xalqaro himoya qilishning iloji yo'q. Chunki tadbirkorlik subyekti faqatgina shu mamlakatda yoki shu ittifoq hududida o'zining tovar belgisini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazgan bo'lsagina, o'zining tovar belgisini himoya qilishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Bu esa tovar belgisiga bo'lgan huquq boshqa davlat hududida buzilgan bo'lsa masalani yanada qiyinlashtiradi. Buning ustiga internet orqali mashhur brendlar nomlari ostida juda ko'plab mamlakatlarda ko'pchilik tadbirkorlar mahsulot ishlab chiqarishi va elektron bozorlarda sotishi mumkin. Bu esa ularni aniqlash va tegishli jazolash ishini og'irlashtiradi va soxta (kontrafakt) mahsulotlarning ko'payishiga olib keladi.

Firma nomlari bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari buzilishi ham raqobat qonunchiligiga zid harakatlardan bo'lib, insofsiz raqobat hisoblanadi va bugungi kunda elektron tijoratda ko'plab sodir bo'layotgan hodisalardandir. Firma nomlaridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar bizning mamlakatimizda, avvalo, Fuqarolik kodeksi, shuningdek, "Firma nomlari to'g'risida"gi aynan shu masala bo'yicha Qonun va "Raqobat to'g'risida" va "Reklama to'g'risida" gi qonunlari bilan tartibga solinadi. Firma nomlari bilan bog'liq masalalarda yuqoridagi qonunchilik buzilgan

<sup>96</sup> Ro'zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. O'quv qo'llanma



hollarda O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 78 va 781-moddalariga ko‘ra ma‘muriy javobgarlik kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra: “Firma nomi yuridik shaxs bo‘lgan tijorat tashkilotining (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) individual nomi bo‘lib, unga doir mutlaq huquq yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtda yuzaga keladi”<sup>97</sup>. Qonun bo‘yicha firma nomining asl maqsadi uni individuallashtirish hamda boshqa yuridik shaxslardan ajratish va farqlash ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu har bir yuridik shaxsning individual obro‘si faqat o‘zi uchun xizmat qilishi hamda iste‘molchilar o‘zlari ishonadigan firmalarning mahsulotlari sotib olishi uchun muhim. Ammo, elektron tijoratda firma nomlari bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etish oson. Bunday insofsiz raqobatlar ma‘lum bir firma nomiga juda o‘xshaydigan, adashtirib yuborish darajasida yaqin o‘xshashlikka ega, yoki boshqa yuridik shaxsning qisqartirilgan nomidan domen nomi sifatida foydalanish shaklida ko‘p uchraydi. Nom o‘xshashligi asosida iste‘molchilar o‘zi istamagan holatda boshqa firmaning mahsulotlarini xarid qilishadi. Chunki ular firma nomini ko‘rishadi xolos, mahsulotni yoki subyektiv boshqa belgilarni internet orqali ko‘rishning iloji yo‘q. Internet olamida esa juda katta hajmdagi mahsulotlarni tezda sotish mumkin, uni bartaraf etish jarayoni esa qiyin va imkon bo‘lganda ham ko‘p vaqtni oluvchi jarayon hisoblanadi.

Shuningdek, bugungi adabiyotlarida “cybersquatting”- “kiberskvotting” degan atama kirib kelgan. Adabiyotlarda ushbu atamaga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Axborot texnologiyalaridan foydalanishda insofsiz raqobatning eng mashhur shakli bu “cybersquatting”- “kiberskvotting” ya‘ni boshqalarning tovar belgilari yoki firma nomi yoki ularga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash bo‘lgan nomlar ostida domen nomini ro‘yxatdan o‘tkazishdir. Intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan insofsiz raqobat shakli sifatida kiberskvotting individuallashtirish vositasiga bo‘lgan huquqni himoya qiladigan tegishli mamlakat qonunchiligi asosida javobgarlikki tortiladi”<sup>98</sup>. Bu internetda o‘xshash nomdagi sayt yaratib insofsiz raqobat qilish holatlari hisoblanadi. Iste‘molchilar o‘zi istagan mahsulotni qidirishadi va domen o‘xshashligi asosida boshqa saytga kirib o‘zlari istamagan mahsulotlarni xarid qilishadi. Bunday amaliyotlar juda ko‘plab uchraydi va insofsiz raqobatda bu huquqbuzarliklarni sodir

<sup>97</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 18.09.2006-yil, O‘RQ-51-son  
<https://lex.uz/ru/docs/-1055517>

<sup>98</sup> Ro‘zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish.O‘quv qo‘llanma

etish juda oson. Ammo, O'zbekistonda bunday huquqbuzarlik jahondagi singari ko'p emas.

Bevosita domen nomlari bilan bog'liq insofsiz raqobat amaliyotlariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda domen nomlarini ro'yxatdan olish O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Bosh direktorining 2008-yil 26-maydagi 155-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "UZ" domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom bilan tartibga solinadi. Ushbu nizomda domen tushunchasi bilan bog'liq quyidagi tushunchalar keltirilgan:

“domen — nomli mezon bo'yicha ajratilgan va uni qo'llab-quvvatlash uchun javob beradigan tashkilotga egalik qilish uchun taqdim etilgan Internet tarmog'ining qismi;

domen nomi — axborot resursiga yoki axborot tizimiga berilgan, ularni Internet jahon axborot tarmog'ida identifikatsiyalash uchun xizmat qiladigan noyob nom”<sup>99</sup>.

Soddaroq qilib aytganda “UZ” domeni bu milliy domen hisoblanadi hamda O'zbekiston hududidagi domenlar uchun amal qiladi. Domenni o'zi sayt nomi hisoblanadi va izlagan saytimizni tezroq, tushunarsiz belgilarsiz toppish imkonini beradi.

Domen nomlari bilan bog'liq insofsiz raqobat holatlari bevosita firma nomlari bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi. Bunday holatlarda domen nomi yoki firma nomlarini ro'yxatdan o'tgan sanasiga qarab, qaysi taraf insofsiz raqobatga yo'l qo'yayotganini aniqlash mumkin. “Firma nomlari to'g'risida”gi Qonunning 11-moddasida quyidagicha tartib belgilangan:

“Agar tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), domen nomiga bo'lgan huquq firma nomiga bo'lgan huquqdan ilgari olingan bo'lsa, tovar belgisida (xizmat ko'rsatish belgisida), domen nomida ushbu firmaning nomidan foydalanish firma nomiga bo'lgan mutlaq huquqning buzilishi deb e'tirof etilmaydi.”<sup>100</sup>

Demak, domen nomi firma nomidan ilgariroq ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, firma nomi bilan bir xil domen nomidan foydalanish mumkin. Chunki domen nomi firma nomidan ilgariroq vujudga kelgan. Lekin mavjud ro'yxatdan o'tgan firmaning nomidan uning roziligisiz domen nomi sifatida undan keyin ro'yxatdan o'tib foydalanish mumkin emas, bu raqobat qonunchiligiga ziddir.

Litsenziya shartnomasi va faranshizing bo'yicha intellektual mulk huquqlarining raqobat qonunchiligiga zid ravishda buzilish holatlari ham uchrab turadi.

<sup>99</sup> O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Bosh direktorining buyrug'i, 23.06.2008 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1830

<sup>100</sup> O'zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to'g'risida”gi Qonuni, 18.09.2006-yil, O'RQ-51-son  
<https://lex.uz/ru/docs/-1055517>

“Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasining yuridik ta’rifiga ko‘ra bir tomon (litsenziar) boshqa tomon (litsenziat)ga haq evaziga mutloq huquqlar kompleksini, shu jumaladan litsenziarning firma nomi, qo‘riqlanadigan tijorat axboroti, mutlaq huquqlarga kiruvchi boshqa obyektlardan (tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va ixtirolar hamda boshqalardan foydalanish huquqini berish majburiyatini oladi. Bunda litsenziarning ishchanlik obro‘si va tijorat tajribasidan foydalanish nazarda tutilgan.”<sup>101</sup>

Ushbu shartnoma turida bir taraf ikkinchi tarafning firma nomi, tovar belgisi boshqa intellektual mulkka oid huquqlari va tajribasidan shartnoma asosida foydalanish uchun shu firmaning o‘zi bilan shartnoma imzolaydi. Fuqarolik kodeksiga ko‘ra bu shartnoma yozma ravishda tuzilishi va litsenziatning shartnoma asosida olgan barcha huquqlari belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. Ushbu tartibga amal qilmaslik shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Ammo, elektron tijorat amaliyotida bu shartnoma tuzmasdan firmaning barcha huquqlaridan foydalanish holatlari uchrab turibdi. Xususan, xarid.uzex.uz va cooperation.uz platformalarida 35 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan “ORGSELL” MCHJga tegishli “AVTECH” tovar belgisidan jamiyatning ruxsatisiz foydalanishi ham shunga misol bo‘la oladi. Chunki ular elektron tijoratda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasini tuzmasdan insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yishgan.

Endilikda, Elektron tijoratda raqobatchilarning o‘zaro raqobatga zid kelishuvlari va ustun monopol mavqe‘ni suiste‘mol qilish bilan bog‘liq harakatlarni tahlil qilamiz. Raqobatchilar raqobatga zid kelishuvlarni o‘zaro o‘g‘zaki va yozma shartnomalar orqali amalga oshirishadi. O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunida raqobatga qarshi kelishuv tushunchasiga ta‘rif berilgan. Unga ko‘ra: “Raqobatga qarshi kelishuv **kelishuv** — ikki va undan ortiq taraflarning raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan, hujjatda yoki bir nechta hujjatda aks etgan yozma shakldagi shartlashuvi, shuningdek og‘zaki shakldagi shartlashuvidir”<sup>102</sup>.

Raqobatga qarshi shartnomalar - bu raqobatchilar o‘rtasidagi raqobatni oldini olish, cheklash yoki buzish uchun tuzilgan shartnomalardir. Bunday shartnomalar raqobatga sezilarli salbiy ta‘sir keltirib chiqaradi yoki kelajakda keltirishi mumkin bo‘ladi. Raqobatga qarshi bitimlar bozorning uzluksiz ishlashini buzadi yoki cheklaydi va iste‘molchining tanlov imtiyozlarini chegaralanganli, unga ta‘sir

<sup>101</sup> Ro‘zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. 97-bet

<sup>102</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319-son  
<https://lex.uz/docs/-1931443?otherlang=1>

etganligi tufayli yakunda iste'molchiga zarar yetkazadi. Sof raqobatda iste'molchilar hech qanday cheklovlarsiz mahsulotni tanlash bo'yicha imkoniyatga ega bo'lishi kerak deb hisoblaniladi. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi bilan raqobatni cheklaydigan harakatlar va kelishuvlar ta'qiqlaniladi. Ushbu Qonunga ko'ra o'zaro raqobatlashayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, o'rtasidagi raqobat qonunchiligi bilan man etilgan kelishib olingan harakatlar va kelishuvlar, agar bunday kelishib olingan harakatlar va kelishuvlar:

“Sun'iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlarni yoki ustama narxlarni belgilashga yoki saqlab turishga;

narxlarni sun'iy ravishda oshirgan yoki pasaytirgan holda erkin bozor narxlarining qaror topishiga to'sqinlik qilishga;

ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatishga;

taklif hajmini sun'iy ravishda o'zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olishga;

shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklovchi boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishga;

auksionlarda, birjalarda va boshqa savdolarda narxlarni oshirishga, pasaytirishga yoki saqlab turishga;

shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishga;

tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tegishli tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari sifatida bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlashtirishga yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlarni muayyan tovarlar bozoriga qo'ymaslikka;

tovarlarni ishlab chiqarishni iqtisodiy yoki texnologik jihatdan asossiz ravishda kamaytirishga va (yoki) to'xtatishga;

muayyan sotuvchilar yoki xaridorlar (buyurtmachilar) bilan shartnomalar tuzishdan asossiz ravishda bosh tortishga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, taqiqlanadi.”<sup>103</sup>

<sup>103</sup> O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, 06.01.2012 yildagi O'RQ-319-son  
<https://lex.uz/docs/-1931443?otherlang=1>

Yuqoridagi holatlar an'anaviy bozorlardagi raqobatga tegishli bo'lsa-da, elektron tijorat uchun ham amal qilinaveradi. Chunki tijorat an'anaviy bozor orqali qilinadimi toki elektron va raqamli tarzda amalga oshiriladimi yo'qmi baribir tijoratligicha qolaveradi. Shuning uchun ham ushbu qonun qoidalar elektron tijoratda ham qo'llanilaveradi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, raqobat qonunchiligiga ko'ra birorta korxonalar yoki korxonalar birlashmasi, shaxs yoki shaxslar birlashmasi tovarlarni ishlab chiqarish, etkazib berish, tarqatish, saqlash, sotib olish yoki nazorat qilish yoki xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha raqobatga sezilarli darajada salbiy ta'sirga sabab bo'ladigan yoki salbiy ta'sir olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday shartnomalarni tuza olmaydi. Korxonalar va korxonalar birlashmalari yoki shaxslar hamda shaxslar birlashmalari o'rtasida yoki har qanday shaxs va korxonalar o'rtasida tuzilgan har qanday shartnoma yoki bir xil ishlarni amalga oshiruvchi korxonalar yoki shaxslar birlashmasi tomonidan amalga oshiriladigan amaliyot yoki ular tomonidan qabul qilingan qaror:

to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita sotib olish yoki sotish narxlarini belgilasa;

ishlab chiqarish, ta'minot, bozorlar, texnik rivojlanish, investitsiyalar yoki xizmatlar ko'rsatishni cheklasa yoki nazorat qilsa;

bozorni, ishlab chiqarish manbasini, xizmatlarni, bozorning geografik hududini yoki tovarlar va xizmatlar turini yoki bozordagi mijozlar sonini yoki shunga o'xshash boshqalarni taqsimlashni nazarda tutsa ta'qiqlanadi.

Ustun mavqeni suiiste'mol qilish ham elektron tijoratda ko'p uchraydigan raqobatga qarshi amaliyotlardandir. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning qaysi ta'qiqlangan harakatlari tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni suiiste'mol qilish deb e'tirof etilishi belgilangan. Bular quyidagilar:

"muomalada bo'lgan tovarlarning hajmini tovar yoki moliya bozorida taqchillikni keltirib chiqarish yoki saqlab turish maqsadida narxlarning oshishiga olib keladigan tarzda qisqartirishi;

tovarning monopol yuqori yoki monopol past narxlarini belgilashi;

shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishi;

shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni olishini yoki realizatsiya qilishini taqiqlashi yoxud cheklashi;

kontragent tomonidan boshqa tovarlarni olish yoki realizatsiya qilish yoxud kontragentning tovarlarni o‘zga xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olishdan yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga realizatsiya qilishdan o‘zini tiyishi sharti bilangina shartnoma tuzishga rozilik berishi;

tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo‘la turib, shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortishi;

tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga to‘siqlar qo‘yish va boshqalar.<sup>104</sup>

Elektron tijorat esa bu harakatlarni sodir etishni ancha osonlashtiradi. Xususan quyidagilar orqali elektron tijoratda ustun mavqeni suiiste`mol qilish holatlari uchrab turadi:

#### **Yirtqich narxlar(Predatory prices):**

Ko‘p hollarda elektron tijoratda mahsulotlar an`anaviy bozorlardagiga qaraganda arzonroq bo‘ladi. Mahsulotlarning arzonligi vaqt va harakat tejalishi bilan birgalikda odamlarning onlayn xarid qilishining asosiy sabablaridan biridir. Ammo bu bozorda raqobatni tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada buzadi. Elektron tijorat monopol mavqedagi yoki yirik tijorat subyektlari past narxlarda tovarlar va xizmatlarni taklif qilish orqali raqobatni yo‘q qilish qanchalik oson ekanligini ko‘rsatdi, bu esa ularning bozor ulushini ko‘paytirishga olib keladi va keyin bir xil tovarlar va xizmatlar narxini oshirish orqali zararlarni qoplaydi. Yirtqich narxlashning asosiy maqsadi bozordan raqobatni siqib chiqarishdir, chunki hozirgi bozor sharoitida bunday past narxlarga faqatgina yirik, moliyaviy jihatdan kuchli bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlargina bardosh bera oladi. Kichikroq yoki yangi tijoratchilar bunday narxlarga uzoq vaqt bardosh bera olmay sinadi. Yirtqich narxlash holati o‘ziga xos xususiyatga ega. Misol uchun, agar bir xil mahsulot bozorida raqobatchilarni quvib chiqarish maqsadida doimiy ravishda qo‘llanilsa, yirtqich narx belgilash suiiste`mol hisoblanadi. Lekin vaqtinchalik qo‘llansa yoki innovatsion yondashuv va boshqa usullar orqali mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar shunday narx belgilashga imkon berishi isbotlatsa past narx belgilash suiiste`mol deb hisoblanmasligi mumkin.

<sup>104</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 06.01.2012 yildagi O‘RQ-319-son.10-modda  
<https://lex.uz/docs/-1931443?otherlang=1>

Yirtqich narxlash (yoki past narxlar taklif qilish) orqali raqobatchilar quvib chiqarilgandan so'ng, subyektlar narxlarni asta-sekin oshirish orqali o'z yo'qotishlarini qoplashni boshlaydilar. Boshqa tomondan, yirtqich narxlash orqali ustun mavqedagi subyektlarning har qanday bozorga kirishi va xaridorlarga sotib olishi hamda bozorni egallashi uchun juda muvaffaqiyatli yondashuv hisoblanadi. Ammo bular boshqa raqobatchilarning manfaatlariga zarar yetkazadi, bardosh berolmaganlar bozordan chiqib ketadi va yakunda ular yuqori narx belgilaganda iste'molchilar ham zarar ko'radi.

### **Listing**

Elektron tijorat veb-saytlari listing xizmatlaridan katta daromad oladi. Bu ma'lum kompaniyalarning mahsulotlarini ro'yxatning yuqoriroq qismida ro'yxatga olish orqali ko'proq daromad olish uchun zamonaviy amaliyotda keng tarqalgan. Ko'pincha yirik kompaniyalar o'z mahsulotlarini hammadan ustun qo'yish va ro'yxatning yuqori qismida mahsulotini joylashtirish uchun abonent to'lovlarini to'laydilar. Qanchalik ko'p to'lashsa, qidiruv natijalari ya'ni iste'molchilar shu turdagi mahsulotlarni qidirganda qidiruvda ularning mahsuloti chiqishi shunchalik yuqori bo'ladi va iste'molchilar birinchi ularning mahsulotini ko'rib sotib olish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Dastlab listing bozorda yangi mahsulotni ilgari surish uchun ajoyib amaliyot bo'lgan, natijada raqobatni ta'minlagan va iste'molchilarga yangi va ko'proq tanlovlar bergandi. Ammo so'nggi paytlarda ko'rinib turibdiki, asosan yirik korporativ subyektlar o'z mahsulotlari uchun listingdagi barcha yuqori o'rinlarni sotib olishadi, kichik chakana sotuvchilarga nafaqat yuqoridan tanlov qoldirilmaydi, balki ro'yxatning ko'zga tashlanmaydigan va quyi o'rinlaridan joy oladi. Kichik chakana sotuvchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday shafqatsiz amaliyotlardan aziyat chekmoqda, chunki ularning mijozlar bozoriga kirishi cheklangan. Kichik ishlab chiqaruvchilar qanchalik yaxshi bo'lishidan qat'i nazar, kerakli mijozlarga erisha olmaydilar. Chunki iste'molchi listingdagi quyi o'rinlar sababli ularning mahsuloti bilan tanishib chiqish ehtimoli juda past.

### **Qayta yo'naltiriluvchi reklamalar (Retargeting advertisements)**

Ushbu marketing amaliyoti barchamiz, ba'zan ijtimoiy platformalarda bo'lganimizda hayotimizda duch kelishi mumkin bo'lgan narsadir. Odatda biz Internetda ma'lum bir mahsulotni qidirib topamiz va hozir emas, kelajakda uni sotib olishga qaror qilamiz. Shuning uchun uni faqat elektron tijorat veb-sayti savatiga qo'shamiz va tark etamiz. Keyin ijtimoiy tarmoqlarni ochganimizda o'sha mahsulot e'lonlarini barcha ijtimoiy platformalarda ko'ra boshlaymiz, xoh u Facebook, Instagram yoki Snapchat bo'lsin va hokazo. Bunday reklamalar hamma joyda paydo

bo'la boshlaydi. Ushbu reklamalar ortidagi asosiy g'oya – o'sha mahsulotga bo'lgan qiziqishimizni sotuvga aylantirishdir. Buning uchun ijtimoiy platformalar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Bu ma'lum bir mahsulotni sotishni ko'paytirish uchun juda ajoyib g'oya, ammo iste'molchi nuqtai nazaridan u mahsulotga alternatalarni cheklaydi. Bunday reklamalar bizga boshqa variantlarni taqdim eta olmaydi, aksincha u bizga savatda qoldirgan mahsulotni ko'rsatadi. Buning o'rniga, bunday reklamalar mahsulotga muqobil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan o'xshash mahsulotlarni ham ko'rsatishi kerak, bu esa mijozlarga tanlash uchun turli xil imkoniyatlarni beradi. Elektron tijorat veb-saytlari va ijtimoiy media platformalari o'rtasidagi bunday shartnomalar iste'molchiga ma'lum bir mahsulot uchun eng yaxshi variantni taqdim etadigan tarzda yo'naltirilishi kerak. Afsuski bu faqat bitta mahsulotni ko'rsatish orqali raqobatni cheklaydi, qaysi elektron tijorat subyekting tarmoq effecti (ta'siri) kuchli bo'lsa, faqat o'sha subyekt monopolligicha qoladi hamda iste'molchida o'zi bilmagan holda tanlov imkoniyati yo'qoladi. Shunday qilib, kattalar kattalashib boraveradi, kichiklar esa kirish to'siqlarini yengishi, kirish to'siqlarini buzib tashlashi va omon qolish uchun kurashishlari kerak.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat savdo-sotiq hamda xizmatlar ko'rsatishni hudud va chegara to'siqlarining yo'qligi hamda vaqt va ortiqcha harakatni talab qilmasligi sababli osonlashtirganda bo'lsa-da, ayni vaqtda raqobatga zid amaliyotlar, raqobat qonunchiliging buzilishini ham osonlashtirgan. Ayniqsa, elektron tijorat bugungi kunda xalqaro doiradagi tijorat bo'lib xalqaro ahamiyat kasb etganligiga qaramay, unda raqobatni ta'minlovchi va himoya qiluvchi aniq xalqaro mexanizmlar yo'qligi sababli raqobatga to'siq bo'luvchi va sog'lom raqobat muhitini buzuvchi amaliyotlarni ko'payishiga olib kelmoqda.

Elektron tijoratda intellektual mulk sohasida ham patent, tovar va xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari, domen nomlarini ro'yxatga oluvchi xalqaro tashkilot yo'q. Madrid tizimi ularni xalqaro ro'yxatga olishni nazarda tutgani bilan faqatgina Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar uchun amal qiladi. Bu esa ularni har bir davlat faqatgina o'z hududida ro'yxatdan o'tkazishi va o'z qonunchiligi bilangina tartibga solinishiga olib kelmoqda. Lekin masalan, "A" davlat hududida ro'yxatdan o'tgan tovar va xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomlari, domen nomlari bo'lsa-da, "B" davlatni o'zida ular ro'yxatdan o'tmagani uchun bu nomlarni "B" davlatdagi tijorat subyektlariga berib yuborish holatlari uchramoqda. Bu borada davlatlar ularni ro'yxatga oluvchi va tartibga soluvchi, butun dunyoda amal qiluvchi xalqaro tizim



ishlab chiqishlarini taklif qilamiz. Shuningdek, elektron tijoratda Internet texnologiyalari va undan foydalanish usullari o'zgarib boravergan sari monopol mavqega va katta platformaga ega bo'lgan subyektlarning ta'siri yanada mustahkamlanib, kuchaya boraveradi hamda sog'lom raqobatni buzish holatlari yanada osonlashaveradi. Bu holat antimonopol organlarga yanada Internet-texnik sohalarda bilimlroq va raqobat buzilishlarni oldindan bilish va taxmin qila olishni talab etadi.

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Ro'zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish.O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. SH.N.Ro'zinazarov. – T., TDYU, 2021.– B-12.
3. Ядова Н.Е. "Модель оценки эффективности коммуникаций в электронной коммерции". Диссертация. – Москва, 2018. – С.162".
4. Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник. – М., 2009. – 258-б.
5. Сирченко К.В. "Интернет-торговля как способ повышения конкурентоспособности предпринимательских организаций. Дисс. автореферат. – Москва, 2006. – С.26".
6. Стриженко А.А. "Роль информационно-коммуникационных технологий в развитии международного бизнеса". Дисс. автореферат. – Москва, 2007. – С.48".

### **Normativ huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni, Toshkent sh., 2015-yil 22-may, O'RQ-385-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, 06.01.2012 yildagi O'RQ-319-son
3. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilarini, xizmat ko'rsatish belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni, 30.08.2001-yildagi 267-II-son
4. O'zbekiston Respublikasining "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonuni, 18.09.2006-yil, O'RQ-51-son

### **Elektron manbalar**

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>

## **ХИЗМАТЛАР СОҲАСИДА МАРКЕТИНГ КОММУНИКАЦИЯСИНИНГ МОҲИЯТИ ВА УНДАН ФОЙДАЛАНИШ**

**Н.Д. Бегленов**

ҚҚДУ, иқтисодиёт кафедраси,  
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD)

**Ерниязова Севара Сабит қизи**

ҚҚДУ, Иқтисодиёт факультети молия йўналиши 3-курс талабаси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада хизматлар соҳасида маркетинг тамойиллари, унинг турли кўринишларидан унумли фойдаланиш, бозор сегментларини тўғри аниқлаш маркетинг коммуникациясининг ҳал қилувчи ресурслардан самарали фойдаланиш ҳақида сўз юритилади.*

***Калит сўзлар:** хизматлар соҳаси, бозор сегментлари, товар, маркетинг, маркетинг коммуникацияси, стратегия.*

### **ABSTRACT**

This article discusses the principles of marketing in the field of services, the effective use of its various forms, the correct identification of market segments, the effective use of key resources of marketing communication.

**Keywords:** services sector, market segments, brand, marketing, marketing communication, strategy.

### **КИРИШ**

Мамлакатда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг пировард мақсади - иқтисодиётни эркинлаштириш ва тўлақонли бозор муносабатларига ўтиш шароитида ҳар бир хўжалик субъектининг имкониятлари ва ресурсларидан самарали фойдаланиш тамойилига амал қилиб, ижтимоий-иқтисодий самарадорликка эришишни таъминлашдан иборат. Ва бу жараёнда маркетинг тамойиллари, тизими, унинг турли кўринишларидан унумли фойдаланиш ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, маркетингнинг асосий вазифаси ишлаб чиқарувчи билан истеъмолчи ўртасида узлуксиз, мустаҳкам алоқа ўрнатиш ва шу жараёнда товар ҳаракатини талаб билан таклифни ўзаро мувофиқлаштириш тамойили асосида ташкил этиш ва уни мумкин қадар бошқарилувчан бўлишига эришиш лозим бўлади. Ушбу муаммоларни ҳал этишда 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Фаол

тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастурида «Ўзбекистон Республикасининг Инновацион ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш»<sup>105</sup> бўйича устувор вазифалар белгиланган. Шунинг учун ҳам маркетинг тамойилларини амалда қўллаш масалалари шу кундаги энг долзарб масалалардан бири бўлиб, унинг муаммоларини ҳал қилиш иқтисодиёт учун жуда ҳам катта самара бериши ҳаётда ўз исботини топмоқда.

Ҳозирги замон маркетинги тушунчаларининг турли хил бўлишига қарамасдан, унинг учун энг муҳими, бу маркетингни маълум гуруҳдаги аниқ истеъмолчиларга таяниши, бозор муносабатлари шароитида юзага келган вазифаларни ечиш учун мажмуали ёндашиш, истеъмолчилар эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган фаолият ва ниҳоят бозорни билиш ва истеъмолчилар эҳтиёжини ўрганиш асосида бошқарув фаолиятини йўлга қўйишдан иборатдир.


## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Шуни таъкидлаш жоизки, маркетинг ва у билан боғлиқ бўлган тушунчаларга ўз муносабатимизни билдириб, қатор олимларнинг бу йўналишда олиб борган ишларини қайд қилган ҳолда, назарий-лингвистик таҳлил нуқтаи-назаридан уларнинг айримларига фикр-мулоҳазаларимизни билдириб ўтиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Маркетингнинг қарор топиш вақти иқтисодчилар томонидан турлича талқин қилинади. Айримлар фикри бўйича, у XX асрнинг биринчи ярми ўрталарида юзага келган бўлса, бошқалари асрнинг 2-ярмидан, яъни 50-йилларнинг бошидаёқ амалиётда қўлланила бошланган, деб қайд қиладилар. Лекин фикримизча, маркетинг фаолиятининг йўлга қўйилиш жараёнлари узок даврни қамраб олади ва бунда Питер Друккернинг маркетинг пайдо бўлиши Японияда содир бўлган, яъни, 1950 йилларда Мицуи оиласи биринчи аъзосининг Токиода пайдо бўлиши ва у ерда магазин очиб, уни биринчи “Универмаг” тариқасида номланиши билан боғлиқ деб қайд қилиши диққатга сазовордир. Шуни таъкидлаш лозимки, бу даврдаги маркетинг жараёни XX асрнинг бошларида амалга оширилган маркетинг сиёсатидан кўра бирмунча афзалликларга эга эди.

<sup>105</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ҳаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили» да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида» ги ПФ-5308-сон Фармони \\\ lex.uz

Ҳозирги пайтда назария ва амалиётда маркетинг тизими мажмуаси жуда кўплаб тоифа, унсурлардан ташкил топган бўлиб, маҳсулот ишлаб чиқариш ва уни сотиш жараёнини ташкил қилишда жуда мураккаб ва ўта зарур бўлган вазифаларни бажарувчи унсур ва тоифаларни ўзида мужассамлаштиради ва уларнинг ҳар бири муҳим вазифаларни бажаради. Маркетинг тизимининг мана шундай муҳим таркибий қисми ҳисобланган маркетинг коммуникацияси ҳам хўжалик субъектлари фаолиятида жуда зарур бўлиб, уни танлаш ва фойдаланиш жуда кўплаб омиллар таъсирида содир бўлади ва бу жараён корхона фаолияти самарадорлигини оширишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Мақсадли мижозлар аниқлангач, жавоб таъсири устида ишланади. Якуний жавоб таъсири харид қилишдир. Бироқ харид ўз-ўзидан истеъмолчи томонидан қарор қабул қилиш жараёнининг натижаси ҳисобланиб, у таҳлилни талаб этади ва уни маркетинг коммуникациялари комплекси воситалари орқали таъсир этиш билан бошқариш зарур. Бу жараённи амалга оширишда истеъмолчиларга тўғридан-тўғри таъсир кўрсатилади (1-расм).



**1-расм. Товарлар ҳаракатининг бевосита (тўғридан-тўғри) йўли.**

Бозорни ўрганиш ва унинг жиҳатларини билиш ҳозирги замон маркетингининг асосий талабларидан бири бўлиб, бозор сегментларини тўғри аниқлаш маркетинг коммуникациясининг ҳал қилувчи шарти ҳисобланади ва ресурслардан самарали фойдаланиш имкониятини туғдиради.

Товарлар ҳаракатини амалга оширишда маркетинг коммуникацияси элементларидан фойдаланиб, бевосита ва билвосита етказиб бериш воситаларидан фойдаланган ҳолда амалга оширилади. Товарларни харидорларга бевосита, яъни тўғри восита орқали буюртмачиларнинг берган буюртмаларини шартномада кўрсатилган талабларини ҳисобга олган ҳолда, техник жиҳатдан

мураккаб бўлган маҳсулотларни етказиб бериш назарда тутилади ва бу одатда расмдаги каби ифодаланади.

### **ХУЛОСА**

Бизнес ташкилотларининг маркетинг коммуникацияларидан фойдаланиши бошқарув қарорлари комплексида амалга оширилиб, улар воситасида нафақат товарларни илгари суриш, савдони рағбатлантириш балки фирма услуги, истеъмолчиларга хизмат кўрсатиш сифатини ошириш мақсадига эга тижорат фаолиятининг максимал натижаларига эришилади.

### **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили» да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида» ги ПФ-5308-сон Фармони
2. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Т.: «IQTISODMOLIYA». 2008.
3. Коменева Н.Г., и др. Маркетинговое исследование. – М.: ВЗСЭИ, 2006. – 439 с.
4. Бегленов Н.Д. Бизнес ва тадбиркорликда маркетинг коммуникациялари. Монография - «IQTISODYOT-MOLIYA» нашриёти. Тошкент-2013 й. 160 б.

---

## **MEDIATSIYA TURLARIDA MEDIATSIYA TARAFLARI, MEDIATOR VA ADVOKAT HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING O'ZGARISHI**

**Qudrat Matkarimov Qalandarovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura” kafedrası

dotsent vazifasini bajaruvchisi, yuridik fanlari doktori

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

**Djalilov Javohir Tulkinovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: j.jalilov92@mail.ru

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola orqali hozirda keng tarqalgan nizolarni muqobil usulda hal qilishning turlaridan biri bo'lgan mediatsiyasining turlari hamda modellarida mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini o'zgarishi amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mediatsiya, mediatsiya turlari, mediatsiya ishtirokchilari, mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari.

## **CHANGING OF RIGHTS AND OBLIGATIONS OF PARTIES, MEDIATORS AND LAWYERS IN THE TYPES OF MEDIATION**

**Kudrat Matkarimov Kalandarovich,**

Acting Associate professor of the Department of Judicial, law enforcement agencies and advocacy, Tashkent State University of Law, (DSc)

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

**Djalilov Javokhir Tulkinovich,**

Master of Tashkent State University of Law,

E-mail: [j.jalilov92@mail.ru](mailto:j.jalilov92@mail.ru)

### **ANNOTATION**

This article analyzes the practical significance of changing the rights and obligations of mediators in the types of mediation, which is now one of the most common types of alternative dispute resolution

**Keywords:** mediation, types of mediation, mediation participants, rights and obligations of mediation participants

## **ИЗМЕНЕНИЕ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ СТОРОН, ПОСРЕДНИКОВ И АДВОКАТОВ ПРИ ВИДАХ МЕДИАЦИИ**

**Кудрат Маткаримов Қаландарович,**

Ю.ф.д., и.о. доцент кафедры суд, правоохранительные органы и  
адвокатуры, Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

**Джалилов Жавохир Тулкинович,**

Магистр Ташкентского государственного  
юридического университета,

E-mail: j.jalilov92@mail.ru

### **АННОТАЦИЯ:**

*Данной статье анализируется практическое значение изменения прав и обязанностей участников медиации в видах медиации, которая в настоящее время является одним из наиболее распространенных видов альтернативного разрешения споров*

***Ключевые слова:** медиация, виды медиации, участники медиации, права и обязанности участников медиации.*

### **KIRISH**

Hozirda dunyo bo‘ylab nizolarni hal qilish yangi bosqichga o‘tgan, endilikda nizolarni hal qilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari asosan advokatlar nizolarni hal qilishda ularni muqobil usulda hal qilishga harakat qilmoqda. Dunyo yuristprudensiyasida nizolarni muqobil usulda hal qilishning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib ular orasida nizolarni hakamlilik sudlari orqali hal qilish, arbitraj, mediatsiya, muzokara olib borish va ekspert hulosasi kabi usullari boshqa usullarga qaraganda samarali natija beryotganligi sababli nizolashayotgan taraflar, taraf vakillari va advokatlar nizolarni muqobil hal qilishning mazkur usullaridan keng foydalanib kelmoqda.

Nizolarni muqobil usulda hal qilishning hozirda eng keng qo‘lanilayotgan turi bu mediatsiya hisoblanadi va mediatsiya o‘zining moslashuvchanligi, nizoni hal qilish jarayoni uzoqqa cho‘zilib ketmasligi, mediativ tartib taomilning maxfiyligi, nizoni hal qilishda faqat qonunga tayanib qolmasligi, kam harajatligi sababli advotatlar, mediatorlar va nizolashayotgan taraflar tomonidan nizoni hal qilish uchun keng qo‘llanilib kelayotgan nizoni hal qilish vositasi bo‘lib qolmoqda. Skott

H.Hughes va Mark B.Bennet o‘zining «Vositachilik san'ati» kitobida «mediatsiya hizolarni hal qilish san'ati» deb takidlagani bejiz emas.<sup>106</sup>

21-asrga kelib qonun bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabalarining kengligi va xilma-xilligi nizolarni hal qilishda an'anaviy usullardan boshqa bo'lgan nizolarni tartibga solishning yangicha yo'nalishlarini vujudga kelishiga turtki bo'ldi va buni natijasida nizolarni muqobil usulda hal qilish instituti ushbu talabga javob beradigan institut sifatida namoyon bo'ldi. Nizolarni suddan tashqari hal qilishda advokatlarning ham roli oshishiga sabab bo'ldi, chunki sudda qonuniylikni ta'minlash vazifasini sudiyalar amalga oshirsa nizolarni muqobil usulda hal qilish, jumladan mediatsiya tartib taomili yordamida hal qilishda advotak va meditorlar qonuniylikni ta'minlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Shu sababli, nizolarni muqobil usulda hal qilish institutining rivojlanishi advokatlar faoliyatining rivojlanishining keying bosqichiga olib chiqdi, endilikda ularning faoliyat yo'nalishi kengayib mediator sifatida ham faoliyat olib borishi imkoniyati paydo bo'ldi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mediatsiya jarayonida mediator(advokat) o‘zining bilimi va tajribasi asosida nizoni taraflarga muqobil bo'lgan usulda hal qilishga ko'maklashadi.

Nizolarni mediatsiya yoli bilan hal qilishda mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlar doirasini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunku taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilamasdan turib biri huquqiy masalani hal qilish ko'zlangan natija bermaydi. Mediatsiya taraflarining huquq va majburiyatlari milliy qonunchilik, mediatsiya markazlari tomonidan ishlab chiqilgan nizom va odob ahloq qoidalari, hamda medatsiya ishtirokchilari tomonidan tuzilgan mediativ tartib taomillarni amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvlar va taraflar tomonidan nizoni hal qilish uchun tanlangan mediatsiyaning ma'lum bir tanlangan modeli orqali belgilanadi. Mazkur maqolada mediatsiyaning turli modellarida mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini o'zgarishi haqida fikr yutiladi. O'zbekiston Respublikasining 03.07.2018 yilda qabul qilingan «Mediatsiya to'g'risida»gi O'RQ-482-sonli Qonunida mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilab o'tilgan.

Mazkur Qonuning 10-moddasida mediatsiya ishtirokchilari tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib unga muvofiq taraflar va mediator mediatsiya ishtirokchilari hisoblanadi.

<sup>106</sup> The Art of Mediation (NITA) 2nd Edition, Kindle Edition 23 p



Biroq, mediatsiyaning Yevropa va Amerikada keng qoʻllaniladigan turidan biri boʻlgan Girbrit mediatsiyada mediator nizoni hal qilish uchun buxgalter, baholovchi, moliyaviy maslahatchi, oilaviy mutaxassis va ekspertlarni jalb qilishi mumkin.<sup>107</sup> Bunday vaziyatda mediatsiya ishtirokchilarining soni yanayam kengayadi.

Shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining «Mediatsiya toʻgʻrisida»gi Qonunundagi tegishli moddalari bilan taraflar va mediatorning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan boʻlib, mazkur ququ va majburiyatlar mediatsiya institutining boshqa nizoni hal qilish mehanizmlaridan farqini namoyon qiladi.

Qonunga muvofiq nizolashayotgan taraflar:

mediatorni ixtiyoriy ravishda tanlashga;

mediatordan voz kechishga;

mediatsiyaning istalgan bosqichida unda ishtirok etishdan voz kechishga;

mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsan yoki oʻz vakillari orqali ishtirok etishga haqli.

Mediatsiya taraflari oʻz oʻrtalarida tuzilgan mediativ kelishuvni ushbu kelishuvda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda bajarishi shart.

Shu bilan birga mazkur huquq va majburiyatlardan tashqari mediatsiya taraflari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi va ularning zimmasida oʻzga majburiyatlar ham boʻlishi mumkin, yaʼni biz yuqorida aytib oʻtganimiz kabi taraflar mediatsiya tartib taomolini qoʻllashda mediatsiya tartib taomilini amalga oshirish haqidagi kelishuvda huquq va majburiyatlarni ham belgilashi mumkin. Jumladan mediatsiya harajatlarini kim qoplashi, mediatsiyaning qancha vaqt davom etishi, mediatsiya qayerda olib borilishi kabi shartlarni ham kelishib olishi mumkin.

Mamlakatimizda mediatsiyaning turli modellari orqali hal qilish instituti hali rivojlanmagan shu sababli bizda mediatsiyaning anʼanaviy modelidan yoki aralash mediatsiya usulidan foydalangan holda nizolar hal qilinadi, biroq mediatsiya institutini ilgariroq oʻz qonunchiligiga tadbiq qilgan mamlakatlar Avstarliya, Amerika va Singapur kabi mamlakatlarda nizoni mediatsiyaning qaysi turi orqali hal qilinishiga qarab ham mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilanadi. Masalan, mediatsiyaning med-arb turida taraflar kelishuvni ixtiyoriy ravishda amalga oshirmagan taqdirda ular yakuniy hulosa(qaror) ni majburiy ijro etilishiga kelishib oladilar va bu ularning majburiyati hisoblanadi. Shuningdek, davlatlarda mavjud boʻlgan mediatsiya markazlari oozlarining nizomlari orqali qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga qoʻshimcha ravishda mediatsiya taraflari, mediator(advokat) ning huquq va majburiyatlarini belgilashi

<sup>107</sup> [resolution.org.uk/looking-for-help/splitting-up/your-process-options-for-divorce-and-dissolution/hybrid-mediation/](https://resolution.org.uk/looking-for-help/splitting-up/your-process-options-for-divorce-and-dissolution/hybrid-mediation/)

mumkin. Misol uchun Kanada Transport Agentligining mediatsiya markazi tomonidan ishlab chiqilgan nizomda mediatorning majburiyati sifatida tegishli ma'lumotlarni vositachi va boshqa tomonlar bilan halol va ochiq almashish, nizolarni hal qilish uchun usullar va variantlar ishlab chiqish, belgilangan vaqt davomida mediativ kelishuvni amalga oshirish imkoni bo'lmagan taqdirda ushbu muddatni uzaytirish chorasini ko'rish, tomonlarga Kanada transport agentligida mediatsiya jarayonini va ularning huquq va majburiyatlarini to'liq tushuntirish, tomonlar kelishuvi bilan amalga oshiriladigan mediatsiya jarayoni uchun mediatsiya modulini aniqlash kabi majburiyatlari keltirib o'tilgan.<sup>108</sup>

Hozirda dunyo bo'ylab yuridik va ijtimoiy soha olimlari tomonidan mediatsiyaning turli xil asoslarga ko'ra ularni har xilcha turlarga ajratish doktrinasi mavjud bo'lib, bularning ba'zilarini olimlarning doktrinial qarashlari bo'lsa, ba'zilarini amaliyotda nizolarni hal qilishda samaradorligini namoyon qilmoqda.

Mediatsiyativ tartib taomilni amalga oshirish jarayonida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yurist ushbu jarayonda huddi suddagi kabi biror bir tarafning huquq va manfaatini himoya qiluvchi vakil sifatida yoki mediator sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ikki xil funktsiya advokatning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bilan namoyon bo'ladi. Jumladan advokat nizo yuzasidan bir tarafga yuridik xizmat ko'rsatish haqida bitim tuzganda advokat faqatgina uni yollagan tarafning huquq va manfaatlarini himoya qilib unga malakali yuridik xizmat ko'rsa, mediator sifatida jalb qilingan taqdirda advokatning funksiyasi o'zgaradi, endilikd advokat faqatgina bir tarafning emas, balki har ikki tarafning ham huquq va manfaatlarini ko'zlagan holda nizoni hal qilish choralari ko'rish lozim bo'ladi, aks holda mediatsiyaning xolislik prinsipi buzilishiga olib keladi.

Nizoning boshlanishida bir tarafning advokati bo'lan taraf ikkinchi tarafning roziligi bilan nizo yuzasidan mediator sifatida tayinlanishi ham mumkin, bu masalada bizning qonunchiligimizda cheklovlar yo'q. O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasida aynan shu ma'nodagi norma mustahkamlangan, biroq advokat nizo yuzasidan mediator qilib tayinlangandan so'ng yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek uning huquq va majburiyati mediator sifatidagi funksiyasidan kelib chiqib o'zgarishiga olib keladi.

Nizoni hal qilishga ma'lum bir tarafning advokati sifatida jalb qilingan advokat, tarafdor roziligi bilan mediator sifatida tayinlangandan so'ng o'sha tarafda advokatdan faqatgina uning huquq va majburiyatini himoya qilishni talab qilish huquqi cheklanadi.

<sup>108</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/Mediation-Roles-EN.pdf

Maqolamiz boshida aytib o'tganimizdek, mediativ tartib taomilni amalga oshirishda mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyati hamda nizoni hal qilishda mediatsiyaning u yoki bu turidan foydalanganda qisman o'zgaradi. Mediatsiya tartib taomili qo'llanildigan sohasi, mediatiyadan ko'zlangan maqsad va mediatorning mediatsiya jarayonidagi ro'li va boshqa jihatlariga qarab soha vakillari tomonidan mediatsiya bir necha turlarga bo'lingan<sup>109</sup>.

Mediatsiya jarayonida mediatorning nizoni hal qilishdagi ishtirokining hususiyatiga qarab mediatsiya bir necha turga ajratilgan va ularning o'rtasidagi farq mediatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini o'zgarishi bilan ifodalanadi. Jumladan mediatsiyaning "kotib vositachiligi(mediatsiyasi)" turida mediator faqatgina tomonlarning muzokaralariga raislik qiladi, ya'ni mediatsiyaning ushbu turida mediator taraflarga nizoni hal qilish va kelishish masalasini o'zlariga qo'yib beradi. Mediatsiyaning ushbu turida mediatorning asosiy majburiyati mediativ tartib taomilni olib borishni tashkillashtirish hisoblanadi. Bundan farqi ravishda mediatsiyaning "maslahatchi mediatsiya" degan turida mediator nizolarni hal qilish uchun nizolarni subektiv tomoni bilan faol ishlaydi, tomonlarning bir-biriga isbatan adovatlarini tinglab ular o'rtasidagi dushmanlik va kelishmovchilikni bartaraf etishda birlamchi shaxs sifatida gavdalanadi. Shuningdek, mediatsiyaning "Tuzilgan vositachilik(mediatsiya)" turida mediator nizoni hal qilish uchun va uni hal qilish yo'lini topish maqsadida dastlabki bosichda taraflarning har biri bilan tizimli ravishda uchrashuvlar olib boradi va nizoni hal qilish uchun taraflarga yo'l yo'riq ko'rsatish orqali maslahat beradi va taraflarni kelishuvga erishtirgandan so'ng ular bilan birgalikda uchrashuv olib boradi. Mediatsiyaning ushbu turida taraflarni yakdil qarorga kelishi uchun advokatlar taraflarning vakili sifatida muhim rol o'ynaydi.

Mediatsiyaning "bosim o'tkazish" deb nomlangan turida taraflarning huquqi qolgan yuqorida sanab o'tilgan uch turdagi mediatsiyaga qaraganda taraflar o'zlarining ko'proq huquqlarini mediatorga o'tkazadi, natijada mediator nizoni hal qilish uchun ko'proq huquqqa ega boladi jumladan mediator ma'lum darajada taraflarga bosim o'tkazish huquqiga ega boladi.<sup>110</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda bir qarashda mediativ tartib taomilni amalga oshirishda mediatsiyaning biror turini tanlash ahamiyatsizdek ko'rinsada, biroq uning ma'lum bir turini tanlash mediatorga taraflarlar bilan muzokaralar o'tkazishda, bir tarafga

<sup>109</sup> Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции: диссертация ... кандидата юридических наук. – Екатеринбург, 2010

<sup>110</sup> [http://jp.mgppu.ru/forum/index.php?PHPSESSID=13pkv2r9gvb6fh68cinngro1n3&topic=83.0;prev\\_next=next#new](http://jp.mgppu.ru/forum/index.php?PHPSESSID=13pkv2r9gvb6fh68cinngro1n3&topic=83.0;prev_next=next#new)

ko'proq yon bosishni oldini olishda va holis bo'lishda, shuningdek meduativ tartib taomilni ma'lum bir qoidalar asosida olib borishda ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazarda olib qaraganda mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi huquqshunoslar mediatsiyaning turlari haqida kechroq ma'lumotga ega bo'lsa, kelgusida nizolarni boshqarish va hal qilishda ish samaradorligini oshishiga olib keladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020 y., 07/20/4754/0771-son)
2. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni, 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son/ <https://lex.uz/docs/-111189>
2. The Art of Mediation (NITA) 2nd Edition, Kindle Edition 23 p
3. Романова Н.М. Медиация: социально-психологические аспекты: учеб пособие для студ. фак. психологии, обучающихся по спец. «Психология». Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 2014. 97 с.
4. Сабитова Ж.С., Смаилова А.А. Медиация. Новый подход к разрешению конфликтов // Наука, новые технологии и инновации. Бишкек: Наука и новые технологии, 2012. С. 233 – 235.
5. Калашникова С.И. Медиация в сфере гражданской юрисдикции. – Екатеринбург, 2010. 258с
6. Riskin L.L. Mediation orientations, strategies and techniques // 12 Alternatives to high cost litig. 1994. P. 111 – 114

## **СИМУЛЯТОР ДАСТУРЛАРИДАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА Фойдаланиш**

**Жураев Абурайхон Холиқулович**

Қарши муҳандислик- иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси  
aburayxonjurayev75@gmail.com

**Тожибоев Сухробхон Жаъфар ўғли**

Қарши муҳандислик- иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси  
suxrobxon8586@gmail.com

### **АННОТАЦИЯ**

Мақолада замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида ўқув жараёнини тўлиқ ёки қисман автоматлаштириш учун мўлжалланган симулятор дастурлар имкониятлари ва улардан фойдаланиш афзалликлари ёритилган. Ҳозирги кунда таълим муҳитида симуляторлардан фойдаланишнинг асосий сабабларидан бири уларнинг ҳақиқий асбоб-ускуна ва жиҳозларсиз виртуал лаборатория ишларини ўтказишга имконият беришидир. Симуляторлардан фойдаланиш мураккаб жараёнларни нисбатан тез ва катта ҳаражатсиз, инсон ҳаёти ва соғлиги учун хавфсиз шароитда тадқиқ этиш ва ўрганиш имкониятини беради. Симуляторлардан бири бўлган Crocodile Technology 3D симулятор дастури ёрдамида электр схемаларни моделлаштириш баён этилган.

**Калит сўзлар:** ахборот-коммуникация технологиялари, педагогик дастурий воситалар, симулятор, виртуал ўқув муҳити, виртуал лаборатория, электр схема, моделлаштириш, 3D модел.

### **USE OF SIMULATOR SOFTWARE IN THE LEARNING PROCESS**

#### **ABSTRACT**

The article discusses the possibilities and advantages of using simulator programs designed for full or partial automation of the learning process using modern information and communication technologies. One of the main properties today is the use of simulators in the educational process, this is the ability to conduct laboratory work virtually without devices and equipment. The use of simulators makes it possible research and study of complex processes relatively quickly and without high costs, in safe conditions of life and health, humanity. The simulation of electrical circuits using Crocodile Technology 3D simulator, which is one of the simulators.

**Keywords:** information and communication technologies, pedagogical software, simulator, virtual learning environment, virtual laboratory, electrical circuit, modeling, 3D model.

## **КИРИШ**

Шиддат билан давом этиётган глобаллашув жараёни таълим соҳасини ҳам четлаб ўтаётгани йўқ. Бугунги кунда фан ва технологиялар шунчалик тез ривожланмоқдаки, айрим янгилик ва технологиялардан хабар топиб улгургунчалар эскилик қаторидан жой олмоқда. Бундай шароитда таълимда самарадорликка эришиш ўқитувчидан ўз соҳаси бўйича мунтазам изланишни ва ҳар бир мавзу юзасидан маълумотлар базасини янгилаб боришни тақозо этади.

Ҳозирги кунда олий таълим муассасаларида замонавий ахборот-коммуникацион технологияларга асосланган бошқарувнинг ахборот тизимларидан эркин фойдалана оладиган мутахассисларни тайёрлаш долзарб масалалардан ҳисобланади. Чунки замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш фақатгина касбий профессионал фаолият самарадорлигини оширибгина қолмай, балки бўлажак мутахассисларда дунёқарашни ва ахборот маданиятини шакллантиришга, турмуш тарзига, ижтимоий соҳадаги фаолиятига ўз ижобий таъсирини кўрсатади.

Республикамиз таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш учун олий таълим муассасалари барча техник воситалар билан етарли даражада таъминланган. Бундай шароитлар яратилган даврда профессор-ўқитувчилардан таълим жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш талаб этилади.

## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонида мувофиқ “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси олий таълим тизимини ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда, фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш асосида таълим сифатини яхшилаш, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш, халқаро ҳамкорликни ривожлантириш” мақсадида кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга оширишда амалдаги таълим замонавий илм-фаннинг илғор тажрибаси ва ютуқларига асосланиб, Ўзбекистон

Республикасининг узлуксиз таълим тизими муассасаларининг барча шакл ва турларида ўқув-тарбиявий жараёни илмий-методик жиҳатдан тўла таъминланган ҳолда, ўқитишнинг замонавий шарт-шароитларини яратиш эришиш мумкин [1].

Мамлакатнинг келажаги кўп жиҳатдан бугунги кунда таълим муассасаларида ёшларнинг билимга бўлган ташналиги педагоглар томонидан нима билан, қандай ва қай даражада қондириладилигига боғлиқ. Бу юмушни кўнгилдагидек, давр талаб этаётганидек удалаш жуда кўп омилларга боғлиқ бўлган мураккаб ишлар сирасига киради. Бунинг учун, энг аввало, мазкур юмушни амалга оширувчи ўқитувчида ўз ишига муҳаббат ва фидойилик фазилатлари бўлмоғи лозим. Юксак даражадаги билим ва тажрибамиз юқорида қайд этилган фазилатлар билан уйғунлашгандагина ўтиладиган ҳар бир дарс машғулотида маълум ижобий натижага эришиш мумкин.

Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишда биринчи навбатда компьютер техникалари асосий восита ҳисобланади. Компьютер техникалари асосида ахборот ресурсларини йиғиш, сақлаш, қайта ишлаш ҳамда электрон ва виртуал кутубхоналардан фойдаланиш имкониятлари мавжуд. Иккинчидан, таълим тизимида мультимедиали электрон ўқув адабиётлари, маъруза матнлари, виртуал лаборатория ишлари ва ҳар хил анимацион ишланмаларни яратишда махсус дастурий воситалардан фойдаланилади. Бундай дастурий воситалардан бири педагогик дастурий воситалардир. Педагогик дастурий воситалар – компьютер технологиялари ёрдамида ўқув жараёнини тўлиқ ёки қисман автоматлаштириш учун мўлжалланган дидактик восита ҳисобланади. Улар таълим жараёни самарадорлигини оширишнинг истиқболли шаклларида бири ҳисобланиб, замонавий ўқитиш воситаси сифатида ишлатилади.

Педагогик дастурий воситаларни қўидагиларга ажратиш мумкин:

- машқ қилдиргичлар - аввал ўзлаштирилган ўқув материални такрорлаш ва мустаҳкамлашга хизмат қилади;
- ўқитувчи (ёки ўқувчи) иштирокидаги виртуал ўқув муҳитини шакллантирувчи дастурлар;
- ўргатувчи дастурлар – ўқувчиларнинг билим даражаси ва қизиқишларидан келиб чиқиб, янги билимларни ўзлаштиришга йўналтиради;
- тест дастурлари – эгалланган билим, малака ва кўникмаларни текшириш ёки баҳолаш мақсадларида қўлланилади [2].

Ҳозирги вақтда таълим муҳитида кенг фойдаланиб келинаётган педагогик дастурий воситалардан бири сифатида симуляторларни мисол келтириш мумкин.

## **НАТИЖАЛАР**

Симуляторлар ўқув жараёнининг қарийб барча жабҳаларида фойдаланилмоқда. Симулятор дастурларидан медицина соҳасида бўлажак жарроҳларни ва ҳамшираларни ўқитишда, тижорат соҳасида бизнес-симулятор ўйин дастурлардан фойдаланилмоқда. Симуляторлардан фойдаланишнинг асосий сабабларидан бири унинг ҳақиқий асбоб-ускуна ва жиҳозларсиз виртуал лаборатория ишларини ўтказишга имконият яратишидир. Бу ўз-ўзидан нафақат катта миқдорда маблағлар тежалишига, балки уларга умуман эҳтиёж ҳам туғдирмайди. Симуляторларнинг қарийб ҳеч қандай молиявий маблағлар талаб этмаслиги маълум тадқиқотларни талабалар томонидан кўп мартаба қайта-қайта амалга оширишга имконият яратади. Симуляторлардан фойдаланишнинг яна бир афзаллик томони уларнинг хавфсиз эканлигидадир. Баъзи тадқиқотларни амалга ошириш инсон ҳаёти учун хавф туғдиради, масалан, самолётларни бошқариш, ядро физикасига оид ва кимёвий ҳодисаларни ўрганиш. Бундай тадқиқотлар катта миқдорда молиявий харажат талаб этибгина қолмасдан, тадқиқотни олиб борувчилар ҳаётига хавф ҳам туғдиради.

Ҳозирда турли симулятор дастурий воситалардан фойдаланиб, маъруза, амалий ва лаборатория машғулотларини, шунингдек талабаларнинг мустақил таълимини ташкил этиш мумкин [3].

Масалан, Crocodile – clips компаниясининг Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile Chemistry, Crocodile ICT дастурларини, бундан ташқари Beginnings of Electronics, Interactive Physics, WorkingModel, Electronics Workbench, PhET Simulations, Pintar virtualLab Wave, MathCad, MatLab амалий дастур пакетлари ва бошқа дастурий таъминотларни келтириш мумкин.

**Crocodile Technology** дастуридан олий таълим муассасалари талабалари, профессор-ўқитувчилари “Электротехника”, “Схемотехника”, “Электр занжирлар назарияси” фанларида кўшимча педагогик дастурий восита сифатида кенг фойдаланишлари мумкин.

**Crocodile Chemistry** дастури орқали кимёвий жараёнларни моделлаштириш, турли реакциялар жараёнларини моделлаштириш ва энг асосийси, буни хавфсиз амалга ошириш мумкин.




**Crocodile ICT** дастури ёрдамида дастурлаш жараёнини, аниқроқ қилиб айтганда алгоритмлаш бўлимини ўқувчи ва талабаларга аниқроқ етказиб бериш мумкин.

**Crocodile Physics** дастур муҳити физикавий жараёнларни моделлаштириш ва физиканинг механика, электр, оптика ва тўлқин ҳодисалари бўлимларига оид тажрибалар яратиш ва кузатиш имкониятини берувчи дастурдир. Бу дастур физик ҳодисаларни кузатиш, тажрибалар ўтказиш ва турли мураккаблик даражасидаги жараёнларни моделлаштириш имкониятини беради. Ер шароитида ўтказиш қийин бўлган тажрибаларни амалга ошириш ва кузатиш, тажрибада қатнашаётган физик катталикларнинг қийматини катта аниқлик билан ҳисоблаш имкониятини беради, физик ҳодисада қатнашаётган физик катталиклар билан бошқа физик катталиклар ўртасидаги графикли боғланишни ҳосил қилиш, яратилган моделларни сақлаш ва қоғозга чоп этиш мумкин [4, 5].

**Crocodile Technology 3D** дастури ўз ичига электрон лойиҳаларни, микроконтроллерларни дастурлаш имкониятини, 3D ўлчамдаги механизмларни (механик мотор, тишли ва тишсиз механизмлар ва бошқа объектлар) ва 3D ўлчамдаги PCB (printed circuit board) тайёр плата элементларини моделлаштиришни бирлаштирган.


**Crocodile Technology 3D** дастури ойнасида Contents, Parts library, Properties бўлимлар мавжуд бўлиб, дастурнинг Contents бўлимида тайёр моделлар жамланган, бу моделлар таркибидан керакли моделни танлаб, уни ўзгартириш ҳам мумкин (1-расм).



*1-расм. Crocodile Technology 3D дастуридаги тайёр модел*


Янги модел Parts library (деталлар кутубхонаси) бўлими орқали яратилади. Принципиал электр схемаларни йиғиш кўйидагича бажарилади. Электроника бўлимидан РСВ майдони кўйиб олинади. Ушбу майдоннинг пастки қисмига принципиал электр схемалар йиғилади.

Принципиал электр схемани йиғиш учун дастур кутубхонасидан элементларнинг график белгилари ташиб ўтказилади ва улардан электр схемалар йиғилади (2-расм). РСВ майдонидаги жадвалда эса схемадаги барча элементлар ўрин олади.




*2-расм. Электр схемаларни йиғиш*

Жадвалдаги элементларнинг 3D модели РСВ майдонига бирин-кетин жойлаштирилади (3-расм). Электр схемадаги элементларнинг 3D моделини РСВ майдонига жойлаштириб бўлгач ҳақиқий платага йиғиш тугмаси босилади.



*3-расм. 3D элементларни PCB майдонига жойлаштириши*

Натижада 3D элементлардан йиғилган тайёр плата ҳосил бўлади (4-расм).



*4-расм. Тайёр плата кўриниши*

Дастур имкониятлари жуда кенг бўлиб, ундан тармоқланган мураккаб электр занжирларни симуляциялаштириш ва моделлаштириш, амалий

машғулотларда (яъни масалалар ечишда), айниқса, виртуал лаборатория ишларини бажаришда кенг фойдаланиш мумкин.

### **МУҲОКАМА**

Талаба дастурдан фойдаланиш давомида ўзи йўл кўйган хатоларини кўриши, муваффақиятсиз бажарилган тажрибанинг сабабларини аниқлашни ўрганиши ва электр схемаларини йиғиш тажрибасини ҳақиқий қурилмаларда бажаришдан олдин таҳлил қилиш кўникмаларини ҳосил қилиш имконини беради. Ҳозирги кунда Европадаги нуфузли илмий даргоҳларда физик жараёнларни моделлаштиришда Crocodile technology 3D дастуридан фойдаланилмоқда. Ушбу симулятор дастурий воситалар ўзида дарс утилаётган талабаларга ўқишга бўлган қизиқишни уйғотувчи усуллар, билимни оширишга хизмат қилувчи ўйинлар, мунозара дарслари, аниқ ўқув вазиятларини тузиш (кейс-стадилар), репродуктив ва муаммоли усуллар, ташкилий, фаолликни оширувчи ўйинлар (ролли ўйинлар), масъулият ва мажбуриятни ҳис қилдирувчи услублар, ўз-ўзини назорат қилиш, яқка тартибдаги анкеталар, оғзаки ва ёзма усуллар, амалий ишлар, тажрибалар усули ва ҳоказоларни мужассам этади [5, 6].

Симулятор дастурларидан фойдаланиб таълим олаётган талабаларнинг мустақил таълим олишидаги аҳамияти қуйидагилардан иборат:

- талабанинг билим, кўникма ва малакасини шакллантиради;
- талабанинг фанлардан ўзлаштириш даражасини оширувчи таълим шакли бўлиб хизмат қилади;
- ўқитувчининг маслаҳати ва тавсиялари, билимларни ўзлаштиришга тайёргарлик доираси аудиторияда ёки аудиториядан ташқарида бажарилишига имкон яратилади;
- талабанинг мустақил ва ижодий ишлаш ҳамда фикрлаш қобилияти ва фаоллиги ошиши ҳисобига таълим самарадорлиги яхшиланади;
- ўқитиш жараёнида қўлланиладиган кейс–стадиялар, такдимотлар, карточкалар, саволномалар, йўриқномалар, амалий ишни ташкил этиш ва мавзунини тушунишни осонлаштиради;
- талабада фаннинг энг сўнгги ютуқларидан фойдаланиш имконияти кенгайди;
- талабанинг ўз-ўзини назорат қилиш учун шароит яратилади;
- талабанинг индивидуал имкониятлари, ақлий салоҳияти, қизиқишлари ҳисобига мутахассис шахс сифатида шаклланишини таъминлайди ва ҳ.к [7, 8].

## ХУЛОСА

Симулятор дастурларида мультимедиали электрон ўқув адабиётлари, виртуал лаборатория ишлари ва ҳар хил анимацион ишларни яратиш қулай, чунки бундай дастурлардан фойдаланиш ва ҳар хил ишланмалар яратиш учун фойдаланувчидан ҳеч қандай дастурлаш тилларини билишни талаб этмайди. Бундан ташқари, ўқув муассасаларининг барчасида ҳам ўқув лаборатория стендлари мавжуд эмас. Симулятор дастурларидан фойдаланиб ўқув лаборатория стендларининг виртуал ҳолатини яратиш мумкин. Бу эса катта миқдордаги маблағлар тежалишига имкон беради.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Р.Ҳамдамов, У.Бегимқулов, & Н.Тайлоқов. Таълимда ахборот технологиялари. –Т.:, 2010. - бет 120.
3. Ҳамидов В.С., Имамов Э.З., & Махмудов Б. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда мустақил таълим жараёнини ташкиллаштириш. Таълим технологиялари. Илмий-услубий журнал. 2014. - №1 - Б. 2-9.
4. Ҳамидов В.С., Тигай О.Э. Физикани ўқитишда симуляторлардан фойдаланиш. Физика ва астрономия муаммолари. Ўқитиш методикаси. Республика илмий ва илмий-методик конференция материаллари тўплами, 2010 йил 12-13 март. Тошкент: 2010. -Б. 294-496.
5. Жураев А.Х. Таълим тизимида педагогик дастурий воситаларни жорий этиш афзалликлари. ЎзМУ хабарлари журнали. 1/1-сон 2020 й. –Б. 85-89.
6. Маллаев А.Р., Жураев А.Х. Техника фанларини ўқитишда замонавий ахборот технологияларни ўрни. Academic research in educational sciences. 2021. Volume 2, ISSUE 5, -P. 87-96.
7. Нормуродов М. Т., Жураев, А.Х. Олий таълим тизимини модернизация қилишда ишлаб чиқариш корхоналарининг ўрни. //Academic research in educational sciences. 2021. Volume 2, Issue 5, - P. 688-693.
8. Xurramov A.J., Boymurodov A.Kh., & Jurayev A.X., Educational technologies and their quality assessment, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 12, 2020. - P. 162-166.

## **O'ZBEKISTON SHAROITIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Zaripov Musliddin Bahodir o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti

**Erkinov Samandar To'liqin o'g'li**

QarMII 2 kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA:**

*Tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida umuman olganda shamol energetikasidan keng miqyosda foydalanishning samaradorligi baland bo'lmasligini ko'rsatadi. Ammo ayrim tumanlarning tuproq va kam energiya talab etadigan obyektlarida shamol enegiyasidan foydalanish yaxshi samara berdi. Jumladan, yaylov chorvachiligida sug'orish ishlarini tashkil etishda shamol energiyasi qo'l keladi. Orolbo'yi va Qoraqalpog'istonning shimoliy hududlarida turli shamol energetika qurilmalaridan foydalanish mumkin, bu qurilmalar shamolning barqaror tezlikda esishi natijasida yil bo'yi samarali ishlashi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** havo, yorug'lik, suv bug'lari, shamol, quyosh radiyasiyasi, mineral va organik changlar.

### **АННОТАЦИЯ:**

*Исследования показывают, что в Узбекистане в целом эффективность масштабного использования энергии ветра невысока. Однако использование энергии ветра в почвенных и малоэнергетических объектах некоторых районов дало хорошие результаты. В частности, энергия ветра полезна при организации орошения пастбищ. В Приаралье и северных районах Каракалпакстана могут применяться разнообразные ветроэнергетические устройства, способные эффективно работать круглый год благодаря стабильным скоростям ветра.*

**Ключевые слова:** воздух, свет, водяной пар, ветер, солнечная радиация, минеральная и органическая пыль.

### **ANNOTATION**

*Studies show that in Uzbekistan, in general, the efficiency of large-scale use of wind energy is not high. However, the use of wind energy in soil and low-energy facilities of some districts has yielded good results. In particular, wind energy is useful in the organization of irrigation in pastures. In the Aral Sea region and the northern regions of Karakalpakstan, a variety of wind energy devices can be used, which can work effectively all year round as a result of stable wind speeds.*

*Keywords: air, light, water vapor, wind, solar radiation, mineral and organic dust.*

## **KIRISH**

Shamol elektr stansiyasidan, ko‘pincha, shamol oqimining o‘rtacha yillik tezligi yuqori (5 m/sek dan katta) bo‘lgan va markazlashtirilgan elektr ta‘minot tarmoqlaridan uzoqda joylashgan hududlarda (mas, O‘rta Osiyoda — dasht, cho‘l va chala cho‘llarda) elektr energiyasi manbai sifatida foydalaniladi. Shamol elektr stansiyasida 8 kVt dan 1,2 mVt gacha quvvatli elektr energiyasi hosil qilish mumkin. Prezidentimizning 2019-yil 21-may O‘RQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risi” dagi qarori ham qabul qilingan. Bu ham aholimizning o‘zluksiz elektr energiyasidan foydalanish va mamlakatimiz rivoji uchun katta ahamiyatga ega.

Aslida atmosfera massasi 5 kvadrillion 157 trillion tonna bo‘lib, tabiiy holda u 13 ta gazning aralashmasidan tashkil topgan. Atmosfera havosining harakati natijasida shamol vujudga keladi va turli tezlikda harakat qilib juda katta kuchga egadir. Shamol energiyasidan keng foydalanishga o‘tilishi yonilg‘i qazilma boyliklarni tejashga katta imkoniyat tug‘diradi. Chunonchi, shamol energiyasini potensial imkoniyati  $13 \cdot 10^{12}$  kVt soatni tashkil etadi, shundan 10-20 % amalda foydalanilishi mumkin. Hozirgi kunda Niderlandiyada quvvati 15-5000 kVt keladigan shamol energiyasi qurilmalari ishlab chiqarilmoqda.

Shamol energetik resurslarini ifodalovchi ko‘rsatgich - shamol tezligi kubining o‘rtacha qiymatiga proporsional bo‘lgan shamol oqimining solishtirma quvvati hisoblanadi. Respublikaning tekis hududlarning aksariyat qismida u  $50 \text{ Vt/m}^2$  dan  $150 \text{ Vt/m}^2$  atrofida bo‘ladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tadqiqotlar O‘zbekiston sharoitida umuman olganda shamol energetikasidan keng miqyosda foydalanishning samaradorligi baland bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ammo ayrim tumanlarning tuproq va kam energiya talab etadigan obyektlarida shamol energiyasidan foydalanish yaxshi samara berdi. Jumladan, yaylov chorvachiligida sug‘orish ishlarini tashkil etishda shamol energiyasi qo‘l keladi. Orolbo‘yi va Qoraqalpog‘istonning shimoliy xududlarida turli shamol energetika qurilmalaridan foydalanish mumkin, bu qurilmalar shamolning barqaror tezlikda esishi natijasida yil bo‘yi samarali ishlashi mumkin.

Quyosh energiyasi tugamaydigan “doimiy” energiya resurs hisoblanib undan foydalanish natijasida tabiat umuman ifloslanmaydi. Yer yuzasiga tushayotgan

quyosh energiyasining quvvati 20 milliard kVt yoki  $1.2 \cdot 10^{14}$  tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng. Vaholanki, dunyo bo'yicha yoqilg'i resurslarining zaxirasi  $6 \cdot 10^{12}$  tonna shartli yoqilg'i miqdoriga tengdir. O'zbekiston hududida quyosh energiyasidan xo'jalik maqsadlarida keng miqyosda: issiq suv ta'minoti, isitishda, meva va sabzovot quritishda, gelio tuzsizlantiruvchi qurilmalar, muzlatgichlar va boshqalarda foydalanish mumkin. O'zbekiston shimolida ochiq xavo bir yilda 2000 soatni, janubda 3000 soatni tashkil etadi. Bir kunda quyosh 8-10 soat nur sochib turadi. Tekisliklarda quyosh nuri davomiyligining taqsimlanishi kenglikga, tog'oldi va tog'li hududlarda quyosh nurining tushishi bundan tashqari ufqning to'silganligiga bog'liqdir.

O'zbekistonning tekisliklarida quyoshning yalpi radiatsiyasi yil davomida shimolda  $4800 \text{ mDj/m}^2$  dan janubda  $6500 \text{ mDj/m}^2$  gacha o'zgaradi. Uning o'zgarishi mavsumiy bo'lib, qish oylarida surunkali bulutli kunlar bo'lgani tufayli quyosh nur sochishi imkoniyat darajasida deyarli ikki barobar kam bo'ladi; shimolda kunning yorug' qismi 8 soatni, janubda 9.5 soatni tashkil etsada, bulut tufayli quyoshning ko'rinishi 3-5 soatdan oshmaydi. Yozda kunning uzunligi shimolda 16.5 soatni, janubda 15 soatni tashkil etadi. Bunda quyosh nur sochib turgan vaqt kuniga 10 soatdan 13 soatgacha davom etadi.

Gorizontal tekislikka tushadigan quyosh radiatsiyasining oylik yig'indisi miqdori ham yil davomida keskin o'zgaradi. Masalan, Toshkent atrofida u quyidagicha taqsimlanadi: yanvarda - 175, aprelda - 540, iyulda - 845 va oktabrda -  $370 \text{ mDj/m}^2$ . Yalpi radiatsiyaning kunlik miqdori ham shunday o'zgarishda bo'ladi va qish oylarida shimolda  $6 \text{ mDj/m}^2$  dan janubda  $8 \text{ mDj/m}^2$  gacha o'zgaradi. Uning miqdori tegishli ravishda aprel oyida 14 va  $20 \text{ mDj/m}^2$  ga, iyul oyida 24 va  $28 \text{ mDj/m}^2$  ga teng bo'ladi. Atrof-muhitni toza saqlashda va organik yoqilg'i resurslarini tejashda vodoroddan yonilg'i sifatida foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki atmosfera xavosi tarkibida juda katta miqdorda vodorod borligini hisobga olinsa undan foydalanish juda katta ekologik samaradorlik beradi. Vodorod yonilg'isidan foydalanishni afzalligi: - uning zaxirasi amalda cheklanmagan bo'lib, sanoat miqyosida ishlab chiqarish tobora ortib bormoqda; - u universal energoresurs hisoblanib yonilg'i sifatida elektr energiyasi olishda foydalaniladi, uzoq joylarga gaz va suyuq xolatda tashish mumkin, transportda ishlatilishi mumkin; - vodorodni gaz yoki suyuq xolatda uzoq vaqt saqlash mumkin; - ekologik toza yonilg'idir.

Iqlim - joyning geografik kengligi, uning dengiz satxidan balandligi, okeandan qanday masofada joylashganligi, relyefi, yuza qatlamining turi va atmosfera sirkulyatsiyasining o'zaro ta'sirida vujudga keluvchi ob-xavoning ko'p yillik



rejimidir, ya'ni iqlim - muayyan joyning eng muhim fizik-geografik tavsifidir. O'zbekiston o'lkan Yevro-Osiyo kontinentining markazida joylashgan. Mamlakat xududining beshdan to'rt qismi O'rta Osiyoning cho'l va yarim cho'l kengliklarida yastangan bo'lib, janubiy-sharq va sharq tomondan baland tog' tizmalariga borib tutashadi. Shimoldan Janubiy Qozog'iston cho'llari bilan chegaradosh bo'lib, chegara shimoliy-sharq va sharqda Tyanshan, janubiy-sharqda esa Hisor-Oloy tog' tizmalarini kesib o'tadi. Janub va janubiy-g'arbda chegara Qizilqumni qoraqumdan ajratib turgan Amudaryo bo'ylab, g'arb tomondan esa uncha baland bo'lmagan Ustyurt platosini kesib o'tadi.

Respublika xududidagi mavjud iqlimning muxim omili yer yuzasiga kelayotgan va ayniqsa, yoz oylarida kuchayadigan quyosh radiatsiyasidir. Kelayotgan radiatsiyaning ko'p qismi tuproqning yuza qatlamida yutilib, uning xarorati ba'zan 70°S ga yetadi. Atmosfera umumiy sirkulyatsiyasi harakati jarayonida mu'tadil kengliklardan kirib keladigan havo oqimlari qizib turgan cho'llardan o'tib juda tez isiy boshlaydi va ularning nisbiy namligi kamayadi.

Uch asosiy omil - shiddatli quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi xususiyati va tog'li relyef ta'sirida O'zbekistonning katta qismida subtropik, keskin kontinental iqlim mavjud bo'lib, ob-havo yoz oylari ancha barqaror, qish oylari esa o'zgaruvchan kechadi, havo harorati katta mavsumiy va kunlik amplitudaga ega.

O'zbekiston hududini asosan uch iqlim zonasiga – cho'l va quruq dasht zonasi, tog'oldi zonasi va tog'li zonalarga bo'lish mumkin. Shu bilan birgalikda bir zonadan ikkinchi zonaga o'tish chegarasi keskin bo'lmay ma'lum jixatdan nisbiydir.

Havo harorati - ob-havo va iqlim rejimini ifodalaydigan asosiy ko'rsatgichlar (o'rtacha yillik, oylik, kunlik xarorat va x.k.) bilan tavsiyalanadi.

Havo namligi - atmosferadagi suv bug'lari miqdori joyning fizik-geografik sharoitiga, yilning fasli va kuniga, atmosfera sirkulyatsiyasiga va tuproq namligiga qarab keskin o'zgarib turadi. Havoning bug' bilan tuyinganligi darajasini ifodalovchi ko'rsatgich nisbiy namlik bo'lib, u xavoning ma'lum xajmida suv bug'ining haqiqiy miqdorining shu xaroratda bo'lishi mumkin bo'lgan maksimal miqdoriga bo'lgan nisbatini ko'rsatadi va foizda o'lchanadi.

## **XULOSA**

Atmosfera yog'inlari - mintaqadagi barcha daryolarni suv bilan ta'minlab turadigan deyarli yagona manba hisoblanadi va ma'lum darajada tabiiy landshaftlar hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish harakterini belgilaydigan jarayondir. O'zbekiston hududlarida yog'ingarchilikning taqsimlanishi ularning geografik

joylashuvi, relyefi va atmosfera sirkulyatsiyasi xususiyatlariga bog'liqdir, ya'ni yog'in miqdorining xududiy qiymatlari 80-250 mm (tekisliklarda), 180-500 mm (tog'oldi hududlarda) dan tog'li hududlarda 2000 mm dan oshadi.

### **REFERENCES**

1. Узбекская Советская Социалистическая Республика (Энциклопедия). Ташкент, Матбуот, 1981
2. Укрупненные нормы водопотребления и водоотведения для различных отраслей промышленности. М., Стройиздат, (СЭВ, ВНИИводгео), 1972, с.198.
3. Укрупненные нормы водопотребления и водоотведения в животноводстве и сельских населенных пунктах с централизованными системами водоснабжения (утверждены Минводхозом СССР и Минсельхозом СССР). Минск: ЦНИИ комплексного использования водных ресурсов, 1980.

## **MECHANISM OF MODIFICATION OF POLYMER WASTE**

**Elmurodov Sirojiddin Alpomish ugli**

master of Karshi Institute of Engineering Economics

**Lutfullayev Sa'dulla Shukurovich**

associate Professor of Karshi Institute of Engineering and Economics

**Nazarov Feruz Farkhodovich**

lecturer of Karshi Institute of Engineering and Economics

[feruz-nazarov-88@mail.ru](mailto:feruz-nazarov-88@mail.ru)

### **ABSTRACT**

*Incineration in waste incinerators is not an economical method of disposal because it involves pre-sorting the waste. There is an irreversible loss of valuable chemical raw materials during combustion and pollution of the environment with harmful substances in the exhaust gases.*

**Keywords:** *Pyrolysis, Friedel-Krafts, catalytic thermolysis, polycondensation, dimethyl terephthalate, ethylene glycol, Polyethylene terephthalate, composite materials.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Сжигание в мусоросжигательных заводах не является экономичным методом утилизации, поскольку предполагает предварительную сортировку отходов. Происходит необратимая потеря ценного химического сырья при сжигании и загрязнении окружающей среды вредными веществами с выхлопными газами.*

**Ключевые слова:** *Пиролиз, Фридель-Крафтс, каталитический термолиз, поликонденсация, диметилтерефталат, этиленгликоль, полиэтилентерефталат, композиционные материалы.*

### **INTRODUCTION**

An important role in the processing of secondary polymer raw materials is given to thermal decomposition as a method of converting IPS into low molecular weight compounds. An important place among them belongs to pyrolysis. Pyrolysis is the thermal decomposition of organic matter to obtain useful products. At lower temperatures (up to 600 ° C) mainly liquid products are formed, and above 600 ° C gaseous products up to carbon black [3].

Pyrolysis of PVX with PE, PP and PS wastes in the presence of the Friedel-Krafts catalyst and when the mixture is treated with hydrogen at T = 350 ° C and pressures up to 30 atm allows the production of many valuable chemicals. products

with a yield of up to 45%, such as benzene, toluene, propane, cumene, alpha-methylstyrene, etc., as well as hydrogen chloride, methane, ethane, propane [4].

## **DISCUSSION AND RESULTS**

yuqori texnologiyalar bilan shug'ullanishda O'zbekiston ilm-fanining bugungi taraqqiyotiga jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz asos solganligini unutmazlik darkor. Ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi, professional bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish, ma'mur – menejrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda, ilmiy bilim va ko'nikmalarga asoslangan holda muammolarni mustaqil yecha oladigan, tashkiliy, ma'naviy, ilmiy jihatdan kamol topgan, bevosita ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassislarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Bunda ularning auditoriyadan tashqaridagi mustaqil faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ushbu muammo yuzasidan ko'plab pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan talabalarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini va jahon ta'lim standartlariga javob bera oladigan yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashda mustaqil faoliyatning ahamiyati muhimligi, lekin bu muammo ustida yetarlicha ishlanmaganligi pedagogik muammo bo'lib qolmoqda. Lekin, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining 60112300- Texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fani olinsa, mazkur fanga quyidagicha soatlar taqsimlangan:

<b>Mashg'ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>	<b>Semestr</b>
		<b>II</b>
Nazariy (ma'ruza)	30	30
Amaliy	30	30
<b>Mustaqil ta'lim</b>	<b>60</b>	<b>60</b>
Kurs ishi	-	-
Jami auditoriya soatlari	60	60
<b>Umumiy o'quv soatlari</b>	<b>120</b>	<b>120</b>

E'tibor berilsa bu yerda talaba mustaqil ta'limiga ajratilgan soatlar berilgan, shuningdek ushbu soat doirasida talaba quyidagi vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi:

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzusi</b>
1	O'rta Osiyoda grafika fanlarining shakllanishi va taraqqiyoti.
2	Grekl alifbosi va uning yozilishi.

3	Burchak va aylanalarni teng bo‘laklarga bo‘lish usullari.
4	2, 3, 4 choraklarda joylashgan nuqta va to‘g‘ri chiziq kesmalarini fazoviy tasvirlari va epyurlari.
5	Tekislikning eng katta og‘ma chiziqlari va ular yordamida metrik masalalar yechish.
6	Epyurni qayta tuzish usullari (aylantirish, almashtirish va tekis-parallel ko‘chirish)da izlari bilan berilgan tekisliklarni proeksiya tekisliklariga nisbatan proeksiyalovchi va parallel vaziyatga keltirish.
7	Ko‘pyoqliklarni umumiy vaziyatdagi tekisliklar bilan kesishishi va kesim yuzasining haqiqiy kattaligini aniqlash.
8	Aylanish paraboloidi va giperboloidi bilan tekislik hamda to‘g‘ri chiziqlarning kesishishi.
9	Ko‘pyoqliklarning, ko‘pyoq va aylanish sirtlarining o‘zaro kesishgan chiziqlarini aniqlash.
10	Ovoidlar. Arximed spirali, sinusoida, aylana evolventasi, konxoida, strofoida, Bernulli lemniskatasi.
11	2-tartibli egri chiziqlarni proektiv xususiyatlariga asoslanib chizish.
12	Tutashma elementlari va uning amaliy tadbig‘i.
13	Buyumni o‘zaro perpendikulyar 6ta tekislikka proeksiyalashning nazariy asoslari. «Monj sistemasi» ning mohiyati.
14	Ortogonal proeksiyaning «A» va «E» tizimlarini qiyosiy tahlili.
15	Asosiy, qo‘shimcha va mahalliy ko‘rishlarni amaliy tadbig‘iga oid misollar.
16	Standart qiyshiq burchakli aksonometrik proeksiyalar (qiyshiq burchakli izometriya, qiyshiq burchakli dimetriya).
17	Texnik rasmlarni pardoqlash usullari (shtrixovka, shrafirovka va h.k.)
18	Vint chiziq va vint sirtlarni aksonometrik proeksiyalarini bajarish.
19	Vint sirtlari va ularning chizmalari.
20	To‘g‘ri va qiyshiq gelikoidlar.
21	Trubali birikmalar.
22	Shponkali birikmalar.
23	Shlitsali birikma chizmasini chizish.
24	Shlitsali birikmalarni chizmada belgilanishi.
25	Uzatmalar, ularning turlari.
26	Tishli gildiraklar va ularning parametrlari.
27	Yuzalarning g‘adir- budirligi to‘g‘risida umumiy tushuncha.

28	Yuzalarning g'adir budirlik parametrlari va xarakteristikallari.
29	Materiallar va ularning chizmada belgilanishi.
30	Chizmada qoplanish belgilarini qo'yish.
31	Kalibrlar, ularni klassifikatsiyasi va ishlatilishi.
32	O'tish va kesishish chiziqlari bo'lgan texnik detalning aksonometrik proeksiyasini bajarish.
33	Oddiy tugun chizmasini bajarish. Salnikli qurilmalar va ularni chizmalarini bajarish. Klapanli va probkali qurilmalar hamda ularni chizmalarini tasvirlash.
34	Yig'ma birlik detallarning eskizini tuzish. Yig'ma birlik detallarining texnik rasmini chizish.
35	Yig'ish chizmalarida bog'lovchi, montaj, gabarit va h.k. o'lchamlarini qo'yish. Yig'ish chizmalaridagi shartlilik va soddalashtirishlar.
36	Yig'ish chizmalaridagi asosiy yozuvlar va spetsifikatsiya.
37	Detallarga o'lcham qo'yishda chiziqli masshtabdan foydalanish.
38	Buyumni standart bo'lmagan detallarini ish chizmasini bajarish.
39	Sxematik chizmalarda shartli belgilar.
40	Bino bosh planini tuzishda shartli belgilar.
41	Topografik sirtlar, uning gorizontallari, profili.
42	Topografik sirtlar bilan ko'pyoqlarning o'zaro kesishuvi.

*Bu vazifadan tashqari talaba kunning ikkinchi yarimidagi, ya'ni auditoridan tashqaridagi mustaqil faoliyatida nima ishlar bilan band bo'lishi kerakligi*


Talabalarning auditoriyadan tashqarida mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish maktab va kasb-hunar kolleji yoki maktabi amaliyotida ham ko'plab yechimlarga egadir. Lekin bu sohada ilmiy asoslangan xulosalar yo'qligi va ularni mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodlari, shakllari, vositalari va vazifalari yetarli tadqiq etilmagandir. Shuningdek, ilmiy asoslangan usul, yo'llar, tashkil etish shakllari va boshqalar ilmiy asoslanmagan, ishlab chiqarilgan tadqiqotlar ham yetarli emas. Mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil faoliyat shaxsning o'zi tomonidagina boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin o'zi istagan vaqt va maqsad, vosita, mazmun, manbalardan o'zi tanlagan holda foydalanadi. Talabalarda mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvchi kuch, motiv bo'lgan sababga bog'liq holda ular o'z oldilariga mustaqil faoliyat mazmunini tashkil

etuvchi maqsad va ta'limiy vazifalarni belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. *Mustaqil faoliyatga chiqishda muhim hisoblangan siyosiy mustaqil faoliyat, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat.*
2. *Qiziqish uyg'ongan kasbga, uning bilimlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi kasbiy mustaqil faoliyat.*
3. *O'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy – hayotiy rejalari, shaxsiy qiziqish iste'dodiga yo'naltirilgan mustaqil faoliyat.*
4. *O'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil faoliyat.*
5. *O'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil faoliyat.*

Mustaqil faoliyat bizningcha shaxsning rivojlanishini, uning madaniyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Insonning keng fikrli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bilimli, savodli inson o'z ishining ustasi, kasb mahoratiga ega bo'ladi. Bularning barchasi tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil faoliyat muommosi muhim ahamiyatga molik vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Quyida biz oliy ta'limda sohalar bo'yicha talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish va uning natijalarini tahlil etishga harakat qildik.



Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning maqsadi talabalarning asosiy auditoriyadagi o'quv soatlaridan tashqarida ularning mustaqil faoliyati muhim sanalishidir. Bunda talaba erkin, mustaqil harakat qiladi. Hozirgi globallashuv zamonida har bir talaba oliy ta'lim muassasasi nazarida bo'lishi talab etiladi. Sababi, talaba masalan, dars mashg'uloti tugagach, nima bilan shug'ullanadi?, Nima ish qiladi?, Kim bilan kunini o'tkazadi?, degan savollarning tug'ilish ta'biyidir. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalarining ham o'ziga yarasha harakatlari mavjud. Bunga o'quv ishlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha olib borilayotgan harakatlardir. Lekin talaba oliy ta'lim muassasasi e'tiboridan chetda qolsa, turli nohush holatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bunda talabalarimizning bilib-bilmay turli diniy oqimlar safiga kirib qolishi, turli jinoiy ishlarga sherik bo'lib qolish va hokazolarni misol qilish mumkin.

O'quv ishlar bo'yicha olinsa, bo'lajak o'qituvchilarining darsdan bo'sh vaqtlarida o'z kasbiy bilim va malakalarini oshirish ustida shug'ullanmasliklari, ya'ni kutubxonalarda, elektron kutubxonalarda kerakli adabiyotlardan unumli foydalanmasliklari, bilimlarni olishga kam vaqt sarflashlari muammoning dolzarbligini bildiradi. Ushbu muammolarni ijobiy hal qilish uchun mustaqil faoliyatni izchil tizimga keltirish kerak. Shu bilan birga talabalarning psixologik va individual xususiyatlarini, ijtimoiy amaliyot motivlarining ichki va tashqi shakllanganlik darajasi o'ziga xos shaxsiy - ahloqiy xususiyatlari, kasbiy malakaviy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil ta'lim olish layoqati yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, bu kasbiy tayyorgarlik tizimida yakqol ko'rinadi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb - hunar egallashiga, yetuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga ahamiyat berishgan.

Ilmiy tadqiqot ishlar bo'yicha talaba turli ilmiy, kasbiy, sport to'garaklariga jalb etilishi, "Ustoz-shogird" tizimida faoliyat yuritishi, turli tanlovlarga, talabalar fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rishlariga jalb etish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha talabalarning talabalar turar joyidagi faoliyati, ijaradagi talabalar faoliyati, ota-onasi bilan turuvchi talabalar faoliyati, har oydagi ma'naviyat kunidagi faoliyati va boshqalar.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil faoliyatini boshqarish yo'llari va usullari turlicha. Masalan, bizning universitetda talabalar mustaqil faoliyati nafaqat guruh murabbiysi, balki har bir kafedra kesimida mikrogruplar tashkil etilgan bo'lib, ular tomonidan nazorat o'rnatilgan. Bularga guruhda ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar rejasi asosida tadbirlar o'tkazish, guruh murabbiysi kabi barcha faoliyatlar bajariladi. Lekin talaba mustaqil faoliyati yo'nalishlari turlicha. **Masalan:**

- *kasbiy (o'qitadigan fani);*
- *psixologik-pedagogik;*
- *psixologik (tashqi ko'rinishi, muloqotchanligi, yetakchilik sifatleri va boshqalar)*
- *metodik:*  
*pedagogik texnologiyalar;*  
*axborot texnologiyalari;*  
*interaktiv o'qitish metodlari va boshqalar.*
- *qiziqishi bo'yicha.*

**Mustaqil faoliyat manbalari:**

- *adabiyotlar (metodik, ilmiy-ommabop, publitsistik, badiiy va boshqalar);*
- *Internet manbalari;*
- *televideniye;*
- *gazeta, jurnallar;*
- *video, turli axborot tashuvchilarda audio axborotlar;*
- *pullik kurslar;*
- *malaka oshirish kurslari;*
- *seminarlar va anjumanlar;*
- *tajriba almashish bo'yicha tadbirlar;*
- *master-klasslar;*
- *kasbiy, ilmiy, sport to'garaklari;*
- *teatrlar, ko'rgazmalar, muzey, konsertlar;*
- *ekskursiya, sayohatlar.*

Mustaqil faoliyat manbalari talabaning ham shaxsiy, ham kasbiy o'sishiga yo'naltiriladi.

**Mustaqil faoliyat natijalari (talaba uchun):**

- *fanni o'zlashtirish sifati oshadi;*
- *nashr etilgan metodik qo'llanmalari, maqolalari, darsliklar, dasturlar va shu kabilarni tahlil qilishi;*
- *o'qitishning faol shakllari, metodlari va uslublarida ishtirok etishi;*
- *turli seminar, anjumanlarda (ma'ruzalar) qatnashishi;*
- *didaktik materiallar, testlar foydalanish malakasi oshadi;*
- *yangi pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar oladi;*

**Mustaqil faoliyat natijalari (o'qituvchi uchun):**

- *fanni o'qitish sifati oshirishi;*
- *nashr etilgan darslik, o'quv qo'llanma hamda metodik qo'llanmalar, maqolalar, va shu kabilar tahlili;*
- *o'qitishning faol metodlarini ishlab chiqish;*
- *turli seminar, anjumanlar va tadbirlarda qatnashishi va qatnashgan boshqa ishtirokchilar ishlarini tahlil qilishi, yutuqli tomonlarini dars jarayoniga tadbiq etishi;*
- *dars o'tish uchun didaktik materiallar, ta'limiy testlar, ko'rgazmali qurollar va plakatlar, dinamik modellar ishlab chiqish;*
- *yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalarni tahlil qilish hamda ishlab chiqish;*
- *shaxsiy novatorlik texnologiyalari bo'yicha ochiq mashg'ulotlar ishlab chiqish va o'tkazish;*

**O'qituvchining mustaqil faoliyatni tashkil qilishda erishadigan natijalari:**

- *fanni o'qitish sifatini oshirish;*
- *ishlab chiqilgan yoki nashr etilgan metodik qo'llanmalari, maqolalari, darsliklar, dasturlar va shu kabilar;*
- *o'qitishning faol shakllari, metodlari va uslublarini ishlab chiqish;*
- *chiqishlar (ma'ruzalar), hisobotlar;*
- *didaktik materiallar, testlar, ko'rgazmalar ishlab chiqish;*
- *yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;*
- *shaxsiy novatorlik texnologiyalari bo'yicha ochiq mashg'ulotlar ishlab chiqish va o'tkazish;*
- *pedagogik ishlanmalar to'plamlarini yaratish;*
- *treninglar, seminarlar, konferensiyalar, master-klasslar o'tkazish va shu kabilar.*

Ma'lumki, talabalar mustaqil faoliyatining asosiy qismi ularning mustaqil ishlarini bajarishi yotadi.

**XULOSA**

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabada o'quv, ma'naviy ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni tashkil topishi va rivojlanishi.



Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt byudjetiga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy formalar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy – metodik kengashida hamda kafedra yig‘ilishlarida tasdiqlanadi. Talabalar mustaqil ishi metodik ta‘minlanishni tematikasi va shakllari ro‘yxatini tuzish uchun har birini maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo‘riqnoma yoki metodik yo‘llanmalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash deganidir.

## REFERENCES

1. Бушля А.К. О самообразование //Сов.пед. 1979. №2.
2. Н.Обломуродов, З.Курбонов, О.Худоёрова. Талабалар мустақил ишларини ташкил этиш технологиялари. Т. Солиқ академияси. 2008.
3. E.Ro‘ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. T. Yangi asr avlodi. 2010.
4. М.Халимов. Геометрик ва проекцион чизмачиликдан мустақил ишлаш учун топшириқлар тўплами., - Т., ТДПУ. 2009.
5. Рахмонов И.Т. ва Абдурахмонов А., Чизмачиликдан маълумотнома, Т., «А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси», 2005.
6. Xalimov, M. K., & Shokirova, S. O. (2022, January). CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 2, No. 1). <https://zenodo.org/record/5831176#.YdoQEklN3IV>
7. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(9).
8. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
9. Bakhridinovich, A. M. U. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142-156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>
10. Khalimov, M., & Soliddinova, S. (2021). The knowledge gained by students in engineering graphics and its transformation to experience and skill. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(1), 260-264. Article DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00040.9>
11. Mirzaliev Zafar Eralievich, Khalimov Mohir Karimovich, Malikov Kozim Gofurovich, Abdukhonov Botir Husniddinovich. Method of using a new mechanism for the construction of axonometric projections. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297

International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan.  
<https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>

12. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 54-61.  
Retrieved from

<https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116>

13. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.

14. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

15. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.

16. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.

17. Zaitov, S. R. (2022). CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHDA AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNII. *БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 219-223.

18. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control o f Knowledge o f Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195

19. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.

20. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrova, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
21. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
22. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
23. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>
24. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
25. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/> 2, No. 1).
26. .Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>
27. Ozodovich, A. A. (2021). The Use Of Tasks That Create A Tendency To The Problems Of Making Typical Mistakes In The Possession Of Graphic Literacy. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 99–103. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-16>
28. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and*

---

*Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from  
<http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>

29. Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59–67.  
<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>

30. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo‘nalishlari. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 137-148.

31. Seytimbetov, S. M. (2022). TALABALARNING IJODKORLIK OBILİYATINI GEOMETRIK SHAKLLARNI PARAMETRLASH MASALALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 2(3), 27-32.

## ҚОНУНЧИЛИК ҲУЖЖАТЛАРИНИ ДАВЛАТ ҲИСОБИГА ОЛИШ

**Эргашева Гўзалхон Саидаминовна**

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги

Қонунчиликни тизимлаштириш ва тартибга солиш  
таъсирини баҳолаш бошқармасининг бош маслаҳатчиси

### АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада қонунчилик ҳужжатларини давлат ҳисобига олиш тартиби тўғрисида батафсил маълумот киритилган. Шунингдек, давлат ҳисобига олинган ҳужжатларни сон ва кўрсаткичлари ҳақида ҳам тўхталиб ўтилган.*

**Калим сўзлар:** *қонун ҳужжатларни давлат ҳисобига олиш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тизимлаштирилган ҳисобини юритиш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг давлат ҳисоби реестри, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг электрон шаклдаги реестри, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг назорат нусхаларини юритиш*

### ABSTRACT

*This article provides detailed information on the procedure for state registration of legislation. The number and indicators of state-registered documents were also discussed.*

**Keywords:** *state registration of legislation, systematic accounting of normative legal acts, state register of normative legal acts, electronic register of normative legal acts, control copies of normative legal acts*

### КИРИШ

“Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонуннинг 56-моддасига асосан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат ҳисобига олиш норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни марказлаштирилган тарзда йиғиш, ҳисобга олиш, уларнинг фондларини яратиш ва назорат ҳолатида сақлаб туришни ҳамда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳақидаги марказлаштирилган ахборотни ўз ичига олади. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат ҳисобига олишни амалга ошириш тартиби Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан белгиланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги ПҚ–3666-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Адлия

вазирлиги тўғрисидаги Низомга мувофиқ вазирлик ҳуқуқ ижодкорлиги соҳасида ягона давлат сиёсатини юритиш соҳасидаги функцияларидан бири:

Ўзбекистон Республикаси норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг давлат ҳисобини ва қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш бўйича ишларни амалга оширади;

Ўзбекистон Республикаси норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг назорат нусхаларини юритади, уларнинг банкни (фондини) шакллантиради. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ҳисобини юритиш Қоидаларида (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2021 йил 19 июнда рўйхатдан ўтказилган, рўйхат рақами 3311) норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ҳисобини юритиш тартиби белгиланган.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Қоидаларда белгиланган тартиб «Махфий» белгиси қўйилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ҳисобини юритишга нисбатан татбиқ этилмайди.

Ушбу Қоидаларда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

**норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат ҳисобига олиш** — норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни марказлаштирилган тарзда йиғиш, ҳисобга олиш, уларнинг фондларини яратиш ва назорат нусхаларини юритиш ҳамда улар ҳақидаги марказлаштирилган ахборотни шакллантириш;

**норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тизимлаштирилган ҳисобини юритиш** — норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги маълумотларни электрон шаклдаги реестрга киритиш орқали ҳисобга олиш, матнларини йиғиш ва сақлаб туриш;

**норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг давлат ҳисоби реестри** (бундан буён матнда Давлат ҳисоби реестри деб юритилади) — норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг номи, тури, қабул қилган орган, қабул қилиш санаси ва унинг рақами, кучга кириш санаси ва амал қилиш муддати, расмий нашрларда эълон қилиниши тўғрисидаги маълумотлар, ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳамда ўз кучини йўқотганлиги тўғрисидаги, шунингдек, ҳужжатнинг Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик тармоқлари умумҳуқуқий классификатори бўйича коди ҳақидаги маълумотлар ифодаланган реестр;

**норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг электрон шаклдаги реестри** — давлат органлари томонидан юритиладиган ва уларнинг расмий веб-сайтларида доимий жойлаштириб бориладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг реквизитлари кўрсатилган ҳолдаги рўйхат;

**норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг назорат нусхаларини юритиш** — норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг матнларига уларни қайта кўриб чиқишга асос бўлган (ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, уларни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги) ҳужжатлар ҳақидаги маълумотларни киритиш.

Адлия вазирлиги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг назорат нусхаларини юритади, уларнинг банкини (фондини), шунингдек, Ўзбекистон Республикаси норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг электрон фонди — Fond.uz базасини шакллантиради.

Адлия вазирлиги давлат ҳисобига олинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни фондларга ўз вақтида киритилишини ва мазкур Қоидаларда белгиланган тартибда тегишли ўзгартиришлар киритиш йўли билан уларнинг назорат ҳолатида сақлаб турилишини таъминлайди.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг электрон шаклдаги назорат нусхалари Адлия вазирлиги ҳузуридаги «Адолат» миллий ҳуқуқий ахборот маркази давлат муассасаси (бундан буён матнда «Адолат» маркази деб юритилади) томонидан «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси» (Lex.uz)да юритилади.

Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 октябрдаги 678-сон қарорига кўра, «Адолат» миллий ҳуқуқий ахборот маркази давлат муассасаси асосий вазифалари сифатида Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базасини шакллантириш ва юритиш, ундан жисмоний ва юридик шахсларнинг белгиланган тартибда фойдаланишини таъминлаш, шунингдек ушбу миллий базада норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг расмий нашр этилишини, уларнинг туркумлаштирилган ҳисобини ва назорат нусхаларини электрон шаклда юритилишини таъминлаш белгиланган.

Қоидаларга асосан қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар давлат ҳисобига олиш учун Адлия вазирлигига юборилади:

Ўзбекистон Республикасининг қонунлари;

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари;

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари;

вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари;

маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат ҳисобига олиш учун уларнинг давлат тилидаги муҳрланган ҳолдаги нусхалари рангли кўринишда электрон почта тизими орқали юборилади, шунингдек, бир вақтнинг ўзида бошқа тилларда ҳам тақдим этилиши мумкин.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат ҳисобига олиш Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг давлат ҳисоби ва тарқатилиши” ахборот тизими орқали амалга оширилади.

Тизимга норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги қуйидаги маълумотлар киритилади:

норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг реестрдаги тартиб рақами;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатни реестрга киритиш санаси;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тури;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилган орган(лар);

норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг номи;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш санаси ва унинг рақами (вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари учун уларнинг Адлия вазирлигида давлат рўйхатига олинган рақами ва санаси);

норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кучга кириш санаси ва амал қилиш муддати;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг расмий нашрларда эълон қилиниши тўғрисидаги маълумотлар;

норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳамда ўз кучини йўқотганлиги тўғрисидаги маълумотлар;


норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик тармоқлари умумҳуқуқий классификатори бўйича коди;

бошқа маълумотлар (изоҳ).

Давлат ҳисобига олинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг матнлари хронологик тартибда тизимлаштирилади ва махсус йиғмажилдлар ҳамда маълумотларнинг электрон базаларида сақланади.

Тизимнинг аҳамиятли томони шуки, барча турдаги қонунчилик ҳужжатлари Адлия вазирлиги томонидан марказлаштирилган ҳолда давлат рўйхатидан ўтказилади. Бу тартиб ҳужжатларнинг умумий сони бўйича аниқ статистикасини юритиш ҳамда қонунчиликдаги ўзгаришлар динамикасини кузатиш имконини беради.





2017-2021 йиллар давомида жами бўлиб 12 619 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат давлат ҳисобига олиш учун Адлия вазирлигига тақдим этилган бўлиб, 2019 йилда энг кўп, яъни 2 971 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат давлат ҳисобига олинган.

1991 йилдан шу кунга қадар 35 мингдан ортиқ ҳужжатлар давлат ҳисобига олинган бўлиб, сўнгги беш йилда қабул қилинган ҳужжатлар сони ҳуқуқий базанинг деярли 30 фоизини ташкил этади.

Жорий йилнинг I чорагида Адлия вазирлигига давлат ҳисобига олиш учун тақдим этилган жами **288** та норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинган бўлиб, 2021 йилнинг хос даврига нисбатан 49 тага (жами 239 та) кўпроқдир.

Қабул қилинган ҳужжатларнинг **19** тасини (6%) Қонунлар ташкил қилса, қолган **269** таси (94%) қонуности ҳужжатларига тўғри келади.

## **ХУЛОСА**

Шу билан бирга, Президент ва Ҳукумат ҳужжатларининг аксарият қисми яхлит ҳужжатларни ташкил қилса, Қонун ва идоравий ҳужжатлар асосан ўзгартириш ва қўшимча киритишни назарда тутиб, уларнинг барқарорлигини таъминлашга эътибор қаратишни тақозо этади.

*Маълумот учун: 19 та Қонун (4 та яхлит, 15 та ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида), 16 та Президент Фармони (13 та яхлит, 3 та ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида), 81 та Президент қарори*

*(78 та яхлит, 3 та ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида), 106 та Вазирлар Маҳкамаси қарори (94 та яхлит, 12 та ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида), 66 та идоравий ҳужжат (15 та яхлит, 51 та ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида).*

## **REFERENCES**

1. “Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонун – Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 20.04.2021 й., 03/21/682/0354-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 апрелдаги ПҚ–3666-сон қарори – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.04.2018 й., 07/18/3666/1073-сон
3. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 октябрдаги 678-сон қарори – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2020 й., 09/20/678/1442-сон
4. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ҳисобини юритиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг буйруғи, 19.06.2021 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 3311) – Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 19.06.2021 й., 10/21/3311/0577-сон

## **YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN IJODIY ZIYOLILARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI**

**Boqiyev Bahrom O‘ktamovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ijodkor ziyolilar faoliyati, jumladan ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan ziyoli xotin-qizlarning O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi mehnat, tarixiy tadqiqotlari, murakkab globallashuv davrida sohada vujudga kelayotgan dolzarb muammolarga munosabatlari va yechimlari, shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalarida ishtoriki hamda erishib kelgan yutuqlari yoritilgan.*

***Tayanch so‘zlari:** inson va uning manfaatlari, innovatsiya, ilm-fan yutuqlari, milliy istiqlol, taraqqiyot, farovonlikka, ma’rifat, ta’lim, oliy ta’lim, yetuk mutaxassis, darsliklar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описывается деятельность творческой интеллигенции в годы независимости, в том числе трудовая, историческая исследовательская деятельность в системе высшего образования Узбекистана, их отношение и решение актуальных проблем в сфере сложной глобализации, а также участие и достижения в международное сотрудничество.*

***Ключевые слова:** человек и его интересы, инновации, научные достижения, национальная независимость, развитие, процветание, просвещение, образование, высшее образование, зрелый специалист, учебники.*

### **ABSTRACT**

*This article describes the activities of creative intellectuals during the years of independence, including labor, historical research in the higher education system of Uzbekistan, their attitudes and solutions to current problems in the field of complex globalization, as well as participation and achievements in international cooperation.*

***Keywords:** man and his interests, innovation, scientific achievements, national independence, development, prosperity, enlightenment, education, higher education, mature specialist, textbooks.*

### **KIRISH**

Mustaqillik yillarida Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson va uning manfaatlari turadi. Barcha o‘zgarishlarning pirovard maqsadi aholi farovonligini oshirishga qaratildi. 2017 yildan e’tiboran barcha

sohalarda davlat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Barcha sohalarda keng ko'lamlı qayta qurish va islohotlarning yangi davri boshlandi. E'tiborning asosiysi, ko'p yillardan buyon yetilib qolgan masalalar va xalq manfaatları muammolarini hal qilish edi. Yangilanayotgan O'zbekiston tarixidagi muhim yangiliklardan biri, bu ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'ldi<sup>111</sup>.

Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Davlat rahbarining tashabbusi bilan respublikada ta'lim va ilm-fan tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlı ishlar mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy ustuvor vazifalaridan biriga aylandi<sup>112</sup>.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekistonda ijodiy ziyolilarga bo'lgan munosabatni adabiyot va san'at sohasi vakillari bilan Prezidentning 2017 yil 3 avgust kuni bo'lib o'tgan uchrashuvida ham kuzatiladi. Davlat rahbarining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar hamda ularning hal etish yo'llari bo'yicha ko'rsatmalar berildi<sup>113</sup>.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlashicha "... ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat

<sup>111</sup> Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha 328 chora - tadbirlar to'g'risida" gi PQ-2753 son qarori edi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 73-modda.

<sup>112</sup> Muxammadiyev O'.A., Yuzbayeva M.Z. Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatini rag'batlantirishda mehnatga haq to'lashning o'rni//Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash-mamlakat taraqqiyotining muhim omili" mavzusidagi XV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. V qism. - Samarqand. (2018 yil, 2-3 iyun). 97-bet.

<sup>113</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda "Milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalari" mavzusidagi so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 4 avgust 2017., 153 (6847).

orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin”<sup>114</sup>.

### **NATIJA**

Bugungi kunda oliy ta’limda ijodkor ziyolilarning o’rni, ularning faoliyati yaratilayotgan yangi avlod o’quv darsliklari, qo’llanma va vositalar imkoniyatlaridan foydalanishni muntazam joriy etish amalga oshirilsa, tabiiyki, ta’limda sifat va samaradorligi ortishiga erishiladi. Globallashuv jarayonini hisobga oladigan bo’lsak, bugungi kunda hech qaysi faoliyat sohasini ijodkor ziyolilarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi va ko’zlangan istiqbolga erishishda qiyinchilik tug’ilishi tabiiy, albatta.

### **MUHOKAMA**

Mustaqillikning qo’lga kiritilishi tufayli O’zbekiston xotin-qizlari haqiqiy ma’nodagi teng huquqlilikka ega bo’ldi. Ilm-fan sohasiga munosib hissa qo’shganlari ham dastlab sanoqli bo’lsa, keyingi yillarda davlat tomonidan berilgan e’tibor ularni safini kengaytirdi. Shulardan tarix faniga munosib hissasini qo’shgan olim ayollardan professor D. Alimovning ilmiy faoliyati, uning metodologik g’oyalarida ham O’zbekistonda tarixiy tadqiqotlar yo’nalishini belgilash va amalga oshirish kabi muhim masalalar o’rin olgan. U o’zining izlanishlari, qarashlari, tadqiqotchilik yondashuvi bilan zamonaviy tarix fanida uning diagnostik, tarixchilar hamjamiyati qonun qoidalari va tartibotlarini namoyon qiluvchi olim sifatida o’rin tutdi. Qisqa qilib aytganda, o’z davri intellektual manzarasini shakllantirishda munosib ishtirok etayotgan olimadir. Tarixshunoslikning yana bir muhim ijtimoiy vazifasi - tarixchilar faoliyatini, ularning fan rivojidadagi ishtirokini yoritishdan iborat. Shunday ekan, tarixshunos D.Alimova ijodida yetuk tarixchilar, ustozlari faoliyatini o’rganish, ularning fan taraqqiyotiga qo’shgan hissasini munosib baholash va tadqiqotchilik tajribasini ommalashtirish kabi masalalar alohida o’rin tutadi. D.Alimova o’zining bir qator tadqiqotlarini O’zbekiston va Markaziy Osiyo tarix fani rivojiga katta hissa qo’shgan olimlar B.V.Lunin, R.H.Aminova, F.H.Qosimov, Manash Kozibayev hayoti va faoliyatiga bag’ishlaydi<sup>115</sup>.

Yurtimiz taraqqiyotida ta’lim tizimida faoliyat ko’rsatayotgan xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, ulardagi ijtimoiy-siyosiy faollikni, tashabbuskorlik, yetakchilik, professional mahoratini qaror toptirish bugungi kunning eng muhim masalasidir. Jumladan, O’zbekistonda oliy ta’lim tizimini

<sup>114</sup> Yangi O’zbekiston, 30 sentabr 2021 yil. №195 (451).

<sup>115</sup> Asadova Sh.I. Tarix fani muammolari tarixchi olim nazdida // Markaziy osiyo davlatlari olim ayollarining ilm-fan sohasiga qo’shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism) – Toshkent, 2020 yil 20 mart. 35-bet.

takomillashtirish, ilm-fanni rivojlantirish borasida o‘z sa’y-harakatlari bilan munosib hissalarini qo‘shib kelayotgan olim ayollarimiz ko‘pchilikni tashkil etadi<sup>116</sup>.

Ana shunday olimalardan biri pedagogika fanlari nomzodi, professor Tal‘at G‘afforovadir. Olima faoliyati mobaynida pedagogika fanining dolzarb muammolarini o‘rganishga qaratilgan 180 ga yaqin, ilmiy, metodik va ommabop ishlar e‘lon qilib keldi. Bular 5 ta darslik, 10 ta metodik qo‘llanma, 13 risola, ko‘plab metodik tavsiyalar hamda qator ilmiy va ommabop maqolalardir.

Tal‘at G‘afforova bir necha yillar davomida Respublika Ta‘lim markazi ilmiy-metodik kengashining a‘zosi, “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali tahririyati a‘zosi sifatida Respublika boshlang‘ich ta‘limning rivojiga katta hissa qo‘shdi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlangan ilmiy ijod natijasida 1-sinflar uchun o‘quv-metodik majmua yaratdi. Bu majmua “Alifbe”, “Ona tili va o‘qish” darsliklari, 1- va 2-yozuv daftarlari, o‘qituvchilar uchun “1-sinf savod darslari” metodik qo‘llanmalarini o‘z ichiga oladi<sup>117</sup>.

Tal‘at G‘afforova xalqaro loyihalar ishida ham faol ishtirok etdi. 1997 yil Respublika “Olima” ayollar assotsiatsiyasining tavsiyasi bilan Yevropa Ittifoqi TACIS dasturining “Ayol va demokratiya” loyihasida ishtirok etdi. Olima rahbarligida tayyorlangan “O‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida axborot texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi loyiha 1999 yilda TEMPUS dasturiga kiritildi va unga asosan Qarshi davlat universiteti Angliyaning “Shimoliy London”, Finlyandiyaning “Oulu” universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, tajribalar almashildi. TEMPUS dasturi asosida qo‘llanma yaratilib, mazkur qo‘llanma xorijiy davlatlar ta‘lim sohasida to‘plangan tajribalar asosida Yevropa Ittifoqining “TEMPUS” dasturiga kirgan va Qarshi davlat universitetida faoliyat ko‘rsatayotgan “O‘qituvchilar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini isloh qilishda axborot texnologiyasidan foydalanish” – “RETUIT” loyihasi doirasida tayyorlandi<sup>118</sup>.

Jahonning rivojlangan davlatlarida, xususan AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning rivojlanish garovi bo‘lib inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash, ya‘ni inson salohiyati taraqqiyoti, xususan aholi ta‘lim darajasining oshishi va yosh kadrlarning professional tayyorgarligi bilan belgilanadi. Ma‘lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan

<sup>116</sup> Abdullayev O‘.SH. O‘zbekiston ilm-faniga va kadrlar tayyorlash ishiga hissa qo‘shib kelayotgan Qashqadaryo vohasi ayollari orasidagi birinchi fan doktori // Markaziy osiyo davlatlari olim ayollarining ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism) – Toshkent, 2020 yil 20 mart. 8-bet.

<sup>117</sup> Ergasheva Y.A., Imomova G.M. Qashqadaryo ilm yulduzlari. // Biobibliografik to‘plam, Qarshi, Intellekt nashriyoti, 2021. 36-bet.

<sup>118</sup> G‘afforova T., Qurbonov A., Godfri YE. Ta‘limning ilg‘or texnologiyalari. Advanced pedagogical technologies. Qo‘llanma. Qarshi, 2003 yil. 4-bet.

davlatlarida ta'lim paradigmasi o'zgarib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi<sup>119</sup>.

Mamlakatimiz ta'lim tizimiga katta hissa qo'shgan olimalardan yana biri tarix fanlari doktori, professor Ergasheva Yulduz Alimovnadir. Olima ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda xalq maorifining ahvolini o'rganish, tahlil qilish, tariximizning eng og'ir davridagi o'qish-o'qitish jarayonidagi yutuqlar, muammolarni, ayni damda maorifchilar va o'qituvchilarning ijtimoiy hayotidagi o'rnini ilmiy jihatdan yoritmoqda. Yulduz Ergasheva 2012 yildan buyon O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasining Qashqadaryo bo'limi raisidir.

Professor Yulduz Ergasheva 250 dan ortiq ilmiy ishlar, 5 ta monografiya, 40 ga yaqin o'quv-uslubiy ishlar muallifi, 3 ta fundamental va amaliy grantlar rahbaridir. O'zbekiston tarixi madaniyatshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlari Germaniya, Xitoy, Hindiston, Bolgariya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya kabi davlatlarning ilmiy jurnallarida chop etilgan<sup>120</sup>. Ahamiyatlisi, shundaki, olimaning 20 ga yaqin ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan shogirdlari bo'lib, ulardan bugungi kunda 10 dan ortig'i tarix fanlari nomzodi yoki tarix fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalariga erishib bo'lganlar.

"Jamiyat taraqqiyoti amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lami va mantig'iga bog'liq", - deydi professor Yu. Ergasheva. Qaysi soha e'tiborga muhtojligini ilg'ab, chuqur va har tomonlama o'ylanib amalga oshirilgan islohotlarga xalqning mushkulini oson, og'irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida esa yuz berayotgan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keladi, hatto xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob'ro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqadi<sup>121</sup>.

<sup>119</sup> Dala yozuvlari. Qarshi davlat universiteti professori Tal'at G'afforova bilan suhbat (Qarshi, 2019 yil 22 fevral).

<sup>120</sup> Abdullayev O'.SH. O'zbekiston ilm-faniga va kadrlar tayyorlash ishiga hissa qo'shib kelayotgan Qashqadaryo vohasi ayollari orasidagi birinchi fan doktori // Markaziy osiyo davlatlari olimo ayollarining ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism) – Toshkent, 2020 yil 20 mart. 8-bet.

<sup>121</sup> Dala yozuvlari. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "O'zbekiston tarixi" kafedrasini mudiri, t.f.d., professor Yulduz Ergasheva bilan suhbat (2020 yil 25 sentabr).

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va ularni rag‘batlantirish masalalari davlatimizning ichki siyosatida (ijtimoiy himoya tizimida) munosib o‘rin egalladi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 apreldagi PQ 3655-son qarori <sup>122</sup> ushbu sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning mehnatiga haq to‘lashni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan hisoblanadi. 2018 yil 1 sentabrdan boshlab, kuchga kiradigan ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasida faoliyati ko‘rsatayotgan 81 ta oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va 136 ta ilmiy tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tarkibining barcha (bazaviy) tayanch lovozim maoshlari miqdorlarini sezilarli oshirilishini nazarda tutadi. Qaror jami 38 mingdan ortiq ya‘ni, oliy ta‘lim muassasalarida 28,1 ming, ilmiy-tadqiqot muassasalarida 8,0 ming xodimlarga shuningdek 1,9 ming doktorantlarga daxldordir.

## **XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda ijodiy ziyolilarga munosabat va e‘tiborning davlat darajasiga ko‘tarilishi hamda ular faoliyatidagi tub o‘zgarishlarning asosi respublikada amalga oshirilayotgan istohotlarning natijasi edi. Xususan, davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan mazkur islohotlarning yangidan-yangi ko‘rinishlari, el-yurt tinchligi hamda xalq farovonligi uchun yanada o‘rinli jihatlari ishlab chiqilayotgani ma‘lum. Shuningdek, mamlakatimizda ilm-fan rivojlanishiga bo‘lgan e‘tibor, kadrlar tayyorlash tizimini yanada taraqqiy toptirish, sohada yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash singari ustuvor vazifalar kundan-kunga ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”<sup>123</sup>ning 4.4-bandida ko‘rsatilgan Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish rejasi Oliy ta‘lim tizimida biz tilga olmoqchi bo‘lgan yangilik va o‘zgarishlarning bosh debochasi bo‘ladi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda “Milliy madaniyatimiz, adabiyot va san‘atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalari” mavzusidagi so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi, 4 avgust 2017., 153 (6847).

<sup>122</sup> O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 07/18/3655/1019-son.

<sup>123</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha 328 chora - tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-2753-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 73-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018 y., 07/18/3655/1019-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
5. Yangi O‘zbekiston, 30 sentabr 2021 yil. №195 (451)
6. Ergasheva Y.A., Imomova G.M. Qashqadaryo ilm yulduzlari. // Biobibliografik to‘plam, Qarshi, Intellekt nashriyoti, 2021. 36-bet.
7. Dala yozuvlari. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasini mudiri, t.f.d., professor Yu. Ergasheva bilan suhbat (2020 yil 25 sentabr).
8. G‘afforova T., Qurbonov A., Godfri Ye. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. Advanced pedagogical technologies. Qo‘llanma. Qarshi, 2003 yil. 4-bet.
9. Dala yozuvlari. Qarshi davlat universiteti professori Tal‘at G‘afforova bilan suhbat (Qarshi, 2019 yil 22 fevral).
10. Muxammadiyev O‘.A., Yuzbayeva M.Z. Oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatini rag‘batlantirishda mehnatga haq to‘lashning o‘rni // Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash-mamlakat taraqqiyotining muhim omili” mavzusidagi XV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. V qism. - Samarqand. (2018 yil, 2-3 iyun). 97-bet.
11. Asadova Sh.I. Tarix fani muammolari tarixchi olimi nazdida // Markaziy osiyo davlatlari olimi ayollarining ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism) – Toshkent, 2020 yil 20 mart. 35-bet.
8. Philosophy: An Encyclopedic Dictionary / Edited by A. A. Ivin. - M.: Gardariki, 2004. [Electronic resource]. URL: <https://dic.academic.ru>
9. Chalisova N., Smirnov A. Imitations of Oriental poets: the meeting of Russian poetry and Arabic poetics // Comparative Philosophy. Moscow, 2000.
10. Shakhmatova E. Justification of mysticism: Russia and Europe in the mirror of the East // Russia and the West: Dialogue or clash of cultures: Collection of articles. Moscow, 2000.
11. Kaganovich S.L. Russian Romanticism and the East: The specifics of interethnic interaction. Tashkent, 1984. p. 59.
12. Гиздулин, Э., & Акбаров, О. (2021). Видовые особенности лирики Е. Евтушенко. *Общество и инновации*, 2(10/S), 47-51.



## **JAMIYAT HAYOTIDA TADBIRKORLIKNI O'RNI**

**Xabibillayev Baxodir Asatilla o'g'li**

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

[baxodirxabibillayev@gmail.com](mailto:baxodirxabibillayev@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatining jamiyatdagi amaliy ahamiyati hamda so'ngi yillarda sohadagi o'zgarishlar, yaratilgan sharoitlar tadbirkorlik va kichik biznes faoliyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Tadbirkorlik, kichik biznes, korxonalar, fabrika, maxsulot, kapital, ish o'rni, bozor, import, eksport.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the practical significance of entrepreneurship and small business in society, as well as changes in the industry in recent years, the conditions created for entrepreneurship and small business.*

**Keywords:** *Entrepreneurship, small business, enterprise, factory, product, capital, job, market, import, export.*

### **KIRISH**

Tadbirkorlik bugungi rivojlangan O'zbekiston Respublikasi fuqorolari ko'p ishlatadigan jumlagi aylanib ulgurdi. Respublikamizda so'ngi yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bolgan insonlar uchun har qachongidan ham ko'p etibor qaratilmoqda. O'zbekiston tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun chinakkam imkoniyat yaratib, bugungi kunda ushbu sohada ko'plab yutuqlarga erishilmoqda.

Tadbirkorlik yoki biznes inglizcha so'zdan olingan bo'lib, business bandlik degan ma'noni anglatib, qonun doirasidagi tijoriy faoliyatga aytiladi. Tadbirkor tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ellanuvchi shaxsdir. Kapiatlistik iqtisodiyot asosini xususiy tadbirkorlik tashkil etadi. Agar tadbirkorlik faoliyati bilan hukumat, jamiyat yoki ishchilar kasaba uyushmalari shug'ullansa bunday iqtisodiyotni sotsialistik iqtisodiyot deyiladi. Tadbirkorlik, tadbirkor deganda ish, korxonalar, fabrika tushuniladi va uning ortida maxsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ishlab chiqarish-ho'jalik yuritish tizimini murakkab organizm turadi.<sup>134</sup> Tadbirkorlik sohasini ho'jalik yuritish ko'lamiga kora 3 ga bo'lamiz. Bular yirik-500 dan ortiq kishini ishlab chiqarish jarayonida band bo'lishi, o'rta- 20tadan

<sup>134</sup> Tadbirkorlik asoslari. S. N Usmonov, Yu. T Dadaboyev. Farg'ona nashriyoti . 2000-y

500kishigacha bo'lgan kishini band qilgan ishlab chiqarish va kichik tadbirkorlik- ishlab chiqarish jarayonida 10-20 yoki undan kam kishini o'zida band qilgan tadbirkorlik turlariga bo'lamiz. Yirik ishlab chiqarish, keng turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, mehanizatsiyalashgan va avtomatlashgan yo'nalishlarda yirik va o'rta tadbirkorlik subektlari faoliyat olib boradi. Kichik tadbirkorlikka esa asosan hizmat ko'rsatish yo'nalishlari yoki qishloq xo'jaligi sohalari qamrab oladi. Umuman olganga kichik tadbirkorlik sohalari keng tarqalgan. Chunki ushbu turdagi tadbirkorlik turlari sharoitga tez moslashadi va shu jihatdan katta va o'rta tadbirkorlik turlaridan keskin farq qiladi.<sup>135</sup>

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tadbirkorlik mulkchilik subektlarining foyda olish maqsadida tavakkal va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir.<sup>136</sup>

Tadbirkorlik yer, mehnat, kapital, axborotlar bilan birga ishlab chiqarish va iqtisodiyotning bosh omillaridandir. Biznesni tarkibiga bevosita tadbirkorlik kiradi, lekin hamma biznes ham Tadbirkorlik bo'lavermaydi. Tadbirkorlik faoliyati qachon yuzaga keladi? Biznesda tovar hamda xizmatlarni yuzaga keltirib, bozordagi talab va extiyojlar qondirilganda ushbu jarayon yuzaga keladi. Tarixan tadbirkorlik uzoq o'tmishga ega ammo tadbirkorlik tushunchasi XVII asrda vujudga kelgan va ko'p holatlarda "mulkdor" iborasi bilan bir ma'no-mazmun kasb etadi. Xususan, A. Smit Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish yurutuvchi mulkdor deb tariflaydi. Hozirgi davr G'arb adabiyotida ham Tadbirkorlik foyda olish maqsadida xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik va tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavf-xatarga doim tayyor turish kabi belgilar bilan tavsiflanadi.<sup>137</sup>

Xalq farovonligini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga moljallangan "Xarakatlar stretegiyasi" ni qabul qilinishi shu bilan birga 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash" yili deb e'lon qilinishi yurtimmizda tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan etiborning yuksak namunasidir. Shuningdek mamlakatimmizda Tadbirkorlik faoliyati rivojlantirish uchun bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Hususan, 2016-yil 5-oktyabrda PF-4848-son, "Tadbirkorlik

<sup>135</sup> O'zME, birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>136</sup> O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida» qonunidan

<sup>137</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tadbirkorlik/>

faoliyatini jadal rivojlantirishni taminlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2017-yil 7-fevraldagi PF 5106-son, "Yoshlarga doir davlat siyosati samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab- quvvatlash to'g'risida"gi farmonlari shuningdek 2018-yil 7-iyuldagi PQ 3777-son, "Xar bir oila tadbirkor dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi farmon-u qarorlar tadbirkorlik rivojiga kata xissa qo'shmoqda.

Mamlakatimizda demokratik islohotlar, tadbirkorlik va uni rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. Karimov asarlarida o'z tasdig'ini topadi.<sup>138</sup> O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichida esa tadbirkorlarning mamlakat rivojlanish strategiyasi va yangi rivojlanish bosqichida ahamiyati O'zbekiston Respublikasi hoziri prezidenti Sh Mirziyoyev asarlarida ifodalangan.<sup>139</sup> Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil vazifasini tadbirkorlik faoliyati tashkil etadi. Bugungi kunga kelib bizning davlatimizda ham tadbirkorlik yoinki kichik biznes tushunchalari yildan yilga keng ildiz otib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes yurtimiz iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan. Ohirgi besh yilda ushbu yo'nalishni rivojlantirishga yo'naltirilgan 2000 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida, 114 ta litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor qilish tartibiga o'tkazildi. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirib, muddatlari o'rtacha 2 barabarga qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va hom ashyo bo'yicha ko'plab cheklovlarga barham berildi. Yuqoridagi qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi subektlar nihoyatda ko'payib, oldindan ishlayotganlari faoliyatini yanada rivojlantirmoqda. So'ngi besh yilda tadbirkorlar soni salkam 3 baravar oshdi. Ko'plab tadbirkorlar o'z biznesini butun mamlakat bo'ylab kengaytirib, minglab ish o'rinlari yaratishdi va yirik kompaniyalarga aylandi. Ichki va tashqi bozorda o'z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi paydo bo'la boshladi.<sup>140</sup>

Prezidentimiz Sh Mirziyoyevning 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan mulqoti jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesni rivoji uchun to'siq bo'layotgan, tadbirkorlarni qiynayotgan muommalarni yechimi sifatida 7 ta yo'nalishni ko'rsatib

<sup>138</sup> Karimov I A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlariv taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O'zbekistin 1997.325b. Erishilgan marralar bilan chegarlanmasdan, boshlangan islohatlarimmizni yangi bosqichga ko'tarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimmizdir.23 tom Toshkent O'zbekiston. 2015 y. 404b

<sup>139</sup> Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O'zbekiston 2017 y. 488b.

<sup>140</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh Mirziyoyev Tadbirkorlar bilan uchrashuvi Toshkent 2021

o'tdi. Xususan birinchi yo'nalish-biznesni moliyalashtirish, ikkinchisi-soliq tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorga soliq yukini kamaytirish, uchinchisi-yer ajratish, to'rtinchisi-infratuzilma, beshinchisi-ekspartyor korxonalarni qo'llab quvvatlash, oltinchisi-transport-logistika, yettinchisi-sohadagi tartib tamoyillarni soddalashtirish masalalariga bag'ishlandi va davlatimiz rahbari har bir yo'nalish bo'yicha dolzarb vazifalarni ko'rsatib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi. O'zbekistonda Tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag'batlantirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish, tadbirkorlik sohasida katta-katta marralarga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar stretegiyasida "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk xuquqini himoya qilish va uning ustuvir mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohatlarni davom ettirish"<sup>141</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Buning natijasida mamlakatimizda ishonchli tadbirkorlik muhiti shakllanmoqda. Rivojlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yurtimmizda ham yakka tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Singapur, Malayziya kabi mamlakatlar aholisining deyarli 80 foizi kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sektorida faoliyat olib boradi.<sup>142</sup> Kichik biznes Aqsh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Kichik biznes kengashi (ICSB) malumotlariga ko'ra kichik biznes subektlari barcha korxonalarining 90 foizidan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70 foizini, yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etadi.<sup>143</sup> 2017-yil kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53.3 foizni yoki 119301 mlrd so'mni tashkil etdi. (Germaniyada – 54 foiz, AQShda – 52 foiz, Yaponiyada – 55 foiz, Rossiyada – 20 foiz, Qozog'istonda – 25.6 foiz). Kichik biznesni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 12.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda ushbu ko'rsatkich 39.6 foizga yetdi, qishloq ho'jaligida – 99 foizni, chakana savdo aylanmasida – 88.4 foizni, qurilish sohasida – 65.1 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 27 foizni, importda – 50 foizni, investitsiyada esa – 32 foizni tashkil etdi. <sup>144</sup> Yuqoridagi

<sup>141</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretegiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni 1- ilovasi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar stretegiyasi. Lex.uz

<sup>142</sup> <https://www.rsbctrade.ru> 2012 y 16 iyun.

<sup>143</sup> MSME Day <http://www.intracen.org/MSME-day/2019/>

<sup>144</sup> <https://mineconomy.uz/uz/info/2093>

statistik malumotlardan shu malum bo'ladiki kundan kunga kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz nafaqat mamlakatimiz dunyoning barcha davlatlarida rivojlanmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi muommolarni hal qilishda hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoj topishida tadbirkorlikning o'рни katta. Tadbirkor ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida yangi ish o'rinlari yaratishadi. Bu jarayonni aholini aholini ish bilan band qilinishi va ishsizlikni kamaytirishda ro'li beqiyosdir. Natijada, tadbirkorlik faoliyati aholini ish bilan taminlanishi, mehnat va iqtisodiy faolligining ortishi, buning oqibatida aholining daromadlarini yuksalishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu jarayonning ikki oqibatiga etibor qaratish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma'naviy zaruratlarining ortishi, kengayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu zarurlarni qondirish imkoniyatlarini paydo bo'lishidir. Natijada ushbu jarayonlar aholi hayotini tubdan yaxshilash, turmush darajasini ko'tarish, farovonligini oshirishni taminlaydi. Tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishi bilan uning mazkur sohadagi ro'li ko'paya boradi.

Tadbirkorlarning ma'lum bir qismi oyoqqa turib, yanada kengayishi oqibatida ular mulkdorga aylananishadi. Bu hodisa jamiyatda yangicha dunyoqarashga ega, harakatchan avlodni yani tadbirkorlar, mulkdorlar toifasini paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday qatlam mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti asosi hamda ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ham tadbirkorlik subyektlari ishtirok etadilar. Shuningdek tadbirkorlar doimo izlanishda, yurtimizdagi va horijdagi hamkasblari, hamkorlar, shu bilan birga turli soha vakillari bilan muloqatda bo'lishadi. Tajriba ortirishadi va o'zlarining kasbiy, ma'daniy-ma'naviy ko'nikmalarini o'stirishadi. Inson qobiliyatini ro'yobga chiqarishga yahshi imkoniyatlar yaratishda hamda rag'batlantirishda tadbirkorlikni o'рни beqiyosdir. Shunday qilib, insonlarning dunyoqarashini kengaytirishga hamda o'zliklarini anglashda tadbirkorlik faoliyati yordam beradi. Ularni o'zgartiradi va natijada jamiyatning ijtimoiy-madaniylashish jarayonini ortishiga olib keladi.

Tadbirkorlikni rivoj topishi natijasida qishloqlarda, mahallalarda ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqa xizmat ko'rsatish korxonalarini bunyod etib, qishloq infratuzilmasini rivojlantirishadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik ijtimoiy sohada ham keng o'rin egallab bormoqda: xususiy yoki boshqa tashkiliy-huquqiy ko'rinishdagi bolalar bog'chalari, muruvat uylari, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inventerlar ishlab chiqarish hamda ularga xizmat ko'rsatish, o'quv va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini tashkil etish va ularni rivojlantirish, sog'liqni

saqlash va sog'lomlashtirish, bino va inshootlar qurish va ularga tamiriy xizmatlar ko'rsatish ishlari bilan bevosita shug'ullanib, mavjud bo'lgan ijtimoiy muommolarni yechishga ulkan hissa qo'shadi. Xayriya ishlari, ijtimoiy soha muassasalari, imkoniyati cheklanganlar, kam taminlangan oilalar, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj insonlarga yordam ko'rsatishda ham tadbirkorlik subyektlarining o'ri beqiyos.

Tadbirkorlar mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yaratib, ichki bozorni to'ldiradilar va bozorda taklif miqdori, sifat, turli hillik jihatidan ijobiylashadi, xaridorlar uchun talabni qondirish va tanlash imkoniyatlari kengaytiradi. Ushbu yo'nalishda tadbirkorlik muvofiqlashtirish vazifasini bajarish, narxlarni barqarorlashtirish, taklif va talab o'zaro moslashtirish, bozorda muvozanat o'rnatish hamda ushbu muvozanatni saqlab turish, ehtiyojni kengaytirish va ehtiyojni to'laqonli qondirishga xizmat qiladi. Shuningdek tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti jarayonida raqobatbardoshlikni shakllantirishi va mahsulot sifat hamda raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni va mahsulot tannarxini tushurish, faoliyat natijadorligini o'stirishda ahamiyatlidir.

Yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining hissasini hisobiga importni qisqartirish va eksportni kengaytirish imkoniyatlari rivojlanmoqda. Ular birinchidan, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarib, valyutani chetga chiqib ketishini kamaytirish va mamlakat iqtisodiy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, ikkinchidan esa eksportbop mahsulotlar chiqarish, ularni tashqi bozorlarda sotib, mamlakat eksport salohiyatini ko'tarish va valyutadan keladigan daromadlarni oshirishda ham keng o'rin egallaydi.

## **XULOSA**

“Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, butun hayotidan rozi bo'lib yashashi-bizning bish maqsadimizdir”<sup>145</sup>. Xulosa orinda shuni takidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach hamma sohada bo'lgani kabi tadbirkorlik va kichik biznes sohasida katta muvaffaqiyatlar qozondi va qozonib kelmoqda. Istiqlol yillari davlatimiz tomonidan Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan insonlarga barcha sharoitlar yaratib berildi. Malumki O'zbekiston hududida qadimdan hunarmandchilikning turli sohalari shakllangan va istiqloq davrida hunarmandchilik sohasi bilan shug'ullanib kelayotga fuqorolarga ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi asosida katta-katta tadbirkorlik subektlari paydo bo'ldi.

<sup>145</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018y

Tadbirkorlik ideologisi hisoblangan XX asr buyuk iqtisodchisi Yozef Shumpeter (1183-1950 – yillar) : “Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo’lmagan joyda juda his qilish mumkin” deb takidlab o’tgan.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O’zbekiston 2017 y. 488b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018y
3. Karimov I A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlariv taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O’zbekistin 1997.325b. Erishilgan marralar bilan chegarlanmasdan, boshlangan islohatlarimmizni yangi bosqichga ko’tarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimmizdir.23 tom Toshkent O’zbekiston. 2015 y. 404b
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar stretegiyasi to’g’risida” gi PF-4947-sonli Farmoni 1- ilovasi “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar stretegiyasi. Lex.uz
5. O’zbekiston Respublikasining «O’zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to’g’risida» qonunidan
6. . Usmonov S. N, Dadaboyev Y. Tadbirkorlik asoslari. Farg’ona nashriyoti . 2000-y
7. O’zME. birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

## **KOMPOZITSIYADA IJODIY JARAYON HAMDA KOMPOZITSIYA VOSITALARI VA ME'ZONLARI**

**Talipov Nig'matjon Nozimovich**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Tasviriy san'at" kafedrasi katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'atda kompozitsiyani maqsad va vazifalari, tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik mahorati shuningdek kompozitsiyada ijodiy jarayon hamda kompozitsiya vositalari va me'zonlari kabi masalalarda o'z aksini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kompozitsiya, jarayon, vosita, me'zon, turg'un, dinamik, barokko, obraz, lirik, haykaltarosh, relief, element, intervallari, tipi, jesti, personaj, epizod, peyzaj, portret, syujet, contrast.*

### **ABSTRACT**

*This article is intended for students and teachers of the field of study "Fine Arts and Engineering Graphics", in which the goals and objectives of the composition in the fine arts, the pedagogical skills of teaching the fine arts, as well as the composition reflects the creative process as well as the means and criteria of composition.*

**Keywords:** *Composition, process, medium, criterion, constant, dynamic, baroque, image, lyric, sculptor, relief, element, intervals, type, gesture, character, episode, landscape, portrait, plot, contrast .*

### **KIRISH**

Tasviriy san'atda - rassom (haykaltarosh va boshqa) g'oyasini aniq ifoda etish vositasi bo'lib, unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq, shakl, rang va obrazlarni tartibga keltiradi, fazoviy kenglikni o'zlashtiradi va badiiy muhit yaratadi.

Kompozitsiya (lot. compositio — tuzilish, birlashish, bog'lanish) - badiiy asarning mazmunan, harakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o'zaro uyg'unligi tashqil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarining asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo'ladigan fikr, his-tuyg'ular o'z aksini topadi. Kompozitsiyaning "turg'un" va "dinamik", "ochiq" va "yopiq" xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish ma'lum "qonun" (kanon)lar bilan belgilangan va



chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. Uygʻonish davrida "turgʻun" va "yopiq" kompozitsiya, barokko sanʼatida "dinamik" va "ochiq" kompozitsiya ustuvorlik qilgan. Sanʼat tarixida qonunlarga boʻysunib yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol oʻynagan. Uygʻonish davrida kompozitsiyani ilmiy asoslashga intilish kuzatiladi. Tasviriy sanʼatning har bir turi oʻziga xos kompozitsion uslublarga ega. Masalan kitob bezagi (rasm) mahobatli devoriy rassomlik kompozitsiyasidan farq qiladi. Shuningdek, kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha boʻlishi mumkin. Masalan haykaltaroshlik asarlaridan relyefni faqat old tomondan koʻrish mumkin. Aksincha, mahobatli yodgorliklarni esa aylanib tomosha qilish lozim. Haykaltarosh asar yaratayotganda kompozitsiya qonunlarini eʼtiborga olishi kerak. Tasviriy sanʼatda koʻp shakl (figura)li kartina va haykallar ham kompozitsiya deb ataladi. Meʼmorlikda — kompozitsiya (mujassamot) bino (inshoot va ularning majmualari)ning tuzilishi, vazifasi va gʻoyaviy badiiy jihatlari birligi va shaharsozlikdagi oʻrnini taʼminlashdan iborat; kompozitsiya butun bir shahar yoki meʼmoriy ansambl, alohida bino yoki inshootning tashqi qiyofasi bilan ichki xonalari, tuzilishi bilan bezaklari, rangi, loyihasi va qurilishini aniqlaydi, atrof muhit bilan uygʻunlashishi meʼmoriy kompozitsiyaga kiradi. Bu esa meʼmordan katta mahorat talab etadi. Adabiyotlarda kompozitsiya — asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, oʻzaro bogʻliqligi, voqea, harakter-obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi maʼlum maqsadga boʻysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham boʻlmasligi kerak. kompozitsiyaning oʻziga xosligi syujet unsurlarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari unsurlar (lirik, falsafiy-publitsistik chekinishlar, qoʻshimcha epizodlar) ning bor-yoʻqligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning meʼyori va tartibiga bogʻliq. kompozitsiya yaratish usuli va uslublari turlituman. Qadimdan kompozitsiyani asar gʻoyasi bilan uzviy bogʻliq holda tushunib kelingan. kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. kompozitsiya asar gʻoyasiga bogʻliq. Tanlangan obraz yoki voqea asarga kiritish uchun muvofiqmi yoki yoʻqmi — buni faqat yozuvchi aytmoqchi boʻlgan gapga nisbatan aniqlash mumkin. Bu ham kompozitsiyaning muhim bir tomoni. kompozitsiya shu jihati bilan asarda mazmunning qay darajada mazmundorligini koʻrsatuvchi muhim omillardan. Musiqada — 1) musiqa asarining tuzilishi; 2) kompozitor ijodining mahsuli, tugal

musiqa asari; 3) ko'p ovozli musiqa asarlarini yaratish jarayoni, badiiy ijod turi; 4) konservatoriya va boshqa musiqa o'quv yurtlarida o'qitiladigan tarixiy-nazariy va amaliy fan. Musiqiy mavzularni yaratish tamoyillari, ularni rivojlantirishda ko'p ovozli musiqa vositalaridan unumli foydalanish yo'llari, muayyan musiqa janri, tur va uslublarning xususiyatlari, asarlar tuzilishi va tugal shaklga keltirilishi qonun-qoidalari kabi ma'lumotlardan iborat. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari. Kompozitsiyaning asosan to'rtta qonuni mavjud: yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi. Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilar esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi. Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg'unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega. Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga

bog`liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog`i, intervallari, tipi, jesti ya`ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog` yoki siluetga birlashishi o`zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabiyeu portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko`pgina rassomlar o`zlarining ko`p figurali asarlarini yaratib, ko`p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan. Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya`ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo`lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko`rinishi tasvirlanadi. Mana shuning uchun ham rassom hayotni harakatda, yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko`p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin. Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o`tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning paydo bo`lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o`g`liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to`htab, o`girilib qarab turgani tasvirlangan. Keyingi harakat esa tasvirlanmagan bo`lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko`z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning kulminatsion nuqtasi aniq ko`rinib turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan. Rassom Yu.I. Pimenov o`zining "Yangi Moskva va Kechagi ko`chadagi to`y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko`rgan tomoshabin voqealar xuddi ko`z oldida bo`lib turgandek his qilinadi. Tipiklashtirish qonunining uchinchi belgisi uning yangiligidir. Realistik san`at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko`rsatib bera oladi. Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o`zlashtirish - san`atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o`ziga-o`zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o`zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A.A.Plastov, o`zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O`Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go`zal holatda ko`ramiz va his qilamiz.

Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni. Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko'rsatib beradi. Kompozitsiyada qarama-qarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozib qoldirgan. Mikelendjelo o'z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e'tibor bergan. U o'z asarlarida hajmli figuralarning ko'rinishini o'z in figuralar yoki yassilik orqali bo'rttirib ko'rsatgan. Inson o'z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san'atda juda katta ahamiyatga ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug' va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug'-soyaning yo'qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan. Ular o'z asarlarida to'q rangli fonda yorqin figurani tasvirlashgan. XIX asrga kelib esa rassomlar portretida yorqin on qo'llay boshlashgan. V.A.Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli asarida yorqin fonda qizning yuzi yengil siluetda tasvirlangan. Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'kzarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin. Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi. Monumental asarlar ham kontrastlar asosida quriladi. Bu yerda uzunlik kontrasti katta ahamiyatga ega. Masalan, monumentalist - haykaltaroshlar mayda shakllarni yirik monumentlar oyog'i ostiga qo'yishadi. Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye.A. Kibrik shunday deydi: "Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, dehqon yoki turma" vagonida hibsga o'tirgan mahbusga perronda uchib yurgan ozod kabutarlar kontrast bo'la oladi. Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi. Shunday qilib kompozitsiyada kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sir qiladi. Kompozitsiyadagi barcha qonun va vositalarning uning fikriy g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi qonuni. Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy-g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik sxemaga ega emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak. San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning

kompozitsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu ob'ektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi. Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimetriasini hisobga olishni talab qiladi. U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin. Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko'rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo'lishi juda zarur. Xulosa qilib shuni aytib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsa, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. Yuqorida keltirib o'tilgan qonunlar abstraksionizm va naturalizmga juda begonadir. Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to'plagan boy materialni sistemali ravishda san'atga qaytaradi. San'at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega. Kompozitsiyaning qoidalari, priyomlari va vositalari kompozitsiyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim. Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib

beruvchi badiiy vositalarning qo`llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriy asosi hisoblanadi. Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3). Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug`-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo`lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to`g`risidagina ma`lumotlarni berdik. Ritm. Hammaga ma`lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o`zgarib turadi, hayvonlar, o`simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san`atdagi ritm bir hil emas. San`atda ritm va ritmik aksentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo`lishi mumkin. Musiqadagi kabi tasviriy san`atda ham ritmlar faol, uzuq-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi. Ritm - bu qandaydir elementlarni ma`lum bir ketma-ketlikda joylashishidir. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san`atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko`rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi. Ritm chiziqlar, dog`lar, yorug`lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Kompozitsiyada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo`li yoki oyog`i va hokazo. Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi. Ritmlar dekorativ - amaliy san`atda muhim rol o`ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko`plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan. Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko`rsata oladi? Bu bizning ko`ruv organizmining xususiyati bilan bog`liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o`ziga o`hshash boshqa elementga tushar ekan, o`zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to`lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to`lqindan ikkinchisiga o`tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo`ladi. Tasviriy san`at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san`at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko`zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob`ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to`g`risida juda ko`p vosita va priyomlarni bilishadi. Quyida biz ulardan bir nechtasini ko`rib chiqamiz. Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda ob`ektlar

kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko`rinadi: Agar kartinada harakat yo`nalishi bo`yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa; Agar harakatlanayotgan ob`ekt oldida bo`sh masofa qoldirsak; Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa. Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko`rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo`lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob`ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob`ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to`htab qolgandek tuyuladi. Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo`nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog`oz sathining chuqurligiga yo`nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to`lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta`sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob`ektning silliq bo`yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo`llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to`htatib qo`yadi. Harakat yo`nalishini o`zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Statikani berish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya static hisoblanadi. Agar kartinada diagonal yo`nalishlar yo`q bo`lsa; Agar ob`ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo`lsa, harakatning kulminatsiyasi bo`lmaydi; Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to`g`ri to`rtburchak) asosida qurilgan bo`lsa. Tinchlik hissi san`atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo`lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo`nalishlarning ko`pligiga qaramay, changi qo`shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko`ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan. Syujetli - kompozitsion markazni aniqlash. Rassom kompozitsiya yaratar ekan, kartinada eng asosiysi nima bo`lishini va bu asosiy syujetni ya`ni "mazmun markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko`rsatish to`g`risida o`ylashi lozim.

## **XULOSA**

Albatta syujetda hamma narsa bir xil muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy syujetga bo`ysunadi. Kompozitsiyaning markazi asosiy harakat bilan

unda qatnashuvchi asosiy shaxslarni o'ziga bog'laydi. Asardagi kompozitsion markaz o'ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug'lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajratiladi. Kompozitsiya markazi faqat rangtasvir asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'at, me'morchilikda ham ajratiladi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi xolstning markazida turishini xohlashgan. Bosh qahramonni holstning markazida tasvirlash orqali rassomlar uning syujet uchun muhim rol uyg'onishini ta'kidlamochi bo'lishgan.

### REFERENCES

1. Талипов, Н. Х. (2020). КАК СОЗДАЕТСЯ КОМПОЗИЦИЯ НАТЮРМОРТА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВА: ИСТОРИЯ, ТЕОРИЯ, МЕТОДИКА* (pp. 124-127).
2. Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). Xvi–Xvii Asrlar GArbiy Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janrning Rivojlanishi. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 191-197.
3. Талипов, Н. Х. (2022). ТАСВИРИЙ САНЪАТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ПЕРСПЕКТИВАНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 2(1), 27-36.
4. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*.
5. Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra. (2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(01), 33–39. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-06>
6. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
7. Talipov Nigmatjon Nozimovich, Yuldasheva Nilufar Ibrahimovna, & Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2020). Development Of Student's Creative Abilities In The Fine Arts In The Higher Education System . *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 232–238. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>



8. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2020). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING. *Journal of critical reviews*, 7(6), 227-230.
9. Xalilov, R. (2021). IMPORTANT FACTORS FOR TEACHING STUDENTS TO WORK ON LANDSCAPE COMPOSITION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.10>
10. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
11. Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(2), 97-103.
12. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
13. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
14. Jabbarov, R.. (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
15. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo'nalishlari. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, 1(6), 137-148.
16. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>
17. Ozodovich, A. A. (2021). The Use Of Tasks That Create A Tendency To The Problems Of Making Typical Mistakes In The Possession Of Graphic Literacy. *The*

*American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 99–103.  
<https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-16>

18. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>, No. 1).

19. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>

20. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).

21. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

22. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 142–156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>

23. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 3(01), 101-107.

24. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.

25. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF

TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*:  
Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.

26. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288.

doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

27. Talipov, N. (2019). Artistic Analysis of Portraits and Other Genres. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 317-320. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1432>

28. Нигматжон Нозимович Талипов (2021). АМАЛИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИГА КОМПОЗИЦИЯ ТУЗИШ ҚОНУН-ҚОИДАЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 309-316.

29. Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. *Молодой ученый*, (20), 417-421.

30. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>

31. Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>

## МУСИҚА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАЙЁРЛАШДА ПЕДАГОГИК БИЛИМ ВА МАЛАКАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

**Ходжакулов Б.Х.**

Гулистон давлат университетининг  
Муסיкий таълим кафедраси мудири

### АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада муסיқа ўқитувчилари касбий малакаларини оширишга доир фикр ва мулоҳазалар юритилган.*

**Калим сўзлар:** муסיқа санъати, бадиий воситалар, ижодкорлик, маънавий, қўшиқ, куй, услуб, восита.

### АННОТАЦИЯ

*Данная статья посвящена проблеме развития профессиональных знаний и умений учителей музыки.*

**Ключевые слова:** музыкальное искусство, творческие средства, творчество, просвещение, песня, мелодия, метод, средство.

### ANNOTATION

*This article is devoted to the problem of development of professional knowledge and skills of teachers music.*

**Keywords:** music art, creative means, art, enlightenment, song, melody, method, facilities.

### КИРИШ

Bozor tadqiqotlari, birinchi navbatda, mahsulot sotish kanallarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar o‘rtasida ma‘lum masofa mavjud bo‘lib, bu qarama-qarshi tomonning vositalari va ehtiyojlarining har bir tomonini bilmaslik, bir tomon tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni va boshqa tomonning ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikda ifodalanadi.[6-22] Sotish tufayli ishlab chiqarish va iste‘mol (yoki foydalanish) o‘rtasidagi asosiy «oraliq bosqich» foydalanuvchi o‘z ixtiyoriga kerakli mahsulot va xizmatlarni ma‘lum bir joyda, ma‘lum bir vaqtda oladi.

Vositachilar orqali sotish ijobiy va salbiy tomonlarga ega. Bir tomondan, vositachilardan foydalanish foyda keltiradi, chunki ko‘plab ishlab chiqaruvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketingni amalga oshirish uchun etarli resurslarga ega emaslar. Agar ishlab chiqaruvchi o‘z savdo kanallarini yaratishga qodir bo‘lsa ham, ko‘p hollarda u pulni asosiy biznesiga yo‘naltirsa, ko‘proq pul topishi mumkin.

Agar ishlab chiqarish 20% foyda marjasini ta‘minlasa va chakana savdo atigi 10% ni bersa, kompaniya tabiiy ravishda chakana savdo bilan shug‘ullanishni xohlamaydi. [9-20] Ularning aloqalari, tajribasi, ixtisoslashuvi va faoliyat doirasi tufayli vositachilar kompaniyaga yolg‘iz o‘zi qila oladigan narsadan ko‘proq narsani

taklif qilishadi.[10] Shuningdek, ushbu savdo tizimining ishlab chiqaruvchi uchun afzalligi yirik ulgurji savdo kompaniyalarini zudlik bilan katta miqdordagi tovarlar bilan ta'minlash qobiliyatidir.

Shunday qilib, o'z savdo kanallarini yaratish va moliyalashtirishga hojat yo'q. Boshqa tomondan, vositachilar orqali ishlaydigan ishlab chiqaruvchi ma'lum darajada tovarlarni qanday va kimga sotishi ustidan nazoratni yo'qotadi va marketing mutaxassislari ta'kidlaganidek, har doim ham savdo firmalaridan bozor holati va mahsulotni reklama qilish to'g'risida zarur va yetarlicha samarali ma'lumotlarni olmaydi.[13] Bundan tashqari, uzoq savdo yo'l, tovarlarni sotish katta qiymati.[14]

Mahsulotlarni sotish-bu mahsulot ishlatilajak shaklda ishlab chiqaruvchi yoki yakuniy ishlab chiqaruvchining savdo korxonasiga kirgan paytdan boshlab, iste'molchi uni sotib olgan paytgacha amalga oshiriladigan harakatlar majmui.

Tovarlarni sotish tizimi marketingning asosiy bo'g'ini va iste'molchiga tovarlarni yaratish, ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha kompaniyaning barcha faoliyatidagi yakuniy kompleksdir. [8]

Aslida, aynan shu yerda iste'molchi kompaniyaning barcha sa'y-harakatlarini o'zi uchun foydali va zarur deb tan oladi yoki tan olmaydi va shunga mos ravishda uning mahsulotlari va xizmatlarini sotib oladi yoki sotib olmaydi. Ishlab chiqaruvchi maqsadli iste'molchining ehtiyojlarini eng yaxshi qondiradigan yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqishi, samarali reklama tizimini ishlab chiqishi mumkin, ammo agar mahsulot tegishli do'konlarda yetarli miqdorda mavjud bo'lmasa, iste'molchi raqobatchining mahsulotini sotib oladi va kompaniya, o'z navbatida, reklama tizimini rivojlantirmaydi. foyda olib va samarali ishlashni davom ettira olmaydi.

Faqat kompaniya iste'molchiga, bozorga kerakli narsani arzon narxda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, o'z vaqtida va kerakli joyda berishga qodir bo'lsa, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi uchun zarur shartlar bajariadi.

Sotish jarayonida faoliyat doirasini kengaytirish va maksimal foyda olishga qaratilgan kompaniya ishining yakuniy natijasi aniqlanadi. Tovarlarni sotib olishdan oldin va keyin savdo tarmog'i va xizmatini mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish orqali ishlab chiqaruvchi kompaniya raqobatdagi imkoniyatlarini oshiradi.

Savdo bozori ishlab chiqaruvchi-iste'molchi munosabatlari uchun makon vazifasini bajaradi, bu yerda ishlab chiqaruvchi foyda olish uchun mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi, iste'molchi o'z navbatida kerakli mahsulotni sotib oladi. Shunday qilib, iste'molchi talabni, ishlab chiqaruvchi esa taklifni hosil qiladi.[17] Bozor sig'imi va sotish hajmini prognoz qilish kompaniya uchun alohida

ahamiyatga ega, bu faoliyatning boshqa yo‘nalishlarini aniqlash uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Sotishni rejalashtirishdan oldin tashkilot joylashuvi va atrofidagi muxidning ta‘siri tahlil qilinadi. Tashqi muhitning ta‘siri sotishga ta‘sir etuvchi zarur omil bo‘lib hisoblanadi.[21-27] Har qanday korxonada o‘z faoliyatini aniq iqtisodiy vaziyat doirasida amalga oshiradi, to‘rtta avtonom sohaga tegishli vazifalarni tuzish zarurligini sezadi: global iqtisodiyot (savdo shartlari, savdo yo‘qotishlari, pul stavkalari va boshqalar.); davlat iqtisodiyoti (siklik ko‘tarilish va tushish, hukumat siyosatchisi va boshqalar.); iste‘mol bozori. Marketing niyatlari va sotish siyosatini tuzishda ushbu to‘rt sohadan korxonada ishiga bosim ta‘siri hisobga olinishi kerak. Nazoratsiz tashqi omillar sotuvga alohida ta‘sir ko‘rsatadi: xaridor yoki foydalanuvchining mehr-muhabbati va moyilligi; raqobat; savdo an‘analari; hukumat nazorati va boshqalar. [2].

Boshqaruv jarayonlarini qurishda, shu jumladan moliyaviy natijalarni boshqarishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar quyidagilar:

- Konstitutsiyasi;
- Fuqarolik kodeksi;
- Soliq kodeksi;
- Mehnat kodeksi;
- «Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonun
- «Aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risida»gi qonun;
- «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonun;
- 2-sonli BHMS «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar»;
- 24-sonli BHMS «Qarzlarni bo‘yicha xarajatlar hisobi» boshqalar.

Shunday qilib, yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida tijorat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, naqd pulsiz to‘lovlarning shakllarini, barcha turdagi xo‘jalik shartnomalarini tuzish tartibini va boshqalarni tartibga soladi. [23-24].

Savdo bozorini kengaytirish uchun quyidagi strategiyalar mavjud.

#### 1. Geografik kengayish.

Bu mintaqaviy miqyosdan milliy miqyosga o‘tishga, boshqa mamlakatga yoki boshqa mintaqaga kirishga asoslangan. Muvaffaqiyatga erishish uchun ushbu strategiyani qo‘llaydigan kompaniyalar logistika, tarqatish infratuzilmasi, shuningdek, allaqachon ishlaydigan mexanizmni hisobga olgan holda yangi tashkilot yaratishga katta sarmoyalarni jalb qilishadi yoki yangi joyga moslashish bilan allaqachon



ishlaydigan tashkilotdan foydalanadilar. Geografik kengayishning ikkinchi usuli mahalliydan mintaqagacha va keyinchalik milliy bozorga to'g'ri keladi.[25] Bu allaqachon tovarlar yoki xizmatlar yanada keng targ'ib qilish imkoniga ega bo'lgan kompaniya bilan bitimlar yoki birlashish shaklida hamkorlikdir.

## 2. Yangi bozor segmentlarini kiritish.

Kengayish yangi bozor segmentlari tomonidan ta'minlanadi. Tanlashda navigatsiya qilishingiz mumkin bo'lgan bir nechta yo'nalishlar mavjud:

- iste'mol stavkasiga ko'ra, ushbu toifaga biron sababga ko'ra taklif qilingan mahsulotni ishlatmaydigan odamlar kiradi, ya'ni, masalan, video elektronika ishlab chiqaruvchisi, hali televizor sotib olmaganlarga e'tibor qaratadi;

- tarqatish kanali orqali kompaniya yangi tarqatish kanalini ochish orqali yangi bozor segmentiga kiradi, ya'ni do'kon o'z mahsulotlarini etkazib berish yoki o'z mahsulotlarini kompaniya tomonidan tegishli mahsulotlar bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning boshqa punktlarida joylashtirish bo'yicha boshqa tashkilot bilan hamkorlik shartnomasini tuzishi mumkin;

- yoshga qarab, ya'ni tovar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish ma'lum bir yosh toifasiga yo'naltirilganda, kompaniya boshqa yosh guruhlari iste'molchilarini yo'qotadi.

Ushbu guruhlarni qo'lga kiritish uchun kompaniya o'z ehtiyojlaridan foydalanadigan yangi mahsulotni ishlab chiqishi kerak:

- talablarga ko'ra, ya'ni ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarilgan tovarlarga yuqori talablar qo'yadi, uning xususiyatlarini yaxshi tomonga o'zgartiradi;

- maqsadga ko'ra, ya'ni o'z sohasidagi xizmatlarning vakili, iste'molchilarning ehtiyojlariga e'tibor qaratib, o'z xizmatlarida ushbu ehtiyojlarni qondiradigan yangi funktsiyani o'z ichiga oladi, bu strategiya yangi bozorlarni qidirishda foydalidir, chunki ba'zida bozorga qarab foydali segmentni aniqlash kerak bo'ladi.

## 3. Vertikal integratsiya.

Vertikal integratsiya o'sishning yana bir yo'nalishi bo'lib, bunday forward integratsiya ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish siklining oxirgi bosqichlari – tovarlarni yaratish va bozorga chiqarish birlashtirilgan hollarda qo'llaniladi.

Orqaga integratsiya-ishlab chiqaruvchi xom ashyo va materiallar manbalariga sarmoya kiritadi, ya'ni oldinga integratsiyaga qarshi harakatlarni amalga oshiradi (aksincha). vertikal integratsiya zarurligini baholash uchun ushbu strategiyaning mumkin bo'lgan foydalari va xarajatlarini baholash tavsiya etiladi.

Ishlab chiqaruvchining muvaffaqiyatining asosiy omili xom ashyoning asosiy manbalariga kirish bo'lgan holatlar mavjud. [26-28] Axir, fors-major holatlari yuz

berganda, kompaniya xom ashyosiz qolishi va foyda yo'qotishi mumkin. Bunday hollarda xom ashyo va materiallarni o'zlari ishlab chiqaruvchilari g'olib chiqadi.

Tovar va xizmatlarni yanada to'liq nazorat qilish uchun vertikal integratsiyadan foydalanish mumkin. Agar kompaniya o'z maqomini o'zgartirmoqchi bo'lsa va shunga mos ravishda mahsulot sifati darajasini ko'tarmoqchi bo'lsa, lekin hozirgi holat unga ruxsat bermaydi, chunki masalan, u byudjet mahsulotini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va ushbu mahsulotning sifati vertikal integratsiyani qo'llagan holda narxga mos keladi, buning natijasida kompaniya yuqori maqomga ega bo'lib, mos keladigan darajada yuqori mahsulot yoki xizmat sifati.

#### 4. Franchayzing.

Agar kompaniya etarli kapitalga ega bo'lmasa yoki boshqa biron sababga ko'ra kompaniya yangi qo'shimcha faoliyatni ocholmasa, ammo mavjud punktlar sotishdan yuqori daromadga ega bo'lsa, unda siz ushbu strategiyadan foydalanishingiz mumkin. Biznesga qiziqqan odamlar biznes g'oyasi va nomini olishlari mumkin.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Savdo siyosatining asosiy maqsadlaridan biri savdo bozorlarini kengaytirishdir. Bozorlarni kengaytirish uchun bir necha asosiy strategiya mavjud. Nazorat nuqtasi strategiyasi, «qolibni olib tashlash» strategiyasi va boshqalar.

Strategiyani amalga oshirish uchun firma ma'lum bir mahsulot, uning xususiyatlari va foydasi bo'yicha iste'molchilarning qiymat tushunchalarini aniqlash yoki shakllantirish kerak.

Bozorni nazorat qilishning asosiy vositasi uning hajmi va kompaniyaning ulushi. Bozor imkoniyatlarini yoki bozor talabini o'rganish, ma'lum bir tovar belgisi yoki ma'lum bir vaqt uchun tovar belgilari majmui uchun ajratilgan bozorda sotish hajmini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, marketing bozorlarini kengaytirish uchun bir qator tadbirlar talab qilinadi: potentsial bozorni o'rganish, raqobat va kompaniya va tovarlarning raqobatbardoshligini tahlil qilish, bozorga chiqish strategiyasini tanlash va natijalarni monitoring qilish.

Agar biz savdo bozorini kengaytirish uchun barcha mumkin bo'lgan strategiyalarni ko'rib chiqsak, ulardan biz bir nechta sotuvchilar foydalanadigan strategiyani alohida ajiratishimiz mumkin, qaysikiy kompaniya yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lib, iste'molchilar ulushi oshadi va pul mablag'lar oqimi paydo bo'ladi, ularning mahsuloti yoki xizmati iloji boricha jozibali ko'rinadi:

1) tovar va xizmatlardan foydalanishning yangi usullari.

Agar kompaniya tovarlaridan foydalanishning yangi usuli topilsa ham, savdo bozorini kengaytirish mumkin. Har bir yangi usul o'zining maqsadli auditoriyasiga ega bo'ladi, asosiysi ushbu auditoriyaning miqdoriy to'liqligiga e'tibor qaratishdir. Bundan tashqari iste'molchilarning o'zlari ham tovardan foydalanishning yangi usullarini o'ylab topishadi.

2) ishlab chikarishni intensivlashtirish.

Ushbu strategiya iste'molchiga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqaruvchi iste'molchini o'z mahsuloti yoki xizmatini iste'mol qilish orqali iste'molchi juda katta foyda keltiradi, ularning samaradorligini oshiradi.

Har qanday kompaniya o'z mahsulotlari bozorini kengaytirishdan manfaatdor. Axir, bir vakolatli kengaytirish foydani maksimallashtirish uchun, o'z navbatida, bozorda yetakchi mavqega kompaniyasi olib keladi. Kompaniyaning savdo bozorining kengayishi nafaqat yangi bozorlarni topish, balki mavjud bozorning yangi segmentlarini egallashdir. Yangi bozorlarda bu, yuqorida aytib o'tilganidek, yangi darajalarga erishishdir.

Ikkinchi holda, bu ma'lum iste'molchilar guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi modernizatsiya qilingan tovarlarni chiqarishdir.

## REFERENCES

1. Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). IQTISODIYOTNING MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILASHTIRISH MASALALARI. Scientific progress, 3(3), 837-846.
2. Nabiyevich, I. I. (2022). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 199-205.
3. Исманов, И. Н., & Савинова, Г. А. (2021). Сопоставление Некоторых Аспектов Национальных Стандартов Бухгалтерского Учета и МСФО. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 14-19.
4. Якубов, В. Ф. (2020). Финансирование инвестиционных программ в модернизации производства. In Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хуқуқий ва инновацион жихатлари (pp. 547-551).
5. Ganievich, Y. V. (2021). Investments And The Task Of Their Statistical Study. The American Journal of Applied sciences, 3(07), 9-11.

6. Qudbiyev, N. T., Qudbiyeva, G. A. Q., & Abduraximov, B. U. O. (2022). LOGISTIKADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI. Scientific progress, 3(1), 133-142.
7. Якубов, В. Г. (2021). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(7), 37-40.
8. Якубов, В. (2021). ИНВЕСТИЦИЙ И ЗАДАЧА ИХ СТАТИСТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ. Збірник наукових праць SCIENTIA.
9. Ahmadjonovich, S. D., & Ganievich, Y. V. IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 15, 46.
10. Shokiraliyevich, G. I., Erkinjon o'g, M. U. B., & Tohirovich, Q. N. (2022). MOLIYAVIY HISOBTLARNI MHXS BO'YICHA TRANSFORMATSIYASINING ZARURATI, MOHIYATI VA DOLZARBLIGI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 339-344.
11. Якубов, В. Г. (2019). Развитие экотуризма в Узбекистане. Проблемы современной науки и образования, (11-2 (144)), 39-41.
12. Maxsitaliyevich, K. U. (2022). LIZING XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI. BARQARORLIK VA ETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAIN ILMIIY JURNALI, 2(4), 193-198.
13. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. Scientific progress, 3(3), 699-708.
14. Qudbiyev, N. T., Ulug'Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.
15. Rakhimovich, F. I., & Rakhimovich, F. H. ASPECTS OF DEVELOPMENT OF ECONOMIC ANALYSIS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY. life, 2(15), 17.
16. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). HARAJATLAR HISOBNING ZAMONAVIY USULLARI. Scientific progress, 3(1), 442-448.

17. Axmadjonovich, S. D. (2022, April). O‘ZBEKISTONDA BOSHQARUV SIFATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 1-3).
18. Davlyatshayev, A. A. (2022). LOGISTIKANING MINTAQA RIVOJIDAGI O‘RNI. Scientific progress, 3(2), 900-908.
19. Abduazizov, S. R., Qudbiyeva, G. A. Q., Abduraimov, I. A. O. G. L., & Ibrohimova, O. J. Q. (2022). O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TEMIR YO‘L TRANSPORTINI AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 1121-1131.
20. Atabayeva, Z. A. (2022, March). ACCOUNTING POLICY OF THE ORGANIZATION AND ITS CONNECTION WITH TAX PLANNING. In E Conference Zone (pp. 35-38).
21. Rasulova, S. X., Qudbiyeva, G. A. Q., Mexmonaliyev, U. E. O., & Raximjonov, U. R. O. (2022). BOZOR IQTISODIYOTI TIZIMIDA LOGISTIKANING MOHIYATI VA O‘RNI. Scientific progress, 3(1), 607-616.
22. Temirqulov, A. A. (2022). TRANSPORT LOGISTIKASINING IQTISODIY MOHIYATI. Scientific progress, 3(1), 1110-1120.
23. Maxsitaliyevich, K. U. (2022). LIZING XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 193-198.
24. Атабаева, З. А. (2022). ДИСТАНЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СФЕРЕ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАЪЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 261-266.
25. Atabaeva, Z. A., & Khojaev, A. S. (2020). ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ. Theoretical & Applied Science, (5), 714-720.
26. Atabaeva, Z. A., & Khojaev, A. S. (2020). Investment activity and analysis of investment projects. ISJ Theoretical & Applied Science, 5(85), 714-720.
27. Ilkhom, G. (2022). MANAGEMENT ACCOUNTING AT ROAD TRANSPORT ENTERPRISES AND ISSUES OF ITS IMPROVEMENT. Бюллетень науки и практики, 8(3), 311-316.
28. Savinova, G. A. (2020). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И УПРАВЛЕНИЕ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МАЛОГО БИЗНЕСА. Theoretical & Applied Science, (6), 227-230.

**В. ИРВИНГ ИЖОДИДА “АЛ-ҲАМРО” РОМАНИДАГИ АРАБЧА  
СЎЗЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТУРЛАРИ ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИК  
МУАММОЛАРИ**

**Расулова Сохиба Улуғбековна**

Самарқанд давлат чет тиллар институти, Инглиз тили ва адабиёти

кафедраси ўқитувчиси

e-mail: [rasulovasokhiba@gmail.com](mailto:rasulovasokhiba@gmail.com)

**АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақоламизнинг аҳамиятлиси шундаки, адабий таржиманинг енг долзарб муаммоларидан бири – чет тили бадий таржимасига бағишланган. Мақолада В. Ирвингнинг "Ал-ҳамро" романидаги Арабча лугатнинг асосий турлари ва уларнинг тиллараро узатилиши муаммоси кўриб чиқилди. Бевосита ва билвосита таржимадаги сўзлар бир биридан ажралиб туради. Тадқиқот жараёнида Араб тилидан кириб келган сўз бирикмаларининг таҳлили, сўнгра уни узатиш йўллариининг таснифи амалга оширилди. Мақолада Вашингтон Ирвинг асарининг асл нусхаси ва уларни А. Собри томонидан франсуз тилига ва рус тилига В. Муравёв томонидан қилинган таржималари манба сифатида танлаб олинди ва ўрганилди.*

**Калит сўзлар:** бадий матн, ислом дини, чет тиллардан кириб келган сўзлар, арабча сўзлар, таржима

**АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена одной из наиболее актуальных проблем художественного перевода – передаче иноязычных вкраплений. В работе исследуются основные типы арабской лексики в романе В. Ирвинга «Альгамбра» и проблема их межъязыковой передачи. Выделяются оригинальные, трансформируемые и неоригинальные заимствования. В ходе работы был проведён анализ выявленной лексики, пришедшей из арабского языка, с последующей классификацией способов её передачи. Материалом исследования служат оригинал и переводы произведения на французский А. Собри и русский В. Муравьёв языки.*

**Ключевые слова:** иноязычные вкрапления, ислам, художественный текст, арабизмы, вкрапления, экзотизмы.

**ANNOTATION**

*The article is devoted to one of the most urgent problems of literary translation the translation of foreign language inclusions. The paper examines the main types of*

*Arabic vocabulary in W. Irving's novel "Alhambra" and the problem of their interlanguage transmission. Furthermore, transformable and non-original borrowings are distinguished. In the research of the work is analyzed the identified vocabulary that came from the Arabic language was carried out, followed by a classification of the ways of its transmission. The research material includes the original work and translations of the work into French by A. Sobri and Russian languages by writer V. Muravyov.*

**Keywords:** *foreign language inclusions, Islam, artistic text, arabisms, inclusions, exoticism.*

## **КИРИШ**

Ҳар қандай тилнинг ривожланиши жараёнида ўзга тилларга мансуб сўзлар ўзлаштирилади. Ўзлашма сўзлар тилнинг тарихий функционал фаолиятининг ажралмас қисмидир ҳамда сўз бойлигини оширишнинг асосий манбаларидан биридир. Ўзлашма сўз деб ўзга тил элементининг, яъни сўзнинг бошқа бир тилга сингиши назарда тутилади ва бу тушунча XIX асрдаёқ пайдо бўлган. Тадқиқотчилар ўзлашма сўзларни турлича синфлаштирадilar. Масалан, Я.К. Грот «Спорные вопросы русского правописания» асарида ўзлашма сўзларни тилда пайдо бўлиш вақтига қараб икки турга бўлади: ўзлаштирилган, ёки руслашган сўзлар, ва ўзга тилга мансуб сўзлар [5, 784-749].

Л.П. Крысин ўзга тиллардан ўзлаштирилган барча сўзларни хорижий сўзлар, яъни ўзга тилга мансуб сўзлар деб атайдди [8, с. 177].

А.И. Смирницкий ўз асарларида «ўзлашма сўзлар ўзи мансуб бўлган тил тизимидан чиқиб бошқа тил тизимига қўшилади ва шу тил нормаларига мувофиқ фаолият юритади» дея таъкидлайди [11, 234-235].

Айрим тилшунослар ўзлашма сўзларнинг бошқа бир турларига эътибор қаратадилар. Бундай сўзларга бошқа тилга мансуб сўзларни ўзлаштирувчи матнда қўлланган, аммо хорижий тил элементларини сақлаб қолган сўзлар киради [2, 158]. С.И. Влахов ва С.П. Флорин ўзлашма сўзларга қуйидагича таъриф берадилар: «Бизнинг атамашунослигимизда муаллиф томонидан матнга ўқимишлилик ёки олимлик, баъзида киноялилик ёки кулгили ҳолат руҳиятини бериш учун ишлатиладиган сўзлар ва жумлалар ўзга тилдан ўзлаштирилган сўзлар ҳисобланади» [3, 263].

Варваризм атамаси ҳам шунга ўхшаш маъно касб этади. «Аслият тилдаги хусусиятларини тўлиқ сақлаб қолган сўзлар варваризмлар деб тушунилиши зарур» [12, 137]. А.И. Гальперин томонидан таклиф қилинган таъриф ҳам

бирмунча эътиборга лойиқ варваризмлар – «бу тилда зарурият бўлмасида ишлатилувчи сўзлардир, чунки бундай сўзлар ўзлаштирувчи матнда айнан мос келувчи муқобилларига (синонимлар) эга бўлади» [4, 72]. У варваризмлар ҳамда бадий асарларда қўлланган ўзлашма сўзларни фарқлаш зарурлигини таъкидлайди. Биз мазкур мақоламизда В.Ирвингнинг «Ал-хамро» романида учровчи арабчадан ўзлашма сўзларни асосий турларини тадқиқ этамиз. Кўп асрлар мобайнида араб тили француз тили билан узвий боғлиқликда қўлланиб келди. Араб тили қадимдан шарқ маданиятини дунё халқлари орасида тарғиб этиб келди. айниқса ўрта асрларда арабларнинг дунё халқларига таъсири сезиларли даражада эди. Араблар илм-фан, маданият, савдо-сотик ишлари билан Ўрта ва Яқин шарқ халқлари каби Ғарб халқларининг тилини ҳам янги атамалар билан бойитиб келган. Араб карвонлари турли туман моллар билан Франциянинг жанубий шаҳарларида савдо сотик ишларини олиб борганлар. Ярмаркаларга нафақат испанлар, балки грек ва сарацинлар ҳам келганлар. Ўша пайтларда араб карвонларини Франциянинг исталган территориясида учратиш мумкин эди ва айнан шу даврда арабча сўзлар Европа халқлари тилларига кириб келган. Арабча сўзларнинг ўзлаштирилиши айниқса савдо сотик ишлари олиб борилган ерларда, масалан Пиреней тоғлари орқали Францияга, Германияга, Озарбайжонга ўтган Ипак йўли орқали кенг тарқалган.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

XIX асрда Франциянинг мустамлакачилик сиёсати жуда кучайди. 1830 йилда Французлар томонидан Алжир бутунлай босиб олингандан сўнг араб дунёси билан алоқалар ҳамда арабча сўзларнинг ўзлаштирилиши янги босқичга кўтарилди.

Араб лексикасининг ўзлаштирилиш тарихига назар ташлар эканмиз, шуни дадил айтишимиз мумкинки, нафақат француз тили кўплаб арабий сўзларни ўзлаштириб олди, балки араб маданиятининг таъсирида рус маданияти, илм-фан, санъат, ва адабиёти ҳам шарқона мавзуларни ўзлаштириб олди, чунки Россия ҳамisha Шарқ билан ўзаро мутаҳкам алоқалар ўрнатган эди. Араб лексикасининг ўзлаштирилиши тўғрисида гап кетганда шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бундай сўзлар араб тилига тўғридан-тўғри кириб келгани йўқ, балки воситачи тиллар орқали кириб келади. Шундай тиллардан бири бу француз тили эди.

А.Е. Крымский томонидан тузилган Муҳаммад пайғамбар тўғрисидаги славян-рус библиографиясига мувофиқ илк арабча сўзлар IX–X асрларда



ўзлаштирилган. VII ва IX асрларда араб тили Ўрта Осиёдан Шимолий Африкагача бўлган ерларда кенг тарқалди. Араб тилининг ислом динини қабул қилган Россия халқлари маданиятига таъсири натижасида диний арабча сўзлар ҳам сингиб кетишига имкон яратди (масалан: «мачит», «Қуръон»). 1868 йилларда Бухоро, Самарқанд каби шаҳарлар Россия давлати таркибига киритилган эди ва шу тариқа арабча сўзлар ўзбек тили орқали рус тилига кириб келдилар, ўз навбатида улар ўзбек тилига форс тилидан кириб келдилар.

Демак, рус тилида ҳам, француз тилида ҳам арабча сўзлар қатлами маълум бир маънода мавжуд. Модомики, араб лексикаси шарқона мавзуда қалам тебратган инглиззабон шоир ҳамда ёзувчилар асарларида учрар экан бундай сўзларни юқорида айтиб ўтилган тилларга кириб келиш тарихини тадқиқ этиш таржима назарияси ва амалиёти олдида турган долзарб масалалардан биридир.

“Ал-ҳамро” новеллалар ҳамда муаллифнинг саёҳат хотираларидан ташкил топган асардир. Асар илк бора 1832 йилда чоп этилган. Россия китобхонлари бу роман француз тилида Парижда икки жилдада нашр қилингандан кейингина танишишга муваффақ бўлганлар. XIX асрда В.Ирвинг асарлари рус ўқувчилари орасида кенг тарқалган эди. Бу асарларнинг бир неча таржималари «Московский телеграф», «Вестнике Европы» ва бошқа журналларда чоп этилар эди. Революциядан кейинги даврда “Ал-ҳамро” романидан айрим парчаларнинг А. Бобович ва М. Гершензонлар томонидан қилинган таржималари нашр этилган. Рус тилида таҳлил этилган тўлиқ таржимаси В. Муравьёв томонидан 1979 йилда, французчада таҳлил этилган тўлиқ таржимаси эса А. Собри томонидан 1832 йилда амалга оширилган. Биз В.Ирвингнинг мазкур асарида аниқлаган арабча сўзларнинг биринчи турини кўриб чиқамиз. Бундай сўзларни табақалаштиришда биз Д.С. Лотте томонидан таклиф этилган синфлаштириш услубини қўллаймиз. Д.С. Лотте таклиф этган изчил синфлаштиришга мувофиқ ўзлаштирама сўзлар сўзма-сўз ва шаклан ўзгартирилган сўзларга бўлинади. Сўзма-сўз ўзлашмалар аслият тилида қандай шаклда бўлган бўлса ўзлаштирувчи тилга шу ҳолатда кўчиб ўтувчи сўзлардир [10, с. 10]. Романда қуйидаги сўзма-сўз ўзлашмалар аниқланган: «alchemy» сўзи (арабчада الخمي [1]) 3 мартаба, «Allah» сўзи (арабчада الله [1]) 27 мартаба, «месса» сўзи (арабчада مكة [1]) 1 мартаба, «sultan» сўзи (арабчада سلطان [1]) 5 мартаба, «sultana» сўзи (арабчада سلطانة [1]) 8 мартаба, «talisman» сўзи (арабчада طسليم [1]) 23 мартаба, «zenith» сўзи (арабчада زينيت [1]) 1 мартаба қўлланган.

Мазкур сўзларнинг асарда берилишига мисолларни кўриб ўтамиз.

(1) *I have, moreover heard marvellous things related of it by pilgrims who had been to Mecca...* [14, 130]

А. Собри томонидан француз тилига қилинган таржимаси: *De plus, j'ai entendu conter de merveilleuses choses de ce même jardin par les pèlerins de la Mecque...* [13, 240].

В. Муравьёв томонидан рус тилига қилинган таржимаси: *Помню также, рассказывали о них чудеса паломники, воротясь из Мекки...* [6, 58].

Биринчи мисолда (1) биз араб тилидан ўзлаштирилган сўзни ҳеч бир ўзгаришсиз ҳолда кўрамиз.

(1) *The sight of this talisman called up all the favorite superstitions about the Moors* [14, 261].

А. Собрининг француз тилига қилган таржимаси: *La vue de ce talisman rappela toutes ces traditions merveilleuses les Maures dont le peuple espagnol fait ses délices* [13, 297].

В. Муравьёвнинг рус тилига қилган таржимаси: *Талисман навёл на излюбленные рассказы о маврах* [6, 356].

Иккинчи мисолдан (2) маълумки, арабча «طَلِسْمٌ» » [1] (talisman) сўзидан олинган «*talisman*» сўзи иккала тилда ҳам транслитерация (бир ҳарфдаги сўзларни бошқа бир ҳарфлар билан бериш) ёрдамида берилган. Мазкур сўз олдинги мисолдаги каби араб тилида қандай маънога эга бўлган бўлса ушбу тилда ҳам ўша маънода ишлатилган.

Таржималарнинг бирида ўзлашма сўз тушуриб қолдирилган гапни кўриб чиқамиз: *The Zacatin of Granada was ransacked for the most precious merchandise of the East; silks, jewels, precious gems, exquisite perfumes...* [14, 129].

А. Собри таржимаси: *On dépouilla le zacatin de Grenade de ses plus précieuses marchandises; les étoffes de soie, les diamans, les parfums exquis...* [13, 236].

В. Муравьёв таржимаси: *На гранадском базаре закупаались самые изысканные товары Востока: шелка, драгоценности, камня, благовония, все азиатские и африканские богатства и диковины слагались к ногам принцессы* [6, 58].

В. Муравьёвнинг таржимасида «*Zacatin*» сўзи метонимик таржима – «*базар*» тарзида қўлланган. *Закатин* сўзи бозорга олиб борувчи марказий кўчани англатишини эслатиб ўтмоғимиз жоиз.

Навбатдаги тур – трансформация (бир шаклдан бошқа шаклга ўтказиш) қилинган ўзлашма сўзлардир. «Трансформацияланган ўзлашмалар бу –

ўзлаштирувчи тилда шу сўзга ўхшаш шаклда (қўшимчаларни тушириб қолдириш, қўшиш ёки ўзгартириш орқали ясалди) қўллаш» [10, 10]. Романда қуйидаги трансформация қилинган ўзлашма сўзлар аниқланди: «*admiral*» сўзи (арабчада اميرال [1]) 1 мартаба, «*algebra*» сўзи (арабчада الجبر علم [1]) 4 мартаба, «*apricot*» сўзи (арабчада البرقوق [1]) 1 мартаба, «*arsenal*» сўзи (арабчада ترسانة [1]) 2 мартаба, «*azur*» сўзи (арабчада أزرق [1]) 3 мартаба, «*chess*» сўзи (арабчада شاهمات [1]) 2 мартаба, «*decipher*» сўзи (арабчада الشفرة لحل [1]) 2 мартаба, «*caliph*» (арабчада خليفة [1]) 4 мартаба, «*chemistry*» сўзи (арабчада كيمياء [1]) 1 мартаба, «*crimson*» сўзи (арабчада قرمزي [1]) 3 мартаба, «*damask*» сўзи (арабчада دمشقي [1]) 2 мартаба, «*guitar*» сўзи (арабчада نار 36 мартаба, «*harem*» сўзи (арабчада

9 мартаба, «*jar*» сўзи (арабчада جرة [1]) 20 мартаба, «*lute*» сўзи (арабчада العود [1]) 20 мартаба, «*minaret*» сўзи (арабчада منارة [1]) 1 мартаба, «*mosque*» сўзи (арабчада مسجد [1]) 19 мартаба, «*mummy*» сўзи (арабчада مومياء [1]) 6 мартаба, «*orange*» сўзи (арабчада البرتقالي [1]) 12 мартаба, «*sugar*» сўзи (арабчада السكر [1]) 3 мартаба, «*vizier*» сўзи (арабчада الوزير [1]) 5 мартаба қўлланган.

Мазкур ўзлашмаларни қўлланганлигига мисолларни кўриб чиқамиз.

– ... *Yet in their rugged bosoms lie ingulfed verdant and fertile valleys, where the desert and the garden strive for mastery, and the very rock is, as it were, compelled to yield the fig, the orange, and the citron, and to blossom with the myrtle and the rose* [14, 8].

Муравьёв томонидан қилинган рус тилига таржимаси: *Необозримые съерры, цепи гор, на которых нет ни деревца, ни кустика, испещрённые цветными мраморами и гранитами, возносят опалённые вершины к иссиня - чёрным небесам, однако в их каменном лоне укрыты зелёные и плодоносные долины, где сад одолевает пустыню и где самые скалы словно поневоле рождают инжир, апельсины и лимоны и облекаются миртом и розою* [6, 3].

*Orange* сўзи инглиз тилига француз тилидан кириб келган, ва ўз навбатида француз тилига арабча « البرتقالي » [1] (naranja) тилидан кириб келган. Рус тилига бу ўзлашма нидерландча *sinaasappe* сўзидан, немисча *apfelsine* сўзидан олинган.

“*Did ever nobler being tread the earth than that cavalier in crimson?*” cried *Zayda, the eldest of the sisters* [14, 183].

А. Собри томонидан француз тилига қилинган таржимаси: “*Avez-vous jamais contemplé une plus noble créature que le chevalier à l'écharpe rouge?*” disait *l'aînée des soeurs, la belle Zaïde* [13, 270].

В. Муравьёв томонидан рус тилига қилинган таржимаси: – *Кто на свете благороднее того рыцаря в багряном?* – молвила Заида, старшая из сес-тёр [6, 90].

«Crimson» сўзи инглиз тилига арабча «قرمزي» [1] (qermiz) сўзидан кириб келган бўлиб тўқ қизил, кип-қизил маъноларини англатади. Француз тилида араб тилидан кириб келган ўхшаш ўзлашма *cramoisi мавжуд бўлиб*, аммо бунинг ўрнига Собри шунчаки *қизил* – «rouge» сўзини ишлатган. Русча таржимада аслиятдаги маънога мос келувчи сўз қўлланган, аммо «багряный» сўзининг ўзи қадимславян *багръ* сўзидан олинган, яъни “қон каби қизил” маъносини англатади.

Д.С.Лотте тадқиқотида кўра навбатдаги тур оригинал бўлмаган ўзлашма сўзлардир, яъни бошқа тил элементларидан ташкил топган бўлиб муайян бир тилда алоҳида мустақил сўз ёки морфема сифатида мавжуд бўлмаган сўзлардир.

Романни таҳлил этиш жараёнида куйидаги оригинал бўлмаган ўзлашма сўзлар аниқланди: «alcázar» сўзи (арабчада القصر [1]) 5 маротаба, «alcove» сўзи (арабчада القبة [1]) 3 маротаба, «camel» сўзи (арабчада جمل [1]) 4 маротаба қўлланган.

Мазкур сўзларни романда қўлланганлигига мисоллар келтирамиз.

*Nor is there a ruined alcazar in a city but has its golden tradition, handed down from generation to generation among the poor people of the neighborhood* [14, 116].

А. Собри таржимаси: *Vous ne rencontrez pas non plus un seul alcazar dans les villes, qui n'ait également sa tradition dorée, perpétuée parmi les pauvres gens du voisinage, de génération en gé-nération* [13, 204].

В. Муравьёв таржимаси: ... ни одна разру-шенная городская крепость – алькасар не об-делена золотым ореолом, и таковые предания из рода в род хранят окрестные бедняки [6, 52].

Француз ҳамда рус тилларига «альказар» сўзи испанча «alcázar» сўзидан олинган, ва ўз навбатида испан тилига арабча «القصر» [1] (al-qasr) сўзидан кириб келган.

*On each side of this hall are recesses or alcoves for ottomans and couches, on which the voluptuous lords of the Alhambra indulged in that dreamy repose so dear to the Orientalists* [14, 35].

Француз тилига А. Собри таржимаси: *De chaque côté de la sale sont des alcoves destinées*

*à contenir des ottomans ou des lits* [13, 57]. Рус тилига В. Муравьёв таржимаси: *По обе стороны зала – ниши и альковы с дивана-ми и*

*оттоманками, на которых изнеженные властители Альгамбры вкушали дремотную лень, столь любезную азиатам [6, 18].*

Аслида француз тилидаги «*alcove*» сўзи арабча «*القبة*» [1] (al-kubba) сўзидан олинган. Аммо, инглиз ва рус тилларига ушбу сўз айнан француз тилидан кириб келган.

*... Beholds a long train of mules slowly moving along the waste like a train of camels the desert; or, a single horseman, armed with blun-derbuss and stiletto, and prowling over the plain... [14, 3]*

Француз тилига А. Собри таржимаси: *... une file de mules traversant lentement le désert, comme les caravanes de chameaux traversent les sables de l'Arabie, un pâtre qui chemine seul armé du stylet et de la carabine... [13, 7].*

Рус тилига В. Муравьёв таржимаси: *... длинную вереницу мулов, медлительную, как верблюжий караван в пустыне; или одинокого всадника с ружьём и кинжалом, степного бродягу... [6, 74].*

Мазкур мисолда биз француз тилига «*chameau*» сўзи араб тилидан кириб келганлигини «*جمال*» (*jamal*), яъни траскрипция ёрдамида берилганлигини кузатсак, русча «*верблюды*» сўзи (қадим рус – вельбудъ сўзи) араб тилидан эмас, балки гот тилига мансуб («*ulbandus*» (*слон*)) сўзидан олинганлигини кузатамиз.

В. Ирвингнинг «Ал-хамро» романида учровчи арабча сўзларнинг тахлили (267 та сўз) шуни кўрсатадики, ўзлашма сўзлар орасида иккинчи турга мансуб, яъни трансформацияланган сўзлар кўпчиликни ташкил этади. Фоиз кўринишида қаралганда қуйидагича кўриниш ҳосил бўлади:

- сўзма-сўз ўзлашмалар – 24%;
- трансформацияланган (шакли ўзгартирилган) ўзлашмалар – 59%;
- оригинал бўлмаган ўзлашмалар – 17%.

Француз тилига қилинган таржима вариантда ўзлашма сўзларнинг тушуриб қолдирилиш ва лўндалаштириш ҳолатлари аниқланди; матннинг арабча сўзлар қўлланган маълум бир қисмлари бирлаштирилган, айрим ҳолларда ўзлашма сўзлар тушуриб қолдирилган.

*The evening being cold, the inhabitants were crowded round a brasero in a chimney corner; and the hostess was a dry old woman, who looked like a mummy [14, 294].*

Рус тилига В. Муравьёв таржимаси: *Вечер выдался холодный, постояльцы теснились в углу, поближе к brasero, где хозяйничала иссохшая старуха, похожая на мумию [6, 7].*

Француз тилига А. Собри таржимаси мавжуд эмас. Муаллиф қаҳрамонлари билан бўлиб ўтган воқеалар ҳақида ҳикоя қилиб беради.

### **ХУЛОСА**

Асарда у тилдан бу тилга кириб келган сўзларга эътибор қаратиб шуни айтиш мумкинки, яъни таҳлил этилган сўзлар француз ҳамда рус тилларига кўп ҳолларда араб тилидан трансформация қилинган сўзлар ёрдамида таржима қилинган.

Арабча ўзлашма сўзларни тадқиқи араб тилидан бошқа тилларга ўзлаштирилган сўзларнинг таржимасидаги муаммоларни ва ўзга тиллардан кириб келган сўзлар, бегона реалияларни очиб беришга имкон яратади.

### **REFERENCES**

1. Борисов В.М. Русско-арабский словарь. – М.: САМ ИНТЕРНЕТШНЛ, 1993. – 1120 с.
2. Виноградов В.А. Диглоссия // Языкознание. Большой энциклопедический словарь. – М.: Сов. Энциклопедия, 2000. – 418 с.
3. Влахов С.И., Флорин С.П. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – 343 с.
4. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М., 1958. – 459 с. [Электронный ресурс]. – URL: <http://library.durov.com/Galperin-031.zip> (дата обращения: 07.07.2012).
5. Грот Я.К. Спорные вопросы русского правописания от Петра Великого доныне. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1903. – 402 с.
6. Ирвинг В. Сказки Альгамбры / Пер. Муравьев В.С. – М.: Вече, 2009. – 432 с.
7. Крымский А.Е. История арабов и арабской литературы, светской и духовной. Ч. 2. – М.: ТВЛИ-ВЯ, 1912. – 431 с.
8. Крысин Л.П. Современный русский язык. Лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография: учеб. пособие для студ. филол. фактов высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 240 с.
9. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева, – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – 685 с.
10. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – М.: Наука, 1982. – 150 с.

- 
11. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во литературы на иностран-ных языках, 1956. – 260 с.
  12. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Эдиториал УРСС, 2007. – 304 с.
  13. Irving W. Les contes de l’Alhambra [Электрон манба]. – URL: [http://books.google.fr/books?id=390UAAAAQAAJ&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs\\_ge\\_summary\\_r&cad=0#v=onepage&q&f=false](http://books.google.fr/books?id=390UAAAAQAAJ&printsec=frontcover&hl=ru&source=gbs_ge_summary_r&cad=0#v=onepage&q&f=false) (11.11.2010).
  14. Irving W. Tales or The Alhambra [Электронный ресурс]. – URL: [http://books.google.ms/books?id=t05jR2QS3fcC&pg=PP9&hl=ru&source=gbs\\_selected\\_pages&cad=3#v=onepage&q&f=false](http://books.google.ms/books?id=t05jR2QS3fcC&pg=PP9&hl=ru&source=gbs_selected_pages&cad=3#v=onepage&q&f=false) (11.11.2010).

## **FRANSUZCHA ZOOKOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKMA LARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI**

**A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi**

SamDCHTI magistranti

azamovagulnoza549@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada fransuzcha zookomponentli frazeologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima xususiyatlari muhokama qilingan. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport, ilm va boshqalar hayvonlar bilan bog'liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilning lug'at tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zookomponentli frazeologik birliklar, somatik so'zlar, antroposentrik xususiyat, frazeologizmlarning ekvivalentliligi, qiyosiy tadqiqot, semantik maydon, sintagmatik tuzilish.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются особенности перевода французских зоокомпонентных фразеологизмов на узбекский язык. Зоокомпонентные фразеологизмы сложились в результате длительных тысячелетних взаимоотношений человека и животных. Даже сегодня многие сферы человеческой деятельности, включая сельское хозяйство, промышленность, спорт, науку и другие, связаны с животными. Взаимоотношения человека и животных также повлияли на словарный запас языка и сыграли важную роль в формировании группы словосочетаний с зоонимическим компонентом в лексическом фонде языка.*

**Ключевые слова:** *зоокомпонентные фразеологизмы, соматические слова, антропоцентрический признак, эквивалентность фразеологии, сопоставительное исследование, семантическое поле, синтагматическая структура.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the features of translation of French zoocomponent phraseological units into Uzbek. Zoocomponent phraseological units have evolved as a result of long millennial relationships between humans and animals. Even today,*



many areas of human activity, including agriculture, industry, sports, science, and others, involve animals. The human-animal relationship has also influenced the vocabulary of the language and played an important role in the formation of a group of phrases with a zoonymic component in the lexical fund of the language.

**Keywords:** *Zoocomponent phraseological units, somatic words, anthropocentric feature, equivalence of phraseology, comparative research, semantic field, syntagmatic structure.*

## **KIRISH**

Frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turli guruh va bo'limlarga ajratib o'rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida turli komponentlar, xususan, somatik so'zlar, o'simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi o'rinda keladi. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Zoonim komponentli iboralar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

"Frazeologik birlik" tushunchasiga juda ko'p ta'riflar mavjud. A.V.ning so'zlariga ko'ra. Kunin, "frazeologik birliklar to'liq yoki qisman qayta o'ylangan ma'noga ega bo'lgan leksemalarning barqaror birikmasidir".

V.M. Mokienkoning aytishicha, frazeologik birlik yaxlit ma'noga ega bo'lgan leksemalarning nisbatan turg'un, takrorlanuvchi, ifodali birikmasidir.

## **NATIJALAR**

Fransuzcha zoofrazeologizmlar tarkibida it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq, kurka kabi uy hayvonlari; tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, to'ng'iz singari yovvoyi hayvonlar; sichqon, olmaxon singari kemiruvchilar; qushlar: chumchuq, qarg'a, bulbul, bedana, mayna, g'oz, o'rdak, tovus; suvda yashovchilar hamda hasharot nomlarini bildiruvchi zoonimlar ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar ma'nosi bilan tarkibidagi so'zlarining ma'nolari orasidagi munosabatga ko'ra frazeologik chatishmalar va frazeologik butunlikka ajratiladi. Frazeologik chatishmalarning umumiy ma'nosi ularni tashkil qilgan komponent so'zlar ma'nosiga umuman mos kelmaydi. Frazeologik butunlikning ma'nosi tarkibidagi so'zlarining ma'nosi asosida izohlanadi.

## **MUHOKAMA**

Fransuz tilidagi zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko'rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi.

Fransuzcha zookomponentli frazeologik birliklarni semantik xususiyatiga ko'ra shartli ravishda uch turga bo'lishi mumkin:

1. Inson xarakter xususiyatlari fe'l-atvorni tasvirlovchi frazeologik birliklar:

- *malin comme un singe = rusé comme un renard - tulkiday ayyor;*
- *fier comme un paôn = fier comme un coq - xo'rozday mag'rur;*
- *têtu comme un âne - eshakday qaysar;*
- *doux comme un agneau - qo'yday yuvvosh;*
- *la tête de linotte - kaltafahm, ovsar;*
- *une vraie peau de vache - qahri qattiq, bag'ritosh;*
- *une poule mouillée - bo'sh, o'ta ketgan sodda;*
- *ours mal léché - qo'pol, qo'rs;*
- *un pigeon - axmoq.*

2. Insonning harakat, xolatini tasvirlovchi zookomponentli frazeologik birliklar:

- *faire le pied de grue - uzoq kutmoq;*
- *poser un lapin - uchrashuvga kelmaslik, aladamoq;*
- *traiter comme un chien - yomon munosabatda bo'lmoq, itdek muomala qilmoq;*

- *rire comme une baleine - dumalab qah-qah o'tib kulmoq;*
- *tirer les vers du nez - o'smoqchilab bilib olmoq, gapirtirmoq;*
- *noyer le poisson - ishni chigallashtirmoq;*
- *pleurer comme un veau - bo'kirib, ho'ngrab yig'lamoq;*
- *prendre le taureau par les cornes - tog'ridan to'g'ri ishga kirishmoq, dadil ish boshlamoq;*

- *avoir une faim de loup - bo'riday och bo'lmoq;*
- *dormir comme un loir - don qotib uxlamoq;*
- *avoir d'autres chats à fouetter- boshqa muhim ishi bo'lmoq;*
- *appeler un chat un chat - tilida to'g'ri bo'lmoq, narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha atamoq;*

- *être comme un coq en pâte - shohona hayot kechirmoq.*

3. Vaziyat yoki holatni baholovchi zookomponentli frazeologik birliklar :

- *il y a anguille sous roche - bu yerda nimadir ko'ngildagidek emas;*
- *il n'y a pas de quoi casser trois pattes à un canard - bu yerda noodatiy narsa yo'q ( fr: o'rdakni uch oyog'ini sindirishga arziydigan narsa yo'q);*
- *revenons à nos moutons - mavzuga qaytamiz.*

Fransuzcha zookomponentli iboralar o'zbekcha birliklar bilan taqqoslaganda ularning tuzilish hamda o'xshatish obrazi jihatdan to'liq, qisman, hamda umuman

mos kelmaslik holatlari ya'ni milliy urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi nuqtayi nazardan shakllanib tilda muqim o'rnashib qolgan zookomponentli frazeologik birliklarni kuzatishimiz mumkin.

1. To'liq mos keluvchi zookomponentli frazeologik birliklar - bularni xalqaro zookomponentli frazeologik birliklar deb atash mumkin.

- *répéter qqch. comme un perroquet* - to'tiqushdek takrorlamoq;
- *doux comme un agneau* - qo'ydek yuvvosh;
- *fort comme un bœuf* - ho'kizday kuchli va boshqalar.

2. Qisman mos keluvchi zookomponentli frazeologik birliklar - bunday hollarda ma'no jihatdan to'liq mos kelib shakl jihatdan ya'ni o'xshatish obrazi mos kelmaydigan frazeologik birliklarni misol keltirish mumkin:

- *sauter du coq à l'âne* - biri bog'dan bir tog'dan kelmoq - приграт с пятого на десятое;

- *soufler comme un phoque* - ho'kizday pishqirib nafas olmoq- дышать как загнанная лошадь;

- *un mouton à cinq pattes* - anqovni urug'idek ( noyob narsalarga nisbatan) белая ворона.

3. Milliy frazeologik birliklar. *Etre gourmand comme un chat* - bu frazeologik birlikni o'zbek tiliga tarjima qilish qiyin, chunki o'zbek tilida "shirinlikni yoqtiruchi" sifatida nisbat beriladigan hayvon yo'q, faqatgina so'zma so'z " mushukdek shirintomoq bo'lmoq" deb tarjima qilish mumkin. Fransuz tilida milliy o'ziga xoslik tufayli ko'plab gastronomik kannotatsiyalar hayvonga ko'chiriladi. Frazeologik birliklarning konnotativ ma'nosini o'rganish frazeologik birliklarni hissiyot nuqtai nazaridan to'liqroq tekshirishga imkon berdi. Xarakterni tushunish frazeologik birliklarni tanlash uchun asos bo'lib, izlanishlar natijasida yagona "fe'l-atvor" frazeologik semantik maydoni sifatida ko'rib chiqildi. Shaxsning fe'l-atvorini anglatuvchi frazeologik birliklar o'zlarining semantik tarkibida xuddi shu nomni o'z ichiga oladi.

Frazeologik birlikning semantik tuzilishi makrokomponentlarning murakkab bloki shaklida taqdim etiladi: 1) denotativ komponent, 2) grammatik komponent, 3) baholovchi komponent, 4) motivatsion komponent, 5) stilistik komponent, 6) milliy va madaniy komponent. Semantikaning barcha tarkibiy qismlari birgalikda frazeologik birlikning semantik tuzilishini ifodalaydi, har bir frazeologik birliklarni semantik tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar bilan yaqindan tanishilsa, yanada ko'proq ma'lumotlar jamlanganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek semantik ma'no jihatdan fransuzcha zoonim komponentli iboralarga o'zbekcha boshqa zoonim komponenti mos kelgan frazeologik birliklar mavjud bo'lib, bu guruhdagi iboralarning shaklanishida har ikkala xalqning o'ziga xos hayvonot olami muhim o'rin egallagan. Ular quyidagilardan iborat: fransuzcha FB o'zbekcha FB larning ma'nolari fier comme un coq - xo'rozday kekkaygan, yoki shunga ekvivalent maqol - kerilma g'oz xunaring oz, rusé comme un renard - tulkiday ayyor, faire d'une mouche un éléphant- pashshadan fil yasamoq mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq iboralarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, hech qachon umuman soadir bo'lmaslik ma'nosini ifodalash uchun " quand les poules auront des dents" - "tuyani dumi yerga tekkanda" iborasini; sodiqlik, fidoiylik ma'nosini ifodalash uchun "les loups ne se mangent pas entre eux" - "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" maqoli bilan ifodalanadi. Bunda hayvonlar boshqa-boshqa, lekin ko'zlangan ma'no ham, maqsad ham bir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta. Har ikki tilda ham "takrorlamoq, qaytarmoq, bir gapni hadeb aytavermoq" ma'nosini ifodalash uchun to'ti obrazi "répéter qqch. comme un perroquet" - "nimanidir to'tiday takrorlamoq" keng foydalaniladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, har bir millatning tili asrlar davomida shaklangan o'ziga xos milliy an'analari hamda urf-odatlarini aks ettirib turuvchi boy lug'at tarkibiga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Biz bu tillarni qiyoslab o'rganar ekanmiz insonning xarakteri va holatini ifodalash har bir tilda mentalitetidan kelib chiqqan holda berilishini, ularning milliylik doirasidagi so'zlarini o'z o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini hamda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganib boramiz. Ko'rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi.

### **REFERENCES:**

1. А. Г. Назарян Фразеология современного французского языка, Москва " Высшая школа" 1987.
2. Бардоши В., Эттингер Ш., ШтельтингС., Бутина Е В. Фразеологизмы французского языка: Словарь-практикум. Екатеринбург: Уральское изд-во, 2002.

3. Исмоилов Ғ. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
4. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
6. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lugʻaviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yoʻldosh oʻgʻli varinti asosida):Filol. fan. nomz. dis. avtoref. –Т., 2008. -26 b.
рақибга оғриқ берувчи усуллар қўллашга рухсат этилмайди, курашувчиларнинг бири кўк, иккинчиси яшил рангли ятак (аёллар ятак ичидан оқ рангли футболка) кияди, белга эни 4-5 см ли тасма (белбоғ) боғланади, эркақлар 60, 66, 73, 81, 90, 100 кг ва 100 кг дан зиёд, аёллар 48, 52, 57, 63, 70, 78, ва 78 кг дан зиёд вазн тоифаларида курашадилар (болалар, ўсмирлар, ўспиринлар, ёши улуғлар ва қизлар мусобақаларида ҳам ёш хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда вазн тоифалари белгиланади). Халқаро кураш ассотсиатсияси (ИКА)нинг 2003 йил Тошкентда ўтган конгресси ҳар бир учрашувнинг қизгин бўлишини таъминлаш мақсадида расмий мусобақаларда беллашув вақтини 3 минут қилиб белгилади. Ишлатилган усулларга бажарилишига мос равишда «чала», «ёнбош», «ҳалол» баҳолари, қоидага зид ҳаракатларга эса «танбех», «дакки», «ғирром» жазолари берилади. Курашувчи «ҳалол» баҳосини олса (ёки рақиб «ғирром» билан жазоланса) бу унинг ғалабасини билдиради. Икки бор «ёнбош» баҳосини олиш (ёки рақибнинг икки бор «дакки» дея жазоланиши) ҳам ғалабани англатади. «Чала» баҳолари ҳисобга олиб борилиб, баҳо олган курашчига ғалаба берилади, курашчиларнинг баҳо ва жазолари сони тенг ҳолатда баҳо устунликка эга бўлади, жазолар сони тенг бўлса охирги жазо олган мағлуб ҳисобланади, агар барчаси тенг (ёки баҳо ва жазо олинмаган) бўлса, голиб ҳакамларнинг кўпчилик овозига кўра эълон қилинади. 1992 йилда Ўзбекистонда кураш федератсияси, 2001 йилда Ўзбекистонда белбоғли кураш федератсияси тузилди. 1998 йил сентябрда Тошкентда 28 давлат (АҚШ, Боливия, Буюк Британия, Голландия, Россия, Ўзбекистон, Япония ва ҳ.к.) вакиллари Халқаро кураш ассотсиатсияси (ИКА) муассислари бўлишди ва шу муносабат билан бу ерда ўзбекча Кураш бўйича йирик халқаро мусобақа ўтказилди [9]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Халқаро кураш ассоциациясини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги фармони (1999 йил 1 феврал) ўзбек миллий Курашининг янада ривожланишига тurtки бўлди. Ўша йили Тошкентда ўзбекча Кураш бўйича биринчи жаҳон чемпионати, Россиянинг Брянск шаҳрида аёллар ўртасида халқаро мусобақа бўлиб ўтди. ИКА қошида Халқаро Кураш академияси, Бутун жаҳон Курашни ривожлантириш жамғармаси тузилди, ассоциация муассислигида «Кураш» журнали таъсис қилинди. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик, ахборот-реклама йўналишидаги бу журнал Тошкентда 1999 йил октябр ойидан буён нашр этилади. 2000 йил Ўзбекистонда Кураш ойлиги ўтказилди. Бу ойлик давомида 2 миллионга яқин киши Кураш гиламига чиқди. Буюк Британияда ИКА фахрий президенти Ислом Каримов номидаги анъанавий халқаро мусобақага асос

солинди. 2001 йилдан Халқаро Кураш интитути (Тошкентда) фаолият кўрсата бошлади. ИКА га 66 та миллий федератсия аъзо бўлиб кирди (2003). Европа, Осиё, Панамерика ва Океания Кураш конфедерациялари тузилди. Ҳозирги пайтда ўзбекча Кураш билан хорижий мамлакатларда 600 мингдан зиёд киши шуғулланади. Курашнинг бу тури бўйича жаҳон, қита ва мамлакатлар чемпионатлари ҳамда биринчиликлари, Ўзбекистонда ат-Термизий, Паҳлавон Маҳмуд хотирасига бағишланган ва бошқа кўплаб халқаро мусобақалар мунтазам ўтказилади. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда 22 та олимпиада ўринбосарлари мактаби, 37 та болалар-ўсмирлар спорт мактаби ва 206 та Кураш мактабида спортнинг бу тури бўйича ўқувчиларга таҳсил берилади. Олий ўқув юртларида 100 дан ортиқ Кураш тўғараклари фаолият кўрсатади. Курашчилар билан 851 нафар мураббий шуғулланади (2003). Осиё олимпия кенгаши 2003 йилда Курашнинг бу турини Осиё ўйинлари дастурига киритди. Кураш бўйича ўтказилидиган жаҳон чемпионатларида Баҳром Аназов, Исоқ Аҳмедов, Махтумқули Маҳмудов, Камол Муродов, Тоштемир Муҳаммадиев, Ақобир Қурбонов (Ўзбекистон), Кубашхоним элқнур, Селим Тотар ўғли (Туркия), Александр Катсураги, Карлос Хонорато (Бразилия), Павел Мелананетс (Полша), Хироёши Кашимото (Япония) ва бошқалар ғолиб чикдилар ва совриндор бўлдилар [23].

#### **Курашнинг Осиё ўйинлари дастурига киритилгани расман эълон қилинди**

Кураш XVIII Осиё ўйинлари дастурига расман киритилди. Бу ҳақда Осиё Олимпия кенгаши Бош ассамблеясида эълон қилинди.

Курашнинг 2018 йили Индонезияда бўлиб ўтган XVIII Осиё ўйинлари дастурига киритилгани расман эълон қилинди, деб хабар қилди ЎЗА. Бу ҳақда Туркманистоннинг Ашхобод шаҳрида бўлиб ўтган Ёпиқ иншоотда жанг санъатлари бўйича ўтқазилган Осиё ўйинлари доирасида кураш расман Осиё Олимпия кенгаши Бош ассамблеясида эълон қилинди.

Мустақилликнинг илк йилларида Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислоҳ Каримов соврини учун Шаҳрисабзда Амир Темур, Термиз шаҳрида Ҳаким ат-Термизий хотирасига бағишлаб халқаро турнирлар ташкил этилди. 1992–1998 йилларда Жанубий Корея, Канада, Япония, Ҳиндистон, Америка, Россия каби мамлакатларда бўлиб ўтган йирик спорт анжуманларида ўзбек кураши кенг намоиш қилинди.

Жаҳон ҳамжамияти 1998 йил 6 сентябр куни ўзбек курашини халқаро спорт тури сифатида расман эътироф этди. Осиё, Европа ва Американинг 28

давлати вакиллари иштирокида ўтказилган таъсис конгрессида кураш халқаро ассоциациясига асос солинди [8,10].

«Осиё олимпия кенгаши томонидан ҳар тўрт йилда ташкил этиладиган ва қитъа олимпиадаси сифатида эътироф этилган ёзги Осиё ўйинлари нуфузи ва аҳамияти жиҳатидан Олимпия ўйинларидан кейинги муҳим мусобақадир. Унда қитъамизнинг деярли барча мамлакатларидан минглаб спортчилар иштирок этади. Шу боис мазкур ўйинлар дастуридан жаҳон миқёсида ўз ўрнига эга, барча қитъаларда ривожланиб бораётган спорт турлари жой олади, — деди кураш халқаро ассоциацияси матбуот котиби Жамшид Намозов. — Курашнинг XVIII ёзги Осиё ўйинлари дастурига расман киритилиши бу йўналишда залворли қадам қўйилганидан, унинг халқаро спорт ҳамжамияти томонидан кенг эътироф этилаётганидан далолатдир» [3].

XVIII ёзги Осиё ўйинларида кураш мусобақалари саккизта вазн тоифасида бўлиб ўтди. унга кўра Эркаклар 66, 73, 81, 90 килограммгача, 90 ва ундан ортиқ, хотин-қизлар эса 52, 63, 78 килограммгача вазн тоифасида ғолиблик учун беллашдилар.

Улар буров, қайирма, қайтарма, чала-қайтарма, ёнбош, илиш, тўсиш, айлантириш (тегирмон), улоқтириш, чап тиззага миндириб ташлаш (бетга ташлаш), босма, чайқатиш (силташ), кифтлаш, қўшала-ёнбош, тўғанок. чалиш атамалари ва бошқа бир қанча амаллар азалдан қўлланган. Ана шу номлар узок, йиллик изланишлар натижасида тикланган бел олиш кураши амалларининг бир қисмидир. Аммо улар қачон ва қайси даврдан шундай номлангани малум эмас.

Албатта, бу номлар туркий сўзлар бўлгани боис ҳозиргача бир қанча туркий миллатларда, айниқса, уларнинг энг кўпи Марказий Осиё давлатларида сақланиб қолган. Ўзбекларда кураш илми китоби бўлганини қуйидаги манбадан билса ҳам бўлади: “1937 йил “Тулистон” журналида “Кураш ҳадиси” — кураш илми ҳақида бир парча элон қилинган. Ўша даврда журнал лотин имлосида босилган бўлиб, унда шундай дейилади: “Кураш ҳадисини пухта билган фарғоналик Хожимат полвоннинг айтишича, бел олиш курашида қўлоқ билан бел кучигина иш беради, полвонлар кучни учга бўлиб қарайдилар:

– суяк кучи энг асосий куч ҳисобланиб, чандир ва пайларнинг пишиқлигига боғлиқ. 20-25 ёшли полвонларда бу куч яхши натижа беради. Суяк кучи семиришни кўтармайди, полвонлар семирса, курашдан қолади.

– мускул кучи бўлиб, суяк кучи ҳам шу мускул кучидан айри нарса эмас, лекин полвонлар буни яхши фарқлайди. Гўшт кучи 25-50 ёшли одамлар орасида ривожланиб, полвон узок йил кураш тушолмайди. Лекин кўп машқ

қилиб, курашиб ўзини пишитганлар умрининг охиригача полвонлик қилади. Аксар машхур полвонлар шу гуруҳдан чиқади, дейишади.

– белбоғ кучи 18-20 ёш орасида бўлиб, бу полвонлар тез сўниб қолади [11].

## **ХУДОСА**

Шуни такидлаш лозимки кураш бизнинг ота боболаримиздан бизга мерос бўлиб келмоқда ва юртимизда краш спортга этибор ва қизиқиш кундан кун ошиб бу ўз натижасини бериб ўзбек спортчилари халқаро майдонларда юртимиз байроғини юқорига кўтарилишига ўз хиссаларини қўшиб келмоқдалар юртимизда кураш заллари ва мактаблари салмоғи бир мунча ошгани бунинг яқол исботи сифатида кўринади.

## **REFERENCES**

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 15, 2017 No. PF-4956
1. AA Dilloevich, Prospects for the development of national wrestling in Uzbekistan
2. "On measures to further develop physical culture and sports" of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. May 27, 1999.
3. Matveev L.K. Mass physical culture in VUZe (uchebnoe posobie dlya vuzov). M.: Vo`sshaya shkola. 1991.
4. Imamov MP "Formation of professional culture of students in professional colleges" // Journal of school and life 2012-№2 B page 26
5. Koshbaxtieva I.A. Osnov fizicheskogo sovershenstvovaniya studentov. Textbook for teachers and students of universities. T.: 1991.
6. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibaev S.S. Theory and methodology of Taekwondo. Textbook. Tashkent - 2015.
7. Glebov E.I. Taekwondo. Osnovy olimpiyskogo sparringa /E.I. Glebov, Choy Sung Mo. - Rostov-on-Don: Phoenix, 2002.
8. Li Chjon Ki. Texniko-takticheskie characteristics of sorevnovatelno-go sparringa in taekwondo VTF: Dis .... kand. ped. science. –M., 2003.
9. Computer program "Determination of special physical training of highly qualified boxers (CPUDERG-4)" created by Khalmuhamedov RD, SS Tajibaev Programs for electronic machines of the Republic of Uzbekistan
10. Ayrapetyants L.R. Volleyball // Textbook for high school students. T.: Dice pen. 2006. - 240 p.

- 
11. Belyaev A.V., Savin M.V. Volleyball. // Uchebnik dlya studentov vuzov FK. M.: TVT, 2009. - 368s.
  12. Jeleznyak Yu.D. Volleyball: The source of mastery. Uchebno-metodicheskoe posobie d / prochix vidov obucheniya. ISBN 978-5-8183-0001-6, 1998.- 323s.
  13. Sukhanov A.V., Fomin E. V., Bulykina L.V. Prynuchest and prynuchkovaya podgotovka voleybolistov. Methodical manual. № 10. - M., 2012, - 24s.
  14. Marchenko VM. Methodology for improving the technique of weightlifters: the teaching method: theme "Basic means of training and methods of their application": VV. Marchenko, VN. Rogozyan, DV. Popov. Krasnodar, 2002; 117.
  15. Matkarimov RM. Weightlifting: Textbook for institutes of physical culture. Tashkent, 2005; 384.
  16. Oleshko VG. Features of time and angular characteristics of equipment of weightlifters of different qualifications: Weightlifting. Moscow, 1982;
  17. Chernyak AV. Criteria of technical readiness: Methodology for training a weightlifter. Moscow, 1978; 23-26.

## **TOKSIK GEPATIT TURLARI VA AHOLI ORASIDA UCHRASH HOLATI**

**Toshtemirov Javohir**

QarDU, Biologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunda gepatitning har xil turlarida murakkab o'zgarishlar bo'lib, bir qancha og'ir oqibatlariga olib keladi. Aholi o'rtasida gepatit yosh va jins tanlamaydi, kelib chiqishiga ko'ra toksik gepatit asosan zaharlanishlar orqali yuz beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Homiladorlik, qo'zg'aluvchanlik, gepatit, terapiya.*

### **ABSTRACT**

*Today, there are complex changes in different types of hepatitis, leading to a number of serious consequences. Hepatitis among the population does not choose age or sex, and toxic hepatitis is mainly caused by poisoning.*

**Keywords.** *Pregnancy, excitability, hepatitis, therapy.*

### **АННОТАЦИЯ**

*На сегодняшний день наблюдаются сложные изменения при разных видах гепатита, приводящие к ряду тяжелых последствий. Гепатиты среди населения не выбирают ни возраст, ни пол, а токсические гепатиты в основном вызываются отравлениями.*

**Ключевые слова:** *беременность, возбудимость, гепатит, терапия.*

### **KIRISH**

**Homiladorlik davrida toksik gepatit.** Homilador ayolda gepatitning rivojlanishi jigarda og'riq, isitma, qon ketishi bilan ko'rsatiladi, xulq-atvor keskin o'zgaradi, qo'zg'aluvchanlik kuchayadi. Bunda, nafaqat jigar balki, taloqning ham hajmi ortadi, terining qichishi paydo bo'ladi. Agar homilador ayollarda toksik gepatit kuzatilgan bo'lsa, bunday bemor qat'iy diyetaga rioya qilgan hoda ko'proq dam olishi kerak bo'ladi. Har qanday jigar kasalliklari, hatto ular remissiyada yoki yashirin formada bo'lsa ham, shifo berish va ayolni umuman bezovta qilmaslik kerak. Aks holda, yallig'lanishning oldini olish mumkin bo'lmaydi. Homilador ayollar uchun toksik gepatit uning asoratlari uchun ayniqsa xavflidir. Gepatopatiya rivojlanadi, buning natijasida qon ivishi sodir bo'ladi. Bu tug'ruq paytida xavfli, chunki u qon ketish xavfini oshiradi. Bunday asoratlarning rivojlanishi bilan ko'p hollarda koagulopatik terapiya o'tkaziladi, undan keyin homiladorlik to'xtatiladi, davolanish davom ettiriladi. Xuddi shunday xavfli asorat - bu giperkoagulatsiya bo'lib, unda qon ivishi kuchayadi. Ikkala patologiya ham homiladorlikni to'xtatishni

talab qiladi. Yetkazib berish gepatoprotektiv terapiya, yangi muzlatilgan plazma infuzioni, gemostazni rag'batlantirish bilan birga keladi. Har qanday etiologiyaning jigari shikastlangan barcha homilador ayollar shoshilinch kasalxonaga yotqizishni talab qiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

***Bolalarda toksik gepatit.*** Bolalarda toksik jigar shikastlanishi kam uchraydi. Agar o'sha kam uchraydigan, zararlantirish holatlarini tahlil qilsak, bunday bolalarda nevrologik va diorrespirator simptomlar kuzatiladi. Jigarda qon aylanishining buzilishi yanada rivojlanadi. Ko'pincha bolalarda tasodifiy zaharlanish, ya'ni rangpar grebe bilan zaharlanish kuzatiladi. Bola zudlik bilan intensiv terapiya bo'limiga yuboriladi, chunki o'tkir nekroz tez rivojlanadi. Bolalarda, kattalardan farqli o'laroq, lezyonlar allergiya, immunitet tizimining og'ir buzilishlari tufayli yuzaga kelishi mumkin, ularda yanada jiddiyroq yuz beradi. Bolalar, an'anaviy belgilarga qo'shimcha ravishda, anafilaktik shok, kuchli teri toshmasi, immunitet tizimining buzilishi, shu jumladan immunitet tanqisligi paydo bo'lishi mumkin. Terapiya bo'lmasa, to'liq bo'lmagan tiklanish surunkali holga keladi. Yakuniy bosqich astsit bo'lib, ko'pincha o'lim bilan yakunlanadi.

***O'tkir toksik gepatit.*** Bunda o'ziga xos xususiyat shundaki, gepatit juda tez sur'atda rivojlanadi, kasallikning cho'qqisi toksin ta'sirining 3-kuniga to'g'ri keladi, gipertrofiya natijasida kuchli og'riqlar kuzatiladi. Natijada harorat keskin ko'tariladi, 38 darajagacha va undan yuqori holatda kuzatilishi mumkin.

***Toksik dori gepatit.*** Ko'pincha toksikoz dorilar bilan zaharlanishning natijasidir, buning sababi - giyohvand moddalarni haddan tashqari dozalash yoki uzoq muddatli foydalanishda kuzatiladi. Uzoq muddatli foydalanish bilan surunkali shakl ko'pincha rivojlanadi, dozani oshirib yuborish bilan - o'tkir shakl. Jigar birinchi navbatda dorilarning ta'siriga javob beradi, chunki ularni qayta ishlash jigarda sodir bo'ladi. Shuningdek, jigar qoldiqlarni zararsizlantiradi va ularni tashqariga chiqaradi. Dori-darmonlarni qabul qilishning dozasi va davomiyligi juda xilma-xildir. Hozirgi vaqtda jigarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan bir necha ming dori mavjud. Ko'pincha bunday asoratlarning sababi o'z-o'zini davolashdir, chunki bu dorilarning aksariyati retseptsiz. Ba'zi dorilar, dozadan qat'i nazar, jigarda muqarrar yon ta'sirga ega. Ammo ko'pincha bunday dorilarni qabul qilishdan qochib bo'lmaydi. Masalan, kimyoterapiya, antiretrovirus terapiya, saratonga qarshi dorilar. Tananing sezgirligi kuchaygan, tez-tez allergik reaksiyalar bo'lgan odamlarda, qariyalarda har qanday dori-darmonlarni qabul qilishda toksik gepatit rivojlanish xavfi ortadi. Hatto, birinchi



qarashda, zararsiz antibiotiklar va antipiretiklar jigarga sezilarli zarar etkazishi mumkin. Jigar uchun ayniqsa xavfli gormonal dorilar, antidepressantlar, psixotrop moddalar va antipsikotiklar, diuretiklar, antibakterial va antiviral vositalar.

**Alkogolli toksik gepatit.** Spirtli ichimliklar, ayniqsa past sifatli spirtli ichimliklar, salbiy ta'sir ko'rsatadi, ular jigarda neytrallanadi. Odamlarga zararli ta'sir ko'rsatadigan toksinlar mavjud, nekrozga uchraydi, natijada sirrozga, o'limga olib keladi.

**Professional toksik gepatitus.** Bu zararli ishlab chiqarish omillarining organizmga ta'sirining natijasidir. Ko'pincha ishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt ishlaydigan xodimlarda, laboratoriyalarda kuzatiladi. Kasbiy gepatit xavfi, ayniqsa immuniteti pasaygan va birga keladigan virusli gepatit yoki boshqa jigar kasalliklari bo'lgan xodimlarda ortadi. U o'tkir va surunkali shaklda rivojlanishi mumkin. O'tkir shaklda, u sanoat qochqinlari natijasida, beparvolik tufayli, uskunaning noto'g'ri ishlashi yoki ishlamaydigan qalpoq bilan rivojlanadi. Bunday holda, organizm darhol preparatning katta dozasini oladi. Surunkali shaklda zaharlanish asta-sekin, asta-sekin rivojlanadi. Misol uchun, odam uzoq vaqt davomida zaharli moddalarning bug'larini nafas oladi. Asosiy sanoat zaharlari sariq fosfor, trichdir. Peretilen, uglerod. Biologik vositalar ham xavflidir, masalan, qo'ziqorinlar, viruslar, bakteriyalar, mikrobiologlar, virusologlar va bakteriologlar bilan ishlashlari kerak. Dorivor maqsadlarda yoki tadqiqot uchun ishlatiladigan farmatsevtik va kimyoviy preparatlar xavfli emas.

**Alimentar toksik gepatit.** Kasallikning bu shakli fekal-og'iz gepatiti deb ham ataladi. Kasallikning asosiy sababi infektsiyalangan odamdan sog'lom odamga tushadigan najas massalarining bo'laklari. Tarqalishi og'iz orqali, og'iz orqali sodir bo'ladi. Jinsiy aloqaning noan'anaviy usullarini xohlaydigan odamlar infektsiyaning ushbu shakliga duchor bo'lishadi. Ushbu mexanizm noto'g'ri toksik gepatitning yuqumli ekanligini ko'rsatadi. Ammo bu unday emas. Bu o'z-o'zidan uzatilmassligini tushunishingiz kerak

**Virusli toksik gepatit.** Rivojlanish sababi toksinlar va virusli metabolizm mahsulotlarini qonga chiqaradigan virusdir. Bu moddalar endotoksinlar deb ataladi. Ular jigarga kirib, undagi patologik o'zgarishlarni, shu jumladan jigarning nekrozini va yog'li degeneratsiyasini keltirib chiqaradi. Virusli gepatit virusologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ba'zida kasallik yashiringan, shuning uchun profilaktik tekshiruvdan o'tish, testlarni o'tkazish muhimdir. Bu patologiyani o'z vaqtida aniqlash va zarur choralarni ko'rish imkonini beradi. Davolash virusning qaysi shakli o'zgarishlarga sabab bo'lganiga bog'liq. Buni laboratoriya tekshiruvlarisiz amalga oshirish mumkin emas. Virusli Gepatit B, C, D jinsiy yo'l bilan va giyohvandlik

orqali yuqadi. Shuningdek, infeksiya jarrohlik aralashuvlar paytida, invaziv muolajalar paytida asepsiya qoidalariga rioya qilmaslik natijasida paydo bo'lishi mumkin. Eng og'ir - gepatit C. Tashqi tomondan, kasallik har doim ham o'zini namoyon qilmasligi mumkin. Biror kishi o'zini juda yaxshi his qilishi mumkin, shundan keyin keskin inqiroz yuzaga keladi. Jigar asta-sekin va asemptomatik tarzda shikastlanadi. Bu oxir-oqibat jigar sirrozi sifatida namoyon bo'ladi, shundan so'ng odam tezda vafot etadi. Bundan tashqari, u boshqa organlarga asoratlarni berishi mumkin. Gepatit B umumiy aholi orasida keng tarqalgan va ko'pincha qon quyish orqali yuqadi. Profilaktikaning asosiy chorasi donor qonini nazorat qilish va muntazam ravishda profilaktik tekshiruvlardan o'tishdir. Agar erta aniqlansa, uni davolash mumkin. Ammo kech aniqlansa, u ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Gepatit D ko'pincha gepatit B ustiga qo'shiladi. Ular birgalikda og'ir shaklda o'zini namoyon qiladigan va jiddiy asoratlarni keltirib chiqaradigan xavfli kasallikni hosil qiladi. Aksariyat hollarda u o'lim bilan tugaydi.

***Kimyoterapiyadan keyin toksik gepatit.*** Etakchi sabablardan biri bu kimyoterapiya va antiviral terapiyaning ta'siri bo'lib, o'tkir va surunkali shakllarda jigar shikastlanishiga yordam beradi. Buning sababi, saratonga qarshi dorilarning asosiy parchalanishi jigarda sodir bo'ladi. Natijada, barcha jigar funktsiyalari, shu jumladan detoksifikatsiya buziladi. Sitostatiklar o'simta hujayralarining o'sishi va bo'linishini to'xtatadi, biroq ayni paytda ular jigar hujayralariga ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi. Hujayralar yangilanish qobiliyatini yo'qotadi. Bu preparatning jigarda to'planishi va jigarga toksik ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Kemoterapiya natijasida toksik gepatit xolestatik buzilishlar va jigar ensefalopatiyasi bilan murakkablashadi. Bularning barchasi toshma, og'riq bilan birga keladi. Tana harorati sezilarli darajada ko'tariladi. Kimyoterapiyaning jigarga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun jigarni doimiy ravishda kuzatib borish kerak. Asosiy tahlil biokimyoviy qon testidir. Zamonaviy talablarga muvofiq, qon testini o'tkazish kerak. Kimyoterapiya boshlanishidan oldin, keyin esa davolanishning 14-kunida. Vaziyat 14 dan 21 kungacha diqqat bilan kuzatiladi. Bu vaqtda testlar ko'pincha har kuni o'tkaziladi. Ular toksik jigar shikastlanishining belgisi bo'lgan bilirubin va transaminaza darajasini kuzatadilar. Saraton terapiyasi tugagandan so'ng, jigar holati har oyda 6 oy, keyin har 6 oyda kuzatiladi. Gepatoproteksiyani amalga oshirish orqali kimyoterapiya paytida toksikozning oldini olish mumkin. U shikastlangan membranalarning tuzilishini tiklaydi, gepatotsitlardagi halokatli jarayonlarni inhibe qiladi va fibrozning oldini oladi.

**Ekzogen toksik gepatit.** Atrof-muhit toksinlari ta'siridan kelib chiqadi. Bu og'ir metallar, kislota bug'lari, spirtli ichimliklar, dori-darmonlarni o'z ichiga olgan har qanday tabiat va kelib chiqishi elementlari. Ham o'tkir, ham qo'zg'atishi mumkin. Ushbu mexanizm noto'g'ri toksik gepatitning yuqumli ekanligini ko'rsatadi. Ammo bu unday emas. Bu o'z-o'zidan uzatilmasligini tushunishingiz kerak. Kasallik, lekin uni keltirib chiqaradigan toksik agent. Aynan u tanadagi shunga o'xshash shikastlanishning rivojlanishiga olib keladi.

**Virusli toksik gepatit.** Rivojlanish sababi toksinlar va virusli metabolizm mahsulotlarini qonga chiqaradigan virusdir. Bu moddalar endotoksinlar deb ataladi. Ular jigarga kirib, undagi patologik o'zgarishlarni, shu jumladan jigarning nekrozini va yog'li degeneratsiyasini keltirib chiqaradi. Virusli gepatit virusologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ba'zida kasallik yashiringan, shuning uchun profilaktik tekshiruvdan o'tish, testlarni o'tkazish muhimdir. Bu patologiyani o'z vaqtida aniqlash va zarur choralarni ko'rish imkonini beradi. Davolash virusning qaysi shakli o'zgarishlarga sabab bo'lganiga bog'liq. Buni laboratoriya tekshiruvlarisiz amalga oshirish mumkin emas. Virusli Gepatit B, C, D jinsiy yo'l bilan va giyohvandlik orqali yuqadi. Shuningdek, infeksiya jarrohlik aralashuvlar paytida, invaziv muolajalar paytida asepsiya qoidalariga rioya qilmaslik natijasida paydo bo'lishi mumkin. Eng og'ir - gepatit C. Tashqi tomondan, kasallik har doim ham o'zini namoyon qilmasligi mumkin. Biror kishi o'zini juda yaxshi his qilishi mumkin, shundan keyin keskin inqiroz yuzaga keladi. Jigar asta-sekin va asemptomatik tarzda shikastlanadi. Bu oxir-oqibat jigar sirrozi sifatida namoyon bo'ladi, shundan so'ng odam tezda vafot etadi. Bundan tashqari, u boshqa organlarga asoratlarni berishi mumkin. Gepatit B umumiy aholi orasida keng tarqalgan va ko'pincha qon quyish orqali yuqadi. Profilaktikaning asosiy chorasi donor qonini nazorat qilish va muntazam ravishda profilaktik tekshiruvlardan o'tishdir. Agar erta aniqlansa, uni davolash mumkin. Ammo kech aniqlansa, u ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Gepatit D ko'pincha gepatit B ustiga qo'shiladi. Ular birgalikda og'ir shaklda o'zini namoyon qiladigan va jiddiy asoratlarni keltirib chiqaradigan xavfli kasallikni hosil qiladi. Aksariyat hollarda u o'lim bilan tugaydi.

## REFERENCES

1. Nurova, Z. A., Toshpo'latov, T. L. A., Doniyorova, G. E., Bahodirjonov, T. L., & Qilichev, J. F. (2022). ORGANIZMNING ANTIGENLIK, BIOLOGIK, ALLERGIK OMILLARI VA ULARNING TA'SIR DARAJALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 654-657.

**UDK-634.21.**

## **ANORNI ZARARKUNANDALARDAN HIMOYALASH**

**Tolibjonov Oxunjon Odiljon o'g'li**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Mustaqil izlanuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*O'zbekistonda anor qadimdan meva etish uchun yetishtiriladi. Pishgan meva tarkibida shakar 15-19%, kislota 1,2-2,5% bo'ladi. Anor sharbatida temir va ko'p miqdorda tanin mavjud. Anor tibbiyotda turli kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Anor daraxti qimmatbaho materialdir. Anor manzarali daraxt sifatida ham yetishtiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *meva yetishtirish, anor o'simligi, lichinka, shira, zarar, biologik samaradorlik, iqtisodiy zarar hajmi normasi, o'simliklarni himoya qilish, insektitsid.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Гранат выращивается для плода в Узбекистане с древних времён. В составе созревшего плода содержащая сахар 15-19%, и кислота 1,2-2,5 %. В соке граната есть железо и много вещества танин. Гранат используется для лечения разных болезней в медицине. Дерево граната является драгоценным материалом. Гранат также выращивается как декоративное дерево.*

**Ключевые слова:** *фруктоводство, растение граната, личинка, тля, вред, биологическая эффективность, норма объема экономического вреда, защита растений, инсектицид.*

### **ABSTARCT**

*Pomegranate has been grown for the fruit in Uzbekistan since ancient times. The composition of the ripened fruit contains sugar 15-19%, and acid 1.2-2.5%. Pomegranate juice contains iron and a lot of tannin. Pomegranate is used to treat various diseases in medicine. Pomegranate tree is a precious material. Pomegranate is also grown as an ornamental tree.*

**Keywords:** *fruit growing, pomegranate plant, larva, aphid, harm, biological efficiency, rate of economic harm, plant protection, insecticide.*

### **KIRISH**

Meva sabzavot poliz ekinlari mahsulotlari inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, oziq- ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi. SHu bilan birga ko'p hollarda ekin o'suv davrida va keyinchalik saqlash davrida har xil zararkunanda va kasalliklar bilan

kuchli zararlanib, hosilning ancha qismi nobud bo'ladi va sifati keskin pasayadi. Himoya choralari va boshqa tadbirlarni muntazam qo'llamaslik natijasida zararli organizmlar katta ziyon yetkazadi.

Shuni hisobga olgan holda shifobaxsh meva hisoblangan anordagi zararkunandalar bioekologiyasini o'rganish va ularga maqbul kurash usullarini qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordik.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Anor(*Punica L*) O'zbekistonda qadim zamonlardan beri yetishtirib kelinmoqda. Uning vatani Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston xisoblanadi. Anor avlodiga ikki tur kiradi. Ulardan biri (*P.granatum L*) bo'lib, O'rta Osiyo, Zakavkazeda o'stiriladi. Ikkinchi turi (*P. Protopunica Balf*) Sokotra orollarida yovvoyi holda o'sadi, uning mevasi iste'mol qilish uchun yaramaydi. Xozirda o'stirilayotgan anor va uning yovvoyi turlari seleksiya yo'li bilan olingan. Anor asosan mevasi uchun o'stiriladi. Pishib yetilgan mevasi tarkibida 15-19 % qand, 1,2-2,5 % kislota bor. Anor sokida shifobaxsh temir va ko'p miqdorda tanin moddalari mavjud. Anordan meditsinada turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Anorning yog'ochi qimmatbaxo material xisoblanadi. Anor manzarali o'simlik sifatida ham o'stiriladi.



Respublikamizda aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda bog'dorchilik sohasini ahamiyati katta. Ma'lumki,

Respublikamizda bog'dorchilikni rivojlantirish uchun unumdor tuproq, qulay ob-havo sharoiti hamda sug'orish sharoitlari mavjuddir. Hosildorlikni ko'tarish, mahsulot sifatini oshirish uchun muhim omillardan biri zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash ishini tartibga solishdir. Kurash tadbirlarini esa o'z vaqtida to'g'ri bashorat asosida o'tkazish, biologik va kam zaxarli moddalardan oqilona foydalanish asosida bajarish zarur bo'ladi.(1)

Tarkibida shifobaxsh moddalarga ega bo'lgan anor mevalariga bo'lgan xalq extiyojini qondirish uchun bu daraxtlarni va mevalarini turli zararli organizmlardan ximoya qilishga to'g'ri keladi. Anorga bir qator xasharotlar va o'rgimchakkana ziyon yetkazishi mumkin. Keyingi yillarda anor mevaxo'ri zarari bog'dorchilikni rivojlantirishda katta muammo to'g'dirmoqda.

SHuning uchun 2017-2019 yillarda Andijon viloyati Baliqchi va Izboskan tumanlarida Anorning "Qizil anor" navida ilmiy tadqiqotlar olib bordik. Xasharotlar biologiyasi va fenologiyasini o'rganish bo'yicha izlanishlar dala kuzatuvlarini laboratoriya kuzatuvlari bilan bog'liq xolda olib borildi. Kimyoviy ishlovlar qo'l va motorli purkagichlarda gektariga 1000-1400 litr ishchi suyuqlik sarflash xisobida olib borildi. Xasharotlar bilan ishlashda (Bondarenko, Glushenko 1985; Zaxvatkin,1986) dorilarni sinashda esa Xo'jaev 2004 nashr etgan uslubiy qo'llanmalardan foydalandik.(2)

Ilmiy tadqiqotlar olib borganimizda anor daraxtiga zararkunandalardan anor shirasi (*Aphis punicae*), qalqondor (*Aspidiotus hederae*), anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella* Mooze), kamstok qurti (*Pseudococcidae*) va kasalliklardan famopsiya va kulrang chirish zarar keltiradi.

Anor mevaxo'ri-*Euzophera punicaella* Mooze, (Lepidoptera, Tortricidae) oilasiga kiradi. Farg'ona viloyatining barcha xududlarida kuzatildi. Anor mevaxo'ri yetuk qurt hamda g'umbak shaklida asosan daraxt ostida to'kilgan mevalar ichida, po'stida, daraxtlarning pana joylarida qishlab chiqadi.

Anor mevaxo'ri tadqiqot olib borgan yillarimizda 6 ta avlod berib rivojlandi. Bu zararkunanda qurt shaklida qishlovga ketib qishlovdan chiqish oldi aprel va may oylarida g'umbakka aylandi. Tajribalarimizni laboratoriya va dala tajribalari bilan bog'lagan xolda olib borib fenologiyasi o'rganildi. Quva tumanida kuzatishlarimizda qishlovga ketgan qurtlar aprel oyining 3 dekadasidan g'umbakka aylana boshladi. Qishlovdan chiqqan kapalaklar may oyining 2 dekadasidan boshlab tuxum qo'ya boshladi. Anor gullab, meva tuga boshlagach mevaxo'r kapalagi meva gul kosasiga tuxum qo'ydi. Tuxumdan chiqqan yosh qurtlar shu joydan meva ichiga kirib, yashirin

oziqlanib rivojlandi. Gul kosaga chiqib g'umbakka ketdi. SHu tariqa qishlovgacha 5-6 ta avlod berib rivojlandi.

Anor mevaxo'ri anorning faqat mevasi va meva po'sti bilan oziqlanib zarar keltiradi. Mevaxo'r zararlagan mevalar meva chirib yoriladi va ikkilamchi mikroorganizmlar faoliyati tufayli mog'orlab yaroqsiz xolga keladi. Bu anorni hosildorligi va sifatiga sezilarli ta'sir qildi. Anor mevaxo'rining 1 chi va 2 chi avlodidan keyingi zarari yuqori bo'ldi. Vodiy sharoitida zararlagan daraxtlarda 95 % gacha xosil shikastlanayotgani bu zararkunanda meva tuginchalar ichida rivojlanib, hosilga katta zarar yetkazadi.

### **XULOSA**

Anor mevaxo'ri ko'p avlod berishi va meva ichiga kirib, yashirin xolda rivojlanishi insektitsidlarni yuqori samara berishini cheklab qo'ydi. Tadqiqotlarimizda anor mevaxo'ri fenokalendar tuzilib, 4 marta ishlov berildi. Avaunt, 15% sus.k, 0.35l/ga Surrender 5% s.e.kuk 0.15 l/ga, Emameks 5% s.e.g 0.3 l/ga, Detsis 2,5% em.k bilan ishlov berganimizda 80-85 % nazoratga nisbatan samara berdi. Bundan ushbu insektitsidlarni anor mevaxo'riga qarshi tegishli me'yorda qo'llash yaxshi samara beradi degan xulosaga kelish mumkin.

### **REFERENCES**

1. Kulkov O.P. Субтропические плодовые культуры. Uzbekistana. – Tashkent: Mexnat, 1986. – 115-116 s.
2. Mirzaeva S.A., Xudayberdiyeva M. Anor mevaxo'riga qarshi uyg'unlashgan kurash tizimi. – Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2009. – 228-232 b.
3. Xo'jaev SH.T. Insekttsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy kursatmalar (II nashr). – Toshkent: Davlat kimyo komissiyasi, 2004.– 103 b.
4. Xo'jaev SH.T. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari (IV nashr). – Toshkent: YAngi nashr, 2019. – 375 b.
5. YAxontov V.V. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash. – Toshkent: «O'rta va oliy maktab», 1962.–693 b.6.

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗРАБОТКИ ГЛУБОКИХ КАРЬЕРОВ**

**Мельникова Татьяна Евгеньевна**

Старший преподаватель кафедры «Горное дело» Алмалыкского филиала  
Ташкентского государственного технического  
университета имени Ислама Каримова.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье приведены горно-геологические и гидрогеологические особенности месторождений полезных ископаемых, влияющие на эффективность разработки месторождений открытым способом, а также приведены проблемы при разработке месторождений полезных ископаемых глубокими карьерами и рассмотрены пути их решения.*

**Ключевые слова:** горнотехнические условия месторождений полезных ископаемых, годовое понижение горных работ, формирование основных параметров карьера, основные проблемы, реконструкция.

### **ABSTRACT**

*The article presents the mining-geological and hydrogeological features of mineral deposits that affect the efficiency of open-pit mining, as well as problems in the development of mineral deposits in deep pits and ways to solve them.*

**Keywords:** mining conditions of mineral deposits, annual decrease in mining operations, formation of the main parameters of a quarry, main problems, reconstruction.

### **ВВЕДЕНИЕ**

В период всего срока эксплуатации глубокие карьеры от начала строительства до погашения горных работ находятся в непрерывном развитии. Вследствие этого ежегодно изменяются горнотехнические условия, увеличиваются глубина, размеры карьера в плане, площадь рабочей зоны, длина транспортных коммуникаций и другие параметры. Наибольшее влияние на изменение горнотехнических условий эксплуатации оказывает скорость понижения горных работ. При этом площадь рабочей зоны изменяется на 5-20%, а длина транспортных коммуникаций увеличивается в 10-20 раз.

Годовое понижение горных работ изменяется в большом диапазоне и зависит от многих факторов. Наибольшей величины понижение достигает в период строительства карьеров. На действующих карьерах годовое понижение, как правило, уменьшается по сравнению с начальным периодом эксплуатации карьера, в основном из-за развития работ на горизонтах и расширения рабочей зоны. В этот период эксплуатации величина годового понижения может изменяться в значительных пределах. С большей скоростью понижение может



происходить, когда один борт или большая часть бортов карьера разнесена до предельного контура и интенсивно ведутся добычные работы, или по другим причинам, когда резко увеличиваются объемы выемки полезного ископаемого. Также на изменение скоростей понижения горных работ и на другие параметры разработки значительно влияет вид транспорта, его гибкость, маневренность, приспособленность и быстрота введения в действие в различных горнотехнических условиях. В зависимости от этих факторов может быть получена определенная степень понижения горных работ.

### **ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ**

По большинству рудных карьеров применение автотранспорта в начальный период эксплуатации позволяет достигать годового понижения 20 - 25 м, железнодорожного транспорта 8 - 10 м, редко 12 - 15 м. При комбинированном транспорте, как правило, показатели понижения меньше, чем при автомобильном. Однако и при автомобильном транспорте, когда усиленно развивается карьерное пространство, может быть очень небольшое годовое понижение горных работ. Значительные изменения в годовом понижении горных работ обуславливаются тем, что каждому из применяемых в карьерах видов транспорта свойственны соответствующие уклоны трасс, определяющие параметры траншей, ширину транспортных берм для прокладки коммуникаций, размеры площадок перегрузочных пунктов для перегрузки полезных ископаемых и пород, и т.д. Следовательно, глубина карьеров и другие пространственные размеры зависят от применяемых видов транспорта, каждый из которых или их комбинации влияют на формирование основных параметров карьера и динамику его развития.

Горно-геологические условия залегания месторождений, разрабатываемых глубокими карьерами, чрезвычайно разнообразны. В большинстве случаев разрабатываются наклонные и крутопадающие залежи. Удельный вес крепких пород в глубоких карьерах составляет 60-75% общего объема горной массы. Рудные тела залегают среди осадочных, эффузивных, интрузивных пород различного состава и их измененных разновидностей. Породы имеют различную крепость. Предел их прочности на сжатие составляет от 25 до 150 МПа и более. Сложные условия залегания многих месторождений характеризуются крупными тектоническими нарушениями, блочностью и трещиноватостью. Различные по составу вмещающие породы иногда оказываются резко измененными и гидротермально-метасоматическими процессами, которые существенно влияют на прочность пород. Коренные породы практически на всех месторождениях покрыты рыхлыми образованиями в виде аллювиально-

делювиальных и аллювиальных отложений (реже элювий), представленных глинистыми разностями с обломками коренных пород. Четкой границы между корой выветривания и неизменными породами не наблюдается. Зона перехода от пород выветривания к коренным состоит обычно из полускальных пород с незначительным пределом прочности на сжатие. Общая мощность рыхлых пород, как и коры выветривания, различна. Она значительно зависит от геоморфологии разрабатываемого поля и составляет до 60-80 м, а на отдельных месторождениях даже до 150 м.

В гидрогеологическом отношении месторождения характеризуются различной степенью водообильности. Высокая водообильность характерна для многих месторождений, разрабатываемых глубокими карьерами. Подземные воды заключены в рыхлых породах, в верхней трещиноватой зоне скальных пород и руд, в пределах зон разрывных тектонических нарушений, но в основном в коренных трещиноватых породах. Наибольшие потоки вод иногда циркулируют на значительных глубинах по рассланцованным контактам слоев и структур. Они усложняют разработку на больших глубинах. Перечисленные горно-геологические и гидрогеологические особенности значительно влияют на эффективность открытых работ.

Основными проблемами, возникающими при увеличении глубины разработки на карьерах являются следующие:

- с ростом глубины карьеров увеличивается время нахождения в устойчивом состоянии откосов отдельных уступов и бортов карьера в целом;
- при сложных условиях залегания полезного ископаемого, ограниченном фронте работ и при доработке месторождения снижается производительность карьера;
- увеличение глубины залегания горных пород и их крепости вызывает необходимость применения наиболее эффективных и экономичных средств для бурения скважин и выемочно-погрузочных работ при одновременном повышении требований к надежности их основных узлов и деталей;
- с увеличением глубины карьеров частая перемежаемость пород и полезных ископаемых, возрастающие крепость, кусковатость, блочность, водообильность и другие особенности ведут к снижению производительности и ухудшению использования транспортных средств;
- с ростом глубины разработки все более возрастает длина наклонных участков и снижается длина горизонтальных участков;
- с увеличением производственной мощности карьеров, расстояния внешних отвалов от борта карьеров значительно увеличиваются длина транспортных коммуникаций, число транспортных горизонтов и тупиковых

съездов, а также затрудняется обмен транспортных средств, что приводит к снижению коэффициента использования основного горнотранспортного оборудования.

## **ВЫВОД**

Анализ состояния горных работ на глубоких карьерах позволяет сделать вывод о том, что для решения вышеуказанных проблем возможно предложить следующие пути их решения.

Так как на устойчивость откосов нерабочих уступов большое влияние оказывают выветривание пород и развитие осыпей, заоткоска уступов в их предельном состоянии является первым условием обеспечения длительной устойчивости откосов и безопасной работы на больших глубинах. Отсутствие своевременной заоткоски может привести к осыпанию уступов до такой степени, что борта превратятся в сплошные откосы, недопустимые для продолжения горных работ и движения транспорта.

Для улучшения устойчивости откосов и безопасности работы в глубоких карьерах необходимо увеличивать продольное расстояние между бермами безопасности до 50 - 100 м, а в некоторых случаях оставлять специальные бермы шириной до 8 - 10 м с уклонами, соответствующими уклонам транспортных берм для механизированной очистки осыпи. В сложных условиях при больших глубинах разработки необходимо применять специальные инженерные меры для управления состоянием бортов карьера (укрепление неустойчивых участков бортов, упрочнение слагающих борта горных пород, устройство камнеулавливающих и противообвальных сооружений и т. д.). Контурное взрывание скальных пород, устройство подпорных стенок и контрфорсов, обеспечивающих безопасное ведение горных работ для людей и оборудования, также становятся необходимыми при разработке особо глубоких горизонтов.

Нарушение устойчивости бортов карьера часто связано с воздействием подземных и поверхностных вод. При этом необходимо применение таких эффективных средств борьбы с притоком подземных вод, как водопонижение, улавливание и откачка подземных вод дренажными выработками или скважинами, мощный водоотлив, а также определенные инженерные меры по локализации ливневых и талых вод, снегонакоплений, обледенения откосов бортов карьеров и прочие.

При снижении производительности карьера необходимо обеспечить требуемую ритмичность добычных работ и высокую производительность горно-транспортного оборудования за счет хорошего рыхления горной массы, нормального размещения транспортных коммуникаций и их сохранения при

ведении взрывных работ и удобства подъезда транспортных средств к взорванному забою и так далее.

Для работы в глубоких карьерах должны использоваться высокоэффективные универсальные буровые агрегаты, с автоматическим регулированием рабочих параметров в оптимальных режимах, отличающиеся хорошей маневренностью в ограниченном рабочем пространстве и большой производительностью при бурении в крепких породах скважин глубиной до 60 м и более. Бурение глубоких скважин необходимо для разработки высоких уступов, за счет которых возможно расширение транспортных берм и ширины перегрузочных транспортных площадок в глубоком карьере. Ведение взрывных работ на глубоких горизонтах также имеет свои особенности: небольшие объемы массовых взрывов, уменьшение удельного расхода ВВ, взрывание в зажатой среде, применение методов взрывания, обеспечивающих минимальный развал породы при взрывах, получение заданной кусковатости взорванной горной массы, уменьшение разлета кусков, снижение сейсмического воздействия на борта карьера. Для погрузки взорванной горной массы на глубоких горизонтах наряду с экскаваторами, целесообразно использование мощных фронтальных погрузчиков. Особенно рационально погрузчики могут быть использованы для расчистки рабочих площадок после взрывов, подборки пониженной (хвостовой) части развала взорванной горной массы, погрузки негабарита и т. д.

Основным путем уменьшения отрицательного воздействия глубины карьера на технико-экономические показатели транспорта являются его реконструкция, применение рациональных схем вскрытия глубоких горизонтов, замена другим, наиболее эффективным видом транспорта, частичное или полное перевооружение более современными и производительными транспортными средствами. Например, замена автосамосвалов малой грузоподъемности автосамосвалами особо большой грузоподъемности, введение непрерывного транспорта вместо циклического. Резервом улучшения технико-экономических показателей транспорта является усовершенствование действующих видов транспорта, а именно перестройка транспортных коммуникаций, увеличение скоростей движения и обмена транспортных средств в карьере, механизация вспомогательных работ, организация и автоматизация управления транспортом.

## REFERENCES

1. Khasanov O.A., Gaibnazarov B.A., Shamayev M.K., Melnikova T.E., «Methodology for an Integrated Research of Application of the Simple Structures of

Explosives in the Development of Residential Deposits», International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 12 , December 2019, pp. 11995-12000.

2. Khasanov O.A., Gaibnazarov B.A., Melnikova T.E., “The Research of the Effect of Borning Charges Energy on the Relief and Quality of Ore Crushing”, International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 6, Issue 10 , October 2019, pp. 11409-11415.

3. Melnikova Tatyana Evgenievna, Tashkulov Akmal Alisher Ugli, Mavlyanova Gulshan Abdurakhimovna, “Prospects for ore flow quality management in deep pits”, International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, Vol.2(2) 2020, pp.31-35, DOI: 10.24412/2181-144X-2020-2-31-35.

4. Shamaev M.K., Melnikova T.E., Tashkulov A.A., Kurbanbaev D.M., «Production Of Drilling And Explosion Works At The “Yoshlik I” Mine Quarry With The Use Of Non-Electric Initiation System And Emulsion Explosives», International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 7, Issue 5 , May 2020, pp.13550-13554.

5. Khasanov O.A., Gaibnazarov B.A., Melnikova T.E., «Bases Of The Explosion Theory Of Industrial Explosives And Determination Of The Radius Of Mine Massage Cracking Zones In The Explosion Of Focused Extended Charges», International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, Vol. 7, Issue 4 , April 2020, pp. 13477-13481.

6. M.K. Shamaev, T.E. Melnikova, “Wall control and contour blasting to ensure the stability of the quarry boards when operating drilling and blasting works”, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021, Volume I ISSUE 4, ISSN 2181-1784, pp. 902-909.

7. T.E. Melnikova, “Increasing the boundaries of open pit depths by applying effective methods of opening and transportation systems of mined rock from deep horizons”, Scientific progress, VOLUME 2, ISSUE 2/2021, ISSN:2181-1601, pp.1623-1630.

8. Yuldashovich, Sokhibov Isomiddin, and Korabaev Husniddin Abdishukurovich. "Surveying Support for the Integrated Development of Resources of Mining Regions." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 12 (2021): 289-291.

9. Шамаев Мурат Курбанбаевич, Ташкулов Акмал Алишер угли. “Требования к решениям по выбору методов и средств освоения месторождений для горного производства” International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences DOI: 10.24412/2181-144X-2020-1-45-50

- 
10. Шамаев Мурат Курбанбаевич, Ташкулов Акмал Алишер угли “Эффективность отработки вскрыши высокими уступами на месторождениях полезных ископаемых при открытой разработке” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ст.94-102. 2021г.
11. Ilmuratov U.Kh., Tashkulov A.A., Anarbayev Kh.P., “Parallel design with mining operations of a new modern mining and metallurgical complex based on the Almalyk MMC” International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology pp.13484-13487

УЎК: 711.8

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ЧИҚИНДИ ОБЪЕКТЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ БУГУНГИ ҲОЛАТИ

**Худойбердиев Феруз Шамшодович**

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти таянч докторанти

**Бобожонов Саид Ўткирович**

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти 3-босқич талабаси

**Муҳаммадов Қамориддин Мухтор Ўғли**

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети Бухоро табиий ресурсларни бошқариш институти 3-босқич талабаси

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада Марказий Осиё мамлакатларида чиқиндиларни кўмиши ва утилизация жойларининг ҳолати, чиқиндиларнинг атроф-муҳитга етказётган салбий таъсири, чиқиндиларнинг тўпланганлик даражаси, улардан самарали фойдаланиш йўллари, чиқиндиларни бошқариш тизими ҳақида хулоса ва таклифлар келтирилган.*

***Калит сўзлар:** атроф-муҳит, маиший чиқинди, бошқариш, мониторинг, экология-санитария қоидалари, заҳарли чиқиндилар, радиоактив ифлосланиш, оқава сувларни тозалаш.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье приведены выводы и рекомендации о состоянии полигонов и полигонов захоронения отходов в странах Центральной Азии, негативном влиянии отходов на окружающую среду, уровне сбора отходов, способах их эффективного использования, системе обращения с отходами.*

***Ключевые слова:** окружающая среда, бытовые отходы, обращение, мониторинг, экологические и санитарные нормы, токсичные отходы, радиоактивное загрязнение, очистка сточных вод.*

### ABSTRACT

*This article provides conclusions and recommendations on the state of landfills and landfills in the countries of Central Asia, the negative impact of waste on the*

*environment, the level of waste collection, ways to use it effectively, and the waste management system.*

**Keywords:** *environment, household waste, handling, monitoring, environmental and sanitary standards, toxic waste, radioactive contamination, wastewater treatment.*

## **КИРИШ**

Бугунги кунга қадар Марказий Осиё мамлакатларида радионуклидлар, оғир металллар тузлари, шунингдек захарли моддалар бўлган жуда кўп миқдордаги саноат ва маиший чиқиндилар ва бошқалар тўпланган. Бу ерда чиқиндиларни шакллантириш, улардан фойдаланиш, сақлаш ва йўқ қилиш соҳасидаги мавжуд вазият атроф-муҳитнинг хавфли ифлосланишига олиб келади ва одамларнинг ҳозирги ва келажак авлодлари саломатлигига ҳақиқий хавф туғдиради.

Марказий Осиё мамлакатларида бошқарувнинг институционал тузилмаси ривожланмаган ва табиий муҳитдаги ўзгаришларни мониторинг қилиш масалаларида идоралараро фаолиятини мувофиқлаштириш сусти ва кўпинча бир-бирини такрорлайдиган функциялар мавжуд. Атроф-муҳит ва мониторинг қилинадиган объектларнинг устувор йўналишлари тўлиқ белгиланмаган. Чиқиндиларни қайта ишлаш инфратузилмасини ривожлантиришни рағбатлантириш учун кам чиқиндили технологиялар жорий этилмаяпти, санитария тозалашнинг комплекс ҳудудий схемалари ишламаяпти ва ҳоказо. Ҳозирги чиқиндиларни бошқариш тизими ноқулай ва самарасиз. Бу муаммони ўз вақтида ҳал этиш учун мамлакатларнинг иқтисодий ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда чиқиндиларни бошқариш схемасини давлат даражасида такомиллаштириш ва уйғунлаштириш ҳамда Марказий Осиё мамлакатлари учун ягона минтақавий схемани яратиш зарур.

Ҳар қандай ҳолда ҳам юридик шахсинг солиқ тўлаши ёки ундан озод қилиниши албатта унинг фаолияти ва ундан кўзланган мақсадга мос равишда белгиланади. Нотижорат ташкилотлар айнан солиқ борасида муайян имтиёзни олиши ёки олмаслиги учун алоҳида, махсус ташкилий-ҳуқуқий шаклда ташкил қилиниши лозимлиги назарда тутилмаган.

АҚШда қонунчилик федерал ва штатлар даражаси бўлгани сабабли институционал фондларни инвестициялаш соҳасида айнан штат даражасида ушбу масала кўрилиши лозим. Умумий равишда барча учун зарур доирада ишлаб чиқилган ва аксарият штатларда қабул қилинган асосий иккита ҳужжат мавжуд бўлиб улар – UPIA (Uniform Prudent Investor Act – Оқилона инвестициялаш тўғрисидаги унификацияланган қонун) ва UPMIFA (Uniform Prudent Management of Institutional Funds Act – Институционал фондларни оқилона бошқариш тўғрисидаги унификацияланган қонун) амал қилади. Бунда “Оқилона инвестициялаш тўғрисидаги унификацияланган қонун” ўзаро ишончга асосланган ва бизда мавжуд бўлган “ишончли бошқаришга” яқин тушунча доирасида траст фондлари фаолиятини инвестициялашни тартибга солади. “Институционал фондларни оқилона бошқариш тўғрисидаги унификацияланган қонун” эса, нотижорат корпорациялар фаолиятига бевосита боғлиқ ҳолда ишлаб чиқилган ва унда ҳам солиқ масаласига эътибор қаратилади.

Илмий таҳлиллардан шуни кўриш мумкинки, АҚШда нотижорат ташкилотларнинг маблағларни шакллантириш учун муайян қарорни қабул қилишда кенг доирадаги имкониятлар назарда тутилади ва бу фаолият самарадорлигига ўз таъсирини кўрсатади. Россия Федерацияси қонунчилигидан фарқли равишда ушбу жараёнда белгиловчи омил бўлиб хизмат қилмайди. Одатда, фондни ташкил этишда муайян муддат назарда тутилади ва бу масала уни молиялаштирувчи шахс билан келишувда назарда тутилиши мумкин. Бу борада фондни ташкил этиш билан боғлиқ энг кам миқдор ҳам белгиланмаганлиги сабабли мақсадли равишда маблағларни йиғиш имконини беради. Натижада улар фаолияти учун муҳим бўлган молиявий ресурсларни шаклланиши ва фаолияти учун йўналтирилиши имконияти яратилади.

Россия Федерацияси қонунчилиги АҚШ қонунчилигидан фарқ қилади. РФ қонунчилиги ташқаридан хайрия қилувчилар мақсадли капитални шакллантириш учун маблағ киритишига имкон беради бироқ, нотижорат

ташкilotлар ўз маблағлари ҳисобидан уни шакллантириш ҳуқуқига эга бўлмайди. Ушбу ҳолат эса, мустақил равишда маблағ топувчи кўплаб нотижорат ташкilotлар учун муайян даражада чекловчи омил бўлиб ҳисобланади. Айнан маблағларни шакллантириш ҳуқуқий нотижорат ташкilotда асосий фаолият моҳиятига таъсир кўрсатади.

АҚШнинг нотижорат ташкilotлар тўғрисидаги модель қонунида (Model Nonprofit Corporation Act) нотижорат ташкilotининг умумий ваколатларига шартномалар тузиш, кафолатлар бериш, мажбуриятларни зиммасига олиш, пул қарз олиш, вексель, облигация чиқариш, исталган мулки билан гаров мажбуриятида иштирок этиш ва ҳ.к. назарда тутилган. Бу ўринда нотижорат ташкilotлар облигация чиқариш орқали кредит ресурсларни жалб қилиш имкониятига эга бўлади. РФда облигациялар чиқариш фуқаролик ҳуқуқининг ҳамма субъектларига ҳам берилмаган<sup>225</sup>.

XX асрнинг 70-йилларнинг охири – 80-йилларнинг бошида Европа ва Америка мамлакатларида жамият инсон фаолиятининг атроф-муҳит ва шахсга бўлган салбий оқибатлари ҳақида қайғура бошлади. Бу борада алоҳида хавф кўпинча одамларга ва атроф-муҳитга бевосита ёки билвосита зарар етказадиган, лекин тартибга солиш қийин бўлган трансмиллий корпорациялар (ТМК) фаолияти билан боғлиқ бўлган: ТМКлар фаолияти алоҳида давлатлар қонунчилиги юрисдикциясига таъсир доирасига тушмаган. Шу билан бирга, корпорациялар томонидан етказилган зарар туфайли уларга нисбатан жамият томонидан ҳам, ҳукумат томонидан ҳам босим кучайди<sup>226</sup>.

Ушбу оқибатларни бартараф этиш воситаларидан бири трансмиллий корпорациялар томонидан ўз-ўзини тартибга солиш сиёсатини жорий этиш бўлган: ТМКлар ўзлари учун ўйин стандартлари ва қоидаларини белгилашга қарор қилишди. Ушбу қоидалар, жумладан, ахлоқ ва ошкоралик масалаларига тааллуқли бўлган. Корпорациялар “одоб-ахлоқ кодекслари”ни, яъни корпорациянинг ички ва ташқи фаолиятининг ахлоқий жиҳатларини тартибга солувчи, шунингдек, унинг шаффофлиги чегараларини белгиловчи меъерий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўпламини фаол равишда жорий қила бошлаган. Шундай қилиб, биринчи одоб-ахлоқ кодекси ТМКлар ташаббуси ва саъй-ҳаракатлари билан, гарчи жамият босими остида бўлса ҳам, пайдо бўлган, бу ҳолат эса компаниялардан янада шаффофроқ ва ижтимоий масъулиятли фаолиятни

<sup>225</sup> Гурская М.М., Владимирова М.А. Нормативно-правовое регулирование некоммерческих организаций: настоящее и будущее. // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, 2012, (111), 130-137.

<sup>226</sup> Cragg W. (ed) Ethics Codes, Corporations and the Challenge of Globalization. Massachusetts. 2005. P.8-12.

амалга оширишни талаб қилади. Нотижорат сектордаги ташкилотларда одоб-ахлоқ кодексининг пайдо бўлиш тарихи кўп жихатдан одоб-ахлоқ кодексларининг ТМКларда пайдо бўлиш тарихига ўхшайди. Корпорацияларда бўлгани каби бу глобаллашув ва жаҳон фуқаролик жамиятининг ўсиши билан боғлиқ. Вақт ўтиши билан нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг шаффофлиги ҳамда уларга оид муаммолар билан шуғулланувчи фуқаролар ва бу муаммоларни ҳал этишни молиялаштирувчи индивидуал донорлар олдидаги ҳисобдор бўлиши масаласи шакллантирилди. Ушбу жараён билан бир вақтда нотижорат секторнинг ривожланиши билан нотижорат ташкилотларнинг ўзи жамият олдидаги масъулиятни ҳамда донорлар ва улар хизматлари бўйича истеъмолчилар билан узоқ муддатли муносабатларни таъминлаш учун ўзларининг ҳалоллик ва одоблилик кафолатларини бериш зарурлигини англай бошладилар.

Аввало, одоб-ахлоқ кодекслари билан ўзини ўзи тартибга солиш жараёни халқаро ривожланиш соҳасидаги трансмиллий нотижорат ташкилотларга таъсир кўрсатди. Бу улар фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ эди. Турли хил маданий, ижтимоий ва диний руҳда ўткир, баъзан ўта нозик ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш бундай муаммоларни ҳал қиладиган шахсларнинг шахсий бенуқсонлигини назарда тутди. Шу сабабли, халқаро нотижорат ташкилотлари ўз фаолиятини бошқариш мақсадида ўзлари учун ахлоқий стандартларни ишлаб чиқишни бошладилар.

Масалан, 1986 йилда Австралия Халқаро тараққиёт кенгаши (АСФИД) томонидан ахлоқ кодекси ишлаб чиқилган. Шундан сўнг бошқа халқаро ташкилотлар ахлоқ кодексини қабул қила бошладилар. Мисол учун, 1994 йилда Халқаро Қизил Хоч ва Ярим Ой Ҳаракати томонидан табиий офатлар юз берганида ёрдам кўрсатувчи ННТлар учун ахлоқ кодекси ишлаб чиқилган. (International Red Cross and Red Crescent Movement and NGOs in Disaster Relief)<sup>227</sup>.

Кейинчалик, бу амалиёт Европа ва Американинг озчилик ҳуқуқлари, экология ва бошқа шу каби соҳалардаги маҳаллий муаммолар билан шуғулланадиган ННТлар томонидан қабул қилинди. Ҳозирда бир неча минг ННТлар ахлоқий меъёрларга риоя қилиш мажбуриятини олган ва уларнинг сони тез суръатлар билан ўсиб бормоқда<sup>228</sup>.

<sup>227</sup> <http://www.ifrc.org/en/publications-and-reports/code-of-conduct/> (на англ. яз.)

<sup>228</sup> Keller H. Corporate Codes of Conduct and their Implementation: The Question of Legitimacy. University of Zurich URL: [http://www.yale.edu/macmillan/Heken\\_Keller\\_Paper.pdf](http://www.yale.edu/macmillan/Heken_Keller_Paper.pdf); Gendron, Lapointe. The Regulatory Limits of Corporate Codes of Conduct URL: <http://www.crsdd.uqam.ca/Pages/docs/pdfCahiersRecherche/19-2003.pdf>; De

Одоб-ахлоқ кодекси – ташкилотнинг касбий этика билан боғлиқ ички фаолияти масалаларини тартибга солувчи ҳужжатдир. Одатда, кодекс ННТ ходимлари ўзларининг касбий фаолиятида амал қилишлари керак бўлган қоидаларни белгилайди ва улар жумласига қуйидагилар киради: ННТларнинг ўз фаолияти тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилиш мажбуриятлари; манфаатлар тўқнашуви, коррупция ҳодисаларининг олдини олишга қаратилган ходимларнинг хулқ-атвор қоидаларини, шунингдек, ташкилот қонуний тартибга солиш зарур деб ҳисоблаган бошқа ахлоқий масалалар мустаҳкамлайди. Бунда одоб-ахлоқнинг қуйидаги асосий тамойиллари ажратилади: жавобгарлик ва жамият фаровонлиги учун хизмат қилиш, жамоатчилик учун очиклик, нотижорат секторнинг ҳисобдорлиги ва шаффофлиги, инсон ҳуқуқлари ва кадр-қимматини қадрлаш, қонунийлик ва ҳалоллик.

Жамият фаровонлиги учун хизмат қилиш ва жавобгарлик тамойилига кўра, жамият вакилларида олинган маблағлар шахсий манфаат учун ишлатилмаслиги керак. Барча хайр-эҳсонлар жамоатчилик ишончини ифодалаш воситасидир ва уларга жуда эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш керак. Шаффофлик ва ҳисобдорлик тамойилига биноан эса, ННТлар ички фаолиятида, шунингдек, донорлар ва жамоатчилик вакилларига нисбатан очиклик ва ҳалолликка интилиши лозим. Ҳалоллик ва қонунга риоя қилиш тамойили ННТлар ўз донорлари, муайян лойиҳа доирасидаги ёрдамнинг якуний олувчилари, ходимлар, ҳамкор ташкилотлар, умуман давлат ва жамиятга нисбатан ҳалол бўлиши, ўзлари юрисдиксияда бўлган ҳар қандай давлат қонунларини ҳурмат қилиши ва уларга риоя этилишини талаб қилади.

Фикримизча, бундай тамойиллар миллий қонунчилик тизими ва ННТларнинг иш фаолиятига сингдирилиши лозим. Ушбу тамойиллар асосида ННТларнинг иш олиб бориши ҳамда уларга риоя этиши ННТларни ташкил этиш мақсадидан келиб чиқиб фаолият юритиши ва ҳуқуқий мақоми доирасини аниқлаш имконини беради. Бу эса ўз навбатида ННТларни фуқаролик ҳуқуқи субъекти сифатида ҳолати ва улар фаолиятининг ҳуқуқий тартибга солиш чегараларини белгилаш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқий асосларини ривожланишида 1997 йил 1 мартдан кучга киритилган Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси алоҳида ўрин тутди. Юридик шахсларнинг нотижорат турлари гуруҳи

мавжудлиги дастлаб кодекснинг 40-моддасида белгиланган бўлса, нотижорат ташкилотларининг турлари кодекснинг 4-боби 3 параграфиди белгиланган. Бунда нотижорат ташкилотларининг 6 та турига эътибор қаратилган.

Шу билан бирга кодекс 40-моддасининг 3-қисми нотижорат ташкилотларнинг фақат учта турини кўрсатган ҳолда очик рўйхатини ифодалайди. Бундан фарқли равишда кодекс 4-бобининг 3 параграфиди нотижорат ташкилотларининг 6 та тури кўрсатилган. Мазкур номутаносибликни олдини олиш мақсадида кодекснинг 40-моддаси 3-қисми нотижорат ташкилотларнинг “муайян қонуний шаклда тузишни” назарда тутди. Фикримизча, ушбу ёндашув ҳуқуқий жиҳатдан чалкашликларни вужудга келтириши ҳамда ҳуқуқни қўллаш соҳасида муаммоларни юзага келтириши мумкин. Қолаверса, кўплаб мутахассислар муассасалар, юридик шахс бирлашмаларини юридик шахснинг алоҳида ташкилий-ҳуқуқий шакл сифатида мавжуд бўлишини нотўғри деб ҳисоблашади.

Фикримизча, қонунчиликда хусусан, ФКнинг 40-моддаси 3-қисмида нотижорат ташкилотлари ташкилий-ҳуқуқий шаклини тўлиқ рўйхатини ифодалаш ҳамда рўйхатни ёпиқ тарзда белгилаш тўғри бўлади. Бунда аниқлик ва фаолиятда шаффофликка эришиш лозим. Шу муносабат билан ФКнинг 40-моддаси 3-қисмини қуйидаги таҳрирда белгилаш мақсадга мувофиқ:

“Тижоратчи ташкилот бўлмаган юридик шахс матлубот кооперативи, жамоат бирлашмалари, жамоат фондлари, муассасалар, юридик шахс бирлашмалари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари шаклида ташкил этилади.”

Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелда қабул қилинган “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги<sup>229</sup> қонуннинг асосий мақсади назарда тутилган бўлиб, турли ҳудудда фаолият юритувчи нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини мамлакат ҳудудидаги фаолиятига оид муносабатларни тартибга солишни қамраб олиши кўрсатилади. Мазкур қонун 37 моддадан иборат бўлиб, нодавлат нотижорат ташкилоти тушунчаси, ҳуқуқий мақоми, ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ташкилий-ҳуқуқий шакллари, тузиш тартиби, давлат рўйхатидан ўтказиш, нодавлат нотижорат ташкилотининг мол-мулки, улар томонидан тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ва фаолиятини тугатишга доир қоидалар ўз ифодасини топган.

<sup>229</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда / <https://lex.uz/docs/11360>

Қонуннинг 10-моддасига кўра, нотижорат ташкилоти қонунда кўзда тутилган муайян ташкилий-ҳуқуқий шаклда тузилиши мумкин. Бу ўринда қонунда бошқа ташкилий-ҳуқуқий шакл назарда тутилган ҳоллар ҳам мавжуд бўлиши мумкин. Фикримизча, бундай рўйхатнинг очик қолдирилиши ўзини оқламайди. Чунки юридик шахсларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли қонунчиликда қатъий ва ёпиқ тарзда ифодаланиши мақсадга мувофиқ. Кўплаб хорижий мамлакатлар (масалан, Германия, Франция) қонунчилигида юридик шахсларнинг хусусан, нотижорат ташкилотларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли рўйхати ёпиқ тарзда белгиланган. Шу муносабат билан, қонуннинг 10-моддасидан “шунингдек қонунларда назарда тутилган бошқа шаклда ташкил этилиши мумкин” деган жумла чиқариб ташланиши мақсадга мувофиқ.

Бугунги кунда АҚШ, Буюк Британия, Германия, Франция, Голландия, Корея, Япония ва бошқа бир қатор халқаро ва чет эл нодавлат нотижорат ташкилотларининг ваколатхона ва филиаллари Адлия вазирлигида давлат рўйхатига олинган. Жумладан, “Save the children” (“Болаларни асранг”), “Чегарасиз шифокорлар”, “АКТЕД”, “Фридрих Эберт жамғармаси” ва бир қатор чет эл ташкилотлари томонидан амалга оширилаётган дастур ва лойиҳалар ҳуқуқий маданиятни янада юксалтириш, оналар ва болалар соғлиғини муҳофаза қилиш, экологик муҳит бузилишидан жабр чекканлар реабилитациясини амалга ошириш, хавфли юқумли касалликларнинг олдини олиш, хотин-қизлар ва ўсмирларга тиббий таълим бериш каби мақсад ва вазифаларга қаратилган. Шунини таъкидлаб ўтиш керакки, баъзан айрим мутахассислар, ҳатто ҳуқуқшунослар ҳам Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтлари сони ҳақида тўхталганда нотижорат ташкилотлар сони билан чалкаштиришади. Бунинг учун дастлаб фуқаролик жамияти, унинг институтлари ҳақида, нодавлат нотижорат ташкилотлар бунда тутган ўрни ҳақида тўғри тушунчага эга бўлиши лозим. Дарвоқе бунда барча нотижорат ташкилотлар фуқаролик жамияти институти ҳисобланади, лекин барча фуқаролик жамияти институтлари нотижорат ташкилоти эмас, деган қоидага амал қилиш лозим. Назарий жиҳатдан фуқаролик жамияти институтлари хилма-хил.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги “Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий соҳадаги ислохотлар устидан жамоатчилик назорати самарадорлигини, шунингдек, фуқароларнинг демократик ўзгартиришлардаги фаоллигини оширишга оид қўшимча чора-

тадбирлар тўғрисида”ги <sup>230</sup> ПҚ–4473-сон қарорига мувофиқ, 2020 йил 1 февралга қадар Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги кодекси лойиҳаси ишлаб чиқилиши назарда тутилди. Бунда чет эл давлатларининг тажрибасини ўрганиш ҳамда мавжуд муаммоларни таҳлил қилиш асосида нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш вазифаси белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 апрелдаги Ф–5464-сон фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш Концепцияси <sup>231</sup> II-бўлими 10-бандида нотижорат ташкилоти ҳисобланадиган ўзаро суғурта жамиятларини ташкил этишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масаласи белгиланган.

О.Оқюловнинг фикрича, Фуқаролик кодекси лойиҳасида концептуал жиҳатдан яна бир нотўғри ёндашув юридик шахслар рўйхатининг ёпиқ қилиб қўйилганидир. Бунда энг баҳсли масала рўйхатнинг тижорат юридик шахслари, хўжалик жамиятлари ва ширкатлари, ишлаб чиқариш кооперативлари доирасида чеклаб қўйилганидир. Цивилист олимларнинг кўпчилиги бундан таажжубга тушмоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётида катта юкни кўтариб турган хусусий корхоналар, оилавий корхоналар, фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликларини тугатиш ва уларни МЧЖга айлантириш (чунки кўшимча масъулиятли жамият иштирокчилари бир-бирлари учун ҳам солидар, субсидиар жавобгар бўлиши кўпчиликни бундай юридик шахсни ташкил этишдан чўчитади) тушунарсиз ҳол. Иқтисодий тизимда тижорий юридик шахсларни қайта ташкил этишлар изига тушгунча уч-тўрт йил ўтади. Бу эса уларнинг фаолиятини самарали амалга оширишга, уларни бошқаришга салбий таъсир кўрсатади <sup>232</sup>.

## **ХУЛОСА**

Фикримизча, матлубот кооперативи, шунингдек ўзаро суғурта жамиятлари фаолияти учун кўшимча шарот яратиш зарур. Чунки, шароит ва ҳуқуқий муҳит барқарор бўлмасдан туриб, улар фаолиятининг кафолати заиф бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 78-моддаси биринчи қисмига “фуқароларнинг” сўздан кейин “**ёки фуқаролар ва юридик шахсларнинг**” деган жумлани қўшиш ҳамда биринчи қисм охирига “**Ўзаро**

<sup>230</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.10.2019 й., 07/19/4473/3864-сон

<sup>231</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон

<sup>232</sup> Оқюлов О. Фуқаролик кодекси реал воқеликни акс эттирмоғи лозим. //Хуқуқ, 2020. №26, 2-июль, 7-бет.

суғурталаш жамияти юридик шахсларнинг аъзолигига асосланиши мумкин” деган гап билан тўлдириш таклиф этилади.

## REFERENCES

1. Муаллифлар жамоаси. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳлар. -Т.: 2010, ТДЮИ, 120 б. <sup>1</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/5077>
2. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқининг субъектлари. –Т.: ТДЮИ, 2008, -50 б.
3. Исаева М.А. Законодательные условия формирования целевого капитала некоммерческих организаций России и США: сравнительный анализ. //Вестник Чувашского университета. 2011. № 4. С.419-424.
4. Окюлов О. Фуқаролик кодекси реал воқеликни акс эттирмоғи лозим. //Хуқуқ, 2020. №26, 2-июль, 7-бет. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда / <https://lex.uz/docs/11360>
5. Гурская М.М., Владимирова М.А. Нормативно-правовое регулирование некоммерческих организаций: настоящее и будущее. //Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, 2012, (111), 130-137.
6. Internal Revenue Code [Electronic resource] / Internal Revenue Service. URL: [http://www.irs.gov/pub/irs-tege/eo\\_code\\_provisions.pdf](http://www.irs.gov/pub/irs-tege/eo_code_provisions.pdf)
7. Cragg W. (ed) Ethics Codes, Corporations and the Challenge of Globalization. Massachusetts. 2005. P.8-12.
8. <http://www.ifrc.org/en/publications-and-reports/code-of-conduct/> (на англ. яз.)
9. Keller H. Corporate Codes of Conduct and their Implementation: The Question of Legitimacy. University of Zurich URL: [http://www.yale.edu/macmillan/Heken\\_Keller\\_Paper.pdf](http://www.yale.edu/macmillan/Heken_Keller_Paper.pdf); Gendron, Lapointe. The Regulatory Limits of Corporate Codes of Conduct URL: <http://www.crsdd.uqam.ca/Pages/docs/pdfCahiersRecherche/19-2003.pdf>; De George Richard T. A History of Business Ethics. Santa Clara University. URL: <http://www.scu.edu/ethics/practicing/focusareas/business/conference/presentations/business-ethics-history.html>
10. O‘G‘Li, I. D. B. (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG‘ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIY OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 430-447.



- 
11. Topildiev, B., Khursanov, R., & Usmonova, M. (2020). Trust management agreement Property and prospects for its development in the Republic of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(3), 3199.
  12. Мехмонов, К. М. (2021). Правовая защита объектов промышленной собственности.

**UDK:** 347.189.8 (055) (575.1)

**ORCID:** 0000-0002-1968-6005

## **XALQARO TIJORAT ARBITRAJI BO'YICHA SINGAPUR KONVENSIYASI VA MILLIY SUDLARNING O'ZARO MUNOSABATI**

**Norboyev Baxtiyor G'afforovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: [b.norboyev12@mail.ru](mailto:b.norboyev12@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada xalqaro tijorat arbitraji bo'yicha Singapur konvensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati, ularning faoliyatining huquqiy asoslari va ish yuritish tartibi, ishlarni protsessual jihatdan ko'rib chiqish bosqichidagi farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilingan. Rivojlangan xorijiy davlatlarning milliy sudlari va xalqaro tijorat arbitrajleri o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga doir amaliy tajribasining avfzalliklari o'rganildi. Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tijorat arbitraji va milliy sud tizimiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tijorat arbitraji faoliyati va qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.*

***Kalit so'zlar:** Singapur konvensiyasi, arbitraj, mediatsiya, tijorat arbitraji, milliy sudlar, xalqaro tijorat arbitraji, investitsiya, qaror, ijro.*

## **СИНГАПУРСКАЯ КОНВЕНЦИЯ О МЕЖДУНАРОДНОМ КОММЕРЧЕСКОМ АРБИТРАЖЕ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СУДОВ**

**Норбаев Бахтиёр Гаффорович**

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: [b.norboyev12@mail.ru](mailto:b.norboyev12@mail.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проанализированы отношения между сингапурской Конвенцией по международному коммерческому арбитражу и национальными судами, правовые основы и порядок их деятельности, различия и сходства на стадии процессуального рассмотрения дел. Изучены преимущества*

*практического опыта развитых зарубежных стран по совершенствованию отношений между национальными судами и международными коммерческими арбитражами. Данная статья как доктринальное исследование содержит анализ законодательных актов и научно-теоретических источников. В нем изучаются научные концепции отрасли, взгляды, выводы и мнения ученых-теоретиков. Также проведен сравнительно-правовой анализ законодательства, касающегося международного коммерческого арбитража и Национальной судебной системы. Также были высказаны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства и деятельности Международного коммерческого арбитража.*

**Ключевые слова:** Сингапурская конвенция, арбитраж, посредничество, коммерческий арбитраж, национальные суды, Международный коммерческий арбитраж, инвестиция, решение, исполнение.

## **SINGAPORE CONVENTION ON INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION AND THE RELATIONSHIP OF NATIONAL COURTS**

**Norboev Bakhtiyor Gaffarovich**

Master degree at Tashkent state university of law

E-mail: [b.norboyev12@mail.ru](mailto:b.norboyev12@mail.ru)

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the relationship between the Singapore Convention on International Commercial Arbitration and national courts, the legal basis and procedure for their activities, differences and similarities at the stage of procedural consideration of cases. The advantages of the practical experience of developed foreign countries in improving relations between national courts and international commercial arbitration are studied. This article, as a doctrinal study, contains an analysis of legislative acts and scientific and theoretical sources. It examines the scientific concepts of the industry, views, conclusions and opinions of theoretical scientists. A comparative legal analysis of the legislation concerning international commercial arbitration and the National judicial System was also carried out. Suggestions and recommendations were also made to improve the legislation and activities of International Commercial Arbitration.*

**Keywords:** Singapore Convention, arbitration, mediation, commercial arbitration, national courts, International commercial Arbitration, investment, decision, execution.

## **KIRISH**

Bugungi rivojlanib borayotgan davrda davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivoji, o'zlarining xususiy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni vujudga keltirmoqda. O'zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida davlatlar o'zaro huquqiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor berishmoqda. Xalqaro savdo-iqtisodiy integratsiyalashuvni huquqiy jihatdan himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari, vazifa va maqsadlari o'zaro ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarda o'z aksini topmoqda.

Iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni amalga oshirish va tartibga solish masalalari xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinmoqda. Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi davlatlar o'rtasidagi va ularning subyektlari o'rtasida vujudga keladigan nizolarni bartaraf etishni ham nazarda tutadi. Ushbu nizolarni hal qilish uchun xalqaro tijorat arbitrajari yordamga keladi .

## **MATERIAL VA METODLAR**

Mazkur maqolada arbitraj tushunchasining yuridik tabiati ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati amaldagi qonun hujjatlari asosida tavsiflangan. Muallif xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida tasniflagan. Muallif xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati muammolari va ularni bartaraf qilishda huquqiy mexanizmlarni samarali qo'llash usullari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan. Xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'rtasidagi farqli jihatlar tahlil qilingan.

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Unda sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Mazkur xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi xalqaro tijorat arbitraji buyicha singapur kovensiyasi hamda milliy sudlarning o'zaro munosabati rivojiga xizmat qiladi.

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Rossiyalik olim, yuridik fanlar mutaxassisi V.N.Kanashevskiy xalqaro tijorat arbitrajini hakamlik sudlarining bir turi bo'lib, tomonlar tomonidan tuzuladigan sudlar deb ataga. O'z navbatida yana bir rossiyalik mutaxassis N.Y.Erpleva ushbu fikrni qo'llab quvvatlab, aynan xalqaro tijorat arbitrajini har bir muayyan holatda doimiy ishlaydigan yoki alohida hollarda tashkil etiladigan sud bo'lib uning asosiy maqsadi xalqaro tijorat nizosining mohiyatini ko'rib chiqish, hal qilish va nizolashayotgan tomonlar uchun majburiy bo'lgan qarorlar chiqarishdan iborat deb hisoblaydi.

Shuningdek, boshqa arbitraj sohasidagi olimlarning ham ushbu fan doirasidagi fikrlarini ham keltirmoqchiman. Xususan, I.V.Getman-Pavlova xalqaro tijorat nizolarini hal qilishning maxsus mexanizmi bo'lib, ularning nizolarini ko'rib chiqish uchun tomonlarning irodasi bilan tanlangan, bu hakamlik xarakteriga ega va milliy qonunchilikka muvofiq tashkil etilganligini aytib o'tgan. A. A. Gorlenko va M. E. Kroll ta'kidlashicha, tomonlar hakamlik bitimini tuzish orqali davlat sudlarining yurisdiksiyasini ularning nizosiga nisbatan chiqarib tashlash niyatini tasdiqlashadi.

Xalqaro iqtisodiy nizolarni hal etishning eng ko'p qo'llaniladigan turi bu xalqaro tijorat arbitrajlarda nizolarni hal etish usulidir. Xalqaro tijorat arbitrajari bu - nodavlat (hakamlik) tijorat arbitraj sudlari hisoblanib, xalqaro tijorat bitimi ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni hal etish bilan shug'ullanadi. Dunyoda o'zining yuqori mavqeiga ega arbitrajlar jumlasiga Nyu-York, London, Singapur va boshqa arbitrajlar kiradi. Arbitrajlarining qarorlari Modul qonuniga ko'ra yakuniy bo'lib, taraflar uchun majburiy hisoblanadi hamda taraflar qarorni kechiktirmasdan ijro etishlari lozim.

Mohiyatan, arbitraj qarorlari ixtiyoriy ijro etishni nazarda tutsada, lekin ko'p hollarda majburiy ijroni talab qiladi. Bunga sabab sifatida Alan Redfern va Martin Hunterlarning fikricha ikkita asos mavjud: birinchidan, arbitraj bu xususiy protsess, ya'ni vakolatli suddan farqli ravishda taraflarning xohishi bilan arbitraj tarkibi tuziladi, ikkinchidan, arbitraj tribunali uchun qabul qilingan hal qiluv qarori ijro etiladimi yoki yo'qmi ahamiyatga ega emas. [1, 23b] Chunki arbitrajlar nizoni faqatgina hal qiladi, ijrosini ta'minlash esa hal qiluv qarori kimning foydasiga chiqarilgan bo'lsa, o'sha tarafga huquq beriladi.

Milliy sudlardan farqli ravishda arbitrajlar o'z qarorlarini ijro etishda hech qanday rol o'ynamaydi, ya'ni bu ularning vakolat doirasiga kirmaydi. Odatda, qaror e'lon qilib bo'lingach, arbitraj nizo bo'yicha boshqa hech qanday harakatni amalga oshira olmaydi, sababi arbitraj faqatgina nizoni hal etish uchun vakolatlidir.

Faqatgina taraflarning so‘rovi asosida qarorga qo‘shimcha kiritishi yoki tuzatish kiritishi hamda qaror bo‘yicha tushuntirishlar berishi mumkin. Arbitraj tribunali nizo bo‘yicha hal qiluv qarori qabul qilsa, nizo hal etilgan, arbitraj tribunal esa functus officio, ya‘ni arbitrajning vakolati tugagan bo‘ladi.

Xalqaro tijorat arbitrajining foydali jihatlari juda ham ko‘pdir. Taraflar nizolarni ha etishda nima uchun xalqaro arbitrajni tanlashlari borasida o‘tkazilga emperik tadqiqotda ikkita eng muhim sabablar aniqlandi .

1) Kamida 156 mamlakat taraflari bo‘lgan kelishuvga, Nyu-York Konvensiyasiga asosan ijroni taminlash ehtimoli [2, 56b] hamda yurisdiksiyasining betarafligi (ya‘ni, boshqa taraf sudidan tashqarida bo‘las olish) [3, 24b] mavjud bo‘lganligidir. Odatda arbitraj qarorining xalqaro darajada ijro etilishi milliy sud qaroriga nisbatan osonroq, chunki Nyu-York Konvensiyasiga asosan jiddiy prosessual xatolar yoki jarayonning yaxlitligiga borib taqaladigan muammolar bo‘lmasa, sudlar qarorni ijro etishi talab etiladi. Nyu-York konvensiyasini jro etishda tarafkashlikka yo‘l qo‘yiladi deb hisoblanadi, shuningdek, aksariyat sudlar ijroga qaratmaslik uchun ruxsat etilgan asoslar doirasini juda tor talqin etadilar.

Boshqa afzalliklariga protses va qabul qilinadigan qarorni maxfiy saqlay olishi kiradi. Maxfiylik ba‘zi institutsional qoidalar orqali ta‘minlanadi va taraflardan maxfiylik kelishuviga amal qilgan holda, maxfiylik taraflar kelishuvi orqali kengaytirilishi (masalan, guvohlar va ekspertlar qamrab olish uchun) mumkin. Ko‘p kompaniyalar maxfiy protseduralarni xohlashadi, chunki ular kompaniya va uning biznes operatsiyalari yoki ular ishtirok qiladigan nizolar haqidagi ma‘lumotlar oshkor etilishi istashmaydi yoxud ular nizoning ehtimoliy salbiy oqibati ommaga ma‘lum bo‘lishini xohlamaydilar.

Bundan tashqari, taraflar muayyan soha bo‘yicha maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan arbitrlarni tanlay olish qobilyatlarini ma‘qul ko‘radilar. Shu bilan birga ularga arbitrajda kamroq ma‘lumotlar taqdim etilishi, umuman olganda, shu tarzda keng ko‘lamli sud jarayonlarigagina qaraganda qisqaroq protsesga olib kelinishi yoki eng kamida AQSH uslubidagi sud jarayonidan ko‘ra qisqaroq bo‘lishi yoqadi. Mohiyatiga ko‘ra qaror yuzasidan bir necha marta shikoyat qilish imkoniyatining mavjud emasligi ham uning jozibador jihatidir. Ishbilarmon shaxslar o‘z bizneslarini davom ettira olishlari uchun nizoni tugatishni qadrlashadi. [4, 12b] Garchi ilgari e‘tirof etilgan bir afzallik bu arbitrajning sud jarayoniga qaraganda arzonroq ekanligi bo‘lsa-da, ko‘p kompaniyalar bugungi kunda ko‘p afzallik haqiqatda mavjud deb hisoblamaydilar. [5, 78b] Tijorat arbitrajleri miqdor va tikilgan pul hisobiga o‘sib borgani sari, taraflar arbitrajga aksariyat sud jarayoni taktikalarini ko‘proq kiritib

bordilar. Ushbu taktikalar xarajatlarini oshirishga, kechikishlarni keltirib chiqarishga va jarayonning qarama –qarshi xususiyatarini kengayishiga xosdir. Shunga qaramasdan arbitraj bir neha jihatdan sud jarayoniga o'xshash xarakter kasb eta boshlagan bo'lsa ham, taraflar arbitraj taqdim etadigan boshqa afzalliklar sababli hali ham xarakatga munosiib deb topishadi .

UNCITRAL qonuniga ko'ra "arbitraj" so'zining ma'nosi juda qisqacha belgilanadi: "har qanday arbitraj, u doimiy arbitraj muassasasi tomonidan amalga oshiriladimi yoki yo'qmi. Shunday qilib, olimlar xalqaro tijorat arbitraj tushunchasi bilan bog'liq shunga o'xshash fikrlarni bildirib, uning asosiy belgilari quyidagi ta'kidlagan:

1)hakamlik muhokamasining bir turi;

2)sud jarayoni tomonlar o'rtasida yuzaga keladi, ulardan birining huquqiy maqom boshqa huquqiy maqomga nisbatan uning tashqi xususiyatlariga ega bo'lish nuqtai nazaridan farq qiladi.

Aniq xalqaro tijorat arbitraj huquqiy tabiatini aniqlash mumkin emas. Bu masala bo'yicha bir nechta nazariya mavjud. Shartnoma kontsepsiyasi hakamlik bitimi mohiyatan fuqarolik-huquqiy shartnomasi ekanligini anglatadi, ya'ni hakamlik bitimi tomonlarning nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga yuborish irodasini o'zida mujassam etgan. Shunday qilib, shartnomaning shartnomaviy xususiyati hakamlik sudining shartnomaviy xususiyatini nazarda tutadi. Protsessual kontsepsiya tarafdorlari hakamlik sudlarini davlat adolatining nostandart shakli deb hisoblashadi. Shunday qilib, ular hakamlik bitimini davlat sudining yurisdiksiyasini bekor qilishga qaratilgan protsessual xarakterdagi kelishuv deb tan olishadi. Ularning fikriga ko'ra, hakamlik sudining davlat majburlash kuchiga ega emasligi va protsessni to'liq amalga oshirish uchun vakolatli sudga murojaat qilishga majbur bo'lganligi sababli, davlatchilik elementi hakamlik xarakterida ko'rinadi. Aralash tushunchalar, uning nomidan ko'rinib turibdiki, yuqoridagi nazariyalarning pozitsiyalarini birlashtiradi. U arbitrajni moddiy va protsessual elementlarni o'z ichiga olgan mustaqil va avtonom muassasa deb topadi. Ya'ni, ushbu nazariyani qo'llab-quvvatlovchilar hakamlik sudi ish yuritadigan davlat qonuni va amaldagi qarama-qarshi qonun qoidalari nazarda tutilgan tegishli xorijiy qonunlarning ham qo'llanilishini ta'minlashga imkon beradi.

Xalqaro tijorat arbitrajida ishni ko'rib chiqish muqobil bo'lmagan va majburiy emas, balki ikkala tomonining tanlovidir. Shunga qaramay, har yili hakamlik muhokamasida ko'rib chiqilayotgan ishlar soni ko'paymoqda. Bu aniq shuni ko'rsatadiki, xalqaro tijorat arbitrajida nizoni ko'rib chiqishning afzalliklari davlat sudiga nisbatan ko'proq deb hisoblashadi.

Birinchi ustunlik shundaki, hakamlik sudlari davlat sudlaridagidek ish yuritish qat'iy, rasmiy va standartlashtirilgan xususiyatga ega emas. Bu juda moslashuvchan va tomonlarga nizolarni hal qilishning ko'plab muhim tomonini tanlash imkoniyatini beradi.

Arbitrajning ikkinchi muhim afzalligi shundaki, har bir hakamning ishi davlat sudlarining sudyalariga qaraganda ancha kam. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ma'qullanib, Prezident tomonidan imzonlangan va 2021 –yil avgust oyida kuchga kirishi lozim bo'lgan qonunning 15-moddasida: Taraflar o'z xohishiga ko'ra arbitrlar sonini belgilashi mumkinligi aytilgan. [6, 15m] Bunday kelishuv bo'lmaganda uch nafar arbitr tayinlanadi deyilgan. Shuningdek, xalqaro tijorat arbitraj eng muhim afzalliklaridan biri nizoni hal qilish uchun tor-milliy yondashuv oldini olish uchun imkoniyat ekanini qayd etdi.

Shuningdek, ishni xalqaro tijorat arbitrajida ko'rib chiqish afzalligi – bu hakamlik sudining maxfiyligi. Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, agar ish davlat sudida ko'rilsa, ishning ba'zi holatlari jamoatchilikka oshkor bo'lishi mumkin, ammo nizolarni hakamlik muhokamasida ko'rib chiqish protsessning tafsilotlari sir saqlanishiga olib keladi. Agar qabul qilingan qarorga kelsak, u nafaqat ma'lum bir xalqaro tijorat arbitraj sudi joylashgan mamlakat ichida, balki chet elda ham, barcha mamlakatlarda–1958-yilgi Nyu-York Konvensiyasining ishtirokchilari tomonidan ijro etilishi mumkinligini ta'kidlash lozim.

Xalqaro tijorat arbitraj davlat sudlari mexanizmining ajralmas qismi bo'lmaganda, uning faoliyatini samarali amalga oshirish uchun yagona imkoniyat vakolatli sud bilan hamkorlik qilishdir. Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risidagi UNCITRAL qonunining 5- moddasida “Sud aralashuvi doirasi”da sud xalqaro tijorat arbitrajiga faqat qonun hujjatlarida belgilangan shartlar bilan aralashish imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Mutaxassislar xalqaro tijorat arbitraji va davlat sudlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllarini ikki guruhga bo'lishni taklif qilmoqdalar:

- 1) Davlat sudining hakamlik sudyalariga yordami
- 2) Davlat sudlari tomonidan nazorat qilinishi.

Ta'kidlanishicha, davlat sudlarining hakamlik sudlariga nisbatan yordam va nazorat funksiyalarini bajarish qobiliyati dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qonunchiligida belgilab qo'yilgan. Ushbu vaziyatda M.V. Petrovning mualliflik yordamining ta'rifiga murojaat qilishingiz mumkin. Uning fikriga ko'ra, hakamlik sudiga ariza berish huquqiga ega bo'lmagan kuch-qudratni amalga oshirish uchun sudning faoliyati yordam beradi. Ushbu funksiyalarni amalga oshirishning maqsadi hakamlik muhokamasining samaradorligini oshirishni ko'rsatadi. Shunday qilib,



ragʻbatlantirish ikki mustaqil institutlari umumiy muammoni hal qilish uchun oʻzaro sifatida belgilangan boʻlishi mumkin, ya'ni hakamlik mustaqil amalga oshirish imkoniyatiga ega emas harakatlar bu sodir, lekin aslida na birinchi, na ikkinchi tuzilishi “itoat” bir holatda emas.

Ushbu fikriga qoʻshilish mumkin, u quyidagi funksiyalarni yordam sifatida tasniflaydi:

- hakamlik sudi tarkibini shakllantirishda davlat sudlarining ishtiroki;
- xalqaro tijorat hakamlik sud ishlarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha vaqtinchalik choralar;
- dalillarni olish.

Shunga qaramay, baʼzi olimlar yordam funksiyalarining boshqa shakllarini yordam funksiyalari guruhiga ajratadilar. Masalan, boshqa tomondan olimlar shuningdek, ushbu guruhga hakamlik sudining vakolatlarini aniqlash masalasi kabi yordam turini oʻz ichiga oladi.

Shu bilan birga, biz ushbu masala boʻyicha u bilan kelishish qiyin, chunki biz ushbu chorani amalga oshirish boʻyicha davlat sudining harakatlarida, yaʼni ikki mustaqil institutlarning hamkorligiga koʻmaklashish konsepsiyasining mos kelmasligini koʻrib turibmiz. Bundan tashqari, bu holatda, davlat sudi hakamlik yoʻnalishi boʻyicha oʻz kuch-qudratini qoʻllaydi, vakolatning mavjudligi yoki yoʻqligini aniqlaydi.

Davlat sudlari va arbitraj oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikning ikkinchi guruhi nazorat vazifalarini oʻz ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, nazoratni amalga oshirish “nazorat ostida boʻlgan hodisaning maqsadiga muvofiq har qanday dinamik jarayonning oqimini kafolatlaydigan muayyan usullar va usullar toʻplami” ni oʻz ichiga oladi. Xalqaro tijorat arbitrajida koʻp hollarda taraflar va arbitrlar sudlarning arbitraj prosessiga aralashishini xohlamaydi. Ammo baʼzi hollarda sudlarning arbitrajga aralashishi muhim hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, sudlarning arbitrajga ega boʻlmagan vakolatlari mavjudligi –xususan, majburlash vakolaiga ega, yaʼni kimnidir nimadir qilishga majburlash vakolati [7, 241b] Sudlar ijroni talab qilish vakolatiga ega, chunki ijro etilmasa ular salbiy oqibatlarni keltirilishi mumkin; jarimaga tortish, qamoq jazosi yoki boshqa jazolash shaklida. Garchi arbitrajda taraflarga salbiy oqibatlar keltirish vakolati boʻlsada, masalan taraf hujjat taqdim etmasa unga nisbatan salbiy chora koʻrish kabi, ammo arbitrajda taraflarni qarorni bajarishga, shuningdek arbitrajga aloqasi boʻlmagan shaxslarni majburlaydigan kuch mavjud emas.

Sudlar bundan tashqari nazorat funksiyasini bajarishadi. Bu ham bir ikki tomonning o'zaro munosabatga kirishishining bir dalolatidir desak aslo mubolag'aa bo'lmaydi. Garchi arbitraj taraflar tanlagan huquq va qoidalar bilan tartibga solinadigan huquqning xususiy tizimi bo'lsada, u qonun bilan ya'ni, deyarli hamma holatda arbitraj joylashgan joyning huquqi (lex arbitri ) bilan tartibga solinadi. Sudlar xususiy sud tizimi–arbitrajning firibgar, korrupsiya berilgan yoki prosessual asoslarga ega bo'lgan tizim emas, balki adolatlilikning minimal standartlariga javob berishini nazorat qilish darajasini ushlab turishni nazarda tutmoqdalar.

Taraflar odatda arbitraj jarayoni nohaq yoki adolatsiz bo'lsa sudga murojaat qilishni xohlashadi. Masalan xorijiy davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, Belgiya qonunchiligida Belgiya bilan bog'liq bo'lmagan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha Belgiya arbitraji qarorini milliy sud qayta ko'rib chiqmasligini belgilangandan so'ng, taraflar Belgiyaning arbitraj sudiga murojaat qilmay qo'yishgan. Kompaniyalar noto'g'ri arbitraj qarori ustidan sudga murojaat qilish imkoniyatlarining cheklanishini yoqtirishmaydi. Buning natijasida qonunga taraflar o'zlari voch kechmagan holda, taraflarning sudga murojaat qilishi mumkinligi to'g'risida o'zgartirish kiritildi. [8, 78b]

Redfernand Hunterning Xalqaro arbitraj kitobida keltirilishicha arbitraj jarayoni boshlanishicha sudning aralashuvini quyudagi 3ta holatda aniqlashtirishimiz mumkin. Arbitraj shartnomasini ijro etishda:

- Sudning tashkil etilishida
- Yurisdiksiya chaqiruvida

Dastlab tomon masalani arbitraj sudidami yoki davlat sudidami ko'rib chiqishga qaror qiladi. Boshqa holatlarda, arbitraj ijrosi hisoblangan bo'ladi va sud jarayoni davom etadi. Biroq arbitraj kelishuviga kirib , javobgar odatda milliy suddan ko'ra arbitrlar tomonidan qabul qilingan qarorni ma'qul ko'rishadi. Bu haqida Nyu-York Konvensiyasining 2-bo'limida ham aytib o'tilgan.[8, 105b]

Boshqa tomondan arbitraj jarayonini haqida gaplashadigan bo'lsak, bunda milliy sudlarning ta'siri ko'zatilmaydi. Bu Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi qonunda ham o'z aksini topgan. Chunonchi ushbu qonuning 7-moddasida Arbitraj sudlari o'z faoliyatida hech kimga bo'ysunmaydi va mustaqildir. Arbitraj sudlarining faoliyatiga biror-bir aralashuvga, xuddi shuningdek unga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi hamda bu O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi deyilgan.[10, 1b] Arbitraj sudining faoliyatiga hech qanday sud aralashuviga, mazkur tegishli qonunda bunday aralashuv belgilangan hollardan tashqari, yo'l qo'yilmaydi. [10, 2b]

## **XULOSA**

Xalqaro sud arbitraji boshlanganidan keyin arbitraj suddagi guvohlarni qatnashishini ta'minlash uchun davlat sudlariga talabnoma(request) kiritadi.[12, 22b] Ushbu qoida Xalqaro qonunda ham qayd etilgan. Xususan, Model law Arbitrationning 27-moddasida arbitraj sudi yoki arbitraj sudi qo'llab quvvatlagan tomon guvohlik olish uchun davlatdan yordam sifatidan milliy sudga talabnoma( request) kiritadi deyilgan. Agarda xorijiy davlatlarga qaraydigan bo'lsak, ba'zi arbitraj sudlari masalan, Shvetsariyada Model law qabul qilinmagan. Boshqa arbitraj huquqiga qaraydigan bo'lsak, 1996-yilda qabul qilingan Ingliz Arbitraj Aktining 43-moddasiga ko'ra:

1. Og'zaki guvohlik berish yoki hujjatlar yoki boshqa moddiy dalillarni ishlab chiqarish uchun bir guvoh tribunal oldin ishtirok ta'minlash uchun huquqiy muhokamasi nisbatan mavjud bo'lib arbitraj muhokamasi uchun bir tomon shu sud tartib foydalanishingiz mumkin.

2. Ushbu holat boshqa tomonlarning kelishuvi yoki tribunal ruxsati bilan bajariladi.

3. Bu sud protsessida foylanalishini mumkin, agarda

(a) guvoh Buyuk Britaniyada bo'lsa,

(b) arbitraj yuritish Angliya va Uelsda olib borilsa, yoki Shimoliy Irlandiyada.

4. Biror kishi ushbu bo'limdan kelib chiqib, qonuniy ish yuritishda ishlab chiqarishga majbur bo'lmaydigan har qanday hujjat yoki boshqa moddiy dalillarni ishlab chiqarishga majbur qilinmaydi.[13, 30b]

Arbitraj oxiridagi jarayon bilan tanishadigan bo'lsak, bitta oxirgi arbitraj sudi va milliy sud o'rtasidagi bog'liqlik bu qay darajada milliy sudlar xalqaro arbitraj qarorini bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirilishidir. Qonun hujjatlarida milliy sudlarga berilgan vakolatlar yoki ular birlashtirish vakolatlari kabi sudlarning o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan bank hisobvaraqlari, tugatuvchilarni tayinlash yoki buyruqlar berish uchun mavjud adolat manfaatlariga xizmat qiladi. Ular sud protsessining asosiy maqsadi yo'qolib borayotgan dalillar yoki mol-mulkdan xafa bo'lmasligini ta'minlash uchun, yoki qonunni o'z qo'llariga olgan tomonlar tomonidan. Xalqaro tijorat operatsiyalari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'payishi bilan sudlar, hakamlik kelishuvi bo'lgan taqdirda ham, agar zarur bo'lsa, muhim bo'lishi mumkin odil sudlov maqsadlari to'g'ri ta'minlanishi kerak.

## REFERENCES

1. Alan Redfern and Martin Hunter. International Arbitration, 6<sup>th</sup> edition. Oxford University Press. 2015. p.607
2. Chet el qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha BMT ning 1958-yilgi konvensiyasi. 1958 –yil, 10-iyun
3. 2018 International Arbitration Survey: The Evolution of International Arbitration // White & Case URL: <https://www.whitecase.com/publications/insight/2018-international-arbitration-survey-evolution-international-arbitration> (дата обращения: 04.05.2019).
4. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti . Margaret L.Mozes. 2020 –yil
5. International Arbitration Loses Its Grip 96 A.B.A.
6. Xalqaro arbitraj to'g'risidagi qonun
7. Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti . Margaret L.Mozes. 2020.
8. Villiam V.Park. Xalqaro arbitrajning o'ziga xos xususiyatlari .
9. New York Convention, Article II (3) , states
10. O'zbekiston Respublikasi Xalqaro arbitraj to'g'risidagi qonun. 2021,Tashkent
11. O'zbekiston Respublikasi Xalqaro arbitraj to'g'risidagi qonun. 2021,Tashkent
12. R.Hunter International Arbitration . Article of arbitration in the national court
13. Under Arbitration Act 1996, s. 2(3), this section of the Act (and that concerning court powers exercisable in support of arbitral proceedings) applies even if (a) the seat of the arbitration is outside England, Wales, or Northern Ireland, or (b) no seat has been designated or determined.
14. George A. Bermann. Recognition and enforcement of foreign arbitral awards: the application of the New-York Convention by national courts. 2014.
15. Charlie Lightfoot, James Woolrich. Guide to Enforcement of Foreign Arbitral Awards and Court Judgments in England & Wales. Practice Series. 2017.
16. И. Рустамбеков. Практические аспекты формирования системы международного коммерческого арбитража в Республики Узбекистан. (практическое пособие). Т. 2018. 30 Стр.
17. И. Рустамбеков. Порядок признания и исполнения решений судов иностранных государств и международных арбитражей в республике узбекистан: правовые проблемы и пути их совершенствования. Информационно-аналитическая справка. Т. 2018.
18. Jean-Jacques Arnaldez, Yves Derains. Collection of ICC arbitral awards 1991-1995. ICC Publishing S.A. Paris-New-York. 1997.

- 
19. О.Ю. Скворцова, М.Ю. Савранского, Г.В. Севастьянова. Международный коммерческий арбитраж. Учебник, издание второе. Санкт-Петербург, Москва. 2018 г.
  20. В. В. Комаров, В. Н. Погорецкий. Международный коммерческий арбитраж. Харьков. 2009.
  21. И. Рустамбеков. Международный коммерческий арбитраж. Учебное пособие. Т.: 2018.
  22. Z. S. Ubaydullayev. Xalqaro xususiy huquq. XXV bobi. Т.: 2002.

## **O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI OSHIRISHDA BIOLOGIK MASALA VA MASHQLARNING O‘RNI**

**Ganiyeva Gauxar Bazarbayevna,**

Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy - akademik litseyi  
kimyo fani o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilish faoliyatini, o‘quvchilar tomonidan biologik bilimlarini, masalalarni, uglevodlar kursida o‘quvchilarga asosan bilimlarni tayyor holda yoki yangi o‘zlashtirgan bilimlarni tasdiqlovchi va aniqlashtiruvchi dalil sifatida olinadigan masala va mashqlar o‘quvchilarni ancha mustaqil izlanishlarini oshirishga imkon beradi.*

**Kalit so‘zlar:** oqsil, yog‘, uglevod, tuz, sut, biomolekula, biopolimer.

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья направлена на повышение познавательной активности учащихся, биологических знаний учащихся, задач, задач и упражнений в углеводном курсе как свидетельство готовности учащихся или как доказательство вновь полученных знаний.*

**Ключевые слова:** белок, жир, углевод, соль, молоко, биомолекула, биополимер.

### **ABSTRACT**

*In this article, students 'cognitive activity, biological knowledge of issues, problems and exercises taken by students in the course of carbohydrates as a proof of knowledge ready or based on newly acquired knowledge will increase students' more independent research .*

**Keywords:** protein, fat, carbohydrate, salt, milk, biomolecule, biopolymer.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta‘lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta‘lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

**Ключевые слова:** *инвестиционная компания, инвестиционный фонд, рынок ценных бумаг, фондовый рынок, ценные бумаги, акционерное общество, эмитент, США, Узбекистан*

### **ABSTRACT**

*Investment funds play a significant role both in world economy and in economy of Uzbekistan. This article examines the mechanism of functioning of investment funds, analyzes the existing regulatory framework in Uzbekistan related to the activities of investment funds and mutual funds, also, based on a comparative analysis, determines the issues of improving this area.*

**Keywords:** *investment company, investment fund, securities market, stock market, securities, joint stock company, issuer, USA, Uzbekistan.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

Экономический рост Узбекистана зависит непосредственно от способности привлечения финансовых ресурсов. Одним из способов улучшения экономической ситуации является формирование хорошей системы разных форм коллективного инвестирования. Среди них одним из значимых является инвестиционный фонд. Инвестиционные фонды содействуют в увеличении притока инвестиций в национальную экономику, развивают, а также поддерживают конкуренцию на рынке, а также предоставляют множество преимуществ некрупным инвесторам, и увеличивают возможности удовлетворения инвестиционных потребностей населения.

Формирование института инвестиционного фонда в законодательстве Узбекистана положено относительно недавно – от 18.06.1996 было Постановление №220 Кабинета министров Республики Узбекистан «о мерах по организации деятельности инвестиционных фондов»<sup>252</sup>. Позже был принят Закон №ЗРУ-392 от 25.08.2015 г. «об инвестиционных и паевых фондах»<sup>253</sup>, который стал правовой базой деятельности инвестиционных фондов. Во время появления и апробации новых институтов актуальность их изучения и анализа стремительно возрастает. В науке гражданского права появляется возможность повлиять на развитие нового института, обеспечить его максимально полную и четкую правовую регламентацию, соответствующую потребностям гражданского оборота, направить правоприменительную практику в необходимом направлении. Также важность совершенствования правового регулирования деятельности инвестиционных фондов в Узбекистане заключается в том, что она является значимой для законодательной и правоприменительной практики. Это в целом зависит от последующей адаптации правовых институтов инвестирования, заимствованных из зарубежной практики. Совершенствование правового регулирования деятельности инвестиционных фондов может поспособствовать развитию инвестиционных фондов в Узбекистане. Для этого особенно важно провести сравнительный анализ правового регулирования деятельности инвестиционных фондов в Узбекистане и зарубежных стран, которые обладают развитым правовым регулированием деятельности инвестиционных фондов, организаций коллективных инвестиций.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Развитие инвестиционных фондов служит сбору сбережений и накоплений населения для долгосрочного инвестирования их в ценные бумаги, и за счет этого обеспечивается обновление и увеличение производственных ресурсов предприятий реального сектора экономики. Необходимость возникновения инвестиционных фондов заключается в принятии профессиональными специалистами, в частности управляющими компаниями и посредниками инвестиционных решений, так как частные инвесторы имеют недостаточную квалификацию и навыки на фондовом рынке.

По законодательству, инвестиции разделяются на следующие виды:

<sup>252</sup> Постановление Кабинета министров РУз «о мерах по организации деятельности инвестиционных фондов» от 18.06.1996 г. №220. // URL: [www.lex.uz/docs/448522](http://www.lex.uz/docs/448522)

<sup>253</sup> Закон №ЗРУ-392 от 25.08.2015 г. «об инвестиционных и паевых фондах» // URL: <https://lex.uz/docs/2731865>

• Капитальные инвестиции - инвестиции, вкладываемые в создание и воспроизводство основных фондов, в том числе в новое строительство, модернизацию, реконструкцию, техническое перевооружение, а также в развитие иных форм материального производства;

• Финансовые инвестиции - инвестиции, вкладываемые в акции, корпоративные, инфраструктурные и государственные облигации, а также в другие виды ценных бумаг;

• Социальные инвестиции - инвестиции, вкладываемые в развитие человеческого потенциала, навыков и производственного опыта, а также в развитие иных форм нематериальных благ.

В Узбекистане существуют такие формы инвестирования, как долевое участие в уставных фондах и ином имуществе хозяйственных обществ и товариществ, банков, страховых организаций и других предприятий, созданных совместно с юридическими или физическими лицами Республики Узбекистан; создание и развитие хозяйственных обществ и товариществ, банков, страховых организаций и других предприятий, полностью принадлежащих иностранным инвесторам; приобретение имущества, акций и других ценных бумаг, включая долговые обязательства, эмитированные резидентами Республики Узбекистан; вложение прав на интеллектуальную собственность, включая авторские права, патенты, товарные знаки, полезные модели, промышленные образцы, фирменные наименования и ноу-хау, а также деловую репутацию (гудвилл); приобретение концессий, включая концессии на разведку, разработку, добычу либо использование природных ресурсов; приобретение права собственности на объекты торговли и сферы обслуживания, на жилые помещения вместе с земельными участками, на которых они размещены, а также права владения и пользования землей и природными ресурсами.

А инвестиционные фонды во многих источниках толкуются как организации, компании, специализированные компании, финансовые продукты, имущественные комплексы, финансовые посредники, фонды, акционерные общества и юридические лица.

С каждым годом инвестиционные фонды играют все большую и большую роль в мировой экономике. Инвестирование в инвестиционные фонды в мире более востребовано, чем инвестирование в банковские депозиты, и одной из причиной этому явлению считается возможности высокого дохода и отсутствие трудозатрат со стороны инвестора на изучение и постоянный анализ большого объема информации.



Наиболее важными функциями инвестиционных фондов являются:

1. инвестирование денежных средств;
2. сохранение сбережений населения;
3. управление активами негосударственных пенсионных фондов, денежными средствами, аккумулированными страховыми компаниями, суверенными инвестиционными фондами;
4. повышение ликвидности рынка ценных бумаг;
5. снижение волатильности рынка ценных бумаг;
6. снижение процентных ставок на рынке кредитования;
7. финансирование развития науки и технического прогресса.

Слабое развитие инвестиционных фондов в Узбекистане оказывает негативное влияние на экономику Узбекистана и на способность узбекских инвестиционных фондов выполнять функции, выполняемые зарубежными инвестиционными фондами. Способствовать развитию инвестиционных фондов в Узбекистане государство может в том числе и реформированием, либерализацией правового регулирования деятельности инвестиционных фондов; исправлением недостатков существующего правового регулирования, негативно влияющих на развитие инвестиционных фондов в Узбекистане.

Правовое регулирование деятельности инвестиционных фондов в Узбекистане значительно отличается от правового регулирования деятельности инвестиционных компаний в США<sup>254</sup>, в том числе в таких концептуальных вопросах, как определение понятия инвестиционного фонда, инвестиционной компании. Понятие «инвестиционная компания» в США является аналогом понятия «инвестиционный фонд», установленного законодательством Узбекистана. Понятие «инвестиционная компания» определяется правом США посредством определения деятельности, осуществляемой такими компаниями, вследствие чего понятие «инвестиционная компания» включает в себя все организации, занимающиеся инвестиционной деятельностью, кроме организаций, прямо исключенных из понятия инвестиционной компании. Поэтому это понятие намного шире понятия «инвестиционный фонд», установленного узбекским законодательством. Такое широкое определение понятия «инвестиционная компания» имеет следующие преимущества перед узким определением понятия «инвестиционный фонд» в узбекском законодательстве. Широкое определение понятия «инвестиционная компания»

<sup>254</sup> Investment Company Act of 1940. // URL:COMPS-1879.pdf (govinfo.gov)

позволяет распространить правовое регулирование на большое количество организаций, что способствует защите прав и законных интересов инвесторов. Отсутствие требований к организационно-правовой форме инвестиционных компаний позволяет участникам рынка определять наиболее эффективные и удобные для участников рынка организационно-правовые формы, что снижает издержки участников рынка и, как следствие, повышает возможности участников рынков по развитию инвестиционных компаний, организаций коллективных инвестиций и управляющих инвестиционными компаниями и организациями коллективных инвестиций. Отсутствие таких требований также способствует реализации правового принципа «закон един для всех» и снижению возможностей использования правового арбитража.

Правовое регулирование деятельности инвестиционных компаний не распространяется на инвестиционные компании, имеющие маленький объем активов в управлении и малое количество инвесторов. Управляются же инвестиционные компании обычно инвестиционными советниками, которые не являются должностными лицами инвестиционной компании или ее участниками, на основе гражданско-правового договора.

Чаще права инвесторов инвестиционных компаний на практике сводятся к праву погашения и продажи ценных бумаг, эмитированных соответственно инвестиционными компаниями несмотря на то, что инвесторы инвестиционных компаний, созданных в корпоративной форме, обладают корпоративными правами. И инвестору приходится выбирать между ликвидностью своих инвестиций, с одной стороны, и возможностью участвовать в принятии инвестиционных решений и контролировать деятельность управляющей компании, инвестиционного советника, инвестиционной компании, с другой стороны.

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Во многих случаях интересы инвесторов защищаются административно-правовыми нормами, которые ограничивают возможности управляющих принимать решение в отношении имущества паевого инвестиционного фонда, инвестиционной компании. Но также интересы инвесторов, которые вправе контролировать деятельность согласовывать решения управляющих, в меньшей степени защищаются административно-правовыми нормами. При этом административно правовые механизмы защиты интересов инвесторов в большей степени направлены на защиту мелких инвесторов, инвестирующих в инвестиционные фонды открытого типа, чем на защиту интересов крупных

квалифицированных инвесторов, которые обладают достаточными ресурсами для защиты своих прав с помощью механизмов частного права. Наличие вышеуказанной зависимости свидетельствует о частичной взаимозаменяемости норм частного права и публичного права, о существовании возможности защиты интересов инвесторов как механизмами частного права, так и механизмами публичного права, также свидетельствует о приоритетности для государства защиты прав мелких инвесторов перед защитой прав крупных инвесторов.

Бесспорно, слабая развитость рынка инвестиционных фондов в Узбекистане обусловлена в большей части экономическими причинами. В то же время, возможно ускорить развитие рынка с помощью реформы правового регулирования инвестиционных фондов, и исправлением недостатков правового регулирования инвестиционных фондов.

## REFERENCES

1. Закон №ЗРУ-392 от 25.08.2015 г. «об инвестиционных и паевых фондах» // URL: <https://lex.uz/docs/2731865>
2. Постановление Кабинета министров РУз «о мерах по организации деятельности инвестиционных фондов» от 18.06.1996 г. №220. // URL: [www.lex.uz/docs/448522](http://www.lex.uz/docs/448522)
3. Investment Company Act of 1940. // URL: [COMPS-1879.pdf](http://COMPS-1879.pdf) (govinfo.gov)
4. Securities Act of 1933. //URL: Securities Act of 1933
5. Securities Exchange Act of 1934. // URL: Securities Exchange Act of 1934 (nyse.com)
6. Investment Advisers Act of 1940. //URL: [investment-advisers-act-of-1940.pdf](http://investment-advisers-act-of-1940.pdf) (seccc.com)
7. Султанов М. А. Исследование генезиса и сущности инвестиционных фондов в Республике Узбекистан // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №12 (25). С. 307-320. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/sultanov-m> (дата обращения 10.05.2021).
8. Шодибоева М. К. Инвестиционная привлекательность Узбекистана // Молодой ученый. 2016. №10. С. 939-941.
9. Тураев Б. Государственное регулирование инвестиционных процессов // Экономическое обозрение. Электронный журнал №3 (255) 2021 // URL: <https://review.uz/post/gosudarstvennoe-regulirovanie-investicionnx-processov>

## **XORIJIY TILDAGI FRAZEOLOGIK IBORALARNI QIYOSIY O'RGANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI**

**Abdug'affar Davlayev**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Behzod Xudoyqulov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola chet tilidagi frazeologik iboralarni qiyosiy o'rganishning o'ziga xosliklarini tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada berilgan iboralar va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: Frazeologiya, ibora, tarjima, asliyat, ekvivalent,.*

## **НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ**

**Абдуғаффар Давлаев**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

**Бехзод Худойқулов**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются особенности изучения фразеологических единиц. Теоретическая информация об фразеологизмы основана на примерах.*

*Ключевые слова: Фразеология, фразеологизмы, фразема , перевод, эквивалент..*

## **SOME FEATURES OF COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN A FOREIGN LANGUAGE**

**Abdugaffar Davlaev**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Bekhzod Khudaykulov**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

### **ABSTRACT**

*The point of the current paper is to show some issues of comparative study of phraseological units. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.*

**Keywords:** *Phraseology, phraseological unit, translation, originality, equivalent.*

## **KIRISH**

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, uning turli muhit va qatlamlari (leksika, grammatika, stilistika, norma va uning variantlariga nisbatan qo'llanilish muammosini to'laligicha xal etish borasida hanuzgacha muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shu bilan bir qatorda tilning ijtimoiy tabiati faqat uning mavjudligini (so'zlarning muhim "ijtimoiy rang-baranglikka ega" qismini ko'rsatish bilan) emas, balki tashqi shart sharoitlarni, ya'ni ekstralingvistik muhitni tan olishda tilning va uning barcha funktsiyalarini, shu jumladan leksika, frazeologiya, grammatika va hokazolarning ijtimoiy mohiyatiga kirib borib, sheva mavjudligini barcha shart - sharoitlarini va ularning mazkur ijtimoiy muhitni bilib olishda bajargan vazifalarini taxlil qilish orqali talqin etiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Frazeologizm so'z kabi lug'aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so'z kabi tilda tayyor holda mavjud bo'lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. So'z leksik ma'noga ega bo'lgani kabi frazeologizm o'am o'zining frazeologik ma'nosiga ega. So'zdagi barcha paradigmatic, sintagmatic xususiyatlarni frazeologizmlarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so'z va erkin so'z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, frazeologizm frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya ob'ektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar ma'no butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so'zga o'xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik ma'nosi turg'un, ko'proq emotsional ekspressiv xususiyatga ega bo'lgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik ma'no leksik ma'nodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi.

Frazeologik iboralarni o'rganishda ularni tematik-mavzulashtirilgan tarzda tahlil qilish samaraliroq hisoblanadi. Ikki tildagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganishda ham ularni tematik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi misollarda Italyan tilidagi frazeologik iboralarning O'zbek tilidagi ma'nolarini tematik jihatdan tahlil qilamiz:

### **1. Modi di dire con i verbi - fe'lli iboralar:**

*Dare una mano - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq.*

*Alzare le mani - Qo'l ko'tarmoq/urmoq.*

*Di seconda mano* - Ishlatilgan, qo'ldan – qo'lga o'tgan narsa buyum (avtomobil) ga nisbatan ham ishlatiladi.

*Chiedere la mano* - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.

*Prendere per mano* - Yordam bermoq, to'g'ri yo'lni korsatmoq.

*Essere al settimo cielo*- Baxtga/ quvonchga to'la bo'lmoq.

*Dare coraggio* - Ruhlantirmoq.

*Andare in fumo* - Barbod bo'lmoq

*Essere in gamba* - O'zini o'nglab olgan, oyoqqa turgan.

## **2. Modi di dire con le preposizioni - predlogli iboralar:**

*A caro prezzo* - Qimmat narxda

*A dire il vero* - Rostini gapirganda

*A dirla schietta* - Ochiq,oydin gapirganda

*A due mani* - Sahiy

*A mano a mano* - Sekin-sekin, bosqichma-bosqich.

*A nessuno e nascosto* - Hech kimga sir emas (hammaga ma'lum...)

*A noi!* - Boshladik! (Bizning navbat!)

*A norma di legge* - Qonunga muvofiq

## **3. “Non” (Pane) so‘zi ishtirok etgan iboralar:**

*“Buono come il pane”* – Muloyim insonga nisbatan ishlatiladi

*“Non è pane per i tuoi denti”* – (Bu narsa) Senga atalmagan, degan ma'noda ishlatiladi.

*“Per un pezzo di pane”* – Juda past narxda.

## **4. Italian tilidagi “bosh” komponentli somatik iboralar:**

*Essere una (gran) testa* – Ma'nosi - Judda zukko, aqli inson. (So'zma – so'z tarjimasi –kallasi bor).

*Testa matta, stramba* – O'zini hayratlanarli, g'alati tutadigan insonga nisbatan ishlatiladi.

*Testa calda* – G'ayrati/jahli tez odam ga nisbatan ishlatiladi.

*Testa dura* – O'jar/qat'iyatli odam ga nisbatan ishlatiladi.

*Testa di legno, d'asino, di rapa* – Aqli kech ishlaydigan odam ga nisbatan ishlatiladi.

*Testa vuota* – Kallasi bo'm-bo'sh, Javob bera olmaydigan, ma'suliyatsiz odam ga nisbatan ishlatiladi.

## **5. Italian tilidagi “ko'z” komponentli somatik iboralar:**

**Chiudere un occhio** → *O'zini hech narsa bo'lmagandek tutmoq, biror narsaga ko'z yummoq.*

**Aprire gli occhi** → *Ko'zini ochmoq (to'g'ri yo'lni ko'stamoq.)*

**A occhi chiusi** → *Osonlik bilan, katta ishonch bilan (biror ishni bajarmoq)*

**6. Modi di dire sugli animali - hayvon nomlariga oid iboralar**

**Una dose da cavallo** - *Dorining yuqori dozasi – ga nisbatan ishlatiladi (tibbiyotda)*

**Capro espiatorio** - *Hamma aybni o'z bo'yniga oladigan.*

**Salvare capra e cavoli** - *Har ikkala talabni ham qondirmoq/qoniqtirmoq.*

**Essere come una cicala** - *Kun o'tariga yashab, pulni sarflaydigan.*

**Essere come una formichina** - *Pulni tejaydigan va kelajakni o'ylaydigan bo'lish.*

**Fare la civetta** - *Ahmoqona gapirib e'tiborni tortmoq.*

**Aver la memoria come un elefante** - *Juda zo'r xotiraga ega.*

**7. Modi di dire con i colori - rang – tus nomlari ishlatilgan iboralar:**

**Vedere nero** - *Hammasini salbiy jihatdan ko'rish.*

**Essere nero** - *Juda yomon kayfiyatda bo'lish.*

**Vedere rosso** - *Jahli chiqqan.*

**Essere rosso dalla vergogna** - *Juda tortinmoq/uyalmoq.*

**Dare il disco rosso** - *Bir narsani to'xtatmoq.*

**Vedere rosa** - *Narsalarni ijobiy jihatdan ko'rish.*

**8. Modi di dire sul tempo - vaqt so'ziga oid iboralar:**

**A tempo** - *Vaqtida*

**A tempo avanzato** - *Bo'sh vaqtlarda*

**Ad un tempo** - *Bir vaqtda*

**Col tempo** - *O'z vaqti bilan, o'z vaqtida*

**9. Modi di dire sulla famiglia - oila mavzusiga oid iboralar:**

**Fare famiglia con qd** - *Biror kishi bilan birga yashash*

**Figlia di famiglia** - *Yaxshi oilaning qizi*

**Figlio di famiglia** - *Taniqli oila farzandi*

**Farsi una famiglia** - *Oila qurish*

**Tenere famiglia** - *Oilani birlashtirib ushlab turish*

**10. Modi di dire sulla terra - yer so'zi ishlatilgan iboralar:**

**Cadere a terra** - *Muvaffaqiyatsizlikka uchrash, qulash.*

**A fine terra** - *Dunyoning chekkasida*

**Ci corre quanto dal cielo alla terra** - *U yerdan osmon qadar uzoqda*

*Esserci differenza quanto dal cielo alla terra - Yer bilan osmonchalik farqi bo'lmoq*

**11. Modi di dire sulla luna - oy va quyosh so'zlari ishlatilgan iboralar:**

*Colpo di luna - Tasodifiy ehtiros*

*Luna di miele - Asal oyi*

*Vivere nel mondo della luna - Dunyodan tashqarida, boshqa dunyoda yashamoq*

*Levare le pecore dal sole - Biror narsani yashirmoq*

*Mangiare un poco di sole - Quyoshda toblanmoq*

**12. Modi di dire sulla parola e parlare - so'z va so'zlashga oid iboralar:**

*Ritira la parola! - So'zlaringni qaytarib ol*

*Rubare la parola in bocca a qd - Birov aytmoqchi bo'lgan narsani boshqasi ilg'ab oldindan aytib qo'yish*

*Senza dir parola - Bir so'z demasdan*

Obrazlilik muammosini o'rganish tilning butun frazeologik tizimini obrazli tashkil etilganini aniqlashga yordam beradi. Obrazning frazeologiyadagi asosiy vazifasi – g'oya, fikrni ta'sirchanrok qilib ifodalab berishdir. Frazeologik birlik frazeologik obrazni, o'ziga xos manzarani ifodalaydi va ularning fonida frazeologik birlikning butun ma'nosi idrok qilinadi. Inson faoliyatining hartomonlama xususiyatlari turli tillardagi frazeologik birlik xususiyatlarini ham yuzaga keltiradi, bu esa milliy frazeologiyaning paydo bo'lishining asosiy manbasidir. Frazeologizmning dalilligini, ya'ni uning ichqi shakli mavjudligini, berilgan mazmunni tegishli iboraga ma'lum darajada bevosita bog'lanish yo'li deb ta'riflash mumkin. Leksemalar asoslanishini assotsiativ mohiyatini tushunishdan kelib chiqib, olam manzarasiga murojaat etish kerak va asoslarni ontologik mohiyatini nolisoniy voqelikning hodisasi sifatida aniqlash kerak. Tildagi inson faktorini lingvokulturologik tahlili, shuningdek turli millat vakillarining nutqiy kommunikatsiya jarayoniga jiddiy e'tibor chet tilini o'rganish va anglashdagi yangi imkoniyatlarni ochib berishga yordam beradi.

## **XULOSA**

Inson dunyoni, eng avvalo, ijtimoiy tajriba prizmasi orqali qabul qilsada, biroq konkret tarixiy davrning har bir individiga o'zining olam manzarasi xos. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida doimiy kommunikatsiya jarayonida bo'lgani bois muloqot jarayonida shakllanishida o'zi qatnashmagan tayyor dunyoqarashga ega bo'ladi. [2 - 10 b.]Turli xalqlarning olamning lisoniy manzarasini batafsil o'rganish, tillarda madaniy qadriyatlarni kodlashtirish qay tarzda sodir bo'layotganini yaxshiroq



tushunish imkonini beradi va bu, o'z navbatida, odamlarning bir-birini tushunishini yengillashtiradi.

## REFERENCES

1. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
2. Холмурадова Л.Э. “Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини. (лингвомаданий аспект)”. (PhD) диссертацияси автореферати.2017. 10 б.
3. Қудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
4. Behzod, X. (2021, June). ITALYAN TILIDA PREDLOGLAR BILAN ISHLATILADIGAN AYRIM IBORALARNING TARJIMASI XUSUSIDA. In *Conferences*.
5. Xudoyqulov, B., & Ruziboyeva, D. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'RGANILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 396-402.
6. <https://dictionary.reverso.net/italian-english/>
7. <https://en.bab.la/dictionary/italian-english/>
8. [https://www.lexilogos.com/english/italian\\_dictionary.htm](https://www.lexilogos.com/english/italian_dictionary.htm)

## **FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI MASALALARI**

**Ulug'bek Tursunov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Firdavs Boymatov**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola frazeologik birliklarning tarjimada berilishi va tarjimadagi o'ziga xosliklarni tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada berilgan iboralar tarjimasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologiya, ibora, tarjima, asliyat, ekvivalent..*

## **ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ**

**Улугбек Турсунов**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

**Фирдавс Бойматов**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются основные проблемы перевода фразеологических единиц. Теоретическая информация об фразеологизмы основана на примерах.*

**Ключевые слова:** *Фразеология, фразеологизмы, фразема, перевод, эквивалент..*

## **PROBLEMS OF TRANSLATING OF PHRASEOLOGICAL UNITS**

**Ulugbek Tursunov**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Firdavs Boymatov**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

### **ABSTRACT**

*The point of the current paper is to show some issues of translation of phraseological units. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.*

**Keywords:** *Phraseology, phraseological unit, translation, originality, equivalent.*

## **KIRISH**

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklar psixologik, kognitivsemantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etgan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma sifatida talqin etiladi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari, jumladan, frazeologik birliklar asosan til xususiyatlari asosida o'rganildi. Frazeologik birliklarning transformatsiyasi, ularning yangilanish xususiyatlari nafaqat muayyan uslubiy mahsuldorlik manbai, shu bilan birga, yangi frazeologik birliklarning shakllanish omili bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda frazeologik birliklarni transformatsion, semantik-pragmatik, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jahon tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida davr ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar yechimiga yo'naltirilgan samarador va zamonaviy metodologik hamda tadqiq usullari asosida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tilda barqarorlashgan frazeologik birliklarning o'zgarishi va ularni modernlashtirish hamda yangi tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar shakllanishining vosita va usullarini atroflicha tavsif va tahlil etish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.[1-5b.]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta'sirchanligi va obrazlilikini yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so'z birikmalari tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo'lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog'liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o'z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta'sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko'pincha mubolag'ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliliigi oshadi, yuqori ta'sirchanlik va hissiy tuyg'u yuzaga keladi.

Kishilarinng tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarni hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, tabiat hodisalari bilan muqoyasa qilishlari natijasida yuzaga kelgan turg'un birikmalarning obrazli asoslari aksariyat hollarda timsoliy mazmun kasb o'tadi. Jumladan, kishilar u yoki bu xislat timsoli sifatida muayyan bir hayvon yoki parrandani tanlar ekanlar, bunday paytda ular, shubhasiz, o'sha jonivorning hulq-atvori, tashqi ko'rinishi va hatti-harakatiga asoslanadilar. Shu tariqa muayyan shaxs yoki narsa va hodisaning o'ziga xos an'anaviy sifat, harakat va holati tavsifi

yaratiladi. Ma'lumki, tafakkur qonuniyatlari butun insoniyat uchun bir xil bo'lib, barcha tillar fikr bayon qilish ehtiyojini imkon qadar to'larok qondirish yo'lida rivojlana boradilar. Binobarin, xalqlar tafakkur yo'nalishining, hayot tajribasining asosan uyg'unligi, ularning turli-tuman xulq-atvor hamda hislat-xususiyatlarga nisbatan munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinikiga o'xshashligi turli tillar tarkibidagi ko'pchilik komparativ frazeologik birliklarning bir xil obrazli asosga ega bo'lib qolishlariga olib kelgan. [5-597 b.].

Tarjimada shaklan bir xil bo'lmasa ham mazmunan muqobil bo'la oladigan frazeologik iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, quyidagi ingliz tili iboralarni tarjima qilganda mazmunan o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin:

*Golden opportunity* - Juda zo'r imkoniyat

*The green light* – Ruxsat

*Green with envy* - Juda hasadchi, juda xavasi kelgan

*(Have a) green thumb* - Qo'li gul, bog' ishlarida malakali

*See red* - Juda jahli chiqmoq.

Yoki shunga o'xshash misollarni Italyan tilidagi iboralarni tarjima qilganimizda ham uchratishimiz mumkin. Masalan:

• *Abbassare le ali* – So'zma – so'z tarjimada Qanotini pasaytirmoq, Ibora sifatida Oddiyroq bo'lmoq, o'zini oddiy tutmoq. Bu iboraning sinonimi - *Volare più basso*.

• *Avere la memoria di un elefante* – So'zma-so'z tarjimada, Filning xotirasiga ega bo'lish. Ibora, Xotirasi juda yaxshi degan ma'noda ishlatiladi.

Masalan: “*Mio nonno si ricorda moltissime cose, ha la memoria di un elefante* – Bobom ko'p narsalarni eslab qoladi, uning xotirasi juda yaxshi.

• *Avere una fame da lupi* – Bo'ridek och bo'lish, rostdan qorni juda och.

Masalan: “*Mamma, cosa c'è per cena? Ho una fame da lupi!*” - Oyi, kechga nima ovqat bor? Men juda ochman!

• *Dare una mano* - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq

• *Alzare le mani* - Qo'l ko'tarmoq/urmoq.

• *Chiedere la mano* - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.

• *Essere in gamba* - O'zini o'nlab olgan, oyoqqa turgan.

• *In buone mani* - Ishonchli qo'llarda, himoyada bo'lmoq;

• *Fatto a mano* – Qo'lda yasalgan, yasama

• *Avere le mani lunghe* - Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq.

• *Andare con la testa bassa* - Boshi egik, uyaladigan *odam* ga nisbatan ishlatiladi.

•Dove hai la testa? – (Boshing qayerda) Kimdir, biror ishni o'ylamasdan bajarganda, aytiladi.

•Chiudere un occhio → O'zini hech narsa bo'lmagandek tutmoq, biror narsaga ko'z yummoq.

•Aprire gli occhi → Ko'zini ochmoq (to'g'ri yo'lni ko'stamoq.)

## **XULOSA**

O'zbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni to'g'ridan to'g'ri aslyiat tilidan o'zbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi.

## **REFERENCES**

9. Болтаева Барно Исакуловна. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик таҳлил) . (PhD) Диссертацияси автореферати 5 б.
10. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italian tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
11. Xudoyqulov, B., & Jumayeva, M. (2022). FRAZEOLIGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA). *Academic research in educational sciences*, 3(2), 698-706.
12. Xudoyqulov, B., & Yangiboyeva, M. (2022). ITALYAN VA INGLIZ TILLARIDAGI AYRIM RANG KOMPONENTLI IBORALARNING SEMANTIKASI. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 564-570.
13. Хайдарова, D. Z. Komparativ frazeologik birliklar va tarjima // Molodoy ucheniy. — 2020. — № 18 (308). — S. 597-599.
14. Қудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
15. <https://dictionary.reverso.net/italian-english/>
16. <https://en.bab.la/dictionary/italian-english/>
17. [https://www.lexilogos.com/english/italian\\_dictionary.htm](https://www.lexilogos.com/english/italian_dictionary.htm)

## **ФОРС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ АСАРЛАРДА АЁЛ ГЎЗАЛЛИГИ КОНЦЕПТИ**

**М. Ҳабибова**

ТошДШУ Эрон -афғон филологияси кафедраси катта ўқитувчиси

**Н. Ходиева**

ТошДШУ Эрон-афғон филологияси катта ўқитувчиси

**Д.Аҳмедова**

ТошДШУ Эрон-афғон филологияси кафедраси доценти, DSc

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада форс ва ўзбек тилларида аёл ва гўзаллик концептига оид терминлари қиёслаб ўргатилади.*

***Таянч сўз ва иборалар:** гўзаллик, концепт, когнитив, луғавий маъно, лексик – семантик*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье сравниваются термины, связанные с концептами женщины и красоты в персидском и узбекском языках*

***Ключевые слова и словосочетания:** красота, концепты, лексическое значение, лексико- семантический*

### **ABSTRACT**

*This article compares terms related the concept of woman and beauty in Persian and Uzbek*

***Keywords and phrases:** beauty, concept, cognitive, lexical meaning, lexicosemantic.*

### **КИРИШ**

Когнитив тилшуносликда концепт инсоннинг билими ва тажрибасини, ментал лексикасини, бутун олам манзарасини, миянинг концептуал ва тил тизимини, инсоннинг руҳиятини ифодаловчи восита сифатида ўрганилади. Концепт маданий универсалияларни ифодалайди ва у тафаккурда мавжуд бўлади, ўзида когнитив-рационал ҳамда эмоционал-психик мазмунни бириктиради. Лингвокультурологик концепт барча тил эгалари учун дунёқараш модели вазифасини ўтайди ва концепт миллий характернинг шаклланишига таъсир кўрсатувчи маданий омил саналади. Концептнинг тушунча ва луғавий маъно билан муносабати аниқланар экан, концептнинг айсбергга, тушунчанинг сувдан чиқиб турган айсберг учига қиёсланиши келтирилади. Концептнинг



фарқланиши мумкин. Масалан, дилбар, гўзал, барно, лобар; نازنين برنا، زيبا، زرننگ خوب، دانا، – нейтрал услубга; ёқимли, ширин, шакар, асал, содда, табиий; شیرين، نازک نازنين، شيرين،“; сўзлари сўзлашув услубига хос лексемалар ҳисобланади. Экспрессивликнинг намоён бўлиш шакллари теран тадқиқ қилган тилшунос Адҳам Абдуллаев «синтактик градация, синтактик синонимия, боғловчиларнинг махсус қўлланиши, антитеза, монолог, сукут, инверсия, такрорий гаплар, риторик сўроқ» каби услубий фигуралар «фикрнинг ўта таъсирчан ифодаланиши»га хизмат қилишини таъкидлайди. Синтактик воситалар линвопоэтикасида икки миллат маданиятига тегишли энг машҳур икки асар матн қиёсий тадқиқ қилинди. Форс ёзувчиси Содик Ҳидоятнинг “Обжи хоним” ҳикоясида онанинг икки қизи бўлиб, бири жудаям гўзал, ақлли, нозик, иккинчиси эса хулқ-атвор жихатидан ҳам, ташқи кўриниш жиҳатидан ҳам бунинг акси бўлади. Обжи хоним синглисига бўлган ҳасадини ошқора намоёиш қилмасада, хатти ҳаракатлари билан буни кўрсатиб қўяди. У дунёдаги барча гўзаллар, ҳатто синглиси ҳам ҳали унга хавас қилишларини, аёл қандай бўлиши кераклигини , бу борада ундан ўтадиган одам дунёда борми ёки йўқлигини ўзига ўзи айтиб юради. «جاودانى دنيای نشوى؟ برخوردار آن خوشى هاى از اگ دارد افسوسى چه روزه دو دنيای اين آرى.» «کرد خواهند را او آرزوى همه و خواهرش همچنين خوشگل مردمان همه بود، خواهد او مال هميشگى و» Матнда қўлланилган Обжи хонимнинг ўзига ўзи акс этган эмоционал гаплар , фарқлаш синтактик ҳодисаларнинг бадиий матн таркибидаги аҳамияти нечоғли катта эканлигини кўрсатмоқда. Ўзбек халқ эртақларида ҳам гўзал ва ақлли қизларнинг ўғай она қўлида азобланиши мотиви билан боғлиқ эртақлар талайгина. Улар орасида, шубҳасиз, энг машҳури “Зумрад ва Қиммат” эртаги саналади. Хусусан, қизларнинг тавсифи билан бошланувчи ушбу матнда ҳам синтактик параллелизм, ҳам синтактик антитеза (қаршилантириш) санъатидан моҳирона фойдаланилган. “Зумрад чиройли, одобли, мулойим, ақлли қиз экан. Уни бир кўрган киши яна кўрсам деб орзу қилар экан. Хуллас, у жуда ажойиб қиз экан. Қиммат эса ишёқмас, инжиқ ва димоғдор экан. Унинг бутун куни уруш-жанжал ва тўполон билан ўтар экан”.

Эрон миллий халқ эртаги “هوش با دختر” да ҳам худди шундай жумла келади: “دارند دوست را او ها همسايه همه بودکه زيبا ، ادب با زحمتکش، آنقدر دختر آن.” Яна бир қиёслашни келтирамиз:

Зумрад кўп чиройли, одобли, мулойим, ақлли қиз экан, уни кўрганда кўзлар қамашиб, чиройига ҳаттоки ой ҳам ҳасад қилар экан. Бутун табиат унинг яхшилигидан ором олар экан (Зумрад ва Қиммат). – گرفته، رنگ ان از هم طبيعت حتى –



(هوش با دختر) زد می لبخند هم اطرافش همه میخندید او وقتیکه  
мазмундаги муболаға ёки гипербола бадий санъатидан усталик билан  
фойдаланилган. Иккаласида ҳам қизларнинг бениҳоя гўзаллиги ойни уялтирар  
даражада. Одобию ахлоқини гапирмаса ҳам бўлади.

Бу мисоллар ўзбек ва форс халқлари лингвомаданиятидаги муштарак  
жиҳатлар: гўзалликни севиш, уни кадрлаш, унга интилиш, охир-оқибат  
эзгуликнинг ғалабаси билан боғлиқ орзу-умидларини, ишончларини акс  
эттиради.

### **ХУЛОСА**

Хулоса ўрнида гўзаллик концептининг ҳар икки тил маданиятида яққол  
акс этувчи олти жиҳатини ажратиб кўрсатишимиз мумкин.

Биринчидан, гўзаллик – эстетик категория. Бунда гўзалликнинг инсон  
руҳиятида ёқимли ҳис уйғотиши, эстетик идеал каби масалаларни мисол қилиб  
кўратишимиз мумкин. Ўзбек лингвомаданиятида Юсуф пайғамбар, Муҳаммад  
(с.а.в.) пайғамбар; инглиз лингвомаданиятида эса Исо ибн Марям (диний  
этиқодига кўра муайян фарқлар бор) эстетик идеал сифатида алоҳида тилга  
олинади. Иккинчидан, гўзаллик – лингвомаданий бирлик. Бунда гўзалликнинг  
алоҳида миллий-ментал хусусиятлари, хусусан, ўзбек лингвомаданиятида  
бокиралик гўзалликнинг муайян бир узви сифатида, инглиз лингвомаданиятида  
эса гўзаллик шахс нафсоний ва руҳоний истакларини қай даражада  
қаноатлантиришига кўра кадрланишига гувоҳ бўлишимиз мумкин.

Учинчидан, гўзаллик – лингвокогнитив бирлик. Ҳар бир шахс ва жамият  
гўзалликни ўзининг билим савияси, диди, бадий, илмий тафаккури доирасида  
англайди ва ҳис қилади. Ўзбек халқи тафаккурида гўзаллик ахлоқий  
баркамоллик сифатлари билан ўлчанса, инглиз халқи тафаккурида гедонистик  
қарашлар устувор ҳисобланади.

Тўртинчидан, гўзаллик – лингвопрагматик объект. Сўзловчининг нутқий  
акт вазияти унинг нутқига ҳам бевосита таъсир этмай қолмайди. Эрон миллий  
маданиятида ҳам, ўзбек миллий маданиятида ҳам об-ҳаво, атроф-муҳит,  
кайфият омиллари лисоний шахс дискурсив мулоқотида гўзалликни англаш ва  
ифодалашда катта аҳамият касб этади.

Бешинчидан, гўзаллик – аксиологик қадрият. Бунда ҳар икки тил  
маданиятида ҳам “ўзимники”, “бегона” тушунчалари тил эгалари нутқида  
гўзалликни баҳолаш учун муҳим рол ўйнайди.

Шунга мувофиқ равишда ўзбек ва форс тил соҳиблари нутқида гўзалликни қабул қилишга нисбатан турфа хил ундов ва ифода воситалари қўлланилишига гувоҳ бўлдик.

## REFERENCES

1. Rahmetullayevna, K. M., Mukhsumovna, S. M., & Nizametdinovna, N. M. (2020). Simultaneous transfer strategies and their description. *Journal of Critical Reviews*, 7(4), 217-220.
2. Khabibova Mukhabbat Rahmetullayevna «Use of multimedia methods in teaching foreign languages» Дистанционные возможности и достижения науки., Сборник научных публикаций, Киев, 2020
3. Khodiyeva Nozima Tulkunovna, Khabibova Mukhabbat Rahmetullayevna, Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna Past tense incomplete verb and present tense incomplete verb in Persian», Zenoda, may 26, 2021 DOI 10.5281/4810048
4. Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna, Xodiyeva Nozima Tulkunovna, Xabibova Muhabbat Rahmetullayevna «Fors tilida holat fe'llarining semantik tahlili», Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования., Москва, 2022 г. Сборник статей по материалам LVI международной научно- практической конференции. ISSN 2541- 9870
5. Xodiyeva, N. T., Ahmedova, D. R., & Xabibova, M. R. (2022). HOZIRGI ZAMON FORS TILIDA SODDA FE'L ASOSIDA TUZILGAN QO 'SHMA FE'LLARNING STRUKTUR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 534-540.

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘XSHATISH ETALONLARI VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Sodiqova S.T.,**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘xshatish etalonlarining ingliz va o‘zbek tilidagi xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi va ularning lisoniy madaniy mazmuni tadqiq etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** etalon, o‘xshatish, metafora, allegoriya, lingvomadaniy xususiyatlar, lingvokulturologiya.*

### **ETHALONS (SIMILARITY STANDARDS) IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR LINGVOCULTURAL FEATURES**

#### **ABSTRACT**

*This article focuses on the features of ethalons (similarity) standards in Uzbek and English. It also illustrates the cross-cultural similarities and differences between them.*

***Keywords:** ethalon, standard, analogy, metaphor, allegory, lingvocultural features, lingvoculturology.*

### **ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗЦОВ СРАВНЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

#### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена особенностям образцов сравнений(симуляций) на узбекском и английском языках. Статья также иллюстрирует межкультурные сходства и различия между стандартами.*

***Ключевые слова:** эталон, аналогия, метафора, аллегория, лингвокультурологические особенности, лингвокультурология.*

#### **KIRISH**

O‘xshatish turli xalqlarning madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi stilistik vositalardan biri deya olamiz. Ularda gapiruvchining kechinmalari, tasavvurlari, shuningdek, butun xalqning milliy va madaniy an‘analari muhrlangan bo‘ladi. O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur mahsuli sifatida yuzaga keladi.

O‘xshatish ham badiiy tasvir vositasi sifatida, ham stilistik trop sifatida o‘rganiladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qiymatga ega bo‘ladi,

nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatish nutqning mazmundorligi va unumdorligini oshiradi va gapiruvchi yoki yozuvchining estetik mahoratini ham ko'rsata oladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Professor Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi.[1]

«Tog'lardagi qip-qizil lola

Bo'lib guyo yoqut piyola.

Buloqlardan uzatadi suv

El ko'zidan qochadi uyqu» (H.Olimjon).

Bunda o'xshatish subyektini – lola, o'xshatish etaloni – piyola, o'xshatish asosi – yoqut, o'xshatish vositasi – go'yo. O'xshatishda chog'ishtiriladigan narsa ham asosan uning to'g'ri ma'nosida qoladi. O'rganish jarayonida o'xshatishlarning ikki turini uchratishimiz mumkin. Ular :

- 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar;
- 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar.

Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. [3.80]

Turg'un o'xshatishlar tarkibida o'xshatish obrazi, ya'ni etaloni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu unsur o'xshatishning markazini tashkil qiladi va boshqa unsurlar (o'xshatish subyektini, asosi, ko'rsatkichi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. V.Maslovaning fikricha, o'xshatish etalonlari an'anaga kirgan obrazlar sifatida xalqning dunyoni o'ziga xos idrok etishning ifodachisi bo'lganligi bilan til, madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan juda muhimdir. Chunki bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin va bu elementlar turli millatlarda turlicha ifodalanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra [5], turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turg'un o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. Masalan, tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni

sifatida o'zbek, ingliz va boshqa ko'plab tillarda faol ishlatiladi, masalan: "tulkiday ayuor", "хитрый как лиса" (rus madaniyatida), "as false as fox", "as sly as a fox", "as cunning as a fox" (ingliz tilida). Shuningdek, o'zbek tilining o'ziga xos turg'un o'xshatishlari sifatida "qo'ydek yuvosh", "arvohday ozg'in", "echkidek qaysar", "musichaday beozor" kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin. "Musichaday beozor" o'xshatish etalonida milliy-madaniy konnotatsiya mavjud, unda "beozorlik" belgisining o'zbek xalqiga xos ta'kidi yaqqol o'z ifodasini topgan.[4]

Bora-bora musichadek beozor dadam chindan ham oyimdan qo'rqishiga ishondim.(O'.Hoshimov.Ikki eshik orasi ).

Ingliz lingvomadaniyatida esa "beozorlik" timsoli sifatida "kabutar" qabul qilinganini kuzatish mumkin: As harmless as a dove (Kabutarday beozor).

She spread about her beauty for a snare, harmless as doves. (Christina Rosetti)

Yoki koreys tilida "sigirday beozor" birikmasini uchratish mumkin. O'zbek tilidagi "qo'yday yuvosh" etaloni boshqa tillarda "yuvoshlik" emas, balki qo'rqoqlik, qaramlik, bo'ysinuvchanlik, mustaqil fikrga ega emaslik belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ham o'ziga xos milliy-madaniy qarash mahsulidir.

Hamma narsaning oqibatini o'ylayverib, qo'yday yuvosh, chumchuqday qo'rqoq bo'p qopman-, Sadir nozir uning ko'zlariga qattiq tikildi.(N.Norqobilov)

People, like sheep, tend to follow a leader- occasionally in the right direction.

( Alexander Chase )

Ingliz tilida sog'lomlik, baquvvatlikni ifodalash uchun "as healthy as a goat" ( takaday sog'lom ) etaloni qo'llaniladi, o'zbek tilida esa "otday baquvvat" deb ishlatiladi.

Yes, yes. That's it. You look healthy as a goat. ( E.Xeminguey)

Xo'sh. Xo'sh. Buni qarang-a. Otday baquvvat ekansiz.

Semiz insonlar salbiy munosabat ma'nosi bildirilganda ingliz tilida cho'chqaga qiyoslanadi : He is as fat as a pig. O'zbek tilida bu o'rinda "bo'rdoqiga boqilgan qo'ydek" o'xshatishi ishlatiladi.

Yana yemishdan gapirasana!- deya o'g'liga zardasi qaynab tikildi Qo'zi qassob.-Bo'rdoqiga boqilayotgan qo'ydek yaltillab ketganingni qara (A.Obidjon.Oltin yurakli avtobola )

Qattiq bezovta, chorasiz insonlar uchun ingliz tilida " like a bat out of hell " (do'zaxdan chiqqan ko'rshapalakday), o'zbek tilida esa "oyog'i kuygan tovuqday" o'xshatishlari qo'llaniladi.

Go'zallikni ingliz lingvomadaniyatida as beautiful as a rainbow (kamalakday ), as beautiful as a picture( suratday), as beautiful as a spring time ( bahorday)

o'xshatishlari bilan beriladi, lekin o'zbek tilida bu ma'noni ifodalash uchun "oyday", "suqsurday" o'xshatishlari mavjud bo'lib, suqsur o'rdakning bir turi bo'lgan qush nomidir. Ushbu o'xshatish faqat o'zbek tiliga xos bo'lib, unda milliy-madaniy qarashni ko'rish mumkin.

Mazkur o'xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan. Demak, turli tillarda o'xshatish etalonlarining tanlanishida ham farqli milliy-etnik idrok hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aytish mumkinki, etalonlar dunyoning obrazli qiyoslanishidir. Tilda etalonlar ko'pincha turg'un qiyoslamalar ko'rinishida mavjud bo'ladi, shunga qaramay, insonning dunyoni taqqoslashdagi har qanday tasavvuri ham etalon bo'lishi mumkin. Xullas, o'xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir. Etalonlar allegorik birliklarda ham namoyon bo'la oladi. Chunki allegoriya, o'xshatish, metafora kabi stilistik troplar turli jihatlardan ham o'xshash, ham farqli jihatlarini namoyon qila oladi. O'xshatish etalonlarini lingvomadaniy jihatdan o'rganish va tahlil qilish jarayonida ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Masalan, turli madaniyatlarda, shuningdek g'arbiy mamlakatlarda kabutar - tinchlik ramzi hisoblanadi, nasroniylikda Muqaddas ruh ramzi, yarim oy - Islom dini ramzi, Xoch yoki unga o'xshash belgi - nasroniylik ramzi sanaladi. Daraxtlar, gullar, o'simliklar ham ramz sifatida qo'llaniladi. Jumladan, xrizantema Xitoyda o'lim, qabrston tushunchalarini anglatadi. Yoki qirqquloq yaponlar uchun kirib kelayotgan yangi yilda omad tilash, ruslar uchun esa o'lim, qabrston belgisi hisoblanadi. Bu kabi ramzlardan turli millatlar turli xil holatlarda ishlatishlari mumkin. Yuqorida berilgan misollar buning tasdig'i bo'la oladi. Xususan, ranglardan ham ramz sifatida keng foydalaniladi. Aksariyat xalqlarda oq - yaxshilik, qora esa - yovuzlikni anglatadi, Afrikaliklar uchun har ikkala rang ham neytral mazmun kasb etadi. Ya'ni ular uchun bu ranglar shunchaki, rang tus hisoblanadi va asosiy mazmun kasb etmaydi.

O'xshatish tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.[4.375]

"As hungry as a bear" iborasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu birikma ingliz tilida "ayiqday och" ma'nosini beradi va o'zbek tilidagi "och bo'riday" o'xshatish etaloniga teng keladi. "Och" so'zining bo'ri bilan birga ishlatilishi o'zbek lingvokulturologiyasiga xos bo'lib, o'zbek xalq ertaklaridagi och bo'ri tinglovchiga namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, mif, ertak, doston va badiiy asar qahramonlari ishtirok etgan muayyan o'xshatishlar mavjud bo'lib, ular orqali xalqning o'ziga xos

milliy madaniyatini, nutq uslublarini, va tasvir vositalarini chuqur anglab yetish mumkin. Masalan, o'zbek tilida "baquvvat, pahlavon, gavdali, juda ham kuchli, bahodir" kabi sinonim so'zlar ma'nosida ishlatiladigan "Alpomishdek" o'xshatish etaloni, ingliz tilidagi "jasur va botir" ma'nosida qo'llanuvchi "as brave as Robin Hood" o'xshatish birligi bilan sinonimlik xosil qiladi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, o'xshatish etaloni, juda ko'plab tillarda sinonimlikni hosil qila oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan birikmalar bunga misol bo'la oladi.

"Биҳабитс" деб аталадиган одоб-ахлоқ қоидалари қуйидаги тушунчаларни ўз ичига олади - бошқа одамларнинг хатти-ҳаракатларига реаксиялар, шунингдек, уларнинг ўтмишдаги ёки келажакдаги хатти-ҳаракатларига муносабати ва бу муносабатнинг аниқ ифодаси. Биҳобийлар ҳис-туйғуларимизни айтиш ёки тасвирлаш билан ҳам, ифодаси билан ҳам (ҳис-туйғуларнинг тўкилиши маъносида) яққол боғлиқлик кўрсатсалар ҳам, барибир иккаласидан фарқ қилади (3, 126-бет).

Бир қатор тадқиқотчиларнинг фикрича, Ж.Остиннинг бу борадаги позициясининг туб камчилиги шундаки, у "иллокацион акт" ва "иллокацион

феъл” тушунчаларини ажратмайди (2, 14-бет). Нутқ актининг замонавий типологияси, асосан, Ж.Сearл таснифига асосланади, у бешта асосий турни ажратади: кўрсатмалар, кўрсатмалар, кўрсатмалар, шунингдек, ифодали ва декларатив актлар (4, 181-188-бетлар).

Шуни таъкидлаш керакки, ҳозирги вақтда тадқиқотчиларда у ёки бу нутқий ҳаракатни маълум бир прагматик турга нисбатлаш бўйича ягона нуқтаи назар мавжуд эмас ва шунинг учун нутқ актининг ажратилган турлари сони инлокацион функтсияга қараб ўзгаради.

Демак, Г.Г.Почептсов нутқий ҳаракатларнинг қуйидаги турларини ажратади: констататив, ваъда берувчи, ўзгарувчан, кўрсатма ва сўроқ (5, 271-б.). Кўриб турганингиздек, танланган нутқий ҳаракатлар жумлаларнинг прагматик турларига тенглаштирилган. В.В.Богданов томонидан берилган яна бир таснифда нутқий ҳаракатнинг 10 тури ажратилади: декларатив, сўроқ, кўрсатма, гаплар, ваъда, рухсат берувчи, ижролар, кўрсатмалар, тақдимотлар, қондириш. Иложи ҳаракатларнинг ушбу ро‘йхати нутқий ҳаракатларнинг мавжуд синфларини янада кичик синфларга бо‘лиш имкониятини назарда тутаяди: масалан, директивалар доирасида инунуктивлар, реквизитлар ва ҳоказолар алоҳида ажратилади (6, 53-58-бетлар).

Хушмуомалалик муаммоси нуқтаи назаридан нутқ акти назарияси доирасидаги бошқа тадқиқотлар қизиқиш уйғотади. Шундай қилиб, немис тадқиқотчиси Д. Вундерлих саккизта иллокацион турни тақлиф қилди: директивалар (сўровлар, буйруқлар, талаблар, кўрсатмалар ва бошқалар); кўрсатмалар (ваъдалар, таҳдидлар ва бошқалар); сўроқ (саволлар); тақдимотлар (баёнотлар, хабарлар ва бошқалар); қониқиш (кечирим, тилаклар ва бошқалар); рад этиш (ваъдани бекор қилиш, тасдиқлашни рад этиш ва бошқалар); эълонлар (эълонлар, учрашувлар ва бошқалар); вокативлар (чақирувлар, мурожаатлар ва бошқалар) (7, 183-бет). Шуниси эътиборга лойиқки, Д. Вундерлих асл функтсияни бажарадиган, яъни қабул қилувчида, масалан, директив ва таъсирчан жавобни уйғотадиган ўша иллокацион типдаги коммуникантларнинг диалогик ўзаро таъсирида алоҳида ролни таъкидлайди. Д. Вундерлих аниқ ижро этувчи бўлмаган турли формал воситалар билан ифодаланишни ўзгартириш муаммосини, гапнинг лисоний шакли билан унинг ифода кучи ўртасидаги номувофиқликни ўрганишга алоҳида эътибор беради.

Шуни таъкидлаш керакки, турли таснифлар билан бир қаторда нутқ акти номларида ҳам номувофиқликлар мавжуд. Демак, нутқий ҳаракатнинг бир

турини турли муаллифлар турлича аташади: бихабитив (3), экспрессив (4), одоб-нутқ ҳаракати (8), нутқ одоби клишеси (9), нутқ одоби формуласи (10).

## **НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА**

Ушбу ишнинг вазифалари нуктаи назаридан алоҳида қизиқиш уйғотадиган нарса Г. Лич томонидан таклиф қилинган нутқ актларининг таснифи бўлиб, унда нутқ актларининг тўртта синфи "ўрнатиш ва сақлашнинг ижтимоий мақсади билан қандай боғлиқлигига кўра" ажралиб туради. мулойим алоқа." Бу таксономия нутқ актининг тасвирий кучи ва мулойим ўзаро таъсирни ўрнатиш ва қўллаб-қувватлашнинг ижтимоий мақсадлари ўртасидаги боғлиқлик принтсипига асосланади. Г.Лич таснифида нутқий актнинг қуйидаги синфлари ажратилади.

1. "Рақобатбардош" нутқий ҳаракатлар (рақобат тури): уларнинг иллокацион мақсади коммуникантларнинг ижтимоий мақсадлари билан мос келмайди. Деярли барча директивалар ушбу нутқий ҳаракатларга тегишли бўлиши мумкин.

2. "Байрам" нутқий ҳаракатлари (конвивиал тип): уларнинг иллокацион мақсади коммуникаторларнинг ижтимоий мақсадларига тўлиқ мос келади. Бу гуруҳга одоб-ахлоқ формулалари ва бошқа нутқ ҳаракатлари, масалан, жумлалар киради.

3. "Ҳамкорлик қилувчи" нутқ акти (қўшма тип): иллокацион мақсад ижтимоий мақсадларга бефарқ. Бу нутқий актларга вакиллик ва декларатив актлар киради.

4. «Конфликт» нутқ акти (конфликт тури): иллокацион мақсад ижтимоий мақсадларга зиддир. Буларга баъзи комиссиялар киради (11, п.104).

Г.Лич таксономиясида хушмуомалалик категорияси нутқий ҳаракатларнинг дастлабки икки гуруҳи – "рақобатчи" (рағбатлантирувчи нутқ актлари) ва "вербал" (одобли нутқ актлари) билан бевосита боғлиқдир. Бирок, бу гуруҳларда нутқ акти, одоблилик тамойили, нутқ актидаги вазифаларни бажаради. Агар нутқ одоб-ахлоқ актида унга риоя қилиш мулоқотнинг хушмуомалалик даражасини оширсан, унда рағбатлантирувчи нутқ актида унинг вазифаси "текислаш", "одобсизликни камайтириш" дир. «Ҳамкорлик қилувчи» нутқ актида одоблилик принтсипининг амал қилиши бузилади, «зиддиятли» нутқий ҳаракатнинг иллокацион мақсади эса одобга риоя қилишни амалда истисно қилади.



Шубҳасиз, турли терминологик нутқ акти ва маълум даражадаги нутқ акти учун юқоридаги таснифлар нутқ актининг бир қатор умумий хусусиятларини очиб беради. Бироқ, шунга қарамай, нутқ актининг типологияси муаммоси ҳали аниқ ечим топмаган ва бугунги кунда нутқ актида нутқ актининг умумий қабул қилинган ягона таснифи мавжуд эмас. Ўз олдимизга бундай вазифани қўймасдан, биз фақат хушмуомалаликка "реакция" қиладиган нутқ турларини ажратиб кўрсатамиз.

Булар, биринчи навбатда, рағбатлантириш (ёки бошқа терминологияда "директив") нутқ ҳаракатларидир. Синтактик даражада тилшунослар уларни нутқий ҳаракат, рағбатлантирувчи гаплар сифатида кўрадилар. Ва мотивацион баёнотларнинг нутқ акти модели Ж. Сearл (4), Г.Г. томонидан нутқ актларининг таснифларига асосланган схема билан ифодаланиши мумкин. Почептсов (5), шунингдек, А.В Дорошенко (12) ва Л.П. Чахоян (13) томонидан аниқланган директив нутқ актларининг моделлари аслида кўрсатма бўлиб, улар ўз навбатида нутқ актига кўра икки кичик гуруҳга бўлинади:

- А) инъекция (буйруқ, тайинлаш, тақиқлаш),
- Б) тафсилотлар (сўров, илтимос)

Демак, нутқ актини рағбатлантиришнинг умумий актига батафсил тўхталиб ўтамиз. Рағбатлантирувчи нутқ ҳаракатлари "хавфли коммуникатив ҳаракатлар" деб номланиши муҳимдир. Бу қуйидаги ҳалокат акти билан изоҳланади. Агар сиз кимгадир буйруқ берсангиз ёки илтимос билан ҳаракат қилсангиз, сиз қабул қилувчи буни бажарадиган нутқ ҳаракатисиз. Агар сизнинг гап қурилишингиз нотўғри бўлса ва суҳбатдошингиз сизнинг устунлигингизни қабул қилмаса ёки сизнинг танишлигингиз даражаси етарли эмас деб ҳисобласа, у буюртма ёки сўровни бажаришдан бош тортиши мумкин (14, 58-бет).

Ушбу изоҳ шуни кўрсатадики, рад этиш хавфи даражаси вертикал (статус) ва горизонтал (ижтимоий) масофага боғлиқ. Инглиз тилидаги мулоқотда коммуникантлар орасидаги ижтимоий масофа тарихий жиҳатдан катта ва яқинлик (бирдамлик) даражаси паст бўлганлиги бўлганлиги сабабли, нутқ актининг юкланишини, таҳдидини минималлаштирадиган нутқ актларидан фойдаланиш зарурати туғилади (14).

Тадқиқотчилар мулоқотда рағбатлантирувчи ниятларнинг кўплигига қайта-қайта ишора қилганлар (11; 8). Шундай қилиб, "Мен буни қилишингни хоҳлайман" ("Мен сени х қилишингни хоҳлайман") оғзаки прагматик маъноси нутқ актининг оғзаки ҳаракатлари орқали амалга оширилади: бу буйруқ,

илтимос, илтижо, таклиф, маслаҳат, ва ҳоказо бўлиши мумкин. Олимлар уларни оғзаки тасниф деб аташади ва оғзаки таснифни таклиф қилишади. Б. Фрейзер, хусусан, сўров, буйруқ, таклиф, кўрсатма, илтимосномани реквизитлар тоифасига қаратади, унга кўра ҳаракатлар кўпинча ҳаракат амалга оширилади, истаклар, тингловчини бажаришга мажбур этади (15, .75-бет). Ж.Сеарлга кўра буйруқ, талаб, ибодат, маслаҳат, таклиф, руҳсат бериш нутқи ва бошқалар билан бир қаторда буйруқ нутқ актидаги илтимосни ҳам ўз ичига олади, чунки бу барча нутқий ҳаракатларнинг ифодаланиши тингловчини бирор ҳаракатни бажаришга мажбурлашга уриниш (“бу ҳаракатларнинг иллокацион маъноси шундан иборатки, улар сўзловчининг тингловчини бирор нарса қилишга мажбурлаш уринишларини ифодалайди”) (4, 11-бет). Бундай назарияга кўра бир хил нутқий актлар - директивалар ёки деталлар номлари остида бирлаштирилади.

Шундай қилиб, В. Лабов ва Д. Фансчел буйруқ (“уйга кел!”), илтимос (“илтимос, уйга кел?”), таклиф (“уйга келишга вақтинг борми?”) ва ишора (“энди кеч!”)ни ўз ичига олади. Шуни таъкидлаш керакки, нутқ ва тил дизайнига қарамай, ушбу баёнотларнинг ҳар бирида гапирувчи битта истакни билдиради - адресатни уйга қайтишга ундаш (16).

## **ХУЛОСА**

Адабиётларда биз ҳамкорлик тамойилига нисбатан хушмуомалалик тамойилининг мақомига оид турли қарашларни учратамиз (17). Бир қатор асарларда хушмуомалалик тамойили ҳамкорлик тамойилига кўшимча сифатида қаралади ва биринчилардан бўлиб Грис назариясини хушмуомалалик ҳодисасига нисбатан қўллаган Робин Лакофф. Демак, Р.Лакофф томонидан илгари сурилган хушмуомалалик ҳақидаги илк назариялардан бири коммуникантларнинг хулқ-атвори учун кўшимча қоидалар тўплами холос (18).

Нутқ актини таснифлашдаги асосий қийинчилик шундан иборатки, нутқий актларининг тил бирликлари бир хил оғзаки-прагматик маънони билдира олади ва аксинча, бир хил лисоний шаклга, бир хил лингвистик кўринишга эга бўлган гаплар нутқий актга эга бўлиши мумкин.

## **REFERENCES**

1. Parret H. Discussing language. The Hague-Paris: Mouton, 1974
2. Кобозева И.М. Теория речевых актов как один из вариантов речевой деятельности // Новое в зарубежной лингвистике, вып.17: Теория речевых актов. М.: Прогресс, 1986а. – С. 7-21

3. Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962.
4. Searle J.R. A taxonomy of illocutionary acts // Language, mind, and knowledge. Minnesota studies in the philosophy of science, 7, 1975b. – Pp. 344-369.
5. Почепцов Г.Г. Предложение // Теоретическая грамматика современного английского языка. М.: Высшая школа, 1981. – С. 164-281.
6. Богданов В.В. Речевое общение: Прагматические и семантические аспекты. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1990.
7. Wunderlich D. Meaning and context-dependence // Semantics from different points of view. Berlin, 1975. – Pp. 183-208.
8. Формановская Н.И. Коммуникативно-прагматические аспекты единиц общения. М.: Ин-т рус. яз. им. А.С. Пушкина, 1998.
9. Ступин Л.П., Игнатъев К.С. Современный английский речевой этикет. Л.: Изд-во ЛГУ, 1980.
10. Третьякова Т.П. Английские речевые стереотипы: функциональносемантический аспект. Санкт-Петербург: Изд-во Санкт.-Петерб. ун-та, 1995.
11. Leech G. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014.
12. Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты и их интерпретация в тексте (на материале английского языка). Автореф. дис ... канд. филол. наук. М., 1986.
13. Чахоян Л.П. Речемыслительные процессы и значение высказывания// Предложение и текст; семантика, прагматика и синтаксис / Отв. ред. В.В. Богданов. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1988. – С. 10-15.
14. Fasold R. The Sociolinguistics of Language. Cambridge: Basil Blackwell, 1990.
15. Fraser B. “Whither politeness” // Lakoff R & Ide S. (eds.) Broadening the Horizon of Linguistic Politeness. Philadelphia: John Benjamins, 2005. – Pp. 65-83.
16. Labov W., Fanshel D. Therapeutic discourse: Psychotherapy as Conversation. New York: Academic Press, 1977.
17. Ларина Т.В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. М.: Изд-во Рос. ун-та дружбы народов, 2003.
18. Lakoff G. Thinking Points: Communicating Our American Values and Vision. N.Y.: Farrar, Straus and Giroux, 2006.

## УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИНИНГ ДЕМОГРАФИК ВА СОЦИО- МАДАНИЙ ЖИҲАТЛАРИ

**Қурбоналиева Ҳулкар**  
ТДИУ катта ўқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада урбанизация жараёнининг дунё мамлакатларининг деярли барчасида жадаллик билан амалга ошаётганлиги бу ҳолат уни ўрганишида давом этиши зарурлиги борасида асослар келтирилган. Бундан ташқари шаҳар муҳитининг аҳоли соқцио-маданий қиёфасига қай даражада таъсир кўрсатиши ҳақида баён этилган.*

*Калит сўзлар : шаҳар, урбанизация, мегаполис, саноат ишлаб чиқариши, соқцио-маданий ривожланиши, миллий ўзлиқни англаши*

### ABSTRACT

*This article argues that the process of urbanization is taking place rapidly in almost all countries of the world, and that it is necessary to continue its study. It also describes the extent to which the urban environment affects the socio-cultural image of the population.*

*Keywords: urban, urbanization, megalopolis, industrial production, socio-cultural development, national identity*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье утверждается, что процесс урбанизации происходит стремительно практически во всех странах мира, и необходимо продолжать его изучение. Также описывается, в какой степени городская среда влияет на социокультурный образ населения.*

*Ключевые слова: урбанизация, урбанизация, мегаполисы, промышленное производство, социокультурное развитие, национальная идентичность.*

### КИРИШ

Шаҳар – аҳолиси, асосан, саноат, савдо, шунингдек, хизмат кўрсатиш, бошқарув, фан ва маданият соҳаларида банд бўлган йирик аҳоли манзилгоҳи. Шаҳар – бевосита қишлоқ хўжалиги билан банд бўлмаган аҳоли тўпланган марказ. У атрофидаги туманлар учун маъмурий ва маданий марказ бўлибгина қолмай, балки уларнинг жойлашиши ва ўсишига ҳам катта таъсир кўрсатувчи омил ҳамдир<sup>262</sup>.

<sup>262</sup> Shahar aholisi butun jahon aholisining 47,5% dan ortig'ini tashkil etadi.

Аҳоли пунктларига шаҳар мақоми берилиши учун аҳоли сони ва бажарадиган вазифаси: саноат ишлаб чиқариш, ташкилий-хо‘жалик, маданий-сиёсий, маъмурий ва ҳ.к.лар бош мезон ҳисобланади. Аҳоли манзилгоҳларини шаҳар тоифасига ўтказиш маълум қонуний тартибда амалга оширилади ҳамда чегараси белгиланади. Турли мамлакатларда шаҳар мақомини олиш мезони турлича.

Масалан, Дания ва Испанияда аҳоли сони 250 киши, Грузия ва Туркменистонда 5 минг, Тожикистон ва Қирғизистонда 10 минг, Россияда 5—12 минг, Японияда 25 минг киши бўлиши керак<sup>263</sup>.

ХХРда 1955 йилдан бери шаҳар (ши) сифатида аҳоли сони 100мингдан ошган ҳудудлар тан олинган<sup>264</sup>. 1978 йилги административ ислоҳот натижасида мазкур кўрсаткич 3 мингача туширилди. Бунда аҳолининг 85 фоизи қишлоқ хўжалигидан бошқа соҳаларда банд бўлиши лозимлиги белгиланган. Мазкур ислоҳот туфайли мамлакатнинг урбанизация кўрсаткичи кескин кўтарилган<sup>265</sup>. Ўзбекистонда эса аҳоли сони 7 мингдан юқори бўлиши талаб этилади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Шаҳарларнинг жадал ўсиши ва шаҳар аҳолисининг кўпайиши ҳам имкониятларга, ҳам қийинчиликларга олиб келади. Бир томондан, шаҳарлар, айниқса йириклар, иқтисодий ўсиш ва ривожланиш марказларига, бизнес ва одамлар учун имкониятларни жамлаш марказига айланмоқда. Бошқа томондан, шаҳар инфратузилмаси ҳар доим ҳам корхоналар ва шаҳар аҳолисининг тез ўсиб бораётган эҳтиёжлари билан доимо ҳамқадам бўлиб, бу шаҳарларда яшаш шароитининг ёмонлашишига ва атроф-муҳитнинг ёмонлашиши, коммунал хизматларнинг этишмаслиги ва сифати, касалликларнинг кучайиши ва одамларнинг соғлиғига таҳдид каби муаммоларни келтириб чиқаради. Буни Осиё минтақасидаги йирик мегаполислар мисолида яққол кўриш мумкин.

Урбанизация иқтисодий ва демографик жиҳатдан жадал ривожланиб бораётган минтақа учун ҳам Марказий Осиё учун жиддий муаммога айланиб бормоқда.

<sup>263</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shahar>

<sup>264</sup> Россия и Китай: история и перспективк сотрудничества. материалы V международной научно-практической конференции. Отв. ред. Д.В. Буяров, Д.В. Кузнецов, Н.В. Киреева. - 2015. - Вып. 5. - С.270

<sup>265</sup> Погудина Ю. Ю. Особенности процесса урбанизации в КНР (1978—2012 гг.): пример формирования Чжэньчжоуской агломерации в провинции Хэнань. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. — СПб., 2016. — С. 55. Режим доступа: <http://www.spbiiran.nw.ru/wp-content/uploads/2016/01/диссертация-Погудина-2016.pdf>

Бугунги кунда минтақа аҳолиси 65,6 миллион кишидан ошади, уларнинг 43,8 фоизи шаҳарларда истиқомат қилади. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг прогнозларига кўра 2050 йилга келиб минтақа аҳолиси 1,3 баравар кўпайиб, 82 миллион кишига этади, шу жумладан 55,2% шаҳарларда истиқомат қилади. Бироқ, таркибий ўзгаришлар ва бошқа маъмурий, ижтимоий ва иқтисодий омиллар натижасида шаҳар аҳолисининг ўсиши юқори бўлиши мумкин.

Мустақиллик Марказий Осиё мамлакатларида урбанизация жараёнларининг ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатди, ҳар бир давлатда ўзига хос сиёсий ва иқтисодий ислохотлар амалга оширилди. Ушбу жараёнларнинг динамикаси ва асосий сабаблари ҳар бир мамлакатда турлича бўлиб, минтақа ҳукуматлари қўйган шаҳар муаммоларига жавоблар ҳам турлича. Шу билан бирга, қуйидаги қийинчиликлар бугунги кунда минтақадаги барча давлатлар учун хосдир.

Қишлоқ ҳудудларда яшовчи аҳолининг шаҳарлар интилиши табиий ҳолат. Бу жараённи доимий назорат қилиб бориш лозим. Акс ҳолда айрим давлатлардаги каби мамлакат ҳудудларида аҳолининг нотекис жойлашуви бир ҳудудда аҳолининг хаддан ташқари ортиб кетиши, айрим ҳудудларнинг эса аҳолисиз қолишига, бу эса ўз навбатида иқтисодий муаммоларни, жамиятдаги норозилик ва бегоналашувни, турли девиантлик ва суицидал ҳолатларни, жамият аҳолиси ўртасида бой ва камбағал қатлам ўртасидаги фарқнинг ортиб кетиши каби нохушликларни келтириб чиқаради.

Мисол тариқасида Хитой Халқ республикасини кўриб чиқсак. Гарчи сўнгги йилларда Хитой ўз иқтисодий ўсишлари билан дунё ҳамжамиятини лол қолдираётган бўлсада, жамият ичида кўплаб муаммоларга эга. Мазкур мамлакат учун юқори урбанизация даражаси хос. 1979 йилдан 2014 йилга қадар шаҳарлардаги аҳоли улуши 19,0 % дан 54,8 % гача ошди 266 . Ҳудудлар орасидаги иқтисодий фарқлар аҳолининг мамлакат бўйлаб нотекис жойлашганига сабаб бўлмоқда, натижада бойлар ва камбағаллар орасидаги фарқ жуда катта. Ўрта қатламни шакллантиришда қатор муаммоларга дуч келинмоқда. Мамлакатда аҳолининг патриотик руҳи ва миллий ўзликни англаш даражаси юқори бўлсада ижтимоий-психологик ҳолат ва ўз ҳаётидан қониқиш масаласида муаммолар мавжуд.

<sup>266</sup> Россия и Китай: история и перспективк сотрудничества. материалы V международной научно-практической конференции. Отв. ред. Д.В. Буяров, Д.В. Кузнецов, Н.В. Киреева. - 2015. - Вып. 5. - С.270

Аҳолини рўйхатга олиш маълумотларига кўра, 1926 йилдан 1989 йилгача Ўрта Осиё республикалари аҳолиси 3,6 баравар кўпайган (13,7 миллиондан 49,4 миллионгача). Ушбу даврда шаҳар аҳолисининг улуши ҳам уч баравар кўпайди - 13,4% дан 45,6% гача. 1950 йилдан 1990 йилгача бўлган даврда ушбу минтақа мамлакатлари аҳолисининг ўртача умр кўриш давомийлиги 12 йилга ошди, ўлим даражаси деярли ярмига камайди ва туғилишнинг ўртача даражаси йилига 34,8 ни ташкил қилди<sup>267</sup>.

1926-1989 йилларда Ўзбекистон аҳолиси 4,3 бараварга - 4,6 миллиондан 19,9 миллионгача кўпайди, шаҳар аҳолисининг улуши деярли икки баравар кўпайди (22 фоиздан 41 фоизгача). Шу билан бирга, мутлақ маънода республика шаҳарлари аҳолиси йиллар давомида янада ўсди (8 баравар - 1 миллиондан 8,2 миллион кишига). Урушдан олдинги даврда (1924-1941) 1959-1970 йилларда аҳолининг ўртача йиллик ўсиш суръати 2,5% ни ташкил этди. - 4,1% га этди ва 1970-1990 йилларда. 3.15% га тушиб кетди. Ўсишнинг асосий улуши қишлоқ аҳолисида бўлиб, 1990 йилга нисбатан 1959 йилга нисбатан 2,2 марта кўпайди.

Урбанизация жараёнлари уруш даврида ва урушдан кейинги йилларда ҳам собиқ иттифокнинг бошқа ҳудудларидан одамларнинг оммавий кўчиб келиши эвазига рағбатлантирилди. 1966-1970 йилларда. шаҳарларда (асосан Тошкент шаҳрида) РСФСР, Украина ва бошқа иттифоқ республикаларидан аҳолининг кўчиши ҳисобига кўпайиш кузатилди. Бироқ, 70-йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб ташқи миграция нафақат маҳаллий, балки қишлоқ жойларидан ҳам маҳаллий бўлмаган (асосан рус) аҳолининг республикадан чиқиб кетиши туфайли пасайди. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда шаҳарлар ривожланиши бўйича муайян ишлар амалга оширилди. Шаҳар аҳолисининг салмоғи 1991-йилдаги 40,3фоиз ўрнига 2018-йилга келиб 50,6 фоизга ўсди. 2012-2018-йилларда шаҳар аҳолиси сони 1,4 млн. кишига ёки 9,2 фоизга ортди (шу даврда қишлоқ аҳолиси мос равишда 1,7 млн. киши ва 11,9 фоизга кўпайди). Аҳолининг табиий ҳаракати (102,0%), миграция (-13,4%) ва маъмурий-ҳудудий ўзгаришлар (11,4%) шаҳар аҳолиси сони ўсишида асосий омил бўлиб хизмат қилган. Бундай ўсиш суръатларига асосан маъмурий ўзгаришлар, яъни 2009-йилда мингга яқин қишлоқ аҳоли пунктларининг шаҳар посёлкаларига айлантирилиши ҳисобига эришилди.

Шу билан бирга, урбанизация жараёнларида қатор номуносибликлар кузатилмоқда:

<sup>267</sup> World Population Prospects: The 2010 Revision. UNDESA Population Division. New York. 2011

- урбанизация даражаси бўйича мамлакатимизнинг жаҳонда тутган ўрни паст. БМТ халқаро рейтинг кўрсаткичлари бўйича Ўзбекистон 2018-йилда ушбу йўналишда 233 мамлакат орасида 155-ўринни эгаллади. Ваҳоланки, бу соҳада дунёдаги ўртача кўрсаткич 55,3 фоиз бўлиб, у Россияда 74,4 фоизни, Туркияда 75,1 фоизни, Қозоғистонда 57,4 фоизни, Туркманистонда 51,6 фоизни ташкил этади;

- охириги 10 йил мобайнида (2009-2018-йй.) мамлакатимизда урбанизация даражаси 51,7 фоиздан 50,6 фоизга камайди. Хоразм (33,3%), Сурхондарё (35,5%), Бухоро (37,4%) ва Самарқанд (37,4%) вилоятларида урбанизация даражаси айниқса паст;

- 2012 йилдан ҳозирга қадар шаҳарлар сони ўзгармади (119 та) ва уларда 10,1 млн. киши истиқомат қилади. Мамлакат шаҳарлар тармоғининг асосини кичик шаҳарлар (жами шаҳарлар таркибидаги улуши 68,4 фоиз) ташкил қилади ва уларнинг жами шаҳар аҳолисидаги улуши 20,5 фоизга тенг. Шаҳарлар ривожланишининг ўзига хос жиҳатларидан яна бири шундаки, шаҳар аҳолисининг деярли  $\frac{1}{4}$  қисми (24,2%) пойтахт - Тошкент шаҳрида истиқомат қилади. Ўтган давр ичида 6,4 млн. киши (38,7%) истиқомат қиладиган шаҳар посёлкалари сони 1065 тадан 1071 тага кўпайди. Шаҳар посёлкалари сонининг жуда кўплиги ҳам Ўзбекистонда шаҳарлар тармоғининг ўзига хос жиҳати сифатида талқин қилиниши мумкин;

## **ХУЛОСА**

Умуман олганда Ўзбекистонда кечаётган жадал ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ислохотлар, ҳудудлардаги миграцион вазият, аҳолининг демографик ўсиш суръатлари, диний ва миллий хилма-хиллигимиз, ер-сув имкониятлари, ахборот оқимининг жадаллашуви, саноатлашиш эҳтиёжи каби критерийлар қатори кичик ва ўрта шаҳарлар аҳолисининг соcio-маданий ривожланишига доимий равишда таъсир кўрсатади. Кичик ва ўрта ҳудудлардаги ижтимоий-иқтисодий ва соcio-маданий ривожланиш мамлакат ривожининг асосини ташкил этади. Демак, ушбу жараёни тизимли равишда ва мониторингли социологик тадқиқотлар асосида ўрганиш лозим.

## **REFERENCES**

1. Россия и Китай: история и перспективк сотрудничества. материалы V международной научно-практической конференции. Отв. ред. Д.В. Буяров, Д.В. Кузнецов, Н.В. Киреева. - 2015. - Вып. 5. - С.270



- 
2. Погудина Ю. Ю. Особенности процесса урбанизации в КНР (1978—2012 гг.): пример формирования Чжэньчжоуской агломерации в провинции Хэнань. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. — СПб., 2016. — С. 55. Режим доступа: <http://www.spbiiran.nw.ru/wp-content/uploads/2016/01/диссертация-Погудина-2016.pdf>
  3. Россия и Китай: история и перспективк сотрудничества. материалы V международной научно-практической конференции. Отв. ред. Д.В. Буяров, Д.В. Кузнецов, Н.В. Киреева. - 2015. - Вып. 5. - С.270
  4. World Population Prospects: The 2010 Revision. UNDESA Population Division. New York. 2011

## **ZAMONAVIY TALABALAR KAMPUSLARINING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA ENERGIYA SAMARADORLIGI**

**Setmamatov Maqsud Bekturdiyevich**

UrDU Texnika fakulteti, Arxitektura kafedrasini mudiri,  
Arxitektura fanlari nomzodi, dotsent.

**Abdullayev Rahimberdi Qadam o'g'li**

UrDU Magistratura bo'limi, 211- Bino va Inshootlar arxitekturasi  
yo'nalishi magistranti

E-mail: [abdullayevrahimberdi@gmail.com](mailto:abdullayevrahimberdi@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada talabalar kampuslarining boshqa davlatlardagi qurilgan zamonaviy energiya tejovchi va ekologik toza materiallardan foydalangan holda loyihalangan binolari taxlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** kampus loyixasi, ekologik toza, energiya tejash ...

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируются здания студенческих городков, спроектированные с использованием современных энергосберегающих и экологически чистых материалов, построенные в других странах.*

**Ключевые слова:** кампусный проект, экологичность, энергосбережение .

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the buildings of student campuses designed using modern energy-saving and environmentally friendly materials built in other countries.*

**Keywords:** campus project, environmentally friendly, energy saving .

### **KIRISH**

Jamiyatimiz taraqqiy etishi va zamonaviy texnologiyalarning kundan kunga yangilanib borayotganligi energiyani tejash va boshqa texnologik jarayonlarga ta'siri sezilarli darajada oshmoqda. Dunyoda ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratilib, dunyo mamalakatlarining ushbu sohaga ajratayotgan moliyaviy resurslar ko'rsatkichlari boshqa sohalarga nisbatan ortishi kuzatilgan. XX asrning 2-yarmiga kelib oliy ta'lim muassasalari soni va talabalar soni oshishi natijasida talabalar yotoqxonalariga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Universitet kampuslarini loyihalash va qurishda bu boradagi yangi eksperimental ishlanmalardan foydalanilmoqda. Zamonaviy universitet kampuslari tabiat qonunlariga muvofiq faoliyat yuritish, tabiiy muvozanatni buzmaganda ekotizimning bir qismi bo'lish uchun yaratilgan. Ekologik jihatdan ekvivalent arxitektura g'oyalari ekologik xavfsizlik va energiya

samaradorligi bilan birlashtirilgan. Bunday kampuslarni tabiiy resurslarni iste'mol qilishga munosabat tamoyiliga ko'ra o'zini-o'zi ta'minlaydigan deb atash mumkin. Ularning o'zlari tabiatning bir qismi, atrof-muhitni ifloslantirmasdan va unga "muhtoj emas".

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Talabalar shaharchasi arxitekturasi o'zini-o'zi ta'minlovchi modeli universitetning intellektual faoliyat markazi va zamonaviy ekotexnologiyalar sohasidagi ilmiy kashfiyotlar generatori sifatidagi g'oyasiga mos keladi. [1]

### **O'zini-o'zi ta'minlaydigan universitet kampuslari.**

O'zini-o'zi ta'minlaydigan universitet kampuslarini loyihalash tamoyillari XX-asr oxirida amerikalik olim Devid Orr tomonidan energiya tejaydigan binolar uchun ishlab chiqilgan postulatlariga asoslanadi. [2]

Kampusning qurilishi va ekspluatatsiyasi atrof-muhitdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish bilan bog'liq texnologiyalarni rivojlantirishga yordam berishi kerak.


1. Talabalar shaharchasi qurilishi tabiiy landshaftni ko'paytirishga, turlarning biologik xilma-xilligini oshirishga yordam berishi kerak.
2. Kampus hech qanday oqava suvni "ishlab chiqarmasligi" kerak, ya'ni binolar faqat ichimlik suvini iste'mol qilishi va oqizishi kerak.
3. Kampus sarflanganidan ko'ra ko'proq elektr energiyasi ishlab chiqarishi kerak.
4. Kampusda hech qanday zararli qurilish materiallari ishlatilmasligi kerak.
5. Kampusda ekologik toza materiallardan foydalanish kerak.
6. Kampus utilizatsiyasi atrof-muhitga zarar keltirmaydigan materiallardan foydalanishi kerak.
7. Talabalar shaharchasi o'z faoliyati uchun sarflangan xarajatlarning qat'iy hisobini yuritishi kerak.
8. Talabalar shaharchasining qurilishi va ekspluatatsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik ongini rivojlantirishga yordam berishi kerak, ya'ni kampus ekologik ta'lim vositasiga aylanishi kerak.

"O'zini-o'zi ta'minlaydigan" universitet kampuslarini qurishda qo'llaniladigan zamonaviy ekologik texnologiyalar.

Energiyani tejash texnologiyalari. Binolar doimiy ravishda derazalar (issiqlik yo'qotilishining taxminan 19%) va devorlar (issiqlik yo'qotilishining 5%) orqali issiqlikni yo'qotadi va binoda yaratilgan majburiy shamollatish va konditsionerning iqlim tizimlari zamonaviy energiya tejash standartlariga javob bermaydi. Ularning narxi ekspluatatsiya qilish, umumiy texnik xizmat ko'rsatish xarajatlaridan bir necha

baravar yuqori. Energiyani tejashni oshirishning asosiy yo'nalishlari qurilish konstruksiyalarining printsiptial jihatdan yangi turlarini joriy etish, samarali issiqlik izolyatsion materiallardan foydalanish, quyosh, shamol va yer energiyasidan foydalanishdir. Stenford universiteti (ZGF Architects) binoning tomi va jabhalarida quyosh panellaridan foydalangan. Zamonaviy o'zini-o'zi ta'minlaydigan kampusga misol qilib Kupertinoda (AQSh) qurilayotgan Apple kampusini keltirish mumkin. Norman Foster tomonidan loyihalashtirilgan kompaniyaning yangi binosi 13 ming xodimga mo'ljallangan. Talabalar shaharchasining 80% ni yashil park egallaydi, buning uchun qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar tanlangan. Talabalar kampusiga qurg'oqchil iqlimga yaxshi moslashgan, sug'orish uchun zarur bo'lgan suv miqdorini minimallashtirib, jami 7000 ta daraxt ekiladi. Kampus yangi energiya tejankor va ekologik texnologiyalardan foydalanadi. [4]

Zamonaviy jahon ilm-fanning darajasi o'z vakillarining alohida, moddiy va intellektual dunyoda yashashini nazarda tutadi va universitet majmualari arxitekturasi fan va ta'limni rivojlantirish uchun sharoit yaratishi kerak olimlarni yangi kashfiyotlar sari undaydi. Shu bois dunyoda ko'plab yangi universitet binolarida zamonaviy qurilish texnologiyalari qo'llanilib, eksperimental loyihalash usullari sinovdan o'tkazilmoqda. Yangi atama allaqachon kiritilgan – qurilish intellekt omili. Universitetlar taniqli arxitektorlarni yangi brendli kampuslar yaratishga taklif qilishadi.



**1-rasm. Apple bosh qarorgohi © Foster + Partners, Apple Inc.**

Misol tariqasida 2013 yilda Gonkong politexnika universitetida Zaha Hadid tomonidan qurilgan 15 qavatli Jokey klubi innovatsion minorasini keltirish mumkin (2-rasm). Minorada universitetning Dizayn maktabi, jumladan ko'rgazma va ma'ruza zallari, studiyalar va arxitektura ustaxonalari joylashgan. Yoshlarning jadal


rivojlanishi va yangi avlod tarbiyasining yuksak saviyasi tasvirlarini o'zida mujassam etgan bu bino me'moriy yodgorlik deb ataladi. Bino odatda "choksiz arxitektura" atamasi bilan tavsiflanadi, bu yerda silliq chiziqlar nafaqat me'moriy tuzilish, balki uning atrofidagi landshaft uchun dinamikani o'rnatadi, bu nafaqat bezak, balki jabhaning "elementi" ga aylanadi.2-rasm. [1]



**2-rasm. Gonkong politexnika universiteti kampusi. Arxitektor Z. Hadid**  
(URL: <http://www.zaha-hadid.com/archive>)



Rivojlanayotgan davlatlar ham mamlakat obro'sini oshiradigan va uning o'ziga xos belgisi bo'lgan yangi ultra-zamonaviy universitet majmualarini yaratishga intilmoqda. Bunday majmualar Chilidagi arxitektor A. Araven universiteti (2003), Perudagi UTEC muhandislik va texnologiya universiteti (2015, Grafton Architects) [3]

Standart 90 graduslik burchak tabiatda kamdan-kam uchraydi. Arxitekturada bu konvetsiyaga o'xshaydi. To'g'ri burchak ostida narsalarni yasash va yig'ish osonroq, ayniqsa, bu "narsalar" pol va devorlar bo'lsa. Ideal holda, plumb-bob qoidasiga ko'ra, to'g'ri burchak tortishish tufayli o'zining munosib o'rmini egalladi. Alejandro Aravenaning Chili universiteti uchun innovatsion markazi, Santyago Metropolitan, 90 graduslik burchak kuchining ta'sirchan namoyishidir.3-rasm. [5]



**3-rasm. Chili niversiteti Innovatsiya markazi: Alejandro Aravena.**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib Xorazim viloyati Urganch shahrida iqlim sharoitga mos holda energiya tejovchi va ekologik havfsiz talabalar yotoqxonalarini loyihalash va bunday binolar ekologiyamiz bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Xorazim viloyati iqlimi quruq va serquyoshligini inobatga olib, talabalar kampuslarini binolar bir birini soyasi bilan to'sib turadigan, binoni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun quyosh panellari bilan jihozlab va atrofidagi landshaftni iqlimimizga mos daraxt va gular bilan bezashni nazarda tutish lozim.4-rasm.



**4-rasm. Yo'lkali-xalqasimon galereyali kompozitsiya**

Bunday tipdagi kompozitsion yechimga ega bo'lgan o'rta va ko'p qavatli yotoqxonalar binolarini loyihalashda Urganch ayvoni uslubidan foydalanish nazarda tutiladi. Bunda o'rtada ochiq fazoviy muhit shakllantirib, o'rta yoki ko'p qavatli yotoqxonalar binosida birinchi qavatdan to yuqorigi qavatgacha markaziy qismida ochiq fazoviy muhit shakllantirib tomyopma qismi lessan material bilan 1,5 metr enlilikdagi yo'l-yo'l shaklda bir qator lessan bir qator quyosh paneli bilan bekitiladi. Natijada markaziy qismida qishki bog' favvoralar bilan landshaft yechimi salqin havo oqimini shakllantiradi. Talabalar ta'tildan boshqa mavsumiy issiq fasllarda ham salqin havoda galereya tipidagi yo'lakda yoki xonalar shamol aylanishiga erishiladi va dam olish imkoni yaratiladi.

### **XULOSA**

Ushbu tipdagi taklif qilinayotgan loyihamiz boshqa qurilayotgan yotoqxonalar binolaridan farq qiladi. Ilmiy yangiligi shundaki, unda faqat bugungi kundagi zamonaviy arxitektura bilan bir qatorda milliy an'analarimiz ham o'z ifodasini topgan. Ya'ni yuqorida aytib o'tganimizdek ayvon loyihasi bilan bir qatorda, ichki fazoviy bo'shliq, galereya tipidagi go'zal atrium binoga salqin havo beradi, ushbu binoda konditsioner va boshqa shamollatish moslamalarini ishlatishga hojat bo'lmaydi.

### **REFERENCES**

1. Tabunshchikov Y.A. Energiya tejankor binolarni qurish bo'yicha jahon va mahalliy tajriba / Yu.A. Tabunshchikov, N.V. Shilkin: [www.comhoz.ru](http://www.comhoz.ru)
2. Ramboll Studio Dreiseitl. Catalyst for liveable public spaces that integrate natural systems : [www.dreiseitl.com](http://www.dreiseitl.com)
3. URL: <http://appleinsider.ru/istoriya-apple/14-interesnyx-faktov-o-novom-kampuse-apple.html>
4. <https://www.archute.com/chile-innovation-centre-alejandro-aravena/>
5. <https://archi.ru/projects/world/7169/kampus-apple-park-shtab-kvartira-kompanii-apple>
6. <https://elima.ru/articles/?id=632>

## **14-16 YOSHLI BO‘LGAN SPORTCHILARNING CHIDAMLILIK SIFATINI OSHIRISH, ULARNI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH**

**Arabjonov Shokirjon Shavkatovich**

**Xamidjonov Muhammadbobir Ulug‘bek o‘g‘li**

**Muxtorova Xusnida Abdug‘porovna**

ADU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi  
kafedrası o‘qituvchilari

### **ANNOTATSIYA**

*Chidamlilik har bir sport turida katta ahamiyat kasb etadi hamda ushbu jismoniy sifatni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Maqolada 14-16 yoshli bo‘lgan sportchilarning chidamlilik sifatini oshirish, ularni nazorat qilish va baholash haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *chidamlilik, jismoniy madaniyat, sport, 14-16 yoshli sportchilar toifasi, chidamlilikni oshirish usullari, yuklama, tezlik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Выносливость важна в любом виде спорта и требует особого внимания к развитию этого физического качества. В статье рассматриваются качество выносливости, мониторинг и оценка спортсменов 14-16 лет.*

**Ключевые слова:** *выносливость, физическая культура, спорт, разряд спортсменов 14-16 лет, методы повышения выносливости, нагрузка, скорость.*

### **ABSTRACT**

*Endurance is important in any sport and requires special attention to the development of this physical quality. The article deals with the quality of endurance, monitoring and evaluation of athletes aged 14-16.*

**Keywords:** *endurance, physical culture, sports, category of athletes aged 14-16, methods of increasing endurance, load, speed.*

### **KIRISH**

Chidamlilik – bu insonning biron xarakat faoliyatini uzoq vaqt davomida uni samarasini pasaytirmasdan bajarish qobiliyati. Sport amaliyotida chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun har xil usullarni qator olimlar tavsiya etganlar – birtekis, takroriy, intervalli, o‘zgaruvchan, aylanma, musobaqa usullari.

Birtekis usulda, o‘quvchilarning individual jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda yuklama berish va uni vaqt bo‘yicha oson dazirofka qilish imkoniyati mavjud. Ushbu usulda, mashqlar bitta sur‘atda bajariladi va umumiy chidamlilikni rivojlantirishga ko‘maklashadi.



Takroriy usul, yuklamani etarlicha dam olish intervallari paytida, takrorlashlar soni bilan boshqarishga imkon beradi. Intervalli usul, mashqni bajarish va tiklanish vaqtini aniq reglamentlaydi.

O‘zgaruvchan usul, mashqlarni o‘zgaruvchan sur‘atda, yuklamaning kattaligiga bog‘liq holda, dam olish intervallari 1-1,5 dan to 3-4 minutga qadar, trenirovka qilganlikka bog‘liq holda, 140-180 zarba/min kattalikdagi chidamlilik bilan bajarishni nazarda tutadi. Aylama usul, umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), maxsus jismoniy tayyorgarlikning (MJT) har xil vositalarini va ularning kombinatsiyalarini xilma-xil qo‘llash imkonini beradi. Musobaqa usuli, tanlangan sport turi uchun xos bo‘lgan etakchi jismoniy sifatlarni raqib bilan keskin konfliktli faoliyatda takomillashtirishni samarali.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma‘lumki, tezkorlik xususiyatiga ega bo‘lgan yuklamalar chidamlilikning ko‘proq namoyon etilishini talab qiladigan yuklamalar uchun qulay fiziologik sharoit yaratadi. Ular esa o‘zidan keyin bir necha soat mobaynida (agar jiddiy o‘sish yuz bergan bo‘lsa), tezkorlik mashqlarining bajarilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan “iz” qoldirib ketadi. Masalan, K.Kuperning ta’kidlashicha, umumiy chidamlilikning yuqori darajasi, xususan, amerikalik futbolchilar o‘rtasida o‘yinning ikkinchi yarmida va mavsum oxirida raqobat faolligining oshishiga, shuningdek, jarohatlar sonining kamayishiga yordam beradi. Biroq umumiy chidamlilikning boshqa turdagi chidamlilik namoyon bo‘lishiga ta’sirini ortiqcha baholash ham o‘rinli emas [1, B. 224].

Tadqiqotchi M.Y. Nibatnikova umumiy chidamlilik deganda sportchining ko‘plab mushak guruhlarini o‘z ichiga olgan va uning sportga ixtisoslashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan har qanday jismoniy ishni (yuklamani) uzoq vaqt davomida bajara olish qobiliyati, maxsus chidamlilik esa sportchi ixtisosligining talablaridan kelib chiqqan holda vaqt o‘tishi ma’lum bir yuklamani samarali bajara olish qobiliyatidir deb hisoblaydi [2, B. 261].

Yana shu ham aniqlanganki, tezkorlik yuklamalari kuch xususiyatlariga ega bo‘lgan ta’sirotlar bilan yaxshi uyg‘unlashadi, bunda ijobiy davomli ta‘sir ma’lum sharoitda, ya’ni kuch mashqlari tezkorlik mashqlaridan avval bajarilgandagi holatda ham, ularning teskari ketma – ketligi holatida ham amal qilishi mumkin.

Shuning uchun majmualii mashg‘ulotlarda yuklamaning eng maqbul ketmakteligini tanlashda ularning asosiy yo‘nalishiga qarab quyidagi tartibda qo‘llash mumkin:

KUCH => TEZLIK => CHIDAMLILIK

yoki

TEZLIK => KUCH => CHIDAMLILIK

Yosh sportchilarni tayyorlash ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rivojlanishning yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasini, tanlangan sport turi xususiyatlarini, jismoniy sifatlar rivojining o'ziga xos jihatlarini, harakat ko'nikma va malakalarining shakllanishini sinchiklab hisobga olish zarurdir.

Treningning yosh zonalarini bilishi ko'p yillik mashq jarayo-nini yaxshiroq tizimlashtirishga imkon beradi. Biroq yosh ko'p yillik mashg'ulotning oqilona tizimi qurishda e'tiborga olish zarur bo'lgan yagona omil emas. Sportchilarning alohida jismoniy qobiliyatlarini, jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun eng qulay davrlarni, shuningdek, texnik – taktik faoliyatlarni sifatli o'zlashtirish uchun moyillikni ham chuqur o'rganish lozim. Yoshlik davrida barcha jismoniy qobiliyatlar zahirasi mavjud bo'ladi. Buning uchun oqilona va muntazam pedagogik ta'sirotlar ta'daq-langan bo'lishi kerak. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyat-larini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta'sirot yoshga mos rivojlanish jarayonining u yoki bu pog'onasida o'sishi eng yorqin ifodalangan qobiliyatlarning to'la namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Past shiddatli aerob yuklamalarni qo'llash bilan fiziologik faoliyatlarning haddan ziyod zo'riqishiga olib keladigan o'ta shiddatli yuklamalar yordamida erishiladigan natijalarga organizm uchun maqbul vositalar yordamida ham erishish mumkin. Chidamlilikni rivojlantiradigan sust shiddatli mashqlar ta'siriga, ayniqsa, 8-10 yoshli bolalar sezgir bo'ladi. 12 dan 15 yoshgacha bu mashqlarning samadorligi kamayib, chidamlilik barqarorlashadi yoki birmuncha pasayadi. Bolalar va o'smirlar chidamliligini rivojlantiruvchi fiziologik jihatdan asoslangan vositalar sirasiga organizmning aerob unumdorligini oshiruvchi tsiklik mashqlarning har xil turlari kiradi. Bu jihatdan davomiyligi asta-sekin oshirib boriladigan mo'tadil quvvatli (maksimalning taxminan 60% i chegarasida) bir me'yorli yugurishning boshqa mashqlarga nisbatan afzal ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu maqsadda mashg'ulotlarga harakatli o'yinlar va o'yin mashqlarini kiritish tavsiya etiladi. Maksimalning 75% darajasidagi tezlik bilan yurish davomiyligi bo'yicha testlar o'tkazilganda, o'g'il bolalarda 13-14 yoshda, qizlarda esa 10-13 yoshda chidamlilikning eng katta o'sishi kuzatiladi. Wsmirlik davrida past shiddatli yugurish bilan bir qatorda tezligi o'zgaruvchan yugurish, 400-500m ga (o'g'il bolalar uchun) va 200-300m ga (qiz bolalar uchun ) tez sur'atli yugurish qo'llaniladi. Yugurishning haftalik hajmi 35-45 km gacha oshiriladi. Bolalik va o'smirlik yoshlarida umumiy chidamlilikni

rivojlantirishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlarga qo‘yiladigan asosiy talab – yuqori hissiy ko‘tarinkilik zaminida mashg‘ulot-larning yumshoq, ehtiyotlovchi rejimini yaratishdir. Bu talabning bajarilishi yosh sportchilarda mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlash hamda keyingi ixtisoslashuv uchun sharoitni yuzaga keltirishning zarur sharti hisoblanadi. Wsmirlik davrigacha maktab sport to‘garaklari sharoitida maxsus chidamlilikni tarbiyalash uchun fiziologik poydevor paydo bo‘ladi.

### **XULOSA**

Chidamlilikni o‘stirishga qaratilgan jismoniy yuklamalarga o‘rtacha jismoniy rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar tezroq moslashadilar. Jismoniy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan maktab o‘quvchilarida tezlik va tezkorlik – kuch mashqlarini bajarish chog‘idagi ishchanlik ularning jismoniy rivojlanish darajasi o‘rtacha yoki past bo‘lgan tengdoshlaridagiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun qulay morfologik hamda funktsional sharoit 9- 10 yoshlarda yuzaga keladi. O‘g‘il bolalarda dinamik kuch mashqlariga yuqori sezgirlik 2 davrdan iborat bo‘ladi: 9 yoshdan 10-12 yoshgacha va 14 dan 17 yoshgacha. Qiz bolalarda 11 yoshga ke-lib kuch chidamliligi 15-16 yoshli qizlarning ko‘rsatkichlariga etib oladi. 7-10 yoshli o‘quvchilarda turg‘un kuchlanishlar toliqishning tez rivojlanishi bilan kechadi. Maktablarda 5-8 - sinflarning jismoniy tarbiya darslarida kichik og‘irliklar (1-2 kg) bilan dinamik kuch mashqlari, arqonga chiqish, yuk tashish, cho‘yan to‘p irg‘itish kabilardan muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda. 15-16 yoshda kuch chidamliligining ortishi munosabati bilan 2-3 kg li og‘irliklar bilan o‘tkaziladigan mashqlar soni ko‘payadi, arqonga vaqtga qarab chiqish, kurash elementlari qo‘llaniladi. Bu yoshdagi qizlarda kuch mashqlari nisbiy mushak kuchining kamayishi tufayli chegaralanadi. O‘smirlar bilan o‘tiladigan mashg‘ulotlarda turg‘un vaziyatlarni, dastlabki holatlarni, osilib, tayanib turishlarni talab etuvchi mashqlardan foydalanish lozim.

### **REFERENCES**

1. Купер К. Аэробика для хорошего самочувствия / К. Купер. – [пер. с англ. – 2-ое изд. доп., перераб.]. – М.: Физкультура и спорт, 1989.
2. Специальная выносливость спортсменов / Под общ. ред. М. Я. Набатниковой. – М.: Физкультура и спорт, 1972.
3. Филин В. П. Основы юношеского спорта / В. П. Филин, Н. И. Фомин. – М. : Физкультура и спорт, 1980.
4. Холодов Ж. К. Теория и методика физического воспитания и спорта / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – М. : Академия, 2003.

## **BIOURBANIZM – TABIAT VA SHAHARSOZLIK**

**A.Q. Baydjanov**

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

**B.A. Polvanov**

Urganch davlat universiteti stajyor o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida biourbanizm – tabiat va shaharsozlikning tizimlashtirilgan zanjirlar timsoli misolida to'xtalib o'tildi. Shu bilan birga, biourbanizm bilan shaharsozlikning uzviy bog'liqligi to'g'risida takliflar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Biourbanizm, shaharsozlik, rivojlanish, tabiat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Анализ данной статьи сосредоточен на примере биоурбанизма - символа структурированных цепочек природы и градостроительства. В то же время высказывались предположения о неразрывной связи между биоурбанизмом и городским планированием.*

**Ключевые слова:** *биоурбанизм, градостроительство, застройка, природа.*

### **ABSTRACT**

*The analysis of this article focused on the example of biourbanism - a symbol of the structured chains of nature and urban planning. At the same time, suggestions have been made about the integral link between biourbanism and urban planning.*

**Keywords:** *Biourbanism, urban planning, development, nature.*

### **KIRISH**

Biourbanizm asosiy e'tiborni shahar organizmiga qaratadi, uni ichki va tashqi dinamikasi va ularning o'zaro ta'siriga ko'ra giperkompleks tizim sifatida ko'rib chiqadi. Shahar tanasi dinamik strukturaning bir-biriga bog'langan bir necha qatlamlaridan iborat bo'lib, ularning barchasi bir-biriga chiziqli bo'lmagan tarzda ta'sir qiladi. Ushbu o'zaro ta'sir, bog'langan butunning dinamik tahlilidan tashqari oldindan aytib bo'lmaydigan paydo bo'ladigan xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, bu yondashuv biourbanizmni hayot haqidagi fanlar va statistik mexanika, termodinamika, operatsion tadqiqotlar va ekologiya kabi integratsiyalashgan tizimlar fanlari bilan bog'laydi.

Yondashuvlarning o'xshashligi nafaqat umumiy metodologiyada, balki natijalarning mazmunida ham (shuning uchun "Bio" prefiksi), chunki shahar inson turlarining yashash muhitini ifodalaydi. Biourbanizm morfogenetik jarayonlar orqali

tizimli samaradorlikni va aholining hayot sifatini optimallashtirishni kafolatlaydigan turli miqyosda (sof fiziologik darajadan ekologik darajagacha) optimal shakllarni tan oladi. Ushbu qonunlarga rioya qilmagan dizayn insonning evolyutsiyasiga to'g'ri kelmaydigan va shu tariqa hayotni hech qanday tarzda yaxshilashga qodir bo'lmagan tabiiy, dushmanlik muhitini keltirib chiqaradi.

Biourbanizm real dunyoda ishtirokchi va yordamchi metodologiyani qo'llash orqali harakat qiladi. U natijalarni sub'ektiv ravishda tekshiradi (odamlar o'zlarining jismoniy va hissiy farovonligini fikr-mulohazalar orqali ifodalaydilar), shuningdek ob'ektiv (fiziologik, ijtimoiy va iqtisodiy reaksiyalarning eksperimental o'lchovlari orqali).

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Biourbanizm o'nta asosiy tizimning kombinatsiyasidir. Ushbu tizimlar tergov ko'lamiga qarab mintaq, shahar yoki loyihaning nisbiy salomatligi va raqobatbardoshligini aniqlash uchun ko'rsatkichlar kartasi sifatida jamlanishi mumkin bo'lgan asosiy ko'rsatkichlardan iborat. Agar individual tizimga aralashuv qolgan to'qqiztasiga jiddiy zararli ta'sir ko'rsatmasa, optimal shahar salomatligiga erishiladi. Shunday qilib, tizimlarning o'zaro aloqalari maqsadli va o'zaro manfaatli tarzda boshqariladi. Tizimlarning tavsifi quyida keltirilgan:

**OVQAT** Shaharlar oziq-ovqat mahsulotlarini aniq import qiluvchilar bo'lib, ular ishlab chiqarishdan ko'ra ko'proq resurslarni iste'mol qiladilar. Shahar aholisida yashovchi odamlar mintaqaviy bozor tarqatish markazlariga ulangan oziq-ovqat ta'minoti zanjirlarining mahalliy tarmog'iga tayanadi. Bu markazlar o'z navbatida mintaqaviy, milliy va global qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ulangan. Shaharning yangi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qobiliyati uning fuqarolari salomatligi uchun asosdir.

**INSONIYAT** Qadim zamonlardan beri boshqaruv va qonunchilik asoslari jamoalarni qo'llab-quvvatlab kelgan va ularning uzoq umr ko'rishlari uchun asos bo'lib kelgan. Geosiyosiy barqarorlik, madaniy xilma-xillik va inson huquqlari tengligi jonli shahar hayotiga bevosita ta'sir qiladi. Arzon narxlardagi ta'lim va sog'liqni saqlash shaharlar ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatadi

**MANZARA** Yerning barcha yer ekotizimlarini, shu jumladan o'simliklar va hayvonlarni qo'llab-quvvatlaydigan uzluksiz relef. Shaharlar turar-joy, iqtisodiy, madaniy va infratuzilma talablariga mos ravishda shahar landshaftining arxitekturasini juda o'zgartiradilar. Ekologik funktsiyani va yashash qulayligini yaxshilash uchun shahar o'rmonlarini oqilona parvarish qilayotgan, bog'larni

ko'paytirayotgan va shahar maydonini ko'kalamzorlashtirayotgan shaharlar soni ortib bormoqda. Sog'lom ekotizimlar va shahar bioxilma-xilligini saqlash inson salomatligini mustahkamlaydi.

SUV Yerdagi suv ekotizimlarining uyi va o'simlik va hayvonlar hayotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy suyuqlik. Suv er yuzidagi yog'ingarchilik va bug'lanish jarayonlari bo'ylab harakatlanadi va er yuzidagi bu qimmatbaho suyuqlikning juda oz qismi yangi. Toza, ifloslanmagan H<sub>2</sub>O ga kirishni ta'minlash insoniyat oldida turgan eng katta muammolardan biri bo'lib, o'tmishda ko'plab shaharlarning qulashiga olib keldi.

ENERGIYA Kundalik ishlarini bajarish uchun shaharlar arzon va mo'l energiya talab qiladi. Shaharlar quyoshdan keladigan nurlanish energiyasiga, shu jumladan karbonli yoki elementar manbalardan ajralib chiqadigan energiyaga tayanadi. Parij shaharlarida bo'lib o'tgan COP21da qabul qilingan quyidagi majburiyatlar qazib olinadigan yoqilg'idan qayta tiklanadigan energiya manbalarini qabul qilishga katta siljish olib keladi. Ko'mir narxlari pasayish tendentsiyasida va yirik global fondlar tomonidan qazib olinadigan yoqilg'i kompaniyalari aksiyalarini olib qo'yish tezlashmoqda.

IQTISODIYOT Shahar tomonidan kapital ishlab chiqarish va uning aholisi tomonidan tovarlar va xizmatlar iste'moli. Shaharlar global va mahalliy kapital oqimlari bilan savdo qilish orqali ta'minlangan dinamik ob'ektlardir. Moliyaviy kapitalni ishlab chiqarish va to'plash inson va tabiiy kapitalning kiritilishiga bog'liq. Rivojlangan shaharlar korrupsiyadan xoli qonunchilik asoslariga asoslangan adolatli moliyaviy tizimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, shuning uchun biznes unumdorligini oshirish mumkin.

Mobillik buni belgilang! HAKKATLILIK Shaharlarning yashash qulayligi ko'p modal jamoat transporti infratuzilmasining samaradorligi va yaqinligi bilan bog'liq. Fuqarolarning ish joyidan uyga tez va arzon sayohat qilish imkoniyati shahar salomatligi va farovonligiga sifatli ta'sir ko'rsatadi. O'rtacha qatnov vaqti qisqa bo'lgan shaharlar transport tirbandligi xarajatlarini minimallashtirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

TEXNOLOGIYA Avtomatlashtirish kontsepsiyasi har doim insoniyat taraqqiyoti yo'lida markaziy o'rin tutgan. Sanoat mexanizatsiyasini zabt etgandan so'ng, odamlar nano o'lchovni o'rganish uchun raqamli vositalardan foydalanmoqdalar. Katta ma'lumotlar qaror qabul qilishda tobora kuchayib bormoqda va tez orada kvant hisoblash bizning eng katta super kompyuterlarimizni abakka o'xshatadi. Raqamli ma'lumotlarning g'oyalari va oqimini boshqarishda ishtirok

etadigan ishchi kuchlarini tarbiyalaydigan shaharlar bizning 21-asr antropotsen davrining etakchilari sifatida paydo bo'lishi mumkin.

Biourbanizm - bu qayta tiklanadigan shahar siyosati va shahar dizayni strategiyalarini yaratish uchun tizimga asoslangan platforma. Platformada beshta asosiy bio va beshta asosiy urbanizm tizimi ostida guruhlangan bir qator ko'rsatkichlar mavjud. Shahar farovonligiga erishish uchun platforma har qanday yirik metropolitenni rejalashtirish qarori barcha o'nta tizimda ijobiy natijalarni yaratishi kerakligini ta'kidlaydi. Boshqasini afzal ko'rish orqali biron bir tizimni asossiz ravishda zaiflashtiradigan yoki buzadigan qarorlar butun shahar bo'linmasining umumiy salomatligi va raqobatbardoshligiga yomon ta'sir qiladi.

Rivojlangan, sog'lom shaharlar tabiiy va iqtisodiy kapitalni qadrlaydigan oqilona rejalashtirish siyosati orqali ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Biourbanizm shaharlarni atrof-muhit qahramonlari sifatida birinchi o'ringa qo'yadi, chunki eng foydali innovatsiyalar shahar merlari tomonidan olib borilmoqda. Eng ilg'or shaharlar qazib olinadigan yoqilg'idan mahrum bo'lish orqali kam uglerodli hayot kechirishni targ'ib qiluvchi strategiyalarni erta qo'llab-quvvatlovchilarga aylandi, bu esa raqamli asrda iqtisodiy raqobatbardoshlik va iqlim barqarorligini oshiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, biourbanizm shaharlarni inson faoliyati orqali boshqariladigan biotik va abiotik komponentlarning o'zaro bog'langan tarmog'idan iborat noyob "biotoplar" deb hisoblaydi. Paradigma ekotizim kun tartibini qabul qiladi, unda shaharlarning o'nta asosiy tizimlarining nisbiy tengligini eng muhim deb hisoblaydi. Yuqori darajadagi tizim tengligiga erishgan shahar Biocity hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda shahar matolaridagi hayotiy elementlar ko'pincha "uslub" imtiyozlari tufayli yashiringan. Klassik nazariyalar va geometriyalar, ijtimoiy hayotning haqiqiy naqshlari ("bios") qattiq panjaralar va ixcham qurilish bloklari bilan almashtirildi. Yangi urbanizm va biourbanizm kabi so'nggi nazariyalar va amaliyotlar shaharlar beqaror bo'lib qolish va sog'lom ijtimoiy o'zaro munosabatlardan mahrum bo'lish xavfi borligini tasdiqlaydi. Ushbu maqola tarixiy shahar matolari va naqshlarining uyg'un arxitekturasi ilmiy jihatdan tasdiqlangan va inson tanasi va ongiga mos kelishiga foydali ta'sir ko'rsatishi sabablarini o'rganishga qaratilgan. Biourbanizm yo'qolgan qadriyatlar va muvozanatni nafaqat shahar tuzilishida, balki mikro yoki makro miqyosda insonga yo'naltirilgan dizayn tamoyillarini mustahkamlashda tiklashga harakat qiladi; Arxitektura fizika qonunlari, masalan, Konstruktiv qonun asosida yaratilishi mumkin.

Arxitektura ta'limidagi hayotiy siljish sifatida biourbanizm qurilgan muhitda naqshlar va tilshunoslikni shunday ijodiy tarzda o'rganish imkoniyatini beradi, "bios" ning tarixiy o'tmish namunalari bizga marosimlarni hurmat qiladigan unutilmas va imtiyozli aloqa yo'llarini tiklashga imkon beradi. kundalik hayot faoliyatida tana. Maqolada odamlarning eski mato ichidagi harakati va tana, ong va atrof-muhit o'rtasida yangi aloqalarni o'rnatish orqali yangi shahar tarqalishi bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Hayotning o'ziga xos naqshlari ko'pincha shaharlarning o'sish naqshlariga to'g'ri keladi va fizikaning abadiy qonunlari asosan tabiatning o'ziga xos formulalariga amal qiladigan me'morchilik shakllarining mustahkamligini isbotlashi mumkin. Shunday qilib, qurilgan muhit tinimsiz ravishda Kelajak shahri tomon oldinga siljiydi.

Shahar hayoti va xulq-atvori dinamik naqshlar orqali shakllangan insoniy aloqa tizimlariga asoslanadi; Biz hozir inson faoliyati o'rtasidagi chegaralarni muzokara qilish, geografik xaritalashdagi o'zgarishlar va asosan butun dunyo bo'ylab jamoalarning uzluksiz o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun barqaror tizimlar haqida gapiramiz. Shu sababli, arxitektura ta'limidagi hayotiy siljish sifatida nafaqat biourbanizm qurilgan muhitga chuqur singib ketgan naqshlar va tilshunoslikni o'rganish imkoniyatini beradi, balki olimlar va jamoalarga tez va innovatsion shahar aralashuvlarida birlashishga va faol ishtirok etishga imkon beradi. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonida ishlab chiqilgan loyihalar unutilmas va imtiyozli aloqa yo'llarini tiklashga, tana va ongning kundalik hayotiy marosimlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Demak, tabiatdan meros bo'lib qolgan fizikaning abadiy qonunlari va formulalariga amal qilgan holda, arxitektura shakllarini shahar dizayni va kelajak shahrini rejalashtirishdagi haqiqiy yangilik deb hisoblash mumkin.

Demak, arxitekturata'lim 21-asr uchun haqiqatan ham barqaror yangi dizaynlarni ishlab chiqarishga yordam beradigan birinchi qadam bo'lishi kerak. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi arxitektorlarning keyingi avlodini tarbiyalash potentsialiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan biourbanizmdagi yangi ta'lim yondashuvlarini yoritishdan iborat; Ushbu maxsus innovatsion yondashuvlar bitiruvchi arxitektorlarga original va insonga yo'naltirilgan dizaynlarni yaratishga imkon beradi. Muayyan holatlarda va o'qitish va baholashning yangi usullarini sinab ko'rish orqali biourbanizm tamoyillari arxitektura ta'limi standartlarini oshirish va sinab ko'rish maqsadida arxitektura va shahar dizayni loyihalarida qo'llanilgan. Ushbu tamoyillar va amaliyotlarni, jumladan, o'rganish va o'qitish misollarini biourbanizm bo'yicha ba'zi birlamchi nashrlarda, masalan, sog'lom shahar uchun biourbanizm: biofiliya va barqaror shahar nazariyalari va amaliyotlari (Tracada va



Kaperna, 2012) va chuqurlik uchun yangi paradigmada topish mumkin. Barqarorlik: biourbanizm (Tracada va Kaperna, 2013). Talabalar va olimlarni biourbanizm asoslarini, masalan, tizimli yondashuv va shakl qonunlari, shuningdek, neyrofiziologiya va atrof-muhit psixologiyasi kabi yangi sohalar bilan tanishtirish orqali tadqiqotchilar va o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan ba'zi amaliy tajribalar natijalarini baholash imkoniga ega bo'ldilar.

Italiyada Rim chekkasidagi ba'zi qishloqlarda/kichik shaharlarda ketma-ket uchta yozgi maktablarda mutaxassislar jamoasi (Artena qishlog'i yozgi maktabi haqida batafsil ma'lumotga qarang); ular, shuningdek, yaqinda Buyuk Britaniyada va boshqa Evropa mamlakatlarida oliy ta'limda o'qitiladigan ba'zi modullarda printsiplar va amaliyotlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lishdi. Xususan, yozda uch yil ketma-ket uch xil mamlakatda va kuchli tarixiy ta'sirga ega shaharlarda o'tkazilgan "Raqs-arxitektura-fazoviylik" nomli ba'zi bir maxsus xalqaro Erasmus seminarlari davomida ushbu maqola mualliflaridan biri insoniyatni kuzatish imkoniga ega bo'ldi.

Juda kam uchraydigan shahar sharoitida xatti-harakatlar va ijodkorlik. Spektakl va taktik shahar faoliyatini o'z ichiga olgan ushbu talabalar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida o'tmishdagi imtiyozli aloqa yo'llari bilan bog'liq holda tarixiy matoning imkoniyatlarini kashf qilish orqali vaqtinchalik shahar hodisalari o'rganildi; bu hodisalar o'quvchilarning o'ziga xos xulq-atvori bilan parallel edi, shu bilan birga ushbu shahar traektoriyalari bo'ylab harakatlanar edi. Talabalarning tanalari va onglari aloqaning abadiy baquvvat yo'llari bilan kuchli zaryadlangan bo'shliqlarda sayohat qildilar, shuning uchun ular va atrof-muhit o'rtasida yangi o'zaro ta'sirlar paydo bo'ldi. Ko'pincha keng jamoatchilik ham ushbu noyob tajriba tadbirlarida xursand bo'lgan. Ommaviy chiqishlar va taqdimotlar bo'lib o'tdi va nashrlar (Villemur, 2012; Villemur, 2013; Villemur, 2014) va videolar o'qituvchilar/tadqiqotchilarning kuzatishlari, talabalarning individual loyihalari va jamoatchilikning reaksiyalarini hujjatlashtirdi.

Bugungi kunda Oliy ta'lim dasturlarida modullarni o'rganish natijalariga biourbanizmi kiritish orqali biz kelajakdagi shahar o'sishini ta'minlaydigan ishonchli ta'limni baholash usullarini taqdim eta olamiz (Salama, 2005; Salingaros va Marsden II, 2008b). Biofil dizayn va biourbanizm bilan bog'liq modullarni yetkazib berishda jonli loyihalardan foydalanish bizga turli fanlardan bo'lishi mumkin bo'lgan o'qituvchilarni jalb qilish va barcha tadqiqot tajribalarini bir vaqtning o'zida o'z talabalari bilan faol baham ko'rish imkoniyatini beradi. Shu sababli, faol o'quvchilar

biourbanizm tamoyillariga muvofiq yangi innovatsion dizaynlarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish orqali shahar makonlarining kelajagini o'zgartira olishlari kerak.

Eng yangi innovatsion arxitektura pedagogikalari yordamida olingan ko'nikmalar va bilimlar insonparvarlik muhitini yaratishga qaratilgan (Salama, 2005). 1990-yillardan boshlab arxitektura ta'limida yangi tendentsiyalar paydo bo'ldi, ba'zi mualliflar arxitektura loyihalarini ishlab chiqish va ishlab chiqishda nafaqat Yangi Paradigma paydo bo'lganligini, balki bu tendentsiya amalda me'moriy ta'limdagi tub o'zgarishlarning natijasi ekanligini ta'kidladilar (Salama, 1998).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Hisoboti. 2012 yil 27 iyulda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish bo'yicha konferentsiya va xususan A. Natija hujjati: "Biz xohlayotgan kelajak" barqaror urbanizatsiya shaharlarning hayot sifati, daromad va bandlik imkoniyatlarini yaxshilashni talab qiladi. , ijtimoiy tenglik, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, yashil transport, axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish. Biz bilamizki, 21-asr shaharlari insoniyat kelajak avlod qanday kelajakka ega bo'lishini hal qiladigan oldingi chiziqdir. Ushbu suyuqlik muhitida ta'lim asosiy rol o'ynaydi, chunki u o'zgarishlar uchun o'rnatilgan yakuniy qurilmalardan biridir. So'nggi ikki asr davomida G'arb sivilizatsiyasi o'sish jarayonlarida ratsionallik va ilmiy-texnik ta'lim bilan to'lib-toshgan.

Shunday qilib, asosiy savol: hozirgi paradigma zamonaviy muammolarga duch kelishi mumkinmi? Va bu paradigma arxitektura ta'limiga qanday ta'sir qiladi? Edgar Morinning so'zlariga ko'ra, "paradigma kontseptualizatsiya va mantiqiy operatsiyalarni tanlaydi va belgilaydi. U tushunarlikning asosiy toifalarini belgilaydi va ulardan foydalanishni nazorat qiladi. Shaxslar ichki ma'noga ega bo'lgan madaniy paradigmalarga muvofiq biladi, o'ylaydi va harakat qiladi (Morin, 1999, p8). Morinning "Kelajak ta'limining yetti murakkab darsi" asarida va hujjatning boshida biz ta'limdagi inson holatining ta'rifini III bobda topamiz: Inson holatini o'rgatish: · Inson jismoniy, biologik, psixologik, madaniy, ijtimoiy. , tarixiy mavjudotlar. Inson tabiatining bu murakkab birligi fanlarga bo'lingan ta'lim tomonidan shunchalik puxta parchalanib ketganki, biz endi inson nimani anglatishini bilib bo'lmaydi.

Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining murakkab o'ziga xosligini va boshqa barcha odamlar bilan umumiy o'ziga xosligini anglashi uchun bu ongni qayta tiklash kerak. · Inson holati barcha ta'limning muhim predmeti bo'lishi kerak. · Ushbu bobda tabiat fanlari, ijtimoiy fanlar, adabiyot va falsafada tarqalgan bilimlarni yig'ish va tartibga solish orqali mavjud fanlardan inson birligi va

murakkabligini tan olishga qanday o'tishimiz mumkinligi, bu birlik va xilma-xillik o'rtasidagi ajralmas aloqani ko'rsatish taklif etiladi. hamma narsa insoniy. (Morin, 1999, p2) Hozirgi ta'lim chegaralarini tushunish uchun uning sifatleri va chegaralari bilan paradigmasini tushunish kerak. 1637 yilda Rene Dekart o'zining "Huquq metodi to'g'risida nutq" nomli fanga mashhur muqaddimasida. O'z mulohazalarini yuritish va fanlarda haqiqatni izlash "analitik fikrlash usuli"ni taqdim etdi (Bennet, 2010-2015), chunki u ham hozirgi paradigma tomonidan yaqinda kiritilgan; bu inson ongi murakkab hodisalarni ularning tarkibiy qismlariga qisqartirish orqali tushunishga qodir degan ishonchga asoslanadi (reduksionistik usul / fan - ilmiy tahlil va metodologiya). Dekart tomonidan ishlab chiqilgan yana bir fundamental ish gipotezasi ilmiy ob'ektivlik g'oyasi edi.

U kuzatuvchi va kuzatilayotgan narsa o'rtasidagi farqni kiritadi va bizga hodisalarni "haqiqiy" talqin qilish imkonini beradi. Aksincha, bu faraz xolislikdan foydalanmayotgani bois, bizda ilmiy ish yo'qdek tuyuladi. Ushbu yondashuvning natijasi alohida mikro-kosmosni chuqur bilish va butunni paradoksal bilmaslik bilan alohida mutaxassisliklar bo'yicha bilimlarni ajratish orqali madaniyat va ta'limning quti turini yaratishga ta'sir qildi.

Baudrillard uchun tasvirlar va belgilar biz uchun "haqiqat"ning o'zidan ko'ra ko'proq "haqiqiy" bo'lib qoldi. Shu nuqtai nazardan, voqelikni giperreallikka aylantirishda ommaviy axborot vositalari alohida rol o'ynadi (Baudrillard, 1983). Simulakra va haqiqatga ishora qilib, Bodriyar o'z inshosini Voizning ushbu matnidan iqtibos keltirish bilan ochadi: "Simulyator hech qachon haqiqatni yashiradigan narsa emas - bu haqiqat yo'qligini yashiradigan haqiqatdir. Simulyator haqiqatdir" (Voizdan va hozir Baudrilyarda, 1983, p2).

Arxitektura maktablari kuchli xalqaro obro'-e'tiborni yaratishda tasvirning ahamiyatini tobora ko'proq anglab etar ekan, tasvir ishlab chiqarishga asoslangan yangi va yuqori raqobatbardosh ta'lim iqtisodiyoti paydo bo'ldi. Yil oxiri ko'rgazmalari, kataloglari va istiqbollari hozirda katta ulushni jalb qilmoqdaqimmatli ta'lim mablag'lari, kuch va vaqt, chunki raqobatbardosh bozorda ular talabalar va yuqori martabali xodimlarni jalb qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Arxitektura amaliyotida bugungi kunda me'morlar xizmatlarining katta qismi qurilish sanoati, turizm va tijorat uchun imidj yaratishdan iborat. Gay Debord tomosha jamiyati deb ataydigan jamiyatni yaratishga ommaviy axborot vositalari katta ta'sir ko'rsatadi (Debord, 1967). Fransuz tilidagi asl nusxasi, "La société du spectacle" 1967-yilda Gi Debordning falsafa va marksistik tanqidiy nazariyaga oid asaridir. Situatsionistik harakat uchun yozilgan ushbu muhim matnda Gay Debord

Spektakl tushunchasini ishlab chiqadi va taqdim etadi. Aynan o'sha tomosha jamiyatida, biz hozir arxitektura dizayni ijtimoiy va siyosiy dasturdan qandaydir hiperreal tasvirlar mahsulotiga aylantirilganiga guvoh bo'lmoqdamiz; arxitektura, tasvir ishlab chiqarish arxitektura kareralari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **XULOSA**


Shu nuqtai nazardan, jurnallar kitoblar o'rnini bosadi. Ushbu jamoaviy tasavvurda jurnallar arxitektura talabalari tomonidan o'qiladi va hurmat qilinadi. Ammo ko'pincha bu nashrlar loyihalarni o'z ichiga oladi, ularning yakuniy manzili bino, sayt, odamlar emas, balki shunchaki tasvirlar galereyasi kibermakonidir; Bu yana qandaydir badiiy va xayoliy jurnal.

Yuqorida qayd etilganlarga xulosa qilib shuni aytish kerakki kelajak shaxarlarini loyixalash uchun hozirgi axvolga obyektiv baxo berish kerak va aloxida o'tmish shaxarsozligini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Biourbanizmning asosiy g'oyasi kelajakda ekologik toza, transport, yashash yashash muxiti masalalarini yechish asosida yangi fazoviy muxit yaratishdan iboratdir.

### **REFERENCES**

1. И.Б. Литвиницкий «Бионика» издадельство «просвещение» 1976г
2. <http://www.biourbanism.org/biourbanism-definition/>
3. Tracada, E., & Caperna, A. (2013). A new paradigm for deep sustainability: biourbanism.
4. Tracada, E., & Caperna, A. (2012). Biourbanism for a healthy city: Biophilia and sustainable urban theories and practices.

## **IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLARNI AVVALDAN BERILGAN PARAMETRLAR ASOSIDA YASASH ORQALI TALABALARNING KONSTRUKTORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

 <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-1181-1185>

**Adilov Pulat Adilovich**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrası dotsenti,  
texnika fanlari nomzodi.

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada talabalarning konstruktorlik qobiliyatini ikkinchi tartibli chiziqlarni avvaldan berilgan parametrlar asosida yasash orqali rivojlantirish masalalari talqin qilingan.*

***Kalit soʻzlar.** Konstruktorlik qobiliyat, parametr, algoritm, egri chiziq, tekislik, sirtlar, toʻgʻri chiziq, ikkinchi tartibli chiziq.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается развитие у учащихся навыков проектирования путем построения линий второго порядка на основе заранее заданных параметров.*

***Ключевые слова.** Возможность проектирования, параметр, алгоритм, кривая, плоскость, поверхности, прямая линия, линия второго порядка.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the development of students' design skills by creating second-order lines based on previously given parameters.*

***Keywords.** Design ability, parameter, algorithm, curve, plane, surfaces, straight line, second order line.*

### **KIRISH**

Turli darajadagi yuqori malakali, raqobotbordosh mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ma'naviy boy, erkin ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, fan-texnika taraqqiyoti, yuqori samaradorlikka ega texnologik jarayonlar, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish kabilar chizmachilik fani bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Mazkur jarayonlar insoniyat faoliyatining hamma sohalariga ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning grafik ma'lumotlarni qabul qilish va uni qayta ishlab grafik vositalar bilan tasvirlash ko'nikmalariga katta talablar qo'ymoqda. Shuning


uchun ham talabalarning grafik bilim va malakalari samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Talabalarda ijodiy mazmundagi grafik bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish bilan bog'liq muammoni ilmiy jihatdan asoslash talab qilinmoqda. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, barcha fanlar qatori grafik ta'lim mutaxassislari, olimlari va o'qituvchilari zimmasiga ham qator ma'suliyatli vazifalar yuklatilmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ushbu maqolada to'g'ri chiziqlar dastalaridan foydalangan holda avvaldan qo'yilgan geometrik talablar orqali ikkinchi tartibli egri chiziqni yasash usullarini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki ikkinchi tartibli egri chiziqni tekislikda beshta parametr bo'yicha ya'ni, beshta nuqta, beshta urinma yoki ularning kombinatsiyasi bo'yicha yasash mumkin, lekin uchta nuqta bir to'g'ri chiziqda yotmasligi zarur, bunday kombinatsiyalarning soni 12ta bo'ladi.

Avval yasashning umumiy modelini ko'rib chiqaylik, tekislikda uchta birinchi tartibli nuqtalar to'plami  $S_0; S_1; S_2$  va ikkita nuqtalar qatori- $m, n$  berilgan bo'lsin (1-rasm). Birinchi tartibli  $S_1$  va  $S_2$  to'g'ri chiziqlar dastalari orasida bir qiymatli moslik o'rnatish nuqtalar qatori orqali quyidagi algoritmda bajariladi.

$S_0$  markazdan  $m$  va  $n$  nuqtalar qatorini kesib o'tadigan ixtiyoriy  $t$  to'g'ri chiziq o'tkazamiz, bu nur  $m$  nuqtalar qatorini 1 nuqtada,  $n$  qatorni esa 2 nuqtada kesib o'tadi. 1 nuqtani  $S_1$  markaz bilan birlashtirib undan  $S_1$  to'g'ri chizig'ini ajratamiz nuqta 2 ni  $S_2$  markaz bilan birlashtirib  $S_2$  to'g'ri chizig'ini ajratamiz bu chiziqlar o'zaro kesishib izlanayotgan ikkinchi tartibli egri chiziqqa oid 1 nuqtani beradi.




1-rasm

Endi aniq misollarga murojat qilaylik, tekislikda hech bir uchta nuqtasi bir to'g'ri chiziqda yotmagan beshta nuqta berilgan bo'lsin. (2-rasm, a). Bu nuqtalarni  $S_1$ ,  $S_2$ ,  $M_1$ ,  $M$  va  $M_2$  deb belgilaylik.

Bu egri chiziq yasash usulini ko'rib chiqamiz (2-rasm, b)  $M_1$  bilan  $M$  orqali  $n$  nuqtalar qatorini o'tkazaylik bundan so'ngra yuqoridagi algoritmgaga mos ravishda yasashlarini amalga oshiramiz, ya'ni  $S_0$  markaz orqali  $t_1$  to'g'ri chiziqni o'tkazib uning  $m$  va  $n$  nuqtalar qatori bilan kesishuv nuqtalarini mos ravishda  $11$  va  $12$  nuqtalar orqali belgilaymiz.  $11$  nuqtani  $S_1$  markaz bilan  $11$  nuqtani  $S_2$  markaz bilan birlashtirib ularning kesishuv nuqtasi  $I$  ni topamiz.  $I$  nuqta yasalayotgan ikkinchi tartibli egri chiziqqa tegishli bo'ladi. Endi egri chiziqqa oid ikkinchi nuqtani topish uchun  $t_2$  to'g'ri chiziqni o'tkazamiz uning  $m$  va  $n$  nuqtalar qatori bilan kesishuv nuqtalarini mos ravishda  $2_1$  va  $2_2$  nuqta orqali belgilaymiz.  $2_1$  nuqtani  $S_1$  markaz bilan  $2_2$  nuqtani  $S_2$  markaz bilan birlashtirib ularning kesishuv nuqtasini aniqlaymiz. Bu nuqta yasalayotgan ikkinchi tartibli egri chiziqqa tegishli  $II$  nuqta bo'ladi.

Bu grafik ketma-ketlikni bir necha marta takrorlab egri chiziqni o'tkazish uchun zarur nuqtalar to'plamini aniqlaymiz va ularni tartib bilan birlashtirib izlangan egri chiziqqa ega bo'lamiz.



2-rasm

## REFERENCES

1. Murodov Sh.K. va boshqalar "Chizma geometriya kursi" O'qituvchi.1988-y.
2. Михайленко В.Э, и др. "Инженерная геометрия с элементами теории параметризации". -К.: "ВОР". 1989 г.
3. В.Е.Михайленко., В.С.Обухова., А.Л.Подгорный «Формообразование оболочек в архитектуре», Издательство «Будивельник» Киев-1972

4. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2021). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, 2(2015-2), 34–35. извлечено от <https://science.ndpi.uz/index.php/science/article/view/68>
5. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
6. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
7. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-02-19>
8. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
9. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).
10. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.
11. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
12. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80*.



13. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrova, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
14. Adilov, P., Tashimov, N., & Seytimbetov, S. (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(2), 193-195.
15. Valiev, A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
16. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.
17. Shoxboz Dilshodbek O'G'Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O'G'Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.
18. Ташимов Н.Э., Жумаев И., Компьютерные технологии при обучении графическим дисциплинам в педагогическом ВУЗе. Профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и технологии образовательно-деятельности. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции (г.Белгород, 16-17 апреля 2019 г.)
19. Ташимов Н.Э., Развитие когнитивной деятельности студентов при решении позиционных задач с использованием программного обеспечения AutoCAD. Сборник трудов международной научно-теоретической конференции на тему: "Куатбековские чтения-1: Уроки независимости". Посвященной 30-летию Независимости Республики Казахстан 23 апрель 2021 г. 235-237стр.
20. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.

## PROYEKTIV MOSLIKLARNI YASASH USULLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-1186-1192>

**Adilov Shodiyor Turdimovich**

Toshkent davlat transport universiteti

Informatika va kompyuter grafikasi kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada  $m-n$  qiymatli moslikning xususiy holi  $1-1$  qiymatli proyektiv moslik yordamida egri chiziq yasash usullari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Proyektiv moslik, egri chiziq, ikkinchi tartibli chiziq, parametr, algoritm, tekislik, sirtlar, to'g'ri chiziq, ikkinchi tartibli chiziq.*

### МЕТОДЫ ПОСТРОЕНИЯ ПРОЕКТИВНЫХ СОВМЕСТИМОСТЬ

#### АННОТАЦИЯ

*В этой статье описываются методы построения кривой с использованием проективной совместимости со значением  $1-1$ , частного случая совместимости  $m-n$  значений.*

***Ключевые слова:** проективная совместимость, кривая, линия второго порядка, параметр, алгоритм, плоскость, поверхности, прямая, линия второго порядка.*

### METHODS OF CONSTRUCTING PROJECTIVE COMPATIBILITY

#### ABSTRACT

*This paper describes the methods of constructing a curve using a projective compatibility with a value of  $1-1$ , a special case of  $m-n$ -value compatibility.*

***Keywords:** Projective compatibility, curve, second order line, parameter, algorithm, plane, surfaces, straight line, second order line.*

#### KIRISH

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun xizmat qiladi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olingan. Unda oliy

o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.


## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur maqolada  $m$ - $n$  qiymatli moslikning xususiy holi 1-1 qiymatli proyektiv moslik yordamida egri chiziq yasashni ko'rib chiqaylik.

Tekislikda  $S_0, S_1, S_2$  - birinchi tartibli to'g'ri chiziqlar dastalari hamda  $m$  va  $n$  nuqtalar qatori-to'g'ri chiziqlar berilgan bo'lsin (1-rasm)  $S_1$  va  $S_2$  dastalar uchun to'g'ri chiziqlar orasida 1-1 qiymatli moslik o'rnataylik. Mosliklar nazariyasiga muvofiq dastalardagi mos to'g'ri chiziqlar o'zaro kesishib,  $1+1=2$ , ya'ni bu nuqtalar to'plami 2-tartibli egri chiziqni hosil qiladi. U quyidagicha yasaladi. Nuqtalar qatori  $m$  va  $n$  ni  $S_0$  dastaning biron  $t$  to'g'ri chizig'i bilan kesamiz va ularni  $1_1, 1_2$  nuqta deb belgilaymiz.  $S_1$  ni  $m$  ga,  $S_2$  ni  $n$  ga mos deb qabul qilib,  $1_1$  nuqtani  $S_1$  markaz bilan  $1_2$  nuqtani  $S_2$  markaz bilan birlashtiramiz. Bu chiziqlar o'zaro kesishib egri chiziqqa oid 1 nuqtani aniqlaydi. Yasash algoritmini simvolik tarzda quyidagicha ifodalaymiz:

1.  $t \subset S_0$
2.  $t \cap m, n \rightarrow 1_1, 1_2$
3.  $S_1 1_1 \cap S_2 1_2 \rightarrow I$

Bu jarayonni bir necha marta takrorlab, hosil qilinuvchi egri chiziqqa oid zarur miqdordagi nuqtalarni to'playmiz va ularni tartib biln birin-ketin birlashtiramiz. U uzluksiz jarayondir, shuning uchun uni algebra tilida quyidagicha ifodalaymiz.



1-rasm

To'g'ri burchakli XOY koordinatalar sistemasida to'g'ri chiziqlar dastalari  $S_0(x_0, 0)$ ,  $S_1(x_1, y_1)$ ,  $S_2(x_2, y_2)$  va nuqtalar qatorlari  $m(y=b_1)$  (1) hamda  $n(y=b_2)$  (2) berilgan bo'lsin (2-rasm).  $S_0$  markazdan to'g'ri chiziq o'tkazamiz.  $y=k(x-x_0)$  (3),  $k$  ni parametr deb qabul qilamiz. Endi (1) bilan (3) ning kesishuv nuqtasini topamiz.

$$y = k(x - x_0);$$

$$y = b_1$$


Ular  $M(\frac{b_1 - kx_0}{k}; b_1)$  nuqtada kesishadi. (2) bilan (3) ni kesishuv nuqtasi  $N$  ni topamiz.

$$y = k(x - x_0);$$

$$y = b_2$$

tizimdan  $N(\frac{b_2 - kx_0}{k}; b_2)$  nuqtasini aniqlaymiz.  $S_1M$  va  $S_2N$  to'g'ri chiziqlarni o'tkazamiz.

$$\frac{k(x - x_1)}{b_1 + k(x_0 - x_1)} = \frac{y - y_1}{b_1 - y}$$



2-rasm


$$\frac{k(x - x_2)}{b_2 + k(x_0 - x_2)} = \frac{y - y_2}{b_2 - y_2}$$

(4) va (5)ni k parametrndan mustasno qilib, egri chiziqning quyidagi tenglamasiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{b_1(y-y_1)}{x(b_1-y_1)-b_1x_1-x_0(y-y_1)+x_1y} = \frac{b_1(y-y_1)}{x(b_2-y_2)-b_2x_2-x_0(y-y_2)+x_2y} \quad (6)$$

Bu parabolaning tenglamasi bo‘lib,  $S_0$ ,  $S_1$ ,  $S_2$  markazlar o‘rnini o‘zgartirish orqali to‘g‘ri chiziq holatlariga o‘tish mumkin, ya’ni uni boshqarish mumkin.

Agar  $m$  va  $n$  ning umumiy holatlari olinsa ikkinchi tartibli chiziqlarning aylana, ellips, giperbola, parabola, ikki to‘g‘ri chiziq ko‘rinishidagi turlarini hosil qilish mumkin. Masalan, 3-rasmda bularga misol keltirildi. Yasashning bunday geometrik apparatini boshqarish qulay bo‘lib, hosil bo‘lgan chiziqlarni sirtning karkasi sifatida foydalanishga imkon yaratadi.



3-rasm

## REFERENCES

1. Murodov Sh.K. va boshqalar “Chizma geometriya kursi” O‘qituvchi.1988-y.
2. Михайленко В.Э, и др. "Инженерная геометрия с элементами теории параметризации". -К.: "ВОР". 1989 г.
3. Ш.К.Муродов, Н.Э.Ташимов, И.И.Рахматова, Б.Б.Кукиев. Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. Международный научный журнал Молодой учёный. №50(184)2017.99ст.
4. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.

5. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
6. ПОВЕРХНОСТЕЙ, С. 2-ГО ПОРЯДКА ОБЩЕГО ВИДА ПО ЭЛЛИПСУ ЗАДАННОЙ ПЛОЩАДИ МУРАДОВ ШМИДТ КАРИМОВИЧ. ТАШИМОВ НУРЛАН ЭРПОЛАТОВИЧ, РАХМАТОВА ИКБОЛХОН ИНОМЖАНОВНА, КУКИЕВ БОБУРМИРЗО БАХОДИР УГЛИ *Ташкентский государственный университет имени Низами*.
7. Адиллов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ . *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 32(3), 53–55. извлечено от <https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/851>
8. Мурадов, Ш. К. Ташимов Нурлан Эрполатович, Рахматова Икболхон Иномжановна, Кукиев Бобурмирзо Баходир Угли. *Ташкентский Государственный Педагогический Университет Имени Низами Сечение Поверхностей*, 2072-0297.
9. Адиллов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2021). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, 2(2015-2), 34–35. извлечено от <https://science.ndpi.uz/index.php/science/article/view/68>
10. Байдабеков, А. К., Мурадов, Ш. К., Адиллов, П. А., & Ташимов, Н. Э. Кривые второго порядка-как сечения поверхностей второго порядка по наперед заданным параметрам.
11. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
12. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>
13. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS

OF USING IT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>

14. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>

15. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).

16. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.

17. MuslimovNarzullaAlikhanovich, U. M. B. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 10534-10551.

18. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 212-214.

19. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

20. P. Adilov, N. Tashimov, S. Seytimbetov (2019). Computer-Test Control of Knowledge of Students in Engineering Graphics. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*. Vol. 17 No. 2 November 2019, pp. 193-195

21. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

22. Ташимов Н.Э., Жумаев И., Компьютерные технологии при обучении графическим дисциплинам в педагогическом ВУЗе. Профессионально-педагогическая культура учителя и преподавателя: содержание, модели и

технологии образо-вательной деятельности. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции (г.Белгород, 16-17 апреля 2019 г.)

23. Ташимов Н.Э., Развитие когнитивной деятельности студентов при решении позиционных задач с использованием программного обеспечения AutoCAD. Сборник трудов международной научно-теоретической конференции на тему: “Куатбековские чтения-1: Уроки независимости”. Посвященной 30-летию Независимости Республики Казахстан 23 апрель 2021 г. 235-237стр.

24. Ugli, D. S. D., & Ugli, A. B. I. (2022). MODULAR TECHNOLOGY OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS TO FUTURE TEACHERS DRAWING. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 3(01), 101-107.

25. Shoxboz Dilshodbek O‘G‘Li Dilshodbekov, & Aldiyar Alisher O‘G‘Li Abdulxatov (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Scientific progress*, 3 (3), 7-14.

26. Nematovich, V. A. Z., & Karimberdiyevich, S. S. (2022). TEACHING PERSPECTIVE BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 678-687.

27. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>

28. Аширбаев, А. (2021). ЧИЗМАЧИЛИК ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *ГРААЛЬ НАУКИ*, (6), 434-439. <https://doi.org/10.36074/grail-of-science.25.06.2021.082>

29. Ozodovich, A. A. (2021). The Use Of Tasks That Create A Tendency To The Problems Of Making Typical Mistakes In The Possession Of Graphic Literacy. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 99–103. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-16>

30. Eralievich, M. Z., Karimovich, K. M., Gofurovich, M. K., & Husniddinovich, A. B. Method of using a new mechanism for the construction of axonometric projections. *Young scientist*, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No. 8 (142)/2017 part II, -pp. 1-6 Kazan.



**КОМПЬЮТЕР ИМКОНЯТЛАРИДАН ФОЙДАДЛАНИШ  
АКСОНОМЕТРИК ПРОЕКЦИЯЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАЛАРНИ  
КРЕАТИВЛИГИНИ ОШИРИШ  
(AutoCAD дастури мисолида)**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-1193-1202>

**Маликов Козим Гафурович**

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети,  
“Муҳандислик ва компьютер графикаси” кафедраси доцент в/б.

**АННОТАЦИЯ**

*АксонOMETрия проекцияларини қуришда талабаларни ижодкорлигини оширишда компьютер имкониятларидан фойдаланиш орқали AutoCAD дастуридаги 3D моделлаш буйруғидан изометрик проекцияларни ҳосил қилиш моделини ишлаб чиқиш ва унинг ёрдамида изометриянинг асосий параметрларини график усулда аниқлаш баён қилинган.*

**Калит сўзлар:** *АксонOMETрия, изометрия, проекция, Гаспар Монж, декарт координата, чизма геометрия, фазовий тасаввур, фазовий шакл, расмлар, чизмалар, графикалар, анимация, лойиҳалаш, моделлаштириш, интеграция, инновацион, геометрик шакил, модел, яққол тасвир, 2D, 3D.*

**АННОТАЦИЯ**

*Команда 3D -моделирования в программе AutoCAD для улучшения творчества автонетрических проектов описана для разработки изометрических проколоконов из AutoCAD. С помощью своей помощи основные параметры изометрии описаны графическим методом.*

**Ключевые слова:** *изометрия, проекционные координаты, доркс, чертежи, графики, интеграция, дизайн, моделирование, модель, геометрический формирование, модель, очевидное изображение, 2D, 3D.*

**КИРИШ**

Ҳар қандай таълим ва тарбия ўқувчиларга ўқитувчи ва мураббийлар орқали амалга оширилади. Шунинг учун ҳам уларнинг касбий маҳоратларини узвийлик асосида такомиллаштириб бориш ўринлидир. “Таълим тўғрисида”ги ва “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”да жамиятни ҳаракатлантирувчи куч-шахс деб кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев шахсинг маънавий сифатларига, уларни тарбиялаш ижтимоий ва инсонпарварлик аҳамиятига алоҳида эътибор бериб: «Бирон–бир жамият

маънавий имкониятларини, одамлар онгида маънавий ва ахлоқий қадриятларни ривожлантirmай ҳамда мустақамламай туриб ўз истиқболини тасаввур эта олмайди»<sup>268</sup> – деб алоҳида таъкидлайди. Дунё амалиётида ҳозирги замон ахборот ва компьютер технологиялари барча корхоналарида ва архитектура-қурилиш соҳаларида ишлаб чиқариладган буюмлар ҳамда қуриладиган бино ва иншоотлар лойиҳаларини, яъни матнли ва график тасвир-чизмалар каби маълумотларни компьютерда, автоматлаштирилган график дастурлар ёрдамида бажариб келинмоқда. Ҳақиқатда ҳам чизма геометрия фанининг ривожланишида Гаспар Монжнинг хизматлари каттадир. У биринчилардан бўлиб фазовий буюм ва объектларнинг бир вақтнинг ўзида учта ўзаро перпендикуляр текисликлар (Декарт координаталар текисликларига мос)да ортогонал проекцияларини тасвирлаш усулини берган. Бу ўзаро перпендикуляр текисликларни жипслаштириш билан эпюр (чизма) ҳосил қилишни тизимлаштирган.

У буюм ва объектларнинг эпюрини ўрганиш фазовий таққослаш билан эквивалентлигини кўрсатган. Чизма геометрия янги фан сифатида мустақил фанга айланди ва тез орада XIX аср бошларидан Европа давлатлари Олий техника мактабларида ўқитила бошланган бўлиб ҳозирги кунга қадар фан соҳаси ривожланиб муҳандислик соҳаси ҳамда педагогик таълим жараёнида олий касбий таълимнинг интегратив йўллари ривожланмоқда бу жараёнда педагогика ва ишлаб чиқариш сифатларини кўришимиз мумкин.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Муҳандислик-педагогик таълим ушбу соҳалар ўртасидаги чегара позициясини эгаллайдиган ва улар таъсирини бошдан кечирадиган ўзига хос хусусиятларга эга амалий педагогик ва касбий таълимдир. Муҳандислик соҳаси бўйича ОТМларда анъанавий маънода педагогикадан сезиларли фарқ қилади, чунки у назарий ва амалий (ишлаб чиқариш) тайёргарлигини бир фанга эмас, балки бир неча йўналишга тайёрлашни ҳам таъминлайди. Умуман олганда, ихтисосликлар (аспект) ва касбий фанлар циклларида (шу жумладан политехника, умумий касбий, ихтисослик йўналишлари ва тор ихтисослик фанлари бўйича) ва маълум бир ишлаб чиқариш тармоғининг аниқ касбий фаолияти билан белгиланадиган касбий фанлар циклларида (политехника,

<sup>268</sup> Sh.M.Mirziyoyev-Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz.- Toshkent "O`zbekiston"-2017 1-jild.

умумий касб-хунар, ихтисослик йўналишлари ва ихтисослик фанларини қўшган ҳолда) кадрлар тайёрлашни назарда тутди.

Аксонетрик проекцияларнинг турли соҳаларда аҳамияти муҳим бўлиб, унинг соҳаларда қўлланилиши ўз тарихийлигига эга.

Проекцияларни қуришнинг фанларни ўрганишда ва соҳаларни ривожлантиришда ўрни катта бўлиб бир қатор адабиётларда ўрганилган.

Муҳандислик графикасининг мақсади – фазовий тасаввурни ривожлантириш, фазовий шакллар ва муносабатларни уларнинг геометрик моделлари ва график тасвирлари асосида таҳлил қилиш ва синтез қилиш қобилиятлари, конструкторлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун билим ва кўникмаларни яратишдан иборат.

Замонавий график дастурлар 2D форматда-икки ўлчамда лойиҳаланиши ўта мураккаб бўлган буюм ва объектларнинг график тасвирларни самарали қуришдек улкан имкониятларга эга эканлиги билан барча соҳаларда тадбиқ этилмоқда. Шулар жумласидан таълим соҳасининг барча фанлари қатори чизмачилик фанининг аксонетрик проекцияларни қуришга ҳам аҳамиятлидир, Чизма геометрия ва чизмачиликда сиртларни ўзаро кесишиш чизиқларини ва детал сиртларида ҳамда ғовақларида учрайдиган сиртларнинг биридан иккинчисига ўтиш-кесишиш чизиқларини қуриш мураккаб ва кўп вақт талаб қиладиган жараён ҳисобланади. Муҳандислик графикаси фанларининг ўзига хос хусусияти шундаки, улар реал объектдан унинг моделига ўтишга ва тескари жараёни амалга ошириш, моделдан ҳақиқий объектга ўтишга имкон беради. Ҳажмли шакллардан текис чизмаларга ва қайта текис чизмалардан ҳажмли шаклларга ўтиш, бу нафақат шаклларнинг геометрик параметрларини сақлаш, балки фазода асл ҳолатини тиклашга имкон беради.

Компьютер графикасининг моҳияти замонавий илмий адабиётларда турлича тушунилади. Бир қатор тадқиқотчилар компьютер графикасини компьютерда турли хил тасвирларни (расмлар, чизмалар, графикалар, анимация ва бошқалар) олиш муаммолари билан шуғулланадиган информатиканинг бир соҳаси деб билишади. Компьютер графикасини восита сифатида ҳам кўриб чиқишади. Бир томондан, махсус ускуналар ёрдамида график ахборот муҳитини шакллантириш воситаси сифатида.

Техник мутахассисликлар талабалари учун дарслар автоматлаштирилган лойиҳалаш тизимида фазовий моделлаштиришдан фойдаланган ҳолда ўтказилади, бу чизма бажаришнинг анъанавий услубларига нисбатан бир қатор афзалликларга эга. Маълумки, муҳандислик графикаси фанларини

ўрганаётганда турли хил чизмаларни қўлда чизиш билан бир қаторда, компьютер графикаси, хусусан, автоматлаштирилган лойиҳалаш тизими ҳам узоқ вақтдан бери қўлланилиб келинмоқда.

Маълумки ҳозирга кунда республикамизнинг барча олий ўқув юртларида талабалар билимини мустаҳкамлашга қаратилган ишлардан бири бу ахборот технологияларини кенг қўллаш орқали автоматлаштирилган лойиҳалаш тизимларидан (CAD) дастурларидан фойдаланиши уларнинг ўрганилаётган маълумотга бўлган қизиқишини оширади, назарий билимларини шакллантиради ва чуқурлаштиради, шунингдек, ўқув жараёнини янада самарали ва технологик бўлишига кўмаклашади. Ўқув вазифаларини бажаришда мураккаб шаклдаги уч ўлчовли ҳажмли моделларни яратиш бўйича билимларни (кетма-кетлик, кўرғазмалик, мавжудлик ва дифференциация) амалга ошириш, таълим жараёнининг кейинги тадқиқотларида ва кейинги ижодий фаолиятда аниқланади.

Бу билимларни ўзлаштиришда талабалар автоматлаштирилган лойиҳалаш тизимида турли хил деталларнинг чизмаларини бажарадилар ва шу асосида вазифаларни бажариш орқали, улар компьютер график дастурий маҳсулотини ҳам, график фаолиятнинг классик таркибий қисмини ҳам ўзлаштириш имконини беради. Шубҳасиз, шахсий компьютер ёрдамида ишларни бажариш талабаларнинг мустақил ўрганиш фаолияти кўникмаларини ривожлантиради.

Компьютер графикаси ёрдамида ўқитиш, жисмларни ҳажмли моделлаштириш, қирқимлар бериш, ранг схемаларини қўллаш, ўлчамларни кўрсатиш имконини беради. Компьютер технологияларининг яна бир афзаллиги – бу турли реал шароитда кўрсатиш жуда қийин ёки имконсиз бўлган жараёнларни моделлаштиришдир.


Фанларнинг интеграцияси натижасида аввалгиларининг барча афзалликларига эга инновацион курс вужудга келади: янги мақсадлар, мазмун ва ўрганиш технологияси шаклланади.

Бу муоммоларга ўқитувчининг дарс жараёнидаги фаолиятининг ярмидан кўпроки доскада талабаларга масалани ечиш усулини кўрсатиш билан ўтиб кетмоқда. Бундан келиб чиқадики, ўқитувчи белгиланган соатда берилган материални тўлиқ талабаларга етказиш вақти етмай қолмоқда. Ўқитувчи ҳар бир геометрик шакил ва жисимларнинг моделларни талабаларга кўрсатиш учун ўзи билан моделларнинг барсачини аудиторияга олиб кириш керак. Аммо моделлар етишмаслиги ва деталларни моделларни олиб кириш имконияти йўқлиги сабабли уларни талабаларга кўрсата олмайди. Бундай моделларни кенг

фазовий тасаввурга эга бўлган талабаларгин идрок этади, қолган талабалар эса моделларни эга олмайдилар, шу сабабли мавзуларни ўзлаштира олмайдилар. Дарс жараёнида талаба маърузачидан бир баҳя кеч қолса доскадаги чизмага тушунмай қолад ва тўлиқ конспект қила олмайди. Талабалар тушинмаган жойларини ўқитувчидан сўраганда, ўқитувчи талабага жавоб бериши учун чизмани ўчириб, янгидан тушунтиришга тўғри келади. Бу ўқитувчи вақтини ортиқча сарф бўлишига олиб келмайди.

Шу боис график ишлари автоматлаштирилган халқаро стандарт дастур ҳисобланган AutoCAD дастурининг 3D форматида, яъни чизмаси берилган деталнинг яққол тасвирини – изометриясини моделлаш ва унинг асосида деталнинг икки ўлчамли кўринишларидаги ўтиш чизиқларини осон, қулай ва самарали куришни, яъни, автоматлаштиришни 1-расмда келтирилган кесик (баландлиги 90 мм, асоси диаметри 120 мм ва юқори асоси 60 мм бўлган) конусни учта кўринишини куриш мисолида кўриб чиқамиз. Бунда уни иккита горизонтал ( $\varnothing 70$  мм) ва вертикал ( $\varnothing 40$  мм) цилиндрлар кесиб ўтган бўлсин. Ҳамда битта уч ёқли чизмада кўрсатилган ўлчамли, бош кўриниш текислигига проекцияловчи бўлган призма чизмадагидек кесиб ўтган бўлсин.


Бундай вазифа одатда икки босқичда бажарилади. Биринчи босқичда берилган кесик конус-буюм танасини ва кесувчи жисмлар 3D форматда моделлари курилади;

Иккинчи босқичда буюм танаси ва кесувчи қаттиқ жисмларнинг ҳар бири бирин - кетин тана жисмга келтириб қўйилади ва тана жисм у билан « - вычитание-айириш» буйруғидан фойдаланиб тешилади-айрилади. Ёки тана жисмга барча кесувчи жисмлар чизмадагидек йиғилади ва улар ихтиёрий кетма-кетликда бирин кетин айрилади-ўйилади.


1- босқич қуйидаги кетма-кетликда бажарилади:


1. Кесик конусни ва кесувчи призма ва цилиндрни уч ўлчамли моделлари курилади, 2-расм. Уларни «Моделирование» панелидаги тегишли жисмлар буйруқларидан фойдаланиб ясалади.

Кесик конус ва ўювчи жисмларнинг моделини ясаб бўлгач, кесик конуснинг кўринишлари қуйидагича лойиҳаланади:




1. Асосий тана ҳисобланган кесик конуснинг баландлик ўртасини таянч нуқта деб олиб, кесувчи вертикал цилиндр билан кесиб-ўйиб олинади.

Уларни « - вычитание-айириш» буйруғидан фойдаланиб, яъни танани




2- расм




- расм


3

сичқонни чап тугмаси билан ажратиб «Enter» билан тасдиқланади ва ўювчи вертикал цилиндр ажратилиб «Enter» тугмаси юкланса, диаметри 40 мм ли цилиндрлик ўйиклик ясаиб қолади, 3-расм.


2. Иккинчи горизонтал тешик, диаметри 70 мм бўлган цилиндр тана конусга келтириб жойланади ва уни « - вычитание-айириш» буйруғидан фойдаланиб кесик конус тешилади-ўйилади, 4-расм.

3. Тана конусга учинчи тешувчи призма юқоридаги цилиндрлар каби кўчириб келинади.

Сўнгра « - вычитание-айириш» буйруғидан фойдаланиб, яъни танани сичқонни чап тугмаси билан ажратиб «Enter» билан тасдиқланади ва ўювчи призма ажратилиб «Enter» тугмаси юкланса, деталнинг олд ва орқа томони кесилиб, кесим чизиғи автоматик ҳосил бўлади, 5- расм.




4- расм



5- расм

Юқорида қайд қилинганидек, тана жисмга бир йўла кесувчи жисмлар 6-расмдагидек йиғилиб, сўнгра уларни бирин кетин ўзак танадан айриб ҳам кесик конуснинг изометриясини осонгина қурилади.

Энди берилган кесик конусни 3D форматдан 2D форматга ўтказиб, чизмасини ва улардаги мураккаб кесишиш-ўтиш чизиқларини самарали қуриш мумкинлигини кўриб чиқамиз.



б-расм

График чизиқларни бажаришда талабалар икки проекцияси асосида учунчи етишмовчи проекцияси топиш ва аксонометрик проекциясини қуришда бир мунча қийнчиликлар туғдирганли сабабли талабаларга олдин 3D форматда бажарилган яққол тасвирини чизмасини чизиб олиш орқали - 2D форматга ўтказиш натижасида проекцияларини ҳосил қилишда кам вақит ичида сарифлаб кўзлаган натижасига тезда ҳамда кўпроқ маълумотга эга бўлиб ва талабанинг креативлиги ошишга ёрдам беради.

## **ХУЛОСА**

Талаба аксонометрик проекция орқали ортогонал проекция чизмаларини ишлай олиши ва уларни таққослай олиши, қолаверса янги аксонометрик проекция орқали чизмаларини мустақил равишда ўзлаштира олиши мумкин.

Чизма геометрия ва муҳандислик графикаси фанида ўқитувчи томонидан талабаларга график дастурлар воситасида аксонометрик проекцияларни ўқитишда чизмаларини компьютер ёрдамида амалга оширишда талабалар билимларини одилон баҳолашда муҳим омил сифатида хизмат қилади. Компьютер технологияси AutoCAD дастури воситасида талабалар билимини назорат қилишда педагог учун унинг меҳнатини кескин енгиллатадиган восита сифатида хизмат қилади.

## **REFERENCES**

1. К.Маликов. Аксонометрик проекцияларни қуриш назарияси ва амалиёти. ТДПУ хабарномаси, 2017/3, 15-21 бет.
2. Рихсибоев У.Т. Чизма геометрияда таянч метрик масалаларни ечишнинг янги тўғри бурчак усули: тех.фан. ном.дисс. – Тошкент: 2006. 14-16 б.
3. Ш.Муродов ва бошқалар. Чизма геометрия курси, Т., Ўқитувчи, 1988, 103-106 бетлар.

4. З.Э.Мирзалиев, М.К.Халимов, К.Г.Маликов, Б.Х.Абдухонов. Методика использования нового механизма для построения аксонометрических проекций. Young scientist, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. <https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835>
5. Shah M.B; Rana B.C. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India: 2011. –pp. 345-355.
6. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of Axonomertic projects. European Journal o f Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (9), 224-231. Volume 8 Number 9, 2020 ISSN 2056-5852 Website: [www.idpublications.org](http://www.idpublications.org), Email: [editor@idpublications.org](mailto:editor@idpublications.org).
7. Sh.Murodov, K.Malikov Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestirda “Chizma geometriya” 2017/07/13, No. DGU 20170217.
8. Sh.Dilshodbekov, K.Malikov Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestirda “Chizmachilik” 2019/12/02, No. DGU 2019 0141.
9. Sh.Muslimov Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestirda “Chizmachilik” elektron qo’llanma (mobil ilova) 2020/06/22, No. DGU 20201023.
10. Байбаева М.Х., Гулямходжаева Н., Мукимов Б.Р. Интеграция теоретических и практических психолого-педагогических знаний как средство совершенствования профессиональной подготовки будущих инженеров — педагогов. Актуальные вопросы современной педагогики: материалы VIII Междунар. науч. конф. (г. Самара, март 2016 г.). — Самара: ООО «Издательство АСГАРД», 2016. – С 244-246.
11. Tartre, L. A. (1990). Spatial skills, gender and mathematics. In E. H. Fennema & G. C. Leder (Eds.), Mathematics and gender (pp. 27–59). New York NJ: Teachers College Press.
12. Fabiano Cocozza. Axonometry: The Grip of Thought on Space —A Short Survey on the Relation between the Act of Planning and a Visionary Visualization Technique. Proceedings 2017, 1, 844. doi: 10.3390/proceedings1090884 [www.mdpi.com/journal/proceedings](http://www.mdpi.com/journal/proceedings)
13. Лейбов А.М. Методика применения систем автоматизированного проектирования в графической подготовке студентов технического колледжа: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Новокузнецк: РГБ, 2007. – 134 с.
14. Федотова Н.В. Формирование графической компетентности студентов технического вуза на основе трехмерного моделирования. Дисс. канд. пед. наук. – Тамбов, 2011. –180 с.



15. Димицкая Н.Г. Организация самостоятельной работы студентов по инженерной графике тестовыми методами: Дисс. ... канд. пед. наук:13.00.02. – М.: РГБ, 2003. –169 с.
16. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonometric projects. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(9)*.
17. Мирзалиев, З. Э., Халимов, М. К., Маликов, К. Г., & Абдухонов, Б. Х. (2017). Методика использования нового механизма для построения аксонометрических проекций. *Молодой ученый*, (8), 1-6.
18. Халимов, М. К., Ташимов, Н. Э., & Маликов, К. Г. (2015). ЧИЗМАЧИЛИК ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ЎЙИНЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 51, pp. 118-121). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
19. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)*.
20. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1)*, 212-214.
21. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 103–116. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19>
22. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ . *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, 32(3), 53–55. извлечено от <https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/851>
23. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: <https://moluch.ru/archive/192/48066/>

24. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
25. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
26. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
27. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.
28. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, 17(7), 10534-10551. Retrieved from <https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088>
29. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(2), 7. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R>
30. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенности Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 54-61. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116>

## **JAVA DASTURLASH MUHITIDA SHART OPERATORLARI (IF, SWITCH CASE)**

**U.A .Madaminov<sup>1</sup>, O.K.Ataboev<sup>2,3</sup>,  
D.R.Kodirov<sup>2</sup>, M.N.Jumaniyazov (bakalavr)<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

<sup>2</sup>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali

<sup>3</sup>Navoiy davlat konchilik instituti Nukus filiali

E-mail: [uktam9527@gmail.com](mailto:uktam9527@gmail.com), [omonboy12@mail.ru](mailto:omonboy12@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Java dasturlash tilidagi shart operatorlari **if** va **switch case** haqida ma'lumotlar hamda ularni qo'llashga oid misollar keltirib o'tilgan. Bu operatorlardan foydalanishda masalani qo'yilishiga qarab ularning birini ishlatish mumkinligi misollar tariqasida yoritilib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *if/else, int, switch, case, break, default, System.out.println.*

### **ABSTRACT**

*In this article, information on the Java programming language Conditions and SWITCH CASE are given examples of them and their use. It is examined as an example of the use of these operators due to the application of the issue.*

**Keywords:** *if/else, int, switch, case, break, default, System.out.println.*

Java, boshqa dasturlash tillari singari, bajarilishni boshqarish uchun shartli ifodalar va tsikllarni qo'llaydi.

#### **if/else shartli ifodasi**

if shartli ifoda quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

if (shart) ifoda

Shartli ifodaning sharti qavs ichida bo'lishi kerak. Agar shart to'g'ri bo'lganda bir necha ifodalar bajarilishi kerak bo'lsa ular figurali qavslar ichiga olinishi kerak.

if (shart)

{

ifoda 1;


ifoda 2;

}

Masalan:

```
if (x>25)
{
    tanNarx = 130;
    sifat = "yaxshi";
}
```

dastur kodida agar x qiymati 25dan katta bo'lsa u holda shartli ifodaning figurali qavslari ichida joylashgan barcha ifodalar bajariladi, ya'ni, tanNarx o'zgaruvchisining qiymati 130ga sifat o'zgaruvchisining qiymati "yaxshi" qiymatiga o'zgartiriladi. Quyida if shartli ifodaning blok sxemasi keltirilgan.



1.1 shartli ifodaning blok sxemasi

if shartli ifodaning umumiyroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

```
if (shart) ifoda1 else ifoda2
```

Ushbu ko'rinishda shartli ifodaning sharti to'g'ri bo'lsa ifoda1 bajariladi, agar shrt noto'g'ri bo'lsa ifoda2 bajariladi. Agar shartning xar bir xolatida bir necha ifodalar bajarilishi kerak bo'lsa ifodalar figurali qavslar ichida bo'lishi kerak.

```
if (shart){
    ifoda1;
    ifoda2;
} else {
    ifoda3;
    ifoda4;
}
```


Masalan:

```
if (x>25){
    tanNarx = 130;
    sifat = "yaxshi";
}
```

```
} else {  
    tanNarx = 50;  
    sifat = "qoniqarsiz";  
}
```

Dastur kodida agar  $x$  qiymati 25dan katta bo'lsa  $\text{tanNarx}$  o'zgaruvchisining qiymati 130ga va sifat o'zgaruvchisining qiymati "yaxshi"ga o'zgaradi. Agar shartli ifodaning sharti bajarilmasa, ya'ni  $x$  qiymati 25dan kichik bo'lsa,  $\text{tanNarx}$  o'zgaruvchisining qiymati 50ga va sifat o'zgaruvchisining qiymati "qoniqarsiz"ga o'zgaradi.

if/else shartli ifodaning blok sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



*if/else shartli ifodaning blok sxemasi*

Agar dasturda bir necha shartlarni ketma ket tekshirish kerak bo'lsa if/else if shartli ifodadan foydalanish mumkin:


```
if (shart1)  
{  
    ifoda1;  
} else if (shart2) {  
    ifoda2;  
} else if (shart3) {  
    ifoda3;  
}
```

Masalan,

```
if (x>100)  
{  
    tanNarx = 250;
```

```
sifat = "alo"; } else if (x>25) {  
tanNarx = 130;  
sifat = "yaxshi";  
} else if (x<25) {  
tanNarx = 50;  
sifat = "qoniqarsiz";  
}
```

dastur kodida x qiymati 100dan katta bo'lsa tanNarx o'zgaruvchisining qiymati 250, sifat o'zgaruvchisining qiymati "alo", agar x qiymati 100dan kichik va 25dan katta bo'lsa tanNarx qiymati 130ga, sifat qiymati "yaxshi"ga, agar x qiymati 25dan kichik bo'lsa tanNarx qiymati 50ga, sifat qiymati "qoniqarsiz"ga o'zgaradi. x if/else if shartli ifodaning blok sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.



**switch shartli ifoda.** Switch shartli ifoda boshqaruvni blok ichida joylashgan, ma'lum belgiga ega ifodaga o'tkazib berish uchun xizmat qiladi. switch shartli ifoda quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

```
switch (n)  
{  
case a: ifoda_1; case b: ifoda_2;  
...  
default: ifoda_N;  
}
```

Bu yerda n o'zgaruvchisining turi butun son, ya'ni int, bo'lishi kerak. Shartli ifoda bajarilganda n o'zgaruvchisi qabul qiladigan qiymat switch shartli ifodasining

case qatorida joylashgan qiymatiga teng bo'lsa ushbu qatordagi ifoda bajariladi. Agar, o'zgaruvchi qiymati case qatorlarining qiymatlariga teng bo'lmasa u holda default qatorining ifodasi bajariladi.

default qatori odatda switch shartli ifodaning oxirida joylashadi. default qatori shartli hisoblanmaydi va yozilmasligi ham mumkin. Masalan,

```
int x = 2;  
switch (x)  
{  
    case 1: System.out.println("Birinchi ifoda");  
    case 2: System.out.println("Ikkinchi ifoda");  
}
```

x o'zgaruvchisining qiymati 2 teng bo'lgani uchun 2 qiymatga ega case qatori bajariladi. Ushbu dastur kodi quyidagi matnni ekranga chiqarib beriladi:

Ikkinchi ifoda

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki case qatorlari switch shartli ifodaning kirish nuqtasi hisoblanadi, ya'ni tegishli case qatori bajarilganda undan keyin joylashgan qatorlar ham bajariladi. Masalan:

```
int x = 2;  
switch (x)  
{  
    case 1: System.out.println("Birinchi qator");  
    case 2: System.out.println("Ikkinchi qator");  
    case 3: System.out.println("Uchinchi qator");  
    default: System.out.println("Default qatori");  
}
```

Yuqoridagi dastur kodi bajarilganda ekranga quyidagi matn chiqarib beradi:

Ikkinchi qator

Uchunchi qator

Default qatori

Agar switch shartli ifodasining faqatgina bir qatori bajarilishi kerak bo'lsa ushbu qator oxirisigacha bajarilish tartibini buzuvchi ifodadan, ya'ni **break** ifodasidan, foydalanish mumkin. Masalan:

```
int x = 2;  
switch (x)  
{  
    case 1:
```

```
System.out.println("Birinchi qator");  
break;  
case 2:  
System.out.println("Ikkinchi qator");  
break;  
case 3:  
System.out.println("Uchinchi qator");  
break;  
default: System.out.println("Default qatori");  
}
```

Yuqoridagi dastur kodi quyidagi matnni ekranga chiqarib beradi:  
Ikkinchi qator

### REFERENCES

1. Core Java 2 Volume I – Fundamentals, 7<sup>th</sup> Edition, Cay S. Horstmann, Gary Cornell, Prentice Hall PTR, 2004.
2. Learning Java, 3<sup>rd</sup> Edition, Jonathan Knudsen, Patrick Niemeyer, O'Reilly, 2005.
3. U.Madaminov, T.Turdiyev: «Ta'limda mobil ilovalari» o'quv qo'llanma.TATU Urganch filali. 2021 y.
4. Ismoilovna, A. A., Rimberganovna, A. M., Ataxanovich, U. M., & Muyassar, O. (2021, November). Creating an application for training science. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-4). IEEE.
5. Ataxanovich, U. M., Akmuratovich, S. M., Pulatovich, K. S., Rimberganovna, A. M., & Ismoilovna, A. A. (2021, November). Development and application of computer graphics training software in information technology. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 01-03). IEEE.



## **SPORT TURIZMI JARAYONIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

**M.A. Azizov**

NamMQI "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasida o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada o'quvchilarning axloqiy va axloqiy qiyofasini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni hamda jismoniy tarbiya va sportning inson ruhi, ma'naviyati va axloqiga ta'siri ta'siri haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan..*

***Kalit so'zlar** - Jismoniy tarbiya, sport, motivatsiya, sog'lom turmush tarzi, ma'naviyat, estetika.*

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОРГАНИЗАЦИИ ПОЕЗДОК**

**M.A. Азизов**

НамИСИ Преподаватель кафедры «Физическая культура и спорт»

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается роль физического воспитания и спорта в формировании морально-этического имиджа студентов. Анализируется влияние физического воспитания и спорта на человеческий дух, духовность и нравственность.*

***Ключевые слова** - Физическое воспитание, спорт, мотивация, здоровый образ жизни, духовность, эстетика.*

## **PEDAGOGICAL BASIS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF SCHOOLS IN THE PROCESS OF TRAVEL ORGANIZATION**

**M.A. Azizov**

NamICI Teacher of the Department of "Physical Culture"

### **ABSTRACT**

*This article discusses the role of physical education and sports in shaping the students' moral and ethical image. The impact of physical education and sport on the human spirit, spirituality and morality is analyzed.*

*Keywords - Physical Education, Sports, Motivation, Healthy Lifestyle, Spirituality, Aesthetics.*

## **KIRISH**

Inson tabiatning mahsuli va uning ajralmas qismidir. Inson tabiat va uning komponentlaridan foydalanmasdan turib yer yuzasida yashay olmaydi. Afsuski XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson faoliyatining tabiiy muhitga kuchli ta'siri natijasida ekologik muammolar yuzaga chiqa boshladi. Bugungi kunga kelib ushbu muammolar shu darajada kuchayib ketdiki, tsivilizatsiya xavf ostida qoldi. Ana shunday sharoitda olimlar tomonidan ekologik muammolarni hal qilishning ko'plab yechimlari ilgari surildi. Dunyo hamjamiyati tomonidan ekologik muammolarni hal etish yo'llaridan biri ta'limdir, degan xulosaga kelindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham bu borada qator ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida "Fuqarolar atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", – deb belgilab qo'yilgan. Ushbu modda fuqarolarning tabiatga nisbatan munosabat me'yorlarini belgilab beradi.

Biz ushbu me'yoriy hujjatlarni huquqiy asos qilib olgan holda, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida sport turizmi jarayonida ekologik madaniyatini shakllantirish muammosini hal etishni lozim topdik.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sport turizmi - jamoa ravishda biror ob'ektga (muzey, stadion, kort, qurilish, fabrika, zavod, o'rmon va hokazo) sog'liqni mustaxkamlash, jismoniy chiniqish, ilmiy qidiruv yoki o'quv maqsadida, umumiy madaniy rivojlanish uchun o'tkaziladigan tadbir. Bunday tadbir aholi yashab, o'qib turgan joylarga yoki boshqa shaharlarga ham borganda uyushtirilishi mumkin. Sport turizmining bu shakli asosan katta yoshdagi maktab o'quvchilari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining talabalari orasida keng tarqalgan madaniy, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga molik tadbir.[5]

Sport turizmi (turizm) ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida, o'quvchilarni sog'lom qilib tarbiyalash va tabiatni o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sport turizmi shaklan ko'p tarmoqli turlarga bo'linadi. Ularning mazmuni shug'ullanuvchilarning jismoniy barkamolligini oshirish bilan bir qatorda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, jamoa bilan ishlash, o'zaro hamkorlik va do'stlik kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashda xizmat qiladi.

Sport turizmining maqsadi:

- o'quvchilarni atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatlarini shakllantirish;
- atrof-muhitda sodir bo'ladigan xavfli hodisalardan himoyalanihga o'rgatish;
- tabiatga salbiy ta'sir etmaslik.

Eko sayohat o'quvchilarning dam olish kunlari, ta'til paytlarida sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish va chiniqtirish, ularning mehnat qobiliyatini oshirish maqsadida o'tkaziladi. Shu bilan birga o'quvchilar uchun ommaviy sog'lomlashtiruvchi piyoda yurish, toqqa chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davr talablari, shart-sharoitlarni hisobga olgan holda sayohatlarni uyushtirishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini sayohatning nazariy asoslari va amaliyoti bilan qurollantirish zarur. O'quv muassasalarida, sport uyushmalari va jamoalarida ommaviy sayohatlarni tashkil etish uchun sayohat bo'yicha mutaxassis kadrlar, jamoatchi faollarni tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yish lozim. [6]

Sport turizmi salomatlik demakdir. Unda dam olish, sog'liqni saqlash, jismonan chiniqish, xordiq chiqarish, o'lkani o'rganish, ijtimoiy-foydali mehnat qilish, tabiatni muhofaza qilish (ekologiya), ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy jarayonlar mujassamlashadi. Sayohatlarni amalga oshirishda tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sport turizmi, sarguzashtlar va piyoda yurish kabi turlarni o'z ichiga olib, mazmunan esa insonlarning bilim doirasini kengaytirish, aql-idrokini (tafakkur) rivojlantirish hamda jismoniy barkamollikni tarbiyalash kabi eng muhim fazilatlarni qamrab oladi. Sport turizmi xalqaro miqyosdagi eng zamonaviy tadbirlardan biridir. Tarixiy-madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan tanishish, zamonaviy qurilmalar, hashamatli uylar, chiroyli bog'-rog'lar, millatlarning urf-odatlarini o'rganish kabi sohalar sayohatchilarning diqqat-e'tiboridan keng joy oladi.[7]

Ommaviy piyoda yurish sayohatlari asosan tog'li manzaralar, daryo, ko'l, suv omborlari sohillari kabi xushmanzarali joylarga tashkil etiladi. Bunda tabiat bilan tanishish, so'lim-go'zal manzarali joylarda tunash, ovqatlanish, jismoniy mashqlar, turli amaliy harakatlarni bajarish bilan jismonan chiniqish asosiy maqsad hisoblanadi.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talablarini bajarishga tayyorgarlik mashg'ulotlari (sayohat, gimnastika, yengil atletika, suzish va h.k.)ni o'tkazishda yuqorida ta'kidlangan manzillar xizmat qila oladi.[8]

O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi qonuni (1999 yil) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm sohasidagi qarorlari mazkur faoliyatni amalga oshirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan o'quvchilarning bilim saviyalarini oshirish, bu yo'ldagi mehnat faoliyatlarida sport turizmi tashkil qilish amaliyoti bilan ularni maqsadli qurollantirish zarur. Buning

uchun sayohatlarning amaliy asoslarini davr talablari asosida o'quvchilarga o'rgatish, ular ongiga singdirish lozim. Yuqorida bayon etilgan talablar, mulohazalarni hayotga tatbiq etish uchun o'quvchilarni turizmning turlari, uning mazmun va mohiyati bilan qurolantirish muhim pedagogik muammolardan biri sanaladi. Sport turizmi amaliy harakatlar va faoliyatlar yig'indisi sifatida jismoniy tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Uning ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtiruvchi xususiyatlari shaklan va mazmunan jamiyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega. Ya'ni, sayohatlar bilim va amaliy malakalarni oshirish orqali ishlab chiqarish sifatini yaxshilash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi.[10]

Sport turizmiga qo'yilgan maqsadlar asosida shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va salomatligiga qarab uyushtiriladi. Ularning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir, ya'ni:

1. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar sport turizmi
2. Maktab va texnikumlar o'quvchilarining sport turizmi.
3. Mehnat jamoalari xodimlarining sport turizmi.
4. Aholi istiqomat joylaridagi kishilarning sport turizmi.

Sport turizmi tashkil qilishning asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Shug'ullanuvchi(qatnashchi)larning sihat-salomatligini yaxshilash uchun piyoda yurish, qulay joylarda mashqlar, o'yinlar o'tkazish.
2. Atrof-muhit, tabiat manzaralarini tanishtirish, e'tiborga loyiq aholi yashaydigan joylarni o'rganish.
3. Tarixiy va madaniy obidalarni tomosha qilish va ularning tarixini o'rganish.
4. O'zi yashab turgan joylarning (yosh bolalar uchun) tarixi, rivojlanishi va mehnatkashlarning xizmatlarini o'rganish.
5. Ilmiy izlanish ishlarini (mutaxassislar) olib borish.

Sport turizmi nazariy bilim (tushuncha) va amaliy malakalar hosil qilish yo'lida ta'lim-tarbiya vazifasini o'taydi. SHu bilan birgalikda qatnashchilarning sihat-salomatligini yaxshilash, jismonan barkamollikni o'stirishga qaratiladi. Demak, turizm shakl va mazmun jihatdan tarbiyaviy hamda sog'lomlashtiruvchi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirish bilan muhim ahamiyatga ega. Sport turizmida qatnashchilarning belgilangan joyga yetib borishi, ulovlarga chiqish va tushishlari, sayr-sayohat manziliga kirish va bevosita sayr-sayohatlarda ishtirok etish jarayonida piyoda yurish asosiy o'rinda turadi. Chunki, erkin ravishda barcha faoliyatlarni bajarish, yuklarini ko'tarib yurish, tomosha-sayr jarayonlarida faol qatnashishda sharoitlarga qarab tez yoki sekin yurish, to'xtash, ba'zan yugurish ham

amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ham sayohatchilarning salomatligini yaxshilash, faol amaliy harakatlar qilishda ko'mak beradi.[9]

Sport turizmini piyoda yurish shakllari mazmun va mohiyat jihatdan o'z xususiyatlariga egadir. Ularni maqsadli uyushtirish va olib borishda mutasaddi xodimlarning mas'uliyatlari e'tiborga loyiqdir. Tabiat qo'yniga uyushtirilgan piyoda yurish sayohatining maqsadi va belgilangan rejalar asosida turli faoliyatlar amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar bunday sayohatlarda quyidagi tadbirlarni bajarishlari zarur:

1. Turizmni o'rganish.
2. Tabiat manzaralarini tomosha qilish.
3. Turli xil harakatlarni bajarish asosida jismoniy jihatdan chiniqish.
4. O'simliklarga zarar yetkazmasdan gerbariylar yasash.
5. Foydali hasharotlarga zarar yetkazmasdan ularning (kapalak, ninachi, chumoli, qo'ng'iz va h.k.) tuzilishi, xususiyatini o'rganish.
6. Qushlarning (burgut, kalxat, lochin, qarchig'ay, kaklik, chumchuq va h.k.) turlarini aniqlash.
7. Yovvoyi hayvonot olami (cho'chqa, kiyik, olqar, tulki, bo'ri, toshbaqa, yumronqoziq, jayra, ilon va h.k.) bilan tanishish.
8. Nodir toshlarni (yarqiroq, rangli va h.k.) hamda ularning turli shakllarini izlash va yig'ish.
9. Daraxtlarning qurigan shoxlari, ildizlaridagi shakllarni (odam, hayvonlar va boshqalarga o'xshash) topish, ularni yig'ish.
10. Tuproq tarkibi, rangi va funktsiyalarini o'rganish.
11. Daraxt turlarini aniqlash.
12. Chorva va o'rmon xo'jaligi (tabiatni qo'riqlash) xodimlarining ijtimoiy turmush sharoitlari bilan tanishish, ularga ko'maklashish.
13. Sport turizmi yakuniga bag'ishlab gulxan uyushtirish (ko'p kunlik sayohatlarda). Bunda qilingan ishlarning foydali va zararli tomonlariga ekologik jihatdan baho berish, ekonuqsonlarni tuzatish yo'llarini aniqlash, navbatdagi sayohatlarni rejalashtirish[4]

Bu tadbirlar piyoda yurish sayohatlarida qatnashchilarni ekologik jihatdan barkamol qilib tarbiyalash hamda atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, sog'lom, mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi asosida bolalar

turizmidan maqsadli foydalanish lozim. Maktab o'quvchilarining sog'lig'ini mustahkamlash, kasb-hunar (mutaxassislik) yo'lidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma, ekologik madaniyat hamda amaliy malakalarini takomillashtirishda sayohatlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayondir.[3]

## REFERENCES

1. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik ta'lim-tarbiyaga oid ko'p yillik o'quv va ilmiy dastur hamda rejalar/Tuzuvchi: Ergashev A.E; Nizomiy nomli TDPU. –T.: 1991. -38 b.
2. Abdullaev A.A., Xonkeldiev SH.H. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, Farg'ona, 2001.
3. Avazov SH. Qishloq maktablari yuqori sinf o'quvchilarini o'lkashunoslik faoliyati jarayonidla ekologik tayyorlash. Ped. fan. nom. .diss. - T.: 1993. - 161 b.
4. Қаяумов М. Д. Проблемы физического воспитания в педагогических воззрениях таджикско-персидских мыслителей //вестник академии образования таджикистана. – 2018. – №. 2. – с. 60-66.
5. Ниёзматов Э. Роль физической культуры в формировании духовно-нравственного образа студентов //педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2021. – с. 98-102.
6. Azizov M. features of preparation of secondary school students for sports tourism //asian journal of research in social sciences and humanities. – 2022. – т. 12. – №. 2. – с. 256-260.
7. Ahmadkhanovich A. M. pedagogical conditions for the formation of a culture of preserving nature of students during travel. – 2021.
8. Бегалиев М. О., Азизов М. А. влияние соматической патологии на развитие личности человека //неделя молодежной науки-2021. – 2021. – с. 421-422.
9. Азизов м. а. гигиена физической культуры-предмет, задачи и методы //экономика и социум. – 2019. – №. 5. – с. 263-265.
10. Ismoilov A. T., Azizov M. A. the role of physical education and sport in emphasizing the spiritual and moral claims of students //экономика и социум. – 2019. – №. 9. – с. 6-7.

## **QADIMGI YAPONIYADAGI MADANIY VA SIYOSIY JARAYONLAR. KOFUN DAVRI**

**Radjabov D. (SamDCHTI),  
Jo'ramurodov D. (SamDCHTI)**  
[ganbarediyov@mail.ru](mailto:ganbarediyov@mail.ru),  
[Juramurodov1990@mail.ru](mailto:Juramurodov1990@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Qadimgi Yaponiyadagi madaniy va siyosiy jarayonlar, xususan, Kofun davri yodgorliklari, mamlakatdagi siyosiy ahvol, madaniyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda mamlakat tashqi siyosati haqida ham atroflicha yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** 古墳, 仁徳陵, 前方後円墳, 箸墓古墳, 埴輪, 日本書紀, Goguryo, Pekche, Silla, Wa davlati

### **ABSTRACT**

*This article provides information on cultural and political processes in ancient Japan, especially in the Kofun monuments, the political situation in the country, the political situation in the country, and the political situation in the country. At the same time, the country's foreign policy is also covered in detail.*

**Keywords:** 古墳, 仁徳陵, 前方後円墳, 箸墓古墳, 埴輪, 日本書紀, Goguryo, Pekche, Silla, Wa

### **KIRISH**

Kofun (古墳) bu hukmdor va zodagonlarning qabri bo'lib, tepaliklarning yon yoki ustki qismi kovlanib qurilgan maxsus qabrlardir. Tepaliklarning uzunligi turlicha bo'lgan. Eng uzuni Osaka prefekturasidagi Nintokuryou (仁徳陵) yodgorligi bo'lib, tepalikning uzunligi 486 metrdan iborat. Kofun yuzasining katta qismi toshlar bilan bezatilgan. Qadimda Yaponiyaning har bir hududida ana shunday "Kofun" ya'ni qabrlar qurilgan bir davrda Yaponiya davlatchiligiga asos solingan. Kofunlar III asrning 2-yarmidan VII asrgacha qurilgan va bir necha xil shakllarga ega bo'lgan. Uzunligi 300 metrdan oshadigan Kofunlar Yaponiyada 7 tadan ko'pni tashkil etadi. Kofunlar ko'rinishiga ko'ra bir nechta turdagi shakllarda qurilgan. Dastlab "Zempou-kou-en fun" (前方後円墳) shaklidagi Kofunlar qurilgan. Bunday shakldagi Kofunlarning eng qadimiysi Nara prefekturasi Sakurai shahridagi Hashihaka Kofun bo'lib, uzunligi 278 metrdan iborat. Hashihaka Kofun (箸墓古墳) ning old

to'rtburchak shaklidagi qismida dafn marosimi o'tkazilib, tepalik ortidagi dumaloq shaklga ega qabr tepaligining ostiga esa jasad dafn etilgan. Ushbu Kofunning tepasidan bir nechta Haniwa (埴輪) lar topilgan. Haniwa bu Kofunlarning eng yuqorisiga taxlangan odam, hayvon hamda uy ko'rinishidagi, gildan yasalgan sopol haykalchalar bo'lib, bo'yi 1 metrgacha bo'lgan<sup>269</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Kofunlarning turlari esa quyidagicha bo'lgan<sup>270</sup>:

- Zempou-kou-en fun (前方後円墳) – oldi to'rtburchak, orqa tomoni dumaloq shakldagi.
- Zempou-kou-hou fun (前方後方墳) - Old va orqasi to'rtburchak shakldagi.
- Hou fun (方墳) – to'rtburchak.
- Jou-en-ka-hou fun (上円下方墳) – yuqorisi dumaloq, pastki qismi to'rtburchak shakldagi.
- Yen fun (円墳) – dumaloq shakldagi

Kofunlar dastlab katta hajmda, vertikal qilib qurilgan bo'lsa, keyinchalik hajmi kichiklashib, gorizental shaklga ega Hou fun (方墳) – to'rtburchak Kofunlar ko'paygan. VII asrdan esa boy dehqonlar dafn etilgan Yen fun (円墳) – dumaloq shakldagi Kofunlar qurila boshlagan. Qadimgi Yapon qaydnomasi Nihonshoki (日本書紀) da Hashihaka Kofun qurilishi haqida qaydlar uchraydi. Unda yozilishicha, tog' tepaliklaridan Kofun qurilish joyigacha ko'plab odamlar qator qilib terib qo'yilgan va toshlar qo'lma – qo'l tashilgan. Kofunlar qurilishi uchun har tarafdan minglab odamlar to'plangan hamda keng ko'lamdagi qurilish tusini olgan<sup>271</sup>.

Shuni qayd etishimiz kerakki, o'ziga bir nechta hududlarni birlashtirgan Yamato davlati hukmdori Malika Himiko Hashihaka Kofunda dafn etilgan degan farazlar ham bor. Jasad bilan birga ko'milgan bronza ko'zgu, taqinchoqlar va qilich topilishi shundan dalolat beradiki, u yerga hukmdor dafn etilgan va u diniy boshqaruvchi shaman bo'lgan. Yamato davlati hukmron boshqaruvi avvaliga diniy qarashlarga asoslangan, keyinchalik esa, harbiy boshqaruvga o'tganligini qabrdan topilgan narsalardan bilib olishimiz mumkin.

Xitoy solnomalarida qayd etilishicha yirik kofunlar qurilgan V asrda **Wa davlati** tomonidan Xitoyga ikki marta elchilar yuborilgan. Shuningdek, Mamlakat ketma –

---

繁田 信一、知るほど不思議な平安時代 上 2022 年。

大口勇次郎など、『中学校歴史日本の歴史と世界』、株式会社、清水書院、平成 14 年。



ket 5 ta hukmdor tomonidan boshqarilganligi haqida ham ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Xitoy va Koreya qadimgi Yapon davlatlari rivojida muhim o'rin tutgan. Bu ikki mamlakatdan o'sha davr eng so'ngi texnologiyalari, yangiliklari o'zlashtirilgan. Sopolchilik va yog'ochsozlik texnologiyalari, temirchilik, qattiq sopol yasash usuli, to'quvchilik kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, ieroglif hamda Konfutsiy ta'limoti yetkazilgan VI asrda koreyadagi Pekche qiroli tomonidan Buddizm yetkazilgan. Bularning barchasi qadimgi yaponlar diniy qarashlari va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

V asrdagi "Wa davlatining 5 hukmdori" davrida hokimiyat "Oila" va "Unvon" sistemasida boshqarilgan. Ya'ni zodagonlar oilalari jamiyatda muhim o'ringa ega bo'lib, ularga imperator tomonidan avloddan-avlodga o'tadigan unvon berilgan. Hokimiyat markazi Yamato (hozirgi Nara prefekturasi) bo'lib, eng qudratli oila hokimiyatni boshqargan.

Xitoy va KXDR davlatlari chegarasida 414-yilda qurilgan tosh monumentda **Wa davlati** haqida bitiklar uchraydi. Unda yozilishicha Koreyaning qadimgi **Goguryo** davlati qiroli Koutai Koreya yarim orolidagi Xitoy hukumati qarargohi joylashgan shahar (hozirgi Pyon Yang) ni vayron qiladi va janubdagi Pekche qirolligi bilan to'qnashadi. O'sha davrda Pekche va Silla qirolliklari o'rtasidagi **Kawa** hududida yapon orollaridagi Wa davlatidan kelgan yaponlar yashar edi. Pekche qirolligi ana shu yaponlar hamda Wa davlati yordamiga tayangan holda Goguryoga qarshi 391-yilda urush boshlaydi<sup>272</sup>.

O'sha davrda Pekche hamda Wa davlatlari o'zaro do'stona tashqi siyosat yuritgan. Koreya tarixiy qaydnomasi bo'lgan "Uch qirollik tarixi" da yozilishicha Pekche qiroli Wa davlatiga elchi yuboradi. Tarixchilar buni Pekche qiroli Wa davlatidan harbiy yordam so'rash maqsadida qilingan degan taxmindalar. Shuningdek, Nara prefekturasida Pekche qiroli tomonidan 369-yilda Wa hukmdoriga sovg'a sifatida junatilgan "7 shoxli qilich" (七支刀) saqlanmoqda. Yuqorida qayd etilganlardan shu narsa ma'lumki har ikki mamlakat o'zaro hamkor munosabatda bo'lishgandir.

## **XULOSA**

Shuningdek, "Uch qirollik tarixi" da Koreya janubidagi Kawa hududi temirga boy bo'lganligi uchun Wa davlati odamlari u yerga temir qazib olish uchun tez-tez kelishgan hamda Silla qirolligiga ham vaqti vaqti bilan bosqinchilik yurishlari qilib

---

池田 亀鑑、平安朝の生活と文学 (ちくま学芸文庫) 2012 年。

turgan. O'sha davrda temir nihoyatda noyob narsa bo'lgan. Temirdan mehnat va jang qurollari yasalgan. Yog'ochsozlik hamda dehqonchilik rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham yaponlar dengiz osha mashaqqatli safarlar qilib, bosqinchilik urushlari olib borishgan.

### **REFERENCES**

1. 繁田 信一、知るほど不思議な平安時代 上 2022 年。
2. 大石勇次郎など、『中学校歴史日本の歴史と世界』、株式会社、清水書院、平成 14 年。
3. 池田 亀鑑、平安朝の生活と文学 (ちくま学芸文庫) 2012 年。

## **TURON PLITASINING RIVOJLANISH TARIXI VA NEFTGAZLILIGI**

**Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi;

**Dononov Jasur Ural o'g'li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti;

jasurdononov@mail.ru

**Shamsidinova Gulzoda Ural qizi**

Toshkent davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Turon plitasi hududining tektonik rivojlanish tarixi yoritilgan. Shuningdek, geosinklinal (poydevorining shakllanish davri) va platforma (cho'kindi qoplamaning shakllanish davri) bosqichlarida rivojlanishi keltirilgan. Turon plitasining neftgazliligi, jumladan Buxoro-Xiva neftgazli oblastining neftgazliligi, toyura yotqiziqlarining potensial neftgazliligi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turon, geosinklinal, platforma, kaledon, gersin, Tyan-Shan, paleozoy, trias, yura.

## **ИСТОРИЯ РАЗРАБОТКИ И НЕФТЕГАЗОНОСНОСТИ ТУРАНСКОЙ ПЛИТЫ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статья посвящена истории тектонического развития территории Туранской плиты. Также рассмотрена развития геосинклинальный (этап формирования ее фундамента) и платформенный (этап формирования ее чехла) этапах. Приведены нефтегазоносность Турански плите, частности Бухаро-Хивинской нефтегазоносной область, потенциални нефтегазоносность доюрских отложения.

**Ключевые слова:** Туранской, геосинклиналь, платформа, каледонской, герцинской, Тянь-Шан, палеозой, триас, юра.

## **HISTORY OF DEVELOPMENT AND OIL AND GAS OF THE TURAN PLATE**

### **ABSTRACT**

The article describes the history of tectonic development of the Turan plate region. It also shows the development in the geosynclinal (foundation formation period) and platform (sedimentary layer formation period) stages. The oil and gas

*content of the Turan plate, including the oil and gas field of the Bukhara-Khiva oil and gas region, the potential oil and gas content of the Tayura fields are given.*

**Keywords:** *Turan, geosynclinal, platform, Caledonian, Hercynian, Tien Shan, Paleozoic, Triassic, Jurassic*

## **KIRISH**

Turon plitasi gumbazli ko'tarilmalar va ichki platforma botiqliklaridan iborat bo'lib, Markaziy Osiyoning g'arbiy qismidagi egallaydi. Turon plitasi janubda Kopetdog'tog'oldi egilmasi va sharqda epiplatforma orogen, shimolda-Mang'ishloq-Markaziy-Ustyurt ko'tarilmalari sistemasi, g'arbda Kaspiy dengizi akvatoriyasi bilan chegaralanadi [1]. Turon plitasining umumiy maydoni 2mln.km<sup>2</sup>. yetadi."Turon plitasi" atamasini birinchi bo'lib, 1956-yilda N.S.Shatski kiritgan.[2]

Turon plitasining hududlari paleozoy erasining barcha davrlarida Ural-Tyanshan geosinklinal oblastining tarkibiga kirgan, plitaning turli qismlarining geologik tuzilishi murakkabligi va rivojlanish tarixi turlichaligi bilan tavsiflanadi.

Geosinklinal rivojlanish davri Markaziy Qozog'istonning g'arbiy qismi va Shimoliy Tyan-Shan hududida yakunlangan bo'lib, kaledon burmalanish kechgan. Bu yerda bir qator antiklinoriya va sinklinoriyalar hosil bo'lgan bo'lib, bu tuzilmalar shimoliy-g'arbdan janubda meridionalgacha va shimoliy-sharqdan shimolga qarab qabariq do'nliklarni hosil qilib o'zining yo'nalishini o'zgartirgan va g'arb tomonga katta radiusdagi yoysimon egeklik hosil qilgan. Bu oblastning barcha hududlari devondan boshlab geosinklinal rivojlanish yakuniy bosqichga o'tgan (kaledonid hududlari uchun) [3].

O'rta paleozoyda kaledon burmahanlikgiga mansub barcha oblastlar g'arbda meridional Sharqiy-Ural regional choklar va janubda kenglik va diagonal uzilmalar sistemasi bilan chegaralangan. Turon plitasining qolgan hududlarida bu uzilmalar ortida geosinklinal rivojlanish davom etgan.

Kaledonidlarning janubiy chekkalari qisman geosinklinal rivojlanishning gersin burmalanishi bilan qamrab olingan va ishlovlangan. Katta Karatau va uning shimoli-g'arbi davomi va Karatau (Talass-Farg'ona) va Janubiy-Karatau uzilmalari oralig'i hududlaridagi kaledonid uchastkalar o'rta paleozoyda uzilmaoldi miogeosinklinal egeklikni namayonlaydi. Agar quyi paleozoyda Katta Karatau egekligi Ulutauning Baykonur egekligi bilan yagona dugada birlashgan bo'lsa, o'rta paleozoyda Karatau uzilmasining yangidan hosil bo'lishi va shimoliy-g'arb yo'nalishda davom etishi natijasida Baykonur egelmasidan ajralgan. Shimoliy-g'arbiy yo'nalishda asta-sekin nuragan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan kaledonid zonalari gersin miogeosinklinal rivojlanishda qo'shilgan. Gersin burmahanligi va Katta Karatau shimoliy-g'arb faza bo'yicha tarqalgan magmatizim asta-sekin so'nib borgan, Katta Karatau uzilmalar sistemasi yo'nalishi bo'yicha 680 g'arbiy meridianda butunlay to'xtagan.

Gersin geosinklinal oblast hududida paleozoyi boshlarida ikkita sistema mavjud bo'lgan: meridional (Ural) va subkenglik (Tyan-Shan). Birinchisi hududida bir qator geoantiklinal va geosinklinal zonalar ajratilgan bo'lib, geologik va geofizik materiallar bo'yicha janubga Orol dengizi rayonigacha cho'zilib borgan. Bu yerda ular ehtimol murakkab uzilmalar seriyasi bo'yicha Tyan-Shan geosinklinal sistemasidan turli kengliklarga tarqalgan. Uralning sharqiy zonalardan ba'zilar yoysimon egelma hosil qilib, asta-sekin Tyan-Shanga mansub zonalarga o'tgan bo'lishi mumkin. Tyan-Shan geosinklinal sistemasining ochilib qolgan Tyan-Shan qismida bir qator tuzilmali-fatsial zonalar kuzatiladi. Qizilqumda yer yuzasiga chiqib qolgan poydevorni o'rganish natijasida va geofizik materiallar tahlili bu zonalarni davom etganligini bildiradi va ba'zi yangi Tyanshanid o'rasimon ko'milgan qismlarini ajratish imkonini beradi. Mang'ishloq, Ustyurt va janubiy Orolbo'yi rayonlarida bu zonalardan ba'zilar shimoliy-g'arbdan meridionalgacha o'zgargan.

Kechki paleozoy boshlarida qayid qilingan oblast jadal burmahanlik va orogen jarayonini kechirgan. Bu bilan bir vaqtda chekka va periklinal egekliklar, shuningdek, ichki botiqliklar va egekliklar rivojlana boshlagan. Ural burmahan oblastining g'arbiy chekkalari bo'ylab Uraloldi chekka egekliklar, uning janubiy botiqliklarida Ural periklinal egelmalar sistemasi shakillangan. Yirik uzilmalar sistemasi bo'ylab g'arb-shimoliy-g'arb yo'nalishda tor va chuqur mang'ishloq chizikli cho'zilgan manfiy strukturasi (jelob) joylashgan. Birvaqtning o'zida kichik o'lchamdagi chuqur Tuarqir grabeni hosil bo'lgan. Kechki paleozoyning barcha davri va triasning katta qismida bu egekliklar katta qalinlikdagi malos to'plamlarini (5-14 km gacha) birlashtirgan jadal cho'kishni jarayoniga duchor bo'lgan.

Kechki paleozoyda Sharqiy-Ural regional choklari bo'ylab sharqda effuziv-terrigen jinslardan tashkil topgan o'ziga xos egekliklar (Kushmurun va Tyuratam) hosil bo'lgan. Ularning shakillanishi erta triasgacha davom etgan. Bu egekliklarni Uraloldi chekka egekliklar gomologi sifatida qarash mumkin. Bular ko'tarilib boradigan Ural burmahan sistemasidan sharqda kaledon asosda rivojlangan.

Yuqori paleozoy-triasda Turon plitasining katta qismida cho'kindi to'planish sodir bo'lmagan. Yuqori paleozoygacha bo'lgan jinslar burmahanligi yuqoriga

chiqib qolgan va tekislangan bo‘lib, arofidagi egekliliklar va botiqliklar uchun material tashish manbai hisoblanadi.

Triasning ikkinchi yarimida chuqur egekliliklarni to‘ldirgan (Mang‘ishloq, Janubiy-Ural, Uraloldi vab.), yuqori paleozoy-trias jinslari jadal burmahanlikka duchor bo‘lgan va chiziqli burma sistemasida siqilgan. Mang‘ishloq jelobini va Tuarkir grabenini chegaralaydigan uzilmalar bo‘ylab, jadal yuqori trias burmahanligi nafaqat bu egekliliklardagi jinslarni qamrab olgan, bulki uzilmalarga tutash bo‘lgan ko‘tarilmalardagi yuqori paleozoygacha bo‘lgan jinslarni ham qamrab olgan. Bu haqda tarkibida vutigenli kaliy bo‘lgan minerallarningabsolyut yoshi (180-200 mln. yil) dalolat beradi. Bu minerallar Markaziy Ustyurtda yuraosti yotqiziqlarining quduqlar orqali ochilgan yuqori paleozoygacha bo‘lgan jinslardan ajratib olingan. Bu minerallarni hosil bo‘lishi regional metamorfizim tasiri ostida sodir bo‘lgan. Yuqorida qayid etilgan egekliliklar (shuningdek, ko‘tarilmalar) yuqori trias burmalanish natijasida burmahan-xarsangli tog‘ inshootlariga aylangan. Shimoliy va Janubiy Ustyurt, Janubiy Mang‘ishloq, Qoraqum va Janubiy-sharqiy Turkmaniston hududlarida yuqori paleozoy-trias yotqiziqlari kuchsiz dislokatsiyalangan. Bu hududlar yuqori trias burmahanligidan sung yuqori paleozoy-trias depressiyasi ancha bukilgan.

Kechki trias davrining so‘ngi bosqichlarida Turon plitasi asta-sekin platforma rivojlanish bosqichiga o‘tgan. Nori va ret yaruslari so‘ngida yirik yuqori paleozoy-trias depressiyasining bukilgan qismlari yuqori trias burmahanligi bilan kam qamrab olingan va orogen harakatlar sodir bo‘lmagan, kulrang argillitli platforma qoplamasi qatlami to‘plana boshlagan. Bu qatlamlar qoplama maydoni bo‘yicha ahamiyatli ko‘rinishda Shimoliy va Janubiy Ustyurt, Janubiy Mang‘ishloq, Qoraqum va Janubiy-Sharqiy Turkmaniston hududlarida tarqalgan.

Shunday qilib, platformli rivojlanishning boshlanishida yirik egelmalar (Shimoliy Ustyurt, Borsakelmes, Xorazim-Izmail va boshqa) va ko‘tarilmalar (Mang‘ishloq, Tuarqir, Markaziy Qoraqum va b.) hosil bo‘lgan. Navbatdagi ertayura epoxasida plita hududining janubiy va g‘arbiy qimlarida yiriklashib, analogik qavatlarning to‘planishi davom etgan. Ret-leyas yotqiziqlarining qalinligi egekliliklarning eng chuqur qismlarida 1,5-2,5 km yetadi. Ret-leyas yotqiziqlari platforma qoplamasining birinchi tuzilmali yarusini hosil qilgan.

O‘rta yura epoxasida ret-leyas egekliliklari o‘zining rivojlanishini davom etgan bu vaqtda kelib egekliliklar turon plitasining janubiy va g‘arbiy qismlarini deyarli to‘liq qamrab olgan. Egekliliklarning markaziy qismlarida o‘rta yura yotqiziqlari ret-leyas jinslari ustida muvofiq ravishda yotadi, periferia qismlarida o‘rta yura va ret-

leyas yotqizilari orasida nomuvofiqlik kelib chiqqan. Turon plitasining janubiy-sharqida bular orasida sezilarli nomuvofiqlik yo'q. Plitaning eng ko'tarilgan qismlarida ret-leyas yotqizilarning tarqalish chegarasidan tashqarida o'rta yura yotqizilari poydevor jinslar ustida yotadi. Turgay va Chuy tekisliklari hududlarida o'rta yura yotqizilarning to'planishi grabenlarda davom etgan. Platforma qoplamasining shakillanishi kechki yura, bo'r va paleogenda davim etgan. O'rta yura – quyi miotsen yotqizilari platforma qoplamasining ikkinchi tuzilmali yarusini hosil qiladi.

Ikkinchi tuzilmali yarus jinslarining to'planish vaqtida yuqorida keltirilgan asosiy tuzilmali elementlarning rivojlanishi va ularning differensiasi davom etgan. O'rta yura – erta miotsen vaqtga qatlamlar egelishining umumiy fonida alohida qisqa vaqtli ko'tarilmalar epoxasi sodir bo'lgan. Ulardan eng yaqqoli bo'r va yura chegarasida mansub (ba'zi rayonlarda – yuqori yuraning yuqori qismlarida). Bular bilan tuzilmali elementlarning shakillanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan differensial tektonik harakatlar jadalashuvi bog'liq.

Quyi va o'rta miotsen chegarasida umumiy ko'tarilish sodir bo'lgan, asosan Turon plitasining g'arbiy va janubiy qimlarida yaxshi ifodalangan. Erta to'plangan yotqizilar sezilarli darajada yuvilgan. Taxminan shu vaqtlarda alp burmachan oblastining chekka egekliklari va Tyan-Shanda epipaltforma orogen jarayonlar shakilana boshlagan. O'rta miotsenning eng kechki vaqtida Turon plitasining g'arbiy va janubiy rayonlarida notekis cho'kish boshlangan va quyi pliotsengacha davom etgan. Bu vaqt oralig'larida platforma qoplamasining uchinchi tuzilmali yarusini hosil qilgan nisbatan kichik qalinlikdagi jinslar shakillangan. Faqat plitaning alp chekka egekliklar va epiplatforma orogen oblastlariga tutash janubiy chekkalarida katta qalinlikdagi bir fazali yotqizilar to'plangan.

O'rta pliotsen so'ngida turon plitasining ba'zi rayonlarida regional ko'tarilishlar sodir bo'lgan va ko'tarilma tekisliklariga aylangan. Faqat plita hududidan tashqarida G'arbiy Turkmaniston, Janubiy Kaspiy va Apsheron yarim oroli hududlarida erta pliotsen so'ngida va o'rta pliotsenda katta qalinlikdagi cho'kindilar to'planishi sodir bo'lgan. O'rta pliotsen havzasi ko'tarilib boradigan turon plitasiga nisbatan nisbatan juda past (Yanshin, 1953; Luppov, 1963; Milanovskiy, 1963). Bu uning hududida jadal erozion bo'linishga olib kelgan. Kechki pliotsen va to'rtlamchi vaqtida o'rta pliotsen relfi dengiz va kontinental cho'kindilar bilan qisman qoplangan, faqat plitaning alpiy chekka egekliklari va epiplatforma orogen oblastlariga tutash janubiy chekka uchastkalari o'rta-kechki pliotsenli va antropogen vaqtida katta qalinlikdagi kontinental cho'kmalar to'planishi to'xtovsiz davom etgan bo'lib jadal egelishlar

kompensatsiyalangan. Shunday qilib, Turon plitasining katta qismida yuqoriplitsen va antropogen yotqiziqlarining tarqalishi sezilarli darajada o'rtapliotsen relfi bilan bog'liq. Bu yotqiziqlar platforma qoplamasining to'rtinchi tuzilmali yarusini hosil qilgan.

Birinchi tuzilmali yarus yotqiziqlarini Turon plitasi poydevori yuzasining eng chuqur egekliklari tashkil qiladi Chuy va Turgay tekisliklari hududini – alohida grabenlar tashkil qiladi. Egekliklar qanotida va asosan grabenlarda ular yuqorida yotgan ikkinchi tuzilmali yarus yotqiziqlar bilan taqoslaganda yotish burchagi sezilarli darajada katta bo'lib, Turon plitasi poydevorini qoplagan. Uchinchi tuzilmali yarus yotqiziqlari bo'yicha platforma qoplamasining tuzilishi ancha oddiy. Agar birinchi va ikkinchi yarus yotqiziqlarida asosiy tuzilmali elementlar amplitudasi ming metrlarda o'lchansa, yotish burchagi graduslarda va birinchi o'n graduslarga o'lchansa, uchinchi tuzilmali yarus yotqiziqlari sezilarli darajada qisqargan bo'lib, yuz metrlarga o'lchanadi, yotish burchagi esa daqiqa va o'nlab daqiqalarga o'lchanadi, uchinchi tuzilmali yarus yotqiziqlarining deformatsiya kattaligi quyida yotgan gorizontlarga nisbatan taxminan 10 martagacha kichraygan. To'rtinchi tuzilmali yarus yotqiziqlari Turon plitasining katta qismida deyarli dislokatsiyalanmagan. Shunday qilib, platforma qoplamasining turli gorizontlari bo'yicha tuzilmali xaritalarni solishtirganda eng kichik qatlamlardan eng yuqori qatlamlarga tomon tuzilmalar soddalashib borgan bo'lib, tuzilmali yaruslar chegarasida keskinlashish sodir bo'lgan [3].

Turon plitasining platforma qoplami va poydevori jinslari bilan turli foydali qazilmalar bog'liq. Plitaning platforma qoplamasi va poydevori formatsiyalari va uning foydali qazilmalarining tarqalish qonuniyatlarini tektonik jarayonlar nazorat qiladi.

Turon plitasining platforma qoplamasi bilan asosan neft va gaz bog'liq. Ularning yirik to'plamlari Turon plitasining yura va bo'r yotqiziqlarida uchraydi. Asosan Buxoro-Xiva zonasida gazli va Sho'rtan kabi noyob gaz konlari markaziy Qoraqum gumbaz ko'tarilmasida yirik neft va gaz konlari, Janubiy-Mang'ishloq egekligining shimoliy bortida Uzen', Jetibay va Tenga kabi yirik neft va gaz konlari ma'lum.

Turon plitasining deyarli barcha hududida neftgazlilik belgilari uchraydi va neftgaz potentsialiga ega hudud hisoblanadi. Lekin, sanoat miqyosidagi neftgaz to'plamlariga ega bo'lgan zonalar cho'kindi qoplamalar qalinligi yuqori bo'lgan uchastkalar bilan yer qobig'ining chuqur egelmalari bilan bog'liq. Shuning uchun plitaning hududining u yoki bu qismini neftgazga istiqboliligini aniqlash uchun burmahan poydevorning yotish chuqurligi (bu bilan bog'liq platforma qoplamasining



qalinligi), o'zgarish qonuniyati, plitaning asosiy tektonik elementlari muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Buxoro-Xiva neftgazli oblasti boshqa neftgazli regionlar bilan solishtirganda eng keng region bo'lib, yirik Amudaryo botiqligining shimoliy-sharqiy qanoti hisoblanadi va to'g'ri burchakli uchburchak shakliga ega, yuqori qismi Pitnyak tuzilma guruhiga to'g'ri keladi. Uning hududiga yirik gaz va gazokondensat konlari aniqlangan. Amudaryo sedimentatsion havzasi hududidagi Buxoro-Xiva regionida toyura kompleksi to'liq asos bilan kam o'rganilgan kompleks deb hisoblash mumkin. Shunga qaramay Buxoro-Xiva regionida paleozoy jinslari 463 ta quduqlar bilan ochilgan. Paleozoy jinslarda resurslarni bashoratlashda oraliq tuzilmali qavat yotqiziqlari bilan chegaralanilgan, bu tuzilmali qavatda yuqori devon karbonat hosilalar, quyi karbon terrigen yotqiziqlari ohaktosh va toza ohaktosh qatlamlari bilan, shunigdek o'rta karbon ohaktoshlari kiradi. O'rta karbonning yuqori qismi yuqori karbon kabi terrigen cho'kindilaridan iborat.

### **XULOSA**

Amudaryo sedimentatsion havzasi hududidagi Buxoro-Xiva regionida toyura kompleksi to'liq asos bilan kam o'rganilgan kompleks deb hisoblash mumkin. Shunga qaramay Buxoro-Xiva regionida paleozoy jinslari 463 ta quduqlar bilan ochilgan. Paleozoy jinslarda resurslarni prognozlashda oraliq tuzilmali qavat yotqiziqlari bilan chegaralanilgan, bu tuzilmali qavatda yuqori devon karbonat hosilalar, quyi karbon terrigen yotqiziqlari ohaktosh va toza ohaktosh qatlamlari bilan, shunigdek o'rta karbon ohaktoshlari kiradi. O'rta karbonning yuqori qismi yuqori karbon kabi terrigen cho'kindilaridan iborat [5].

Prognozli resurslarni baholash stratigrafik kompleks kesmi, jinslarning to'planish tezligini hisobga olib va cho'kindi havzada samarali hududlarni holati bo'yicha amalga oshirilgan.

### **REFERENCES**

1. Абидов А.А. “Дунё нефтгазли провинциялари ва акваториялари”, монография, “Шарқ” нашириёти, Тошкент-2009, 492 б.
2. Горбачев С. Д. “Особенности геологического строения, условия формирования залежей углеводородов и перспективы проведения геологоразведочных работ в пределах Бухаро-Хивинской газонефтяной области”, диссертация на соискание ученой степени кандидата геолого-минералогических наук, Москва-2018г. С-213

- 
3. Вольвовский И.С., Гарецкий Р.Г., Шлезингер А.Е., Шрайбман В.И. Тектоника туранской плиты, Изд. “Наука”, Москва 1966 с. 286.
  4. Ахмедов Х.РП, Панжиев Ҳ.А, “Турон нефтгазли провинцияси таркибидаги Бухоро-Хива нефтгазли региониди палеозой ётқизикларининг нефтгазлилигини башоратлашни аҳамияти”, /“Нефть ва газ комплексида бурғилаш, қазиб олиш ва қайта ишлаш жараёнларининг замонавий технологиялари”, Республика илмий-техник анжумани, 2018 йил 20-21 апрель, Қарши, 87-90 б.
  5. Б.С.Хикматуллаев, Р.В.Речицкий и др. «Оперативный анализ поисково-разведочного бурения на нефть и газа в нефтегазоносных регионах Узбекистана с целью повышения их эффективности (Бухаро-Хивинский регион), 2009г.

## **MDH DAVLATLARINING HAMKORLIK MUNOSABATLARI**

**Po'latov Sarvarxon Baxtiyorxon o'g'li**

Namangan davlat universiteti, tarix fakulteti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada MDH davlatlarining hamkorlik munosabatlari hamda davlatlar bilan taraqqiyot strategilari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** MDH, davlat, hamkorlik, taraqqiyot, qo'shnichilik, jamiya, strategiya.

### **ABSTRACT**

*This article discusses cooperation between the CIS countries and the strategies of development with states.*

**Keywords:** CIS, government, cooperation, development, neighborly, total, strategy.

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье обсуждается сотрудничество между странами СНГ и стратегиями развития с государствами.*

**Ключевые слова:** CIS, правительство, сотрудничество, развитие, соседская, общая стратегия.

### **KIRISH**

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) — davlatlararo tashkilot. 1991 yil 8-dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar. 1993-yil MDHga Gruziya qo'shiddi. 1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka karshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat

boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, markazi SanktPeterburgda bo‘lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo‘mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2-marta o‘tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichmabosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko‘mak berdi. MDH o‘z faoliyati davomida haddan ta-shqari ko‘p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning kupi bajarilmadi. Hozir MDH ga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg‘uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiklashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o‘rtasida savdoiqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘tgan yillar MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o‘zaro foydali hamkorlik ishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlik hamdo‘stlik mamlakatlarning hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog‘langanligina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar va mintaqaviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo‘ldi.

Mintaqamiz xalqlarining yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq Ittifoq mavjud bo‘lganligidan qat’iy nazar hamma vaqt bo‘lib kelgan. Bu haqiqiy integratsiya bo‘lib, sun’iy ravishda joriy etiladigan integratsiyadan farq qiladi. Unga sovetlardan keyingi davlatlarning birortasi qarshi emas, ayni chog‘da ularning birortasi ham o‘z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas. Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishdan iboratdir. O‘zbekiston rahbariyati MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko‘rishni istadi.

Biroq, dastlabki yillarda MDH a'zo davlatlari munosabatlarida bir qator muammolar ham bo'lib turdi. Jumladan, bu tashkilot o'z kengashlarida barcha a'zo davlatlar taraqqiyoti uchun muhim hujjatlar qabul qilar, biroq ularning bajarilishi sekin kechar edi. Ayrim kelishuvlar esa barbod bo'lar edi. O'zbekiston davlati doimo bu tashkilotning muntazam ishlab turishi, uning qabul qilgan qarorlarining bajarilishi tarafdori bo'lib keldi. Prezident I.Karimovning bu tashkilot kengashlariga qatnashuv oldidan ommaviy axborot vositalariga bergan intervyularida aynan shu muammolar o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikka kirishar ekan, doimo ularning mustaqilligiga dahl qilmaslikka intildi va bunga amal qildi. Bugungi kunda ham O'zbekiston Respublikasi MDHga ko'p tomonlama hamkorlik uchun shart-sharoit yaratishdan manfaatdor suveren mamlakatlar birlashmasi sifatida qaraydi. Davlatimiz rahbari 2012 yil 15 may kuni Moskvada MDH davlatlari rahbarlari kengashining norasmiy uchrashuvida ham hamdo'stlik ko'p qirrali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajarishi, u bevosita muzokara va davlatlararo muloqotlar, turli darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar maydoni bo'lib qolishi lozimligini yana bir ta'kidladi.

2012 yil 15 may kuni Moskva shahrida Kollektiv xafvsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) Kollektiv xafvsizlik kengashining yubiley (10 yillik) sessiyasida ham Prezident I.A.Karimov ishtirok etib, yana bir bor O'zbekiston ODKBning asosiy maqsadi, avvalo a'zo davlatlarning tashqi tahdidlardan himoya qilishdan iborat, deb bilishini ta'kidladi. Sessiyada ODKB faoliyatining samaradorligi va uning yanada rivojlanishini ko'p jihatdan barcha a'zo davlatlarning hamjihatlik tamoyiliga amal qilishi hamda manfaatlar uyg'unligiga bog'liq ekani bayon etildi.

O'zbekiston Respublikasi MDH doirasida sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyaga hamda davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarini parlament, ko'plab amaldorlar ishlaydigan ma'muriy idoralar, harbiy siyosiy organlarni tashkil etishga qarshi. O'zbekiston mustaqillik va integratsiyani uyg'unlashtirish tarafdori, MDHni haqiqiy mustaqil suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni xohlaydi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi (RF) bilan davlatlararo teng huquqli munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berayotganligi muhimdir. 1991 yil 26 oktyabrda I.A.Karimov Moskvaga tashrif buyurib, Rossiya Federatsiyasi (RF) Prezidenti B.Yelsin bilan ikki davlat o'rtasida muxtor vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini

hurmat qilish, tashqi siyosat va iqtisodiy masalalarida hamkorlik qilishiga kelishib oldilar.

MDH davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada 2020 yil tariximizda muhim iz qoldirdi. Joriy yilda O'zbekiston MDHga raislik qilishdek mas'uliyatli vazifani ilk bor o'z zimmasiga oldi.

Shu o'rinda, O'zbekistonning MDHga raislik davri pandemiya va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurash sharoitiga to'g'ri kelganini ta'kidlash joiz. Rejalashtirilgan tadbirlarning ko'p qismi yangi noodatiy sharoitlarda va onlayn formatlarda bo'lib o'tdi. Shunga qaramay, keskin vaziyatda, har qanday sharoitda ham O'zbekiston xalqaro majburiyatlarni bajarishda o'ziga xos salohiyatni namoyish etdi. Hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga bag'ishlangan 70 dan ortiq muhim ko'p tomonlama hujjatlarning qabul qilinishi MDHning ushbu davrdagi samarali faoliyatidan dalolat beradi. SHu bilan birga, ushbu yil davomida qabul qilingan hujjatlarning ko'p qismi dasturiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turdi. YA'ni, rejalashtirilgan tadbirlar aniq ko'rsatilgan holda dasturlar, strategiyalar va yo'l xaritalari shaklida qabul qilindi.

Yana bir jihat - O'zbekistonning savdo-sotiq doirasidagi alohida sheriklar bilan bu yilgi savdosi 20 foizdan oshdi. MDH doirasidagi O'zbekiston faoliyatining samarali ekanligi ekspertlarning yuqori bahosi bilan ham tasdiqlanadi.

Ushbu davr mobaynida O'zbekiston MDH doirasida ikkita shartnomaga qo'shildi. Bular -2006 yil 28 noyabrda Minsk shahrida MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining gumanitar hamkorlik bo'yicha kengashi to'g'risidagi bitim;

2008 yil 10 oktyabrda Bishkek shahrida MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining hududlararo va chegara oldi hamkorligi bo'yicha kengashi to'g'risidagi bitim. MDH doirasidagi ushbu yangi kelishuvlarga qo'shilish mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 20 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining yoshlar bilan ishlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimiga O'zbekistonning qo'shilishi to'g'risida farmonni imzoladi. Ma'lumki, O'zbekiston BMTning 72-sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyani qabul qilish tashabbusini ilgari surgan edi. Joriy yilda ushbu konventsiya loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan yoshlar huquqlari bo'yicha Samarqand veb-forumi bo'lib o'tdi. MDHning yoshlar bilan

ishlash sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimiga qo'shilish davlatimizning yoshlar huquqlarini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Ushbu davrning eng muhim natijasi MDHning 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasining qabul qilinishi bo'ldi. 29 may kuni MDH davlatlari Hukumat rahbarlari kengashining videokonferentsiya orqali yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uchrashuv doirasida MDHning 2030 yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy rivojlanish strategiyasi loyihasi muhokama qilindi, keyinchalik strategiya MDH hukumatlari rahbarlari tomonidan ma'qullandi. Strategiya keng qamrovli hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjatda hozirgi paytda “global iqtisodiyot yuqori turbulentslik va noaniqlik bilan ajralib turishi” ta'kidlangan. Strategiya ishtirokchi davlatlar o'rtasida iqtisodiy o'zaro aloqalarning 30 dan ortiq yo'nalishlari bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantirish, milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi va Hamdo'stlik mamlakatlari fuqarolari farovonligini oshirishni, uning ishtirokchi-davlatlarining jahon iqtisodiy aloqalarida mavqeini mustahkamlashni nazarda tutadi. Strategiyani amalga oshirish ikki bosqichga (2021–2025 va 2026–2030 yy.) bo'lingan rejalar asosida amalga oshiriladi.

MDHga raislik nafaqat O'zbekistonning imiji va obro'sini mustahkamladi, davlatimizning ishonchli xalqaro sherik sifatida yuqori salohiyatini namoyish etdi, balki MDH maqomini mustahkamlashga ham hissa qo'shdi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishda muhim qadam bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi o'rtasidagi hamkorlik maxsus rezolyutsiyasi 2020 yil 23 noyabrda N`yu-Yorkdagi (AQSH) Birlashgan Millatlar Tashkilotining shtab-kvartirasida 75-sessiya doirasida qabul qilindi. O'zbekistonning ushbu tashabbusi nafaqat MDH a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishga, balki, MDHni global darajada mustahkamlashga ham hissa qo'shdi.

18 dekabr kuni MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisida davlatimiz rahbari O'zbekistonning MDHdagi raisligi yakunlarini sarhisob qilib, kelajakda o'zaro hamkorlikning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, iqtisodiy sohada quyidagi chora-tadbirlarni taklif etdi:

- Hamdo'stlik doirasida “yashil” va soddalashtirilgan yo'laklar amaliyotini amalga oshirish, elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha yagona platformani ishga tushirish va “Yo'l xaritasi” ni qabul qilish;
- sanoat kooperatsiyasining keng qamrovli dasturini ishlab chiqish ijtimoiy sohada:

- sanitariya-epidemiologiya tushdagi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va ularga barvaqt javob qaytarishning samarali tizimini shakllantirish;

- har yili ommaviy sport va madaniy tadbirlarni tashkil etgan holda “MDH salomatlik marafoni”ni o'tkazish.

huquqiy sohada:

- huquqiy axborot almashish uchun MDHning yagona elektron platformasini yaratish va radikallashuvdan qaytarish sohasidagi hamkorlik dasturini ishlab chiqish.

inson huquqlari sohasida:

- mehnat migrantlarining hujjatlarini o'zaro tan olishning yagona mexanizmini yaratish va bu sohada alohida dastur qabul qilish.

### **XULOSA**

2021 yilda Toshkentda “Hamdo'stlik mamlakatlari madaniy merosi” konferentsiyasini o'tkazish. Ushbu tashabbus BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida BMT doirasida ilgari surilgan - 2021 yilda Xiva shahrida YUNESKO bilan hamkorlikda “Markaziy Osiyo jahon tsivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro forumini o'tkazish to'g'risidagi yana bir tashabbusini mukammal tarzda to'ldiradi. Ikkala tashabbus ham xalqaro miqyosda O'zbekistonning madaniy aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, O'zbekiston COVID-19 koronavirus pandemiyasiga qaramay, MDHga raislik qilish kontseptsiyasini to'liq amalga oshirdi. MDH doirasida ilgari surilgan O'zbekistonning yangi tashabbuslari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida joriy yilning 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yilning 15-16 iyul kunlari Toshkentda o'tkazilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi konferensiyada so'zlagan nutqi.
3. A.Абдурахмонов «Саодатга элтувчи билим». – Т.: «Мовароуннахр», 2003 й
4. Кайковус “Қобуснома” 1994 й 53-бет
4. М.Саттор “Ўзбек удумлари” Т., 1993й. 70- бет
5. Хусайн Воиз Кошифий “Футувватномаи султоний ёхуд жавонардлик тариқати” Т.,1994 й. 64-бет



## **UMUMTA'LIM MUASSALARIDA HFX MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**Ro'ziyev Akmal Nosirdjonovich**

Magistrant, FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti,  
Toshkent, O'zbekiston

**To'ymurodov Jur'at Djurayevich**

Magistrant, FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti,  
Toshkent, O'zbekiston

### **ANNOTATSIYA**

*Hozirgi paytda davlatimiz oldidagi eng asosiy muammolardan biri xavfsizlikni ta'minlashdir. Shuning uchun barcha o'quv yurtlaridagi birinchi dars mustaqillik va tinchlik darsidir. Muammoning dolzarbligini tushunish millat va davlat miqyosida shakllanadi. Ushbu maqolada hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini hozirgi paytdagi holati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *hayot faoliyati, yashash darajasi, xavfsizlik, sivilizatsiya, jamiyat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Одной из самых важных проблем перед нашей стране в настоящее время является обеспечение безопасности. Поэтому первый урок во всех учебных заведениях - это урок независимости и мира. Понимание срочности проблемы формируется на национальном и государственном уровнях. В этой статье обсуждается текущее состояние культуры безопасности жизни.*

**Ключевые слова:** *жизненная деятельность, уровень жизни, общество, цивилизации, общество.*

### **ABSTRACT**

*One of the most important problems in front of our country is currently ensuring security. Therefore, the first lesson in all educational institutions is the Independence and Peace lesson. Understanding the urgency of the problem is formed on the national and state levels. This article discusses the current state of life safety culture.*

**Keywords:** *Life activities, Living Level, Society, civilizations, Society.*

### **KIRISH**

Zamonaviy O'zbekistonimiz yashash darajasining yuqoriligini ko'rsatkichlaridan biri aholini xavfsizligini ta'minlashdir. Mavjud amaliyotga yondashilsa, ko'pgina insonlarning o'z hayoti natijalaridan qoniqmaslik va ixlosi qaytishi kuzatilmoqda. Ularning asabiylashuvini asosiy faktorlaridan biri zaiflik va

xavfsizlikni yoʻqligil, zaruriy moddiy va madaniy talablarini qondirish, oʻz qobiliyatlarini namoyish qilishni imkoni yoʻqligidir.

Odamlar tabiiyki, bu holatni oʻzgartirishni davlatdan kutishmoqda. Xavfsizlik fenomenini paydo boʻlishini insonlarga, ularning oilasiga, jamiyatga, davlatga, butun sivilizatsiyaga xavflarni, tazyiq va tavakkalni anglash va yuzaga kelish faktlarini tushunib yetishi bilan bogʻlash mumkin. Insonlarni atrof-muhit bilan oʻzaro munosabatlaridagi xavflarga reaksiyasi hayvonlarning instinktiv harakatlaridan farqli oʻlaroq, oʻzining fahm-farosati natijasida voqealarni avvaldan rivojlanishini baholay olishi bilan farqlanadi.

Bu fazilati xavfsizlikni oldini olish chora-tadbirlarini va samarali qoʻllash variantlarini topishga imkon beradi. Insonlar tomonidan xavfsizlikni oldini olish chora-tadbirlari nafaqat mavjud xolatda muxofazalanishni va tazyiqning maʼlum qismini bartaraf etishni, balki ularni yuzaga kelish sabablarini yoʻqotish orqali potensial xavfni yuzaga kelishini oldini olishga imkon beradi. Yangi ustuvor dunyoqarash insonlarning hayot faoliyatini maqsadi va maʼnaviy, moddiy boyliklar tizimiga, moddiy ehtiyojlarining cheksiz oʻsishidan qoniqish hosil qilishi va maʼnaviy talablarga oʻzgartirish kirishini taqozo etmoqda.

Shuning uchun insoniyat oldida biosferaning rivojlanish qonuniyatlari natijasida yuzaga keladigan turli cheklanish va taqiqlashlarni oʻz xoxishi bilan qabul qilishi va ifodalash kabi qiyin masala turibdi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Odamlarning atrof-muhitga bogʻliq boʻlmay yashash davri tugadi. Hozir shu narsa aniq boʻldiki, insoniyat biosferaning qonunlarini eʼtiborga olgan holda rivojlanishi mumkin. Buning uchun nafaqat maʼnaviy, moddiy boyliklarni, balki madaniyatimizni ham oʻzgartirish kerak. Xavfsizlik madaniyati – madaniyatning tarkibiy qismi boʻlib, u mehnat mahsulotlarining tarkibida, vositalarida aks etadi, insonlarning oʻzaro munosabatlarining rivojlanishi va moddiy dunyoni oʻzgarishiga yoʻnaltirilgan boʻladi. Talabalarni mehnat subektiga aylanishi atrof-dagi dunyoni oʻzgartirishga tayyor boʻlishga, shu bilan birga tashqi xavflarni bartaraf etishga, inson va jamiyat ning hayot faoliyati xavfsiz sharoitini taʼminlashga, xavfsizlik vositalarini yaratish va foydalanishga daʼvat etadi. Madaniyat inson faoliyatining natijasi boʻlgan mahsulotlarnigina emas, balki muloqot shakli va uslubi boʻlgan ilm, tajriba va bilimining maxsulini, intellektual, maʼnaviy va estetik dunyoqarashini ham oʻz ichiga oladi. Xavfsizlik madaniyati ilm, tajriba va bilimdan tashqari dunyoqarash fikrlarni, maʼnaviy va estetik boyliklarni, xavfsizlik muammolarini xal etishning intellektual

tajribasini, birgalikda yashash jarayonidagi o‘zaro muloqot va aloqa xavfsizligini ham tushuntiradi. Madaniyat avlodlar o‘zgarishi jarayonida insonlarning hayot faoliyatini tashkil etishi va rivojlanishi, ta‘minlanishini usulidir. Madaniyat xavfsizligining mavjudligini shakllari turli xizmatlarning faoliyatida mujassamlanadi, bular yong‘in xavfsizligi, FVV ning qutqaruv xizmati, sanepidnazorat, DAN, tez yordam xizmati va b. Madaniyat odamlarning hayoti va faoliyatini turi va shaklida, ularning o‘zaro munosabatlarida ifodalanadi.

Xavfsizlik madaniyatining shakli ma‘naviy qadriyatlar (inson hayotining bahosi, shaxsni iqtisodiy qiziqishi, sog‘lig‘ini qadrlashi va yo‘lovchilar xavfsiligini tan olish) bo‘lib, inson faoliyati, aloxida odamlarning, jamoa va butun jamiyat ning yashashini tashkil etish (aloxida odam, jamoaning ish tartibi, avariya-qutqaruv, qurolli kuchlar, iqtisodiy va boshqa strukturalarning o‘zaro munosabati shaxs va jamiyat qonuniyatlarini singdirgan xolda) har kungi faoliyatida va ekstremal xolatdagi o‘zaro munosabatlari e‘tiborni qamrab oladi.

Madaniyat – turli xil namoyon qilinishi bo‘yicha – ko‘pgina konkret fanlarning obyektiva predmeti bo‘lib, har biri o‘z tasavvuriga qarab alohida talqin qiladi.

Madaniyatni mazmuniy elementlari jamiyat ning ma‘naviy hayoti hisoblanadigan odatlar, meyorlar, boyliklar, ma‘no va mazmunlardir. Shuning uchun xavfsizlik madaniyatida nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki odatlar, meyorlar, boyliklar, ma‘no va mazmunlar ham bo‘lishi kerak. Madaniyatning o‘zagini umuminsoniy maqsad va qadriyatlar, hamda tarixan mavjud usullar orqali ularni zehn va yutuqlari tashkil etadi.

Xavfsizlik madaniyatida bunday maqsad va qadriyatlarga hayotiy (sog‘liq, xavfsizlik, farovonlik, to‘qlik, komfort va b), ijtimoiy (tavakkalga moillik, xususiy mustaqillik, hayotiy muvaffaqiyatlar va b), siyosiy (ozodlik, qonunchilik va b), ma‘naviy (ezgulik, xaqqoniylik, o‘zaro yordam va b), diniy (xudoiy qonunlar, najot, farovonlik va b), estetik (ideal, uyg‘unlik, mukammallik, ya‘ni xavfsiz odam yuksak qadriyatga, uyg‘unlik, mukammallikka nisbatan xashaki odamga ko‘ra yaqin) xossalari kiradi.

Madaniyat – insonning ma‘lum ijodiy kuch va qobiliyatning rivojlanish darajasidir. Demak, xavfsizlik madaniyati – insonning ma‘lum ijodiy kuch va qobiliyatning rivojlanish darajasida, zararni oldini olish va kamaytirish (hayot faoliyatidagi ta‘sir etuvchi xavfli va zararli faktorlar) insonni shaxsan o‘ziga, boshqa odamlarga, umuman jamiyat ga zarar kelishining tavakkal profilaktikasiga qaratilgan.

Xavfsizlik madaniyatida hayot faoliyati xavfsizligi madaniyati tushunchalari hodisa va jarayonlarni o‘zaro bog‘liqligini namoyon qiladi. Xavfsizlik madaniyati

ilmda ijtimoiy voqea bo‘lib, (inson va jamiyat xavfsizligi haqidagi ilmiy bilimlarni), madaniyatni, mifologiya, ideologiya, din, sportni aks ettiradi. Hayot faoliyati xavfsizligi ilmiy fan sifatida turli fanlardagi 15 ma‘lumotlarni tizimlashtiradi va umumlashtiradi, inson va jamiyat qonunlarini tushunarli tarzda aks ettiradi.

Hayot faoliyati xavfsizligini shaxsiyat darajasi – insonning tavsifini va hayot faoliyatini, uning xavfsizlik madaniyatini ijodiy o‘zlashtirishining asosiy shart-sharoitidir. Lekin, xavfsizlik madaniyatini shaxsiyat darajasida gavdalanishi va hayot faoliyatini xavfsizligi inson va uning faoliyatining tavsifi sifatida namoyon bo‘lishi bir narsa emas.

Hayot faoliyatining xavfsizligi – bu hayot faoliyatini xavfsizlik qonunlari (profilaktika, minimizatsiya, xavfli va zararli faktorlarni yengib o‘tish va bartaraf etish) orqali olib borishdir.

Shaxsning xavfsizligi madaniyati eng kamida bir qator qo‘shimcha komponentalarni o‘z ichiga oladi - hayot faoliyatini xavfsizligina bo‘lib qolmay, balki shaxsiy sabablar, o‘z-o‘zining tajribasini takomillashtirish orqali hayot faoliyatini xavfsizligiga tayyorligini ko‘rsatishdir. Bundan shu narsa ko‘rinadiki, (shaxsni) xavfsizlik madaniyati tushunchasi (insonning) hayot faoliyatini xavfsizligi tushunchasidan kengroqdir. Demak, insonning hayot faoliyatini xavfsizligi – xavfsizlik madaniyatining shaxsda gavdalanishini asosiy tarkibi hisoblanadi. Yevropa hamjamiyatida mehnatni muxofaza qilishga katta e‘tibor bilan qaralyapti. Texnik modernizatsiyasini yangilanishiga qarab, faoliyat bilimni yangilash va rivojlantirish, jarohatlanishning oldini olish madaniyatini tarbiyalash bo‘yicha ishlar to‘xtovsiz olib borilmoqda.

«Yevropa Hamjamiyatining mehnatni muxofaza qilish bo‘yicha 2002–2006 yilda mo‘ljallangan Strategiyasi» hujjatida mehnat jarayonida ishtirok etuvchilar tavakkalning oldini olish asl madaniyatni barpo etish uchun kerakli darajada bilimga ega bo‘lishlari kerak deb qayd etilgan. Bunday qarashni amalga oshirish uch elementni: mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilim olish, har qanday holatda tavakkalni yuzaga kelishi mumkinligini anglab yetish, texnikaning yangilanishi yoki ijtimoiy o‘zgarishlar oqibatida yangi tavakkalni paydo bo‘lishini avvaldan ko‘ra bilishni uddalash birgalikda olib borish ko‘zda tutiladi.

Respublikamiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2016-yil dekabr oyida olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvida ta‘lim tizimi raqobatbardosh bo‘lishi, aks holda ta‘lim sifati zamonaviy talablardan uzilib qolishi kuzatilishi mumkinligini aytdi. Bu tizimning asosiy funksiyalardan biri keltirilgan muammolarni yechishda madaniy intellektual ta‘minot bo‘lishi, tazyiq va xavflarga qarshi tura olishi kerak.

## **XULOSA**

Bu masalani hal qilishda O‘zbekiston Respublikasi FVV o‘z faoliyatini boshlaganidan buyon jamiyatda hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirgan bo‘lib, jamiyatda hayot faoliyati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish jarayonida aholini barcha guruhlarida fuqaro muxofazasi, FV lardan muxofazalanish, yong‘in xavfsizligi va suv obyektlarida xavfsizlik sohasida bilimlarni berishga adolatli urg‘u berilishi zarurdir. Bu tizimning faoliyat ko‘rsatishidan asosiy maqsad Respublika aholisini tabiiy, texnogen vaekologik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda xavflardanmuhofazalanish usullarini o‘rgatishdan iborat.

## **REFERENCES**

1. O.Q. Qudratov, T.A. Ganiyev. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent – “Mehnat”. 2004-yil.
2. M. Tojiyev, H. Nig‘matov. Hayot faoliyati xavfsizligi. Toshkent. Tafakkur bo‘stoni. 2012-yil.
3. Abaskalova N.P., Akimova L.A., Petrov S.V. Maktabda hayot xavfsizligi asoslarini o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. Novosibirsk - M.: ARTA nashriyoti, 2011. 303 p.
4. Zahro Fotih qizi. “Tosh oqimlari”. “Fuqaro muhofazasi” jurnali, 2001, №4.
5. Qozoqboyev T. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Toshkent, 2003.

## MEANS OF EXPRESSING PRINCIPLES OF POLITENESS

**Nabijonova Gulnoza**

2<sup>st</sup> year master of Faculty of foreign language and literature

Toshkent State Pedagogical University

Tel:+998936703142

### ABSTRACT

*This article is dedicated theories of politeness from different linguistic view points of English and Uzbek languages. It deals with comprehensive perspectives on politeness and its theories. It studies some different functions and strategies. The research aim is explaining politeness and its theories about their importance in daily communication, revealing the structural aspects the principles of politeness in English and Uzbek languages, to explore scientifically the features similarities and differences of languages.*

**Keywords:** *functions, politeness, functions, negative politeness, positive politeness, negative face, positive face, speech etiquette, language, culture, gender, positive face, negative face.*

### АННОТАЦИЯ

*Эта статья представляет собой специальные теории вежливости из разных лингвистических точек зрения на английском и узбекском языках. Он имеет дело с исчерпывающими взглядами на вежливость и ее теории. Он изучает некоторые разные функции и стратегии. Цель исследования - объяснить вежливость и ее теории об их важности в повседневном общении, выявляя структурные аспекты принципы вежливости на английском и узбекском языках, чтобы научно исследовать особенности сходства и различия языков.*

**Ключевые слова:** *функции, вежливость, функции, негативная вежливость, позитивная вежливость, негативное лицо, позитивное лицо, этикет речи, язык, культура, пол, позитивное лицо, негативное лицо.*

### INTRODUCTION

Politeness is expressed differently in various languages. It is based on using closeness and relationships as the social distance between the speaker and the hearer. The level of politeness depends on the social relationship between the speaker and the hearer and determines the level of formality that is used in their conversations. Different cultures also cause different views, which affect the idea of politeness and

lead to the differences in various aspects. In a word, when we are communicating with people from different cultures, it is important to know what is appropriate to their cultures and act accordingly. Therefore, Brown & Levinson believe that politeness is considered as a social norm and exists in particular linguistic forms when people use it appropriately with others. To be polite is to behave appropriately according to the hearer's wants. Politeness is defined as an evaluation of the speaker's behavior by the hearer. Politeness can be described as 'what we think is appropriate behavior in particular situations in an attempt to achieve and maintain successful social relationships with others.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

Culture, politeness, knowledge and behavior can be seen in one's speech. This perception is expressed in linguistics through the concept of "speech etiquette" ("Politeness"). In English, the term "Politeness" is derived from "smooth" and "polish", which is the word of "politus" in Greek, and at the end of XVII century and at the beginning of XVIII, it was spread widely. Speech etiquette is a process that is understood in terms of individual culture and values. Speech etiquette is developed according to environment, the situation in the family and society, as well as other form factors in childhood. Speech etiquette can be different according to nations particular features in different nations. The different aspects of speech have been learnt only by linguists, but also, their cultural concepts are important in sociolinguistics. So, the speech etiquette is one of the major factors in relationships between the countries, nations. Although speech etiquette had been an event since ancient times, learning process was started late – in the middle of XX century. East, in particular, the attention to this matter was given from the twenties of the last century in East, especially, in Uzbek linguistics, and from the fifties of XX century in West linguistics. "Speech etiquette" - "Politeness" was started to use from the sixties of the last century in West linguistics.

Consequently, politeness indicates that the speaker uses an appropriate language according to the context and to the hearer's needs. Accordingly, we study the most famous theories of politeness that formulate different principles and rules for politeness strategies.

Grice's cooperative principle and maxims. Grice's interpretation of linguistic politeness is embodied in his Cooperative Principle. The CP is based on the assumption that speakers aim to communicate in a maximally efficient way. The CP requires that a speaker must 'make your contribution such as is required, at the stage

at which it occurs, by the accepted purpose or direction of the talk exchange in which you are engaged. Grice also proposed four maxims of conversation: quality, relation, manner and quantity. Respectively, the maxims 'specify what participants have to do in order to converse in a maximally efficient, rational, co-operative way: they should speak sincerely, relevantly and clearly, while providing sufficient information. Leech's politeness principle. Leech proposed the Politeness Principle (PP) to uphold the CP when Grice's maxims of conversation are flouted. The role of the PP is 'to maintain the social equilibrium and the friendly relations which enable us to assume that our interlocutors are being cooperative in the first place. Vivaly, the PP plays a role in a speaker's choice of appropriate expression of his communicative intention. He claims that the CP and PP interact in the interpretation of indirectness and both these principles are required to account for pragmatic interpretations.

Brown and Levinson's politeness theory. Goffman defined the sociological concept of 'face' as 'the positive social value a person effectively claims for himself. Given this definition, Brown and Levinson claim that face 'must be constantly attended to in interaction'. Contrary to Grice's CP but similar to Leech's approach, Brown and Levinson posit that instances in which Grice's maxims are flouted can be explained by the fact that the speaker is actually attempting to 'ensure politeness'. Brown and Levinson's theory distinguish positive and negative face and, hence, positive politeness and negative politeness. Negative face denotes 'the want of "every competent adult member" that his action be unimpeded by others' and positive face refers to 'the want of every member that his wants be desirable to at least some others'. Essentially, 'to maintain face is to fit in'. Brown and Levinson posit that some speech acts are inherently face threatening acts (FTAs). They consider requests to be an example of a FTA as they threaten the hearer's negative face because of the imposition involved. Similar to Leech in attempting to account for cross-cultural politeness, Brown and Levinson posit that a speaker's choice of politeness strategy in performing a FTA is predicated on social distance, power distance and absolute ranking of impositions of the culture.

'Traditionally, we are more likely to be aware of negative politeness in conversations where there is a clear difference in factors such as power relations. Senowarsito finds that the speech act can be classified as polite if the speech doesn't consist of any speakers' force, gives the chance to the speaker to do something, and provides comfort to the hearer. The various theories of politeness attempt to explicate directness of utterances. While these theories overlap or complement one another, debate remains as to the universality of pragmatics norms the interaction. In a



conclusion, we can say that Politeness has an essential role in Uzbek and English society in particular linguistic forms when people use it in a suitable way in their utterances for different social categories.

The relation between politeness, gender and language is not just about the words used to describe men and women but also how words are used and to what ends. When it comes to the matter of language use, the difference between the sexes is hardly a matter of dispute.

The positive face is the wish of every member for his/her wants to be desirable to at least some others. It should be the interest of all participants in a conversation to enable each other to save their face, minimizing face-threatening acts. As Watts describes it “politeness strategies will therefore be those which aim at supporting or enhancing the addressee’s positive face (positive politeness) and at avoiding transgression of the addressee’s freedom of action and freedom from imposition (negative face).” “Positive face”, in their definition, is the wish to “be desirable to at least some others”, whereas negative face is the wish to have one’s “actions unimpeded by others”. Based on the belief that people from every culture have similar face needs, Brown and Levinson’s politeness theory claims that most relationships between people are stable and maintained by universal rules in respect of maintaining each other’s face. However, this universal claim about the theory later attracted the greatest criticism. Janney and Arndt state that one of the key concepts of Brown and Levinson is face but “the notion that politeness is motivated by the desire to maintain face is problematical for many scholars”. Brown and Levinson’s politeness theory is based on the presupposition that “certain kinds of acts intrinsically threaten face”. However, this universal claim about the theory later attracted the greatest criticism. Janney and Arndt state that one of the key concepts of Brown and Levinson is face but “the notion that politeness is motivated by the desire to maintain face is problematical for many scholars”. Brown and Levinson’s politeness theory is based on the presupposition that “certain kinds of acts intrinsically threaten face”. Brown and Levinson argue that not only „face,” but also the strategies of face redress, are universal. They further claim that the underlying rational, motivational, and functional foundations of politeness are assumed to be, to some extent, universal, and are assumed to influence, and be reflected by, speech in many different languages and cultures.

Aims at summarizing the interactions from the above mentioned, we may say that the theory and approach of politeness is a widespread, applicable and pragmatic phenomenon, namely a type of communicative conduct seen in man's languages and

human society. Politeness drew the attention and interest of a lot of researchers into conducting researches and papers about it since the years of nineteen seventies, and carries on to be a main focus for research in fields and domains related to social interaction. Studying the phenomena of politeness may give an insight into extensively conflicting issues out of widely different interests.

### **CONCLUSION**

The various theories of politeness attempt to explicate directness of utterances. Principle could be applied to the classroom context and could bring another stratum of data to the current research. It is also quite crucial to note that in all four lessons the students were adults and quite respectable learners, usually with a university degree, and therefore politeness had an appropriate place. It would be interesting to compare these results with lessons involving young learners.

### **REFERENCES**

1. Brown, HD (2000). *Principles of language learning and teaching*. New Jersey: Prentice-Hall, Inc.
2. Fraser (1990) (“Perspective on Politeness.”) *Journal of Pragmatics* 1, 2190-236.
3. Leech, GN (1983). *Principles of Pragmatics*. London and New York: Longman.
4. Brown P., Levinson S. *Politeness: Some universals in language Use*. - Cambridge: CUP, 1987.
5. Muminova Aziza Arslonovna. *Uzbek Speech Etiquette: 'You' Expressing Politeness and Affection*. (Uzbek Rechevoy Etiquette : Bulletin of the University of Rossiyskogo Druzhba narodov .
6. Hudonazarov I. *Sociolinguistics*. Karshi 2008.
7. Husanov, Gulomov. *Culture of communication*. Uzbekistan State National University. 2009
8. <https://prezi.com/m/hs1zhrhqewvc/british-politeness/> British Politeness

## **ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ПРИ ПОЛУЧЕНИЕ МАГНЕЗИАЛЬНЫХ ВЯЖУЩИХ ИЗ ДОЛОМИТОВ ШОРСУ**

**доц. Кодирова Д.Т.  
стр.преп. Омонова М.С.,  
стр.преп. Тожимаматова М.Ё.,  
асс. Убайдуллаева С. Б.**  
Ферганский политехнический институт  
кафедра «Химической технологии»

### **АННОТАЦИЯ**

*В результате систематических исследований реакций терморазложения карбонатов магния и кальция, гидроксида и гидроксосолей магния, гидратации оксидов магния и кальция, осаждения гидроксида магния аммиаком из растворов нитрата и сульфата магния, взаимодействия оксида и гидроксида магния с растворами солей, хлорида калия с серной кислотой с образованием гидросульфата калия разработаны физико-химические основы переработки нетрадиционного сырья (доломитов и доломитизированных магнезитов месторождения Шорсу) на чистый оксид и другие соединения магния, что позволило существенно расширить сырьевую базу производства соединений магния и решить важную народно-хозяйственную проблему.*

**Ключевые слова:** *вяжущие вещества, гидратация, обжиг, магнезит.*

## **PHYSICO-CHEMICAL PROCESSES IN OBTAINING MAGNESIAN BINDERS FROM SHORSU DOLOMITES**

**Associate Professor Kodirova D.T.,  
senior teacher Tozhimamatova M. o.,  
senior teacher M.S.Omonova,  
